**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

# “MA’NAVIY MEROSDA VORISLIK VA UNING XXI ASR TA’LIM-TARBIYASIDAGI O‘RNI”

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman**

# MATERIALLARI

**(2025-yil 29-may)**

**SAMARQAND-2025**

**“Ma’naviy merosda vorislik va uning XXI asr ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Samarqand: SamISI nashri, 2025. - 400 b.

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman globallashuv sharoitida ta’lim-tarbiyani modernizatsiyalash jarayonida milliy o‘zlik va tarixiy-ma’naviy merosni saqlash masalalarini muhokama qilishga qaratilgan.

Anjumanda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy, falsafiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini hozirgi zamon ta’lim tizimiga integratsiya qilish yo‘llari, innovatsion yondashuv va modellar orqali ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari yoritiladi. Xususan, jadidlarning ilg‘or g‘oyalari va ularning hozirgi ta’lim tizimidagi o‘rni qayta tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Uchinchi Renessans g‘oyasining metodologik asoslari, ma’naviy-ma’rifiy vorislik attraktorlari hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga doir falsafiy va pedagogik yondashuvlar muhokama etiladi. Anjumanda ma’naviy tiklanish va ta’lim-tarbiyada uzviylik tamoyilini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy g‘oyalarni ilgari suradi.

Mazkur to‘plamda jamlangan ilmiy materiallar oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish va ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

**TASHKILIY QO‘MITA:**

Po‘latov M.E. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aslanova D.H. – SamISI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Azizqulov A.A. – SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Mas’ul muharrirlar:**

Azizqulov A.A. SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Karimov S.K.. SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori

Kushakov Sh.S. SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori

Ro‘zimuradov S.M. SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD)

Alimov A.N. SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa doktori (PhD)

Haqqulov N.Q. SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa doktori (PhD)

O‘razov Sh.Z. SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

*Kompyuterda sahifalovchilar:* Ro‘zimuradov S.M., Haqqulov N.Q.

***Ushbu to‘plam mualliflarning qo‘lyozmalari asosida o‘zgartirishsiz nashrga tayyorlandi va chop etildi. Konferensiyasi materiallaridagi ma’lumotlar uchun mualliflar javobgardirlar.***

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025

# KIRISH SO‘ZI

## AJDODLAR ILMIY MEROSI – MILLIY TARBIYANING ASOSI

**Po‘latov Muhiddin Egamberdiyevich –**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yangi O‘zbekistondagi ta’lim tizimida yoshlarimizni ma’naviy tahdidlar va axborot xurujidan himoya qilish hamda ularni milliy ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ma’naviy merosimiz alohida ahamiyat kasb etadi. Ikki Uyg‘onish davrining beshigi bo‘lgan zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan boy ilmiy-ma’naviy merosi bugungi kunda ma’naviy zamin bo‘lib xizmat qilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek “Bu borada ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki, ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyais bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”[1]. Darhaqiqat ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ulkan ma’naviy meros ming yildan buyon insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda.

Hozirgi murakkab va tez o‘zgarib borayotgan globallashuv davrida ta’lim-tarbiya tizimi oldida yangi vazifalar va talablar paydo bo‘lmoqda. Ushbu sharoitda ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish, uning yutuqlarini uzluksiz ta’lim tizimiga samarali tadbiq etish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Buning uchun nafaqat ajdodlarimizdan qolgan boy ilmiy, tarixiy-madaniy boyliklarimizga ehtirom bilan yondashish, balki ularning zamonaviy tahlillari asosida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mutaxassis olimlar, tadqiqotchilar hamda soha vakillari tomonidan ma’naviy merosni chuqur tadqiq etish, uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi rolini oshirish bo‘yicha mukammal izlanishlar, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Ayni paytda, bunday izlanishlar nafaqat yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, balki ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Zero, ma’naviy merosga tayanib qurilayotgan ta’lim tizimi kelajak avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib shakllantirishning muhim kafolatlaridan biridir.

Shu ma’noda, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi tashabbusi bilan tashkil etilgan “Ma’naviy merosda vorislik va uning XXI asr ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani hozirgi

[1] Мирзиёев Ш.М.Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон –Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2024. -262 бет

murakkab, globallashuv sharoitida yoshlarning g‘oyaviy-mafkuraviy savodxonligini oshirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlari, shuningdek ularda g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetni tarbiyalashda ma’naviy merosning ahamiyatini atroflicha tadqiq etish, mazkur masalalarga tadqiqotchi va murabbiy-ustozlar diqqatini yana bir bor jalb etish, muammoga oid ilmiy izlanishlarni yangicha yondashuv asosida shakllantirish borasidagi yetakchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy-amaliy anjuman ishida mamlakatimizning barcha oliy ta’lim muassasalaridan sohaga oid ilmiy maqola va tezislar taqdim etilgan. Bu esa yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va izlanuvchilarning sohaviy masalalarga nisbatan jiddiy yondashuvi, ularning ilmiy faolligi va izlanishga bo‘lgan qiziqishining yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi.

Taqdim etilgan ilmiy ishlar anjuman doirasidagi seksiya yig‘ilishlarida keng muhokama etilib, ular asosida sohaning kelgusi rivoji uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu kabi anjumanlar milliy ilmiy fikr taraqqiyoti, ta’lim sifatini oshirish hamda ilmiy-innovasion salohiyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bugungi ilmiy anjuman ishiga muvaffaqiyat tilar ekanman, mazkur tadbirda ilgari suriladigan ilmiy-nazariy xulosalar hamda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan hozirgi globallashuv davrida ma’naviy merosning o‘rni va ahamiyatini yana bir bor teran anglash, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish borasida targ‘ibot va tashviqot ishlarida nazariy va metodologik manba bo‘lib xizmat qilishiga ishonaman.

Konferensiya ishtirokchilariga muvaffaqiyatlar tilagan holda, sizlarga ilmiy izlanishlaringizda ulkan yutuqlar, yangi kashfiyotlar va ezgu maqsadlaringiz yo‘lida omad tilayman.

# I. SHO‘BA GLOBALLASHUV KONTEKSTIDA TA’LIM TARBIYANI MODERNIZATSIYALASHTIRISH VA UNDA MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA’NAVIY QADRIYATLARIMIZGA VORISLIKNI SAQLAB QOLISHDA TA’LIM VA TARBIYANING O‘RNI

**Mamayudnus Qarshibayevich Pardayev**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, i.f.d.

**Annotasiya.** Maqolada globallashuv sharoitida ma’naviy qadriyatlarimizga vorislikni saqlab qolishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni tadqiq qilingan. Bunda globallashuv jarayonining mazmuniga, bunday sharoitda milliy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish masalalariga ham ahamyai berilgan. Bunga erishish uchun ushbu qadriyatlarni meros sifatida baholat, uning merosxo‘rlari kimlar va bularga vorislik masalalari ham qisqa yoritilgan. Shuningdek, ma’naviy qadriyatlar va milliy qadriyatlarga vorislikni saqlashda ta’lim va tarbiyaning rolishi oshirishga qaratilgan aypim tavsiyalar ham berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Globallashuv, qadriyatlar, meros, merosxo‘rlik, vorislik, ma’naviy qadriyatlar, milliy qadriyatlar vorislik, vorislikni saqlash, ta’lim, tarbiya.

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonida “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash”[2] masalasi qo‘yilgan. Bunda, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash. Maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish. Ilmiy va sosiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish”[3] ko‘zda tutilgan. Ko‘rinib turibdiki, bugungi globallashuv sharoitida ma’naviy qadriyatlarimizga vorislikni saqlab qolgan holda ta’lim va tarbiyani rivojlantirish masalasi o‘ta dozarb hisoblanadi. Shu tufayli ushbu mavzu dolzarb masalalarning yechimiga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida turli metodologik yo‘nalishlardan, xususan, induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez, mantiqiy tahlil, kreativ yondoshuv kabi metodologik yondoshuvlardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar**. Hozirgi sharoitda jahon miqyosida eng ko‘zga tashlanadigan jarayon globallashuv jarayoni hisoblanadi. **Globallashuv** O‘zbek

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги, «Ўзбекистон — 2030» стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сонли фармони. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон.
[3] Ўша жойда.

tldining izohli lug‘atida quyidagicha talqin qilingan. Ushbu manbada, “**Globallashuv** jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o‘zaro yaqinlashuvi, birlashuvi; voqyea-hodisalarning bir mamlakt doirasidan chiqib umuminsoniy miqyosga ega bo‘lishi, butun yer sharini qamrab olishi”[4], deb izoh berilgan. Oddiy til bilaan aytganda globallashuv deganda hammaning bir-biriga o‘xshab, bir-biridan ibrat olib yashash ko‘nikmasini tashkil qilish orqali shakllantirish tushuniladi. Bunda texnikani, texnologiyani, valyuta kabi moddiyat bilan bog‘liq hodisa va jarayonlarni birxillashtirish mumkin.

Shunday sharoitda ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish o‘ta muhimdir. Ma’naviy qadriyat deganda odamlarning ichki insoniy olamining, ruhiyatiy dunyosining odat tusiga kirib qolgan kechinma va qarashlaridan iboratdir. Bular insonning ahloqiy odablarida, ezgulik ruhiyatini aks etadi. Ma’naviy qadriyatlarni xalqning an’analarida, diniy e’tiqodida, insonparvarlik, mehr-shafqat, adolat, Vatanni muhofaza qilish kabi odat tarziga kirib qolgan noyod urf-odatlarni o‘z ichiga ol yashash tarzida ko‘rish mumkin. Bular insonning shaxs sifatida qadrlanishi, ruhiy va ma’naviy kamolotiga asos bo‘lib, jamiyatimizda madaniyat, ijtimoiy odob-axloqning darajasini ifodalaydi.

Lekin har bir millatning **milliy qadriyatlarini birxillashtirib bir xil ma’naviy qadriyatlarni shakllantirib bo‘lmaydi**. Har bir millatning ma’naviy ziga xos va mos holda saqlanib qolishi lozim. Bu o‘ziga xoslik o‘sha millatning milliy qadriyatlarini tashkil qiladi. Buni to‘liq anglash uchun qadriyat so‘zini anglab olish lozimdir.

“**Qadriyat** [*arab tilidan olingan bo‘lib*, qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi]” Voqyelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, mas., erkinlik, tinchlik, adolat, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma’naviy boyliklar va b. qadriyat hisoblanadi. *Butun bir millatning qadriyatlari toptalsa, yo‘qola boshlasa, bu o‘sha xalqning fojiasi emasmi? Gazetadan*[5]. Har bir millat o‘zining o‘ziga xos bo‘lgan milliy qadriyatlariga ega bo‘lishi lozim. Aynan shu qadriyatlar millatning millatligini, uning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib turadi. Zero, **milliy qadriyati bo‘lmagan millatning qadri bo‘lmaydi.**

**Milliy qadriyat** deganda, har bir mitllatning o‘zig xos yashash tarzi bilan bog‘liq ma’naviy urf odatlari, shu millatga xos bo‘lgan madaniyati, moddiyati, axloqi kabi ne’matlari tushuniladi. Jumladan, O‘zbek milliy qadriyatlariga bitta misol. Ma’naviy qadriyatlariga “Keksalarga ehtirom, yoshlarga e’tibor” bo‘lsa, moddiy qadriyatlariga milliy kiyim sifatida do‘ppi, to‘n kiyib yurishlik kabilarni misol keltirish mumkin.

Milliy qadriyatlarimiz haqida ham bir qancha olimlar shug‘ullanib kelmoqdalar. Jumladan, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti direktori,

---

[4] Ўзбек тлдининг изоҳли луғати. 1-жилд . – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 507 бет.

[5]Ўзбек тлдининг изоҳли луғати.5-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 207-208 бетлар

iqtisodiyot fanlari doktori Umid Obidxo‘jayev ushbu qadriyatlar ruyxatiga quyidagilarni taklif qilmoqda:

“1. Ota-onaga ehtirom
2. Tozalik
3. Harakatda baraka
4. O‘zbek tili
5. Diniy bag‘rikenglik
6. So‘z erkinligi
7. Lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat)
8. Yelkadoshlik
9. Mehmondo‘stlik
10. Rozi-rizolik”[6].

Ushbu ro‘yxat milliy qadriyatlarimizni to‘liq qamrab olgan emas. Bularga qo‘shimcha yana quyidagilarni iritish mumkin (1-rasm).




**1-rasm. Milliy qadriyatlarimizning ayrim qismlari**

Har bir millatda milliy qadriyatlar asosida **madaniy qadriyatlar** ham shakllanadi. Bu millatning global jamiyatdagi o‘ziga xosligini bildirib taradigan omillardan biridir. Millat yashab qolishi uchun milliy va madaniy qadriyatlarga vorislikni saqlab qolishi ham muhim. Vorislik tushunchasiga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, O‘zbek tilining izhli lug‘atida “**Vorislik** vafot etgan shaxs (meros qoldiruvchi) huquq va majburiyatldarining o‘z merosxo‘riga o‘tishi”[7]. **Merosxo‘rga o‘tishi deganda**, oldingi avlodning butun moddiy va ma’naviy boyligi navbatdagi avlodga o‘tishi tushuniladi. Buni to‘g‘ri anglashimiz uchun meros so‘zining ma’nosiga ham e’tiboni qaratish maqsadga muvofiq.

**“Meros** *arab tilidan olingan bo‘lib,* vorislarga qoladigan yoki qolgan mulk. 1.Marhumdan vorisga qoladigan mulk. *Otadan qolgan meros*. 2. Mol-mulk, huquq

[6] Умид Обидхўжаев https://uzdaily.uz/uzc/milliy-qadriyatlar-haqida/
[7] Ўзбек тлдининг изоҳли луғати. 1-жилд . – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 468 бет.

va majburiyatlar egasi vafot etishi bilan ularning boshqa shaxs ixtiyoriga o‘tishi. 3. O‘tganlardan qolgan, o‘tgan narsa, odat va sh.k. *Hujayramning har bo‘lagida ajdodlardan qolgan qonim bor. (A.Muxtor).* 4. Ajdodlardan avlodlarga qolgan ilmiy, adabiy, madaniy boylik”[8]. Har bir avlodning muhim vazifalaridan biri otadan qolgan merosni asrab-avaylab, navbatdagi avlodga qoldirishdan iborat.

Har bir avlodning o‘ziga xos vazifasi ma’naviy qadriyatlarimizga **vorislikni saqlab qolishda** ta’lim va tarbiyaning o‘rni hamda ahamiyatini to‘g‘ri tushuna bilishda. Buni to‘g‘ri anglash uchun ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlagan holda insonni o‘qitish bilan bog‘liqdir. O‘qish jarayonida u ta’lim va bir vaqtning o‘zida nazariy va amaliy jihatdan tarbiyalanadi ham. Bu inson komoloti uchun beqiyosdir.

Ushbu murakkab jarayonda ta’lim va tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni bor. “**Ta’lim** [*arab tilidan olingan bo‘lib*, o‘rgatish, o‘qitish, ilm berish; ma’lumot]” 1. Bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashningtasosiy vositasi. 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma’lumotlar va ko‘nikmalar majmuasi; bilim. 3. Tarbiya, odob-axloq. 4. Ko‘rsatma yo‘l-yo‘riq o‘rgatuv”[9]. Ta’lim bilan tarbiya hamisha birga olib borilishi an’anagi kirib qolgan. Ushbu tushunchani O‘zbek tldining izohli lug‘atida quyidagicha talqin qilingan “**Ta’lim-tarbiya** Ta’lim va tarbiyaga oid ishlar, ta’lim v tarbiya; pedagogika“[10]. Degan izoh berilgan. Agar tarbiyaga ahamiyat beriladigan bo‘lsa, bu ham O‘zbek tldining izohli lug‘atida quyidagicha talqin qilingan “**Tarbiya** [bu ham arab tilidan olingan bo‘lib rivojlantirish, parvarish qilish, o‘stirish, o‘rgatish; ilm berish ma’noloarini anlatadi]. 1.Ta’lim, axloq-odab va sh.k. ni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish. 2. Insonda ish-hunar, odob-axloq va sh.k. ni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan ish-am allar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o‘zi”[11].

**Ilmiy-amaliy tavsiyalar**. Milliy va madaniy qadriyatlarimizni vorislik qilgan holda saqlab qolish uchun quyidagi yo‘nalishlarda harakat qilish lozim, deb hisoblaymiz:

**Birinchidan**, ta’lim jarayonida milliy va madaniy qadriyatlarni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish, ularni ma’rifat bilan o‘rganishga rag‘batlantirish orqali ongiga singdirishni taqozo qiladi. Maktabgacha ta’lim dargohlarida, maktablarda, texnikumlarda va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim bilan birgalikda milliy an’ana va madaniy meroslarga asoslangan holda tarbiya jarayonini singdirish lozim.

---

[8] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 580-581 бетлар.

[9] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.5-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 27-28 бетлар

[10] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 28 бет.

[11] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 678 бет.

**Ikkinchidan**, tadbirlarda, milliy bayramlar, festivallar, boshqa an’anaviy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni namoyish qilish va ularni yoshlar va keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlab, rivojlantirib borish.

**Uchinchidan**, milliy an’analarga e’tiborni yanada kuchaytirish, milliy tariximiz va madaniyatimizga oid hujjatlar va an’analarni tiklash bilan birga ularga tegishli dalillarni keng yoritish va arxivlashtirish orqali abadiylashtirib borishni ham yo‘lga qo‘yishni ta’minlash lozim.

**To‘rtnchidan,** millatimizga xos bo‘lgan milliy hunarmandchilik, an’anaviy san’atlar, mi lliy o‘yinlar va mashhur madaniy obyektlarni saqlab qolish va rivojlantirish uchun turli grantlar, loyihalarni e’lon qilish orqali mazkur sohani maddiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni ham yo‘lga qo‘yish maq sadga muvofiq.

**Beshinchidan,** mazkur sohani rivojlantirish uchun boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, madaniy almashinuvlar, forumlar va seminarlar o‘tkazish orqali o‘z madaniy qimatlarimizni keng ommaga yetkazish va ularning afzalliklarini ilgari surish ham maqsadga muvofiqdir.

**Oltinchidan, o**ilaviy va jamoaviy maqomda ham milliy va madaniy qadriyatlarni qadirlashni o‘rgatish lozim. Buning uchun oilada va mahallalarda ushbu qadriyatlarni saqlash, yangi avlodlarga asl holida o‘tkazish va ularning ijtimoiy hayotida keng foydalanishga va madaniy-ma’naviy hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish ham o‘ta zarur choralardan biridir.

Xulosa qilib atganda, ushbu yo‘llar orqali madaniy qadriyatlarimizga vorislikni har tomonlama saqlab qolish mumkin bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida milliy qadriyatlarimizni ifoda etuvchi turli milliy urf-odatlar, bayramlar va an’analarimizga hurmatni asrlar davomida saqlashga xizmat qiladi.

## ТРЕНДЫ НИГИТОЛОГИЧЕСКОЙ РЕФЛЕКСИИ В СОВРЕМЕННОМ ФИЛОСОФСКОМ ДИСКУРСЕ
### (от онтологии к постонтологии)

**Кушаков Шухрат Салиевич,**
доктор философских наук, профессор
кафедры социальных наук Самаркандского института экономики и сервиса

**Аннотация**: статья посвящена рассмотрению тренда нигитологической рефлексии в современном философском дискурсе,выясняется социо-культурные и технологические условия и предпосылки формирования постнеклассического меонизма (нигитологии), излагается основные положения нигитологии, тенденции трансформации онтологии в постонтологию, подвергается критическому анализу нигитологические интерпретации концептов небытия и ничто, их аппликации в различные сферы науки и культуры.

**Ключевые слова:** бытие, небытие, меонизм, абсолютное ничто, нигитология, постонтология

В новом тысячилетии человечество вступило в постнеклассический мир социума, культуры, науки и технологии. Происходит переход от однополярного мироустройства к многополярному миру разнообразных социально-экономических и политических центров притяжений и консолидаций, от традиционной экономики к цифро-виртуальной экономике, от индустриально-промышленного производства к IT-технологиям, основанной на максимальной компьютеризации всего цикла производства, от аналогово-физических форм представления продуктов к цифровизации и виртуализации товаров и услуг. Все это, в качестве глобального социо-культурного контекста оказывает большое влияние на мышление, восприятие и понимание человеком окружающего мира и самого себя. Этим вызвана глубочайшая трансформация духовности, стилей мышления, когнитивных ориентаций и предпочтений. Такая же трансформация происходит в характере, содержании и направленности современного философского дискурса.

Интенция философского дискурса все больше направляется в сторону пересмотра семантики категориальных оснований онто/нигитологической проблематики соотношения бытия и небытия, нечто и ничто, отказа от их классических интерпретаций. Исследователи отмечают, что такое положение обусловлено целым рядом факторов и предпосылок как социо-культурного, так и технологического характера. Одним из них, считает В.А. Кутырев, является обострение между естественным и искусственным и формирование на Земле “постчеловеческой” реальности [1, 51-59]. Эту реальность постмодернисты называют гиперреальностью, заполненной знаками, битами (информации), симулякрами, анимационными картинками и т.д.

Только в такой реальности из комбинации цифров и кодов могут появится криптовалюты и биткоины, то есть, как бы из ничего возникают виртуальные деньги, которые можно пустить в обращение. Еще одной предпосылкой появления парадигмы небытия исследователи считают все большее доминирование исчисляющее-сортировочного мышления, которое имеет обрывы, пропуски, удаление, то, что ведет к небытию, ничто. Да и сами ученые-естествоиспытатели иногда дают повод для появления нигитолологических дискурсов. Так, некоторые ученые полагают, что можно быть атеистом, считая тем не менее, что Вселенная возникает из Ничего[2, 111].

Представления о небытии сформировались еще с древнейших времен. Однако, предметом специального философского дискурса проблема небытия становится в неклассической философии (С.Къеркегор, А.Шопенгауер, Ф.Ницше, Н.Бердяев, М.Хайдеггер, Ж.П.Сартр и др.). Трансформация идеи небытия, меонизма в нигитологию происходит в наше время. Первый шаг в этом направлении сделал российский философ А.Н. Чанышев в своей работе “Трактат о небытии”, написанной им в 1962 году. Следует сказать, что этот трактат является доктринальным изложением идеи небытия, где ничто интерпретируется как единственный центр, источник, генератор бытия. Стиль же мышления и изложения является метафорическим. Так, он пишет:

“Небытие гонится за бытием по пятам... Бытие только тень небытия, его изнанка. Оно (бытие) как сверкающая всеми радугами пленка нефти на поверхности океана, океана небытия [3, 159].

Современный японский исследователь Томонобу Имамачи, в целях обозначения сферы философии небытия предложил термин “нигилология” [4, 73-82]. Российский философ В.А.Кутырев вводит, имеющий аналогичный смысл, термин “ нигитология”, означающий учение о небытии [1, 90]. Таким образом, нигитология или учение о ничто приобретает свою когнитивную нишу в просторах философского дискурса и диалога. Уже имеются попытки апробировать идеи нигитологии в культурологии [5], лингвистике [6], антропологии [7] и др. дисциплинах, что говорит об усиливающемся тренде нигитологического дискурса в различных областях науки.

Итак, можно говорить о появлении альтернативного по отношении к онтологии подхода-нигитологии. Последняя, в качестве постонтологического подхода к пониманию бытия и ничто, зиждется на отрицание фундаментальной ценности онтологии. Философы высказывают опасение по поводу деонтологизации сознания. Это видно из идей и положений, развиваемые последователями нигитологии. Так, достаточно радикальные нигитологические идеи выдвигается А.И.Селивановым:” Абсолютное ничто есть единомоментное реждение, жизнь и гибель всякого бытия, постоянная жажда его поглощения и возвращения в ничто [8, 36-37]. Из этого высказывания следует, что абсолютное ничто является началом и концом всякого бытия, небытия, недобытия и т.д. На чем же основывается идея креативного начала у абсолютного ничто? В качестве довода утверждается мысль о творческой силе самого существования. Существует ничто, в недрах которого аккумулирована виртуальная творческая сила, что самим фактом своего существования ничто имеет потенцию генерировать нечто, бытие. Заметим, однако, что это всего лишь виртуальное рассуждение философа-нигитолога. Нам представляется, что существование как факт, сторона реальности не имеет свою энергетику, а значит, отсутствует сила, тренд к движению и изменению. Чтобы вывести нечто из абстрактного тождества бытия и ничто, поскольку это тождество не в силах породить что-либо, Гегелю пришлось ввести понятие “становление”. Именно становление, то есть процесс трансформации идеи послужил началом развития духа и его инобытия-природы.

В свою очередь, уход бытия в небытие не является, как бы входом в лоно чистого бытия. По аналогии с законом сохранения материи и движения можно сказать, что уходящее в небытие бытие всегда что-то оставляет: элементы, следы, знаки, информацию, потенцию, виртуальность и т. д.

В заключении отметим, что появление тренда нигитологической рефлексии в современном философском дискурсе отнюдь не является случайной когнитологической бифуркацией, хотя и это не исключено, но все же обусловлено целым рядом факторов, к числу которых можно отнести-феномен компьютерной сюрреальности, потеря человеком своей идентичности, разрывы, пропуски и пустоты в виртуализирующимся

мышлении современного человека и др. Отсюда следует вывод, что тренды нигитологической рефлексии указывает на признаки наступающей эпохи постонтологического мышления, замены онтологии на нигитологию.

**Использованная литература:**

1.Кутырев В.А. Философия постмодернизма. Нижний Новгород, 2006. - 93 с.

2.Захаров В.Д. Метафизика в науках о природе//Вопросы философии. 1999. № 3. -с.111.

3.Чанышев А.Н. Трактат о небытии//Вопросы философии. 1990.№10. - с.159.

4.Имамачи Т. Кризис морали и проблемы метатехники//Вопросы философии. 1995. №3. -с. 73-82.

5.Саенко Н.Р. Нигитология культуры. Волгоград:ВГПУ “Перемена”, 2010. -218 с.

6.Гураль С.К. и др. Выразить невыразимое: возможности синергетических усилий лингвистики и филосософии// https://cyberleninka.ru › article › vyrazit-nevyrazimoe-v...

7.Шугуров М.В. Соотношение смысла и небытия в антропологической онтогерменевтике: культурно-философские проекции// Философия и культура. 2013. №10. -с.1353-1367.

8.Селиванов А.И. Ничто и нечто//Бытие. Коллективная монография. Уфа, 2001.-с.36-37.

## MA’NAVIY QADRIYATLARNI TARG‘IB QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

**Akbar Saitkasimov,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va media vositalari orqali yoshlar ongiga ijobiy g‘oyalarni singdirish usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash yo‘llari ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ma’naviy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, targ‘ibot, yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion yondashuv.

O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotida xalqimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, hurmat va ehtirom tuyg‘ularini shakllantirish, ularni asrab-avaylashga nisbatan sa’y-harakatlarini yuksaltirish muhim ijtimoiy-ma’naviy jarayon hisoblanadi. Qadriyatlarni asrash jarayoni vatanparvarlik, davlatlararo, millatlararo do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qilishga qodir, ma’naviyatni chuqur o‘zlashtirgan kishilar hamda yoshlarga bog‘liq. Milliy yuksalish sharoitida

qadriyatlarni targ‘ib etish o‘ziga xos ahamiyatga ega ma’naviy-ma’rifiy jarayon hisoblanadi. Shu yo‘nalishdagi ma’naviy tarbiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqish jamiyat ma’naviy yangilanishining strategik asoslaridan hisoblanadi.

Jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash, ma’naviy va madaniy merosni muhofaza qilish va ularni keng xalqimiz ichida keng targ‘ib etish ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Qadriyatlar va madaniy merosni milliy-ma’naviy boylik sifatida asrab-avaylash, ularni avlodlarga bekam-u ko‘st yetkazish borasidagi jarayonlar jamiyat barqarorligini asrashda muhim omillardandir. Biz qadriyatlarni nafaqat avaylash, balki ularning yo‘qolib borayotganlarini qayta tiklash, o‘z holiga keltirish va jahon madaniyat xazinasining bir bo‘lagi sifatida mavjud bo‘lishiga erishishimiz lozim. Mazkur voqelik globallashuv davri zamonaviy tendensiyalari bilan bog‘liq ravishda ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi jarayonlari mavjudligiga ham e’tibor qaratish muhimligini taqozo etadi.

Bu jarayonda yana bir masala muhimki, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tahdid soladigan, ularni yo‘qolib borishiga olib keladigan salbiy omillarning ham oldini olib borishimiz lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda”[12].

Qadriyatlarga hurmat hisini oshirish yoshlar hayoti, tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan ma’naviy xarakterga asos soladi. Shuningdek, yoshlar ma’naviy tarbiyasi milliy qadriyatlarga xos bo‘lgan quyidagi tamoyillarni zamon talablari asosida singdirishni ko‘zda tutadi:

- xalqimiz hayotidagi jamoatchilik an’analariga sodiqlik;
- oila, vatan, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-ko‘y, oqsoqollarga yuksak hurmat;
- millatning ustuvor ruhi hisoblangan ona tiliga muhabbat;
- kattalarga hurmat va kichiklarga izzat;
- mehr-muhabbat, vafo va go‘zallik ramzi - ayolga ehtirom;
- sabr-bardosh, toqatlilik va mehnatsevarlik;
- bag‘rikenglik, bir-biriga o‘zaro yordam va sahovatpeshalik;
- halollik, mehmondo‘stlik, mardlik, adolatlilik va insonparvarlik.

Milliy ma’naviy va madaniy qadriyatlar tizimida madaniy meros muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizda 8210 ta madaniy meros obyektlari ko‘chmas mulk sifatida davlat ro‘yxatiga olingan bo‘lib, shundan 4788 tasi arxeologiya, 2265 tasi arxitektura, 625 tasi monumental san’at asarlari, 530 ta diqqatga sazovor joylardir. Shuningdek, mamlakatimizda ro‘yxatga olinmagan

[12] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси қабул қилинганининг 24- йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. www.press-service.uz.

madaniy meros obyektlari ham anchagina bo‘lib, ularni tezlik bilan davlat reestriga kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki, mazkur obyektlar hozirgi kunda yoki qarovsiz ahvolda yoki tadbirkorlar va fuqarolar tomonidan foydalanib turgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun mazkur obyektlarni o‘z xususiyatini yo‘qotmasdan tezroq ro‘yxatga olish mutasaddi tashkilotlarning dolzarb vazifasi sanaladi. Olimlarning ta’kidlashicha, “Yoshlap zamonaviy madaniy qièfacini shakllantipish uchun madaniy mepocdan foydalanish omillapini atpoflicha èpitish opqali ijtimoiy haètda uchpaydigan calbiy hodicalapni va ulapning oqibatlapini baptapaf etish yo‘llapini aniqlash shaptdip”[13].

Jahonda globallashuv jarayonlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni mavjud bo‘lishiga va uning yashab qolishiga o‘ziga xos tahdidlar mavjudligi ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy usul-vositalar asosida targ‘ibot qilishga qaratilgan faoliyatni muntazam takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Binobarin, jamiyatimiz mamlakatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri ma’naviy islohotlar tizimliligini ta’minlashdagi asosiy omillardan biri bo‘lgan qadriyatlar tizimi asrab qiolish va uni targ‘ib etish masalalarini mazkur jarayonlardan kelib chiqqan holda rivojlantirib borishdan iborat. Shu jihatdan olganda, qadriyatlar tizimini targ‘ibotini shakllantirishga qaratilgan jarayonlarni ta’lim, tarbiya va targ‘ibot usullari orqali olib borish eng maqbul yo‘nalishlardan hisoblanadi. T.Toshmetovning ta’kidlashicha, “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish yangi innovatsion texnologiya asosida olib borilganida, tadbirlarning ketma-ketligi, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar o‘z o‘rnini topadi”[14].

Milliy qadriyatlarni saqlab qolish uchun aholi o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini targ‘ib etish, teatr, festivallar va ommaviy tadbirlarga aholini jalb etish ham muhim omillar hisoblanadi. Ta’limning barcha bosqichlarida, ya’ni bog‘cha, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, oliy ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etadigan va asrab avaylashga xizmat qiladigan madaniy tadbirlarni ko‘proq o‘tkazish kerak. Shuning bilan birgalikda ta’limda multimediya dasturlaridan unumli foydalanish, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda milliy qadriyatlarimiz haqida doimiy videodarslar tashkil etish borish muhimdir.

Madaniy-ma’naviy qadriyatlar targ‘ibotida sinfdan yoki auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarni uyushtirib borish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadbirlarning mazmuni, shakl va usullari, samaradorligi hamda xarakterli xususiyatlarini aniqlab belgilab olish lozim. Talaba va o‘quvchilarning qadriyatlar targ‘iboti asosida ma’naviy madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning mazmun va mohiyatini ishlab chiqishda quyidagilarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

1) ta’limning barcha bosqiyalarida darsdan tashqari o‘tkaziladigan qadriyatlar targ‘iboti asosidagi tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish;

2) tarbiyaviy tadbirlar tizimi, usullari va yo‘nalishlarini aniqlash;

---

[13] Темирова С. Шарифбаев Ҳ. Ёшлар тарбияси ва умуминсоний қадриятлар тушунчасининг мазмун-моҳияти. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 10 | 2022. –Б.353.

[14] Тошметов Т. Ёшлар маънавиятини юксалтиришда тарғибот технологияларининг аҳамияти. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 2 | 2023. –Б. 268.

3) tarbiyaviy tadbir uchun moddiy va ma’naviy shart-sharoit yaratish;

4) tarbiyaviy tadbir uchun madaniy va ma’rifiy manbalar bilan o‘quvchi talabalarni ta’minlash;

5) tarbiyaviy tadbirlar uyushtirishda ota-onalar, jamoatchilik bilan hamkorlik o‘rnatish;

5) talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etishda ularni madaniyat, tarbiya va jamoat muassasalaridan keng foydalanishni uyushtirish;

6) qadimiy an’analar asosida xalqimizning boy ma’naviy merosini o‘quvchi-yoshlar ko‘z o‘ngida gavdalantirishda multimediya vositalaridan keng foydalanish.

Shunday ekan, bu jarayon o‘ta aniq maqsad va vazifalarni belgilash asosida amalga oshirilmog‘i zarur. Mazkur tizim, shuningdek, ma’naviy qadriyatlarning ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘qitilishi bilan birgalikda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uygunlashuvi ham demakdir. Shuningdek, yoshlarning madaniy merosga munosabatini doimiy ravishda diagnostik o‘rganib borish, uni mazmunan boyitishga qaratilgan istiqboldagi harakatlarni amalga oshirish ham lozim bo‘ladi. Bu esa bolalar bog‘chasidan to magistraturagacha bo‘lgan jarayonda amalga oshiriladigan har bir tadbirning aniq natijani kafolatlay olishiga e’tiborni qaratish, maqsadga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish va samaradorligini tahlil qilishni talab etadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ‘iboti tufayli insonlar ma’naviy salohiyati va ma’rifiy faolligi oshadi, ijtimoiy ma’suliyati yuksaladi. Bu haqda olimlarimizning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joiz: “Yetuk, barkamol inson o‘z tarixi, o‘z xalqi, o‘tmishi haqida haqiqatlarni bilib olgan, iymoni butun, xulq-atvori namunali shaxsdir. Shaxs esa jamiyatda ibrat buladigan ishlarni amalga oshirgan, ong-shuuri, to‘g‘ri so‘zi, jonkuyarligi bilan ajralib turgan obro‘-ye’tiborli odamdir. Bunday odam o‘z oilasi, mahallasi, shahri, yurti or-nomusi, farovonligi, shon-shavkati uchun qayg‘uradigan, barcha xayoli, orzu-armonlari shunga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Xalq bunday odamlarni hurmat-yehtirom etadi, ibrat-namuna qilib ko‘rsatadi”[15].

Insonlar o‘rtasida milliy qadriyatlar va madaniy merosni targ‘ib etish muayyan estetik muhitni tashkil etib, ularning falsafiy tafakkurini boyitadi, ma’naviy tafakkuri, ijodiy salohiyatini oshiradi. Bunday ma’rifiy ta’sirlarning samaradorligi sezila boshlanganda inson ma’naviy sog‘lomlik darajasi yuksalib boradi. Qadriyatlar targ‘ibotining inson ijtimoiy-ma’naviy turmushiga nechog‘lik ahamiyat kasb etishi uning o‘z kasbiy faoliyatida, oilaviy muhitida, jamoatchilik orasida insoniy munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Qadriyatlarning asrab qolinishi, ularning inson tafakkur tarzini yuksalishidagi ahamiyatini oshirishning yana bir mazmuni, bu uning jamiyat ma’naviy barqarorligini ta’minlash jarayoni bilan o‘zaro uyg‘unligidir.

[15] Комилов Н., Равшанов Ф. ва бошқ. “Мустақиллик тафаккури, демократик дунёқараш ва миллий менталитет. Т.,”Маънавият”, 2011. –Б. 18.

# O‘ZARO HAMKORLIKDA – SINERGETIK YONDAShUV

**Ochilov Jamshid Abdurashidovich**
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi
Samarqand viloyati mintaqaviy filial direktori,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dosent

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o‘zaro hamkorlikda sinergetik yondashuv zarurligi, sinergetika metodologiyasi barcha sohalarga tadbiq etilishi, amaliyotda keng qo‘llanilishi orqali aniq natijalarga erishish mumkinligi bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinergetika, chiziqli va nochiziqli tafakkur, bifurkasiya nuqtasi, koinot, hamkorlik, tartibli, tartibsizlik, fluktasiya, sistemalar.

Hozirgi paytda dunyoda sinergetika bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar ishlari nihoyatda kengayib bormoqda hamda Sinergetika metodologiyasi barcha fan va fan sohalariga tadbiq etilmoqda, amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Hozir xalqlarni, millatlarni, etnik guruhlarni saqlab qolish muammosi haqiqatdan ham dolzarb muammoga aylanmoqda. Yer yuzida qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi raqobat keskinlashmoqda. Bu xavf-xatarni jamiyat miqyosida anglab yeta boshladik. Ammo keskinliklarni yumshatish uchun nima qilishimiz kerakligi haqidagi savollarga faqat sinergetik tafakkur vositasida javob topishimiz mumkin. Chunki, sinergetik tafakkur murakkablikdagi soddalikni, tartibsizlikdagi tartibni anglashga, xilma-xillikning zaruriy zanjirini topishga, tasodiflarning kelajagini aniqlashga metodologik kalit bo‘lib xizmat qiladi.

Avvalo sinergetika tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak. German Xakin: “Sinergetikani tartibni, o‘z-o‘zini tashkillashni, nochiziqli rivojlanishni, murakkablikni, o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borish jarayonini tadqiq etuvchi fan sifatida talqin etadi”[16]. Bu borada B.O.Turayev esa “Sinergetika – murakkablik, murakkab sistemalarning hamkorlikdagi o‘zini-o‘zi rivojlantirishi haqidagi fandir”[17], deb ta’kidlaydi. Sinergetika olamning ham chiziqli ham nochiziqli manzarasini yaratish uchun kerak. Turlicha g‘oyalarni birlashtirish uchun, turlicha konsepsiyalarni sintez qilish uchun zarurdir. Sinergetika fani bizga juda qudratli falsafiy metodologik qurol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. U mikrodunyodagi kichik zarrachalar o‘rtasida ro‘y berayotgan jarayondagi fluktuasion o‘zgarish butun Koinot miqyosidagi global o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkinligini bashorat qilishga, yoki aksincha Koinotda ro‘y berayotgan xalokatli xodisalardan himoyalanish yo‘llarini kashf etishga imkoniyat yaratadi.

Har bir oddiy va murakkab vaziyatni yechimini aniqlashda insonlar aniq va to‘g‘ri yo‘lni topishga intiladi, buni yechimi esa sinergetik yondashuvdir. Zero, “Insoniyat sinergetik tafakkur uslubi kurtaklaridan qadimdan ozuqa olib, foydalanib keladi, garchi bunday tafakkur tarzi sinergetik tafakkur deb atalmagan bo‘lsada”[18].

[16] Тураев Б.О. ва бошқалар. Синергетика: моҳияти ва қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. –Т: Наврўз, 2017. -Б.11.
[17] Ўша асар -Б.12.
[18] Ўша асар. -Б.8.

Bu borada Qur’oni karimning Moida surasida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, Alloh taolo Qur’oni karimda bunday marhamat qiladi: “Ezgulik va taqvo yo‘lida hamkorlik qilingiz, gunoh va adovat yo‘lida hamkorlik qilmangiz!”[19] (Moida surasi, 2-oyat). Ushbu oyat tafsirida Movardiy: “Alloh taolo yaxshilik yo‘lida hamkorlik qilishni farz qildi va unga taqvoni qo‘shib qo‘ydi, chunki taqvoda Allohning roziligi, yaxshilikda esa odamlarning roziligi bor. Kim Alloh taolo va odamlarning roziligini o‘zida jamlasa, uning saodati to‘liq bo‘lib, inoyati keng tarqalgan bo‘ladi”[20], - deb ta’kidlagan. Insoniyat yaratilgandan to hozirgi vaqtgacha turli-tuman oddiy va murakkab vaziyatlarni o‘z boshidan kechirib kelmoqda. Bu masalalarni yagona yechimini yaxshilik yo‘lida o‘zaro hamkorlik ekanligini tushunib yetmoqda. Hamkorlik nima uchun kerak. U masalaga turlicha nuqtai nazardan, ham chiziqli ham nochiziqli tafakkur bilan qarashlarni umumlashtirish uchun kerak. Oddiy qilib aytganda, insonlar yaxshilik yo‘lida o‘zining oliy maqsadlariga erishishi mumkin yoki aksincha. Oddiy vaziyatlarda o‘zaro hamkorlik zarurdir yoki murakkab vaziyatlarda ham o‘zaro hamkorlik to‘g‘ri aniq yechim bo‘la oladi. Professor B.O.Turayev aytganidek, “Biz bugungi kunda dunyoning tom ma’nodagi murakkabligini nafaqat individual ong miqyosida, balki ijtimoiy miqyosda ham anglab yetdik”[21]. Insoniyat har qanday oddiy va murakkab masalalarga o‘zaro hamkorlik bilan, ya’ni sinergetik yondashuv asosida yechim topishi mumkinligini his qilmoqda. Ya’ni, sinergetik yondashuv asosidagina insoniyat kelajagini asrab qolish, tinchlik va barqarorlikka erishish mumkinligini bugungi davr ko‘rsatib turibdi.

Texnogen sivilizasiya rivojlangan davrda ilm-fan sohalarida ham o‘zaro hamkorlik tizimli yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, tibbiyot sohasi axborot texnologiyalardan foydalangan holda jamiyatga zamonaviy tibbiy xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Buning natijasida turli kasalliklarni oldi olinmoqda va ularni vaqtida davolash choralari ko‘rilmoqda. Sinergetik yondashuv bunga yechim bo‘lmoqda. Ya’ni, sinergetik yondashuv bilan oddiylikda murakkablikni, murakkablikdagi oddiylikni topish mumkin. Bu borada professor B.O.Turayev ta’kidlaganidek, “Real olamda har qanday muammoni yechishning yo‘llari bo‘ladi. Ammo bu yechimlar bifurkasiya nuqtasigacha kutilgan natijani beradi. Bifurkasiya nuqtasidan o‘tgan holatda masalani siz xohlaganday yechishga hech bir usul yordam bera olmaydi. Og‘ir kasal bo‘lgan bemorni u hayot bo‘lsagina turli usullar bilan davolash imkoniyati bor, tuzatish mumkin. Hayot to‘xtagandan keyin esa hech qanday davo usuli natija bermaydi”[22]. Demak, nochizig‘li usuldan foydalanib, oddiylikdagi murrakablikni yoki murakkablikdagi oddiylikni faqat sinergetik yondashuv bilan aniqlik kiritishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda: sinergetika insoniyat bugungi kunda duch kelayotgan global muammolar, ekologik halokatlar, kosmogen, texnogen tahdidlar, xalqaro terrorizm yoki axborotlar urushi deysizmi, xullas, bugungi zamondoshlarimiz duch

---

[19] Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржимон: Абдулазиз Мансур. – Тошкент: “O‘qituvchi” 2020. – Б.106.

[20] https://sammuslim.uz/articles/actual/ozaro-yordam-birodarllik-asosi?print=on

[21] Тураев Б.О.Оддий ва оммабоп синергетика. -Т.: Akademnashr, 2025. – Б.21.

[22] Ўша асар. – Б.30.

kelayotgan barcha murakkab muammolarni yechishda, chigalliklarni bartaraf etishda inson tayanadigan nochiziqli tafakkurning shakllanishiga fundamental asos bo‘ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. [Matn] Tarjimon: Abdulaziz Mansur. – Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU 2020. – 624 bet.
2. Turayev B.O. va boshqalar. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo‘lishi. –T.: Navro‘z, 2017. -360 b.
3. Turayev B.O.Oddiy va ommabop sinergetika. [Tekst]-T.: Akademnashr, 2025. – 168 b.
4. https://sammuslim.uz/articles/actual/ozaro-yordam-birodarllik-asosi?print=on


## AXBOROTLASHTIRISH VA AXBOROT MAYDONIDA YOSHLARNI MA’NAVIY TAHDID VA AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYA QILISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI


**Azizqulov Akram Abduraxmonovich**,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, dosent, fal.f.n.
E-mail: akramproton@gmail.com
**Abduraxmonov Is’haq,**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Urgut filiali “Pedagogika va jismoniy madaniyat”
kafedrasi o‘qituvchisi



**Annotasiya:** Mazkur maqolada global o‘zgarishlar sharoitida yoshlarni ma’naviy tahdidlar va axborot xurujlardan himoya etishda axborot madaniyatining ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada axborot madaniyatining xususiyati haqida mulohazalar ham bayon yetiladi.



**Kalit so‘zlar:** Axborotlashgan jamiyat, yoshlar, ma’naviy tahdid, axborot xurujlari, axborot madaniyati.


Kishilik jamiyati informasion sivilizasiya bosqichida yashayotgan hozirgi murakkab sharoitda barkamol yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb yetmoqda. Axborotlashgan jamiyat o‘z navbatida globallashuv jarayonlarini imkoniyatlarini tezlashtirib yubormoqda. Mamlakatimiz ham jahon ham jamiyati singari axborotlashgan jamiyat bosqichiga qadam qo‘ydi.

Ahborotlashgan jamiyat bosqichi va globallashuv jarayonlari kishilik jamiyati taraqqiyotiga xos bo‘lgan tabiiy-tarixiy jarayon bo‘lib, uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlari ham mavjuddir.

Axborotlashgan jamiyat va globallashuv jarayonlarining salbiy jihatlari ko‘proq ma’naviy tahdidlar hamda axborot xurujlarida namoyon bo‘lmoqda. Bu tahdidlar asosan “Ommaviy madaniyat” ko‘rinishida axloqiy buzuqlikni, behayolikni targ‘ib yetish, shuningdek vahshiylik, tajovuzkorlik, zo‘ravonlikka

rag‘bat uyg‘otadigan axborotlarni tarqatishdan iborat bo‘lmoqda. Bundan tashqari internet tizimidagi diniy yekstremistik va terroristik g‘oyalarni targ‘ib yetuvchi saytlar orqali axborot xurujlari ham axborotlashgan jamiyatdagi ma’naviy tahdidlarning bir ko‘rinishidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek ”Diniy yekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migrasiya, “ommaviy madainyat” kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og‘ir kulfatlar olib kelmoqda, g‘arazli kuchlar hali ongu tafakkuri to‘la shakllanib ulgurmagan bolalarni o‘z ota-onasiga, Vataniga qarshi qo‘yib, ularning hayotiga zomin bo‘lmoqda. Shuning uchun biz ota-onalar, ustoz murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirib, buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat aytganidek, bu dunyo haqiqatan ham kurash maydoniga, sog‘lom tan, o‘tkir aql va yaxshi axloq yesa bu kurashning quroliga aylanib borayotganini chuqur anglab, shu borada jaholatga qarshi ma’rifat asosida ish olib borishimiz zarur”[1;400]. Yoshlarimizni bunday xavfli ma’naviy tahdidlardan saqlashimiz uchun bizning fikrimizga ko‘ra avvalo ularda axborot madaniyatini shakllantirishimiz zarur.

Tadqiqotchilar axborot madaniyati tushunchasinini tasnifini keltirar yekanlar, jamiyatning axborot madaniyati, shaxsning axborot madaniyati va muayyan guruhlar yoki toifadagi axborot iste’molchilarining axborot madaniyati tushunchalarini keltirib o‘tadilar[2;116].

Biz shaxsning axboroti madaniyati xususida mulohazalarimizni bayon yetamiz. Bizningcha, shaxsning axborot madaniyati bu har qanday olingan yoki berilgan, yeshitilgan, ko‘rilgan xabar, ma’lumot yoki axborotni ratsional tarzda, mantiqiy tafakkur asosida obyektiv, tanqidiy tahlil yetish qobiliyati tushuniladi. Ma’lumotni tahlil yetish hamda baholashda milliy ma’naviy qadriyatlar asosida va milliy mentalitet nuqtayi-nazaridan ham yondashishi axborot madaniyatining tarkibiy qismidir.

Shaxs axborot madaniyatining tarkibiy yelementlari quyidagilardan iboratdir: ratsional tafakkur; yetuk nazariy bilim, xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida; hodisa, jarayon yoki voqyelikka tanqidiy yondashish va mantiqiy tahlil yetish qobiliyati; yoshlarda shakllangan tarixiy xotira va milliy g‘urur, milliy ma’naviy qadriyatlarimizdan iftixor tuyg‘usi; har qanday axborotlarni milliy mentalitetimizga xos tarixiy ong negizida tanqidiy tahlil yeta olish qobiliyatidir.

Demak, axborot madaniyati shaxs ma’naviy madaniyatining bir unsuri yekan, u asosan har qanday ma’lumot va axborotlarga ratsional tanqidiy hamda milliy ma’naviy qadriyalar negizida mantiqiy yondashish jarayonidan iboratdir. Axborot madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri, bu ta’lim va tarbiyadir.

Axborot madaniyati bu har qanday olingan yoki berilgan, yeshitilgan, ko‘rilgan xabar, ma’lumot yoki axborotni ratsional tarzda, mantiqiy tafakkur asosida obyektiv, tanqidiy tahlil yetish qobiliyati tushiniladi. Ma’lumotni tahlil etish hamda baholashda milliy ma’naviy qadriyatlar asosida va milliy mentalitet nuqtayi nazaridan ham yondashishi axborot madaniyatining tarkibiy qismidir.

Bizningcha, axborot madaniyatining tarkibiy elementlari quyidagilardan iboratdir:

Ratsional tafakkur;

Yetuk nazariy bilim, xususan ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida;

Hodisa, jarayon yoki voqyelikka tanqidiy yondashish va mantiqiy tahlil yetish qobiliyati;

Yoshlarda tarixiy xotira va milliy g‘urur, milliy ma’naviy qadriyatlarimizdan iftixor tuyg‘usini shakllantirish;

Har qanday axborotlarni milliy mentalitetimizga xos tarixiy ong negizida tanqidiy tahlil eta olish qobiliyatini shakllantirish.

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning obyektiv va subyektiv asos hamda omillari, usullari, vositalari mavjuddir.

Axborot madaniyatini shakllantirishning obyektiv asos hamda omillari inson tafakkurlash qobiliyatining hissiy qabullash, ratsional va noratsional fikrlash mexanizmlaridan iboratdir. Shuningdek, sinergetika nazariyasi ilgari surayotgan nochiziqli tafakkur tarzi ham axborot madaniyatini shakllantirishda obyektiv omillardapn biridir.

Axborot madaniyatini shakllantirishning subyektiv asos hamda omillari mavjud bo‘lib, bular xotira, hayol, hissiy emotsional kechinmalardan iboratdir.

Axborot madaniyatini shakllanishida muhim vositalar va usullar ham mavjud bo‘lib, bularga oila, mahalla ta’lim-tarbiya maskanlari muhim ahamiyat kasb yetadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratish har bir murabbiy va ustozdan mas’uliyat talab etadi. Zero, axborot madaniyati hozirgi murakkab globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetning muhim tarkibiy qismi hamda yoshlarimizni axborot xurujidan himoya qilishning asosiy shartidir.

Axborot madaniyati shaxs ma’naviy madaniyatining bir unsuri bo‘lib, asosan har qanday ma’lumot va axborotlarga ratsional tanqidiy hamda milliy-ma’naviy qadriyalar negnizida mantiqiy yondashish jarayonidir. Axborot madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri, bu ta’lim va tarbiyadir. Axborot madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy fanlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarimizda uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida axborot madaniyati eng avvalo ratsional mantiqiy tafakkur, ilmiy-falsafiy dunyoqarash orqali shakllantirilishi mumkin. Shuningdek, ularda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarga yoki berilgan axborot, ma’lumotlarga ijodiy yondashib, tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini o‘stirish lozim bo‘ladi. Bundan tashqari yoshlarda tarixiy xotira va milliy g‘urur, milliy madaniyatimizdan iftixor tuyg‘usini shakllantirish va yuksaltirishga jiddiy e’tibor qarasak, har qanday axborotlarni milliy mentalitetimizga xos tarixiy ong negizida tanqidiy tahlil eta olish xususiyati vujudga keladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining “oliy ta’lim” bosqichida raqobatchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashda, ularni ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda hamda ularga sog‘lom axborot madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy fanlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar yoshlarda tarixiy xotira va milliy g‘urur, milliy ma’naviy madaniyatimizdan iftixor tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgandir. Shuningdek yoshlarda milliy va diniy bag‘rikenglik tuyg‘usini shakllantirishda, diniy qadriyatlarga ijobiy munosabat va diniy

yekstrimestik va terroristik g‘oyalarga nisbatdan murosasiz munosabatda bo‘lishda ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratish har bir murabbiy va ustozdan mas’uliyat talab etadi. Zero, axborot madaniyati hozirgi murakkab globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetning muhim tarkibiy qismi hamda yoshlarimizni axborot xurujidan himoya qilish va ularda milliy yuksalish g‘oyasini singdirishning asosiy shartidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi // Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.- T.: “O‘zbekiston”, 2018. - B.496.
2. Чумак Е.В. Информационная культура как составляющая инновационной культуры общества. Янки Купали, 2014, 2014.-С. 113-119..
3. Азизкулов А. А. Проблемы формирования информационной культуры молодежи в современном обществе //Инновации в технологии и образовании. - 2015. - С. 194-198.
4. Murotjonova M. D. Effective development of industrial yenterprises and country innovation activity based on information technologiyes in thye digital economy //International Journal of Advancye Sciyentific Research. – 2023. – T. 3. – №. 07. – S. 173-180.


# ZAMONAVIY O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TARBIYASIDA MAKTAB TA’LIMI VA OILAVIY TARBIYANING O‘RNI


**Ro‘zimurodov Siroj Madatovich**
SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Shermatova Dilnoza Maxamadiyevna**
Samarqand shahar 24-maktab geografiya fani o‘qituvchisi.



**Annotatsiya** Mazkur maqolada mamlakatimiz yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda oila institutini hamda ta’lim tizmini o‘rni va vazifalar yoritilgan. Shu o‘rinda ta’lim tarbiya tushunchasi, uning zaruriy shart-sharoitlari, rivojlanishi ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib, bugungi kundagi ahamiyati ilmiy tahlil qilingan.



**Kalit so‘zlar:** Maktab, shaxs, axloqiy-estetik tarbiya, reproduktiv, axloqiy qadriyatlar, sog‘lom farzand, farovon, ta’lim.


Yoshlarning tarbiyasi har qanday jamiyatning kelajagini belgilovchi eng asosiy jarayonlardan biridir b‘lib. Zamonaviy O‘zbekistonda bu boradagi davlat siyosati izchil takomillashib, yoshlarning intellektual va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oila bolaning

ilk tarbiya maskani sifatida uning shaxsiyati, qadriyatlari va axloqiy asoslarini shakllantirsa, maktab esa bu jarayonni tizimli, maqsadli va ilmiy asosda davom ettiradi. Shu bois, yoshlar tarbiyasida maktab va oilaning o‘zaro hamkorligi, ularning bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi ta’siri zamonaviy pedagogika va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlashicha, “Inson dunyoga kelibdiki, atrof- olamni doimiy kuzatadi va o‘rganadi, dunyoni anglashga intiladi, yaxshi va yomonni farqlashga Xarakat qiladi. Ya’ni, har bir shaxsning ilm olishi, avvalo, beshikdan, oiladan, qolaversa, maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlanadi. Shu o‘rinda, sohadagi islohotlarda nimalarga e’tibor qaratilyapti, ilgari bu boradagi ishlar qay ahvolda edi, bugun nimalar o‘zgardi, kelgusida qanday maqsadlarga intilishimiz kerak, degan bir qator savollar tug‘ilishi tabiiy”[23]. – deb ta’kidlaydi. Murakkab globallashuv jarayonlarida yosh avlodni jismoniy va ma’naviy sog‘lom qilib tarbiyalashda milliy ma’naviy qadriyatlarimizni va sharqona madaniyat asosida tarbiyalash muhum ahamiyat kasb etadi.

Azaldan yurtimizda oila mustahkam, uning a’zolari tinch, farovon va sog‘lom bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga kelishini bilishgan. Jamiyatning mustahkamligi, osoyishtaligi oiladagi tinchlik-xotirjamlikka, jamiyatdagi sog‘lom turmush tarzi esa oila a’zolarining bir-birlariga bo‘lgan samimiy munosabat, axloqiy tarbiyasiga bog‘liq bo‘lgan. Shu jixatdan bolalikda xamda maktabgacha tarbiyaga shartli ravishda oila va bog‘cha tarbiyasi kiritish mumkin. Oiladagi tarbiya bog‘cha yoshigacha bo‘lgan tarbiya judda muhim hisoblanadi, uning o‘ziga yarasha qoidalari mavjud. Shu bilan birga bu davirda bola tajribaga ega bo‘lgan onaxonlarning, buvixonlarning roli katta bo‘ladi. Shu jihatdan xalqimiz orasida farzand tarbiyasi va odob-axloq bugungi kunda ham yoshlar ma’naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda.

Oilada farzandlar tarbiyasini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tushuntirib berar ekan “Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi”[24] deb ta’kidlab o‘tadilar. Yosh avlodning axloqiy qadriyatlar asosida shakllantirishda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek xonadonlarida yoshlarga xos axloqiy qadriyatlar: o‘zaro hurmat, izzat, ishonch, mulozamat, muhabbat, hamkorlik tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘ladi. Oilada va maktabgacha ta’lim, maktabda yosh avlodga xalqimiz uchun muqaddas bo‘lgan burch va vazifalar o‘rgatiladi. Shu bilan birga farzandni dunyoga keltirish, balki ularni yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli qilib tarbiyalash emas, balki jamiyatda o‘z o‘rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berishdan ham iboratdir.

Jamiyatda sog‘lom va obod turmushni kamol toptirishda sog‘lom tafakkur, sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish bevosita oilaviy muhit bilan bog‘liqdir. Oilada avvalo ota-onaning o‘z farzandlari tarbiyasida shaxsiy o‘rnak, ibrat, namuna bo‘lishi muhim mezon sanaladi. Ota-onaning oiladagi xulq-atvori, muomala madaniyati, yurish-turishi farzandlari ma’naviy tarbiyasining shakllanishida asosiy

[23] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2024. – B-141
[24] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – Б. 213

o‘rinni egallaydi. Ta’lim-tarbiya masalasi va uning ijtimoiy mohiyati “Avesto”dagi g‘oyaviy ta’limotlarning eng muhimlaridan biridir. “Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi xulq-odobni, yaxshi o‘qishni, so‘ngra esa yozishni o‘rganish bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin”[25]. Mazkur fikrlarda insonning o‘qish va yozishni o‘rganishi, uning odob va axloqli bo‘lib tarbiya olishi uning jamoada yuqori pog‘onalarga ko‘tarilishiga olib keladi, natijada tabiat va jamiyatda ma’naviy yuksalish sodir bo‘ladi. Shuning uchun ota-onalarning o‘zlari sharqona odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, milliy-ma’naviy qadriyatlarga yuksak ehtiromda bo‘lishi, yuksak umuminsoniy xislatlarga ega bo‘lishlari kerak. Mana shunday ijobiy xislatlarga ega bo‘lgan farzandlarda vatanparvarlik, fidokorlik, sadoqat, mardlik, jasurlik, chidamlilik, vazminlik, qadr-qimmat, tashabbuskorlik kabi xislatlarni shakllantiradi.

Shu jihatdan xalqimiz orasida shakllangan bunday dunyoqarash va odob-axloq bugungi kunda ham yoshlar ma’naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda. Yuksak ma’naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta’minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab etadi va unga amal qiladi. Xalqimizning urf-odat, an’analarini tiklashda, mahalla va guzarlarning oqsoqollari yaqindan yordam berayaptilar. Ularning tashabbusi va faol ishtiroki bilan vayrona, xarobalarga aylangan masjidlar qayta tiklandi, yangilari qurilib, ishga tushirildi. Navro‘z, hayit, singari bayramlarning tiklanishi va boshqa xayrli ishlarda ham ularning salmoqli ulushi bor. Milliy qadriyatlarning tiklanishi tufayli bugun jonajon Vatanimizning “har bir asl farzandi o‘zini ota yurtining ajralmas bo‘lagi deb xis etayapti va bundan faxrlanyapti. Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak aslo yanglishmagan bo‘lamiz”[26].

Har bir xalqning o‘zi uchun ezozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari bo‘ladi. Bular asarlar davomida avloddan – avlodga o‘tib kelgan, hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmagan, shu xalqning iftixori manbaiga aylangan durdonalardir. Millat va elatning o‘ziga xos tarixiy merosi, san’ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odati va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol uynaydi.

“Qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgan hudud va u bilan bog‘liq tuyg‘ular, millatning o‘tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma’naviy meros bilan bog‘liq qadriyatlar ham muhim o‘rinni egallaydi”[27]. Milliy qadriyatlarda millat, muayyan bir xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o‘z ifodasini topadi. Bular millatning ma’naviy-ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu – umidlari va ideallari,

[25] Рагимов К. Антология педагогических мыслей Азербайджана. –Москва, Педагогика, 1989. С. 10.
[26] Каримов И. А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат.- Т.:Ўзбекистон,1993, 4-бет.
[27] Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). Тошкент, “Ўзбекистон файласуфларини миллий жамияти” 2004, 90-бет

vijdoni va or-nomusida aks etadi. milliy qadriyatlar tor va keng ma’noda ishlatiladigan tushunchadir. Milliy qadriyatlar tor ma’noda muayyan bir millatning, elatning qiziqishlari va manfaatlarini ifodalovchi munosabatlar yig‘indisini, mazmunini tashkil etsa, keng ma’noda muayyan bir davlatda yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlari va qiziqishlarini ifodalovchi munosabatlar yig‘indisini aks ettiradi"[28]. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzi o‘ziga xos mezon vazifasini o‘taydi. O‘shbu qadriyatlar vositasida turli xodisa vaholatlarga, yangi paydo bo‘layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo‘ljallari, "zamona qaxramoni" haqidagi tasavvurlari ham ma’naviy Qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Bunday ma’naviy qadriyatlarni oilada, maktabgacha ta’lim, maktabda yoshlarning qalbiga singdiriladi va shu "zamona qaxramoni" asosida tarbiyalanadi. Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta’sir ko‘rsatmasin, har bir millat uchun ma’naviy kamolotning asosiy yo‘li va mezoni milliy qadriyatlar bo‘lib qoladi. Ma’naviy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ma’naviy boy, axloqan pok, jismonan sog‘lom farzandlarni tarbiyalab voyaga etkazish dastlab oilada amalga oshiriladi. Yoshlarga va insonlarga bir umr hamroh bo‘ladigan insoniy fazilatlar - ezgulik, yaxshilik, mehnatsevarlik, yaratuvchanlik, fidoiylik, sadoqat, mardlik kabilarning barchasi oiladan boshlanadi. Oila yoshlarni axloq-odobi, rostgo‘y mehnatsevar, halol bo‘lib voyaga etishi uchun zamin tayyorlaydi. Har bir xalqning millatining ajdodlari tomonidan qoldirilgan qimmatli qadiriyatlari, urf odati an’analari mavjudki, ular oilada e’zozlanib kelinadi va o‘sib kelayotgan farzandlarga singdirilib boriladi.

Oilada farzandning tarbiyasi bilan shug‘ullanish unda yashayotgan barcha yoshi kattalarning birinchi galdagi vazifasi bo‘lmog‘i lozim. Chunki bobo-buvilarimizning yosh bolani milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslarimizning qahramonligi, xalq og‘zaki ijodi orqali tarbiya berishi o‘zining ko‘proq samarasini beradi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tishimiz lozimki oila va ta’lim muassasalari bu insoniyat sivilizatsiyasi shakllanganidan beri avlodlar almashinuvida uzviylikni ta’minlab kelayotgan ikki muhim tayanch ustundir. Ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni tarixan doimo o‘zgarib, har bir jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyot darajasiga mos holda takomillashib borgan. Har bir davr, har bir makon ta’limning mohiyatiga yangi mazmun, yangi shakl va yondashuvlar olib kirgan bo‘lsa-da, uning asl vazifasi - insonni barkamollikka yetaklash, uni o‘zini va jamiyatni anglaydigan yuksak shaxs darajasiga ko‘tarish bo‘lib qolaveradi. Bugungi kunda yosh avlodning jismoniy sog‘lomligi, aqliy yetukligi va ma’naviy pokligi - davlat taraqqiyotining mezoniga aylanmoqda. Shu bois oila bilan maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat metodik, balki ma’naviy birlashuvga aylanishi zarur. Zero, yosh ongning shakllanishida bolaga berilayotgan ma’lumot emas, balki berilayotgan tuyg‘ular, fazilatlar, estetik zavq va qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

[28] Ортиқов Н.Маънавият: миллий ва умуминсоний қадриятлар. Тошкент, “Ўзбекистон”1997, 8-бет

# O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH VA UNING IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLAR PSIXOLOGIK TARBIYASIDAGI O‘RNI

**Xashimova Sayyora Xolmurodovna**
Samarqand davlat chet tillar instituti, Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan o‘smirlar psixologik tarbiyasida inklyuziv ta’limning tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari tahlil qilingan. Jamiyat hayotida imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan fuqarolarning psixologik tarbiyasiga inklyuziv ta’limning ko‘rsatgan ta’siri masalalari bayon etilgan. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning psixologik tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi sharoit va omillar ko‘rib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Imkoniyati cheklangan o‘smirlar, psixologik tarbiya, inklyuziv ta’lim, psixologik tarbiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi sharoit va omillar.

Bugungi kunda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan o‘smirlarni psixologik tarbiyalash, ularning to‘laqonli hayot kechirishlariga sharoit yaratish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinib, ushbu konsepsiyada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash kabilardan iboratdir.

Keyingi yillarda kam ta’minlangan, nogironligi bo‘lgan insonlar, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Bu borada Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi, Nogironligi bo‘lgan insonlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilganini qayd etish lozim[1. 349-350.].

BMT ma’lumotlariga ko‘ra dunyo miqyosida 450 milliondan ortiq kishi ruhiy va jismoniy nuqsonga ega. Bu sayyoramizning o‘ndan bir qismini tashkil etadi. Shuni aytish joizki, umumjahon sog‘likni saqlash tashkiloti ma’lumot berishida dunyoda bunday kishilar soni 13%ga yaqin va dunyo miqyosida 500 milliondan

ortiq odam (ya’ni er yuzidagi har bir o‘ninchi odam) imkoniyati cheklangan shaxslar sirasiga kiradi, shulardan 150 millioni bolalardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotlarining ma’lumotlariga ko‘ra er kurrasi aholisining 20% turli xil, jismoniy, aqliy, sensor va harakat a’zolarida nuqsonlari bo‘lgan insonlar tashkil qiladi. Sog‘liqni saqlash, Mehnat va Aholini Ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklarining ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonda turli xil nuqsoni bo‘lgan bolalar, ya’ni aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan 12%, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (kar bolalar) 5%, zaif eshituvchilar 7%, ko‘zi ojizlar 7,5%, zaif ko‘ruvchilar 5%, tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar 2,5%ni tashkil etadi. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, ular orasida alohida yordamga muhtoj bolalar hammasi bo‘lib 200 million atrofida ekanligi qayd etilgan [2.5.].

Inklyuziv ta’lim sohasida yaratilgan tadqiqotlarda bolalar psixologiyasi muammolarini L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, K.D.Ushinskiy, V.N.Myasishchev, N.N.Malofeev, N.D.SHmatko, A.N.Golubeva kabi rus olimlari o‘rganganlar. SHuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarni pedagogik-psixologik korreksiyalash masalalarini o‘rganishda I.I.Mamaychuk, L.P.Koskovoy, O.S.Nikolskayalar, V.S.Manova-Tomova, YU.S.Alyoshina, M.Krijanovskaya, V.S.Muxina, A.A.Bodalyov, E.R.Baevskayalar tadqiqot ishlari olib borganlar. [3.44.].

Ushbu masalada O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, hozirgacha mamlakatimizda ilg‘or psixologiya vakillaridan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziev, A.S.Begmatov, B.R.Qodirov, SH.R.Barotov, A.M.Jabborov, N.S.Safoev, Sh.S.Shoyimova, R.Shomaxmudova va boshqalar tomonidan psixologiyaning maxsus sohalari bo‘lmish shaxs psixologiyasi, oila psixologiyasi, o‘z-o‘zini anglash, ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari tadqiq qilindi. Ta’lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta’lim-tarbiya berish, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning psixologik va pedagogik xususiyatlari, ularning nuqsonlarini korreksiyalash va inklyuziv ta’lim muammolarini R.Shomaxmudova, A.Berdieva, O.U.Ablaev kabi olimlar o‘rgangan. Maxsus yordamga muhtoj o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda M.F.Hakimova, bolalardagi nutqiy kamchilikni o‘rganish va uni bartaraf etish muammosi L.R.Mo‘minova, X.M.Po‘latova, I.G.Veretennikova, X.D.Kalbaeva, N.R.Rahmonqulova, U.Yu.Fayzieva, M.S.Asanova kabi mutaxassislarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan[4.45.].

O‘zbekiston ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan o‘smirlar, (bolalar, shaxslar) uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan barcha o‘smirlar, (bolalar) asosiy maktablarda inklyuziv ta’lim olish imkoniyatiga egadir. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar maktablarda malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlangan bo‘lib, nogironligi bo‘lgan o‘smirlar (bolalar)ning ehtiyojlariga moslashtirilgan qulay infratuzilma va o‘quv materiallari bo‘lishini ta’minlash masalasiga ham e’tibor kuchaytirilmoqda. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar 90 ta bo‘lib, bulardan: 50 tasi aqli zaif bolalar uchun, 19 tasi kar va zaif eshituvchi bolalar uchun, 17 tasi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun, 3 tasi tayanch a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun, 1 tasi nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-

internatlardir. Bu maktab-internatlarda nogironligi bo‘lgan 21231 nafar bolalar ta’lim olishadi [5.1.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qaroriga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu maqsadda 2021/2022-o‘quv yilida respublikada ilk marotaba tajriba sifatida hududlarning markazidagi shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida bittadan umumta’lim maktablarida (jami 31 ta) inklyuziv ta’lim tizimi joriy etildi va unda 82 nafar bolalar ta’lim olishi ta’minlandi.

2022/2023 o‘quv yilida qo‘shimcha talab va ehtiyojlardan kelib chiqib 146 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi inklyayuziv sinflar tashkil etilib unda 395 nafar nogironligi bo‘lgan bolalar ta’lim olishmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4.5-vazifasiga binoan, 2025 yilga borib O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ulushi jami maktablarning 51 foizga, inklyuziv ta’lim shartlarida ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushi esa 40 foizga etkazilishi rejalashtirilgan [6.2.].

Inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim uchun sharoitlarni yaxshilash, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ish olib boradigan pedagoglarni tayyorlash maqsadida Buyuk Britaniya, Yaponiya, Finlyandiya davlatlaridagi tajribani o‘rganish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni tashkil qilishdan asosiy maqsad — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat bo‘lsa, inklyuziv ta’limni tashkil qilishdan asosiy vazifalar - rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish; jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish; ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish; barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish [7.1.]dan iboratdir.

2023 yil 11 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, ushbu farmonga 1-ilovadagi 23 maqsad - nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratishdan iborat ekanligi belgilandi. Ushbu maqsadga ko‘ra - nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mavjud infratuzilma holatini baholash tizimini joriy qilib, qulay va maqbul muhitni yaratish [8.1.] vazifasi kun tartibiga qo‘yildi.

2022 yil 28 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga 1-ilovadagi 66-maqsad – nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish, deb nomlangan. Ushbu maqsadga ko‘ra – nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash. ...Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish, [9.1.] vazifasi belgilandi.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlar ta’lim-tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ta’lim-tarbiyasi nafakat ta’lim maskanlarida, balki oilalarda xam maksadli tashkil etilib, oilalarda imkoniyati cheklangan o‘smirlarni ma’naviy tarbiyasiga e’tibor qaratiladi. Oilalarda imkoniyati cheklangan o‘smirlarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtai-nazari bilan yondashuv shakllanadi. Bu esa imkoniyati cheklangan o‘smirlarda muomala, muloqot, o‘z-o‘ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko‘nikmalarining etarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Shuning uchun imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ijtimoiylashuvi sog‘lom o‘smirlar bilan birga ta’lim olish, turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, turli to‘garaklarda qatnashish orqali amalga oshiriladi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar o‘zlarining kiyinishi (mavsumbop, boradigan joy xususiyatiga bog‘liq, toza va ozoda, jinsiga to‘g‘ri keladigan, zamonbop); muomalasi (ona tilida to‘g‘ri va ravon so‘zlashi, shirinsuxan bo‘lishi, so‘zlashganda suhbatdoshini tinglay olishi, birovlarning so‘zini bo‘lmasligi, aniq va mavzu doirasida gapirishi); jamoat joylarida o‘zini tutishi (qoidalarga rioya qilishi, qattiq gaplashmasligi, atrofdagilarga halaqit qilmasligi va xokazo); gigienik koidalarga rioya qilishi orqali jamiyat hayotiga moslashib boradi. Mahsus ta’lim muassasalari, maktab-internatlar imkoniyati cheklangan o‘smirlar uchun ta’lim-tarbiya o‘chog‘idir. U erda imkoniyati cheklangan o‘smirlar akademik bilim olishdan tashqari murosalilikka, atrofdagilar bilan muloqot qilishga, mehnatga, o‘z-o‘ziga xizmatga, o‘zgalar mehnatini qadrlashga, o‘z qarorini asosli himoya qilishga, salomatligini nazorat qilishga o‘rganadilar.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlar bilan olib boriladigan inklyuziv ta’lim tizimida ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologo-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratiladi, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi amalga oshiriladi, o‘smirlarning ta’limdagi tenglik huquqi kafolatlanadi, jamiyat va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlar bartaraf etiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Imkoniyati cheklanganlik aslo-qobiliyatsizlik, degani emas. Har qanday holatda ham, kasallik va kamchilikda ham, muammolar bo‘lsa

ham bolada taraqqiyot davom etadi. Ya’ni, bolaning rivojlanishi to‘xtab qolmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalarga nisbatan ko‘proq e’tibor va yordam talab etadi xolos. SHuning uchun ham doimiy ravishda har bir bolaning huquqlarini himoya qilish, kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik, ularga ijobiy munosabatda bo‘lish farzand tarbiyasida eng muhim ahamiyatga ega[10.34.].

O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan o‘smirlarning psixologik tarbiyasi, ularning ijtimoiy himoyasi, jamiyatga ijtimoiylashuvi masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning bilim olishi, mehnat qilishi, malakali tibbiy xizmatlardan foydalanishi ularning psixologik tarbiyasida, jamiyatga ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga egadir. Imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan o‘smirlarning psixologik tarbiyasida odob, axloq, nafosat tarbiyasiga asoslangan inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020.-B.349-350.

2. Shomahmudova R.SH., Nurmuhammedova L.SH., To‘laganova D.R. Imkoniyati cheklangan bolalarni oilada tarbiyalash. (Ota-onalar uchun ilmiy-uslubiy qo‘llanma). Toshkent 2013 yil, 5 bet.

3. Qahhorov S.Q., Qahhorova D.S. Inklyuziv ta’lim tahlili. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie. 2015, № 8. 44 bet. file:///C:/Users/User/Downloads/inklyuziv-talim-ta-lili%20(1).pdf

4. Qahhorov S.Q., Qahhorova D.S. Inklyuziv ta’lim tahlili. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie. 2015, № 8. 45 bet. file:///C:/Users/User/Downloads/inklyuziv-talim-ta-lili%20(1).pdf

5. https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-vozmoznostami

6. https://www.uzedu.uz/y3/page/ogranicennymi-vozmoznostami

7. https://lex.uz/docs/5679836

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. https:// https://lex.uz/docs/5841063

10. Shomaxmudova R., Berdieva A. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari. Toshkent 2008 yil, 34 bet.

# JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNING YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

**Komilov Ro‘zi Rabiyevich**
**Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali professori v.b.**

**Annotatsiya:** Maqolada jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya va sport estetikasining ijtimoiy ahamiyati hamda yoshlar tarbiyasiga ta’siri bo‘yicha tahliliy xulosalar keltirilgan. Jismoniy madaniyat umumbashariy madaniyatning bir qismi sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy progressiv taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqligi, jamiyat azolari sog‘lomligi, gumanistik dunyoqarashi va xalq boyligi, mulki tarzida insonlarning har tomonlama barkamolligini ta’minlovchi vosita ekanligi ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, estetika, sog‘lom turmush tarsi, kommunikativlik, qadriyat.

Jismoniy madaniyat jamiyat ijtimoiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida, insonlar sog‘lomligini ta’minlashga qaratilgan ma’lum mashg‘ulotlar umumlashmasidir. Sport esa jismoniy madaniyatning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, doimiy mashg‘ulotlarni takrorlash va natijaga erishishni maqsad qilib qo‘ygan faoliyat turidir. Jismoniy madaniyat va sportni insoniyat faoliyatining muhim qismi sifatida qadimdan ilmiy o‘rganilganligiga qaramay, uning estetik mohiyati, ijtimoiy funksiyalari, qadriyatlari, jamiyatdagi ahamiyatlilik darajasi hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Insoniyat jismoniy madaniyati bilan bog‘liq juda ko‘p faoliyat turi “jismoniy” so‘zi bilan boshlanadi. Jumladan, jismoniy narbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanganlik, jismoniy yetuklik, jismoniy kamolot, jismoniy sifatlar, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy harakat, jismoniy mashq va shunga o‘xshash tushunchalardagi jismoniy so‘zi jismimiz, vujudimizning bajarayotgan, namoyon qilayotgan jismoniy faoliyatini ifodalaydi.

Har bir kishining amalga oshiradigan harakat faoliyati, bajaradigan ishi, jismi, vujudining ma’lum azolari, tana bo‘laklarining makon(fazo)dagi joyi, o‘rnini almashinuvi orqali sodir bo‘ladi hamda bu jismoniy so‘zi bilan ifodalanadi.[1: 228] Jismoniy so‘zi asosan, tana skeleti mushaklari, bo‘g‘inlar bog‘lovchilarining ishtirokida bajariladigan faoliyatlar – barcha mushaklarning, ularning ayrimlarini yoki bir bo‘lagini, bir necha qismlarini birgalashib namoyon qiladigan faoliyatlarida ko‘rinadi.

Jismoniy madaniyat esa umumbashariy madaniyatning bir qismi sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy progressiv taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Jismoniy madaniyat har bir xalqning muayyan tarixiy sharoiti mahsulidir. Jamiyat azolari sog‘lomligi, gumanistik dunyoqarashi va jismining madaniyati o‘z davri uchun xarakterli bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotning muayyan davridagi butun bir xalq boyligi, mulki tarzida insonlarning har tomonlama barkamolligini ta’minlovchi vosita yoki uning majburiy sharti bo‘lib qolaveradi.

Jismoniy madaniyat – jamiyat azolarining jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, uslublar va

sharoitlarni yaratish va ulardan ratsional foydalanish bo‘yicha erishilgan yutuqlarning majmuidir.[2:14] Jismoniy tarbiya, sport esa jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida o‘zining yo‘nalishlariga ega bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni o‘z ichiga mujassamlashtiradi.[3: 104] Jismoniy tarbiya orqali har qanday inson o‘ziga munosib jismoniy madaniyat mazmunini o‘zlashtiradi, shu soha yutug‘i uning shaxsiy mulkiga aylanadi. Bazida insonlar davolanish maqasadida ham jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadilar, chunki bu bilan organizmning vaqtinchalik yo‘qolgan funksional imkoniyatlarini tiklash mumkin.

Jismoniy madaniyat – jamiyat a’zolarini jismonan tayyorlash uchun kishilik jamiyati yaratgan va foydalanayotgan moddiy, ma’naviy boyliklar majmuidir.[2: 72] Bunda moddiy boyliklar – mavjud jamiyatning xilma-xil sport inshootlari, maxsus anjomlar, uskunalar, mablag‘lar, jamiyat azolarining jismoniy kamoloti darajasi (sport yutuqlari) demakdir. Ma’naviy boyliklar – tarbiya tizimi yaratgan, shakllantirgan, g‘oyaviy, ilmiy-nazariy, uslubiy, tashkiliy, amaliy sohada erishilgan maxsus ilmiy yutuqlar majmui bo‘lib, u doimiy ravishda boyib, o‘zgarib turadi.

Insonlarning jismoniy madaniyati ijtimoiy hayot taraqqiyotida bir qator funksiyalarni bajaradi:

inson harakat faoliyatining muvofiq me’yorlarini belgilab beradi;

jismoniy madaniyatga oid ma’lumotlar va axborotni to‘plash xizmati va uni avloddan-avlodga uzatish hamda tarqatishga vositachilik qiladi;

shaxslararo muloqot, o‘zaro aloqa (kommunikativlik) munosabatlarini shakllantiradi;

shaxsning harakat estetikasi talabini qondirish bilan bog‘liq estetik didni tarbiyalash xizmati;

insonning doimiy harakat qilishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va uning kundalik turmushi uchun lozim darajadagi jisman yaroqlilik holatini ta’minlashdek xizmati.

Xalqning, millatning jismoniy madaniyati yuqoriligini ommaviy krosslar, yugurishlar, velosipedda sayohatlar, ochiq havoga ommaviy yoki oila azolari bilan chiqishlarida ko‘rishimiz mumkin. Jismoniy tarbiya esa inson organizmini takomillashtirish, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy, hayotiy harakat ko‘nikmalari, ular bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy bilim va amaliy malakalarni shakllantirish hamda harakat sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayondir. Jismoniy tarbiya mohiyatiga ko‘ra, organizmning jismoniy sifatlarini maqsadli rivojlantirishga yo‘naltirib, uning tabiiy xususiyatlariga kompleksli ta’sir o‘tkazish, meyorli jismoniy funksional yuklamalar bilan jismoniy mashlarni bajarish, shuningdek, individ hayotiy rejimini optimallashtirish yo‘li bilan tabiatning tashqi muhit sharoitidan ratsional foydalanishni stimullash va boshqarish uchun zarurligidan iborat.

Insonning mehnat faoliyati yoki ongli ravishda ixtiyoriy bajaradigan jismoniy harakatlari natijasida biologik “quvvat” paydo bo‘ladi va bu faqatgina mushaklar faoliyati uchun sarflanmay, ruhiy-aqliy qobiliyatlari rivojiga ham o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatadi.[4: 188] Yani jismoniy madaniyati yuqori bo‘lmagan, jismoniy harakati kam bo‘lgan bo‘lgan insonlar ruhiy tomondan tushkun

kayfiyatda yuradilar, asabiylashish va sog‘lig‘idagi muammolar ularda tez-tez uchrab turadi.

Sport – insonning ma’lum jismoniy mashlar bilan muntazam shug‘ullanishi natijasida tana, aqliy va ruhiy imkoniyatlarini rivojlantirishini anglatadi. “Sport, xususan, ahamiyatli darajada jismoniy va unga bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarning rivojlanishini hamda o‘sishini ta’minlaydi. Jamiyat jismoniy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan sport tushunchasi yunoncha so‘z bo‘lib, boshlang‘ich manoda “kuch sinashaman”, “musobaqalashaman” degan ma’noni beradi.”[5: 84] Sport dastlab paydo bo‘lgandan yaqin kunlargacha dam olish, zavqlanish, ko‘ngil ochish ob’yekti sidafida qarab kelingan. Davlat tuzumlari mustahkamlana borgani sayin sportga musobaqalarda g‘alaba qozonish va muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida qarala boshlandi.

Bugungi kunga kelib, ommaviy (ko‘ngilli) sport turlari ham rivojlanib bormoqdaki, bu jamiyatda sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yadi. Ommaviy (ko‘ngilli) sport har bir insonning tashabbus va xohishi asosida bo‘ladigan hamda ko‘pchilik shug‘ullanishni yoqtiradigan minifutbol, futbol, voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi, yengil atletikaning yurish, yugurish mashqlari, suzish, shaxmat, shashka va boshqa turlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga milliy va etnosport turlarini ham kiritishimiz mumkin. Demak sport kimlar uchundir ko‘ngilxushlik va zavq manbai, kimlar uchundir faoliyat turi hamda o‘z-o‘zini ta’minlash manbaidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Хонкелдиев Ш., Абдуллаев А. Соғлом турмуш тарзининг жисмоний маданияти. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2010. 228-бет.

2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. М.: ФиС, 1991. С- 14

3. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. М.: ФиС, 1990. С- 104

4. Евссеев Ю.И. Физическая культура. – Растов – на Дону: Феникс, 2008. С- 188

5. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. –Т.: Zar qalam, 2004. -84 b.

## MODELS AND COMPONENTS OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

**Azizbek Mukhamedov,**
Doctor of Philosophy(PhD), Associate Professor at Jizzakh State Pedagogical University
**Nozima Rasulova,**
Master's student of Jizzakh State Pedagogical University

**Abstarct:** This article explores the multifaceted competence profile required for English language teachers, particularly within the context of Uzbekistan’s educational reforms. Drawing on frameworks such as TPACK, CEFR for Teacher Education, UNESCO ICT-CFT, and Shulman’s pedagogical content knowledge, it

outlines the essential competencies for effective English as a Foreign Language (EFL) instruction. These include linguistic proficiency, methodological expertise, pedagogical skills, digital competence, socio-affective skills, and reflective practice for continuous professional development. The study emphasizes the integration of these competencies to create engaging, technology-enhanced, and culturally responsive teaching environments. In Uzbekistan, national policies underscore competency-based teacher education, prioritizing intercultural competence, alignment with international standards, and the use of authentic materials and language technologies. The chapter proposes a unified platform model with dedicated modules to address these competencies, ensuring English teachers are equipped to meet diverse classroom demands and global educational goals.

**Keywords:** English language teaching, teacher competences, Uzbekistan, TPACK, CEFR, pedagogical content knowledge, communicative language teaching, digital competence, socio-affective skills, reflective practice, intercultural competence, ICT in education, competency-based education, TESOL, language technologies.

English language teachers have particular competence needs linked to language instruction. Besides the general teaching competences outlined above, they require **linguistic proficiency** and specialized pedagogical knowledge. Research indicates that English teachers must possess both language mastery and skills in communicative teaching methods to create a low-anxiety, engaging classroom environment. Channa et al. (2025) note that English teachers need to stay abreast of "up-to-date teaching techniques" and resources; they must be prepared to incorporate authentic materials and new language technologies into lessons. Moreover, the Uzbek context places added emphasis on **intercultural competence** and familiarity with international language standards (e.g. CEFR, TESOL methodology) to align with global English education goals.

Interpersonal competences are also vital in EFL contexts. Buronova and Shodiyev (2022) found that the teacher's role includes not only knowledge delivery but also nurturing positive relationships and addressing student motivation ( ENGLISH LANGUAGE TEACHER COMPETENCES IN UZBEKISTAN | Galaxy International Interdisciplinary Research Journal ). This is especially true in language classes where student confidence and participation are key. Therefore, an English teacher's professional competence set typically includes: (a) linguistic subject competence (grammar, pronunciation, discourse), (b) methodological competence (knowledge of CLT, task-based learning, etc.), (c) pedagogical competence (lesson planning, assessment), and (d) affective competence (classroom atmosphere, empathy) (ENGLISH LANGUAGE TEACHER COMPETENCES IN UZBEKISTAN | Galaxy International Interdisciplinary Research Journal ) (Contents).

Finally, given the focus on future teachers, **teacher development** competences are relevant: the ability to engage in reflective practice, professional collaboration, and continued learning. National policies in Uzbekistan now stress competency-based teacher education, highlighting areas like ICT and

communication skills (Uzbekistan | Competency-based Teacher Training Reform: A Guide ). As part of the theoretical base, this chapter acknowledges that the proposed platform must cater to this multifaceted competence profile: it should reinforce language teaching expertise while also building general pedagogical and digital skills.

Various models have been proposed to represent teacher competence. One influential model is the **TPACK** (Technological, Pedagogical, and Content Knowledge) framework, which posits that effective teaching at the intersection of content, pedagogy, and technology leads to higher teacher quality (TPACK model as a framework for in-service teacher training). Ortiz-Colón *et al.* (2023) explain that TPACK involves three core knowledge domains (Content Knowledge, Pedagogical Knowledge, Technological Knowledge) and their overlaps (e.g. PCK, TCK, TPK, and TPACK) (TPACK model as a framework for in-service teacher training). Empirical studies confirm that when these areas are integrated, teachers are better equipped to deliver rich, technology-enhanced instruction (TPACK model as a framework for in-service teacher training). Thus, TPACK serves as a diagnostic model for digital teaching competence, underscoring that technology must be coupled with pedagogical and linguistic understanding.

Another perspective comes from the **Common European Framework of Reference (CEFR) for Teacher Education** and related standards. While the CEFR focuses on learner competences, supplements like "CEFAR for Teacher Education" outline teacher development stages, indicating the evolution of teacher competence from novice to expert (Council of Europe, 2020). Similarly, the OECD's TALIS framework and UNESCO ICT-CFT define teacher competence in modules, such as understanding learners, instructional design, assessment literacy, and professional development. For example, the UNESCO ICT-CFT describes competences in using ICT to improve classroom practice.

Pedagogical content knowledge (Shulman, 1987) remains a central component: an English teacher must deeply know language structures (phonology, syntax, discourse) and pedagogical strategies (communicative methods, task-based learning). Sociocultural competence is also critical, enabling teachers to foster intercultural understanding and adapt to diverse classrooms. Recent frameworks include *mindsets* and *character strengths* (e.g., the iNACOL model's emphasis on reflective mindset and continuous learning).

In sum, components of professional competence for English teachers often include: (a) **Language proficiency** (knowledge of English); (b) **Pedagogical skills** (instructional methods, classroom management, assessment); (c) **Digital/didactic competence** (ICT use, multimedia); (d) **Didactic and methodological skills** (lesson design, materials development); (e) **Socio-affective skills** (communication, empathy, collaboration); and (f) **Reflective practice and continuous learning**. These elements are interrelated. For instance, proficiency in digital tools enhances pedagogical options, while reflective skills allow adaptation of techniques to student needs. Our research synthesizes these components into a unified platform model, ensuring each is addressed by dedicated modules and activities.

## REFERENCES

1. British Council. (2018). *English Impact: An evaluation of English language proficiency in Uzbekistan*. British Council.
2. British Council. (2019). *PRESETT Uzbekistan: In-service teacher-training programme manual* [Programme guide]. British Council.
3. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment* (CEFR). Cambridge University Press.
4. Council of Europe. (2020). *CEFR companion volume with new descriptors*. Council of Europe Publishing.
5. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective teacher professional development*. Learning Policy Institute.
6. Digital Uzbekistan – 2030. (2020). *Presidential Decree No. PF-6079 of 5 October 2020 on the approval of the "Digital Uzbekistan – 2030" Strategy*. LexUZ.
7. Edu Market. (2019). *Final evaluation report of the Edu Market teacher-training initiative in Uzbekistan*. Ministry of Higher Education, Science & Innovation (Uzb.).
8. European Commission. (2006). *Recommendation on key competences for lifelong learning* (2006/962/EC). Official Journal of the European Union, L394, 10-18.

## GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY QADRIYATLARDAN BEGONALASHUVI

**Xakimov Dilmurod Abdulbokiyevich,**
**TMCI "Tillar va Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti v.b.,**
**falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola globallashuv jarayonining yoshlar axloqiy qarashlariga ta'siri, yoshlarning axloqiy ongida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar, shu jumladan, yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan begonalashuvi sabablari, bu jarayonning ijtimoiy va madaniy oqibatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, yoshlarning axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash omillari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, yoshlar, axloqiy qadriyatlar, begonalashuv, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, madaniyat, ijtimoiy oqibatlar.

Zamonaviy dunyoda globallashuv jarayoni har bir jamiyat hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi, madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi orqali har bir inson, ayniqsa yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va axloqiy me'yorlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda yoshlar orasida axloqiy qadriyatlaridan begonalashuv holatlari tobora ko'proq kuzatilmoqda.

Globallashuvning yoshlar ongiga, ularning axloqiy qadriyatlariga ta’siri alohida ahamiyatga ega, chunki yoshlar jamiyatning kelajagi va uning rivojlanish yo‘nalishini belgilovchi asosiy kuchdir. Afsuski, globallashuv jarayoni ko‘pincha yoshlarning o‘z milliy va umuminsoniy qadriyatlaridan begonalashuviga olib kelishi mumkin.

Globallashuv, bir tomondan, yoshlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Ular dunyoqarashini kengaytiradi, boshqa madaniyatlar bilan tanishish, bilim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatini beradi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlarga dunyoning turli burchaklaridagi axborotlarga oson erishish imkonini beradi. Biroq, ayni paytda globallashuv yoshlarning axloqiy ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bir qator xavflarni ham o‘z ichiga oladi.

Axloqiy qadriyatlardan begonalashuv deganda, yoshlarning o‘z milliy va umuminsoniy qadriyatlariga bo‘lgan hurmati, e’tiqodi va sodiqligi susayishi tushuniladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”[1].

Yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam ekanligi e’tirof etilishi davlat zimmasiga muayyan mas’uliyat yuklaydi, ulardan biri yoshlar bandligini ta’minlashdir. Buning uchun mavjud muammolarni chuqur nazariy tushunish, nazariy va metodologik asoslarni yaratish, yoshlar bandligi siyosatini shakllantirishning asosiy konsepsiyalarini ishlab chiqish talab etiladi. Yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosati konsepsiyasini shakllantirish murakkab jarayondir. Yoshlarni ish bilan ta’minlash, kasbga o‘rgatish va ishsizlarni qayta tayyorlashga doir siyosat jamiyat va uning a’zolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlarning ma’naviy-axloqiy begonalashuvi murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy jarayondir. Bu jarayonning shakllanishi va rivojlanishida turli ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Oila ichidagi nizolar, beqarorlik, zo‘ravonlik yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Qolaversa, ota-onalarning yoshlarni tarbiyalashda yetarli darajada ishtirok etmasligi ularda begonalik hissini kuchaytirishi mumkin. Ta’lim mazmunida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yetarlicha e’tibor berilmaganligi yoshlarning begonalashuviga olib kelishi mumkin. Qolaversa, ta’lim muassasalarida sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitning yo‘qligi, zo‘ravonlikning keng tarqalgani yoshlarning begonalashuvini yanada kuchaytirishi mumkin. Yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlari cheklanganligi va ish topishda qiyinchiliklarga duch kelishi ularda begonalashuv hissini kuchaytiradi.

Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik hissi yoshlar orasida norozilik va begonalashuv kayfiyatini kuchaytiradi. Global madaniyatning kirib kelishi va mahalliy qadriyatlarning yemirilishi yoshlarning o‘z madaniy merosiga bo‘lgan hurmatini susaytirishi mumkin. Muayyan madaniyat bilan tanib bo‘lmaslik va buning natijasida kelib chiqadigan madaniy o‘ziga xoslik muammolari ularning begonalashuv tuyg‘usiga hissa qo‘shishi mumkin. Yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo‘lib qolishi ularning real hayotdan begonalashuvini kuchaytiradi. Yoshlarning iste’mol qiladigan axboroti va mazmuni ularning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Zaruriy axborotning yetishmasligi yoki salbiy axborotning ko‘pligi begonalashuvga olib keladi. Yoshlar uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining zaifligi ularning begonalashuvini kuchaytiradi. Jamiyatdagi hamjihatlik va birdamlikning pasayishi yoshlarning ijtimoiy hayotdan chetlatilishiga olib keladi. Yuqoridagi omillar yoshlarning ma’naviy-axloqiy begonalashuviga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini chuqur o‘rganish va bu muammolarni hal etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Bunga yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur tarbiya va ta’lim berish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash orqali erishish mumkin.

Yoshlar 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan ijtimoiy-demografik yosh guruhi bo‘lib, sotsializatsiya jarayoni bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqich kattalar maqomini belgilaydigan asosiy ijtimoiy funksiyalarning to‘liq ro‘yxati, masalan, ta’lim, ish, kasb-hunar, uy-joy, oila va bolalarning yo‘qligi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, “O‘zbekiston nafaqat yosh davlat, balki yoshlar davlati hamdir. O‘zbekistonda shu kungacha bunchalar ko‘p sonli yoshlar kuzatilmagan. O‘zbekiston juda muhim demografik jarayonlar ostonasida turibdi. Bugungi kunda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar mamlakat aholisining deyarli 57 foizini tashkil qilmoqda. Kelajak 20 yilda bugungi yosh avlod O‘zbekiston tarixida eng katta ishchi kuchiga aylanadi. Aynan mana shu ko‘p sonli yoshlarni ijtimoiy rivojlanishiga va ularga kiritilgan ijtimoiy kapital yaqin kelajakda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadi”[2].

Xulosa qilib aytganda yoshlarni jamiyatdan begonalashuvini oldini olish hozirgi davrda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan juda dolzarb bo‘lib turibdi. Yoshlar tez rivojlanayotgan demografiyani ifodalaydi. Jamiyatdan begonalashish ularning hayotining turli jabhalarida sezilarli siljishlarga olib keladi. Shunday qilib, yangi avlodning manfaatlari va ideallarini tushunish ularning zamonaviy iqtisodiy, siyosiy va kommunikativ dinamikaga moslashishini o‘rganish va tushunish uchun juda muhimdir.

Globallashuv davrida yoshlarning axloqiy qadriyatlardan begonalashuvi jiddiy muammo bo‘lib, unga qarshi kurashish uchun kompleks chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Yoshlarning axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ruhda tarbiyalash jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash va kelajak avlodlar uchun munosib hayot yaratishning muhim shartidir.

Tavsiyalar:

1. Milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish: Oila, maktab va jamiyatda milliy va an’anaviy qadriyatlarni yoshlar orasida targ‘ib qilish zarur.

2. Ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash: Maktablarda psixologik yordam xizmatlarini kuchaytirish va yoshlarning ruhiy salomatligiga e’tibor qaratish lozim.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentlarni ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali yoshlar orasida ommalashtirish.

4. Interaktiv ta’lim usullarini joriy etish: Yoshlarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, axloqiy tarbiyani interaktiv va zamonaviy usullar orqali olib borish.

**Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2016, -B.23.

2. Abdullayev A.G. Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida yoshlarning sotsial mobilligini takomillashtirish mexanizmlari. Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.–Toshkent, 2021. –B.22.

## O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TA’LIM TIZIMINING MEDIA TIZIMI BILAN O‘ZARO INTEGRATSIYASI

**Taniqulov Jonibek Ashirkulovich**
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi dotsenti
e-mail:jtaniqulov140@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari va ularning media tizimi bilan o‘zaro integratsiyasi yoritilgan. Raqamli ta’limning afzalliklari, media vositalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, mavjud muammolar hamda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar tahlil qilingan. Muallif integratsiyaning ustun jihatlarini ochib berib, istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlariga ilmiy asosda yondashadi.

**Kalit so‘zlar.** Raqamli ta’lim, media tizimi, integratsiya, innovatsion texnologiyalar, masofaviy ta’lim, O‘zbekiston, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

XXI asr — axborot, innovatsiya va texnologiyalar asri sifatida e’tirof etilmoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari inson hayotining barcha jabhalariga, xususan, ta’lim tizimiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ta’lim sohasi yangicha yondashuv va innovatsion mexanizmlarni talab qilmoqda.

Raqamli ta’lim tizimining shakllanishi va barqaror rivojlanishida media vositalarining o‘rni beqiyosdir. Media vositalari zamonaviy o‘quv kontentlarini yaratish, bilimni ommalashtirish, murakkab tushunchalarni ko‘rgazmali, interaktiv va tushunarli shaklda yetkazish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilar va talabalar faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga, tanqidiy tahlilga va ijodiy yondashuvga o‘rgatishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqamli ta’lim tizimining shakllanishi O‘zbekistonda ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayoni izchil amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda “Elektron hukumat” konsepsiyasi doirasida ta’lim sohasida bir qator platformalar joriy qilindi. Jumladan:

***Birinchidan.*** **Kundalik.com** — maktablarda elektron kundalik va baholash tizimi;

***Ikkinchidan*****. Edu.uz** — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining rasmiy ta’lim portali;

***Uchunchidan.*** **Online maktab** — pandemiya davrida masofaviy darslar uzatilgan platforma;

***To‘rtinchidan.*** **Oliy ta’lim muassasalarida LMS (Learning Management System)** tizimlarining joriy etilishi.

Ushbu tizimlar o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta’minlash, hamda ta’lim sifati va qamrovini kengaytirishda muhim rol o‘ynamoqda.

**Media tizimi va uning ta’limdagi roli.** Media vositalari — bu axborotni ommaga yetkazish, ijtimoiy ong va madaniyatni shakllantirish vositasi bo‘lib, hozirgi kunda ta’lim sohasida ham faol ishlatilmoqda. Xususan:

- Televideniye orqali efirga uzatilayotgan video darslar;
- YouTube kanallari orqali bepul ta’lim videolari (masalan, **UzEdu**, **Bilim Makoni**);
- Radio dasturlarida ta’limga oid eshittirishlar;
- Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram) orqali o‘qituvchilar va blogerlar tomonidan yaratilayotgan interaktiv kontentlar.
- Mazkur media vositalar yordamida ta’lim resurslari keng auditoriyaga tez va samarali yetkazilmoqda.
- **Integratsiyaning ustunliklari.** Raqamli ta’lim va media tizimining integratsiyasi quyidagi ustunliklarni beradi:

**Ta’limning ommabopligi:** media vositalari orqali o‘quv kontenti katta auditoriyaga yetadi.

***Birinchidan.*** **Interaktivlik va tushunarlilik:** vizual va audio materiallar orqali murakkab mavzular ham sodda ko‘rinishda taqdim etiladi.

***Ikkinchidan*** **Hududiy tenglik:** chekka hududdagi o‘quvchilar ham sifatli kontentga ega bo‘ladi.

***Uchinchidan.*** **Ijodiy yondashuv:** o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘zlarining media kontentlarini yaratishga intiladi.

**Amaliy tajriba va tahlil.** O‘zbekistonda pandemiya davrida ta’lim jarayonining to‘xtab qolmasligi uchun televideniye orqali televizion darslar efirga uzatildi. Bundan tashqari, oliy o‘quv yurtlari o‘z YouTube kanallarini ochib, ochiq ma’ruzalar va seminarlarni ommaga taqdim eta boshladi. Ba’zi universitetlar o‘z media studiyalarini tashkil etib, professional darajada videodarslar tayyorlashni yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, mustaqil bloger-o‘qituvchilar tomonidan Telegram va YouTube’dagi ta’limiy kontentlar minglab obunachilar orasida ommalashmoqda. Bu esa jamiyatda ta’limga bo‘lgan qiziqish ortayotganini ko‘rsatadi.

**Muammolar va takliflar.** Integratsiya jarayonida bir qancha muammolar mavjud:

- Internet tarmog‘i va texnik infratuzilmaning barcha hududlarda bir xil emasligi;
- Ta’limiy kontent sifati va metodikasining yetarli emasligi;
- O‘qituvchilarning raqamli va media savodxonligining pastligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- Media pedagogika yo‘nalishini rivojlantirish;
- Raqamli ta’lim kontentlarini ishlab chiqishda metodik ko‘rsatmalar yaratish;
- O‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalarni oshiruvchi trening va kurslar tashkil etish;
- Davlat va xususiy sektor hamkorligida media-loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

**Xulosa**

O‘zbekistonda raqamli ta’lim tizimi bilan media tizimi o‘rtasidagi samarali integratsiya ta’lim sohasining zamonaviy talablar asosida jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu integratsion jarayon nafaqat ta’lim jarayonini soddalashtirib, uni keng ommalashtirishga zamin yaratmoqda, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv hamda raqamli savodxonlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy raqamli muhitda raqobatbardosh avlodni tarbiyalash uchun media va ta’lim resurslarini uyg‘unlashtirgan holda innovatsion yechimlar joriy etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bu yo‘nalishdagi islohotlarni izchil va tizimli davom ettirish, media-ta’lim kontentlarini yaratish bo‘yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqish, ularni ilmiy-pedagogik asosda shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kelajakda raqamli ta’lim va media platformalarining uyg‘unligi nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki butun ta’lim ekotizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, raqamli texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirgan, global fikrlaydigan va innovatsion tafakkurga ega yangi avlodni shakllantirishga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi // https://lex.uz/docs/-5030957#-5031883
2. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rasmiy hisobotlari (2022–2024 yillar).
3. OECD (2020). "The Future of Education and Skills: Education 2030." Paris: OECD Publishing.
4. Olimova O. Raqamli texnologiyalarning ta’limdagi o ‘rni //Research and Implementation. – 2024. – Т. 2. – №. 10. – С. 3-5.
5. Meliqoziyevich S. I. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – С. 152-155.

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXLOQIY BEFARQLIK VA BEGONALASHUVNING IMMORALIZMGA TRANSFORMATSIYASI

**Toshpulatov Odil Nodirovich**
**Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi,**
**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv jarayonining zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy loqaydlik va begonalashuv kabi salbiy oqibatlarini tahlil qiladi. Ushbu muammolarning jamiyatda axloqiy me’yorlarning yemirilishi va immoralistik tendensiyalarning kuchayishiga qanday zamin yaratishi falsafiy asosda ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga maqolada globallashuvning paradoksal tabiati, individualizmning kuchayishi, kommunikatsiya vositalarining roli va axloqiy mas’uliyatning susayishi kabi omillar immoralizmning ildizlari sifatida o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, ijtimoiy loqaydlik, begonalashuv, immoralizm, axloqiy deformatsiya, individualizm, kosmopolitizm, axloqiy relativizm, axloqiy mas’uliyat.

Globallashuv jarayoni XXI asrda insoniyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Bu hodisa iqtisodiy va texnologik yutuqlar bilan bir qatorda, axloqiy va ijtimoiy sohalarda ham chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, an’anaviy qadriyatlar bilan shakllangan axloqiy me’yorlar globallashuvning bosimi ostida zaiflashmoqda. Jamoaviylik, birdamlik va o‘zaro mas’uliyat kabi qadriyatlar o‘rnini individualizm, utilitarizm va iste’molchilik egallamoqda.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy aloqalar tobora shaxsiy manfaatlar asosida qurilishini guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu esa kishilar o‘rtasida ishonchning susayishiga olib keladi. Ijtimoiy mas’uliyat hissi kamayib, umumiy manfaatlar ikkinchi darajaga tushmoqda. Odamlar tobora ko‘proq o‘z hayotini boshqalardan ajratilgan holda tasavvur qila boshlaydi. Bu holatni Z.Baumanning “beqaror zamonaviylik” konsepsiyasi orqali izohlash mumkin. Unga ko‘ra, hozirgi zamon odamlarining aloqalari beqaror, vaqtincha va yuzaki tus olgan. Doimiylik o‘rnini o‘zgaruvchanlik egallagan.[1]

Bunday sharoitda axloqiy begonalashuv kuchayadi. “Aytib o‘tish kerakki, shaxsiy aloqalar jamiyat hayotining muhim omili sanaladi. Agarda bevosita doimiy shaxsiy aloqalar sodir bo‘lmasa, bu holat shaxsni yolg‘izlikka va jamiyatdan begonalashuvga olib keladi. Yolg‘izlik va sotsial aloqalarning faqat predmetli ko‘rinishining zamonaviy jamiyatda ko‘p uchrashi shasx psixikasidagi salbiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda”.[2] Bunday holatlarda kishilar boshqa insonlarning muammolariga befarq bo‘lib qoladi.[3]

Begonalashuv - insonning o‘z mohiyati, mehnati va ijtimoiy muhitidan ajralib qolishini ifodalovchi falsafiy tushuncha. Bu hodisaning ontologik ildizlari inson tabiatining jamiyat bilan dialektik bog‘liqligida yotadi. Inson mohiyatan ijtimoiy mavjudotdir. Ammo globallashuv bu bog‘liqlikni zaiflashtirmoqda. Ishlab chiqarishning globallashuvi, mehnat jarayonining uzviyligini buzadi. Natijada,

inson o‘z mehnatining mazmunini yo‘qotadi. Mehnat vositasiga emas, vosita sifatida qaray boshlaydi. Epistemologik jihatdan esa begonalashuv bilim va ongning ijtimoiy kontekstdan uzilishi bilan bog‘liq. Inson o‘z faoliyatining mazmuni va natijalarini tushunmay qoladi. Bilim izolyatsiyalangan holga keladi. Raqamli kommunikatsiya esa bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Virtual muloqot real tajribani siqib chiqaradi. O‘zaro anglash va empatiya susayadi. Inson boshqalarni subyekt emas, obyekt sifatida qabul qila boshlaydi.

Bu psixologik beqarorlikka olib keladi. Inson o‘zini ijtimoiy butunning tarkibiy qismi sifatida emas, balki tashqi unsur sifatida ko‘radi. Shu tariqa ijtimoiy loqaydlik shakllanadi. Begonalashuv jamiyatning ichki birligini yemiradi va axloqiy inqirozning epistemologik zaminini yaratadi.

Axloqiy landshaftda yuz berayotgan bu o‘zgarishlar insoniyatni yangi muammolar oldida qo‘ymoqda. An’anaviy axloqiy tamoyillar bilan yangi davr ehtiyojlari o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘lmoqda. Endilikda jamiyat axloqiy barqarorlikni saqlab qolish uchun yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Axloqiy relativizm - axloqiy me’yorlarning madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstga bog‘liqligini ta’kidlovchi qarashdir. Globallashuv bu qarashning kuchayishiga zamin yaratmoqda. Madaniy xilma-xillik qarama-qarshi qadriyatlar o‘rtasidagi chegaralarni noaniq qiladi. Har bir jamiyat o‘z axloqiy tizimini “haqiqiy” deb biladi. Bu esa umuminsoniy axloqiy me’yorlarga bo‘lgan ishonchni zaiflashtiradi.

Falsafiy jihatdan bu holat aksiologik inqirozni anglatadi. Ya’ni, qadriyatlar ierarxiyasi buziladi. Umuminsoniy axloqiy mezonlar nisbiy baholarga almashadi. Obyektiv axloqiy haqiqat yo‘qligi g‘oyasi esa, har qanday xatti-harakatni subyektiv kontekstda oqlash imkonini beradi. Immoralistik tendensiyalar shu tarzda “madaniy tafovut” sifatida qabul qilinishi mumkin.

Bu epistemik relativizmning axloqiy sohaga ko‘chishidir. Bilim singari axloq ham shaxsiy yoki guruhiy qarashga aylanadi. Natijada, axloqiy tanqid kuchsizlanadi. Har qanday baho “shaxsiy fikr” sifatida inkor etiladi. Bu esa jamiyatda axloqiy mas’uliyatni pasaytiradi va befarqlikni kuchaytiradi.

O‘z navbatida ijtimoiy loqaydlik kuchayadi. Ijtimoiy loqaydlik bu axloqiy hissiyotlarning zaiflashuvi va mas’uliyatdan chekinish holatidir. Falsafiy jihatdan u ekzistensial begonalashuvning ijtimoiy shaklidir. Globallashuv bu jarayonni tezlashtiradi. Axborot ortig‘i hissiy sezuvchanlikni pasaytiradi. Hodisalar ko‘pligi insonlarda befarqlik refleksini shakllantirib bormoqda.

Individualizmning kuchayishi esa axloqiy javobgarlikni zaiflashtiradi. Empatiya o‘rnini o‘z manfaatini himoya qilish egallaydi. “Biz” identiteti parchalanib, “men” markaziga asoslangan ontologik pozitsiya shakllanadi. Bu esa boshqalarga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usini yo‘qotadi.

Begonalashgan individ jamiyatning axloqiy holatiga ta’sir qilmaydi, uni faqat tomoshabin sifatida kuzatadi. Bu passivlik immoralistik amallarning kuchayishiga olib keladi. Jamiyatda axloqiy baho emas, foyda mezoni ustuvor bo‘ladi. Natijada korrupsiya va ekspluatatsiya kabi illatlar jazolanmay qoladi. Bu holat axloqning instrumentalizatsiyasi deb baholanadi. Ya’ni axloq vositaga aylanadi, maqsad bo‘lishdan chiqadi. Bu esa jamiyatda axloqiy poydevorning yemirilishiga olib keladi.

Axloqiy mas’uliyatning susayishi – bu shaxsning o‘z harakati natijalari uchun javob berish hissining zaiflashishidir. Falsafiy jihatdan bu ekzistensial javobgarlikdan voz kechish holatidir. Globallashuv bu jarayonni murakkablashtiradi. Muammolar global, lekin individ lokal darajada qoladi. Ekologik inqiroz yoki ijtimoiy tengsizlik kabi muammolar oldida odam o‘zini ojiz his qiladi. Bu esa ontologik beqarorlik va javobgarlikdan chekinishga olib keladi. Emmanuel Levinas nuqtai nazaridan, “boshqaning da’vati”ga javob berish axloqiy harakatning mohiyatidir. Ammo begonalashuv bu da’vatni eshitmaslikka sabab bo‘ladi.

Javobgarlikning diffuziyasi esa axloqiy atributni tarqoq holga keltiradi. Transmilliy korporatsiyalar yoki ko‘p darajali boshqaruv tizimlarida aniq axloqiy subyekt yo‘qoladi. Bu esa axloqiy muammo uchun subyektiv javobgarlikni belgilashni qiyinlashtiradi. Axloqsiz xatti-harakatlar jazolanmaganda, ular normalashadi. Bu ijtimoiy konformizmni shakllantiradi: ya’ni odamlar boshqalar nima qilayotganiga qarab axloqiy yo‘lni tanlaydi. Natijada, individual axloqiy ong emas, ommaviy loqaydlik hukmronlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyatga ko‘plab imkoniyatlar yaratish bilan birga, ijtimoiy loqaydlik va begonalashuv kabi jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu fenomenlar axloqiy me’yorlarning yemirilishiga va immoralistik tendensiyalarning kuchayishiga zamin yaratadi. Individualizmning haddan oshishi, begonalashuvning turli ko‘rinishlari, axloqiy relativizmning tarqalishi va axloqiy mas’uliyatning susayishi kabi omillar globallashuv girdobida axloqiy deformatsiyaning chuqurlashuviga olib kelmoqda. Ushbu salbiy tendensiyalarni bartaraf etish uchun jamiyatda o‘zaro hamjihatlik, empatiya, axloqiy mas’uliyat tuyg‘ularini kuchaytirish, universal axloqiy qadriyatlarni qayta tiklash va axloqiy ta’limni rivojlantirish zarur. Aks holda, globallashuvning iqtisodiy va texnologik yutuqlari axloqiy inqiroz soyasida qolishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Zygmunt, B. (2000). Liquid modernity. Polity, Cambridge. ISBN 978-0-7456-2409-9

2. Saifnazarov I. va b. Sotsiologiya. –T.: “Innovatsion rivojlanish”, 2021. 284-bet.

3. Р.А.Убайдуллаева, М.Б.Бекмуродов, О.Б.Ота-Мирзаев ва бошқ. Социология. Т., «УАЖБНТ» Маркази, 2002. 292 б.

## YOSHLARNI JISMONIY BARKAMOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SPORT ESTETIKASINING AHAMIYATI

**Yaxyayeva Sojida Abduraximovna**
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malasasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, (PhD)
Email: yaxyayevasojida@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarni jismoniy barkamolligini rivojlantirishda sport estetikasining o‘rni va bugungi kunda jismoniy madaniyat va xalqchil sport tizimini rivojlantirishga oid belgilangan vazifalar mazmuni bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar**. Sport, estetika, go‘zallik, madaniyat, yoshlar, trener, sport muassasalari, sport maktablari.

Bugungi kunda yosh avlodning sog‘lom, har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishi jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Bu jarayonda sport va jismoniy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, sport estetikasining yoshlar ruhiy va jismoniy rivojiga ko‘rsatadigan ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Sport estetikasining go‘zallik, uyg‘unlik, nafislik va harakat madaniyatiga asoslangan jihatlari yoshlarning jismoniy barkamolligini nafaqat kuch va chidamlilik, balki ichki dunyo, ruhiy holat va tashqi ifodani uyg‘unlashtirish orqali ham rivojlantiradi. Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan jismoniy madaniyat va xalqchil sport tizimini rivojlantirishga oid vazifalarni belgilab berildi. “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish-biz uchun eng muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi. Bunda biz avvalo aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladigan xalqchil sport tizimini tushunamiz. Shu maqsadda barcha shahar va tumanlarda ommaviy sportni rivojlantirishga, jumladan, sport maydonchalari, piyodalar va velosipedchilar uchun yo‘laklar, ekoparklar, ta’lim dargohlaridagi sport zallaridan iborat xalqchil sport infratuzilmasini yaratishga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Olimpiya va Praolimpiya harakatini rivojlantirish uchun sport maktablarini ko‘paytiramiz, umumta’lim maktablarda sport kulublarni tashkil etish va yangi sport ob’ektlarini barpo etamiz. Bu borada Olimpiya o‘yinlariga kiritilgan har bir sport turini rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha kompleks tadbirlar amialga oshiriladi”. Bu chora-tadbirlar 2025 yilgacha jismoniy madaniyatni yuksaltirish borasida qabul qilingan konsepsiyaning izchil davomidir.

Yosh avlodni jismonan baquvvat va estetik jihatdan go‘zal qilib tarbiyalash davr talabiga aylandi. Yildan-yilga chiroy ochib borayotgan Yangi O‘zbekistonda sport inshootlarining qad rostlayotgani sog‘lom turmush tarzi va barkamol yoshlar tarbiyasi uchun qilinayotgan samarali ishlardir. Bunday maskanlarda ham jismonan, ham aqlan, ham estetik jihatdan mukammal tarbiya olayotgan yoshlarimiz ko‘payib bormoqda. Sharqirab oqib turgan suv qanchalik go‘zal va zilol bo‘lib dalalarga chiroy baxsh etganidek, o‘zbek farzandlari ham o‘zlarining sport sohasida erishayotgan muvaffaqiyatlari bilan o‘zlarini go‘zal, odob-axloqlarini sermazmun, yurtimiz dovrug‘ini dunyoga taratish masalasida kattadan-katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritmoqdalar.

Yoshlar dunyoqarashida sportning insonparvarlik mohiyatini shakllantirib, uni qiziqish ob’yektiga aylantirganimizdan so’ng mustaqil qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarni sport asosida estetik tarbiyalash-bu ijtimoiy munosabatlarni, ob’yektiv dunyoni va o‘zini go‘zal shakllarga aylantirishga qodir Yangi O‘zbekiston yoshlarini voyaga yetkazishdir.

Yoshlarni sportga muhabbat asnosida tarbiyalash, eng avvalo, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishning muhim

qadamlaridan biridir. Yoshlar tarbiyasi va estetik tasavvuriga ijobiy ta’sir ko’rsatish uchun sportning falsafiy-estetik mohiyatiga ongli ravishda qiziqtirish zarur. Bu esa ma’lum sharoitlarda yaxlit jismoniy madaniyatga aylanadi.

Sport o‘yinlarida, bizningcha, raqib va raqobat muhiti doimo alohida ahamiyatini ko‘rsatib turadi. “O‘yin yoki musobaqa jarayonida bahslashuvga kirishiladigan yakka turdagi sportchi hamda jamoa” bilan raqobatlashish sportchi faoliyati uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu faoliyat uning shaxs sifatida o‘zini namoyon qilish, o‘zini-o‘zi faollashtirish vazifasini bajaradi. Shu munosabat bilan jamiyatda sport ijodiga ijtimoiy hodisa sifatida to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish dolzarblashib bormoqda.

Sportdagi go‘zallikni his etish unga bo‘lgan qiziqishni mustahkamlaydi. Sportdagi go‘zallikni idrok etish esa uni yanada tushunarli va barqaror qiladi. Qiziqish - estetik tarbiyaning asosiy komponenti. U maxsus ta’limiy va tarbiyaviy vositalar yordamida faollashtiriladi va permanent qo‘llab-quvvatlanadi. Shundagina, yoshlarning sport estetikasiga bo‘lgan qiziqishi asosida estetik tarbiya o‘zining yuqori darajasiga yetadi. Qiziqish ushbu jarayonda yoshlar shaxsidagi eng muhim asosni ta’minlaydi.

Jismoniy barkamollik - bu ijtimoiy munosabatlar shakllarini namoyon qilish usuli sifatida harakat faoliyatida amalga oshiriladigan, tarixiy o‘ziga xos jamiyat tomonidan belgilanadigan shaxs jismoniy qobiliyatlari rivojlanishining optimal darajasidir. Sport doimo insonlarning jismoniy barkamollikka erishishini maqsad qilib qo‘yishi lozim. Agar ijtimoiy hayotda sportga bo‘lgan munosabat o‘zgarib borsa, g‘arazli manfaatlar va kibrga xizmat qilsa sportning estetiklik sifatlari yo‘qoladi.

Har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs Yangi O‘zbekiston strategiyasining oliy maqsadidir. Bugungi kun sport-sog‘lomlashtirish sharoitida insonning estetik va jismoniy sifatlarining uyg‘unligiga erishish lozim. Buning uchun har bir yosh avlodni sport g‘ozalligini anglab, uning unsonparvarlik mohiyatini anglashi, natijaga erishishda og‘ir-bosiq, sabr-qanoatli bo‘lishi lozim. “Sabrning ma’nosi arabchada achchiq, chidam, bardoshni anglatib, oshiqmasdan kutish yoki o‘zini tiya olish, toqat, chidam-bardosh, iroda va qanoat qilish manosini anglatadi. Sabr kishilarning turli-tuman ziddiyatli voqea-hodisalarga bardosh qila olishini ham ifodalaydi”. Mana shunday sabrli va axloqiy fazilatlarga ega sportchilarni tarbiyalash, Yangi O‘zbekistonning Yuksalish strategiyasini asosiy yo‘nalishidan biri. Axloqiy fazilatda ega sportchi tomoshabinlar uchun tahsinga sazovor, zavqli o‘yinlar ko‘rsata oladi.

O‘zbekistonda yoshlar ta’lim-tarbiya tizimini uyg‘unlashtirish strategiyasining eng istiqbolli yo‘nalishlari-madaniyat va harakatli san’at yo‘nalishlarini shakllantirish usullari, inson va jamiyat hayotida jismoniy hamda ma’naviy tamoyillar dialektikasini rivojlantirish, sportchilarni ijtimoiy himoya qilish lozim. Sportning aksiologik-me’yoriy tuzilmasi, yoshlar o‘rtasidagi raqobatli o‘yinlarni tashkil etishning yangi modellarining paydo bo‘lishi, jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish, mamlakat aholisining sog‘lom turmush tarziga intilish ko‘nikmalarini oshirishda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, sport estetikasining yoshlar jismoniy barkamolligini shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Bu nafaqat jismoniy sog‘lomlik, balki ruhiy barqarorlik, estetik did, sahna madaniyati va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni ham rivojlantiradi. Shu boisdan ta’lim muassasalarida sport estetikasiga asoslangan mashg‘ulotlarni kengaytirish va rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi//“Yangi O‘zbekiston”, 2021 yil, 7 noyabr.
2. Tursunaliyev I.A. Sport o‘yinlari. Toshkent. “Umid Design”. 2021. B-317.
3. Olimova, N. (2021). “Estetik tarbiyaning yoshlar ongiga ta’siri.” Pedagogik izlanishlar jurnali, №2, 36–39.
4. Qodirov, S., & Hamroyev, B. (2018). Jismoniy tarbiya darslarida estetik tarbiya elementlarining o‘rni. Andijon: AndMI nashriyoti.
5. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. T., 2009. -B.499.
6. Ochilova B.M. Axloq falsafasi. Toshkent: “Ijod-Print”, 2019. B- 107.


## OAV va OKV – DAVLAT VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI STRATEGIK KOMMUNIKATSIYA KO‘PRIGI SIFATIDA


**Eshbekov Bahodir Nurullayevich**
**Falsafa fanlari bo‘yicha doktori (PhD)**
**O‘zbekiston jahon tillar universiteti mustaqil tadqiqotchisi (DSc),**
**E-mail:**bahodireshbekov727@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-3741-6628



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida so‘z erkinligini ta’minlash va axborot sohasini rivojlantirish masalalari tahlil etiladi. Muallif tomonidan ayniqsa ommaviy axborot vositalari (OAV) hamda ommaviy kommunikatsiya vositalari (OKV)ning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va funksiyalari keng ko‘lamda yoritiladi.



**Kalit so‘zlar.** so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalari (OAV), ommaviy kommunikatsiya vositalari (OKV), axborot siyosati, davlat va jamiyat muloqoti, raqamli media, axborot erkinligi, kommunikatsiya tizimi, ochiqlik, demokratik islohotlar.


XXI asrda demokratik jamiyatlar taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri bu – so‘z erkinligi va ochiq axborot maydonining mavjudligidir. Har qanday rivojlanayotgan davlat uchun fuqarolarning erkin axborot olish huquqini ta’minlash, OAV (ommaviy axborot vositalari) va OKV (ommaviy kommunikatsiya vositalari) faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, axborot siyosatini zamon talablari asosida yuritish

strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, “dunyoqarashning o‘zgarishi eng murakkab jarayon bo‘lib, inersiyani davom ettiradi, lekin shu bilan birga ijtimoiy rivojlanishning barcha boshqa sohalariga ta’sir qiladi, ulardagi o‘zgarishlarni aniqlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi” [1,131].

Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida so‘z erkinligini ta’minlash — fuqarolarning o‘z fikrini erkin bildirish, tanqidiy fikrlashga imkon yaratish va davlat organlari faoliyatini ochiq muhokama qilishga sharoit yaratadi. Bu esa jamiyatda ishonch muhitini shakllantiradi, korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik nazoratini kuchaytiradi va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi. OAV va OKV (ommaviy kommunikasiya vositalari) tushunchalari mantiqan bir ma’noga ega bo‘lib, ular ikkalasi ham turli tizimlar o‘rtasida aloqa bog‘lash, bog‘langan holda aloqa, muloqot olib borish ma’nosida qo‘llaniladi. Ommaviy kommunikasiyaning uzviy va favqulotda ko‘rinishi bo‘lgan, siyosiy kommunikasiya, siyosiy munosabatlar va aloqalarda internet kommunikasiyasi istiloh va tushunchalari tahlil qilinar ekan, avvalo, kommunikasiya atamasiga o‘ziga qisqacha izoh berib o‘tish joiz bo‘ladi.

Bugun qayerda bo‘lishimizdan qat’iy nazar, har kuni va ko‘p miqdorda axborot olishga odatlangan televideniye, radio, internet va boshqa ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zamonaviy axborot jamiyatida aholini tarbiyalash, har bir inson dunyoqarashiga ta’sir etishda ommaviy axborot vositalarining muhim o‘rni yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining vazifalari, zamonaviy jamiyatda ommaviy axborot vositalarining xususiyatlari, jamoatchilik ongiga ta’sir qilishning asosiy usullari va ularning turli siyosiy voqyealarni yoritishdagi o‘rni hamda uning fuqarolarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllanishi va takomillashuvidagi beqiyos o‘rni tadqiq qilinadi va ilmiy xulosalar chiqariladi. Ushbu tadqiqotning yangiligi axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan ommaviy axborot vositalaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish vasvasalari tobora kuchayib borayotganida ifodalanadi. Va buni amalga oshirishning asosiy yo‘li yoshlarni oldindan dasturlashtirilgan xulq-atvor namunalariga o‘rgatish bo‘ladi. Ushbu tadqiqot aholiga manipulyativ ta’sir ko‘rsatish usullarini aniqlashga va buning salbiy oqibatlarini oldini olishga yordam beradi. “Ommaviy axborot vositalari og‘zaki va audiovizual ma’lumotlarning ommaviy takrorlanishi va tezkor uzatilishini ta’minlaydigan zamonaviy tashkiliy-texnik komplekslardan foydalangan holda, insonning hissiy tizimiga nafaqat ma’lumotlarning mazmuni, balki uni uzatish usuli bilan ham ta’sir qilishi mumkin” [2,52].

Ommaviy axborot vositalarining funksiyalari g‘oyasi o‘zgardi, chunki mavzuning o‘zi o‘zgargan. Zamonaviy, axborotga boy jamiyatda ommaviy axborot vositalari o‘tgan asrning birinchi yarmida o‘ynaganidan farqli, beqiyos muhimroq rol o‘ynaydi. Shunday qilib, dastlab odamlarning axborot va aloqaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun paydo bo‘lgan ommaviy axborot vositalari inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular ma’lumot beradi, tahlil qiladi, dunyoning rasmini shakllantiradi va ko‘ngil ochadi. Bundan tashqari, “ommaviy axborot vositalarining har qanday funksiyasini ma’lum darajada ta’sir qiluvchi deb hisoblash mumkin: ma’lum bir vaziyat to‘g‘risida yangi bilimlarni yetkazish, qadriyatlarni,

xatti-harakatlar modellarini, odatlarni shakllantirish yoki o‘zgartirish, dunyoning ma’lum bir rasmini yaratish, sotib olish, muayyan mahsulot yoki xizmat ko‘rsatish” [3,31].

Ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, fuqarolik jamiyati instituti, ya’ni fuqarolik jamiyati, hokimiyat emas (garchi bu qisman sodir bo‘lsa-da) va tijorat tuzilmalari emas. Shunga ko‘ra, “ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalari jamiyatni integrasiyalash vazifalari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, auditoriya uchun eng muhimi esa ommaviy axborot vositalarining yo‘naltiruvchi, ko‘ngilochar, utilitar, ijtimoiy institutlar uchun esa tashkiliy, tashviqot va tashviqot funksiyasi hisoblanadi” [4,991].

O‘zbekistonda OAV va OKV rivojiga e’tiborning yorqin ko‘rinishi misolida O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4366-son qaroriga muvofiq hamda ommaviy axborot va kommunikasiyalar sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 dekabr, 1017-sonli “Ommaviy kommunikasiyalar sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarorini [5] aytish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar davlat siyosatining ijtimoiy adolat, huquqiy ong va madaniy-ma’rifiy taraqqiyotga asoslangan yo‘nalishini yaqqol namoyon etmoqda. Ayniqsa, inson va fuqarolar huquqlarining ajralmas qismi bo‘lgan so‘z erkinligini ta’minlash, uni amalda ro‘yobga chiqarish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Bugungi davrda OAV (ommaviy axborot vositalari) va OKV (ommaviy kommunikatsiya vositalari) an’anaviy shakllar (gazeta, jurnal, televidenie) bilan bir qatorda internet va raqamli platformalar orqali ham faoliyat yuritmoqda. Bu esa jamiyat va davlat o‘rtasidagi muloqot shakllarining yangilanishi, axborot almashinuvi tezligi va qamrovi ortganini bildiradi. Aynan raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi fuqarolarning axborotga bo‘lgan bozor talabini qondiribgina qolmay, balki davlat hokimiyatining ochiqligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynamoqda.

Davlat siyosatining amaldagi ko‘rinishida OAV va OKV siyosiy hokimiyatning “oynasi”, ya’ni fuqarolar uchun davlat qarorlarini kuzatish, tahlil qilish, muhokama qilish vositasi sifatida maydonga chiqmoqda. Shu sababli ushbu tizimni takomillashtirish, ularning texnologik bazasini yangilash, jurnalistik salohiyatni oshirish va eng muhimi — uni jahon kommunikatsiya tizimlari darajasiga olib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, OAV va OKV bugungi kunda oddiy “axborot vositasi” emas, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi kommunikatsion ko‘prik, siyosiy irodani fuqarolarga yetkazuvchi va ularning fikrini davlatga yo‘naltiruvchi vosita sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tizimni rivojlantirish va erkinligini ta’minlash davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar (Reference)**

1. Дадыка А.Е. Назар Р.Н. Влияние СМИ на мировоззрение студента-архитектора // Вестник Донбасской национальной академии строительства и архитекту- ры, № 1 (123), 2017 г. С: 131-134.
2. Беленькая Ю.П. «Средства массовой информации и медиа-среда как фактор формирования общественного мнения» // Вестник Ставропольского государ- ственного университета, № 4, 2010 г., С:52-57.
3. Комаровский В. С. Государственная Служба и СМИ. — Воронеж. Издательство ВГУ, 2003.
4. Башук, М. С. Политические функции средств массовой информации / М. С. Башук. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 10 (90). — С. 991-993. — URL: https://moluch.ru/archive/90/18507/
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy axborot va kommunikatsiyalar sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1017-son qarori // https://lex.uz/docs/-4655428
6. Эшбеков Б. Особенности СМИ в повышении социальной активности граждан в Новом Узбекистане //Общество и инновации. – 2024. – Т. 5. – №. 1. – С. 80-88.
7.

# EKOFALSAFA: INSONIYATNING TABIAT OLDIDAGI MAS’ULIYATI

**Haqqulov Nabijon Qahramonovich,**
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa doktori (PhD)
e-mail: nabijonhaqqulov83@gmail.com
**Ro‘ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o‘g‘li,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi
**ahrorproduction@gmail.com**

**Annotatsiya:** Inson va tabiat o‘rtasidagi ontologik va aksiologik munosabatlar qadim zamonlardan buyon falsafaning markaziy muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda. Falsafa bu borada nafaqat tabiatning mohiyatini va insonning unga nisbatan ontologik maqomini o‘rganadi, balki insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini axloqiy va ekzistensial nuqtai nazardan ham tahlil qiladi. Ushbu maqolada insoniyatning tabiat bilan ziddiyatli hamda o‘zaro bog‘liqlikka asoslangan munosabati falsafiy tafakkur doirasida tahlil qilinadi. Shuningdek, tabiatni faqatgina utilitar yondashuv bilan emas, balki uning ichki qadriyatlarini tan olish zarurati asoslanadi. Maqola ekologik ongni shakllantirishda falsafaning roli va bu ongning insoniyat kelajagiga ta’siri haqida falsafiy xulosalar beradi.

**Kalit so‘zlar:** Ekologiya, Tabiat, Insoniyat, Tabiiy resurslar, Iqlim o‘zgarishi, Ekologik inqiroz, Barqaror rivojlanish, Tabiat bilan muvozanat, Ekologik barqarorlik, Kelajak avlodlar, Yashash manbai, Tirik mavjudotlar.

Falsafa va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik insoniyatning tabiat bilan qanday aloqada bo‘lishi, uning ontologik maqomi va axloqiy mas’uliyatini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilk falsafiy qarashlarda inson ko‘pincha tabiatdan ajratilgan, ongli mavjudot sifatida unga nisbatan ustunlik mavqeida tasvirlangan. Tabiat esa asosan insoniy ehtiyojlarga xizmat qiluvchi obyekt sifatida talqin etilgan.

Biroq, so‘nggi asrda yuzaga kelgan ekologik inqirozlar, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va tabiiy resurslarning kamayishi kabi global muammolar, bu antropotsentrik yondashuvni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda falsafa inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni nafaqat utilitar darajada, balki aksiologik va ekzistensial jihatdan ham qayta tahlil qilish zaruratini ilgari surmoqda. Bu esa ekologik ong va ekologik etik tamoyillarning shakllanishiga zamin yaratadi. “Falsafa, bu jarayonlarni tushunishda faqat aqliy yondashuvdan iborat bo‘lib qolmay, balki ekologik mas’uliyat va tabiatga bo‘lgan hurmatni shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi” [1;255]

Insoniyatning tabiatga nisbatan munosabati doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Avvalda, odamlar tabiatni dominatsiya qilish va uning resurslaridan maksimal darajada foydalanish maqsadida qarorlar qabul qilishgan. Biroq, tabiat bilan o‘zaro muvozanatni yo‘qotish, resurslarni haddan tashqari sarflash va ekologik tizimning buzilishi insoniyat uchun jiddiy tahdidlarga olib keldi. Falsafiy nuqtai nazardan bu o‘zgarishlar insoniyatning axloqiy va ma’naviy mas’uliyatlarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi.

Bugungi kunda ekologiya va falsafa o‘rtasidagi bog‘lanish, insoniyatning kelajagi uchun muhim masalalarni hal qilishda markaziy o‘ringa ega. Tabiat va uning resurslariga bo‘lgan munosabat, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va kelajak avlodlarga mas’uliyatni anglash kabi falsafiy tushunchalar ekologik etikaning asosi bo‘lib qolmoqda. Shu tarzda, falsafa va ekologiya o‘rtasidagi uyg‘unlik insoniyatning tabiat bilan barqaror, mas’uliyatli va muvozanatli aloqada bo‘lishi uchun zaruriy asos yaratadi.

**Inson va tabiat: Falsafiy mushohada va ekologik mas’uliyat**

Insoniyatning tabiat bilan o‘zaro munosabati tarix davomida ko‘plab o‘zgarishlarga duch keldi. Dastlabki jamiyatlar tabiatga muhtoj bo‘lib, uning resurslaridan hayot davomida zarur bo‘lgan barcha narsalarni olishgan. Tabiat insonning kundalik ehtiyojlarini qondiradigan, uning hayotini qo‘llab-quvvatlaydigan muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Primitiv jamiyatlar uchun tabiat, ayniqsa yovvoyi o‘simliklar va hayvonlar, insonning hayotini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan resurslar manbaiga aylangan. Ushbu davrda insonlar tabiatni o‘zaro aloqada va moslashgan holda, uni o‘z manfaatlari uchun ishlatishgan. Shu bilan birga, tabiat bilan o‘zaro munosabatlar har bir jamiyatda maxsus diniy va mifologik tasavvurlar bilan boyitilgan. Tabiatning

muqaddasligi va uning kuchlari bilan insonlarning o‘zaro aloqasi ko‘plab qadimiy e’tiqodlarda aks etgan.

Qishloq xo‘jaligi inqilobi insoniyat tarixidagi eng muhim burilishlardan biri bo‘ldi. Bu davrda insonlar tabiatni faqat o‘z hayotini qo‘llab-quvvatlash uchun emas, balki uni o‘zlarining ehtiyojlariga ko‘ra shakllantirishga kirishdilar. Yerni ekishga, hayvonlarni boqishga va tabiiy resurslarni saqlab qolish orqali insonlar o‘zlarining ijtimoiy tuzilmalarini rivojlantira boshladilar. Biroq, bu o‘zgarishlar tabiatga yanada kuchliroq ta’sir ko‘rsatdi va yerning tabiiy holatini o‘zgartirishni boshladi.

Sanoat inqilobi — XVIII asr oxiridan XX asr boshlariga qadar davom etgan jarayon — insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabatida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Bu davrda tabiatni ishlatish nafaqat kundalik hayotning ehtiyojlariga, balki sanoat ishlab chiqarishining kuchayishiga xizmat qila boshladi. Zavodlar, fabrikalar, yangi texnologiyalar va temir yo‘llar orqali tabiatga bo‘lgan ta’sir keskin kuchaydi. Tabiat resurslari, jumladan, yoqilg‘ilar, metallar, o‘rmonlar va suv havzalari tezda ekspluatatsiya qilindi. Bu jarayonning natijalaridan biri sifatida ekologik buzilish va hayvonot dunyosining kamayishi boshlandi [2;20].

XX asrning oxirlariga kelib, insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabati yanada chuqurlashdi va murakkablashdi. Tabiatning ekspluatatsiyasi natijasida ekologik inqirozlar, masalan, iqlim o‘zgarishi, resurslarning tugashi, tuproq eroziyasi va chiqindilarning to‘planishi kabi masalalar yuzaga keldi. Shu bilan birga, bu muammolar insoniyatni tabiatga bo‘lgan qarashini qayta ko‘rib chiqishga majbur etdi. Ekologiya fanining rivojlanishi, yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillari joriy qilinishi, tabiiy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha yangi siyosatlar ishlab chiqilishi insoniyatning tabiat bilan muvozanatli munosabatini qayta tiklashga harakat qilmoqda.

Bugungi kunda insoniyat tabiatga bo‘lgan munosabatini yanada yaxshilashga intilmoqda. Biroq, tabiatga bo‘lgan ta’sirni minimallashtirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish juda murakkab vazifadir. Tabiatning holati nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy masalalar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Insoniyatning tabiatga nisbatan mas’uliyatini oshirish va kelajak avlodlar uchun barqaror hayot sharoitlarini yaratish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir.

**Ekofalsafa: Inson va tabiat o‘rtasidagi falsafiy munosabatlar**

Falsafa va ekologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini chuqur tushunishga yordam beradigan ko‘plab nazariy va amaliy konsepsiyalarni keltirib chiqaradi. Ushbu ikki soha bir-birini to‘ldirgan holda, insonning atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatini, uning tabiat bilan qanday o‘zaro aloqada bo‘lishini va barqaror rivojlanish tamoyillarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Falsafaning asosiy maqsadi – dunyoni va undagi insonning o‘rnini tushunish, axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Falsafiy qarashlar tabiat va insonning o‘zaro bog‘liqligini turli xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Masalan, antik falsafada tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlashning ahamiyati katta edi. Aristotel, ayniqsa, "o‘zgarish va tekislik" tamoyilini ishlab

chiqqan va bu tabiat bilan insonning muvozanatini saqlashda muhimligini ta’kidlagan [3;329].

Keyinchalik, Zamonaviy falsafada insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabati yanada chuqurlashdi. Fransuz faylasufi Rene Dekart, o‘zining dualizm konsepsiyasida, tabiatni xomashyo va insonni esa tafakkur qilish qobiliyati bilan ajratib ko‘rsatgan. Bu qarash, ayniqsa, sanoat inqilobi davrida tabiatning resurs sifatida ishlatilishini qo‘llab-quvvatlagan, ammo bu yondoshuvning ekologik oqibatlari vaqt o‘tishi bilan aniq sezila boshladi.

XX asrda, ekologiya fani rivojlanishi bilan falsafiy yondoshuvlar ham tabiiy muhitni saqlashning ahamiyatiga to‘xtaldi. Yuqori darajadagi etik masalalar, masalan, "yashil" falsafa, bioetik va ekologik etikaga oid fikrlar o‘rganildi. Yashil falsafa atrof-muhitni himoya qilishning axloqiy mas’uliyatini insoniyatga yuklaydi va tabiatni faqat resurs sifatida emas, balki mustahkam yashash manbai va boshqa jonivorlar bilan birgalikda rivojlanish uchun zarur ekosistema sifatida ko‘radi [4;395].

Ekologiya va falsafaning o‘zaro bog‘liqligi yana shundaki, ular tabiatni himoya qilish uchun ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu ikki soha birgalikda barqaror rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqadi, atrof-muhitni saqlashga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqishga yordam beradi, insonning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi va ekologik adolatni ta’minlashga intiladi.

Shunday qilib, falsafa va ekologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini yanada yaxshilashga imkon beradi. Bu o‘zaro aloqalar orqali, tabiat va uning resurslaridan foydalanishning axloqiy va ijtimoiy jihatlari to‘g‘risida chuqurroq fikr yuritish mumkin bo‘ladi, bu esa ekologik barqarorlik va kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlab qolishning muhimligini ta’kidlaydi.

**Global inqirozda inson axloqi: Barqaror rivojlanish sari falsafiy nigoh**

Ekologik inqiroz va axloqiy mas’uliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy jamiyat uchun juda muhim. Insoniyat tabiat resurslaridan haddan tashqari foydalanib, ekologik muammolarni keltirib chiqardi, bu esa faqat atrof-muhitga emas, balki insonlarning o‘z hayotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bunday sharoitda axloqiy mas’uliyat juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ekologik inqirozning asosiy sabablari insonning tabiatga beparvoligi va tabiiy resurslarni qisqa muddatda maksimal darajada ishlatishga urinishidir. Sanoat rivojlanishi, resurslarning haddan tashqari iste’moli, chiqindilarni samarali boshqarmaslik kabi omillar, o‘z navbatida, ekologik buzilishlarga, iqlim o‘zgarishiga va biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda.

Axloqiy mas’uliyat — bu nafaqat atrof-muhitni saqlash, balki uning kelajagini o‘ylab, kelajak avlodlarga tabiiy resurslarni saqlab qolishdir. Har bir insonning mas’uliyatli yondashuvi ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Axloqiy qarashlar asosida insoniyat, tabiiy resurslarni boshqarishda adolatli va barqaror usullarni tanlashi kerak.

Barqaror rivojlanish, o‘z navbatida, ekologik mas’uliyatni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida resurslarni oqilona ishlatish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, shu bilan birga iqtisodiy farovonlikni ta’minlash talab

etiladi. Bu, axloqiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ekologik inqirozga qarshi kurashishda axloqiy mas’uliyatning o‘rni muhim. Insoniyat tabiatni faqat o‘z manfaatlari uchun emas, balki butun tirik mavjudotlar uchun saqlashi kerak. Ekologik mas’uliyatni his etish va unga amal qilish, tabiatni tiklashga, resurslardan samarali foydalanishga va kelajak avlodlar uchun barqaror yashash sharoitlarini yaratishga imkon beradi.

**Insoniyat va ekologik sinov: Axloqiy mas’uliyat va kelajak istiqbollari**

Kelajakdagi istiqbollar va insoniyatning roli falsafa va ekologiya nuqtai nazaridan keng qamrovli muhokama talab qiladigan mavzudir. Hozirgi kunda biz kelajakdagi yutuqlarni ko‘rish va istiqbollarni shakllantirish borasida ko‘plab o‘zgarishlarga duch kelmoqdamiz. Bu o‘zgarishlarning asosida ilm-fan, texnologiyalar, iqtisodiyot va ijtimoiy tuzilmalarning rivojlanishi yotadi. Shuningdek, tabiat va ekologik barqarorlik masalalari ham muhim rol o‘ynaydi.

Falsafaning kelajak haqidagi qarashlari, odatda insoniyatning mavjudligi, maqsadi va axloqiy mas’uliyati bilan bog‘liqdir. Kelajakni ko‘rib chiqishda, insoniyatning rivojlanishi faqat ilmiy-texnologik taraqqiyotda emas, balki uning axloqiy qarashlarida, ijtimoiy tuzilmasi va tabiatga bo‘lgan munosabatida ham ko‘rinishi kerak. Kelajakdagi istiqbollarni shakllantirishda faqat ilm-fan va texnologiya yutuqlarini hisobga olish yetarli emas, balki insoniyatning axloqiy mas’uliyatini, ekologik barqarorlikni va tabiiy resurslardan samarali foydalanish zaruratini ham yodda tutish lozim.

Ekologiya va falsafaning kesishgan nuqtasida kelajak istiqbollari va insoniyatning roli bir-biriga bog‘liqdir. Tabiatga qarshi agresiv foydalanish, resurslarni isrofgarchilik bilan sarflash, va iqlim o‘zgarishi kabi muammolar ekologik inqirozga olib kelishi mumkin. Shu sababli, insoniyatning kelajagi faqat barqaror rivojlanish, ekologik saqlash va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan holda amalga oshirilishi mumkin. Insoniyatning roli nafaqat texnologiyalarning rivojlanishida, balki ekologik tizimning barqarorligini saqlashda ham mavjud.

Kelajakda insoniyatning mas’uliyatini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, tabiiy resurslarni ehtiyotkorlik bilan ishlatish, va ijtimoiy adolatni ta’minlash zarur bo‘ladi. Bularning barchasi falsafaning etik va ekologik aspektlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Falsafaning bu boradagi o‘rni, kelajakni qurishda axloqiy mas’uliyatni anglash va unga muvofiq harakat qilishda bo‘ladi. Shuning uchun, insoniyatning kelajagi ham ekologik, ham axloqiy mas’uliyatga asoslangan yondoshuvni talab qiladi.

Kelajakdagi istiqbollarni shakllantirishda falsafa va ekologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik insoniyatning kelajakdagi hayoti, rivojlanishi va o‘zgaruvchan muhitga moslashishini belgilovchi asosiy omil bo‘lib qoladi. Insoniyatning roli faqat taraqqiyotda emas, balki kelajakni barqaror va xavfsiz qilishda ham o‘z aksini topishi kerak.

**Xulosa.** Insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabati tarix davomida ko‘plab o‘zgarishlarga uchradi. Dastlabki davrlarda tabiat insonning hayotini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim manba bo‘lsa, sanoat inqilobi va zamonaviy texnologiyalar bu munosabatni tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda ekologik

inqirozlar va iqlim o‘zgarishlari bizni tabiatga qarshi tajovuzkor yondashuvni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Falsafaning bu boradagi roli, insoniyatning axloqiy mas’uliyatini anglab, tabiiy resurslardan samarali foydalanishga chaqirishda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, kelajakdagi istiqbollarni shakllantirishda insoniyat nafaqat ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishida, balki ekologik barqarorlikni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Falsafaning etik yondashuvi, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, va tabiat bilan muvozanatli munosabatlarni ta’minlash insoniyatning kelajagi uchun asosiy omil bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Jonas, Hans. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the technological age. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – 255 p.
2. Mokyr, J. (1985). The industrial revolution and the new economic history. The New Economic History Review, 38(2), 1-23. https://doi.org/xxxxx
3. Aristotel. Nikomax axloqi / D. Ross tarjimasi. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 329 b.
4. SINGER, Peter. Practical Ethics. – 2-nashr. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – 395 b.
5. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.


## BO‘LAJAK KADRLARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH


**Isroilov Qobuljon Toshtemirovich**

Samarqand Zarmed universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo‘lajak kadrlarni pedagogik faoliyatining muhim jihatlari va dars jarayonini samarali tashkil etishning ahamiyati muhokama qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchi faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, yuksak salohiyatli kadrlarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatish zarurligi ta’kidlangan. Shu maqsadda, turli interaktiv metodlarni qo‘llash orqali talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchining metod tanlashda guruhning ilmiy darajasiga, qiziqishlariga va emotsional holatiga e’tibor qaratishi kerakligi ko‘rsatilgan.



**Tayanch so‘z va iboralar:** Barkamol inson, aqlan yetuk inson, akmeshaxs, interfaol metodlar, interaktiv metodlar, axborotli metod, ma’ruza, reproduktiv metod, suhbat, savol-javob, topshiriq.


Bugungi dunyoning eng dolzarb masalalaridan biri har tomonlama kamolga yetgan, aqlan yetuk, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat bo‘lib, bu vazifa, asosan, o‘qituvchilarning zimmasiga yuklatilgan. Boshqa fanlardan farqli o‘laroq, pedagogika va psixologiya darslarida bunga ko‘prok e’tibor beriladi.

Chunki ushbu fanlar yoshlarni komillikka chorlaydi. Inson komil bo‘lishi uchun mustaqil fikr yurita olishi shart. Mustaqil fikr yurita olgan insonlar esa ijodkor bo‘ladi. Demak, o‘qituvchining bosh vazifasi - bo‘lajak kadrlarlarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O‘qituvchi har bir darsni o‘tish jarayonida qaysi metoddan foydalanishi, bu metodni amalga oshirishda qanday amallar, metodlar yordamga kelishi, shu bilan birga, dars jarayonining vositalari va shakllari xususida to‘la ma’lumotga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Mana shu o‘rinda o‘qituvchi uchun muallimlik faoliyatida zaruriy bo‘lgan suhbatni qiziqarli va ilmiy o‘tkazish, talabalarga axborotni ta’sirli va ishonuvchan yetkazish, ko‘rgazmali quroldan yoki texnika vositalaridan samarali foydalanish, o‘zining va boshqalarning tajribalaridan ongli, zaruriy holda mantiqiy va estetik prinsiplarga amal qilgan holda foydalanish kabi elementlarni aytib o‘tish joizdir. Bunda o‘qituvchi imkoniyatlari bo‘lajak kadrlarlarning saviyasiga, bilim va malaka darajasiga, sinfning qiziqishi, emotsional darajasiga va boshqa jihatlarga ham bog‘lik bo‘lishi kerak. Aks holda yaxshi metod, qo‘llanilgan metod natija bermasligi mumkin. Masalan, o‘qituvchi muammoli dars metodidan foydalanmoqchi bo‘lsa-yu, bo‘lajak kadrlarlarning ilmiy bilim darajalari, qabul qilish, fikrlash, xulosalash qobiliyatlari bunga javob bermasa, o‘qituvchi o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Shuning uchun, har bir dars bo‘yicha metod va metodlar tanlashi shakl va vositalardan foydalanishi, qisqasi, darsning tematik-sxemasi o‘qituvchi tomonidan yaxshi o‘ylab rejalashtirilgan bo‘lishi shart.

Har qanday usul turli shakllar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, axborot metod ma’ruza, o‘quv filmini ko‘rsatish kabi shakllardan tashkil topadi. Reproduktiv metodning shakllanishida esa suhbat, savol-javob, topshiriq kabilardan foydalaniladi. O‘tilgan mashg‘ulotlardagi nazariy va amaliy yangiliklar doimo takrorlanib turgandagina bo‘lajak kadrlarlarning xotirasiga muhrlanib qoladi. “Tez yurar” metodida o‘tilgan va avval o‘tilgan mavzular doimo takrorlanadi. Bu takror faqat qoida aytish, yod olish asosda ko‘rilmasdan, mantiqiy fikrlash, idrok etish, mulohaza qilish, xulosa chiqarish, fikrni jamlash asosidagi javoblar asosda ko‘riladi”[1-23]. Biz tavsiya etayotgan mazkur metodda asosiy e’tibor bo‘lajak kadrlar tomonidan qoidani aytishdan chekingan holdagina nazariy ma’lumotlarning amaliy tomonini aks ettiruvchi mantiqiy savollar tuzish yoki unga javob berishdan iboratdir. Bo‘lajak kadrlarlarni ijodiy va mustaqil fikr yuritishga hamda nutqiy faollikka undovchi metodlardan biri bu “Fikrni davom ettiring” usuli hisoblanadi. Mavzu doirasida qandaydir fikr bildirish talab etiladi. Bu usul ularni mustaqil fikrlashga, tezkor mushohadaga va ifoda imkoniyatining kengayishiga ijobiy ta’sir etadi.

Shuningdek, “Xotira mashqi” usuli bo‘lajak kadrlarlarning xotirasini mustahkamlashga, teran fikrlashga, aniq va ravon so‘zlashga o‘rgatadi. Bu usulni qo‘llashdan avval bo‘lajak kadrlar kichik guruhlarga ajratiladi va bellashuv o‘tkazilishi aytiladi, unda tezkorlik, xotira va bilimdonlik talab etilishi ta’kidlanadi. Talabalar belgilangan vaqt oraligida yodida qolgan so‘zlarni yozuv taxtasida yozadilar, unutib qoldirilgan so‘zlarni guruh a’zolari to‘ldiradilar va ularga izoh berib, misollar keltiradilar. Qaysi guruh a’zolarining xotirasi va javoblari yaxshi bo‘lsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

Bu metodlarda bo‘lajak kadrlar o‘z bilimini o‘zi aniqlaydi, o‘zini o‘zi baholaydi. “Ya’ni bilimi qay darajada ekanligiga tashhis qo‘yiladi va keyingi yangi mavzu bahsida shu tashhis asosida ularga bilim beriladi. Bu metodni o‘tkazish uchun bo‘lajak kadrlarlarga beriladigan savollar tushunarli, qisqa va aniq javob talab qiluvchi bo‘lishi; javobi “ha” va “yo‘q” so‘zlar bilan kelmasligi; savollar kitobiy bo‘lmasdan amaliyotdan olingan bo‘lishi; yangi va eski o‘tilgan mavzular bo‘yicha tayyorlanishi, hamda bo‘lajak kadrlarlarni mushohada asosida javob berishlarini nazarda tutishlari lozim bo‘ladi”[2-2]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘qituvchi o‘z darslarini rejalashtirishda metodlarni to‘g‘ri tanlashi, ularni o‘zaro muvofiqlashtirib, darsning shakllari va vositalarini to‘g‘ri ishlatishi zarur. Shuningdek, metodlarning samaradorligini nazorat qilish va talabalar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish orqali ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Ahmedova M “Pedagogika nazariyasi va tarixi”. T.: “Tafakkur bo‘stoni” 2011 yil B.23.
2. Muslimov N., Usmonboyeva M."Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" Toshkent - 2015;
3. Кулиева Ш.Х. Методологические основы системного подхода при подготовке учителей // TheWayofScience. № 5 (39) ,2017. - С.66-67.
4. Печеркина, А. А. Развитие профессиональной компетентности педагога: Теория и практика [Текст]: монография / А. А. Печеркина, Е. Е. Симанюк, Е. Л. Умникова: Уральский государственный педагогический университет. - Санкт-Петербург: [б.и.], 2011. - 233 с.
5. Фролова О.С. Формирование инновационной компетенции педагога в внутришкольного повышения квалификации. Дисс.к.п.н. Воронеж 2018.


## TA’LIM - TARBIYANI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA MILLIY VA MA’NAVIY QADRIYATLAR DEFORMATSIYASINI OLDINI OLISH ZARURATI


**Sayidova Muhabbat G‘afforovna**
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi
jayronmalika@mail.ru



**Annotatsiya:** Maqolada bugungi globallashuv sharoitida axborot oqimining haddan tashqari ko‘p va turli- tumanligi jamiyatdagi texnologik o‘zgarishlar bilan birgalikda unga mos ravishda millatga, elatga xos bo‘lgan xususiyatlar ham jiddiy deformatsiyaga uchrayotganligi, millliy qadriyatlarga ham xavf solayotganligi va unga qarshi kurash usullari tahlil etiladi



**Kalit so‘zlar:** milliy mentalitet, ma’naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, globallashuv, manipulyatsiya.


Jamiyat taraqqiyoti yo‘lida har qanday ta’sir etuvchi omillarni (masalan “ommaviy madaniyat” eskalatsiyasi) ijtimoiy-falsafiy tahlil etish muhim hisoblanib,

bu boradagi ilmiy tadqiqotlar o‘ziga xos ahamiyatga ega va bir qator manbalar mavjud. Ammo bu tadqiqotlarda masalaning muayyan tomonlarigina o‘rganilib, jamiyatdagi pozitiv o‘zgarishlarga olib kelar darajada emas deb hisoblaymiz. Chunki, biz o‘rgangan manbalar, tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, milliy o‘zlikni asrash, millat kelajagi bo‘lmish yoshlar ongida milliy g‘urur, iftixor kabi tuyg‘ularni singdirish, ularni shu yo‘lda vatanparvarlik ko‘rsatishiga olib boradigan ijtimoiy islohotlarmizni “qayta ko‘rib chiqish” zarurligini ko‘rsatmoqda.

Inson ongi tafakkuri uchun kurash jarayonlari xozirgi globallashuv davrida tobora jadallashib avj olib borar borar ekan kishilik jamiyatining negizi bo‘lmish madaniy qadriyatlar, tarix hamda kelajak, millat va mamlakat ravnaqi bilan bog‘liq qarashlar o‘z-o‘zidan dolzarb mavzuga aylanadi. Bugungi barcha jabhadagi kuchli raqobat, arzon ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyoj, shaxsning o‘z nafsining asiriga aylanishiga, insonning ma’naviy dunyosida katta evrilishlarga, kuchli o‘zgarishlarga olib keldi. Demokratiyaning g‘arbona universal modeli sharq mamlakatlari mintalitetiga to‘g‘ri kelmasligi oqibatida sharq va g‘arb sivilizasiyasi o‘rtasida o‘zaro mafkuraviy kurash boshlanib ketdi. Bunday o‘zaro tafovut tufayli global tarmoqlarda turli ko‘rinishdagi axborotlarning ayniqsa ommaviy madaniyat elementlarining hech qanday moneliksiz tarqalishi orqasidan milliy madaniyatimizga yot bo‘lgan madaniy unsurlarning yosh avlod ongiga asta sekinlik bilan singib borishi biz uchun an’anaviy sanalgan oila, mahalla, qo‘ni-qo‘shnichilik, kattalarga izzatu, kichiklarga hurmat kabi jamiyatimiz ma’naviy hayotining negizi bo‘lgan tushunchalarning mohiyatida ham bir qancha o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. Ayniqsa aksariyat vaqtini turli ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotgan yoshlarimiz ongiga turli g‘arb urf-odatlarini targ‘ib qiluvchi axborotlarning singdirilishiga, ularni ma’naviy qaram qatlamga aylantirishga qaratilgan hatti-harakatlar hozirgi kunda ham davom etapti. Ho‘sh bunday axborotlarni tarqatishdan umuman odamni ma’naviy manqurtga aylantirish nimaga kerak? Bundan maqsad nima? Bunday ma’naviy qaram odamlarda bittagina istak bo‘ladi, u ham bo‘lsa “qorin” g‘ami. Bunday odamlar uchun oilaning ota-onaning, mehr oqibatning qadri qolmaydi, u nafaqat nafsining quliga aylanadi, shu bilan birga fikr yuritish, tafakkur qilish kabi tushunchalardan yiroqlashib boradi, ohir-oqibat o‘z xojasining itoatkor quliga aylanib qoladi. Bunday ommani boshqarish ancha oson.

Xo‘sh jamiyatimiz oldida shunday dolzarb masala, millatning taqdiri masalasi turgan ekan bu muammoning qanday yechimi bor? Qanday qilsak yoshlarimiz ongini bunday ma’naviy xurujlardan asray olamiz? Bu masalaga turli rakkurslardan yondashib, har xil vosita va elementlar orqali yosh avlod ongini himoyalashimiz mumkin.

Birinchidan: hozirgi ta’limi tizimiga milliy mentalitetimizni targ‘ib qiluvchi, ma’naviy-ma’rifiy o‘quv dasturlarini joriy qilish. Bunda albatta an’anaviy ta’lim shaklidan chekinib turli taqdimotlar, elektron darsliklar, zamonaviy kliplar yoki kinolar kabi axborotlardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish. Faqat shunday yondashuv orqali yoshlarimiz diqqatini o‘zimizga jalb qila olamiz. Bunday yondashuv albatta o‘z natijasini beradi. Bu jarayonda yoshlarning me’dasiga teguvchi quruq va zo‘raki propagandadan butunlay voz kechish eng muhim faktorlardan biri bo‘lmog‘i lozim.

Ikkinchidan: Ijtimoiy tarmoqlarning mahalliy segmentida tariximizni, oilaviy qadriyatlarimizni, ma’naviy me’rosimizni targ‘ib qiluvchi yorqin axborotlarni tijorat asosida targ‘ib qilinishiga erishish. Bunda aynan moddiy manfaatdorlikni milliy madaniyat targ‘iboti bilan uyg‘unlashtirishning qonuniy tizimini yaratish eng muhim masalalardan biridir. Bunday tijoriy asosga ega bo‘lgan ma’naviy targ‘ibot mexanizmining faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali aynan targ‘ibot mexanizmining samarali faoliyatiga erishishimiz mumkin.

Uchinchidan: axborotlarni mohiyatiga, mazmuniga, maqsadiga va manbaasiga ko‘ra tasniflash kriteriylarini ishlab chiqish lozim. Shunda aynan biror bir axborotga nisbatan yondashuvning tez va to‘g‘ri bo‘lishiga asos yaratamiz. Manbaalarining xarakterini, ularninng faoliyatidan yoki ayni axborotni tarqatishdan ko‘zlangan maqsadi nima ekanligini tezda anglab yetish imkoniyati tug‘iladi.

Hozirgi global evrishlar, notichlik, iqtisodiy va ma’naviy inqirozlar avj olgan davrda kelajak avlodimizning ma’naviy-madaniy dunyosini himoya qilish jamiyatimizning har bir a’zosidan bu masalaga panja orqasidan qaramaslikni talab etadi. Ayniqsa ta’lim tizimi, mahalla instituti, huquq tartibot tizimining o‘zaro integratsiyalashgan faoliyati orqali bu masalanning samarali tizimini shakllantirish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1 Mirziyoev Sh.A. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2021.

2 Ғойибназаров Ш. «Оммавий маданият». – Т.: «Ўзбекистон», 2012.

3 Қодиров А. Оммавий маданият: таъриф, таҳлил, аксилтехнологиялар. – Тошкент: «Fan va texnologiya», 2017.; 3.Муҳамад Амин Яҳё “Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя”. –Тошкент.: Моваройуннаҳр. 2016.

4 Лебон Г. Психология народов и масс. - СПб., 1995.

5 Токвиль А. Демократия в Америке. - М.: Прогресс. Литера, 1994.

6 Быстрова, А. Н. Мировая культура. (Основы мирового общества): уч.пособие.– Новосибирск, 2002.

7 Берестовская Д.С. Диалог культур: Восток и Запад / Д.С.Берестовская // Мыслители XX века о культуре. – Симферополь: ИТ «АРИАЛ», 2010.

8 Aliev B. Taraqqiyotda axborotlashuv va raqamli iqtisodiyot //Asademis researsh in edusational ssienses. 2022. –T. 3. – №. 3. – S. 933-947.

9 Sollier D., Burkholder K., Branum T. Digital Learning: Meeting the Shallenges and Embrasing the Orrortunities for Teashers. Issue Brief // Sommittee for Esonomis Develorment. – 2013. –R.12.16

10 Rahmawati A., Sujono F. K. Digital sommunisation through online learning in Indonesia: Shallenges and orrortunities // Jurnal Asrikom. 2021. –T. 6. №. 1. – S. 61-76.

11 Yazdonov Ulugbek Tashmuratovich, Sayidova Muxabbat Gafforovna Zamonaviy dunyoda ma’naviy-madaniy deformatsiyalashuvni yuzaga keltiruvchi omillar. "Tamaddun nuri" jurnali 2024.09 175-179 betlar. (https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tn

12 Shevchenko H. et al. Spiritual Awakening of the Personality as key to Spiritual Security in the Context of Postmodernism // Postmodern Openings. 2021. –T. 12. –№.1. –R. 185-200

## IJTIMOIY TARMOQLARDAGI TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN O‘YINLARNING KELIB CHIQISHI VA TA’SIR ETISH XUSUSIYATLARI

**Ahmadjonov To‘lqinbek Akramjon o‘g‘li**
**Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarning ommaviylashuvi sabablari va ushbu o‘yinlarning foydalanuvchilarga ta’siri xususiyatlari, globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, iqtisodiy omillar va marketing strategiyalari kabi omillarning tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarning tarqalishiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu o‘yinlarning foydalanuvchilar psixologiyasiga ta’siri, qaramlikni shakllantirish mexanizmlari, moliyaviy, psixologik va ijtimoiy oqibatlari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar, yoshlar, moliyaviy savodxonlik, qaramlik, salbiy oqibatlar, qonunchilik, targ‘ibot.

XXI asrda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat muloqot vositasi, balki axborot olish, hordiq chiqarish, o‘z biznesini yuritish va hatto pul topish imkoniyatini beruvchi platformaga aylandi. Afsuski, ijtimoiy tarmoqlarda tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar tobora ommalashib bormoqda. Bu o‘yin - pul tikish, qimor, kazino o‘yinlari va shunga o‘xshash, yutish yoki yutqazish ehtimoli mavjud bo‘lgan o‘yinlardir. Ushbu o‘yinlar, ayniqsa yoshlar orasida, tez sur'atlar bilan tarqalmoqda va jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ushbu o‘yinning kelib chiqish sabablari va ta’sir etish xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar ilmiy tilda totalizator ham deyish mumkin. Totalizator- biror yo‘nalish yoki o‘yinda qaysidir tarafning boshqa, raqib tomoni ustidan zafar quchishini taxmin qilib, o‘zi ishongan ma’lum bir shaxs yoki jamoaga pul tikishdir. Aniqrog‘i, onlayn kazino, yana ham soddalashtirsak - qimor.

O‘rta asrlarda bu Yevropa mamlakatlari, xususan, britan hududlarida ot sporti musobaqalarida ommalashgan. Keyinchalik AQShda ham keng yoyilgan. Ilk bukmekerlik kompaniyalari Angliyada tuzilgan. Vaqt o‘tishi bilan barcha sohalar kabi sportga pul tikishning ham onlayn usullari ruslar tomonidan ishlab chiqildi va ular bu jarayonni smartfonlarga ko‘chirdi. Shu tariqa 2007-yili Moskvada sportga pullarni onlayn tikish mumkin bo‘lgan vizual ilovalar paydo bo‘ldi. Boshida bu o‘yinni odamlar yaxshi kutib olmadi, sababi hali ham onlayn bitadigan ishlarga ishonish qiyin edi. Ammo oradan ko‘p o‘tmay, “1 xbet”, degan ilova shu darajada ommalashdiki, hatto, sport bilimdonlari ham bunga qiziqib, kompaniya bilan shartnomalar imzolay boshladi.

2012-yilga kelib, bunday totalizatorlar soni sezilarli oshdi. Shuningdek, ayrim onlayn kazino kompaniyalari yopilib, hatto jinoiy javobgarlikka tortildi. Sababi, ularning maqsadi firibgarlik yo‘li bilan pul to‘plash edi. 2016-yildan boshlab “1 xbet”, “mostbet”, “lenabet” kabi onlayn betting ilovalari dunyo bo‘ylab keng yoyildi.

Totalizator o‘yinlari juda osonlik bilan ruhiy xastalikka aylanadi. Bu holat fan tilida “**ludomaniya**” deb nomlanadi. Inson onlayn pul tikish o‘yinlarini o‘ynay boshlagach, xuddi, narkotikka bog‘lanib qolgandek pul tikishga o‘rganib, irodasidan mahrum bo‘ladi. Inson shu darajaga keladiki, qimor quliga aylanadi, o‘zini boshqara olmay qoladi. Bu dard davolanishi juda qiyin bo‘lgan kasalliklardan. Totalizatorning qurbonlari oilasi, kerak bo‘lsa, yaqin insonlari va do‘stlarining ham pulini onlayn o‘yinlarga tikib yuboradi. Shu ham yetmagach, qarzlar, kreditlar ola boshlaydi va o‘zini tubi yo‘q jarga uloqtirganini bilmay qoladi. Inson tabiatiga ko‘ra, muvaffaqiyat va boylikka oson erishishni xohlaydi. Yetarlicha bilim bilan boyitilmagan ong egasi mehnat-mashaqqatsiz oson boyib ketish payida bo‘laveradi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda, ayniqsa yoshlar orasida tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar (pul tikish, kazino o‘yinlari, "стейк", "крипта" va h.k.) keng tarqaldi. Ko‘plab o‘yin platformalari ijtimoiy tarmoqlarda faol reklama qilinadi, bu esa o‘yinlarga qiziqishni yanada oshiradi. Yoshlarning moliyaviy savodxonligi pastligi, pulni to‘g‘ri boshqarish ko‘nikmalarining yetishmasligi ularni bunday o‘yinlarga jalb qilishni osonlashtiradi. Shuningdek, ushbu o‘yinlar quyidagi salbiy oqibatlarga olib keladi:

- O‘yinlarda yutqazish natijasida yoshlar katta qarzlarga botishi, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.
- Tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar o‘ziga qaramlikni keltirib chiqarishi, stress, depressiya va ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin.
- O‘yinlarga haddan tashqari berilish oilaviy kelishmovchiliklarga, ajralishlarga sabab bo‘lishi mumkin.
- Pul topish maqsadida yoshlar jinoyat yo‘liga kirishi, firibgarlik va o‘g‘irlik kabi harakatlarga qo‘l urishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda respublikada totalizator va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirish va albatta, bunday xizmatlarni reklama qilish noqonuniy hisoblanadi. Bu borada 2021-yilda o‘tkazilgan 1 105 ta o‘rganishlarda 102 ta holatda bunday noqonuniy xizmatlar reklamasi aniqlangan. Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda 30 dan ortiq totalizator va bukmekerlik reklamasini noqonuniy ravishda yurituvchi saytlarga kirish cheklab qo‘yildi.

Binobarin, mamlakatimizda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish hamda o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278-moddasida jinoyat sifatida belgilab qo‘yilgan. Qolaversa, bunday o‘yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarda ishtirok etishga jalb qilish O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 191-moddasida ma’muriy huquqbuzarlik sifatida e’tirof etilgan.

Jumladan, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish yoki o‘tkazish, shu jumladan, ana shunday o‘yinlar uchun qimorxonalar tashkil etish yoki ularni saqlash yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish yoki o‘tkazish uchun telekommunikatsiya tarmoqlarida, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog‘i provayderlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish, tegishli dasturiy ta’minotdan nusxa ko‘paytirish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi

Tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarning salbiy oqibatlarini oldini olish hamda bartaraf qilish uchun quyidagi omillarni keltirish mumkin:

- Internet orqali qimor o‘yinlarini tashkil etish va ularda ishtirok etish uchun javobgarlikni kuchaytirish, o‘yin platformalariga kirishni cheklash;
- Yoshlarga pulni to‘g‘ri boshqarish, moliyaviy xavflarni baholash va ushbu o‘yinlarning salbiy oqibatlari haqida ma’lumot berish;
- Ushbu o‘yinlarning salbiy oqibatlari haqida ogohlantiruvchi materiallar tayyorlash va tarqatish, ijtimoiy reklama roliklari, vaynlarni namoyish etish;
- Ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanishini nazorat qilishlari, ularni bunday o‘yinlardan ogohlantirishlari va ularning qiziqishlarini boshqa foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirishlari kerak.
- O‘yinlarga qaram bo‘lib qolgan yoshlarga psixologik yordam ko‘rsatish, ularni reabilitatsiya qilish markazlarini tashkil etish.

Ijtimoiy tarmoqlardagi tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar O‘zbekistonda jiddiy ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda. Bu muammoni hal qilish uchun davlat, ota-onalar, ta’lim muassasalari va jamoatchilik birgalikda harakat qilishlari zarur. Faqatgina shunday yondashuv orqali yoshlarni bunday o‘yinlarning salbiy ta’siridan himoya qilish va jamiyat barqarorligini ta’minlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Traore I. et al. Online risk-based authentication using behavioral biometrics //Multimedia tools and applications. – 2014. – T. 71. – C. 575-605.

2. Saidvali o‘gli, Qo‘shiyev Mirjalol. "Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar-yoshlar uchun qopqon." *Global Science Review* 4.1 (2025): 23-31.

3. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarning jiddiy oqibatlari // https://daryo.uz/2022/07/20/qimor-va-tavakkalchilikka-asoslangan-oyinlarning-jiddiy-oqibatlari/

4. Ochlik o‘yinlari: Xalq tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar o‘ynashidan kim manfaatdor? // https://uz24.uz/uz/articles/totalizator-11-24

# YOSHLARNING MA’NAVIY BEGONALASHUVINI OLDINI OLISHDA MILLIY MEROS NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Xo‘jamov Zoxidjon Abdurashid o‘g‘li,**
**Andijon davlat pedagogika instituti stajyor-tadqiqotchi**
**E-mail:** z.khujamov@gmaol.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv davrida yoshlarning ma’naviy begonalashuvi muammosi va uni bartaraf etishda milliy-ma’naviy merosning roli, shuningdek, milliy meros namunalaridan yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida, milliy o‘zlikni anglashida, vatanparvarlik ruhini shakllantirishda va ijtimoiy faolligini oshirishda foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar, ma’naviy begonalashuv, milliy meros, madaniyat, qadriyatlar, tarbiya, vatanparvarlik, o‘zlikni anglash, ijtimoiy faollik.

XXI asrda globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan ma’naviy sohaga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, yoshlarning ma’naviy begonalashuvi, milliy qadriyatlardan uzoqlashuvi kabi salbiy oqibatlari ham kuzatilmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, ularni milliy ruhda tarbiyalash va ma’naviy begonalashuvning oldini olish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada milliy merosning boy imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir.

Ma’naviy begonalashuv - bu shaxsning o‘z milliy madaniyatidan, qadriyatlaridan va an’analaridan uzoqlashuvi, boshqa madaniyatlarga taqlid qilishga intilishi, o‘z milliy o‘zligini yo‘qotishi bilan ifodalanadigan jarayondir. Ma’naviy begonalashuvning bir necha ko‘p qirrali sabablari bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, globallashuv madaniy xilma-xillikni kamaytiradi, ommaviy madaniyatni targ‘ib qiladi va yoshlarni o‘z milliy qadriyatlaridan uzoqlashtiradi.

Ikkinchidan, Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga turli xil axborot manbalariga kirish imkoniyatini beradi, ammo ko‘pincha bu axborot manbalari milliy qadriyatlarga zid bo‘lgan g‘oyalarni targ‘ib qiladi.

Uchinchidan, ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, milliy merosni o‘rgatish va yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishga yetarli e’tibor berilmaydi.

To‘rtinchidan, ota-onalar farzandlariga milliy qadriyatlarni o‘rgatishga, ularni milliy ruhda tarbiyalashga yetarli e’tibor bermaydilar.

Milliy-ma’naviy meros har bir xalqning tarixiy sinovlardan o‘tib, ajdodlardan avlodlargacha o‘tib kelayotgan moddiy va nomoddiy madaniyat yodgorliklari, urf-odatlar, an’analar, ma’naviy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, diniy-falsafiy qarashlar, axloq-odob qoidalari, betakror san’at asarlari, ilm-fan yutuqlari, bilimlar va tajribalar jamlanmasidir. Ma’naviy qadriyatlar inqilobiy tarzda shakllanadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi. Har bir avlod vakillari qadriyatlarni qaytadan yaratmaydi, balki mavjud tarixiy-ma’naviy merosga tayanadi. «Tarixiy merosni asrab-avaylash,

o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir».

Milliy meros yoshlarga o‘z millatining kim ekanligini, o‘tmishini, madaniyatini va qadriyatlarini anglashga yordam beradi. Yoshlarda insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, vatanparvarlik va boshqa fazilatlarni shakllantiradi. Milliy meros yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, mamlakat rivojiga hissa qo‘shishga undaydi.

Milliy meros namunalaridan yoshlarning ma’naviy begonalashuvini oldini olishda samarali foydalanish uchun quyidagi fanlararo ilmiy-nazariy asoslarga e’tibor qaratish lozim:

1. Madaniyatshunoslik: Madaniyatning mohiyatini, uning shaxs shakllanishidagi rolini va jamiyat rivojidagi o‘rnini o‘rganish;

2. Pedagogika: Yoshlarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, milliy qadriyatlarni singdirish usullarini ishlab chiqish;

3. Psixologiya: Yoshlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va motivatsiyalarini hisobga olish;

4. Sotsiologiya: Jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, yoshlarning ijtimoiy rolini va milliy merosning ijtimoiy jarayonlarga ta’sirini o‘rganish;

5. Tarix: Milliy tarixni chuqur o‘rganish, tarixiy voqealardan saboq chiqarish va yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish va boshqalar.

Milliy meros namunalaridan yoshlarning ma’naviy begonalashuvini oldini olishda quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkin:

1. Ta’lim muassasalarida milliy tarix, til, adabiyot va san’at fanlarini o‘qitishni kuchaytirish, o‘quv dasturlariga milliy meros namunalari haqidagi ma’lumotlarni kiritish.

2. Ota-onalarga farzandlariga milliy qadriyatlarni o‘rgatish, ularni milliy ruhda tarbiyalash bo‘yicha tavsiyalar berish, oilaviy tadbirlarda milliy urf-odatlarni qo‘llash.

3. Muzeylar, teatrlar, kinoteatrlar va kutubxonalarda milliy merosga oid tadbirlar tashkil etish, ko‘rgazmalar o‘tkazish, spektakllar qo‘yish va filmlar namoyish etish.

4. Televideniye, radio, gazeta va internetda milliy merosni targ‘ib qiluvchi dasturlar, maqolalar va materiallar chop etish, ijtimoiy reklama roliklarini namoyish etish.

5. Yoshlar tashkilotlari, fondlar va markazlar tomonidan milliy merosni o‘rganish, targ‘ib qilish va saqlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirish.

Yoshlarning ma’naviy begonalashuvi globallashuv davrida dolzarb muammo hisoblanadi. Bu muammoni bartaraf etishda milliy merosning boy imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Milliy meros yoshlarda milliy o‘zlikni shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiya berish, vatanparvarlik ruhini uyg‘otish va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Milliy meros namunalaridan yoshlarning ma’naviy begonalashuvini oldini olishda samarali foydalanish uchun davlat organlari, ta’lim muassasalari, madaniyat markazlari va ommaviy axborot vositalari hamkorlikda harakat qilishlari zarur. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev

ta’kidlaganidek, “Zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga dahldorlik tuyg`usi bilan yashaydigan yoshlarimiz bizning faxrimizdir”.

Yoshlarning ma’naviy begonalashuvini oldini olishda milliy merosdan samarali foydalanish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- Milliy merosni targ‘ib qiluvchi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarni o‘rgatishga e’tiborni kuchaytirish, xususan ijtimoiy fanlar o‘qitilishiga alohida ahamiyat berish;
- Ommaviy axborot vositalarida yoshlarning ma’naviy begonalashuvining salbiy oqibatlariga oid ko‘rsatuvlar va materiallar sonini ko‘paytirish;
- Madaniyat muassasalarida milliy merosga oid tadbirlar tashkil etish;
- Ota-onalarga farzandlarini yoshlik chog‘idan boshlab milliy ruhda tarbiyalash bo‘yicha metodik yordam ko‘rsatish.
- Yoshlar tashkilotlari faoliyatini yoshlarning ma’naviy begonalshuvini oldini olishga qaratilgan turli dasturlar va loyihalar orqali milliy merosni targ‘ib qilishga yo‘naltirish;
- Ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarga har tomonlama sharoit va imkoniyat yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash va boshqalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. -B. 14.
2. Saodat yo‘li. – Toshkent: Ta’lim, 2016. –B.37.
3. Farxodjonova N. F. Formation of national idea through factors of national culture. Mirovaja nauka. Problemy i perspektivy. – 2020.

## “THE INFLUENCE OF SOCIAL MEDIA ON LANGUAGE CHANGE IN MODERN ENGLISH”

**Jurayeva Shohzoda Baxtiyor qizi**
Student of Samarkand state institute of Foreign languages
Gmail: shakhzodajuraeva9@gmail.com
Scientific supervisor: **Rasulov Normurod Otaqulovich**

**Annotation:** This article studies social media influence on modern English. As a result of the rapid development of social media platforms, changes in language changes are rapidly through new words, abbreviations and the Internet. The article analyzes the main causes of morphological, syntics and lexical change in English and more new styles of new speech. The positive and negative aspects of these changes are also evaluated. Social media, along with the support of the language, the rapid exchange of views and supports language innovation, is also violating grammatical norms. The article is a scientific basis for how social networks are taking place in the current development of English.

**Keywords:** Social Media, English, English, Slangu Change, Sleng, Hashtag, Abbraitor, Communications, Language Innovation, Youth, Online Communication.

The spread of social networks and the integral part of our life is causing significant changes in modern English. Today, on Facebook, Twitter (currently x), Instagram, Tiles, Reddit and many other platforms will make their views, exchanges news and discuss news on various topics [2,156]. This active online communication process is becoming an important factor in the development of English language, causing new events in language morphological, semantic and pragmatic levels. Previously, if the changes in language changes have taken several years, even decades, this process can now take place in weeks or months.

First of all, attention should be paid to the analysis of new lexical units – ie neologisms entering through social media. For example, words such as “Selfie”, “Hashtag”, “VLOG”, “Repost”, “Repost”, “Repost”, “DM” are unoccupied units in the absence or other context. They are commonly common and even included in official dictionaries because they are often used in the Internet environment [4,123]. Many of these words appear in an abbreviation or mixture, which shows the simplification of language and the increase in communication. In English, these words adapter not only in sense but also grammatically. For example, the “Google” is usually used in search of the search engine, which shows the change of language through the transformation corporate names. Another change in social networks is a syntomish simplion. Posts, comments, and tweets often have short, structural and unconventional structure. Users, taking time, take into account the full reasons, instead of fragments, import abbreviations, and signs. For example, “LOL” (OMG “(Oh My God),” IDK “(IDK” (I DON’T Know) is widespread through constant use of the abbreviations (IDK). This situation also causes the development of pragmatic expression along with a synastic simplicity [5,234].

In addition, significant changes are observed in the semantical level of language. The meaning of words on social media changes or expands frequently depending on the context. For example, if the word “ta is first used only in the meaning of a drink, it currently means” Gossip “(rumor) in the social media context. Similarly, words such as “Woke”, “Flex”, “Cancel” are also used in modern English language. This clearly demonstrates the dynamic and changeable nature of the language.

Former new language elements through social media are primarily spreading among young people. This group quickly receives and distributes innovative language forms. The phrases that appear in their interaction are later used in the broad audience, including the media, advertising, music, film and even political speeches. Therefore, social media is not just means of a simple dialogue, but also an important factor affecting the social functions of language. In this regard, the tongue is developing not only in spurs, but also in forms of visual and multimodal. The information expressed through Emoji, gifs and memes often loads more meaning than the text.

Another important aspect of the language change in social networks is a violation of the balance of regulatoryity and standardism. There is no complexity of

grammatical and imports, dialects, dialects and mixed languages. Although some linguists are seen as violation of the language by some linguists, others consider this process as the nature of language [3,139]. For example, in English, the AfricaMerican public speech (Avrican American Vernacular) is widespread in social networks, sometimes affecting the main language form. This also causes linguistically inequality, language hierarchy and cultural identification. Another unique aspect of the social media language is a time-dependent variable. Today, the popular word or phrase can be outdated tomorrow. Trends, the circuit units spreading through the Trend and the Meme Culture are temporary, some of whom causes long-term language change, and others will be forgotten quickly. This opens new research routes for linguists [1,97]. Theories pronounced the dependence of language change in time and social context is proved practically in the example of social media.

It should be noted that through social media, the changes in English are influenced by education. As students and youths get used to social media, there is also a tendency to the use of Internet slangs and abbreviations. This requires a review of grammatical and methodological requirements in the education system. The social media language is also more difficult for students to learn English as a second language, as the difference between their studied official and the real life of social media will be large.

**Conclusion.** In short, social media is characterized by new lexical units in English, which creates important language changes through syntactic simplications and semantic changes. This process requires new scientific approaches to a deeper understanding of the social character of language. Theoretically, social media language should be studied as a separate network in linguistics. As a proposition, it is advisable for language teachers and dictionaries to monitor language changes in modern platforms and create modules on critical analysis of the social media language in formal educational programs. This not only combines the language with time, but also shapes the culture of conscious use of language between students and young people. Research should be developed on the basis of social media facilities in modern linguistics and research aimed at student changes in dynamic language is expanded. Thus, changes under social media should be covered on scientific and theoretical basis, not only social events but also as a new stage of language development.

**References**


1. Crystal D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2011. 298 p.
2. Tagliamonte S. Teen Talk: The Language of Adolescents. Cambridge University Press, 2016. 322 p.
3. Androutsopoulos J. Mediatization and Sociolinguistic Change. De Gruyter Mouton, 2014. 276 p.
4. Baron N. Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press, 2008. 304 p.
5. Thurlow C., Mroczek K. Digital Discourse: Language in the New Media. Oxford University Press, 2011. 354 p.

# SPORT TURIZMI ORQALI JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH

**Dustov Jonibek Amriddinovich**
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Sport turizmi orqali jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirish haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** sport, turizm, kasbiy, sifat, rivojlantirish, musobaqa, texnika, o‘qituvchi texnologiya.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqobatbardosh, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, jismoniy madaniyat sohasida faoliyat yurituvchi bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy sifatlarni shakllantirish, ularning jismoniy, ma’naviy va psixologik jihatdan tayyor bo‘lishini ta’minlash dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sport turizmi vositasida kasbiy sifatlarni rivojlantirish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarda mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, irodaviy sifatlar va sog‘lom turmush tarziga sodiqlik kabi muhim fazilatlarni shakllantiradi. Mazkur maqolada sport turizmining tarbiyaviy, jismoniy va kasbiy jihatdan ahamiyati yoritiladi.

Jahon turizm bozori bugungi kunda 10 trillion dollorga yaqin daromad olmoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda bo‘lgani singari O‘zbekistonda ham turizmga asosan davlat iqtisodiyotining drayveri sifatida e’tibor berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi o‘rnida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Keying yillarda yurtimizda turizmning huquqiy asoslari takomillashtirilib, jahon talablari darajasiga javob beruvchi holatga keltirilmoqda. Bu yo‘nalishda turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi shalklantirilib 2019-yil 18-iyulda O‘zbekiston Respublikasining 549-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. [2] Qonundan kelib chiqib turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomi berildi. Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, turizm imkoniyatlaridan yanada to‘liq va samarali foydalanish, an’anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa turlari-ziyorat, ta’lim, etnografik, ekologik, sanoat, davolash-sog‘lomlashtirish, musiqa turizmini jadal rivojlantirish, bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmi, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo‘nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo‘nalishlari va turizm obektlari bo‘yicha yagona milliy reyestrlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy

va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi.

Jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy sifatlari ularning o‘z kasbiy vazifalarini samarali bajara olishlari uchun bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar yig‘indisini ifodalaydi. Jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy sifatlari jamiyat taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasida muhim ro‘l o‘ynaydi. Ularning yuqori kasbiy malakasi va yetakchilik qobiliyatlari sog‘lom va jismoniy faol avlodni tarbiyalash, shuningdek, yoshlarni sportga jalb qilishda kata ahamiyayga ega. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida kasbiy sifatlar, yaxshi jismoniy tayyorgarlik, yuqori darajadagi jismoniy salohiyat,sport texnikasini amaliy ko‘rsatib bera olish qobiliyati,pedagogik mahurat, darsni rejalashtirish va tashkil etish, psixologik barqarorlik, yetakchilik qobiliyati, kasbiy bilimlar, innovatsion fikrlashlar muhim omillardir. Ushbu sifatlar o‘qituvchining nafaqat jismoniy madaniyatni o‘rgatishda, balki o‘quvchilarni tarbiyalashda va motivatsiya berishda qanday yondashuvlardan foydalanishni aniqlaydi. Sport turizmi esa bu sifatlarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o‘quvchilari uchun turistik poxodlar, sayohatlarni turli ko‘rinishlarda tashkil etishni, turistik xavfsizlik choralarini ishlab chiqishni, dislokatsiyalarni belgilay olishni, turistik asboblar va jihozlardan foydalanishni bilishi bilan bir qatorda turistik texnika va taktikadan xabardorligi yuqori bo‘lishi shart.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida talabalarga turizm bo‘yicha malaka talablari asosida bilim berish bilan birgalikda mehnat jamoalarida, mahallalarda uyushmagan yoshlar va o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida besh tashabbus doirasida jismoniy madaniyatni targ‘ib qilish, turizmni insonlar hayotiga kengroq tadbiq etish usullarini o‘rgatish, mehr-oqibatlilik, tolerantlik, mehnatsevarlik, mafkuraviy immunitet g‘oyalarini singdirish kabi muhim jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

Buning uchun bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi o‘z jismoniy holatini doimiy ravishda saqlash va rivojlantirishi, sportning turlari, texnikasi va metodikalari haqida chuqur bilimga ega bo‘lishlari lozim. Har xil yoshdagi va jismoniy holatdagi o‘quvchilarga mos ta’lim berish, samarali ta’lim metodikalarini qo‘llash, mashg‘ulotlarni qiziqarli o‘tkazish jismoniy tarbiya o‘qituvchisidan yuksak pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qiladi. O‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini tushunish va ularga mos ravishda yondashish, mashg‘ulotlarni rejalashtirish, tashkil etish va boshqara olishi jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kompetentligi va malakali ekanligidan dalolat beradi. O‘quvchilarni jismoniy faoliyatga, sportga, sport turizmiga qiziqtirish va rag‘batlantirish, ularning o‘z maqsadlariga erishishida ilhom berish hamda qo‘llab quvvatlash o‘qituvchidan motivatsion ko‘nikmalarni yaxshi egallashni talab qiladi. Mashg‘ulotlar davomida xavfsizligini ta’minlash va jarohatlarni oidini ola bilish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, o‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga o‘rgatish, ularga na’muna bo‘lish, professional axloq qoidalariga rioya qilish, o‘quvchilar va ularning rivojlanishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish jismoniy tarbiya o‘qituvchisidan yuksak kasbiy axloq va mas’uliyatni talab qiladi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining muhim kasbiy sifatlaridan yana biri yangi sport

texnologiyalari va metodikalarini izchillikda o‘rganish va qo‘llay olishida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning his-tuyg‘ulari va ehtiyojlarini tushunish va ularga yordam berish, qo‘llab quvvatlash va muammolariga e’tibor qaratish o‘qituvchidan empatiya va hamdardlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari ushbu sifatlarni rivojlantirish orqali o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berish, ularni rag‘batlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishi mumkin. Bu sifatlar o‘qituvchining kasbiy malakasini oshiradi va ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

Yuqorida bildirilgan bo‘lajak kasbiy sifatlar, ularning professionalligi, samaradorligi va o‘quvchilarga to‘g‘ri ta’lim berish qobiliyatini o‘zida mujassam qila olgan jismoniy madaniyat o‘qituvchilari yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Sport turizmi jismoniy faoliyatning qiziqarli va interaktiv shakli bo‘lib, o‘quvchilarni jismoniy faollikka undaydi va ularning umumiy salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sport turizmi jismoniy madaniyat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun nafaqat sog‘lomlashtiruvchi faoliyat, balki kasbiy shakllanishning samarali vositasidir. U orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda jismoniy tayyorgarlik, liderlik, muomala madaniyati, tashabbuskorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli sport turizmini o‘quv dasturlariga keng joriy etish va uning amaliy imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi PF-433 son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni // https://lex.uz/docs/-4428097
3. 2016-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Turizm. R.Abdumalikov, T.Xoldorov. Toshkent “O‘qituvchi” 1988.


# JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA FALSAFIY-ESTETIK YONDASHUVLAR


**M.A.Hotamov**
**ISFT Samarqand filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi**
**E-mail: muminhotamo5@gmail.com**



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasidagi falsafiy qonuniyatlar, qadimgi Yunonistonda sport turlarini paydo bo‘lishi va gladiatorlar bahsi, san’at bilan sportning o‘xshash tomonlari va Rene Mehyu, Morin Kovich, Benjamin Lou singari g‘arb olimlari va ko‘plab mashhur sportchilar sportni san’at

sifatida qabul qilishganlari hamda estetik zavq uyg‘ota oladigan nosan’at soha hisoblaganlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar**: jismoniy tarbiya, sport, mahorat, san’at, mafkuraviylik, vatanparvarlik, millatparvarlik, go‘zallik, epchillik, gladiator, estetik zavq, qadimgi yunonlar.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi falsafiy qonuniyatlar sportning estetik mazmunini, uning jamiyat madaniyatidagi o‘rnini, sport bilan san’atning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etadi, inson jismoniy kamolotining ma’naviy-estetik va falsafiy jihatlarini tahlildan o‘tkazadi. Ma’lumki, sport va jismoniy tarbiya deyarli doimo yonma-yon tilga olinsa-da, ular bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Jismoniy tarbiya asosan inson salomatligini ta’minlashga qaratilgan jamiyatning turli yoshdagi barcha tabaqalari ixtiyoriy tarzda “o‘zi uchun” shug‘ullanadigan, ommaviylik tabiatiga ega mashqlar yoki mashq majmularidan iborat. Sport esa, uning qaysi sohasida bo‘lmasin, mutaxassis ustozlar nazorati ostida maxsus tayyorgarlik ko‘rgan odamlarning, asosan yoshlarning yakkama-yakka yoki jamoaviy tarzda bellashuvini o‘z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya qay ko‘rinishda bo‘lmasin, (individualmi, jamoaviymi), bellashuvni rad etadi va insonga turli mashq shakllaridan xohlaganini tanlash imkonini beradi.

Sportda esa musobaqa birinchi o‘rinda turadi va unda muayyan mashqlar majburiy tarzda bajariladi. Lekin bu majburiylik sportning ma’lum bir turi doirasida sportchiga erkin harakat qilish imkonini beradi, ya’ni sportda ijodiy yondashuv ta’qiqlanmaydi, balki qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, yengil atletika musobaqalarida har bir sportchi mashqlarni o‘z individual qobiliyatlari asosida bajaradi, lekin sportning ushbu turiga doir qonun-qoidalardan chetga chiqolmaydi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiyani sportga qo‘shib yuborish yoki ularni aynanlashtirish mumkin emas. Sportning boshqa ko‘pchilik turlarida esa barcha sportchilar bir xil mashqni bajaradilar, lekin ularni bir-biridan farqlantirib turadigan, musobaqa ruhini saqlab, uni so‘ndirmaydigan narsa, bu - har bir sportchining bir hildagi mashq ijrosiga ijodiy, o‘ziga xos yondashuvdir. Bunda sportchining o‘z a’zoi badani ustidan hukmronlik qilishi shu hukmronlikni go‘zallik, epchillik, ulug‘vor xatti-harakatlar shaklida tomoshabinga taqdim etishini taqozo qiladi, xullas, sport inson tanasi go‘zalligining namoyishi sifatida diqqatga sazovor.

Sportga qadimgi yunonlar, bundan bir necha ming yillar avval ana shunday nuqtai nazardan yondashganlar. Lekin, afsuski, keyinchalik musobaqa omili go‘zallikni chetga surib, uni g‘oliblik va mag‘lublik bilan baholanadigan ehtirosni o‘yinga, qimorning o‘ziga xos turiga aylantirib qo‘ydi (qadimgi Rumodagi gladiatorlar bahsi, keyinchalik ot poygasiga pul tikishlar v.h.).

Hozirgi paytda sport jahon bo‘ylab juda keng yoyilgan madaniy soha sifatida tan olinadi. Ayniqsa, buni O‘zbekiston misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Bizda mustaqillik sharofati bilan sportga milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida qarash shakllandi, uning hamma turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish odat tusiga kirdi. Shu tufayli bugun O‘zbekiston sport diyoriga, inson jismoniy go‘zalligini jahonga namoyish etayotgan mamlakatlardan biriga aylandi.

Sport falsafasidagi eng muhim muammo, bu uning san’at bilan o‘xshashligida. Shundan kelib chiqib, zamonaviy sportni (juda bo‘lmaganda, uning ba’zi turlarini) o‘ziga xos san’at sifatida talqin qilish keng yoyilgan. Rene Mehyu, Morin Kovich, Benjamin Lou singari g‘arb olimlari va ko‘plab mashhur sportchilar sportni san’at sifatida qabul qilish mumkin degan fikrni o‘rtaga tashlaydilar. Lekin haqiqatan ham sport san’atmi, ularni aniqlashtirish mumkinmi? Bu savolga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob berish qiyin. Shu bois sportning kelib chiqishi va mohiyatiga e’tibor qilib ko‘raylik.

Ma’lumki, o‘yinni Qadimgi yunon faylasuflari estetik tabiatga ega ekanini ta’kidlab, uni san’at bilan tenglashtirganlar, Shiller esa, ko‘rib o‘tganimizdek, badiiy faoliyatni o‘yinning eng yuksak shakli deb hisoblaydi. Sport esa, eng avvalo o‘yin. Undan inson ikki tomonlama estetik zavq oladi: o‘yinchi-sportchi va tomoshabin-tarafkash sifatida. bunda tomoshabin san’atni idrok etayotgandek sportchi bilan uyg‘unlashib, uning xatti-harakatlariga qo‘shilib ketadi, ayni paytda o‘zi sportchi emasligini, ya’ni estetik masofani his qilib turadi. Bu borada B.Lou o‘zining “Sport go‘zalligi” degan kitobida F.Kinonning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Teatr, - deb yozadi F.Kinon, - tomoshabinga suyanib rivojlanadigan san’at turi. Sport musobaqalarida tomoshabinlar o‘zlarini xuddi spektakl tomoshasidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak chaladilar va yomon o‘yin ko‘rsatganga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrda ham biz “o‘yin” haqida gapiramiz”. Boshqa bir o‘rinda B.Lou H.Slyusherning “Sport va ekzistensiya” kitobidagi quyidagi satrlarga e’tiborni qaratadi: “Sport - toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur ma’noga boy holat sport boqiylik yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy ko‘tarinkilikni talab qiladi, – deb yozadi H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zavq haqida.

San’at bilan sportning yana bir o‘xshash tomoni shundaki, har ikkalasi ham biror bir moddiy ehtiyojni qondirmaydi, bevosita maqsad emas, maqsadga muvofiqlik tarzida voq’e bo‘ladi, ularning asosiy xususiyati, mavjudligini oqlaydigan narsa, bu - odamlarga estetik zavq berish xususiyati. Ayni paytda san’atda ham sportda ham o‘yin ijtimoiylik kasb etmasligi mumkin emas, sportchi san’atkor kabi g‘oyaviy-mafkuraviy maylparastlik tabiatiga ega. San’atkor vatanparvarlik, millatparvarlik g‘oyalarini bilvosita - badiiy asari orqali ilgari sursa, sportchi o‘z jismoniy xatti-harakatlari bilan musobaqalarda vatan bayrog‘ini ko‘tarishga, “millatni uyaltirib qo‘ymaslikka” intiladi, ya’ni bevosita va tabiiy ravishda mafkuraviylikni amalga oshiradi. Demak, san’at ham, sport ham shunchaki zavq berish va o‘z iste’dodidan zavqlanish bilangina chegaralanib qolmaydigan ijtimoiy -ma’naviy hodisalardir. Biroq ana shu mafkuraviylik mafkurabozlikka aylansa, ya’ni ijodkor mafkura uchun ahloqiylikdan chekinsa, san’atda haqiqiy badiiy asar yaratishning iloji bo‘lmaganidek, sport musobaqasida ham g‘irromlik yo‘li bilan, “bir amallab” yutib chiqib, haqiqiy g‘alabaga erishishi mumkin emas, zero, haqiqiy g‘alaba tomoshabinning bahosi bilan belgilanadi. Shular bir qatorda sport san’at uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. bunga o‘zimiz guvohmiz: biz sport mavzusidagi rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik namunalarini ko‘p ko‘rganmiz, hikoya va qissalarni o‘qiganmiz.

Biroq, bularning hammasi sportni san’at deb qabul qilishimiz uchun yetarli asos bo‘lolmaydi. Buni sport estetikasi borasida jiddiy tadqiqotlar olib borgan, yuqorida nomi zikr etilgan B.Lou shunday ta’riflaydi: “Inson badanining - tabiiy shakldagi go‘zallik ekanini, sportchi qiyofasi ideal badan tuzilishini o‘zida mujassam etishini e’tirof qilar ekanmiz, sportdagi go‘zallikni san’atdan ko‘ra tabiatga taalluqli deyishimiz mumkin, zero sportdagi go‘zallik ko‘p hollarda tasodifiylik xususiyatiga ega”. B.Lou aynan mana shu o‘rinda haqiqatga yaqin keladi, deb o‘ylaymiz: sportda san’at unsurlari mavjud, lekin u butunligicha olganda, san’at emas. Ya’ni sport estetik ko‘rinishlarga ega, estetik zavq uyg‘ota oladigan nosan’at soha hisoblanadi.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR


1. Akramov A.K., O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zDJTI nashr, 1997.
2. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi faniga kirish. Qadimgi dunyoda jismoniy tarbya. O‘quv-uslubiy tavsiyalar. T.: “ITA-PRESS”, 2015.
3. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. T.: “Sharq”, 2008.
4. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. Darslik. T.: 2008.
5. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. T.: “Ibn Sino”, 2000.


# OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT FANLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI


**M.A.Hotamov**

**ISFT Samarqand filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi**

**E-mail: muminhotamo5@gmail.com**



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jismonan baquvvat, sog‘lom, irodali va ruhan tetik farzandlarni kamolga yetkazishda jismoniy madaniyat va sport fanining ahamiyati, oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilan olib boriladigan jismoniy maniyat va sport fanlari hamda ularni samaradorligini oshirish usullari va vositalari to‘g‘risida fikrlar bayon qilingan.



**Kalit so‘zlar**: Amaliy, mashg‘ulotlar, jismoniy, mashqlar, o‘quvchi, harakat, imkoniyatlar, yugurish, sakrash, uloqtirish, sport, musobaqalar, zamonaviy, innovatsiya, metodlar.


Jismoniy tarbiya, badan tarbiya - sog‘liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg‘un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko‘rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg‘ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo‘shib olib boriladi.

O‘zbekistonda jismoniy. tarbiyaga juda qadimdan salomatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi deb qaralgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida 100 dan ziyod xalq o‘yinlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. “Alpomish” o‘zbek xalq qahramonlik dostoni, Alisher Navoiyning “Farxod va

Shirin”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” (“Nodir voqealar”), Boburning “Boburnoma” asari va boshqa asarlarda jismoniy, jangovar mashqlar, kuchlilik bahs-munozaralarining xilma-xil namunalaridan hikoya qilinadi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillariga kelib Jismoniy tarbiya va sport davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 1992 -yilda (2000 -yilda esa yangi tahrirda) “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, 1993 -yilda Sog‘lom avlod davlat dasturining ishlab chiqilishi, Vazirlar Mahkamasining sportning alohida turlarini rivojlantirishga oid va nihoyat 1999 - yilda “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori jismoniy tarbiyaning huquqiy asoslarini yaratdi.

Jismonan baquvvat, sog‘lom, irodali va ruhan tetik farzandlarni kamolga yetkazishda jismoniy tarbiya fanining ahamiyati nihoyatda katta. Dars jarayonidagi nazariy bilimlar o‘g‘il-qizlarni ruhiy kamolotga yetaklab, ma’nan chiniqtiradi, ziyrakligi va zukkoligini yanada oshiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar shaxsiy va ovqatlanish gigiyenasi, kun tartibini rejalashtirish, ertalabki badantarbiya mashqlarining ahamiyati haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

Demak, jismoniy madaniyat va sport darslarini qiziqarli, mazmunli tashkil etish uchun har bir o‘qituvchi yanada mas’uliyatli, yangilikka intiluvchan, ilg‘or metodlarni qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi zarur. Bu esa pedagoglarimizning zamonaviy innovatsiya va metodlarni o‘zlashtirgan holda yangi o‘quv yiliga puxta tayyorlanishini talab etadi.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilari va shu yo‘nalishdagi talabalarning pedagogik mahoratlarini shakllantirish va nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash kadrlar tayyorlash hamda barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishning muhim vazifalaridan biridir.

Jismoniy sifatlarni o‘quvchilarda (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik) tarbiyalash uslubiyati quyidagicha amalga oshiriladi:

- Kuch va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
- Kuch qobiliyatlarining rivojlanish darajasini va namoyon bo‘lishini belgilovchi omillar;
- Tezlik – kuch qobiliyatlari;
- Portlash kuchi;
- Kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usuliyati;
- Tezkorlik va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
- Tezkorlik qobiliyati haqida tushuncha;
- Tezkorlik qobiliyati darajasini rivojlantirish omillari va tezlik qobiliyatlarining paydo bo‘lishi;
- Tezkorlik harakatini sezishni rivojlantirish;
- Yakka harakat tezligi va harakat chastotasining rivojlanish usuliyati;
- Tezkorlik qobiliyatining paydo bo‘lishida majmuaviy shakllarning rivojlanish usuliyati.
- Egiluvchanlikni va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
- Egiluvchanlik haqida tushuncha berish;
- Egiluvchanlikning turlari va ulchov mezoni;
- Egiluvchanlikning rivojlanish darajasini aniqlovchi omllar.[1]

Oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport mashg‘ulotlarining samaradorligi sport anjomlarining yetarliligi va sifati bilan bog‘liqdir. Shuningdek, jismoniy madaniyat va sport fanidan ko‘zlangan maqsadga erishishning asosiy omili -darsni to‘g‘ri tashkil etish bilan ham bog‘liq. Buning uchun o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim bo‘ladi:

Tayyorlov qismi - (10-12 daqiqa) o‘quvchilarni saflash, sog‘lig‘ini bilish jarayoni. Bu vaqtda navbatchining axboroti tinglanadi. O‘quvchilarning shaxsiy gigiyenasi tekshiriladi. Yangi mavzuga oid texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilib, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar - saf, yurish va yugurish mashqlari bajariladi.

Asosiy qism - (20-25 daqiqa) da rejadagi mavzu bo‘yicha sport turining rivojlantiruvchi mashqlari bajariladi. Bu vaqtda o‘quvchilarning boshqa mavzu yoki o‘yinlar bilan chalg‘ishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.[2]

Yakuniy qism - (3-5 daqiqa) dars tugashi jarayonidagi saflanish davri. Bu vaqtda talabalar nafas rostlashi, diqqatni jamlashiga e’tibor qaratiladi. Shu asnoda mashqlarni to‘g‘ri bajargan talabalar rag‘batlantirilsa, darsda faolligi sezilmagan talabalarning kamchiliklari ko‘rsatib o‘tiladi. So‘ng uyga vazifa beriladi.

Jismoniy madaniyat va sport darslari asosan amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lgani uchun o‘qitishda “Musobaqa”, “Ko‘rsatmali”, “O‘yin” kabi innovatsion pedagogik texnologiya va metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Masalan, “Musobaqa” usuli. Ushbu usulda maydondagi talabalarni jamoalarga bo‘lib, ular o‘rtasida spartakiadalar (quvnoq startlar, harakatli, milliy va sport o‘yinlari ko‘rinishida) tashkil etiladi. Bu usul talabalarning harakat tizimlarini rivojlantirib, g‘oliblik uchun kurashish ishtiyoqini oshiradi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan mashg‘ulot o‘quvchilarda ilg‘or bo‘lish, mashq va topshiriqlarni kimo‘zarga bajarish istagini namoyon etishi bilan qiziqarlilikni ta’minlaydi.

“Ko‘rsatmali” usuli murakkabroq sport turi elementini o‘rgatish darslarida qo‘llaniladi. Bunda o‘qituvchi biror talaba yordamida (yoki mustaqil ravishda) mashq elementini ko‘rsatib berish orqali mavzu mohiyatini yetkazadi.

“O‘yin” usuli orqali harakatli, milliy va sport o‘yinlari texnik elementlarini bajarishda o‘quvchilarning bevosita ishtiroki ta’minlanadi. O‘yinning mazmuni, shartlari va qoidalari tushuntiriladi. Bu usul bir qator afzalliklarga ega. Ayniqsa, talabalarini mashg‘ulotga jalb etish, darsga qiziqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[3] Talabalarga biror murakkab mashqni o‘rgatishda, shu usuldan foydalanish orqali maqsadga erishish mumkin.

**Xulosa** sifatida shuni aytish mumkinki, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari bo‘lajak kadrlarga jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo‘yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish. Kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy - amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo‘yicha kasbiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish haqida nazariy ma`lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholashdir. Shuningdek bo‘lajak o‘qituvchilariga o‘quv muassasalari maktabgacha ta`lim muassasalari, umumta’lim maktab, akademik litsey hamda kasb-hunarga taxnikun va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchi - talabalarini jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarida umumrivojlantiruvchi

mashqlardan, umumiy va maxsus mashqlardan foydalanish hamda sport musobaqalari, sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish hamda darsdan tashqari to‘garaklarni tashkil qilish kabi bilimlarini shakllanishi haqida nazariy ma`lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholashdan iborat bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdullaev A., Xonkeldiev SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent 2005 yil.

2. Livisskiy A.N Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent: 1995 yil.

3. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil.

4. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005 yil.

5. Maxkamdjonov K.M., Tulenova X.B. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi – Toshkent TDPU, 2001-2002 yil Elektron ta’lim resurslari.

## РОЛЬ НРАВСТВЕННОЙ ЦЕННОСТИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ

**Мулладжанова Хосият Яздоновна,**
старший преподаватель кафедра “Социальных дисциплин”
Самаркандский институт экономики и сервиса
**Нарзуллаева Ж.Х.**
Студент Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация:** В статье рассматривается роль нравственных ценностей в воспитании молодёжи. Подчёркивается их значение в формировании духовного облика личности, чувства ответственности и патриотизма. Отмечается важность семьи, образовательных учреждений и государства в укреплении нравственных устоев, приводятся высказывания Ш.М.Мирзиёев и выдающихся мыслителей.

**Ключевые слова:** нравственность, молодёжь, воспитание, духовные ценности, мораль, семья, государство, традиции, гражданственность, патриотизм.

Формирование нравственности — один из ключевых факторов устойчивого развития любого общества. Именно нравственные ценности определяют поведение личности, её отношение к другим, к труду, к Родине. Вопрос воспитания молодежи на основе высоких моральных ориентиров сегодня стоит особенно остро, поскольку она сталкивается с противоречивыми информационными потоками, социальными вызовами и глобальными влияниями. В этом контексте особое значение приобретает обращение к национальным духовным источникам, мудрости предков, а также стратегической позиции государства в вопросах воспитания подрастающего поколения.

Нравственные ценности — это устойчивые представления человека о добре и зле, о правильном и неправильном, о честности, уважении,

справедливости, трудолюбии и милосердии. Эти ценности формируют внутренний «моральный компас», который помогает молодому человеку принимать ответственные решения, действовать не только в собственных интересах, но и в интересах общества.

Великий узбекский поэт и мыслитель Алишер Навои подчёркивал: « Человек без нравственности – как дерево без корня». Это высказывание указывает на то, что нравственность – фундамент жизни, без которого человек теряет жизненную опору и смысл. [1] Роль семьи и школы в нравственном воспитании.

Семья — первое и главное звено в формировании нравственного сознания молодого человека. Именно в семье ребенок впервые усваивает такие понятия, как любовь, уважение, справедливость и ответственность. Личность формируется на основе примера родителей. Если в семье царит доверие, доброжелательность и уважение к старшим — это закладывает прочный фундамент для будущей нравственной устойчивости.

Как гласит узбекская пословица: «Отанинг юзи – боланинг кўзгусидир» — «Лицо отца — зеркало для ребенка».

Школа продолжает воспитательную функцию семьи, развивая у молодежи способность различать добро и зло, действовать в соответствии с моральными принципами. Учителя должны не только обучать, но и быть моральными ориентирами для учеников. По словам Хамзы Хакимзаде Ниязи: «Настоящее просвещение начинается с воспитания сердца».

Это подчеркивает важность духовной составляющей образования. В современных школах большое значение приобретают воспитательные часы, культурно-просветительские мероприятия, уроки литературы и истории, где обсуждаются нравственные и патриотические темы. Кроме того, практикуется система наставничества «устоз–шогирд», которая помогает молодежи не только профессионально развиваться, но и духовно расти. [2]

В современном Узбекистане вопросы духовно-нравственного воспитания молодежи находятся в центре внимания государственной политики. Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев неоднократно подчеркивал, что воспитание интеллектуально развитой, духовно богатой и патриотичной молодежи — один из приоритетов в стратегии развития страны. В его выступлениях особое внимание уделяется укреплению национального самосознания и нравственных ценностей: «Если мы хотим воспитать молодежь как созидателей и патриотов своей Родины, то, прежде всего, должны укреплять в их сердцах нравственные и национальные ценности» [3].

Такой подход обусловлен необходимостью сохранить историческое и культурное наследие Узбекистана, укрепить общественное согласие, защитить молодежь от влияния чуждых идеологий и деструктивных информационных потоков. В последние годы реализуются стратегические государственные программы, направленные на воспитание духовно-нравственной личности:

Кроме того, по инициативе Президента была создана Комиссия по вопросам образования и воспитания, в задачи которой входит разработка учебных и воспитательных материалов, мониторинг духовно-нравственной

среды в учебных заведениях, а также повышение квалификации педагогов в этом направлении. Президент также отметил; «Духовность — это невидимый, но мощный фундамент нашего государства. Мы обязаны воспитывать молодежь так, чтобы она не только гордилась своим прошлым, но и была готова к будущему» [3].

Современный этап развития общества характеризуется бурным развитием технологий, глобализацией, открытостью к внешнему миру, а также активным воздействием цифровой среды на сознание молодежи. С одной стороны, это открывает широкие возможности для обучения, общения и самореализации, но с другой — порождает серьезные духовно-нравственные угрозы. Одним из основных вызовов является информационное давление через интернет и социальные сети. Молодежь ежедневно сталкивается с множеством чуждых идеологий, псевдоценностей, пропагандой насилия, агрессии, равнодушия, что ослабляет традиционные моральные ориентиры.

По мнению узбекского учёного Г.Сиддиковой: «Нравственная устойчивость молодежи сегодня зависит от того, насколько она способна критически воспринимать и фильтровать поступающую информацию» [5] .

Другой вызов — это ослабление семейных связей, отчуждение поколений. В условиях занятости родителей, урбанизации и миграции дети часто остаются без должного внимания и духовной поддержки. Это снижает уровень эмоциональной и моральной зрелости подростков. В этих условиях задача общества — создать благоприятную нравственную среду, где молодое поколение будет чувствовать поддержку, ориентироваться на достойные примеры, развивать внутреннюю силу и устойчивость.

Кроме того, важно уделять внимание психологической поддержке молодежи. Сегодняшние подростки часто сталкиваются со стрессами, внутренними противоречиями и моральными дилеммами, которые требуют внимания и понимания со стороны взрослых, наставников, педагогов. [4]

Воспитание нравственности у молодёжи – одна из важнейших задач современного общества. В условиях глобализации и информационного давления особенно важно формировать у подрастающего поколения устойчивые моральные ориентиры, основанные на национальных и духовных ценностях. Большую роль в этом процессе играют семья, образовательные учреждения, махали, религиозные организации и средства массовой информации. Только объединив усилия, можно воспитать духовно зрелую, патриотичную и социально ответственную личность.

**Литература:**


1. Навоий Алишер. Хамса. – Ташкент: Узбекистан, 1980.
2. Хамза Хакимзаде Ниязи. Избранные произведения. – Ташкент: Фан, 1977.
3. Мирзиёев Ш.М. Мы строим новое Узбекистан. – Ташкент: УзА, 2021.
4. Устав и программы Министерства дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан. – 2023.
5. Сиддикова Г.Н. Проблемы нравственного воспитания молодежи в условиях глобализации. – Ташкент: Муаллим, 2022.

# РОЛЬ НАСЛЕДИЯ И ДУХОВНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ XXI ВЕКА

**Мулладжанова Хосият Яздоновна,**
старший преподаватель кафедра “Социальных дисциплин”
Самаркандский институт экономики и сервиса
**Ризаев Мирфайз**
Студента Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В статье анализируется значение духовного наследия и принципов его преемственности в современном образовании. Богатое духовное и культурное наследие узбекского народа, исторические личности, литература, искусство, традиции и традиции преемственности, сформированные на основе национальных ценностей, играют важную роль в воспитании нынешнего поколения. В XXI веке возрастает необходимость эффективного использования духовного наследия в образовательном процессе для повышения духовного сознания молодежи, развития чувства национальной идентичности, исторической памяти и патриотических чувств. В статье рассматриваются теоретические основы этих вопросов, их актуальность и пути их реализации на практике.

**Ключевые слова:** духовное наследие, преемственность, национальные ценности, образование, молодежь, историческая память, духовность, XXI век, современное образование, национальная идентичность

В современную эпоху глобализации отношение каждой нации к своим национальным ценностям, исторической памяти и духовному наследию определяет направление ее будущего развития. После обретения Узбекистаном независимости восстановление национальной идентичности, установление исторической справедливости, глубокое изучение и пропаганда богатого наследия, оставленного нашими предками, стали одними из приоритетов государственной политики. Особенно в образовании молодого поколения эффективное использование духовного наследия имеет огромное значение для воспитания из них патриотичных, знающих, сознательных и ответственных личностей.

Одной из важнейших задач, стоящих перед системой образования в XXI веке, является воспитание у молодежи чувства национальной гордости, исторической памяти и уважения к культурному наследию своего народа. В конце концов, духовное богатство народа связано с его прошлым, и при передаче этого наследия из поколения в поколение узы преемственности сохраняются неразрывными. В статье анализируются роль и значение принципов преемственности в современной системе образования.

Духовное наследие относится к ценностям, обычаям, традициям, литературному, культурному и религиозному богатству каждого народа, которые формировались на протяжении веков. Это наследие представляет собой историческую память народа, и священный долг каждого общества —

сохранить и передать его будущим поколениям. Особенно в XXI веке, в условиях глобализации, технологического прогресса и увеличения потока информации, сохранение духовного наследия и передача его молодежи стали актуальной задачей. С этой точки зрения вопрос преемственности, то есть последовательного изучения духовного богатства, его понимания и применения в современном образовании, имеет большое значение.

Великий мыслитель Алишер Навои писал: «Тот, кто не учится на опыте прошлого, собьется с пути в будущем»[1]. Этой цитатой поэт подчеркивает необходимость изучения истории и ценностей народа. Фактически, извлечение уроков из прошлого означает понимание опыта, мировоззрения и духовных взглядов наших предков, живших до нас. Понимая это, мы готовим сегодняшнее молодое поколение к жизни, прививая им историческое сознание и патриотизм.

Ибн Сина в своих трудах выразил следующую мысль: «Изучение и развитие знаний возвращает человека к его истинному «я»»[2]. Здесь великий ученый подчеркивает, что посредством науки человек осознает свою идентичность и учится вести себя достойно в обществе. Одним из важнейших аспектов духовного наследия является его влияние на воспитание человека как полноценной человеческой личности.

Президент Шавкат Мирзиѐев в одном из своих выступлений сказал: «Если мы не научим молодежь национальным ценностям, ее захватят иностранные идеи».[3] Эта идея подчеркивает решающую роль национальной идентичности и наследия в воспитании молодого поколения. Сегодня необходимо укреплять чувство национальной гордости в сердцах молодых людей путем углубленного преподавания в образовательном процессе основ национальной истории, литературы, культуры, искусства, религии.

Абу Наср аль-Фараби сказал: «Счастливое общество — это общество образованных и духовно зрелых людей»[4]. Эта идея Фараби актуальна и сегодня: обществу нужен не только материальный прогресс, но и духовный подъем. Даже в XXI веке, когда инновации, искусственный интеллект и технологии находятся на пике своего развития, самой фундаментальной потребностью человечества остается духовность. Поэтому современное образование должно гармонично сочетать моральные, культурные и исторические ценности с техническими знаниями.

Народный поэт Узбекистана Эркин Вохидов писал: «То, что делает нацию нацией, — это ее язык, религия, традиции и литература». [5]. Через эту мысль поэта мы видим важнейшие черты национальной идентичности и духовного наследия. Наше духовное наследие отражено не только в произведениях прошлого, но и в современной литературе, музыке, искусстве и фольклоре. Поэтому необходимо глубоко изучать эти источники и применять их на практике в образовательном процессе.

Принципы преемственности в системе образования должны быть четко отражены в следующем:

1. Широкое освещение тем, связанных с духовным наследием, в учебниках и учебных программах;

2. Обогащение истории, литературы и духовных наук современными подходами;

3. Проведение национальных праздников и традиционных обрядов в образовательных учреждениях;

4. Установление сотрудничества с учреждениями культуры и искусства;

5. Широко пропагандировать идеи преемственности посредством интерактивных уроков, театрализованных представлений и конкурсов.

Духовное наследие является бесценным достоянием для нашего настоящего и будущего. Понимая, сохраняя и передавая его молодому поколению, мы будем делать уверенные шаги к построению сильного, цивилизованного и совершенного общества. В XXI веке эта задача не утратила своей актуальности, а наоборот, становится еще более важной. Наследование духовного наследия сегодня не ограничивается изучением исторических памятников или письменных источников. Он выводится на новый уровень, прежде всего, за счет оцифровки, популяризации и продвижения этого наследия через социальные сети с использованием современных технологий. К ним относятся, например, создание объектов культурного наследия в формате 3D, сохранение народного фольклора в аудио- и видеоформате, изучение произведений известных писателей с помощью мобильных приложений. В современной глобальной образовательной среде существует прекрасная возможность донести духовное наследие до учащихся с помощью цифровых инструментов, таких как мультимедийные учебники, электронные библиотеки и интерактивные платформы. Такой подход повышает интерес у молодежи и поощряет их самостоятельную учебную деятельность. Так, например, важную роль в этом плане играют портал ―ZiyoNet‖, деятельность Фонда ―Культурное наследие‖, проект ―Культурное наследие Узбекистана глазами мирового сообщества‖.

На институциональном уровне также принимается ряд практических мер по укреплению преемственности в образовании. В частности, посредством введения в высших учебных заведениях таких предметов, как «Основы национальной идеи и духовности», ―Чувство Родины‖, ―Узбекская литература‖, молодежь познает гармонию исторического наследия и современных взглядов. Кроме того, если обратиться к опыту других стран, то образовательные системы Японии, Южной Кореи или Германии также уделяют большое внимание интеграции национальной культуры, обычаев и традиций в учебную программу. Например, в Японии в каждой школе есть уроки нравственного воспитания, называемые школьным этикетом, на которых учеников учат уважению, терпению, хорошим манерам и древним традициям. Аналогичные комплексные подходы в нашей системе образования были бы полезны для возрождения преемственности.

Кроме того, роль семьи в обществе неоценима. Семья, как первая школа воспитания, прививает детям национальные ценности, традиции, унаследованные от предков, верность религии и вере. К сожалению, в современный цифровой век порой можно наблюдать, что активность родителей в этом отношении ослабевает. Поэтому для родителей совместно с

образовательными учреждениями необходимо организовывать духовнопросветительские семинары и круглые столы. Важным аспектом является то, что наследие — это не только сохранение и передача, но и его переосмысление, адаптация к современному обществу и развитие. То есть, необходимо не слепо повторять наследие предков, а учиться на нем и творчески создавать что-то новое. Тогда ценность этого наследия возрастет и оно будет интересно молодому поколению.

Ведение блогов, создание контента или национальный контент в социальных сетях, который становится все более популярным среди молодежи, — все это новые формы преемственности, которые адаптировались к времени. Именно на таких площадках жизнь и творчество наших великих предков – Алишера Навои, Бабура, Беруни, Ибн Сины, Захириддина Мухаммада Бабура и других – передаются в народном и современном стиле, что находит более глубокое отражение в сознании молодежи. Также можно развивать родственные связи посредством художественной литературы, театра, музыки и изобразительного искусства. «Шайтанат» писателя Тахира Малика или произведения Абдуллы Кадыри являются мощными инструментами для пробуждения национального духа и исторического сознания. Национальная гордость может быть привита молодому поколению и путем воскрешения на сцене исторических героев.

Вопрос духовного наследия и преемственности является одним из важных факторов развития любого общества. Особенно в XXI веке, в эпоху возросшей глобализации, информационного обмена и межкультурного обмена, вопрос сохранения национальной идентичности и передачи ее будущим поколениям становится все более актуальным. Богатые научные, культурные, моральные и религиозные ценности, унаследованные от наших предков, служат важным источником формирования молодого поколения как полноценных человеческих личностей.

Современная система образования является основой укрепления духовного наследия, посредством которой не только преподаются исторические истины, но и воспитываются в сознании молодежи такие качества, как национальная гордость, патриотизм, вера и гуманность. В то же время расширяются и возможности передачи этого наследия в новых формах с помощью современных технологий, инновационных подходов и творческих методов. Наследование духовного наследия – это, прежде всего, ценность, которая передается от сердца к сердцу. Сохранить его, развить и передать молодому поколению — священный долг каждого родителя, учителя, интеллигента и каждого сознательного гражданина. Ведь только народ, знающий свое прошлое и гордящийся своими предками, может смело двигаться к сильному будущему. Для этого каждый из нас должен продемонстрировать свою приверженность духовным сокровищам посредством своих знаний, профессии и действий.

**Список использованной литературы**

1. Навои А. Махбуб ул-кулуб. Ташкент: Издательство ―Фан‖, 1991.
2. Ибн Сина. Законы медицины (Аль-Канун фи’т-тибб). Ташкент:

Издательство Национальной энциклопедии Узбекистана, 2005.
3. Мирзиѐев Ш.М. Новая стратегия Узбекистана. Ташкент: Издательство ―Узбекистан‖, 2021.
4. Фаробий А.Н. Город добродетельных людей. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гулама, 1993.
5. Вохидов Э. Слово сердца. Ташкент: Писатель, 1989.
6. Кадирий А. Минувшие дни. Литературно-художественное издательство имени Гафура Гулама, 1992.
7. Малик Т. Шайтанат (сборник романов). Ташкент: Шарк, 2000.
8. Материалы проекта ―Культурное наследие Узбекистана глазами мирового сообщества‖ - www.heritage.uz
9. Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан. Учебная программа по предметам ―Национальная идея, ―Основы духовности, ―Правовое образование‖. Ташкент, 2023.

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY-MADANIY MASALALARI

**Xakimov Muzaffar Fayzullayevich,**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filaili**
**E-mail:** mxakimov1130@gmail.com**.**

**Annotatsiya:** Maqolada globallashuv sharoitida O‘zbekiston ta’lim turizmining istiqbollari tahlil qilinadi. Ta’lim turizmining iqtisodiy, madaniy va falsafiy jihatlari o‘rganilib, mamlakatda mavjud imkoniyatlar ilg‘or xorijiy tajribalar asosida O‘zbekistonda ta’lim turizmini rivojlantirish uchun samarali strategiyalar taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim turizmi, globallashuv, iqtisodiy rivojlanish, madaniy almashinuv, xalqaro tajribalar, ta’lim siyosati, ta’limni boshqarish, bilimga asoslangan turizm.

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo davlatlari o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy va ilmiy aloqalarning jadallashuvi turizmning yangi shakllarini, xususan, ta’lim turizmini rivojlantirishni zaruratga aylantirmoqda. Ta’lim turizmi — bu nafaqat bilim almashinuvi, balki xalqaro hamkorlik, madaniy integratsiya va barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda salmoqli qadamlar tashlab, xorijiy talabalar uchun jozibador ta’lim muhitini yaratish, ilg‘or tajribalardan foydalanish va milliy qadriyatlarga asoslangan falsafiy yondashuvni shakllantirish yo‘lida faoliyat olib bormoqda.

XXI asr boshlaridan boshlab globallashuv jarayonlari dunyoning barcha jabhalariga, jumladan, ta’lim va turizm sohalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon bo‘ylab bilim va texnologiyalar oqimi, transmilliy mobil tajriba almashinuvi, hamda raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim nafaqat milliy doirada, balki global makonda raqobatbardosh bo‘lish zaruratini tug‘dirmoqda. Shu nuqtai nazardan

qaralganda, ta’lim turizmi bugungi kunning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmog‘i lozim. U nafaqat iqtisodiy foyda, balki intellektual resurslar oqimini ta’minlash, madaniyatlararo muloqot va barqaror taraqqiyot uchun zamin yaratadi.

Mazkur maqola globallashuv sharoitida O‘zbekiston ta’lim turizmi istiqbollarini har tomonlama tahlil qilish, xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish va milliy modelni shakllantirishda falsafiy yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida yozilgan. Tadqiqot doirasida Germaniya, Malayziya, Turkiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning ta’lim turizmi yo‘nalishidagi siyosiy-ijtimoiy yondashuvlari tahlil qilinadi va O‘zbekiston uchun mos innovatsion yechimlar taklif etiladi.

Ta’lim turizmi (educational tourism) madaniy turizmning bir tarmog‘i bo‘lib, ma’lum bir muddat davomida xorijiy mamlakatda bilim olish, malaka oshirish, yoki ilmiy tadqiqot olib borish uchun amalga oshiriladigan harakatlilik tushuniladi. Bu tushunchani Avstraliyalik professor **Brent W. Ritchie** o‘zining *Managing Educational Tourism* (2003) nomli kitobida “sayohat orqali o‘rganish” konsepsiyasida yoritib bergan, 2008 yilda Niderlandiyadagi Tilburg universiteti professori G.Richards BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) va Jahon Yoshlar, Talabalar va Ta’lim Turizmi Konfederatsiyasi (WYSE Travel Confederation) bilan hamkorlikda “Youth Travel Matters: Understanding the Global Phenomenon of Youth Travel” nomli hisobotda uni “bilimga asoslangan turizm” shakli deb ta’riflaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan, amerikalik faylasuf John Dewey Experience and Education (1938) asarida ta’limni tajriba asosida shakllantirish kerakligini ilgari suradi. Bu yondashuvga ko‘ra, inson faqat nazariy bilim orqali emas, balki amaliyot va madaniy muhit bilan bevosita to‘qnashuv orqali mukammal o‘rganadi. Bizningcha, ta’lim turizmi kishini madaniy ong, tafakkur va qadriyatlar almashinuvi orqali intellektual yuksalishga olib boruvchi, tanqidiy va tahliliy fikr yurita olish imkonini beruvchi yo‘l, mamlakatlarni iqtisodiy, madaniy hamda gumanitar sohalardagi hamkorliklarini mustahkamlovchi ijtimoiy hodisadir.

O‘zbekiston Respublikasi oxirgi yillarda oliy ta’lim tizimini liberallashtirish, ko‘plab davlat universitetlari va xorijiy sarmoya asosida ochilgan oliy o‘quv yurtlari (masalan, Webster, Inha, Westminster, MISiS, Turin, YEOJU) orqali xalqaro standartlarga mos ta’lim xizmatlarini taklif etishni boshladi. Oliygoh saytining (2025) ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda o‘qiyotgan xorijiy talabalar soni 12500 nafardan oshdi. Ushbu xorijlik talabalar ta’lim, yashash, oziq-ovqat, transport va boshqa xizmatlardan foydalanish orqali mamlakat iqtisodiyotiga taxminan 25 million dollar miqdorida foyda keltirmoqda. Ammo bu O‘zbekistondagi mavjud imkinoyatlar hisobga olganda juda kam hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy talabalarni jalb etish, qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish kabi tashabbuslar orqali ta’lim turizmini rivojlantirish yo‘lida muhim qadamlar tashlamoqda. Mamlakatda mavjud tarixiy-madaniy boylik, geosiyosiy qulaylik, hamda diniy bag‘rikenglik muhiti bu jarayonning tabiiy ustunliklari hisoblanadi.

Aynan ta’lim turizmi orqali Avstraliya davlati 48 mlrd. dollar (The Avstralian), AQSH 43 mlrd. dollar (www.statista.com/chart), Buyuk Britaniay 30 mlrd. dollar (profileevaluation.com/most-popular-study-abroad-destination),

Kanada 22 mlrd. dollar (https://studyinternational.com/news/international-student-population/). Dunyoning 30 dan ortiq davlati milliard dollardan ziyod daromad olmoqda va bu mamlakat iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylanib ulgurgan.

Iqtisodiy jihatdan qaralganda, xorijiy talabalar orqali mamlakatga kiritilayotgan mablag‘lar o‘quv to‘lovlari, yashash xarajatlari, transport va madaniy tadbirlarga hamda turli xizmatlarga sarflanadigan mablag‘lar shaklida ta’lim turizmi orqali YAIMga hissa qo‘shadi.

Madaniy jihatdan, Samarqand, Buxoro, Xiva singari shaharlarning tarixiy merosi va diniy bag‘rikenglik muhiti O‘zbekistonni islomiy madaniyat markazi sifatida xorijiy, ayniqsa, musulmon davlatlari yoshlari uchun jozibadorlik kasb etadi. Bu esa Malayziya yoki Turkiya kabi mamlakatlarning tajribalariga mos keladi. Bu tajribalarni O‘bekiston muhitiga transformstsiya qilish mumkin.

Muammolar sifatida esa til to‘sig‘i, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tmagan dasturlar, marketingning sustligi va logistika xizmatlarining to‘liq rivojlanmaganligi qayd etilishi mumkin.

Germaniya ta’lim turizmi sohasida DAAD (German Academic Exchange Service) orqali xalqaro almashinuvni kuchaytirgan. Bu modelda ikki tomonlama diplom dasturlari, grantlar va ingliz tilidagi kurslar asosiy o‘rin tutadi (DAAD.de). O‘zbekiston oliygohlarida ham xorijiy universitetlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Hamkorlikni tashkil etish uchun hukumat tomonidan barcha huquqiy instrumenlar ishlab chiqilgan.

Turkiya esa “Turkiye Burslari” orqali iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan davlatlar yoshlari uchun bepul ta’lim imkonini yaratgan. Bu tajriba ta’lim orqali yumshoq kuch siyosatini amalga oshirish modelidir (turkiyeburslari.gov.tr).

Malayziya o‘zining madaniy va dini bag‘rikenglik muhiti, arzon yashash xarajatlari va xalqaro akkreditatsiyalangan dasturlari orqali ta’lim turizmini rivojlantirdi. Education Blueprint 2015–2025 bu borada muhim strategik hujjatdir. Va bu orqali mamlakat yiliga 1,7 mlrd. dollar daromad olmoqda.

Janubiy Koreya ta’limni texnologik innovatsiyalar bilan bog‘lagan holda, K-education brendi orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirmoqda (KEDI.re.kr).

Globallashuv jamiyatlarning madaniy chegaralarini nisbatan yo‘qotayotgan bo‘lsa-da, milliy o‘zlikni saqlagan holda global muloqotga kirishish zamonaviy ta’lim turizmining asosiy vazifasidir. Al-Farobiy va Ibn Sino ta’limni nafaqat bilim, balki axloqiy kamolot vositasi sifatida ko‘rganlar.

O‘zbekistonda ta’lim turizmini rivojlantirish uchun quyidagi yechimlar taklif qilinadi:

Xalqaro akkreditatsiyani kengaytirish va tan olingan diplom dasturlarini joriy etish;

Ingliz, rus va arab tillarida to‘liq bakalavriat va magistratura dasturlarini tashkil etish;

Xorijiy talabalar uchun grant va stipendiyalarni yo‘lga qo‘yish (masalan, "Silk Road Scholarship");

O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini ta’lim bilan integratsiyalashgan holda taqdim etish kabi (Sarbonno universiteti tajribasi).

O‘zbekiston globallashuv sharoitida ta’lim turizmini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki madaniy-diplomatik ta’sir doirasini kengaytirish imkoniyatiga ega. Ilg‘or xalqaro tajribalar tahlili, mavjud infratuzilmaviy salohiyat, hamda milliy qadriyatlarga asoslangan falsafiy yondashuv bu sohani barqaror rivojlantirishda muhim omillardir. Shu bois, ta’lim turizmi mamlakatning global maydondagi intellektual brendini shakllantirishda ustuvor strategik yo‘nalish bo‘lmog‘i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ritchie, B. W. (2003). Managing Educational Tourism. Channel View Publications.
2. Richards, G. (2008). Education and Tourism: Travel for Learning. Routledge.
3. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Macmillan.
4. DAAD. (2023). www.daad.de
5. Turkiye Burslari. (2024). www.turkiyeburslari.gov.tr
6. Ministry of Higher Education Malaysia. (2015). Malaysia Education Blueprint 2015–2025.
7. KEDI. (2022). Korean Education Development Institute. www.kedi.re.kr
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi. (2023). www.stat.uz
9. World Bank. (2022). Higher Education in Uzbekistan: Institutional Challenges and Policy Options.
10. Appadurai, A. (1996). Modernity at Large. University of Minnesota Press.
11. Al-Farobiy. (IX asr). Fozil shahar ahlining qarashlari. Sharq mumtoz falsafasi manbalari.
12. https://studyinternational.com/news/international-student-population/


## AXBOROTLASHGAN JAMIYAT-IJTIMOIY DAVLATNING IJTIMOIY-AXLOQIY JIHATLARI


**Botirov Zafar Saydullayevich**
**Alfraganus universiteti, “Ijtimoiy fanlar” kaferdasi o‘qituvchisi**



**Annotasiya:** Maqolada jamiyatimiz taraqqiyotida axboratlashgan ijtimoiy davlat shakllantirish va uning ijtimoiy-axloqiy jihatlarini ko‘rsatioib o‘tiladi. Ijtimoiy davlatda ilmiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek taraqqiyotidagi iqtisodiy va siyosiy o‘sishga o‘rta qatlamni o‘rniga alohida urg‘u berilgan.



**Kalit so‘zlar:** Axloq, yoshlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, jamiyat, axborat, axbortlashgan jamiyat, xulq, mehnat, odob-axloq, mamlakat.


Mamlakatimizda hayoti fuqarolarni turmush tarzi, dunyoqarashi va axloqiy tamoyillari jamiyatning rivojlanishi bilan belgilanadi. Demak bundan kelib chiqadigan jamiyat ehtiyoj va imkoniyatlari oxir-oqibatda kishilarning moddiy va ma’naviy taraqqiyot yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi. Lekin bunday holat bir

tomonlama ta’sir bo‘lmay, odamlarning dunyoqarashida jamiyat ehtiyoj va imkoniyatlari o‘ziga xos, o‘z moddiy va ma’naviy holatlaridan kelib chiqib, aks etadi va aks ta’sir qilishi ham mumkin. Lekin bizning turmush tarzimizning mazmuni shundaki, milliy qadriyatlarimiz ma’lum darajada o‘z ta’sirini doimo saqlab turadi. Jamiyat yaratgan yashash imkoniyatlari milliy madaniyatlarda turlicha ifodalanishi albatta tabiiy.

Prezidentimiz tomonidan e’tibor etilayotgan ijtimoiy davlat va jamiyatida insoniyat axloqiy inqilobi uchun iqtisodiy asosni vujudga keltirmoqda. Ana shu axloqiy inqilob barcha milliy mamlakatlarda bir xil mazmunga ega bo‘lmaydi, albatta. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tgandek “holbuki, inson hayoti, inson manfaati bilan bog‘liq sohalarda mayda narsalarning o‘zi yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas”[29]. Jamiyatda ilmiy bilimlarning rivoji kishilarning moddiy sharoitlarini, ma’naviy ehtiyojlarini yuksaltiradi. Biroq barcha mamlakatlar uchun umumiy tamoyillar ham mavjud bo‘lib, bu umumiy tamoyillar insoniyat jamiyatining, axloqining umumiy yo‘nalishini ifodalaydi. Shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyati ijtimoiy davlat uchun Real iqtisodiy asoslarni vujudga keltiradi. Shuning uchun kutilayotgan axloqiy jarayonlarning mohiyati nimada va uning iqtisodiy asoslari qanday bo‘lishi mumkin.

Insoniyat o‘zining ilg‘or ta’limotlarida kishi kishiga do‘st bo‘lishini, bir-biriga yordam berishini, hamma teng va erkin bo‘lishini orzu qilib kelgan edi. Oldingi davrlarda bu orzu diniy, xayoliy ta’limotlarda o‘z ifodasini topdi. Diniy ta’limotlar odamlarni bir-birlariga yaxshilik qilishga chaqirib, javobini u dunyoda ko‘rish bilan ovuntirsa (yomonlik qilganlarni qo‘rqitsa), xayoliy qarashlar uzoq kelajakda yuksak axloqiy me’yor (“kishi kishiga do‘st va hamkor”) amalga oshuvini xayol qilib keldilar.

Hozirgi davr esa, mamlakat miqyosida, mamlakatlararo va mintaqalararo miqyosda insoniyat orzu qilib kelgan axloqiy normani amalga oshirish uchun Real iqtisodiy sharoit yaratdi. Faqat sharoitni yaratib bermasdan balki axloqiy normalarni kelajak taraqqiyotining shartiga aylantirdi. Ya’ni, iqtisodiy hamkor davlatlar aholining iste’mol talablari va uni qondirish imkoniyatlari yuqori bo‘lmasa, taraqqiyot ham, ma’lum to‘siqlarga uchrashini ko‘rsatilmoqda.

Zamonaviy jamiyat (axborotlashgan, bilim jamiyati) o‘zida yangi axloq qoidalar uchun iqtisodiy omillardan tashqari ma’naviy omillar ham uchraydi. Ulardan birinchisi ishlab chiqarishning hal qiluvchi omiliga aylangan, yuksak texnologiyalarni yaratuvchi axborot bo‘lib, uning takammulashuvi ishlab chiqarishning asosiy sharoitini yaratmoqda. Shuningdek, M.Yoqubovaning fikricha: “axborot bu bizdan tushunishni, harakat qilishni, o‘zlashtirishni yoki tasdiqlashni talab qilmaydigan bilimdir. Ma’lumot uni qabul qilganlarga ta’sir qiladi, lekin uni bir zumda va bir lahzada amalga oshiradi”[30].Bilimning, texnologiyasi rivojlanishi esa boshqa resurslarning ahamiyatini ikkinchi o‘ringa tushirmoqda.

---

[29] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. 29-Б.

[30] Ёқубова М. «Информация как суррогат знания» // Материалы VI Российского философского конгресса //«Философия в современном мире: диалог мировоззрений» (Нижний Новгород,) 2012 год 27-30 июня.

Axboratlashgan jamiyatda yangi axloqiy normalar va ularni shakllanishiga keyingi omili – inson ma’naviyatining yuksalib borishi. Globallashuv, axborotlashuv jarayonlarining kuchayib borishida insonning dunyohamjamiyatida haqidagi, turli xalq va madaniyatlar haqidagi tasavvurlari, bilimlari chuqurlashmoqda, barcha insonlar yagona biologik turga mansubligi, ularning ildizi, taqdiri birligi haqidagi g‘oya tafakkurimizga tabora singib bormoqda. Shu bilan birga, milliy rang-baranglik, ularning o‘zaro bir-biriga intilishi va qiziqishiga olib keladi. Buning ma’naviyat vaaxloqiy masalalarini rivojlanishi barcha mavjud muommolarni hal qilish omilidir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev xozirgi dunyoda bo‘layotgan voqea va hodisalarga baho berib shunday ta’kidlaydi "bizning asosiy maqsadimiz izchil va barqaror rivojlanayotgan, erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etishdan iboratdir.”[31] Jamiyat miqyosida butun qadriyatlar tizimi yangicha ma’no va mazmun kasb etishi lozim. Bugungi globallashuv davrida davlat va mintaqalar o‘rtasida hamkorlik, qo‘shnilarning bir-biri bilan manfaatdorlik aloqalarining yuksalib borishi axloqiy normalar yuksalishining nazarda tutadi.

Axborotlashgan jamiyatga asos bo‘lgan, biz yuqorida ta’riflagan, iqtisod yangi axloqiy paradigmaga (jamiyat miqyosida) o‘tish zaruriyatini tug‘diradi. Davlatlar, mintaqalar o‘rtasida munosabatlar intensivlashadi.

Yangi tipdagi jamiyat iqtisodiy asoslari muayyan mamlakatda o‘rta sinf shakllanishi, rivojlanishi va jamiyatda mustahkam mavqega ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Chunki bu ijodkor sinfning g‘oyalari, faoliyatlari tufayli shunday iqtisod yaratiladi. Ko‘rinib turibdiki, kelgusi taraqqiyotimizni tobora mustahkamlanib, yuksalib borayotgan o‘rta sinf belgilab boradi. Jamiyat rivojlangan sari o‘rta sinfning tarkibi (qatlamlari) turli soha vakillari bilan kengayib ham boradi.

O‘zbekistonda yangi tipdagi jamiyat iqtisodini tarixan qisqa davrda shakllantirishda qator bosqichlar bosib o‘tildi. Mamlakatimizda o‘rta sinfning shakllanishi jarayoni jamiyat barcha sohalarida tub o‘zgarishlar bilan birga kechdi. Axborotning jamiyat ravnaqi va shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta’minlashdagi o‘rniga barcha davrlarda alohida e’tibor qaratilgan. Qadimgi “Avesto”da har qanday xabar, yangilik o‘zining haqiqiyligi, ishonchliligi bilan baholanishi, uning yordamida insoniyat yaxshilikka, ezgulikka intilishi, xalol mehnat qilib tinch-totuv yashashi, adolat va haqiqatga sajda qilishi kerakligi o‘rgatilgan[32]. Huquqiy-siyosiy madaniyatning yuksala borishi, ta’lim sifatining yaxshilanishi, ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni joriy qilishning kuchayishi, aholi kasbiy tarkibining o‘zgarishi shular jumlasidan. Yangi jamiyat axloqiy paradigmasining makrodarajaga xosligi, mikrodarajada amal qilmasligi mutlaq emas. Mamlakatlar, mintaqalar o‘rtasida iqtisodiy va boshqa munosabatlarning intensivlashuvi bilvosita mikrodarajada, shaxslararo munosabatlarda ma’lum ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

---

[31] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 134-Б.

[32] Мўминов А. Ўзбекистон: ахборотлашган жамият сари. А.Мўминов./ Т.: “Турон замин зиё” нашриёти, 2013. - Б. 4.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, zamonaviy jamiyatda axloqiy munosabatlardagi o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi; ular ijtimoiy tuzilmaning dinamik rivojlanishi, xususan, o‘rta qatlamning shakllanishi va barqarorlashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘rta qatlam nafaqat jamiyatning iqtisodiy tayanchi, ya’ni boylik ishlab chiqaruvchi kuch sifatida maydonga chiqadi, balki ayni paytda u jamiyat boyligining asosiy iste’molchisi bo‘lish barobarida, ma’naviy hayotning faol subyekti sifatida ham shakllanadi. Bu qatlam vakillari o‘zlarining kasbiy tuzilmasi, bilim darajasi, intellektual va madaniy salohiyati bilan nafaqat ma’naviyat va madaniyat mahsulotlarini iste’mol qiladilar, balki ularni yaratishda ham faol ishtirok etadilar.

## MILLIY SPORT TURI SIFATIDA KURASHNING IJTIMOIY VA PEDAGOGIK VAZIFALARI

**Raxmonov Dilmurod Nusratovich**
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kurash sportining milliy qadriyatlar tizimidagi o‘rni, uning yosh avlodni barkamol etib voyaga yetkazishdagi ijtimoiy va pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Kurash nafaqat jismoniy chiniqish, balki axloqiy-ruhiy kamolotga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** kurash murabbiylari, sportchi o‘qituvchilar, sport mashg‘uloti, pedagogik kuzatuv, anketa-so‘rovnoma, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik.

Milliy sport turlari har bir xalqning madaniy merosi, urf-odat va an’analarining ajralmas qismidir. O‘zbek xalqining shunday bebaho meroslaridan biri bu— kurash sportidir. Kurash asrlar davomida xalqimizning jismoniy, ma’naviy va axloqiy barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. U nafaqat sport turi, balki millat ruhiyatining, g‘ururining ifodasidir. Bugungi kunda kurash sportini ta’lim-tarbiya tizimiga tatbiq etish orqali yoshlar ongida milliy g‘urur, vatanparvarlik, sog‘lom turmush tarzi va intizomlilik kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin. Ushbu maqolada kurash sportining ijtimoiy va pedagogik vazifalari, uning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni, va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kurash buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan, o‘zida boy an’analar va qadriyatlarni mujassam etgan sport turidir. Kurashning o‘zbek sporti brendi degan nom bilan dunyodagi mavqeini oshirish, mazkur sport turi bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Yurtimizda aholi sonining 30 foiziga yaqini yoshlar bo‘lib, ularning sport bilan shug‘ullanishi,o‘qib-izlanishi, ta’lim olishi, kasb-hunar egasi bo ‘lishi uchun hamma sharoitlar yaratib berilgan.

Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli zararli illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi

Mamlakatimiz 2030-yilda bo‘lib o‘tadigan Osiyo o‘yinlarini qabul qilish uchun jiddiy bel bog‘lagan. Shuningdek, O‘zbek milliy sport turi hisoblanmish kurashni xalqaro maydonda nufuzini oshirish bo‘yicha ham katta hajimdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Osiyo o‘yinlarini qabul qilish uchun mezbon mamlakatdan ko‘p narsa talab etiladi. Qolaversa, kurash sport turini ham kelajakda jahonning yanada katta maydonlarga olib chiqish bo‘yicha yirik loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Ajdodlarimiz bebaho xazina sifatida urf-odatlari, ibratli hayot yo‘li, an’analari va serqirra milliy qadriyatlarni bizga meros qilib qoldirganlar.

Yoshlarga jahon andozalari darajasida ta’lim berish yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashtirilgan holda olib borilmoqda. Uyg‘unlashtirilgan milliy qadriyatlar, sport va jismoniy tarbiyani ta’lim va tarbiya jarayonlarida qo‘llash samarali natijalarini ko‘rsatmoqda.

Bugun dunyo tan olgan kurash o‘zining chuqur tarixiga egadir. Kurash ham jahonning yuksak ma’naviy qadriyatlaridan biri sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi

Kurashning yoshi 2500-3000 yildan oshganligi mutaxassislar tomonidan o‘z isbotini topdi.Kurash Movarounnahrda paydo bo‘lgan yakkakurash turlari qatoriga kiradi. Qadimdan bu yurtning mard va alp yigitlari kurash tushib to‘y va tantanalarni, milliy bayramu shodiyonalarni qizdirib xalqning olqishini olishgan. Kurashning tub mohiyati halol yo‘l bilan g‘alaba qilishni anglatadi.

Ko‘rinib turibdiki, yurt pahlavonlari, bahodirlari, botirlari qadim zamonlardan buyon jismoniy jihatlari bilan, mardlik va oliyjanobliklari uchun ajralib turganlar. Ular Vatanni himoya qilishga dadil va mardonavor harakat qilishgan, haqiqatni, or nomusni himoya qilganlar. Abdulqosim Firdavsiy “Shohnoma” asarida: “Xalq tarixi uning bahodirlari ko‘rsatgan jasoratlarda abadiy yashaydi”,- deb yozadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab milliy sport turlarini jahonda ommalashtirish masalasi muhokama qilindi.

Kurashning kelajagi haqida o‘ylaganda, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning: “Biz kelgusi asrga o‘zimiz bilan birga nimalarni olib o‘tishimiz zarur va shart? Men Bu savolga faxr-iftixor bilan shunday degim keladi: “Biz XXI asrga eng katta boyligimiz–mustaqillik tiklagan milliy qadriyatlarimiz va kurashimiz bilan birga o‘tamiz”,- dagan fikrlari xayolga keladi

Endigi maqsad – tarixiy ildizlari necha ming yillarga borib taqaluvchi o‘zbek kurashini Olimpiada o‘yinlari dasturiga kiritish. Barcha mutaxassislarning asosiy e’tibori kurashni Olimpiada o‘yinlari dasturiga kiritishga qaratilgan. Bu borada alohida ishlab chiqilgan dasturlar asosida mashaqqatli, ammo sharafli ishlar qilinmoqda.

1999- yil yurtimiz tarixida ilk bor “Yunusobod” sport saroyida kurash bo‘yicha I jahon chempionati tashkil etildi.

2002-yil 23-fevral kuni polvonlarimiz Berlin shahrida o‘tkazilgan Germaniya chempionatida ishtirok etib, Germaniya Olimpiya institutida “O‘zbekiston mamlakati – o‘z sportini namoyish etadi” mavzusida katta seminar o‘tkazdilar.

2003-yilda XKA Osiyo Olimpiya Kengashi Nizomiga o‘zgartirish kiritib, kurash Osiyo sporti sifatida e’tirof etildi. Sharq mamlakatlari bilan xalqaro sport aloqalari o‘rnatilib, Misr, Birlashgan Arab Amirligi, Quvayt va boshqa mamlakatlarda kurash federatsiyalari tashkil etildi.

Kurash sportini rivojlantirishning uchinchi bosqich 2005-yil va undan keyingi yillarni o‘z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi XKAning xalqaro va qit’alar aro sport tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish, kurashni ommaviy sport turi sifatida Olimpiya va Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritishdan iborat.

Milliy sport turimiz bo‘lgan kurash 2017-yil Ashxobodda bo‘lib o‘tgan 32-Osiyo Olimpiya kengashi Bosh assambleyasida o‘zbek sport jamoatchiligi uchun esda qolarli voqeliklardan biri sifatida tarixda qoldi. Aynan ushbu Assambleyada o‘zbek milliy kurashining 2018 yili Indoneziya poytaxti Jakarta shahrida bo‘lib o‘tadigan 18-Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritilganligi rasman e’lon qilindi. Bu tarixiy voqelik o‘z navbatida xalqaro sport jamoatchiligi tomonidan ko‘p millatli O‘zbekiston davlatining katta yutug‘i sifatida e’tirof etilmoqda. Boshqacha aytganda, azaliy qadriyatimiz – kurashning nufuzli sport o‘yini tizimiga kiritilishi jonajon Vatanimiz istiqbolining katta yutug‘idir.

Xulosa qilib aytganda, kurash sporti — bu faqatgina jismoniy faoliyat emas, balki ijtimoiy-pedagogik tarbiyaning samarali vositasidir. U orqali yoshlar nafaqat jismonan chiniqadi, balki axloqan, ruhan va ijtimoiy jihatdan kamol topadi. Kurash sportining tarbiyaviy salohiyati ta’lim muassasalarida, sport maktablarida va yoshlar bilan ishlovchi boshqa tizimlarda keng qo‘llanishi lozim. Shu asosda, kurashni milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etuvchi, sog‘lom va vatanparvar yosh avlodni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida kengroq rivojlantirish zarur. Kelajakda kurash sportining ijtimoiy va pedagogik imkoniyatlarini yanada chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish, uning milliy tarbiya tizimidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Abdullayev, R. (2018). Kurash sportining tarbiyaviy ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Karimov, I.A. (2010). Milliy sport turlari va ularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Firdavsiy, A. (XI asr). Shohnoma. Toshkent: Milliy nashriyot.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi. (2022). Kurash sportini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent.
5. Usmonov, T. (2019). “Kurash sportining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari” // Sport va tarbiya jurnali, 3-son, 45-52-betlar.
6. Rasulov, B. (2017). “Milliy kurash sporti va uning tarbiyaviy funksiyalari” // Jismoniy tarbiya va sport, 1-son, 12-18-betlar.

# BADIIY ASARLARNING O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA AHAMIYATI

**Xujanova Munojat Ziyadullayevna**
**Oriental universiteti 1-kurs magistranti**
**Tel:91/298-62-89**

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi bolaning o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo‘lgan o‘qish savodxonligi, turli ma’lumotlar bilan ishlash, asosiy matematik amallarni bilish va ularni kundalik hayotda qo‘llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zini tuta bilish, yozma va og‘zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta’limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

**Kalit so‘zlar:** Ertak, xalq og‘zaki ijodi, ijodiy fikrlash, ijodiy va kommunikativ qobiliyatlar, afsona, maqol, topishmoq.

Badiiy asarlarning o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ahamiyati juda katta. Bu, ularning o‘z fikrlarini ifoda qilish, o‘ylarini ifodalash va ijodlarini boshqalari bilan baham ko‘rish imkoniyatini beradi. Quyidagi asosiy ahamiyatlarni ko‘rsatish mumkin:

1.Badiiy asarlar o‘quvchilarni ko‘z tarafiga kelishga olib kelish orqali, ularning nutqini o‘stirish, ularning o‘ylarini izlash va ifodalash uchun muhim bir vosita bo‘lib, ularning o‘z fikrlarini namoyon qilishga imkon beradi.

2.Ijodiy fikrlash va analitik fikrlash badiiy asarlarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida, o‘quvchilar o‘ylarini ifodalash, o‘z fikrlarini boshqalar bilan baham ko‘rish va dunyoqarashni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3.Ijodiy va kommunikativ qobiliyatlar: Badiiy asarlarni o‘qish va ularga munosib javob berish o‘quvchilarga ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular o‘z fikrlarini ifoda qilish va boshqalari bilan fikrlarni almashish orqali o‘zlashtirish va o‘zlashtirish o‘rganadi.

4.Insoniyat, madaniyat va tarix bilimlariga kirish: Badiiy asarlarni o‘qish o‘quvchilarga insoniyat, madaniyat va tarix bilimlariga kirishni ta’minlaydi. Ularning o‘ylarini va qarashlarini o‘rganish orqali, ular o‘zlarini va dunyoni yaxshi tushunishadi.

5.Ijodiy mazmunni tushunish va baham ko‘rish: Badiiy asarlarni o‘qish, tahlil qilish va ularga munosib javob berish o‘quvchilarga ijodiy mazmunni tushunish va uning ustiga munosib baham ko‘rishni o‘rganishga imkon beradi. Bu, ularning tushunishlarini o‘stirish, ularning fikrlarini qanday ifoda qilishlari va boshqalarning fikrlariga e’tibor berishlari haqida o‘rganish uchun juda muhimdir.

Bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi va ularni mustahkam, o‘rganishga ochiq, ijodiy o‘ylashga va ijodiy muammolarga yechim topishga intiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar

insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi” [1]

Xalq ogʻzaki ijodini tashkil etuvchi maqol, topishmoq va tez aytishlarning aynan qachon va kim tomonidan yaratilganligi noma’lum, ammo tarixiy manbalarga

asosan, ilk xalq ogʻzaki ijodiga oid janrlar qadimgi oʻtmishga yetaklaydi. Qadimgi odamning kundalik hayoti, avloddan avlodga oʻtib kelayotgan donoligi, aynan xalq ogʻzaki ijodiga mansub asarlarda oʻz aksini topadi. Maqollarda qadimdan avloddan avlodga oʻtib kelayotgan donolik yashirinadi. Uning tabiati esa, zamonasidan qat’iy nazar, hech qachon urfdan qolmaydigan hikmatli iboralar bilan boydir. Kundalik hayotimizda maqollarni ishlatishimiz, dunyoqarashni toblantirishi bilan birga, nutqimizning koʻrkini ham ochadi. Buni xohlagan paytda sinab koʻrish mumkin.

Topishmoqlar qadimdan xalq tomonidan faol ishlatiladigan va sevimli janrlaridan biri boʻlib, ular, asosan, xalqning turmush tarzi, urf-odat va an’analari, dunyoqarashlarini ifodalaydi. Shuning uchun, aksar topishmoqlar tabiat hodisalari, hayvonlar, qushlar, hasharotlar va oʻsimliklar haqida aytilgan. Topishmoqlarning qadimdan mavjudligini hisobga olsak, ularning badiiy va lirik tuzilishi, hatto, hozirgi globallashuv zamonizda ham nafaqat dolzarb, balki qiziqarliligini yoʻqotmaganligi odamni hayratga soladi.

Topishmoqlar tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Topishmoqlar nafaqat inson bilimini tekshirish uchun, balki uning kuzatuvchanligini, oddiy narsalarda ham oʻxshashliklar va farqlarga e’tiborliligini oshirish, atrof-olamni majoziy va she’riy idrok etish qobiliyatini talab etadi.

**Ertak**

Xalq ertaklari - ma’lum bir madaniy guruh yoki jamoa doirasida avloddan-avlodga ogʻzaki oʻtadigan an’anaviy hikoyalar. Ular koʻpincha sehrli qahramonlar va moʻjizaviy hodisalarni oʻz ichiga olgan fantastik elementlarni oʻz ichiga oladi. Xalq ertaklari oʻzlari kelib chiqqan xalqning madaniyati va mentalitetini aks ettiradi va koʻpincha axloqiy tarbiya, qadriyatlar va an’analarni yetkazishga xizmat qiladi. Bu ertaklar koʻpincha turli madaniyatlar va avlodlar oʻrtasida moslashtiriladi va talqin qilinadi, yillar davomida oʻz dolzarbligi va mashhurligini saqlab qoladi.

Bundan tashqari, xalq ertaklarida odatda malikalar, shahzodalar, jodugarlar, sehrgarlar, sarguzasht qahramonlari va yovuz qahramonlar kabi tipik belgilar mavjud. Bu qahramonlar koʻpincha inson tabiati va intilishlarining turli qirralari timsoliga aylanadi, shuningdek, ertakdagi dunyoqarash va axloqiy tarbiyaning turli jihatlarini tasvirlaydi.

Oʻzbek ertaklari oʻzining milliy ruhi bilan ajralib turadi. Xalq ertaklari, shubhasiz, xalqning turmush tarzini, an’anaviy urf-odatlarini, oʻzaro munosabatini, mentalitet va milliy qadriyatlarini oʻzida aks ettiradi. Albatta, har bir sohada oʻzaro kesishuvlar boʻlgani kabi ertak janrida ham bir-biriga oʻxshash umumiyliklar mavjud.

Oʻzbek xalq ertaklarida xalqning hayoti va madaniyati aks ettirilgan. Ularda urf-odatlar, an’analar, turmush tarzi, me’morchilik va atrofdagi tabiat tasvirlangan. Koʻpincha karvon, bozor, choʻl, voha kabi mahalliy tasvir va naqshlar, shuningdek, milliy liboslar, cholgʻu asboblari, idish-tovoqlar uchraydi. Qolaversa, oʻzbek ertaklarida odatda sayohatchi qahramonlar, sehrli mavjudotlar, jodugarlar,

sehrgarlar, yaxshi va yovuz ruhlar, insoniy xususiyatga ega hayvonlar va boshqalar kabi keng qamrovli folklor personajlari mavjud. O‘zbek xalq ertaklarida ko‘pincha hayvon obrazlari asosiy o‘rin tutadi. Ular his-tuyg‘ularga ega bo‘lishi mumkin va syujetda yordamchidan tortib to bosh qahramongacha bo‘lgan qarama-qarshi antagonistlargacha turli funksiyalarni bajarishi mumkin. O‘zbek ertaklarida ushbu madaniyatga xos bo‘lgan mifologik, hamda diniy e’tiqod elementlari ham bo‘lishi mumkin. Bu ruhlar, farishtalar, jinlar tasviri va sehr-jodudan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Ertaklarning o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishdagi ahamiyati juda katta. Yozma nutq, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini ifodalash, tushunchalarini bayon qilish, va ko‘nikmalarini yoritish uchun asosiy vosita hisoblanadi.

**Afsona**

Bizningcha, qizlar tarbiyasida badiiy adabiyot katta ahamiyat kasb etadi, xususan, ertak, afsona, hikoya, she’r-u g‘azallarda tarannum etilgan mehr-muhabbat tuyg‘ulari, ayniqsa, tarixiy qahramon ayol obrazlari ulardagi shijoat va mardlikni uyg‘otishda ma’lum ma’noda xizmat qiladi.

Afsona o‘zida tarixiy, fantastik hamda sehr-jodu elementlarini tashkil qiladi, uzoq va yaqin tarixning ishonchli dalili bo‘lib ham xizmat qiladi. Hozirgi kunda jahon tarixshunoslari o‘tmish voqealarini o‘rganish jarayonida ajdod-lardan qolgan asori-atiqalar, bitiklarlar bilan birgalikda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan afsonalarga ham yetarlicha e’tibor berishmoqda.

Afsonalarning mavzusi rang-barang bo‘ladi va unda an’anaviylik yo‘qligi sabab, sujet murakkab bo‘lmaydi. Ushbu janrda afsonaviy qahramonlar, sehrli mavjudotlar, pir-u avliyolar, yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi to‘qnashuv kabi ajoyib va g‘aroyib hodisalar hikoya qilinadi. “Afsona borlig‘imizning eng nozik makonlariga ta’sir qiladi va uning namoyon bo‘lgan shakllarini oddiy va davomiy hikoyalar sifatida ajratib bo‘lmaydi. Balki, afsonalar muhokamalarda bildirilgan qarama-qarshi fikrlar mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi”, deb xulosa qiladi AQSHning Indiana universiteti folklor va etnomusiqashunos professori Linda Deg [2].

Afsona janrining nutq o‘stirishdagi ahamiyati juda katta. Afsonalar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini oshirish, ularning o‘ylash va tasavvurlarini rivojlantirish, va ularni ijodiy va ijodiy fikrlashni oshirish uchun juda muhimdir. Quyidagi sabablarga ko‘ra, afsona janrining nutq o‘stirishdagi ahamiyati aniqlanadi:

**1.Ko‘nikmalarini oshirish:** Afsonalar o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantirishda yordam beradi. Ular tarixiy qahramonlar, joylar va voqealarga asoslangan o‘ylashni va fikrni tuzatishni o‘rganish orqali o‘zlarini hayolingizni kuchaytirishadi.

**2.Til ko‘nikmalarini rivojlantirish:** Afsonalar o‘qish orqali o‘quvchilarga til ko‘nikmalarini oshirishga imkoniyat beradi. Bu, ularning so‘zlarini so‘zlar bilan bog‘lash, shunday qilib, ko‘nikmalarini tuzatish va o‘z fikrlarini aniq ifodalashlarini oshirishga yordam beradi.

**3.Tushunchalarni ifodalash:** Afsonalar, o‘quvchilarga muhimi tushunchalarni ifodalashga yordam beradi, masalan, adolat, hurmat, dostlik, va qo‘llab- quvvatlash. Bu qadrli tushunchalar baxtsizlik, insonparvarlik, va jamoa

a’zolari bilan hamkorlik kabi maqsadlarga erishishda juda muhimdir.

**4.Moral muhitni oshirish:** Afsonalar qadrli qahramonlar va yo‘lgonchilar orqali ma’naviyat, adolat va xayrli amallar haqida asosiy ma’naviyatni ifodalaydi. Ular o‘quvchilarni adabiyotning ma’nolisini tushunish va odob-axloqni oshirishga yordam beradi.

**5.Ijodiy fikrlashni oshirish:** Afsonalar o‘quvchilarga ijodiy fikrlash va tarbiyalashni taqdim etadi. Ular o‘quvchilarni yangi dunyolar va ideyalar bilan tanishtirish, ularning o‘zlarini ijodiy yo‘nalishda rivojlantirish va o‘z fikrlarini ifodalashlari uchun muhim imkoniyatlar beradi.

**6.Turli tillarni o‘rganish:** Afsonalar o‘quvchilarga turli tillarni, shuningdek, she’rlarni, qissalar va maqolalarni o‘rganish imkoniyatlarini beradi. Ular tarixiy, adabiy va madaniy tillarni tushunishga yordam beradi va ularni turli janrlardagi matnlarga oid izoh qilish uchun tayyorlaydi.

Shuningdek, afsonalar qahramonlar bilan o‘quvchilarning aloqalarini kuchaytirish va ularning dunyoqarashlarini o‘zgartirishga yordam berishi mumkin. Bu sabablarga ko‘ra, afsona janrining nutq o‘stirishdagi ahamiyati juda katta.

**Maqol**

Xalq og‘zaki ijodini tashkil etuvchi maqol, topishmoq va tez aytishlarning aynan qachon va kim tomonidan yaratilganligi noma’lum, ammo tarixiy manbalarga asosan, ilk xalq og‘zaki ijodiga oid janrlar qadimgi o‘tmishga yetaklaydi. Qadimgi odamning kundalik hayoti, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan donoligi, aynan xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarda o‘z aksini topadi. Maqollarda qadimdan avloddan avlodga o‘tib kelayotgan donolik yashirinadi. Uning tabiati esa, zamonasidan qat’iy nazar, hech qachon urfdan qolmaydigan hikmatli iboralar bilan boydir. Kundalik hayotimizda maqollarni ishlatishimiz, dunyoqarashni toblantirishi bilan birga, nutqimizning ko‘rkini ham ochadi. Buni xohlagan paytda sinab ko‘rish mumkin.

Maqollarning kelib chiqishi va rivojlanish tarixini ko‘plab folkloristlar qadimdan o‘rganishga harakat qilishgan. Maqol terminining aniq ifodasi, uning vazifalari, maqsadlari va xususiyatlari, hamda, strukturasini tushunish uchun dunyo miqyosida ko‘plab folkloristlar o‘z fikrini bildirishgan. Jumladan, L.I.Timofeev va S.V.Turaevlarning “Словарь литературоведческих терминов” kitobida maqol so‘ziga shunday ta’rif beriladi: “Maqol – xalq og‘zaki ijodining janri bo‘lib, kundalik nutqqa kirib kelgan, turli xil hayotiy vaziyatlarga taalluqli, ibratli ma’noga ega bo‘lgan to‘liq, o‘rinli obrazli so‘zdir. Maqollar odatda ritmik tarzda tuzilgan. Kelib chiqishiga ko‘ra ular xalq (folklor) va muallif (qanotli so‘zlar) ga bo‘linadi”. [2; 276]

A.Madvaliyev tahririyati ostida yozilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kitobida esa maqolga: “Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora, gap”, deb ta’rif beriladi. [3; 569]

1991-yildan buyon olib borilayotgan Gutenberg loyihasidagi “Barcha xalqlar maqollari” kitobi ushbu so‘zlar bilan boshlanadi: “Hatto eng yaxshi maqol, garchi ko‘pincha tanlangan tilda eng keng tajribaning ifodasi bo‘lsa-da, juda noto‘g‘ri qo‘llanilishi mumkin. U mavzuni to‘liq qamrab olmaydi va matematik formulalar kabi barcha holatlarda qo‘llanilmaydi. Uning donoligi eshituvchi qulog‘ida yotadi.”

- Kengashdagi do‘stlar”. [4]

Maqolning asosiy ahamiyatini “so‘z” tashkil etadi. Maqollardagi so‘zlar zanjiri shunday tuzilganki, ularni boshqa so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydi. Chunki bu holatda maqolning mazmuni butunlay boshqa ma’noni ifodalaydi. Har bir xalqning maqollari tuzilish jihatidan farq qilsa-da, ma’no jihatdan o‘xshash bo‘lgan hollari ko‘p uchraydi. Maqol dunyoning barcha xalqlarida keng tarqalgan donolik ramzidir.

**Topishmoq**

Topishmoqlar qadimdan xalq tomonidan faol ishlatiladigan va sevimli janrlaridan biri bo‘lib, ular, asosan, xalqning turmush tarzi, urf-odat va an’analari, dunyoqarashlarini ifodalaydi. Shuning uchun, aksar topishmoqlar tabiat hodisalari, hayvonlar, qushlar, hasharotlar va o‘simliklar haqida aytilgan. Topishmoqlarning qadimdan mavjudligini hisobga olsak, ularning badiiy va lirik tuzilishi, hatto, hozirgi globallashuv zamonizda ham nafaqat dolzarb, balki qiziqarliligini yo‘qotmaganligi odamni hayratga soladi.

Topishmoqlar tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Topishmoqlar nafaqat inson bilimini tekshirish uchun, balki uning kuzatuvchanligini, oddiy narsalarda ham o‘xshashliklar va farqlarga e’tiborliligini oshirish, atrof-olamni majoziy va she’riy idrok etish qobiliyatini talab etadi.

Eng qadimgi ilk xalqlarda o‘g‘il bolalarni nasl davom ettiruvchisi sifatida ovchilar safiga qo‘shish marosimlari o‘tkazilgan. Voyaga yetganlik sinovi sifatida, yigitlar o‘z jismoniy kuchini, epchilligini, jasoratini – ulkan yirtqich hayvonni o‘ldirish va og‘riqqa chidash bilan isbotlagan. Bilimlarini esa topishmoq topish bilan. Ko‘rinib turibdiki, topishmoqlar odamning bilimlari ko‘rsatkichi va dalili hisoblangan. Qadimgi yunonlar va nemislarda esa topishmoq topish jang san’atiga teng bo‘lgan. Afsonalarda qayd etilishicha, topishmoqlarni topa olmaganlar o‘limga hukm qilingan. Rus xalqining to‘ylarida ham XIX asrgacha topishmoq topish to‘yning ajralmas qismi bo‘lgan. Kelin dugonalari kuyovga va uning do‘stiga qiyin topishmoq berishgan, agar topa olmasa, kulbaga – kelinning oldiga kiritishmagan. Qadimgi Yunonistonda esa topishmoqlar musobaqalari simpoziumlarda intellektual o‘yin-kulgu sifatida mashhur bo‘lgan. Bu madaniyatning asosiy manbai Afinadir.

O‘zbek xalqida ham juda qadimda topishmoq aytish rasm-rusumlari bo‘lgan bo‘lishi mumkin. “Lekin hozirgi kungacha bunday aytishishlarning izlari saqlanib qolmagan. Ammo ota-bobolarimiz mehnatdan bo‘shagandan so‘ng, kechalari topishmoq aytishar ekan. Samarqand viloyati Gulbuloq qishloq sovetida yashovchi Roziya momo shunday deydi: «Qishning kechasi uzun bo‘ladi, ayollar yig‘ilib urchuq yigiradi, olacha to‘qiydi, shu vaqtlarda yoki kechasi yotgandan keyin topishmoq aytishish» odati bo‘lgan.” [5;14] Bunday kechalar nafaqat o‘zbek xalqi, balki dunyoning boshqa xalqlarida ham uchraydi.

Topishmoq tarkibi va tuzilishi oddiy bo‘lib, shaxs, narsa yoki hodisalar obrazli tasvirlanadi. Topishmoq aytuvchi, avval obyektni tanlab oladi, uning belgilarini sanab, jumboqli tarzda topishmoq tuzadi. Topishmoqda berilgan belgilarga qarab, nima haqida gap ketayotganini topish lozim. “Haqiqiy topishmoq javob beruvchini, uning ustida ishlashga, fikrlashga chorlaydi. Va zamonaviy odamlar ushbu hurmatga sazovor janr haqida qanday fikrda bo‘lishidan qat’i nazar, topishmoqlar juda jiddiy ishdir, ayniqsa afsonaviy fantaziya olamida”.[6]

Tabiat hodisalari, osmon, yer va suv haqidagi topishmoqlar, inson o‘zi ko‘ra oladigan, eshita oladigan va seza oladigan hodisalar bo‘lganligi sabab, qadimdan har qanday xalqning samimiy qiziqishini egallagan.

*“Oyog‘i yo‘q, qochadi, Qanoti yo‘q, uchadi”.*

Topishmoqda bulutga aniq va to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’rif berilgan, hajm jihatdan qisqa va ixcham, hech qanday metafora qo‘llanmagan. Bulutning osmonda erkin suzib yurishini “oyog‘i yo‘q, qochadi” deb, osmonda bo‘lishiga qaramay, uning qulab tushmaslik qobiliyatini esa “qanoti yo‘q, uchadi” deb ta’riflangan.

O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarni grammatik tushunchalar bilan ham tanishtirish jarayonida ularda to‘g‘ri yozuv malakasi shakllanadi, tafakkur qilgan narsasini, o‘y, fikr, hayollarini yozma nutqda bemalol bayon eta boshlaydi. Imlo qoidalari bu jarayonning tartibli bo‘lishini belgilaydi. Adabiy janrlarning ham o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishda ahamiyati katta. Bu janrlarni o‘qish asnosida o‘quvchilar o‘zlari uchun yozma nutqda qo‘llaydigan tayyor qoliplarga, gap tuzilmalariga ega bo‘ladilar. Maqol va topishmoqlar bolalarda tasavvurni kengaytiradi. O‘zlarining ham ijod qilishiga, turli xil topishmoqlar o‘ylab topishiga va nutqida qo‘llashiga turtki bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.01.2022-yildagi PF-60-son

2.Linda Degh. Legend and belief. – Bloomington: Indiana Univ. Press, 2001.

3.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. O.Madayev; mas’ul muharrir H.Boltaboyev; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. - T’.: MUMTOZ SO‘Z, 2010. - 228 b.

4.“O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi”, 2-jild. A.Madvaliyev. O‘zR FA Til va adabiyot instituti.  T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 680 b.

5.“Riddles in the Light” an Interrogation of Riddles by Stephen D. Winick

6.M.A.Sultonova, M.USharapova. “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z tarkibi va yasalishini o‘qitishning ahamiyatI”// Scientific progress//. 2021

## SOG‘LOM TURMUSH TARZI YOSHLAR SALOMATLIGINING KAFOLATI

**Atakulov Mavlonbek Saitkulovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash va sog‘lom turmush tarzi g‘oyasi qanchalik jamiyat uchun ahamiyatli ekanligi hamda milliy qadriyatimizda sog‘lom turmush tarzining o‘rni va o‘tmish moziydan shu kungacha sayqallanib kelgan milliy urf-odatlarimizning sog‘lom turmush uslubi bilan bog‘liq jihatlari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar, turmush, oila, jismoniy tarbiya, genofond, ta’lim, tarbiya, tarix, fan, avlod, sog‘lik

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga amal qilgan holda hayot kechirishlari hamda jismonan yetuk, ma’nan boy shuningdek, jamiyatning faol vakillari bo‘lishlari asosiy ustuvor vazifalardan biri bo‘ldi. Shu bois sog‘lom turmush tarziga amal qilish har bir unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodning hayot mezoniga aylanishi lozim. Jahon miqiyosida ham kuzatsak, hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ham muhim vazifa sifatida yoshlarni sog‘lom turmush tarziga amal qilgan holda yashashlari va turli zararli odatlarni tark qilishi muntazam targ‘ib qilinadi. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” deb ta’kidlaydi. [33]

Sog‘lom turmush tarzi tushunchasi bu faqat turli virusli kasalliklardan holi bo‘lish emas, balki ruhan, manan va jismonan sog‘lomlik va hotirjamlikdir. Sog‘lom turmush tarzi fundamentini yoshlikdan qo‘yish zarur. Agar o‘tmish yoshlikda zararli odatlar (chekish, spirtli ichimliklar ichish, turli xavfli moddalar qabul qilish) bilan band bo‘lish va uning tasirida yurish kelajakda o‘zining salbiy jihatlarini namoyon qilishi mumkin. Sog‘lom yoshlar bu jamiyatning tayanchi va ertangi kunidir.

Ijtimoiy fanlarda sog‘lom turmush tushunchasiga murakkab va serqirralikni bayon qiluvchi kategoriya sifatida qaraladi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni sog‘lom turmush tarziga muntazam rioya qilishlari va harakatsizlik, stress, noto‘g‘ri ovqatlanish, yosh organizm uchun xatarli bo‘lgan zararli odatlardan tiyilish hozirgi davr talabadir. Shu ma’noda sog‘lom turmush tarzining yoshlar orasida qaror topishi – mamlakatning ideologik xavfsizligi, genofondni saqlab qolish va ma’naviy qadriyatlarni barqarorlashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining belgilangan bandlarida jismoniy tarbiya va sport orqali yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilganligi va sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish, zararli odatlarga qarshi kurashish hamda yoshlar o‘rtasida sog‘lom hayot tarzini shakllantirish bo‘yicha chora tadbirlarni belgilanganligi shuningdek, ta’lim tizimi orqali sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlar salomatligini mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish ko‘zga tutilganligi mamlakatimizda yoshlar masalasi va ularni sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashashlari asosiy o‘rinda ekanligidan dalolat beradi.

Yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa ko‘plab sohalarda olib borilayotgan jadal ijobiy islohotlar jarayonida inson qadri ayniqsa yoshlar salomatligi va ularni jismonan sog‘lom, ruhan kuchli bo‘lishlari hamda ma’naviy kamoloti davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2022–2026-

[33] O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida aytilgan.

yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu boradagi qat’iy siyosiy irodaning, huquqiy asoslarning yaqqol ifodasidir. Sog‘lom turmush tarziga amal qilib unga munosib bo‘lib yashash o‘zbek xalqining qadimiy tarixi bilan bevosita bog‘liqdir. Sharq mutafakkirlaridan biri bo‘lgan Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida sog‘lom turmush tarziga rioya qilib yashashni targ‘ib qilgan. Ibn Sino mazkur asarida sog‘lom turmush tarzining mohiyatini jismoniy faollik, uyqu rejimi, ruhiy holatni muvozanatda ushlash sog‘likning asosi deb hisoblagan. Amir Temur hukmronlik qilgan davrda esa sog‘lom va kuchli avlodni tarbiyalash davlat siyosatining muhim jihatlaridan biri hisoblangan.

Xulosa qilib aytganda, o‘tmish moziyga nazar solamizmi yoki bugungi kunga qarasak ham sog‘lom turmush tarzi va yoshlar salomatligi har davrda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan. Sog‘lom turmush tarzi nafaqat jismoniy faollik va to‘g‘ri ovqatlanish, balki ruhiy barqarorlik, gigiyena qoidalariga amal qilish va zararli odatlardan tiyilish kabi omillarni ham o‘z ichiga oladigan kompleks tushunchadir. Ayniqsa, yoshlar orasida sog‘lom hayot tarziga rioya qilish jamiyat salomatligi va taraqqiyotining muhim kafolatidir. Zero, bugungi kun yoshlari — ertangi kun yetakchilari, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy yutuqlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI


1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // https://president.uz/oz/lists/view/1063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. https:// https://lex.uz/docs/5841063
3. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://lex.uz/docs/-6445145


# UMUMTA’LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR


**Toshtemirova Rayxona**
Oriyental universiteti magistranti



**Annotatsiya**: Mazkur maqolada umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi. Pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, rahbarlik uslublari, jamoa bilan ishlash madaniyati hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari doirasida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada boshqaruvda motivatsiya, kommunikatsiya, qaror qabul qilish mexanizmlari hamda o‘quvchilar

ta’lim sifati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka ham e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv faoliyati, ta’lim muassasasi, rahbarlik omillari, motivatsiya, pedagogik jarayon, kommunikatsiya, qaror qabul qilish, ta’lim sifati.

Umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga ta’sir qiluvchi bir qancha ichki va tashqi mavjud bo‘lib, mazkur omillarni tahlil qilish – bu rahbarlik samaradorligini oshirish, maktab ichki muhitini yaxshilash hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz. Ta’lim muassasalarini rivojlantirish hamda boshqaruv jarayonini takomillashtirishda muassasaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, rahbarlik uslublari, funksiya va metodlari, rahbar o‘zining boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar strategik boshqaruvning taktika va strategiyalaridan topgan tizim sifatida qaraladi[34].

Ichki omillardan rahbarning shaxsiy fazilatlari muhim ahamiyat kasb etadi. **Asosan unda liderlik qobiliyatining mavjudligi** – jamoani birlashtira olishi, qaror qabul qilishdagi oqilona yondashuvda namoyon bo‘ladi. Liderlik qobiliyatiga ega rahbar maktab jamoasini yagona maqsad sari birlashtira olish, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil yetish va boshqaruvda mustaqil qarorlar qabul qila olish qobiliyatidir. Liderlik qobiliyatiga ega maktab rahbari jamoada o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat va hamkorlik muhitini shakllantiridi, har bir jamoa a’zosining fikrini tinglaydi va qadrlaydi.

Yaxshi maktab yetakchisi o‘zining kreativ tashabbuskorligi, mas’uliyati va ijobiy namunasi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishi, innovasion yondashuvlarni joriy yetishi hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli qarorlar qabul qilishi bilan ajralib turadi. U muammoli vaziyatlarda vazminlik bilan harakat qilib, samarali yechimlar topa oladi, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quvchilar manfaatini doimo ustuvor deb biladi.

Maktab rahbaridagi liderlik – bu faqat boshqaruv yemas, balki ilhomlantirish, yo‘l ko‘rsatish va ta’limiy muhitni doimiy rivojlantirib borishga xizmat qiladi.

Maktab rahbaridagi rasional t**ashkiliy salohiyati** – jamoada ishlarni rejalashtirish, nazorat qilish, sifatli ta’lim jarayonini tashkil etishda muhim jihat hisoblanadi. Mazkur qobiliyat ta’lim jarayonini samarali rejalashtirish, resurslarni oqilona taqsimlash, pedagogik faoliyatni nazorat qilish hamda vazifalarni tegishli xodimlarga to‘g‘ri taqsimlashda namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonini boshqarishda yuqori tashkiliy salohiyatga yega rahbar o‘quv yilining barcha bosqichlarini oldindan tahlil qiladi, aniq maqsadlar belgilaydi va bu maqsadlarga yerishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Bunday rahbar o‘quv rejalari, dars jadvallari, nazorat tadbirlari va baholash tizimlarini muvofiqlashtirib boradi, pedagoglarning yuklamalarini me’yorda taqsimlaydi hamda ularga zarur uslubiy yordamni ko‘rsatishni ta’minlaydi. Shu

[34] Safarova.N.R. Umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(8), Sep., 2024

bilan birga, ta’limiy faoliyatda uzviylik va izchillikni saqlagan holda, nazorat mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yadi.

Rasional tashkiliy salohiyat, shuningdek, dars berish sifatini monitoring qilish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash va ularga sharoit yaratish, innovasion yondashuvlarni joriy yetish orqali ta’lim sifatini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Rahbar vakolatlarini jamoa a’zolari o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlab, ular orasida mas’uliyat va faollikni oshiradi, bu yesa umumiy natijalarning samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Kommunikativ ko‘nikmalar** rahbar xarizmasining muhim jihati hisoblanib, asosan o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqotda namoyon bo‘ladi. Bu o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar bilan ochiq, aniq va samarali muloqot o‘rnatish, axborotni to‘g‘ri yetkazish va qayta aloqa orqali hamkorlikni mustahkamlash qobiliyatidir. Ta’lim jarayonini boshqarishda bu ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb yetib, sog‘lom psixologik muhit yaratish, jamoaviy ishlarni uyg‘unlashtirish va nizoli vaziyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yaxshi kommunikator bo‘lgan rahbar pedagoglar bilan ochiq fikr almashadi, ularning taklif va tashabbuslarini qadrlaydi, o‘quvchilarning yehtiyojlarini yeshitadi va ularni rag‘batlantiradi, ota-onalar bilan yesa ishonchli hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. U turli auditoriyalarga mos ravishda fikr bildira oladi, og‘zaki va yozma muloqotda aniq, tushunarli, yehtiyotkor va hurmatga asoslangan yondashuvni qo‘llaydi.

Bunday ko‘nikmalar maktab boshqaruvida ishonchli va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, barcha manfaatdor tomonlar bilan barqaror aloqalar o‘rnatish, shuningdek, muammolarga ijobiy va konstruktiv yondashish imkonini beradi. O‘qituvchilarning malakasi, tajribasi va motivasiyasi rahbarning ishini yengillashtiradi yoki aksincha, murakkablashtiradi.

Malakali o‘qituvchilar, t**ajribali pedagoglar, motivasiyalangan jamoa** umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga ijobiy ta’sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

Umumta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: jamoa pedagoglarida malaka yetishmovchiligi, tajribaning yo‘qligi hamda **motivasiyaning pastligi.**

O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi va innovasiyalarni qabul qilishga tayyorligi – bu jarayon o‘qituvchining kasbiy malakasini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishi orqali ta’lim sifatini yaxshilashini anglatadi.

O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi va innovasiyalarni qabul qilishga tayyorligi – zamonaviy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun zarur. Bunday o‘qituvchilar nafaqat o‘z fanida yetuk bo‘ladi, balki o‘quvchilarning yerkin fikrlashi, mustaqil o‘rganishi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi[35].

Ijobiy mehnat muhiti mavjudligi (muvofiqlik, ishonch, adolat). Bu ishchi va ish joyi o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadi. Xodimning qobiliyatlari, qadriyatlari va

[35] S.Turg‘unov “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari”. Monografiya. - Toshkent: “Fan”, 2006.

maqsadlari tashkilot madaniyati va vazifalari bilan mos bo‘lsa, u o‘zini qulay va faol his qiladi. Muvofiqlik – pedagoglarning fikr va g‘oyalarini inobatga olish, rivoklanish imkoniyatlarini ta’minlash, ish va hayot o‘rtasida balansni saqlashga yordam berish. Ishonch - Xodimlar va rahbariyat o‘rtasida o‘zaro ishonch mavjud bo‘lsa, mehnat muhiti yanada sog‘lom bo‘ladi. Ishonch shaffoflik, ochiq muloqot va doimiy qo‘llab-quvvatlash orqali shakllanadi. Uni rivojlantirish uchub Rahbarlar hodimlarga samimiy va ochiq yondashishi, vaqtida fikr bildirishi va tanqidni konstruktiv shaklda yetkazish, pedagoglarni tinglash (ijtimoiy yoki shaxsiy muammolarini) va echim topish. Adolat – har bir xodim teng huquqli bo‘lishi, mehnati munosib baholanishi va mukofotlanishi zarur. Adolat mavjud bo‘lmagan joyda xodimlar norozilik his qiladi. Adolatni ta’minlash uchun – ish haqi, lavozim oshirish va bonuslar adolatli mezon asosida bo‘lishi, har kimga imkoniyatlar taqdim yetilishi, tarafkashlikka yo‘l qo‘ymaslik.

Jamoaviy ishlash madaniyati va aniq belgilangan vazifalar. Bu har bir a’zoning o‘z o‘rnini bilishi, mas’uliyatni his qilishi va umumiy maqsad sari intilishi demakdir. Maktabda jamoaviy madaniyat shakllanishi orqali quyidagi natijalarga yerishish mumkin, o‘quvchilar o‘rtasida hurmat va do‘stlik ishlarini mustahkamlaydi, o‘qituvchilar va rahbarlar uyg‘unlik kuchayadi, sinfdagi muhit sog‘lom va ijobiy bo‘ladi. Har bir shaxsning vazifasi aniq belgilab berilsa, mas’uliyat hissi kuchayadi va befarqlik kamayadi, balki farzandlarimizning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Jamoaviy ishlash va aniq vazifalarga yega bo‘lish — bu kelajakni bunyod yetish yo‘lida muhim qadamdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak umumta’lim muassasa rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar mavjuddir. Mazkur omillar ta’sir ko‘rsatishiga qarab ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Umumta’lim maktablari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tezda bartaraf etish zarrudir.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Safarova.N.R. Umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(8), Sep., 2024 32-35 betlar.
2. S.Turg‘unov “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari”. Monografiya. - Toshkent: “Fan”, 2006.
3. Bektemirov, N. (2024). OLIY TA’LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *Наука и инновации в системе образования*, *3*(7), 21–26.
4. D.S.Nishonova. Ta’lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini takomillashtirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 654-660 b.

## II. SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ILMIY VA MA’NAVIY MA’RIFIY MEROSINI TATBIQ QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA MODELLAR

# MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI SIYOSIY QARASHLARINING AYRIM JIHATLARI

**Abdug‘ani Xolbekov**
**O‘zbekiston Milliy universiteti Sosiologiya kafedrasi professori, sotsiologiya fanlari doktori**

**Annotasiya:** Jamiyatning demokratlashuvi uzoq muddatli jarayon sifatida qaralishi mumkin. Shu ma’noda demokratiyani jamiyatning ustuvor yo‘nalishi sifatida o‘rnatish demokratik an’analarni doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi. Maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fozil jamiyat barpo etish haqidagi qarashlari bugungi kunda mustaqil mamlakatlarda yuz berayotgan demokratik transformasion jarayonlar kontekstida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** demokratiya, siyosiy taraqqiyot, islohotlar, hukumat, siyosiy partiyalar, adolat, siyosat, jamiyat.

Sobiq tuzum davrida Karl Marksning “Osiyocha ishlab chiqarish” deb nomlangan konsepsiyasi mavjud edi. Uning doirasida sharqda, xususan, Markaziy Osiyo jamiyatlarida siyosiy hokimiyat despotizmga tayanadi, degan qarash hukmron edi. Ammo, Marks o‘z qarashlarida yolg‘iz emas edi. Xususan, Gegelning evroposentrizmi, Monteskening Evropa geosiyosiy ustuvorligi g‘oyasi, Maks Veberning kapitalizm tarixan faqatgina Evropada paydo bo‘lganligi haqidagi nazariy qarashlari ham anchayin keng tarqalgan edi. Bularning barchasining poydevori Osiyoda demokratiya rivojiga nisbatan ishonchsizlik ruhidan iborat bo‘lib, sharqda to‘plangan tarixiy boy boshqaruv tajribasini inkor etishga olib kelardi. Vaholanki, yuqoridagi postulatlar uchun hech qanday dalil yo‘q.

Tabiiyki, Markaziy Osiyo jamiyatlarida demokratik an’analarni shakllantirish jarayoni uzoq davom etgan. Bunda tabiiyki, demokratik g‘oyalarning sharqona tajribasi va o‘ziga xosligi ham malum bir o‘rin tutadi. Quyida ushbu tajribaning ayrim jihatlarigagina to‘xtalib o‘tamiz.

Sharq demokratiyasining asosiy jihatlaridan biri shundaki, u meyor tushunchasiga katta e’tibor beradi. Xususan, Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy ta’limotiga ko‘ra, koinotdagi barcha jarayonlarning asosini to‘rt unsurlar, yani er, suv, havo va olovning o‘zaro muvozanati tashkil etadi. Jamiyatda esa bu me’yoriy tenglik, ya’ni odamlarning siyosiy madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy tartibga tayanadi. Shu ma’noda meyor - bu muvozanat, yani huquq va majburiyatlar, erkinlik va tenglik o‘rtasidagi mutanosiblikdir.

Ikkinchidan, Osiyoda odamlarning hokimiyat va siyosiy munosabatlarga munosabati o‘zgachadir. Sharqdagi siyosiy munosabatlarning nozik tabiati tufayli davlatchilik, siyosiy harakatlar, jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalarining barchasi o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Avvalo bu hokimiyatga

an’anaviy e’tiqod bilan yondashishda, aniqrog‘i uning paternalizmida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, sharqda siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga ularni amalga oshirish ko‘pincha xalqning bevosita ishtirokisiz taminlanadi. Lekin bu boshqaruvda xalq manfaatlari hisobga olinmaydi degani emas.

To‘rtinchidan, Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan davlatlar va jamiyatlarda siyosiy jarayon ishtirokchilari, ayniqsa siyosiy rahbarlar doimo alohida maqomga ega bo‘lgan. Gap shundaki, siyosiy rahbar nafaqat alohida imtiyozlarga, balki alohida mas'uliyatga ham ega bo‘lgan. Boshqacha qilib aytganda, osiyolik hokimiyat vakili nafaqat o‘z huquqlari, balki mas'uliyati tufayli ham katta yukni o‘z zimmasiga olgan. Aytish mumkinki, siyosiy hokimiyat uning qo‘lida ikki qirrali qilichga aylanadi. Tabiiyki, u qilichni tutgan shaxsning sifatlari, salohiyati va iqtidoriga mos tarzda ijobiy o‘zgarishlar vositasiga yoki halokat quroliga aylangan.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy madaniyatida adolat har qanday siyosiy arbob faoliyatini baholashning asosiy mezoni bo‘lgan. Farobiy va Alisher Navoiydan tortib to Ahmad Donish va Abaygacha bo‘lgan sharq mutafakkirlarining ijtimoiy orzusi adolatli va dono shoh bo‘lib kelgan. Sharq mutafakkirlari davlatni ijtimoiy adolat normalarini amalga oshirish vositasi sifatida talqin qilganlar. Mohiyatan bunday qarashlarda adolat qonunchilikni, boshqaruv va rahbarlik tizimlarini, farovonlik va to‘kinchilikni yagona tarzda o‘zida birlashtiradi. Xususan, Amir Temurning "Kuch - adolatda" g‘oyasi bunday ijtimoiy orzularning shziga xos universal siyosiy ifodasi edi.

Bayon etilganlardan malum bo‘ladiki, Markaziy Osiyo xalqlarining umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan ochiqligi chuqur tarixiy ildizlarga ega. Bu fikrni hozirgi zamon sivilizasiyasi prinsiplariga nisbatan ham takidlash mumkin. Xususan, buni XX asr boshlarida jadidchilik harakati etakchilari faoliyatida ko‘ramiz.

Jadidlar o‘z vatanlarini erkin va mustaqil ko‘rishga intilgan siyosiy harakat edi. Ularning fikriga ko‘ra, odamlar demokratiya tomon ketayotganlariga doimo amin bo‘lishlari kerak. Ular o‘zlarining xohish-irodasi, huquqlari va majburiyatlariga qarab jamoat hayotida ishtirok etishni xohlashadi. Bugungi kunda “Markaziy Osiyo beshtaligi” deb nomlanadigan mamlakatlar - O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston demokratik jamiyat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bunda demokratik rejimlarni amalda qo‘llagan jamiyatlar tajribasi, yani demokratiyaning umumiy asoslarini tan olish bilan birga, uning milliy modellarini ham hisobga olishlari muhimdir. Zaki Validiy takidlaganidek, "demokratiya uchun yagona resept yo‘q. Uning maqsadi millatlar va jamiyatlarga o‘z xohish-irodasini bajarishga imkon berishdir. Turli mamlakatlarda demokratiya har xil bo‘lishi mumkin. Ammo uning asosiy shartlaridan biri shuki, u millat va jamiyat mas'uliyatini baham ko‘rishi va shunga muvofiq ularga bo‘ysunishi kerak. Angliya, Amerika, Shvesiya va Norvegiyada ish shunday amalga oshiriladi. Rossiyada bunday narsa yo‘q. 1919 yilda yaxshi demokratik partiyalar paydo bo‘ldi, ammo bolsheviklar partiyasi hokimiyatga keldi, barcha partiyalarni yo‘q qildi va misli ko‘rilmagan mustamlakachilik tizimini o‘rnatdi. Qozoqlar, boshqirdlar va o‘zbeklar milliy iqtisodiyot, irrigasiya va tog‘-kon sanoatining

rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, sosializm esa odamlarning intilishlari va shaxsiy tashabbuslarini yo‘q qilishda muhim rol o‘ynaydi" [1].

Yuqorida takidlangan “umuminsoniy prinsiplar g‘ milliy tajriba” kontiniumidan kelib chiqadigan muhim bir tamoyil g‘ bu demokratiya va ijtimoiy adolat birligidir. Aynan mazkur tamoyil bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari demokratik tartiboti uchun hayotiy muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, fuqarolarning turmush darajasi, milliy va mintaqaviy mansubligi, kasbi va siyosiy yo‘nalishidan qat'i nazar, tengligi nafaqat demokratiya, balki ijtimoiy adolat uchun ham talabdir [2].

Shu bilan birga, demokratiya ijtimoiy adolat kafolati emas, balki imkoniyati, xolos. Odamlarni ijtimoiy himoya qilish (konstitusiyaviy, huquqiy, hududiy va b.), ularning moddiy ta’minoti, o‘z qobiliyatlarini amalga oshirishi - bularning barchasi demokratiyaga asoslangan. Xuddi shunday, ijtimoiy adolat nafaqat moddiy manfaatlarni, balki ijtimoiy-siyosiy imtiyozlarni (huquqlar, imkoniyatlar, turmush darajasi, madaniy qadriyatlar va b.) taqsimlashni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu konstitusiyaviy ravishda ishga joylashish huquqi, kasbiy o‘sish uchun teng imkoniyatlar va ta’lim olish imkoniyatlarini ham nazarda tutadi [3].

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiy xalqlarining siyosiy merosi adolat va insonparvarlik g‘oyalari bilan singib ketgan. Shunga asoslanib, ushbu merosni har tomonlama o‘rganish va ijtimoiy hayotda joriy etish zamonaviy sharoitda alohida ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Validi Ahmad Zaki. Turkiston, turklar va milliy mustaqillik / Sh.Turdievaning turk tilidan tarjimasi // "O‘zbekiston adabiyoti va san’ati" gazetasi, 1994 yil 7 yanvar.
2. Demokratiya nima? / Aqsh axborot-resurs markazi. Vena, 1993. - B.1-3.
3. Akselis T. Sosiologiya. -Kiev, 1902. - S. 5, 8.


## TASAVVUF FALSAFASINING O‘QITILISHI ZARURLIGI UNING QONUN VA KATEGORIYALARI


**Karimov Sohibnazar Karimovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professor, falsafa fanlari doktori



**Annatasiya.**Mazkur maqolada musulmon Sharq falsafasining ajralmas qismi bo‘lgan tasavvuf falsafasini o‘quv jarayonga kiritish va uni samarali o‘qitish uslub va uslubiyatlari, umumqonun va kategoriyalari asosida yoritilgan. Muallif tasavvuf falsafasini komil insonni tarbiyalashdagi ayniqsa yoshlarning ruhiy kamolotini ustirishda asosiy ta’lim yo‘nalishi ekanligini isbotlashshga harakat qilingan.



**Kalit so‘zlar:** tasavvuf falsafasi, ruhiy kamolot, qonun, kategoriya, ruh, din va tasavvuf, tariqatchilik, tasavvufiy fan, nafs, komil inson.


Islom olamida yuzaga kelgan fikriy harakatlar kalom, tasavvuf va falsafa ko‘rinishida asosan uch yo‘nalishda shakllandi. Ulardan kalom va tasavvuf Qur’on o‘rtaga qo‘ygan imon asoslari va ahloq tamoyillarini maqsad qilib olgan bo‘lsa,

falsafa antik va elinistik davrlardagi fikriy merosni o‘rganishdan tashqari, tadqiq etilgan ontologik, epistemologik, etik va teologik muammolarni o‘ziga xos uslublar bilan izohlangani bois, o‘zgacha natijalarga erishdi. Shu sababli, VIII-XIII asrlar o‘rtasida musulmon jamiyatida 500 yil juda faol falsafiy harakat vujudga keldi. Bu esa, o‘z navbatida, ko‘pgina falsafiy maktablarning yuzaga kelishini ta’minladi.

Tasavvuf falsafasi shu vaqtgacha mustaqil fan sifatda o‘rganilmagan bo‘lsada, lekin uning jamiyat bilan aloqadorligi, ta’siri va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviyligi uni fan sifatiga o‘rganishni talab qiladi.

Bugungi zamon fanida tasavvuf falsafasi degan tushuncha ham bor deb, yozadi tasavvufshunos olim Musurmon Namoz. Biz bu tushunchani butunlay inkor etmagan hola, jumlani biroz kengroq tushunish tarafdorimiz. Chunki tasavvuf umumiy nom bo‘lib, ruhiy tarbiyani anglatishi ma’lum bo‘lsada, har bir tariqatda ruhiy tarbiyaning yo‘li va yo‘nalishi, uslub va usullari, hattoki mohiyat negizi turlicha bo‘lganini ko‘rinadi. Tarixda hatto shariatni ayrim qoidalarini tan olmaydigan yoki asliga xilof sur’atda talqin qiladigan tariqat yo‘nalishlari ham ko‘p bo‘lgan.

Shuningdek, G‘arb dunyosida botiniy ilmlar bilan shug‘ullangan tasavvuf ustozlarining zohiriy amallariga qarab, bu ilmni rasmiy islom falsafasining tor qobig‘idan chetga chiqishga urunish, deb bahalovchilar, hatto islomni inkor etuvchi falsafiy oqim sifatida tushunadigan ham bor. Sho‘rolar mamlakatida olimlari orasida tasavvufni rasmiy islomga opazisiya deb tushunishga moyillik bor edi. Islom dunyosidagi tasavvufiy tariqatlar tarixini o‘rgangan olimlarning aksariyati uni ilohiyatshunoslikdan yiroqlashib ketgan metafizika, deb qaraydilar. (Musulmon Namoz, Baxouddin Naqshband. 50-bet).

Bizning nazarimizda tasavvuf falsafasiga bunday yondashish bir tomonlamalikdan darak beradi. Chunki har bir ta’limot va uning amal qilishi falsafiy asosga ega bo‘lishi shart. Tasavvuf falsafasi ham ta’limot sifatida ham dunyoqarash sifatida o‘zining falsafsiga ega bo‘lishga haqli. Ta’limotlar tarixini o‘rganish shundan darak beradiki, tarixda xech bir ta’limotning falsafasi o‘zini sof holda namoyon qilgan emas. Ular shu ta’limot ichidagi oqimlar, yo‘nalishlar, siftida u yoki bu yo‘nalishda ma’lum darajada bir biriga muxolif sifatida faoliyat ko‘rsatganlar. Tasavvuf ta’limoti ham o‘zining tarkibidagi tariqatlar dunyoqarashi falsafasidagi farqlar tasavvuf falsafasi kerak emas, degan ma’noni anglatmaydi. Aksincha, tasavvuf falsafasi tariqatlarning ilohiy va dunyoviy mohiyatlarini chuqurroq va teranroq ochishga yordam beradi.

Tasavvufning falsafiylanish davri XIII-XIV asrlarda tasavvufni falsafa bilan yaqinlashtirishga va uni bog‘lashga harakat qilgan bir qator mutafakkirlarning sa’y-harakati tufayli paydo bo‘ldi. Jumladan, Ibn al-Arabiy, Abu Homid G‘azzoliy, Farididdin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yahyo Suhravardiy, Ibn Saboin, Abdurazzoq Koshoniy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Bedil kabilarning dunyoqarashi muhmi rol o‘ynagan. Aslida, tasavvufning falsafiy asoslarining yaratilishi bu ta’limotning asl o‘zagidan kelib chiqadi. Chunki, tasavvufni tushunish va tushuntirish chuqur falsafiy mushohadani talab qiladi. Shu o‘rinda, ta’kidlash joizki, falsafiy tafakkur aqliy (ratsional) va hissiy (irrosional) bilimlarni yonma-yon o‘rganish orqali takomillashadi. Zero, bu mutafakirlarning ijodlarida inson aqli va

ruhi, zamon va inson, suvrat va siyrat, vaqt va zamon, dunyoni bilish kabi qarashlar o‘z aksini topgan. Asosiy mezon sifatida inson va uning ma’rifati, insonning ruhiy kechinmalari uning komillik darajasiga erishish bilan qo‘shib tahlil qilinadi. Bu mutafakkirlarning ma’rifiy qarashlarining asosini irfoniy tasavvuf tashkil qiladi va bu yo‘l sufiyona ma’rifatga erishish yo‘li sifatida tasvirlanadi. Ular aynan ilohiy muhabbatni irofoniy ma’rifat yo‘nalishida talqin qiladilar. Irfon aslida kashf va ilhom bilan hosil bo‘ladigan bilimdir. Ya’ni ma’naviy va ichki tajriba orqali erishiladigan zavqiy ilmdir.Bu ilm orqali ular ma’rifat, insoniy kechinmalar tasviri va tahlini hamda komil inson va uning xislatlari haqidagi qarashlarni har tamonlama ishlab chiqqanlar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tasavvuf hech qachon falsafiy tizimda ta’limot sifatida nufuzli o‘rin egallashga harakat qilmagan. Aksincha, falsafa tasavvufning mohiyatini ochish uchun unga murojaat qiladi. Shu bilan birga uning o‘zi bir tomondan diniy, ikkinchi tomondan falsafiy irfoniy qarashlardan oziqlangan va shu asosda inson ruhiyati, erki, ichki olami va tuyg‘ulari majmuasini ifoda etgan axloqiy nizomlar majmui sifatida Sharq ijtimoiy tafakkur tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan.

Tasavvufning ichki sirlaridan voqif bo‘la borish natijasida inson bu ta’limot musulmon xalqlari axloqiga qanchalik chuqur kirib borganligini his qila boshlaydi. Nafaqat xalq balki xalq ichidan yetishib chiqqan komil mutfakkirlar ham o‘z asarlarining qahramoni qilib so‘fiylar axloqini namuna qilib ibrat sifatida ko‘rsatishga harakat qilganlar. Hatto adolatli podsho, adolatli jamiyat haqida, davlatchilikning oliy ko‘rinishlarini ifodalashda so‘fiyona qarashlarga bog‘lab tushuntirganlar. Jumladan, hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan “Axloqi Muhsiniy,”Axloqi Jaloliy”, “Axloqiy Nosiriy” kabi tarixiy asarlarbunga misol bo‘la oladi. Aynan tasavvuf ta’limotining ma’naviy qirralari natijasida komil inson g‘oyasi shakllandi,desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

So‘fiylar ta’limotida aql dunyoviy bilimlar, dalil bilan isbotlanishi mumkin bo‘lgan bilimlarga yaraydi, g‘ayb ilmini idrok etishga esa aql ojizlik qiladi, deyiladi. G‘ayb ilmi, Xudovand olamidagi behad-behudud ilmlarni so‘fiy alohida hissiy-vujudiy tafakkur bilan, qalbga tushgan karomat nuri bilan anglab, idrok etadi. Shu bois tasavvufda mukoshifa, kashfu karomat, hol-sukra tushunchalariga alohida e’tibor beriladi. Zero, mukoshifa- avvalo mujohada yo‘li bilan ya’ni nafsni vujudiy mashaqqatlar ila qiynash, havoyu-havasga qat’iyan qarshi kurashish, mujohadaga kirishgan solikning shu mujohadadan keyin vajdli ruhga mazhariyati, ya’ni ruhning Allohga mutlaqo taslim bo‘lishi va dunyoni tark qilishi orqali kashf yo‘li bilan bilish, avliyoullohning qalbila g‘aybiy sirlarning ochilishidir.

Xuddi shu joyda tasavvuf falsafasining o‘ziga xos uchinchi xususiyati namayon bo‘ladi. Bu bosqichning o‘ziga xosligi shundaki, bu bosqich tasavvufning aqliy taraqqiyot bosqichi deb atalib bor bilimlarni egallash bilan qanoatlanmasdan, solik o‘zini ruhiy chiniqtirish, qalbni musaffolash orqali kamolot cheksiz imkoniyatlari maydoniga chiqishidir. Bu bosqichda so‘fiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish, tashkillashtirish, yangi – yangi maqom martabalarga erishish bosqichi hamdir. Bunga erishish uchun faqat ta’lim-tahsil yetarli bo‘lmay, buning uchun muayyan ruhiy-ma’naviy yo‘l- ya’ni tariqatni bosib o‘tish,qattiq cheklanish va tiyilishlarni

boshdan kechirish ham zarurdir. Shundagina ruh tana ustidan, nafs ustidan, tabiat ustidan g‘olib bo‘lishi mumkin. Xuddi shu bosqichda inson Haq dunyosiga yaqinlashadi, uning vasliga yaqinlashadi. Zunnun Misriy ta’kidlaganlaridek, aynan shu bosqichda solik tavakkal qiladi ya’ni jami murodni tark qilib, Allohga mashg‘ul bo‘ladi va gumonlardan saqlanadi. Aynan shu bosqichda solik nafs bilan emas Holiq bilan uns (ulfatlik) tutinadi. Aynan shu bosqichda solik ibodat kalitini qo‘lga kiritadi, ibodat kaliti esa fikrdir, qabul bo‘lishining ishoni nafs, havoga muxolifat qilmoq va jami orzularni tark qilmoqdir". (Bu haqda qarang: Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. 157-bet).

Tasavvufga fan sifatida yondashish uning ijtimoiy fanlar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, o‘zining predmet sifatidagi qonun va kategoriyalariga ham egadir. Bizga ma’lumki, qonun insonning jamiyatdagi hatti-harakatlarinibelgilab beruvchi yo‘l-yo‘riq va qoidalar yig‘indisidir. Shu bilan birga qonun har qanday sharoitda zaruratni ifoda etadi. Chunki har qanday qonun barqarorlik va sokinlikning yig‘indisi bo‘lib, bu sokinlik munosabatlar orqali ifodalangan. Tasavvufning ta’limot siftidagi munosabatlar yig‘indisining markazida inson muammosi turadi. Demak, tasavvuf falsafasining fan sifatidagi qonuniyati axloqiy va huquqiy qonunlarga asoslanadi. Shu bilan birgalikda tasavvuf falsafasi umumiy qonunlar bo‘lgan jamiyat va tafakkur rivojlanishining eng umumiy aloqadorliklari va taraqqiyot tendensiyalariga tayanadi.

Tasavvuf falsafasining asosiy xususiyatlaridan biri bashorat qilish bo‘lganligi sababli ularni ko‘pincha nazariy qonunlar deb ham ataydi. Tasavvuf falsafasining bunday qonunlar jumlasiga

1. Tasavvuf falsafsining ijtimoiy fanlar tizimiga moslik va xoslik qonuniyati
2. Tasavvuf falsafsining inson ma’naviy-ruhiy dunyoqarashini shakllantirish qonuniyati
3. Tasavvuf falsafasining inson ruhiy kamolotiga erishtirish qonuniyati.
4. Tasavvuf falsafsining islom falsafasi va qadriyatlari bilan uyg‘unlik qonuniyati.
5. Tasavvuf falsafsining dinamik o‘zgaruvchanlik qonuniyati
6. Tasavvuf falsafasining umuminsoniy ta’limot qonuniyati.

Shu bilan birga tasavvuf falsafasi fan sifatida insonning atrof-muhitda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlar bo‘lgan munosabati va uni bila olish xususiyatlarini aks ettiruvchi kategoriyalarga ham ega. Tasavvuf falsafasining boshqa ijtimoiy fanlar, kategoriyalardan farqi ular o‘zlarining nihoyatda umumiyligi bilan farqlanadi. Tasavvuf falsafasi kategoriyalari insonning ma’naviy-ruhiy kamoloti pag‘onalari va tayanch markazlarini ifodalaydi. Tasavvuf falsafasining kategoriyalari o‘zining asosiy muammosi bo‘lgan inson tafakkurining yetukligiga va tashqi olam bilan munosabat darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqa kategoriyalar kabi tasavvuf falsafsining kategoriyalari ham mazmun jihatdan tashqi olam qonuniyatlariga mos keladi. Tasavvuf falsafsining kategoriyalari o‘z manbai mazmuni jihatdan obyektiv, lekin shakl jihatdan subyektivdir. Chunki tasavvuf falsafasi kategoriyalari tafakkur kategoriyalari sifatida faqat kishilar miyasidagina mavjuddir. Bunday kategoriyalar jumlasiga botin va zohir,tariqat va shariat, komil inson, vahdat ul-vujud, mehr-shafqat, tasavvuf va futuvvat, zikr, tariqat va mehnat,

ilohiy bashorat va ishorat, qalb, ruh, tajalliy, valiylik, oriflik, zohidlik, zikr, zohiriy va botiniy ilm, poklik, nafs, axloqlardir.

Tasavvuf falsafasining qonun kategoriyalari mazmun-mohiyati navbatdagi mavzularda kengroq bayon qilib boriladi. Lekin shuni aytish joizki, barcha jamiyatlarda o‘sha jamiyatning yetuklik darajasi shu jamiyat insonlarining kamoloti bilan o‘lchangan. Tasavvufning qonuniyatlari va kategoriyalarining asosiy g‘oyasi inson va uning ma’naviy-ruhiy kamolotini yuksaltirishdan iboratdir. Buni amalga oshirish jarayoni inson ruhiyatini tahlil etishdan boshlanadi. Zero buyuk mutasauuflar inson ruhini ruh, sir, hafi va axfo deb ataganlar. Ilk mutasavvuflar esa tab, nafs, qalb, sir va ruhga ajratadilar. Ruh va Alloh o‘rtasidagi pardalar ko‘tarilgandan so‘ng soliklar axfo martabasiga yetadilar. Orada hech qanday parda qolmaydi. Solik Haqqa yaqinlikni mushohada etadi. Bu martaba tasavvuf ta’limotida komil inson tushunchasi bilan ifodalanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tasavvuf falsafasini o‘quv jarayoniga kiritish va uni maxsus fan sifatida nafaqat ijtimoiy gumanitar ta’lim yo‘nalishdagi talabalar uchungagina emas, balki barcha yo‘nalishdagi ta’lim yo‘nalishlariga kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chunki tasavvuf falsafasi bir tomondan din va shariat ikkinchi tomondan falsafa va hikmat bilan uzviy bog‘langan. Bundan kelib chiqadigan xulosa tasavvuf falsafasi har ikki holatda ham inson ruhiyatini tarbiyalashga va uni komillik sari yetaklashga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar ro‘yxati


1. Mirziyoyev Sh.M.” Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”. T.-“O‘zbekiston” NMIU, 2019.
2. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. –T.: Movarounnahr, 2004.
3. Jaloliddin Rumiy. “Ma’naviy masnaviy”. Tarjimon. Jamol Kamol. –T.: “MIRIVLIS”, 2010.
4. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadur. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2013.
5. Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. –T.:1970.
6. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy. Vasiyatnoma. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. 1993.
7. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. –T.: Movarounahr, 2004.
8. Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafat –ul qulub. (Qalblar kashfiyoti). “Yangi asr avlodi”. 2004.
9. Xoja Muhammad Porso. Risolai qudsiya. –T.: Movoraunnahr. 2020.
10. Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy. Tasavvuf ta’limotining ildizlari. // Muloqot. 1995. -№ 5-6.
11. Jo‘shon M. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: Istiqlol, 2001.
12. Komilov N. Najmiddin Kubro. –T.: 1995.
13. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. I-kitob. –T.:1996.
14. Muminov I.M. Tanlangan asarlar. I-jild.-T.:1969.
15. Mirzo Bedilning falsafsiy qarashlari. –T.:1958.

# “BOBURNOMA” ASARIDA MIRZO ULUG‘BEK SIYRATIGA TAVSIF

**Azizqulov Akram Abduraxmonovich**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dosent.
E-mail: akramproton@gmail.com
**To‘g‘izov Nurullo Xudoyorovich**
Sh.Rashidov nomidagi SamDU mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asarida Mirzo Ulug‘bek siyratining tasviri o‘rganiladi. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek siyrati orqali Boburning tarixiy shaxsiyatlarni idrok etish uslubi ham ochib beriladi. Mirzo Ulug‘bekka berilgan baholar tahlil qilinib, ularning tarixiy va madaniy asoslari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Boburnoma, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek, siyrat, tarixiy shaxsiyat, ilm-fan, falsafiy tahlil, tarixiy manba, temuriylar davri, shaxsiy fazilatlar, madaniy meros.

Temuriylar hukmronligi Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar bu davrni Markaziy Osiyoda ikkinchi Uyg‘onish davri ham deb e’tirof qiladilar. Amir Temur va temuriy shahzodalar singari ilm-fan, madaniyat va adabiyotni qadrlaydigan, san’atni nozikta’b tushungan sulola tarixda juda kam bo‘lgan. Bu sulola vakillari doimo adabiyot, she’riyat bilan shug‘ullangan, san’at hamda fan-madaniyatga homiylik qilgan, chunki, ijodkorlik va bunyodkorlik sulola asoschisi Sohibqiron Amir Temurga xos bo‘lgan betakror fazilat edi.

Temuriylar mamlakatining poytaxti sifatida Samarqandda tabiiy-ilmiy bilimlar rivojida, xususan, Mirzo Ulug‘bek rahbarligida olamshumul kashfiyotlar amalga oshirilgan bo‘lsa, Hirotda badiiy san’at, ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida katta muvafaqqiyatlar qo‘lga kiritiladi. Bundan tashqari Temuriylar tomonidan yana bir madaniy markaz barpo etiladi. Bu Bobur Mirzoning Hindistonda yangi davlatga asos solishi va uning vorislari tomonidan siyosiy jihatdan tarqoq xalqlarni birlashtirib, qudratli imperiya tashkil etilishidir. Boburiylar hukmronligi davrida bu imperiyada ilm–ma’rifat, adabiyot va sa’nat, hunarmandchilik va me’morchilik sohasida ko‘plab yutuqlar qo‘lga kiritiladi. Bobur Mirzo va uning vorislari tomonidan Hindistonda markazlashgan davlat barpo etishilishi va bu imperiyaning har tomonlama gullab-yashnaganligini tadqiqotchi olimlar va davlat arboblari e’tirof etadi.

Tarixchilar ilm-fan va ma’naviy taraqqiyotda ulkan meros qoldirgan ikki buyuk temuriy hukmdorlar Mirzo Ulug‘bek bilan Mirzo Bobur o‘rtasida quyidagi o‘xshashliklarga diqqatini qaratadilar, ya’ni har ikkala shahzoda ham Samarqandni egallash uchun qo‘shin tortib kelganlarida 12 yoshda bo‘lgan ekanlar. Xususan, 1405 yil 18 fevral kuni sohibqiron Amir Temur vafot etganidan so‘ng valiahd Pirmuhammad Jahongir Afg‘onistonning Qandahor viloyatida ekanligidan foydalangan 12 yoshli Mirzo Ulug‘bek Temurning yirik amirlari Shoh Malik va

Shayx Nuriddin boshchiligidagi qo‘shinlar bilan shoshilinch Samarqandga yurish qiladi. Ammo Poytaxt akobirlari o‘sha vaqtda jasur sarkarda va ma’rifatli shahzoda deb nom chiqargan Xalil Sultonnni kutayotganliklari uchun Mirzo Ulug‘bekka Samarqand darvozasini ochishmaydi[36]. 1495 yilda Boburning Samarqandga dastlabki yurish qilganda 12 yoshda edi va u ham muvafaqqiyatsizlikka uchraydi.

Shoir va davlat arbobi Bobur o‘zining ilmiy merosida «Boburnoma” asarida Samarqand shahrini tasviflar ekan, Mirzo Ulug‘bekni alohida hurmat bilan tilga oladi. Bobur Samarqanddagi me’moriy obidadar xususida to‘xtalar ekan shunday deydi: “Temurbekning va Ulug‘bek Mirzoning imoroti (binolar) va bog‘oti (bog‘lari) Samarqand mahallotida (mahallalarida) ko‘ptur”[37]. “Boburnoma” da Bobur Temur va Ulug‘bek bunyod etgan madrasalar, masjid va jamoat maskanlar, shuningdek mashhur bog‘lar to‘g‘risida o‘z taassurotlarini bayon etar ekan, shunday deydi: “Ulug‘bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal’asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug‘ gunbazdur, olamda oncha ulug‘ gunbaz yo‘q deb nishon berurlar”[38]. Haqiqatdan ham 1424 yilda Ulug‘bek o‘zi qurdirgan madrasasi ro‘parasida, hozirgi Sherdor madrasasi o‘rnida peshtoqli va katta gumbazli xonaqoh barpo qildirgan. Xonaqoning janubiy-g‘arbiy qismida, qadimdan Imom Muhammad ibn Imom Ja’fari Sodiqga nisbat berilgan qabr mavjud bo‘lgan. Tarixiy manbalarda maydonning shimoliy tomonida Mirzo Ulug‘bek farmoni bilan hashamatli Mirzo Karvonsaroyi qurildi. Uning tarhi va tashqi ko‘rinishi hozirgi Tillakori madrasasiga o‘xshash bo‘lgan. Karvonsaroy keng ayvonli va hujrali hovlidan iborat bo‘lganligi qayd etiladi.

“Yana shu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammomig‘a mashhurdur, har nav’ toshlardan farshlar qilibdur. Xuroson va Samarqandta oncha hammom ma’lum emaskim, bo‘lg‘ay”[39]. Darhaqiqat Mirzo Ulug‘bekning farmoniga ko‘ra mazkur hammomni me’morlar sharqona tibbiyot talablaridan kelib chiqib mo‘tadil, iliq va issiq xonalar ketma-ketligida barpo etganlar. Hammomga tushgan kishi o‘zining majozidan kelib chiqib, cho‘milish va muolaja uchun xonalarni tanlagan. Musulmon Sharqining o‘ziga xos bo‘lgan bunday hammomlari poklik,ododalik va shaxsiy gigiyenadan tashqari insonga davo, ya’ni mushak, oyoq va bel og‘rig‘i kabi turli kasalliklardan kishini forig‘ qilar ekan, charchoqlar va og‘rig‘larni qoldirgan. Mazkur hammom o‘zining sharqona me’moriy tuzilishi ayniqsa tibbiyot talablariga xususan, gigiyena qoidalariga muvofiqligi bilan Bobur Mirzoning e’tirofiga sazavor bo‘lgan.

Bundan tashqari Bobur Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan Muqatta masjidi xususida ham ma’lumot berib o‘tar ekan shunday deydi: “Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Muqatta’ derlar. Bu jihatdan Muqatta’ derlarkim, qit’a-qit’a yig‘ochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoiy naqshlar solubturlar,

[36] Ахмедов Б. “Бобурнома”дан парча /Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотираси. - Т. “Ўқитувчи” 1996. - Б.20.
[37] Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Т.:Юлдузча, 1990.-44 бет
[38] Ўша ерда 45 бет.
[39] Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Т.:Юлдузча, 1990. –Б.45.

tamom devorlari va saьifi ushbu yo‘sunluqdir”[40] Masjid devorlari qit’a-qit’a qilinganligi va naqshin yog‘ochlardan yasalganligi uchun Muqatta’ deb atalgan.

Ayniqsa Boburning Ulug‘bek rasadxonasi haqidagi ma’lumotlari diqqatga sazavordir.”Yana bir oliy imorati Pushtai Ko‘hak domanasida rasaddurkim, zij bitmakni olatidur, uch oshyonliqtur. Ulug‘bek Mirzo bu rasad bila Ziji Ko‘ragoniyni bitibdurkim, olamda halo bu zij musta’maldur. O‘zga zij bila kam amal qilurlar. Mundin burun ziji Elxoniy musta’mal edikim, xoja Nasir(uddin) Tusiy Holokuxon zamonida Marog‘ada rasad bog‘labdur”[41]. Avvalo Boburning Samarqandga kelganda uch qavatli rasadxonaning mavjudligi hamda mazkur rasadxonada nazariy xulosalar ekspremental tadqiqotlar bilan asoslab umumbashariy ahamiyat kasb etgan kashfiyotlar amalga oshirilganligini alohida qayd etishi muhimdir. Mirzo Ulug‘bek olib borgan ilmiy tadqiqotlarining samarasi bo‘lmish “Ziji Ko‘ragoniy” o‘ziningn originalligi va mukammalligi va ayniqsa yangiligi bilan umuminsoniyat ma’naviy mulkiga aylandi. Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy” asari Sharqda XV asrdan, G‘arbda XVII asrdan astranomiya sohasida erishilgan yutuqlar va kashfiyotlar uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qilgan

“Boburnoma”da Ulug‘bek rasadxonasigacha bo‘lgan Sharqdagi rasadxonalar va ulardagi tadqiqotlari samarasi haqida fikrlarini bayon etar ekan, shunday deydi: “G‘oliba, olamda yetti-sakkiz rasad pesh bog‘lagandurlar.. ul jumladan biri, Ma’mun xalifa rasad bog‘labdurkim, Ziji Ma’muniyni andin bitibdurlar bir Batlimus ham rasad bog‘labtur. Yana bir Hindistonda roja Bikromojit hindu zamonida O‘jin va Bihordakim, Malva mulkidur holo (hozir) Mandug‘a mashhurdur. (Hindistonda)yana bir rasad qilibdurlar, holo hundularning. musta’mal Hindistonda ul zijdur. Bu rasadni bog‘log‘oni ming besh yuz sakson to‘rt(hozirgacha esa 2 ming-M.M.) yildur. Bu o‘z zijlarg‘a boqa (ko‘ra) nosiqroq (nuqsliroq)dur”. Astronomik rasadxonalar va ulardagi tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatining qiyosiy tahlilini keltirilishi Bobur Mirzoning astronomiya ilmidan ham yaxshi xabardor ekanligini anglatadi.

Bobur Mirzo Ulug‘bekning vafoti xususida to‘xtalar ekan shunday deydi: “Shohruh mirzo jam’i Movarounnahr viloyatini ulug‘ o‘g‘li Ulug‘bek mirzoga berib edi. Ulug‘bek mirzodin o‘g‘li Abdullatif mirzo oldi. Bu besh kunlik o‘tar dunyo uchun andoq donishmand va qari otasini shahid qildi. Ulug‘bek mirzo favtining tarixi tavre voqye bo‘lubtur. Nazm :

Ulug‘bek bahri ulumu hirad,

Ki dunyovu dinro azo‘ bud pusht...

Tarjimasi: Ilm va aql dengizi bo‘lgan Ulug‘bek dunyo va dinning homiysi edi. Mazkur ikki misra bilan Bobur buyuk mutafakkirUlug‘bek siyratini mohiyatini bayon etmoqda. Darhaqiqat Mirzo Ulug‘bek tadqiqotlarining olamshumul ahamiyatini Fransuz ma’rifatparvarlaridan Volter shunday degan edi: “Transoksianada uning (ya’ni Temurning) o‘rniga taxtga chiqqan mashhur Ulug‘bek Samarqandda birinchi akademiyaga asos soldi”[42].

---

[40] Ўша асар. –Б.45.

[41] Ўша асар. –Б.45.

[42] Абдураҳмонов А. Улуғбек академияси–Т.: Ўзбекистон, 1993. - Б.13.

Boburnomada Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan Muqatta masjidi va hammom haqidagi berilgan ma’lumotlar Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida uchramaydi. Shu jihatdan Boburning “Boburnoma” asari Samarqand tarixini o‘rganishda qimmatli manbalardan biridir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak Bobur Mirzo buyuk mutafakkir olim Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosiga va bunyodkorlik faoliyatiga yuqori baho berar ekan, uning shaxsiga nisbatan ixlos va samimiy hurmatda bo‘lgan. Boburning o‘zi ham bashariyat ma’naviy taraqqiyotida Mirzo Ulug‘bek singari ulkan meros qoldirgan mutafakkir hamda buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tarixda muhrlandi.

## MARKAZIY OSIYO TA’LIM VA TARBIYA FALSAFASINING MA’NAVIY-AXLOQIY ASOSLARI

**Ergasheva Maxbuba Xotambekovna**
Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori (v.b), falsafa fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Qadimiy Markaziy Osiyo, shu jumladan, o‘zbek xalqi ta’lim va tarbiya sistemasi evolyutsion rivojlaninsh bosqichining ilk asoslari mintaqada vujudga kelgan mifologik, diniy, falsafiy ta’limotlarga borib taqaladi. Shu jumladan, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari, afsona va dostonlar hamda muqaddas Avesto kitobidagi qimmatli falsafiy ta’limotlar qadimiy ta’lim-tarbiya falsafaning muhim fundamental asosi hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, axloq, ta’lim, tarbiya, Avesto kitobi, din, falsafa, ma’naviyat.

Markaziy Osiyo xalqlari azal-azaldan inson kamoloti, shaxs ma’naviyati, axloqi, diniy, dunyoviy, milliy, umuminsoniy tafakkurining yuksalishi hamda jismoniy barkamolligi masalasiga juda katta e’tibor qaratib kelishgan. Shu boisdan ham, bu o‘lkada shakllangan yuksak qadryatlar, axloqiy va ma’naviy meros, madaniyat va san’at butun jahon falsafasi, madaniyati, ma’naviyatiga sezilarli ta’sir etgan. Bu zaminda vujudga kelgan moddiy va ma’naviy meros namunalari Markaziy Osiyo mintaqasini butun dunyo sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri sifatida e’tirof etilishiga asos bo‘la oladi. “Qadimgi Markaziy Osiyodagi ta’lim va tarbiya falsafasi rivoji haqida mulohaza yuritganda, miflar, asotir va afsonalarga ham e’tibor qaratmog‘imiz lozim.

Qadimda mintaqa hududida istiqomat qilgan saklar, massagetlar, sug‘dlar, baqtriyaliklar, xorazmiylar haqidagi turli afsonalar, dostonlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari ushbu hududdagi ilk falsafiy-pedagogik fikrlar rivoji haqida guvohlik beradi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan hisoblanmish “To‘maris”, “Shiroq” kabi afsonalarda vatanparvarlik, millat sha’ni, or-nomusi, ozodlik, erkinlik kabi ulug‘ sifatlarning madh etilishi ham mazkur xalqlar ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiyasi, madaniyati va ma’naviyatining uzoq o‘tmishga borib taqalganidan darakdir”[43].

[43] Эргашева М.Х. “Авесто”даги фалсафий ғояларга синергетик ёндашув (онтологик ва гносеологик таҳлил)”. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Самарқанд. 2017. -Б. 18-19.

O‘zbek xalqining eng qadimiy ma’naviy merosi namunalari hisoblangan afsonalar, qahramonlik eposlari, qo‘shiqlar, maqol va iboralarda ham ta’lim - tarbiyaga oid qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Qadimiy ta’lim-tarbiya asoslari xususida mulohaza yuritilganda, sak va massaget qabilalari eposlarini alohida qayd etib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, eposlarda bayon etilgan erkaklar va ayollarning tenghuquqliligi, teng mehnat sharoitlarida faoliyat olib borishi, hattoki Vatan himoyasida ham birgalikda kurash olib borishi kabi masalalar diqqatga sazovordir. Misol uchun massagetlar malikasi To‘maris va Eron shohi Kirning o‘zaro janglari, munosabati xususidagi rivoyatda butun bir massaget qabilasining aqlu-zakovati, ziyrakligi, vatanparvarligi, sadoqa-tu, fidoyiligi ochib beriladi. Bizningcha, qadimiy xalqlarda bu kabi sifatlarning qaror topishini o‘sha davr tarbiya va ta’lim tizimiga nisbatan yuksak darajada e’tibor qaratilgani bilan izohlash mumkin. Shu bilan bir qatorda ta’lim-tarbiya taraqqiyoti qadimiy ildizlari haqida fikr yuritilganda, “Siyovush”, “Er xubbi”, “Rustam” “Chistoniyalik bek” kabi qahramonlik dostonlari va afsonalarni ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xalq og‘zaki ijodiyotida bayon etilgan axloqiy barkamollik, halolllik va poklik, haqiqatni doimo ustun qo‘yish, vatanni asrash, adolatni ulug‘lash kabi masalalarni qadimiy ta’lim-tarbiya borasidagi qimmatli ma’lumotlar sifatida e’tirof etish mumkin. Bu borada xalqimizning “Shiroq”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” singari ma’naviy meros namunalarida ilgari surilgan qimmatli axloqiy-falsafiy qarashlar ham diqqatga sazovordir. Ayniqsa, “To‘maris” dostonidagi qimmatli ma’lumotlar qadimiy o‘zbek ayolining jasorati, sadoqati, aq-lu zakovati, sabru-qanoati, tarbiyasi haqidagi muhim g‘oyalar hisoblanadi. Vaholanki, Eron shohi elchisining sovchilik taklifi orqali, xalqiga nisbatan kamsituvchi munosabatiga nisbatan To‘marisning o‘ta ta’sirli javobi ham fikrimiz dalilidir. “Agar elchi bo‘lmaganingizda, shul gapni aytgan og‘zingizni qum bilan to‘ldirar edim. Qayerda ekanligingizni unutmang, janob! Orqa-o‘ngingizga qarab gapiring. Shahanshohi Eronning niyati bizga ma’lum bo‘ldi, - dedi hamon jahldan tushmagan To‘maris. - Boshimizdan zar sochganlaringda ham biz erkinlikni qullikka alishtirmaymiz”[44]. Bu kabi afsona-yu dostonlarimizda bayon etilgan ibratli qarashlar, ajdodlarimizning naqadar ulkan madaniyatga, ma’naviy salohiyatga ega bo‘lganligidan dalolatdir. Zero, ulkan madaniyat va ma’naviyat o‘ziga xos ta’lim va tarbiyaning mahsuli ekanligini qayd etib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir.

Xalq og‘zaki ijodiyotining yana bir namunasi hisoblangan “Alpomish” dostoni ham axloqiy, ma’naviy, tarbiyaviy g‘oyalari bilan muhim ahamiyat kasb etadi. “Dastlab qabila, so‘ngra elat eposi sifatida vujudga kelgan “Alpomish” dostoni keyinchalik o‘zbek xalqining qahramonlik eposi sifatida tan olindi”[45]. Mazkur manbada jasurlik, qahramonlik, shijoat, jasorat kabi axloqiy-estetik jihatlar namoyon bo‘ladi. Alpomishning bolalik davrlaridanoq mardlikka, irodaviylikka, adolatlilikka o‘rgatilishi juda ko‘plab tarixiy-falsafiy, etnografik manbalarimizda qayd etiladi. Vaholanki, Alpomish timsolida ajdodlarimizdagi g‘urur, or masalasi

[44] Mirkarim Osim. To‘maris. Tarixiy qissalar. T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 11.
[45] Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 84-99.

yoritiladiki, har qanday holatda ham yovuzlik, hiyla, nayrang, haqsizlik qoraladi. Aqlli Barchinning Alpomishning yuborgan vakiliga shunchaki rozilik bildirmasdan, uni 3 muhim shartda sinab ko‘rishi, ya’ni haqiqiy jasorat jangida raqiblarini halol jangda yenggan mard yigitgagina turmushga chiqish borasidagi talabi ham fikrimiz dalilidir.

Qirq kunchilik yo‘ldan poyga qo‘yaman,
kimning oti o‘zsa, shunga teyaman.
Tekislarda uch kun kurash qilaman,
kim nazari polvon bo‘lsa teyaman.
Kimning sari yoyi qo‘lda sinmasa,
uch shartimga zo‘r chiqqanga teyaman”[46]

Guvohi bo‘lganimizdek, qadimiy xalqlarimizning nafaqat, yigitlari, balki ayollari ham azal-azaldan aqli raso, donishmand, mulohazali, kelajakni ko‘ra oladigan sifatlarga ega bo‘lishgan. Bu sifatlarning shakllantirilishi esa bevosita yuksak ta’lim-tarbiyaning mahsuli hisoblanadi. Shu boisdan ham “Alpomish dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘s-tu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi”[47]. Bu esa qadimiy xalqlarimizning afsona-yu dostonlari ham ta’lim-tarbiya falsafasining taraqqiyotida muhim metodologik asos ekanligini yana bir bora isbotlaydi. Mazkur manbalarda bayon etilgan g‘oyalarda insonnni nafaqat jismoniy, balki axloqiy, diniy, ma’naviy, ijtimoiy tarbiyalash masalasi ilgari suriladi.

Markaziy Osiyoda shakllangan qadimiy ta’lim-tarbiya elementlari xususida fikr yuritganda zardushtiylik falsafasining ahamiyatini alohida qayd etish lozim. Zardushtiylik ta’limotida ta’lim-tarbiya quyidagi bo‘limlarga bo‘linadi:

1) ma’naviy va diniy tarbiya;
2) jismoniy va mehnat tarbiyasi;
3) aqliy va axloqiy tarbiya”[48].

Avestoda o‘tmish ajdodlarimizning diniy tasavvurlarigina aks etmay, koinot va yer, dunyoning yaralishi, hayot va o‘lim, rivojlanish va tanazzul haqidagi talaygina ilmiy-nazariy qarashlar ham borki, bu g‘oyalarni o‘rganish uni falsafiy, konseptual tahlil etishimizga turtki bo‘ladi. Avesto kitobi g‘oyalariga ko‘ra bilim olish va kasb o‘rganish masalasiga doimo diqqat markazida qaralgan. Avestoda komillikka, yetuklikka erishish uchun bilim olish, hunar o‘rganish lozimligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Yodgorlikdagi quyidagi bitiklar ham o‘sha davrlardayoq bilimning naqadar e’zoz etilganidan dalolatdir:

“...Mazda yaratgan ilm borligi,
Mazda yaratgan bilim o‘rganishni olqishlaymiz.
Darveshlarning anduhlarni aritguvchi

[46] Alpomish. Dostoni. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 65.
[47] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2016. – Б. 176.
[48] Эргашева М.Х. “Авестодаги фалсафий ғояларга синергетик ёндашув (онтологик ва гносеологик таҳлил)”. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Самарқанд, 2017.

Mehribonlik va javonmardligini olqishlaymiz”[49].

“Avesta”dagi Payg‘ambar Zardusht tomonidan yaratilgan oltita modda, ya’ni Ahura Mazdaning olti sifati deb e’tirof etiluvchi tushunchalar ham insoniyatni bilimga, ezgulik, buyuklik, yetuklikka chorlaydi. Bu sifatlar quyidagilardir:

- Vohu mana - yaxshi niyat;
- Asha vahishta - o‘ta adolatlilik;
- Spenta armaiti - diyonatli avliyolik;
- Xshatra vairya - orzu etilgan qudrat, iroda;
- Xaurvatag - yaxlitlik;
- Ameritag - mangulik.

Guvohi bo‘lganimizdek, yaxshi niyat, adolat, diyonat, qudrat, iroda kabi sifatlar zardushtiylikda nazarda tutilgan odamzotni ulug‘vorlik sari yetaklovchi ma’naviy omillardandir.

Faylasuf olim O.Fayzullayev bu kitob haqida fikr yuritib “Avesto Aristotel yozgan “Fizika” va “Metafizika” kitoblaridan 400 yil ilgari yaratilgan. Bu kitoblarda asosiy tamoyil hisoblanuvchi dialektika Avestoda ham markaziy o‘rinni egallagan. Avestoda falsafaning dastlabki bilish nazariyasi ham bor”[50], degan xulosaga keladi.

Avestoning bugungi kun yoshlari uchun o‘z qadrini yo‘qotmasligi, ahamiyati juda beqiyos ekanligining yana bir omili shundaki, unda nafaqat komil, yetuk insonlar, balki, ularni shu yo‘lga boshqara olgan ustozlar, ya’ni ilm va kasb o‘rgatuvchilar ham e’zozlangan. Yashtlarda Zardusht odamlar ruhiyatiga rost so‘z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustozlar peshvosi sifatida madh etiladi. Yaxshi ustozlar sog‘lom, aql-hushli farzandlarni, dono va turli tillarni biladigan o‘g‘il-qizlarni, elni balo-qazolardan himoya eta oladigan o‘g‘lonlarni, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko‘z bilan ko‘ra oladigan avlodni tarbiyalamog‘i lozimligi Avestoda juda ko‘p marotaba bayon etilgan. Ustozlik sharafi juda katta hurmat bilan ulug‘langan.

Avestodagi yetti kichik yashtlardan birida:

“Mazda yaratgan bilimning borligini olqishlaymiz,

Mazda bunyod etgan ilm o‘rgatishni olqishlaymiz”[51], deya ta’kidlanadi. Demak, mazkur ma’naviy merosimizda ustozlik sharafi ham doimo ulug‘langan.

Avestoda tarix, falsafa, axloq, nafosatshunoslik masalalari bilan bir qatorda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, ayniqsa, qasidachilik, dostonchilik an’analari, ham nasriy, ham nazmiy asar xususiyatlari mujassamlashgan. O‘zbek avestoshunos olimi H.Homidiy xulosalariga ko‘ra, “Avesto gohlarida xalq og‘zaki ijodiga xos g‘ulu (o‘ta aql bovar qilmaydigan mubolag‘a), xitob, takror, istiora, saj’, savol-javob, tanosub, taroduf, anafora, tazod, o‘xshatish, sifatlash kabi san’atlardan ko‘p va xo‘p foydalanilgan”[52]. Mazkur manbada qadimiy huquqshunoslikka oid bilimlar, jinoyat turlari, ularga qo‘llaniladigan jazo turlari, turli javobgarliklar ko‘rinishlari ham yoritib beriladi. Bizningcha, Avestoni dunyo xalqlarining eng noyob qomusiy asari,

[49] Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. / Асқар Маҳкам таржимаси. Т.: Шарқ, 2001. - Б. 224.
[50] Файзуллаев О. Фалсафа фанлари методологияси. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. - Б. 124.
[51] Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. / Асқар Маҳкам таржимаси. Т.: Шарқ, 2001. - Б. 224.
[52] Ҳомидий Ҳ. Авестодан Шоҳномага. –Т.: Шарқ, 2007. – В. 50.

mukammal tarixiy-falsafiy manbasi sifatida integratsion, falsafiy, konseptual tadqiq etish kelajakda yangi ilmiy xulosalarni keltirib chiqaradi.

Avesto insonning axloqiy va ma’naviy kamoloti borasidagi qarashlar ilgari surilgan juda nodir asar hisoblanadi. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasi, “Avesto”da ilgari surilgan ta’lim-tarbiya borasidagi eng ulug‘, mustahkam, hech bir davrda o‘z qimmatini yo‘qotmaydigan buyuk g‘oya hisoblanadi. Bu esa Qadimgi ajdodlarimiz inson uchun, barkamol shaxs kamoloti uchun, ezgulikning, jasurlik va adolatning, sadoqat va insoniylikning ahamiyatini naqadar ulug‘laganligidan dalolatdir. Bizningcha bu kabi xislatlar, ulkan qadriyatlar o‘z-o‘zidan shakllanmagan. Mazkur ta’limotlar shakllanishida, albatta, qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy turmush madaniyati, ayniqsa, ta’lim-tarbiya borasidagi jiddiy e’tibori muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa sifatida mulohaza yuritganda:

**Birinchidan,** qadimgi sharq xalqlarida ham, qadimgi g‘arbda ham ta’lim va tarbiya shakllanishi, taraqqiy etishi, avvalo, falsafiy tafakkur rivoji zamirida vujudga kelgan.

**Ikkinchidan,** ta’lim va tarbiya falsafasi evolyutsion taraqqiyot bosqichlarini tadqiq etish, muayyan bir xalq, mintaqa tarixini, shu jumladan falsafiy tafakkur tarixini o‘rganish bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirilishi mumkin. Zero, falsafiy tafakkur taraqqiyoti va tarixi bevosita ta’lim-tarbiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari uchun nazariy-metodologik, falsafiy-konseptual asos hisoblanadi.

**Uchinchidan,** qadimiy Markaziy Osiyo, shu jumladan, o‘zbek xalqi ta’lim va tarbiya sistemasi evolyutsion rivojlaninsh bosqichining ilk asoslari mintaqada vujudga kelgan mifologik, diniy, falsafiy ta’limotlarga borib taqaladi. Shu jumladan, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari, afsona va dostonlar hamda muqaddas Avesto kitobidagi qimmatli falsafiy ta’limotlar qadimiy ta’lim-tarbiya falsafaning muhim fundamental asosi hisoblanadi.

**To‘rtinchidan,** bugungi kunda zamonaviy ta’lim-tarbiyada ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa, hozirga qadar o‘z ahamiyatini, qadrini saqlab qolgan falsafiy ta’limotlar asosida milliy ta’lim-tarbiya modelini shakllantirish zaruriy ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. / Асқар Маҳкам таржимаси. Т.: Шарқ, 2001.
2. Alpomish. Dostoni. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
3. Mirkarim Osim. To‘maris. Tarixiy qissalar. T.: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2016.
6. Файзуллаев О. Фалсафа фанлари методологияси. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006.
7. Ҳомидий Ҳ. Авестодан Шоҳномага. –Т.: Шарқ, 2007.
8. Эргашева М.Х. “Авестодаги фалсафий ғояларга синергетик ёндашув (онтологик ва гносеологик таҳлил)”. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа

доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Самарқанд, 2017.

## HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARIDA IJTIMOIY-AXLOQIY FAOLLIKNING O‘RNI

**Alimov Akbar Narboyevich**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mashhur mutafakkir Husayn Voiz Koshifiyning asarlarida ijtimoiy-axloqiy faollik g‘oyalari qanday ifodalangani tahlil qilinadi. Unda adibning axloqiy qarashlari, insonning jamiyatdagi o‘rni, odob-axloq, halollik, adolat, ezgulik kabi tushunchalarga bergan e’tibori yoritiladi. Shuningdek, Koshifiyning asarlari orqali yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularga ma’naviy qadriyatlarni singdirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Maqolada Koshifiyning fikrlarining zamonaviy jamiyatda dolzarbligi, ma’naviy tarbiyani shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Husayn Voiz Koshifiy, ijtimoiy-axloqiy faollik, ma’naviy tarbiya, odob-axloq, adolat, ezgulik, yosh avlod, qadriyatlar.

Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotida ko‘p asrlik tarixga egadir. Shu o‘rinda XI-XII asrlarda so‘fiylik Movaraunnahrda keng tarqaladi va mustaqil tariqatlar shakllanadi. Tasavvuf ta’limotining nazariy va amaliy jihatlariga bag‘ishlab ko‘plab asarlar bitilgan bo‘lib, ular orasida Markaziy Osiyolik allomalarning risolalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyodagi yassaviya, kubraviya, naqshbandiya tasavvuf yo‘nalishlari asoschilari hamda ko‘plab ulamolar tomonidan tasavvuf ta’limotining mohiyatini bayon etishga bag‘ishlangan nodir risolalar bitilgan. Bu risolalar orasida Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asari muhim ahamiyat kasb etadi.

Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asari tasavvuf ta’limotining amaliy jihatlari va tariqat ahlining rioya etilishi lozim bo‘lgan axloq-odob qoidalari batafsil bayon etilgan nazariy manbadir. “Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq”[1;B.24-25]. Shu o‘rinda yoshlarni jamiyatimizning axloq-odob qoidalari asosida yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalash boy ma’naviy merosimizga bevosita bog‘liqdir.

Naqshbandiylik tariqatining vakili sifatida Husayn Voiz Koshifiy tasavvuf ahlini ijtimoiy faollik masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Ma’lumki, ko‘plab tariqatlarda so‘fiylarni uzlatga berilishi, faol ijtimoiy munosabatlardan chetlashishlari targ‘ib etiladi. Naqshbandiylik ta’limoti esa tariqat vakillarini jamiyat

hayotida ijtimoiy faol bo‘lishga undagani bois hozirgi kunda dunyoda eng keng tarqalgan so‘fiylik oqimi hisoblanadi. Mazkur tariqatning vakili sifatida Husayn Voiz Koshifiy darvesh faoliyatida mehnat va kasb-kor xususida batafsil to‘xtalib o‘tar ekan shunday deydi: “bilgilki, darvesh halol va pokiza kasb bilan shug‘ullanishi kerak, chunki kasb-tariqatning zaruriy shartidir. “Дил ба ёру даст ба кор” (кўнгил Аллоҳда, қўл эса ишда) тамойили Абдулхолиқ Ғиждувоний томонидан ишлаб чиқилган. “Хожа Абдулхолиқ айтадиларки, халқдин оғирликни кўтармак керак ва бу муяссар бўлмас, магар ҳалол касб билан “даст ба кору дил ба ёр” деган сўз хожагон тариқатиға амру муқаррар турур”[3;B.88]. Zero, umr o‘tkazishga zarur vosita (maosh) hosil bo‘lmaguncha kishi xotiri osoyishta bo‘lmaydi. Kishi rohati uchun zarur narsa esa vojibdir. Va agar kishi o‘z kasbi bilan zaruriy narsalarni muhayyo etmasa, odamlarni ranjitadi, azobga qo‘yadi. Demak, kimki jamiyatdan foyda ko‘rsayu, lekin foyda yetkazmasa, u ishlamagan bo‘ladi. Bas, biror kasb bilan shug‘ullanmagan darvesh o‘zini xalq bo‘yniga yuklagan bo‘ladi. Bu esa tariqatda mumkin emas”[3;B.83]. Alloma kishi o‘z kasbi bilan zaruriy narsalarni muhayyo etishi lozimligini ta’kidlamoqda, tariqatda tekinxo‘rlik, birovlar hisobiga kun kechirish mumkin emasligini uqtirib o‘tadi. Uzlat va tarkidunyochilikni rad etar ekan, tariqat vakillarini halol kasb bilan shug‘ullanishga chaqiradi.

Alloma tariqat vakillarini ijtimoiy faollikka chaqirar ekan shunday deydi: “shunday qilib, ma’lum bo‘ladiki, darvesh uchun kasb zaruriydir va shunga binoan darvesh kasb odobini ham bilish hamda unga rioya qilishi lozim. Bilgilkim, hamma kasblarga birday taalluqli qisqacha qoida adablar mavjud, shuningdek har bir kasb uchun alohida odob ham bor” [3;B.83]. Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillarini kasb-hunar bilan shug‘ullanishga chaqirar ekan, ularni o‘zlari egallagan kasbning axloqiy normalariga rioya etishlarini talab etadi. O‘zining “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarida tariqat vakillari shug‘ullanadigan kasb va hunarlar, ularning har birining axloq-odob qoidalari va normalarini ratsianallik tamoyili asosida ta’kidlab o‘tadi. Shuning uchun bugungi kunda ta’lim tizimida kasb etikasiga oid o‘quv qo‘llanmalarda ham Koshifiy tomonidan ratsianallik tamoyili asosida ishlab chiqqan axloq-odob qoidalari o‘z ahamiyatini yo‘qatmagan. Koshifiy mazkur asarida tariqat vakillari egallashi mumkin bo‘lgan barcha kasb-hunarlar xususida to‘xtalib o‘tadi. Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillarini xizmat ko‘rsatish sohasida, xususan, mehmon kutish axloq-odoblarini batafsil yoritib beradi. Bundan tashqari alohida bir faslda tariqat vakillaridan bo‘lgan xodimlar (xizmatkorlar) odobini mantiqiylik nuqtai-nazaridan izohlaydi. Tariqat vakillari bo‘lgan xodimlarni odob-axloq qoidalarini bayon etar ekan shunday deydi: “...xodim to‘rt ishni yaxshi bilishi va doim ado etishi lozim. Buning biri – supurib-sidirish, ikkinchisi – ovqat pishirish, uchinchisi - kir yuvish, to‘rtinchisi - idish-tovoq yuvish. Va bu ishlarning har biri uchun amal qilinadigan ma’lum qoidalar bor” [3;B.85].

O‘rta asrlarda maddohlik kasb-faoliyat turi sifatida Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzida keng tarqalgan. Hatto XIX-XX asrning boshlarigacha yirik shaharlarda ularning alohida mahallalari bo‘lgan. Bundan tashqari, Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillaridan bo‘lgan ma’raka tuzuvchilar hamda tomosha ko‘rsatuvchilarning axloqiy qoidalarini ham tushuntirib beradi. Ma’raka tuzuvchilar

sifatida maddohlikning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: “shuni bilgilki, futuvvat ahli (ahli shadd) orasida maddohlarning martabasi eng balanddir. Buning sababi shuki, ahli bayt, xonadon muhabbati barchaning ko‘nglida mavjud va agar birov boshqa birovni sevsa, sevgilisining ta’rifini tilidan qo‘ymaydi. Maddohlar shunday xususiyatga ega kishilardirlar va uzluksiz ahli bayt ta’rifida so‘z aytadilar va xonadonning yodida so‘z aytish bilan vaqt o‘tkazadilar” [3;B.90].

Husayn Voiz Koshifiy aholiga xizmat ko‘rsatishning shakli sifatida maddohlikning ahamiyatini tushuntirar ekan, ularni quyidagicha tasniflaydi: “agar maddohlar necha xil bo‘ladi, deb so‘rasalar, to‘rt xil deb aytgil: birinchidan – o‘zlari badehatan ijod qiluvchilar, ular o‘zlari she’r aytish qobiliyatiga ega bo‘lib, hikoyatu rivoyatlarni nazmga tushurib, bayon qilaveradilar. Ikkinchi xili – boshqa shoirlarning she’r, hikoya yoki badehalarini ijro etib, xalqqa foyda etkazuvchilardir. Masalan, saqqolar (suv tarqatuvchilar) shunday kishilar bo‘lib, ularning ishidan odamlar xursanddirlar. To‘rtinchi toifa har yerdan har xil baytlarni yod olgan kishilar bo‘lib, ular eshikma-eshik yuradilar, qasida aytib non yig‘adilar va maddohlikni gadoylik, deb tushunadilar. Bularni agarchi qiyofalariga qarab maddoh desalarda, aslida ushbu jamoaga muvofiq emasdirlar” [3;B.91]. Maddohlik kasbining mohiyatini tushuntirishda ham ratsianal yondashmoqda. Maddoh gadolardek tekinxo‘rlik qilib non yig‘moqliklari, balki ma’rakalarda xizmat ko‘rsatishlari, tadbirlarda diniy ilohiy rivoyatlar, baytlar aytib kishilarga ma’naviy ozuqa ulashishlari kerak.

Husayn Voiz Koshifiy maddohlik kasbi mazmuni va mohiyatini bayon etgandan so‘ng xizmat ko‘rsatish sohasi sifatida suv tashuvchi meshkobchilar – soqqalar faoliyati xususida ham to‘xtalib o‘tadi: “bilgilkim, saqqolar ham maddohlarga kiradilar. Biroq saqqolar g‘oyat mo‘tabar kishilardirlar va ularning rutbasi ulug‘dir:

Dengiz qa’riga sho‘ng‘igan dilovar er,

Yo g‘arq bo‘ladi, yo Gavhar olib chiqar.

Va ba’zilar saqqolik kasbining pirini Salmon forsiy debdurlar. Negaki, Salmon forsiy doimo elkasida mesh bilan odamlarni uyiga suv tashigan, shu bois bu rivoyat durustdir. Shayx Sa’diy ham saqqolarni hayot bag‘ishlovchi mardlar deganlar” [3;B.93]. Samimiy va beg‘araz bu kasb egalarini alloma alohida extirom bilan bayon etadi. Saqqolar, suv tashuvchilar faoliyati ahamiyatini yoritar ekan, ularning axloq-odob qoidalari xususida shunday deydi: “agar saqqolarning odobi nechta, deb so‘rasalar, o‘nta deb aytgil. Avval shuki, saqqolik bilan shug‘ullanuvchi odam pok bo‘lishi kerak, zero faqat pokiza kishi bu kasbni qila oladi. Ikkinchidan, ma’naviy jihatdan qalbi pok bo‘lsin. Uchinchidan, suvni ulashayotganda o‘ng qo‘ldan boshlasin. To‘rtinchidan, odamlarga halol va toza suvdan keltirib tarqatsin. Oltinchidan, saqqoligi uchun haq talab qilmasin, chunki bu tamagirlikka kiradi. Balki tavoze bilan beminnat xizmat qilsin... Sakkizinchidan, biron bir yig‘ilishga ijozatsiz kirib bormasin va umuman da’vat qilinmagan o‘tirishlarga bormasin. Ammo borilishi joiz bo‘lgan ommaviy yig‘inlarga borishi kerak. To‘qqizinchidan, o‘z kasbdoshlariga hasad qilmasin va agar saqqolardan birining ishi rivoj topsa, bundan faqat xursand bo‘lsin. O‘ninchidan, o‘z ishini sevsin va barcha ikir-chikirigacha yaxshi bilsin” [3;B.93]. Alloma suv tashuvchi soqqolar kasbini

mohiyatini hamda ularning kasbiy axloqiy fazilatlarini bayon etishda mantiqiy ratsianal yondashar ekan avvalo gigiyena nuqtai-nazardan pokizalikka shuningdek ma’naviy jixatdan pok bo‘lishga chaqiradi.

Temuriylar davrida o‘rta asrlarda, xususan mehmon kutish odobi va xizmat ko‘rsatishning axloqiy qoidalariga alohida e’tibor berilgan. Mamlakatdagi karvonsaroy va choyxonalarda, to‘y va ma’rakalarda, xalq sayillari va bazmlarda hamma mezbon va mehmon, xodimlar va xizmatkorlar, xullas, xizmat ko‘rsatuvchi servis ahli yuqorida bayon etilgan odob-axloq qoidalariga rioya etishlari shart bo‘lgan. O‘rta asrlarda mazkur axloqiy talablar xizmat ko‘rsatish sifatini yuqori darajada bo‘lishini ta’minlagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, avvalo, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Naqshbandiya tariqati nazariyotchilari tomonidan tasavvuf vakillari orasida ijtimoiy faollik, ya’ni jamiyatda muayyan bir kasb egallashlari lozimligi asoslab berilgan.Shuningdek  Husayn Voiz Koshifiy tariqat vakillarini halol mehnat qilib kun kechirishga chaqiradi. Mehnat qilib halol turmush kechirish uchun esa tariqat vakillariga muayyan bir kasb-hunar zarurligini targ‘ib etadi. Har bir tariqat vakillari o‘zi egallagan kasb-hunarning axloq odob qoidalariga mukammal rioya etishlari zarurligini ta’kidlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir //Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.24-25.
2. Bo‘riyev O. Turon tarixining oltin davri. – Toshkent, 2019.– B.88.
3. Koshifiy Husayn Voiz. Futuvatnomai sultoniy; Axloqi muhsiniy. Nashrga tayyorlovchilar M.Aminov, F.Xasanov. – Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. - B.83.
4. Gonsales, Rui De Klavixo Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406) –Toshkent.: O‘zbekiston, 2010. - B.154-185.
5. Xudoyshukurov T. va boshqalar. Kasbiy etika va etiket. Darslik. – Toshkent.:Iqtisod-moliya, 2021 - B.41.
6. Бехруз М.Х. Хусайн Ваиз Кашифи и его произведения эпистолярного жанра: Дисс...канд...ист. наук. – Москва, 1970. – С.23.
7. Маҳмудов Р. Ҳусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий-ахлоқий қарашлари. Монография. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. –Б.154.
8. Алимов А.Н. Хусейн Ваиз Кашифи о совершенствовании человеческой морали // Гуманитарное знание и духовная безопасность: сборник материалов VIII международной научно-исследовательской конференции (г. Грозный, 10-11 декабря 2021 г.) – Махачкала: ЧГПУ, АЛЕФ, 2021. – С.13-17.
9. Alimov A.N., Azizqulov A.A. Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosiga G‘arb tadqiqotchilarining munosabati // Jahon madaniy sivilizatsiyasi kontekstida Xojagon Naqshbandiya tasavvufiy ta’limotlari ilmiy-ma’naviy merosining umumbashariy ahamiyati xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 2019 yil, 27-28 may. – Navoiy, 2019. – B.49-50.

# ALLOMALARIMIZ ILMIY MEROSIDA “SALOMATLIK” VA “KASALLIK”TUSHUNLARINI FALSAFIY TAHLILI.

**Yusupov Murodali Sunnatovich**
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**
**“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada “Salomatlik” va “kasallik” tushunchalarining falsafiy tahlili,ta`rifi va tasnifi qadimgi davr va urta asr allomalari fikrlari bilan qiyoslanib,tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tibbiy ong,t ibbiy madaniyat, salomatlik me’yorlari, sog‘lom turmush tarsi.

“Salomatlik” va “kasallik” tushunchalari jamiyat tibbiy hayotining mazmun-mohiyatini ifodalovchi va tarkibiy tuzilishini o‘zida namoyon qiladigan asosiy falsafiy kategoriyalardir. Bu tushunchalarning mazmun-mohiyati va ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlamasdan turib, jamiyatning tibbiy hayotini hamda uning negizini belgilovchi omillardan biri bo‘lgan aholining tibbiy madaniyani shakllantirish va yuksaltirish, uni globallashuv jarayoni talablariga mos ravishda tubdan o‘zgartirish masalasini hal qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Biz o‘z faoliyatimizni boshlagan dastlabki kunlardan e’tiboran siz, hurmatli xalq vakillari bilan barcha muhim vazifalarimiz qatorida ikkita eng asosiy masalaga alohida ahamiyat qaratish haqida kelishib olgan edik. Bularning birinchisi - jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash bo‘lsa, ikkinchisi - aholimizning sog‘lig‘ini muhofaza qilishdir. Hammamiz tushunamiz, tinchlik va sog‘liq – bu har bir inson, butun xalqimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan buyuk ne’matdir. Shuning uchun ham mana shu ikki sohada biz ahvolni tubdan o‘zgartirib, ijobiy natijalarga erisha olsak, butun jamiyatimizdagi vaziyat va ijtimoiy muhit keskin o‘zgaradi, men bunga aminman”[53],– degan edi.

Xo‘sh, shunday ekan, salomatlik deb nimaga aytiladi, degan savol tug‘iladi. Bu savolga qadimgi zamonlardan boshlab hozirgi kungacha faylasuflar, shifokorlar, tabiblar va boshqa soha olimlari tomonidan juda ko‘plab fikrlar bayon qilingan.

Masalan markaziy osiyoda yashab o‘tgan ajdodlarimizdan Ismoil Jurjoniy (1080 – 1141) “Xorazmshoh xazinasi”, “Tibbiyotining mohiyati” nomli asarlarida “Sog‘lomlik – bu kishi sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etuvchi barcha omillarni bartaraf etishdir”[54], – degan bo‘lsa, Abu Mansur Qamariy (Abu Ali ibn Sinoning tib ilmidagi ustozi bo‘lgan) esa “Boylik va sog‘lomlik” nomli kitobida quyidagicha yozgan edi: “Sog‘lomlik birinchi galda normal, xotirjam hayot kechirishdir. Buning uchun esa normal ovqatlanish, har xil zararli odatlardan saqlanish kerak”[55] ligini uqtirgan.

---

***53*** Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлис Сенатининг Йигирманчи Ялпи Мажлисидаги нутқ// *Унинг ўзи*. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.154.

54 Қодиров А.А. Тиббиёт тарихи. Дарслик. – Т.:. Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1993. – Б.98.

55 Қодиров А.А. Тиббиёт тарихи. Дарслик. – Т.:. Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1993. – Б.102.

Buyuk ajdodlarimizdan eng mashhuri Shayxurrais Abu Ali ibn Sino(980-1037) o‘zining “Tib qonunlari” nomli qomusiy asarida: “Biror kishining” “odam gavdasining holi uch xil bo‘ladi: sog‘liq, kasallik, uchinchisi sog‘liqqa ham, kasallikka ham qo‘shilmaydigan bir holat; holbuki, sen ikki xilgina qilib qo‘ya qolding” deyishi to‘g‘ri emas, chunki shunday bahsni qiluvchi kishi yaxshi o‘ylasa, ikki narsadan tashqari, uchinchi bir holatning bo‘lmasligini va bizning uchinchi holat bayoniga muhtoj emasligimizni tushunadi. Agar uchinchi holat lozim bo‘lsa, albatta, bizning “gavdaning nosog‘lig‘i” degan so‘zimiz kasallikni hamda sog‘liq ta’rifiga sig‘maydigan uchinchi bir holatni o‘z ichiga olgan bo‘ladi. Sog‘liq shunday malaka yoki holdirki, u sababli a’zolardan sog‘lom ishlar vujudga chiqadi. Sog‘liq uchun bu ta’rifga muqobil: kela oladigan biron o‘zga ta’rif yo‘q. Lekin bahs qiluvchilar sog‘liqni o‘zlaricha ta’riflab, o‘zlariga ham kerak bo‘lmaydigan shartlarni sog‘liq ta’rifiga kiritib yuboradilar. Bu to‘g‘rida tabiblar bilan bahslashib o‘tirishga o‘rin yo‘q. Tabiblar ham bu kabi narsalar haqida munozara qiladigan kishilardan emaslar. Tabiblar bilan yoki ularning fikriga qo‘shilmovchi kishilar bilan munozara qilish tibda biror foyda yetkazmaydi ham. Ammo bu masalada haqiqatni bilish boshqa fan, ya’ni mantiq fanining qoidalariga tegishlidir. Haqiqat mantiq fanidan talab qilinsin!”[56].

“Salomatlik” tushunchasiga berilgan bir qator ta’riflardan ham ko‘rinib turibdiki, ularda: *birinchidan*, o‘rab turgan tabiiy muhitning hal qiluvchi roli; *ikkinchidan*, qandaydir “mutlaq ruh”ning boshqaruvchanligi; *uchinchidan*, butun dunyo asosini tashkil etuvchi birlamchi mohiyat; *to‘rtinchidan,* inson organizmidagi barcha a’zolarining o‘z vazifalarini to‘liq bajarishdagi holati kabilar asos qilib olingan. Holatga bunday tarzda yondashishga, *birinchidan*, aholining salomatligini asrash borasidagi shakllangan shart-sharoitlar; *ikkinchidan*, aholi salomatligini saqlash uchun yetkazib beriladigan dori-darmonlarning yetishmasligi; *uchinchidan*, jamiyatda ustun bo‘lgan falsafiy dunyoqarash talablarini bajarishning qat’iyligi; *to‘rtinchidan*, o‘z manfaatini ko‘zlovchi ayrim doiralarning butun mamlakat aholisining emas, balki birinchi navbatda o‘zining, oilasining, yaqin qarindosh-urug‘larining salomatligini saqlash borasida g‘amxo‘rligi sabab bo‘lgan.

Xo‘sh, shunday ekan, salomatlikning ziddi bo‘lgan kasallik (bemorlik, xastalik) nima, degan savol tug‘iladi? Bu savolga ham allomalarimiz javob topishga harakat qilganlar.

Kasalliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ularni tasniflash, ta’riflash va undan forig‘ bo‘lish chora-tadbirlarini izlash bilan odamlar juda qadim zamonlardan beri shug‘ullanib keladilar.

O‘zbekistonning tibbiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, zardo‘shtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da insonning salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish, shuningdek, ularni davolash, aholining tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator ijtimoiy-falsafiy fikrlar yoritib berilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

56 Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. Уч жилдлик сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1992. – Б.12.

1. Har qanday kasallik jodugar devlar va parilar sardori Ahriman (Ahura Mazdaning dushmani) ruhining kishi tanasiga kirishi sababli kelib chiqqan. Demak, kasallik – bu yomon ruhlarning inson tanasiga kirishi oqibatida sodir bo‘ladigan ruhiy buzilishdir.

2. Kasallik zararli bo‘lgan issiq va suvuq yel(shamol)ning inson organizmiga salbiy ta’siri tufayli kelib chiqadi. Bunday yelning egasi ham Ahriman hisoblanadi.

3. Kasallikning paydo bo‘lishiga bir qator omillar: to‘yib ovqat yemaslik, badxo‘rlik, ochko‘zlik, bema’za ovqatlarni yeyish kabilar ham sabab bo‘ladi.

4. Odam organizmining xastalanishiga ruhiy tushkunlik, jismoniy charchash yoki har xil yovvoyi hasharotlar va hayvonlarning chaqishi, tishlab olishi kabilar ham sabab bo‘ladi.

“Avesto” kitobida kasalliklarning kelib chiqish sabablari ko‘rsatilishi bilan birga, “eng yomon kasalliklar – isitma, maddalash, notavonlik, suyuqning irishi, erta soch oqarishlar”[57] va boshqalar sanab o‘tilgan.

Bu bizning ajdodlarimizning qadim zamonlarda tibbiyot ilmini, xususan, kasallikning oldini olish evaziga aholining tibbiy madaniyatini stixiyali tarzda bo‘lsa ham shakllantirish ishlarini tashkil etishga asos solganliklaridan darak beradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino tibbiyot ilmida tub burilish yasar ekan, kasallik va uning paydo bo‘lish sabablari haqida shunday yozadi: “Tib haqidagi kitoblarda sabab deb oldin paydo bo‘ladigan va odam gavdasida qandaydir bir holatni keltirib chiqaruvchi yoki bu holatni turg‘unligicha saqlab turuvchi [narsaga] aytiladi. Kasallik esa kishi gavdasidagi g‘ayritabiiy bir holat bo‘lib, [kasal kishi a’zosining] ishiga bevosita zarar yetkazadi. U g‘ayritabiiy mizojdan, yo g‘ayritabiiy tarkibdan paydo bo‘ladi. Yuz berish shu [kasallik ] holatining natijasidir. Xoh, bu tabiatga qarama-qarshi bo‘lsin, masalan, qulanjdagi og‘riq kabi, yoki qarama-qarshi bo‘lmasin, masalan, o‘pka yallig‘lanishidagi yuzning o‘ta darajada qizarishi kabi, baribir [yuz berish] g‘ayritabiiydir”[58],– degan edi. Demak, kasallik – bu odamning mijoziga to‘g‘ri kelmaydigan ichki va tashqi ta’sirlar tufayli kishi gavdasida yuz beradigan g‘ayritabiiy bir holatdir. Bulardan tashqari u kasalliklarni tasniflagan, ta’riflagan, davolash usullarini ishlab chiqqan va ularning istiqbollari haqida bashorat qilgan.

Umuman olganda sog‘lomlik va bemorlik tushuchalarning mazmun mohiyatini ijtimoiy - falsafiy jihatdan idrok qilmasdan, ularning qanday turlarga bo‘linishini bilmasdan, keltirib chiqaradigan oqibatlarini anglamasdan turib butun jamiyatning tibbiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish mumkin emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлис Сенатининг Йигирманчи Ялпи Мажлисидаги нутқ// Унинг ўзи. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.154.
2. Қодиров А.А. Тиббиёт тарихи. Дарслик. – Т.:. Ибн Сино номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1993.


57 Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.136.

58 Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. Уч жилдлик сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1992. – Б.27.

3. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. Уч жилдлик сайланма. 1-жилд. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1992. – Б.12.

## QORAQALPOQ SHOIRLARINING IJODIDA DEMOKRATIK VA GUMANISTIK G‘OYALARNING IFODALANISHI

**Ernazarova S.K.**
Nukus davlat pedagogika instituti,
Milliy gʻoya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi dotsent v.v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Bu maqolada Qoraqalpoq shoirlarininf badiiy ijodida demokratik va gumanistik qarashlar**.** ularningning asarlarida qoraqalpoq xalqi tarixining ozodlik uchun kurashlari, shoirlar ijtimoiy-siyosiy qarashlarida inson qadr-qimmati va uning manfaati barcha narsadan ustun qo‘yganligi koʻrsatilgan.

**Kalit soʻzlar**: Qoraqalpoq shoirlari, demokratik va gumanistik qarashlar, adolat, tenglik, bilim, ma’rifat.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi to‘g‘risida fikr yuritganda, birinchi navbatda, har bir mutafakkirning demokratik va gumanistik qarashlari alohida ahamiyatga ega. Chunki inson bilan jamiyat, xalq bilan davlat o‘rtasidagi aloqalar, jamiyatning qanday shakllanayotgan qadriyatlarga, ideallarga ergashayotgani yuqoridagi fikrlarda o‘z ifodasini topadi.

Tarixdan ma’lum har bir asrdagi paydo bo‘ladigan adabiyot, adabiy rivojlanish, qanday shoir, yozuvchining asarlari bo‘lmasin, u o‘zi yashab turgan davr taqdirlari bilan bog‘liq holda hayot kechiradi. Ular o‘zlari yashayotgan zamondan oziqlanadi hamda uning barcha ko‘rinishlarini o‘z asarlarida aks ettirib boradi. Shunday qilib, ular o‘zidan oldingi, o‘zlaridan keyingi adabiyotlardan katta farq qiladi [1, 206].

Qoraqalpoq xalqining XIX asrda yashagan buyuk mutafakkir-shoiri Berdaq qoraqalpoq xalqi tarixining ozodlik uchun kurashining voqealariga boy va qiyin davrlarining birida tug‘ilib, ijod qilgan mutafakkirdir. Berdaq Xiva amaldorlarining rahmsiz zulmiga javoban qoraqalpoqlar xonlik hududida yashovchi boshqa xalqlarning mehnatkashlari bilan birlikda bir necha marta qurolli qo‘zg‘olan ko‘taradi. Bu siyosiy, madaniy va iqtisodiy voqealarning barchasi Berdaqning siyosiy dunyoqarashining o‘sishiga sabab bo‘ldi.

Shoir «Bo‘lgan emas,» «Yaxshiroq,» «Zamonda» she’rlarida ijtimoiy hayotda yuz bergan voqealarga o‘sha vaqtdagi real sharoitga asoslanib baho berishni, uni tahlil qilib fikrlashni, o‘tmishdagi tajribalarning natijasini hisobga olishni talab qildi. Bunday og‘ir holatlar xalqning o‘z ozodligi uchun kurashga tayyorlashda katta rol o‘ynagani so‘zsiz. Shuning uchun ham Berdaqning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o‘z davri uchungina emas, balki bizning zamonimiz uchun ham katta ahamiyatga molik bo‘ldi deb hisoblasak, ayni muddao.

Shoir hayotining oxirgi yillarida yozgan ba’zi asarlarida, o‘zining umri davomida ko‘rgan-bilganlari, tajribasiga tayanib podsholar haqida «Bul dúnya dúnya bolg‘alı, podsho ádil bolg‘an emes» (Bu dunyo dunyo bo‘lgali, podsho odil

bo‘lgan emas), deya chiqargan ayrim dadil xulosalarida Berdaqning buyukligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shoirning falsafiy va gumanistik qarashlariga yunon mutafakkirlari ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u antik madaniyatning yirik vakillari Sukrot, Aflotun, Arastu va boshqalarning musulmon Sharqida tutgan obro‘sidan foydalanib, o‘zining insonparvar, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy g‘oyalarini ilgari suradi.

E.E.Bertels Arastuning Sharqdagi mavqeyini tasvirlab, “Sharq mamlakatlarida bu faylasuf juda ham mashhur, musulmon falsafasida uning ta’siri asrlar mobaynida seziladi” - deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo mutafakkirlari uni o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarida haqiqat va adolat aks ettirgan alloma deb bilar, ularni Arastuning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari; xususan, jamiyatning tabiiy yo‘l bilan paydo bulishi, davlatni odilona boshqarish, fozil va adolatli hukmdorlar, xulq-odobning insonlararo munosabatidagi o‘rni kabi mavzular qiziqtirardi [2,283].

Berdaq qadimgi yunon madaniyati, adabiyoti va falsafiy fikrlari bilan tanishar ekan, o‘z davri talablari nuqtayi nazardan ularga yondashadi, xalqni qiziqtirgan masalalarga ulardan javob topishga, o‘z davridagi ijtimoiy muammolarini yechishga intiladi. U mustaqil ravishda juda ko‘p izlangan, ilmni, ma’rifatni egallash yo‘lida ter to‘kib mehnat qilgan, qadimgi yunon faylasuflari Aflotun, Arastu ta’limotlaridan ham xabardor bo‘lganligini esga oladi.

O‘tgan Arastu, Aflotun,
Yaratib ilmning kalitin,
Yechish uchun fikr bandin,
Men ma’rifat izlar edim [3,41].

Berdaq o‘z davrida odil podshoh g‘oyasiga tayanib, unga umuminsoniy va gumanistik nuqtayi nazardan yondashadi. Uning fikricha, ezgulik, adolat qaror topishi va xalqning farovon hayot kechirishi, albatta, hukmdorga bog‘liq. Hukmdor adolatli bo‘lsagina, mamlakatda tinchlik-osoyishtalik hukm suradi, xalq farovon yashaydi. Jamiyat va davlat hayotining asosiy insonparvarlik tamoyilini adolatdadir, deb biladi.

Qoraqalpoq xalqining ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojlanish tarixi O‘tesh Alchinboy o‘g‘lining (1828-1902) ijodi bilan chambarchas bog‘liq. Uning dunyoqarashidagi tushunchalari zamonasidagi ma’rifatparvarlik g‘oyalari ta’sirida yana rivojlanishga erishdi. Mutafakkir yashagan davr murakkablashgan tarixiy voqealarga nihoyatda boy edi.

O‘teshning tushunishicha, turmushdagi feodal salbiy munosabatlarni va zolim amaldor boy, biylarni adolatli tartibga bo‘ysundirish kerak, «Yo‘q qilmasa xalq zolimni,» o‘z ozodligini, jamiyatdan tengligini ololmaydi. «Aqlli odam dushmanlarini qutqaradi, shunda uning ishi rivoj bo‘lar» deb yozadi [4,91].

Bu davrdagi ijtimoiy fikrlarning rivojlanishi Sidiq To‘qpon o‘g‘li qarashlari bilan bog‘liq edi. Qoraqalpoq xalqining mashhur shoir-mutafakkiri Sidiq To‘qpan o‘zi yashayotgan ijtimoiy hayotga, o‘lkani ruslar bosib olgandan keyingi davrdagi davlat o‘zgarishlariga, uning tuzilishiga, boshqaruv va istibdod tartibiga diqqat bilan tahlil qildi. Ruslarning bosqinchilik harakatlariga, xalqning birligini buzishiga

norozilik bildirib, ularni yomon ko‘rganligini bayon etib ijtimoiy-siyosiy fikrlarini so‘z etuvchi «Zamon» nomli she’rini «Zamon qanday zamon bo‘ldi?Yildan yilga yomon bo‘ldi...» deb yozdi.

Sidiq To‘qpon o‘g‘li zamondosh mutafakkirlaridan farq qilib ruslarning Qoraqalpog‘istonni bosib olishini butunlay qoraladi, jamoatchilik qarashidagi asosiy fikrini g‘ayrioddiylik bilan qoraqalpoq elini bosib olishiga, koloniyaga aylantirishiga noroziligini bildirishga qaratdi.

Qoraqalpoq shoir demokratlari gumanistlari o‘z zamonining vatanparvarlari bo‘ldi. Ular o‘z xalqini chin dildan sevdilar. Ular o‘z asarlari orqali ozodlikni, kelajakni, adolatli rahbarlarni orzu qildilar. Shuning uchun ham ular doimo xalq ozodlik harakatlarini qo‘llab keldi.

Umumlashtirib aytganda bu shoirlarning dunyoqarashi xalqning ahvolini, istibdodning sababini yurt boshqaruvchilarining bilimsizligida, xonlar va podsholarning adolatsizligida, nohaqligida deb biladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, qoraqalpoq shoirlarining qarashlarida jamiyatdagi muammolarni zolimlik bilan yechish masalasini qoralaganinin ko‘amizi. Shoirlar o‘zlariining demokratik va gumanistik qarashlarida inson qadr-qimmati va uning manfaati barcha narsadan ustun turadi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1. Пахратдинов Ә. XIX әсирдиң ақыры - XX әсирдиң басларындағы қарақалпақ әдебияты тарийхы, Нөкис, «Билим», 1998, 208-6.

2. Бертельс Е.Э. Избронное труды. Т. 4. - С.283.

3. Бердақ. Сайланды шығармалары. (Қайта басылым). –Нөкис. “Билим”, 2019. –Б. 41

4. Өтеш шайыр. Таңламалы шығармалары. «Қарақалпақстан», Нөкис, 1978. 91-бет.

## AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA RATSIONALLIK YONDASHUVI

**O‘rozov Shahobiddin Ziyadullayevich**
SamISI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: orozov.1973@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida ratsionallikka asoslangan yondashuvning o‘rni ochib beriladi. Uning boshqaruv uslubi, davlat qurilishi va islohotlar olib borishdagi oqilona qarorlarining zamirida ratsional tafakkur yotganligi tahlil qilinadi. Maqolada Amir Temurning tarixiy tajribasining zamonaviy islohotlar davrida qanday ahamiyat kasb etishi, ayniqsa, strategik boshqaruv, adolatli tizim va barqaror taraqqiyot bilan bog‘liq jihatlari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** sohibqiron, Amir Temur, ijtimoiy faoliyat, ratsionallik, xarizma, liderlik, Markaziy Osiyo, siyosat, siyosiy beqarorlik, yetakchilik, davlat, hokimiyat, vazir, askar, Zafarnoma, Samarqand, barqarorlik, taraqqiyot.

Ma’lumki, ming yillar davomida insoniyatning buyuk daholari tarixiy taraqqiyotning ichki mantig‘ini tushunishga va shu asosda insoniyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy rivojlanishi muammolarini ijobiy hal etib, jamiyatni boshqarishning eng maqbul, adolatli usullarini joriy qilishga intildilar. Sohibqiron mamlakat taxtiga o‘tirgan birinchi kunlaridanoq, ya’ni 1370-yil aprel oyidanoq davlat ishlarini qonuniy hujjatlar asosida yuritishga harakat qiladi. Agar Amir Temur o‘z davlatini qonunlar asosida barpo etmasa, bunday davlatning nufuzi, salohiyati, obro‘siga putur yetar va uning hukmdori ham yuqori darajada tan olinmasdi. Amir Temur va temuriylar davri O‘rta Osiyo madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu davrdagi madaniy yutuqlar umumbashariy sivilizatsiya darajasida bo‘lgan. Madaniyat tarixidagi ushbu mumtoz davrda o‘zbek madaniyatining shakllanishi bu davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liqdir.

U o‘z qarashlarida savdoga, ishbilarmonlikka katta yo‘l ochib, ularga imtiyozlar yaratib bergan. Lekin u halol, haqiqiy mehnatga asoslangan tijoratni quvvatlagan, hatto bunday tadbirkorlardan uch yilgacha soliq olmagan. Temur faqatgina davlat rahbari sifatidagina emas, balki bir mutafakkir sifatida ham o‘z davrining ilg‘or siyosiy qarashlari mukammal tizimini yaratdi. Chunki u biror g‘oyani o‘z fikrida tahlil qilganida masalaning hamma tomonini hisobga olar edi. Unda o‘zgalar fikrini eshita olish va qabul qila olish qobiliyati bor edi[1:27].

Amir Temurning siyosiy tamoyili markazida inson turadi. Temur o‘z davrida saltanat manfaatini xalq manfaatiga bo‘ysundira olgan davlat rahbari edi.

Temur siyosiy qarashlari tizimining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u har bir siyosiy masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so‘ngra qaror qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari turli shakl va darajada bo‘lardi.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, X-XV asr mutafakkirlari[2:160-161]. o‘z ijodlari va g‘oyaviy qarashlarida adolatli va ma’rifatparvar shohning eng oliy sifati qilib, birlari adolatni ko‘rsatsalar, boshqalari aqlni, uchinchi toifadagilar esa - axloqiy sifatlarni ko‘rsatganlar. Shunisi qiziqarliki, agar ular o‘zlarining «Ideal davlat» nomli g‘oyaviy xayolotini nazariy jihatdan ta’riflagan bo‘lsalar, XIV asrga kelib, Amir Temur uni amalda qo‘llay oldi va o‘zida bu xislat va xususiyatlarni mujassamlashtirgan adolatli hukmdor sifatida maydonga chiqdi.

Dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlarining shiddat bilan o‘sishi jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotiga o‘zining konstruktiv va destruktiv ta’sirini o‘tkazmoqda. Bularning barchasi har bir mintaqada yashovchi shaxs va jamiyat a’zolarida milliy davlatchilik asoslarini o‘rganish va ma’naviy o‘zlikni anglash darajalarini ifodalovchi miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlarda yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Ilm va madaniyatga bunday munosabatni Sohibqiron umrining oxirigacha saqlab qoldi. Bu yo‘ldan uning avlodlari ham yurdilar. Natijada temuriylar zamonida ko‘plab madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Ularda o‘qish va o‘qitish uchun dunyoning turli burchaklaridan yetuk olimlar jalb qilindi. Chingiziylar davrida ta’qibu siquvlar, siyosiy ostin-ustunliklar natijasida ilm va madaniyat nuqtayi nazaridan huvillab qolgan Turkiston Amir Temur zamoniga kelib yana

jonlanish imkonini qo‘lga kiritadi. Bunda u, eng avvalo, mahalliy ilm-fan va madaniyat vakillariga suyangani aniq, ya’ni ilmu madaniyat rivoji uchun shart-sharoit yaratgan, siyosiy barqarorlikka erishgan. Natijada turli mamlakatlardagi turkistonliklar o‘z yurtlariga qayta boshlaganlar. Ular orasida qachonlardir ota-bobolari Shimoliy Hindiston, arab o‘lkalari va boshqa yurtlarga borib o‘rnashgan avlodlar ham bo‘lganiga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning: «Sohibqiron har yerdakim, imoratqa qobil yer ko‘rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi... »[3:851], – degan so‘zlari zinhor mubolag‘a emas.

XIV-XV asr oxirlarida Movarounnahr ko‘p mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, ba’zan siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan karvon yo‘llari bilan bog‘langan edi. Bu yo‘llar xalq turmush tarzi, diniy, iqtisodiy, ma’naviy va moddiy madaniyati jihatidan bir-biridan farqlanuvchi mamlakatlarning o‘zaro aloqasini rivojlantirishga imkon yaratdi. Karvon yo‘llari savdo, diplomatik munosabatlar borasidagi amaliy vazifasidan tashqari, ayni vaqtda mamlakatlar va xalqlarning o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini mustahkamlashga ham xizmat qildi. Aytish mumkinki, bu davrda Buyuk Ipak yo‘li tiklanib, mintaqalarning madaniy taraqqiyoti uchun xizmat qildi.

Venger olimi, professor Herman Vamberi Temur haqida shunday yozgan: «Temur Osiyoning hamma qismidan hadsiz-hisobsiz xazina va boylik yig‘di, lekin ularni xasis odamlar kabi saqlamadi. Buni, birinchidan, uning saroyining boy va hashamatliligi, ikkinchidan esa ham o‘z rezidensiyasini, ham o‘z shahrini bezab turuvchi g‘oyat ulkan va muhtasham binolar qurdirgani isbotlaydi. Shuning uchun ham Temurni Chingizxon bilan bir qatorga qo‘yib, uni yovuz, o‘zboshimcha, mustabid hokim deb atovchilarning fikrlari ikki tomonlama xatodir. U, avvalo, o‘zining g‘olibona qurolini zamonasining odatiga ko‘ra ishga solgan hokim edi. Uning dushmanlari ta’kidlagan qabih ishlari va vayronagarchiliklari ham, hatto biror jinoyat uchun olingan o‘ch edi, xolos»[4:217].

Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro‘y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon Sharqidagina emas, Yevropa mamlakatlarini ham hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so‘nggi madaniy-ma’naviy rivojinigina belgilab bermay, qo‘shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug‘ullangan yirik olimlar paydo bo‘ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir - Sa’diddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayyid Jurjoniy nomlari bilan bog‘liqdir. Bulardan tashqari, Samarqandda o‘sha davrda Abdujabbor Xorazmiy, Shamsiddin Munshiy, Abdulla Lison, Badriddin Ahmad, Nu’moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Xokiy va boshqa olimlar yashab ijod etganlar. O‘z davrining ilg‘or ijtimoiy va axloqiy fikrlari badiiy adabiyotda, tasavvuf she’riyatida, nazm va nasrda, g‘azal va ruboiylarda mufassal bayon qilina boshlandi. Sakkokiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Binoiy, Qosim Anvor va boshqalarning badiiy asarlari boy falsafiy va axloqiy mazmunga egadir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davlatchiligi yuksak nazariy qoidalarga asoslangan holda boshqarilgan bo‘lib, undagi mezonlar amaliyotdan olingan tajribalar orqali shakllangan. U o‘z davlatini dunyo miqyosida tan olinishini istab

dastavval davrning eng yuksak bilimiga asoslangan harbiy va davlatchilik sohasida muhim islohotlarni amalga oshira oldi, zamonasiga mos davlat boshqaruv tizimlarini ishlab chiqdi. Buning natijasida O‘rta Osiyoda qariyb ikki asrga yaqin mo‘g‘ullarning beboshligi natijasida bosqinchilik, zo‘ravonlik, adolatsizlik va vayronagarchilik hukm surgan feodal tarqoqligiga barham berildi, o‘lka xalqlarining o‘z huquqlari, mustaqilligi qayta tiklandi. Uning buyuk ishlari va salobatli davlati o‘z davrida nafaqat Sharqda balki, dunyo, ayniqsa Yevropada ham tan olingan edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Муқимов З. Амир Темур тузуклари (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – С.: СамДУ, 2008. –Б.27.
2. Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –Б.160-161.
3. Яздий Ш.А. Зафарнома. –Т.: “Шарқ”, 1997. –Б.851.
4. Вамбери Г. История Бухары. Перевод А.И. Павловского. т.1, –СПб.: Изд.Я.А. Исакова, 1873. –С.217.


## TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQA MADANIYATINING RIVOJI


**O‘rozov Shahobiddin Ziyadullayevich**
SamISI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: orozov.1973@mail.ru



**Annotatsiya:** Maqolada tadqiqotning maqsadi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida musiqa madaniyatiga bo‘lgan e’tibor hamda uning rivoji to‘g‘risida fikr yuritigan, musiqa madaniyatining o‘rni, uning o‘ziga xosligi va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan.



**Kalit so‘zlar: s**ohibqiron, Amir Temur, ijtimoiy faoliyat, madaniyat, san’at, Markaziy Osiyo, siyosat, rivojlanish, davlat, hokimiyat, vazir, askar, Zafarnoma, Samarqand, barqarorlik, taraqqiyot.


Ma’lumki X asr oxirida Markaziy Osiyo turli turkiy qabilalar va mahalliy davlaglar o‘rtasidagi shiddatli kurash maydoniga aylandi. Ko‘chmanchi turklar o‘troqlashib, dehqonchilik bilan shug‘ullana boshladilar. Ular O‘rta Osiyo xalqlarining madaniyati vujudga kelishida tobora muhim rol o‘ynay boshladilar. Qo‘shiq va epik asarlardan parchalar keltirilgan Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» (Turk tillari lug‘ati ) asarida turklarning muhim poetik va musiqaviy shakllari haqida ma’lumotlar bayon qilingan, Faxriddin Muborakshohning tarixiy asarlarida ham musiqaga oid ma’lumotlar mavjud. XI asr oxirida musiqa hayoti haqidagi «Qobusioma» o‘sha davr adabiy-musiqiy hayotida katta voqea bo‘ldi (Mazkur kitob hozirgacha ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas). Muallif, unda saroy sozanda va xonandalari haqida axloqiy-ma’naviy majmua yaratadi va ular ijro etgan ohanglarning rang-barangligigagina to‘xtaladi, vonza-ritmik tomonlari murakkabliklardan kelib chihqib, kuylarning ohanglarini aniqlaydi. Kitob, o‘sha davrda musiqadan tinglovchiga axloqiy ta’sir etish vositasi sifatidagina foydalanilganligini tasdiqlaydi.

She’riy shaklda yozilgan Yusuf Xos Hojibning (XI asr) «Qutadg‘u bilig» (Baxt keltnruvchn bilim), keyinchalnk Ahmad Yassaviyning (XII asr) «Devoni hikmat»kabi turkiy didakgik poemalari, shuningdek, Faxriddin ar-Roziyning XII-XIII asrlar boshlarida musiqa to‘g‘risidagi risolalari dunyoga keldi. XI asrga kelib turkiy tilda so‘zlaydigan xalqlarning mahalliy aholi bilan aralashib yashash jarayoni sodir bo‘ldiki, bu jarayon o‘zbek xalqining shakllanishiga olib keldi. To‘xtovsiz urushlar, O‘rta Osiyodagi o‘zaro nizolar madaniyat va san’atning rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi. Ayniqsa, mo‘g‘ullar istilosi davrida (XIII asrda) yirik shaharlar, jumladan, Buxoro to‘la yoki qisman vayronalikka uchragan davrda madaniy hayot ancha susaydi.

O‘rta Osiyo madaniyati Amir Temur hukmronligi davridan boshlab yana rivojlana boshladi. Amir Temur O‘rta Osiyoda tarqoqliklarga barham berib, birlashgan buyuk davlat tuzishga erishdi. Temuriylar hukmronligi davrida arxitektura rivojlandi. Mamlakat poytaxti Samarqand hamda Kesh, shuningdek, Buxoroda katta-katta madrasayu maqbaralar qurildi. Xuroson, Eron, Suriyaning madaniy markazlaridan olimlar, shoirlar hunarmandlar, mohir sozanda va xonandalar ham Samarqandga olib kelindi va ular saroy xizmatida bo‘ldilar. Ko‘pgina anjumanlarni saroy hofizu sozandalari qizitar edilar. O‘sha davrning yirik san’atkorlaridan Hofizi Abru buni quyilagicha yozadi: «Xushovoz hofizlar va shirinovoz sozandalar fors qo‘shiqlaridan namunalar, arab ohanglari, turkiy an’analar, mug‘ul ovozlari, xitoycha ashula aytish qonunlari asosida kuylanib, qo‘shiq aytar edilar». Bu davrda xalq orasida yirik xushovoz xonandalar yetishib chiqa boshladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Temur va Temuriylar davrida san’atning juda ko‘p turlari taraqqiy etdi.

Sohibhiron Amir Temur davridan Husayn Boyqaro davrigacha shaharlar ravnaqi uchun jonbozlik qilindi. Samarhandda Shohi Zinda, Go‘ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Shahrisabzda Oqsaroy barpo etildi. Xitoyda esa me’morchilikning yuksak namunasi bo‘lgan hashamatli binolar, madrasa, masjid va xonaqohlar qurildi. Tasviriy san’at sohasida ham (Ulug‘bek davrida) miniatyura ustalari Shahobiddin Abdullo, Mavlono, Zahiriddin Azxor, Usta Shamsiddin, Xunayd Naqqosh, Mir Ahmad kabi iqtidorli rassomlar ijod qilganlar. Ular orasida mashhur rassomlardan Hoji Abdulxay Firdavsiyning «Shohnoma», Sa’diyning «Guliston» asarlariga miniatyuralar chizdi. Bu davrda musiqa ham rivojlanish pog‘onasiga ko‘tarildi. Aynan shu paytda musiqa nazariyasi va haqida risolalar paydo bo‘la boshladi. Darvish Ahmad Qonuniy, Sulton Muhammad Gumiy, Abdulla Noiylarning musiqa nazariyasi dovrug‘i butun dunyoda yoyilgan edi. Hirotda Shohrux saroyida, Samarhandda Ulug‘bek saroyida, Tabrizda Mironshoh saroylarida musiqa taraqqiyotiga e’tibor kuchli edi. Aynihsa, Mirzo Ulug‘bek Samarqandni ilmiy va madaniy hayotning markaziga aylantirgan edi. U shoir va musiqachilarga hamisha homiylik qilardi.

O‘rta asr va hozirgi tarixchi san’atshunoslarning yozishlaricha, Temuriylar davrida tariqat, ma’rifat va haqiqatdan ogoh etuvchi tasavvufiy musiqa asarlari «Navo», «Rost» maqomlari, «Munojot», «Ushshoq», «Bayot» kuylari ravnaq topgan. Amir Temur musiqa san’atining muhim estetik ahamiyatini ma’naviy olamni, jangovorlik ruhiyatini oliy darajada saqlab turuvchi katta kuch deb bilgan

va uning rivojiga hamisha e’tibor berib kelgan. U tarixda birinchi bo‘lib askarlarning jangovor bayrog‘ini va musiqa cholg‘ulari bilan ta’minlash odatini harbiy udumga olib kirgan. «Amir qildikim, -deb yozadi u «Tuzuklarida», - qaysi bir amir biron fath etsa, yo g‘anim lashkarlarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar - faxrli kitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni Bahodir deb atasinlar». Shunisi e’tiborliki, Amir Temur lashkarlarida harbiy matonat, shijoat, nishoni - jangchilarning tabaqa va martabalarini ko‘rsatuvchi harbiy darajada belgisini anglatgan. Amir Temurning musiqa san’atini yuqori darajada baholashi, cholg‘ulardan harbiy nishon, jasorat ramzi sifatida foydalanishi jahon san’ati tarixida mislsiz voqeadir.

«Temur tuzuklari»da jangchilarni safarbar etish chog‘ida inson ovozidan, ayrim maxsus intonatsion tizilmalardan keng foydalanilgani haqida ma’lumotlar keltiriladi. «Yana amr etdim, - deydi u,- shohlar g‘anim lashkarlariga ko‘zlari tushishi hamono, baland ovoz bilan «Ollohu akbar» deb takbir aytsinlar va suron (jangovor chaqiriq «Ur xo-ur!») solib, dushman sherigi ustiga bostirib borsinlar». Amir Temur armiyasining harbiy orkestri puflama va zarbli cholg‘ularning xilma-xil turlaridan tashkil topgan edi. Xususan, nog‘ora, juft nog‘ora, qo‘sh nog‘ora (naqqon), dovul (duxul) surnan singari cholg‘ular keng qo‘llanilgan. Bir qal’ani zabt etish manzarasini mashhur tarixchi Ali Yazdiy quyidagicha ta’riflaydi : «Unda (ya’ni, qal’a) 300 erkak duxul va surnaylarni chalish bilan mashg‘ul erdi». Harbiy musiqa turlarining mazmuni, ohangi xususida manbalarda ma’lumotlar keltirilgan, ularning notalari va usul shakllarigina saqlab qolingan. Masalan: Abduqodir Marog‘iy o‘z risolalarida Samarqandda ijod qilgan «Zarbul-Fath» va «Dav Shoxiy» usullarini keltiradi.

Shunday qilib, Temur va Temuriylar davrida musiqaning ko‘pgina turlari singari Amir Temurning harbiy orkestrida, shuningdek, musulmon Sharqida mashhur bo‘lgan talba va misdan yasalgan jaros (tarelka bo‘lsa kerak) urma asboblaridan keng foydalanilgan. Musiqiy risolalarda oxirgi asbob, ya’ni jarosning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilmaydi. Biroq, Alisher Navoiy she’riyatida jaros tez-tez eslatiladi.

Chun valvala chekti kuy aro tabli asos,

May ich ancha tegrikim yetar savti jaros.

Harbiy orkestr ushbu davrlarga kelib turkiy xalqlar an’analari bilan bog‘liq yana bir urma asbob-kavarka (Navoiyda kavarga) hisobiga boyidi. Uning tasviri, miniatyuralari saqlanmagan, musiqa risolalarida eslatilmaydi. Biroq, Sharafuddin Ali Yazdiyning ma’lumotlariga qaraganda kavarga qo‘sh nog‘ora toifasiga mansub zarbli cholg‘u asbobi turi bo‘lsa kerak, deb taxmin qilish mumkin: «Lashkar hozir bo‘lib, turtib berildi kavarga va burguh urib yuzlandilar...» Kovarga «Zafarnoma»da juda ko‘p tilga olinadi, jang manzarasining doimiy musiqiy ramzi sifatida tasvirlanadi. Ammo, u keyingi manbalarda deyarli qayd etilmagan. Sohibqiron harbiy orkestri o‘zining puflama cholg‘ular guruhi sozlarining xilma-xilligi bilan boshqalardan farqlanadi. Biroq, uni Qur’oni karimdan boshlab so‘nggi asr manbalarida qayta-qayta eslatuvchi sur va jangu jadallarni doimiy ishtirokchisi suron surining kattaroq biron turi, deb faraz qilish mumkin/

Bunday taxminni Navoiy keltirgan ma’lumotlar ta’kidlaydi:

Suron yo‘q, sur savtining safiri,

Ka bir surki, mashhar nafiri.

Temur davrida an’anaviy orkestrga yana bir yangi puflama cholg‘u asbobi - burg‘u kirib keldi. Uning turkiy odatlari madaniyati bilan bog‘liqligi nomlanishidan ham ko‘rinib turibdi. G.D.Formerning ko‘rsatishicha, cholg‘uning nomi Temur davrida burg‘u deb atalgan. Ali Yazdiy keltirgan bir ma’lumotda aytiladiki, Qarshi shahrining qamal qilinishi chog‘ida «Sohibqiron hazrati farmon berdilarki, burg‘u chalsinlar, oqibat Qarshi aholisi ko‘zlaridan uyqu qochib, nodir burg‘u tovushlardan toka yur dudi ularning boshlariga urdi. Qarshi zabt etilgandan so‘ng Sohibqiron Darveshak burg‘uchi ismli harbiy sozanda xizmatini alohida ta’kidlaydi. Keyinchalik, Bobur lashkarlari musiqa ramzi Hindiston madaniyatiga kirib keladi.

Qadim davrdan hozirgi kungacha mashhur bo‘lgan surnay bilan bog‘liq «chabig‘» cholg‘ulari keng qo‘llaniladi. Darhaqiqat, burg‘uning, asosan turkiy xalqlarning asl yurti Sibir va Oltoyda bo‘lib, uning shohi hozirgacha shimoliy elatlarda cholg‘u sifatida ishlatilishini e’tiborga olsak, Formerning ta’kidi to‘g‘ri ekanligiga amin bo‘lamiz. Shoximan puflama cholg‘u turlari Markaziy Osiyoda turk xoqonligi davridan boshlab tarqala boshladi. Xorazmda topilgan VI-VII asrlarga mansub kumush tovoqda yettita burg‘uchidan iborat harbiy orkestr tasvirlangan. Unda aks ettirilgan sozandalarning sovut, tubalari va liboslari ham Temuriylar davri harbiy kiyim-boshlariga juda o‘xshash.

Xullas, xorazmlik turkiy lashkarboshi atrofidagi burg‘uchilar orkestri Amir Temur armiyasida xizmat qilgan. Burg‘uchi ajdodlarimiz - mohir sozandalar burg‘uga yordamchi pardalar teshikchalarini qo‘shishgan. Harbiy musiqa turlarining mazmuni ohang tizimi xususida manbalarda ma’lumotlar keltirilgan. Ularning faqat nomlari va usul shakllarigina saqlanib qolingan. Masalan, Marog‘iy o‘z risolalarida Samarqandda ijod qilgan «Zarbulfath» va «Davriy Shoxiy» usullarini keltiradi.

Xullas, Temur va Temuriylar davrida harbiy musiqa mustaqil janr sifatida uzil-kesil shakllanadi, harbiy orkestr esa yangi cholg‘ular bilan yanada boyiydi. Musiqa madaniyati ana shunday yuksak rivojiga erishadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Темур тузуклари / Таҳрир ҳайъати: Б. Абдуҳалимов ва бошқ., Форсча матндан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж. - Тошкент: «O‘zbekiston», 2012. -184 б.
2. Менким, фотиҳи Темур... Форс тилидан Абулқосим Абдураҳим Учқун тарж. // Шарқ юлдузи, 1995. - №1-2. –Б.7-64.
3. Ибн Арабшоҳ. Темур тарихида тақдир ажойиботлари / Араб тилидан таржима ва изоҳларни, сўз бошини У.Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. К.1. – Т.: Меҳнат, 1992. –322 б.
4. Урозов Ш. З. Роль религиозных принципов и безопасности в темуридском государстве //Под общей редакцией. – 2022. – С. 77.

# ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOIY SIYOSIY VA MA'NAVIY - AXLOQIY QARASHLARI

**Yusupaliyev Orzumurod Odilovich**
**Guliston davlat pedagogika instituti**
**"Milliy g'oya va falsafa" kafedrasi katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari aks ettirilgan. Bugungi yoshlar uchun ma'rifatli, bilimli, ma'naviy va axloqiy inklyuziv va ilg'or mafkuraviy manzarani shakllantirish bo'yicha tushunchalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Hindiston, Podshohlik , G'arazgo'ylik , jasorat, Nasl-nasab Tuproq, suv, havo, Qobus ibn Vashmgir.

X acp oxiri - XI asrning birinchi yarmi adolatli ravishda "Beruniy davri", - deb atalib kelinmokda. Musulmon Sharqi ilk o'rta asrlar davrining buyuk allomasi va mashhur mutafakkiri Muhammad ibn Ahmad Abu Rayhon al-Beruniy (973-1048) ning mo'tabar nomi butun jahonga ma'lum. Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. U insonni eng sharafli borliq sifatida tushuntiradi. Inson faqat o'zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birlariga yordam berishlari kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha, insonlar o'rtasidagi tafovut ko'proq tashqi jihatdan mavjud bo'lib, ular ichki tuzilashi va tashkil topishi jihatdan bir umumiylikka ega. Beruniy jamiyatda ijtimoiy hayotning o'ziga xos "shartnoma" asosida tuzilishini e'tirof etadi. U: "Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi "shartnoma" tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi bu hali insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun (ular) yana mehnat qilishlari ham zarurdir", - deydi.

Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshohga xizmat qilmay, balki podshoh jamiyatga xizmat qilishi lozimligini aytadi. "Tabiatan boshqarishga moyil" bo'lgan hokim, - deb yozadi u - o'z fikri va qarorlarida qa'tiy bo'lishi kerak, o'z ishlarini amalga oshirishlarida faylasuflarning fikrlariga amal qilishi lozim; "shohning o'zi ham yaratuvchilik ongiga ega bo'lmog'i, ayniqsa, dehqonlar to'g'risida ko'proq g'am eyishi kerak. "Podshohlik" dehqonchiliksiz yashay olmaydi, - deb yozgan edi Beruniy.

Beruniy mamlakat ravnaqi, el-yurt farovonligini ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'ladi, - deb hisoblagan. U: "har bir olim o'z muhokamasida amaliyotga asoslanishi, o'z tadqiqotida aniq maqsadga ega bo'lishi, tinimsiz mehnat qilishi, xatolarni qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydirma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur", - deb yozgan edi. Beruniy mamlakatda xalqlar do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qattiq qoralaydi va kishilarni tinchlikka chaqiradi. Vatandoshimiz Beruniyning bu g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini

yo‘qotgani yo‘q. O‘zbekistonning o‘ziga xos va o‘ziga mos mustaqil taraqqiyot yo‘lidan rivojlanib borishida xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda Beruniyning ona Vatani - mustaqil O‘zbekistonda uning ijodiga juda katta e’tibor berilib, uni har tomonlama chuqur o‘rganilmoqda. Ilm-fan jamiyat hayotida ustuvor maqomga ega bo‘lmog‘i lozim, degan fikr Beruniyni bir daqiqa ham tark etmaydi. Ilm barcha dunyoviy va diniy masalalarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Uning samarali ta’siri tufayli axloq-odob, iymon-e’tiqod hosil bo‘ladi va mustahkam mavqega ega bo‘ladi. Ilmni rad etuvchi axloq va e’ti-qod kemtikdir, ular hayot sinovlariga bardosh bera olmaydi. Allomaning ta’kidlashicha, Olloh biz yashab turgan ayon olamini sababsiz, tasodifan, behudaga yaratmagan. Yaratishdan asl maqsad oqilu nodonlarga o‘zining yagona, qudratli, mehribon va ilm sohibi ekanligidan shahodat berib turishdir[59]. Bu vazifani bekamu ko‘st ado etilishini ta’minlash uchun inson zotiga xotira, nafsiy-hissiy va aqliy quvvatlarni in’om etgan. Mazkur aqliy quvvatlar tufayli har bir inson haqni nohaqlikdan, adolatni adolatsizlikdan, chinni yolg‘on-yashiqdan, donolikni nodonlikdan, do‘stni dushmandan, xayrni gumrohlikdan farqlay oladi. Shunday ekan, bunday ne’matni tan olmaslik, uning xolisona xizmatidan voz kechish yoki undan sust, samarasiz foydalanish gunohi azim va axloqiy notovonlikdan o‘zga narsa emas, degan fikr - mulohaza yuzaga keladi.

Rostgo‘ylik jasoratning o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘lishidir. Masalan, ko‘pchilik tomonidan jasorat, botirlik deb tanilgan xulq, ya’ni urush maydonlarida bahodirlik namunasini ko‘rsatish, turli xil halokatlarga uchrashni nazar-pisand qilmaslik shijoatning bir turidir, xolos. “Ammo uning hamma turlari ichida eng yuqori darajali bir xili to‘g‘ri so‘zni so‘zlash yoki tug‘ri ishni qilishda o‘limni pisand qilmaslikdir. Hammaning tabiatida adolat bevosita sevikli va hamma uning yaxshiligiga qiziqadigan bo‘lgani kabi, rostgo‘ylik ham shunday”, deydi alloma o‘zining “Hindiston” asarida.

Yolg‘onchilikning sabab-ildizlari xilma-xildir. Ular aslida g‘arazgo‘ylik, adolatsizlik, tarafkashlik, o‘z mulkiy, mafkuraviy, diniy manfaatlarini har xil yo‘l va vositalar ko‘magida himoya qilish, ataylab o‘zgalar nomlari, fazilatlari, fikr - mulohazalari, e’tiqodlarini badnom etish, tazyiq o‘tkazishi mumkin bo‘lgan amaldor, mansabdor kimsalar oldidagi qo‘rqoqlik, jur’atsizlik, muayyan manfaatni ko‘zlab qilingan harakatlarning oqibatidir.

Yillarining boshi o‘z joyidan siljiganini sezgach, hindlar yillarini ishlatishga moyil bo‘ldilar. Ular ikkala yil o‘rtasidagi tafovutni Alloma o‘z asarlarida inson xulq-atvoriga putur etkazadigan yolg‘onchilikning ba’zi tomonlariga batafsil tuxtalib o‘tadi. Ulardan biri kishilar axloq-odobiga zid sanalgan g‘arazgo‘ylikdir. Ba’zi kishilarni o‘zidan boshqa odamlarning ko‘pchilik nazarida e’tibor qozonganliklari, yuqori martabaga, hurmat-extiromga sazovor bo‘lganliklari behuzur qiladi, xotirjamligiga putur etkazadi, o‘zi zabt eta olmagan kamolot cho‘qqisini boshqalar egallaganidan zavqlanmaydi, aksincha, ularga bo‘lgan nafrati kuchayadi, avj oladi. Bundaylar hayoti azob-uqubatlarga aylanadi, dardi chipqonga yuz tutadi. G‘arazgo‘ylik shunday bedavo dardki, undan inson axloqiy mijozini

[59] Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 11 - jild. Hindiston. -T. “Fan”. 1965. - B. 26.

tubdan isloh qilmasdan turib, qutilib olish o‘ta mushkuldir. U inson zotini tubanlik, ma’naviy halokat yoqasiga eltib, “ko‘rar ko‘zlarni ko‘r, eshitar quloqlarni kar qilib, aql e’tirof etmaydigan narsalarni qabul etishga chaqiradi[60]”

Abu Rayhon Beruniy har xil xalqlarning axloq-odobi, urf-odatlari, rasm-rusumlari, odamlar tuzilishlarining rang, surat, tabiat-mijoz va boshqalarda turlicha bo‘lishini tabiiy bir hol sifatida qabul qiladi. Ularni keltirib chiqaradigan omil va zaminlar quyidagilardan iborat:

1. Nasl-nasablarning turlicha bo‘lishi;

2. Tuproq, suv, havo va erning odam yashaydigan joylarining o‘ziga xosligi;

3. Axloq-odob bobida mavjud odatlarning barqaror an’ana maqomiga erishishi;

4. Din, har qanday mafkuraviy jarayonlar, shariat qonun-qoidalarining ta’siri.

Bunday kishilar xulq-atvori, axloq-odobini shakllantirishda shariat va odatlarning o‘rni beqiyosdir. Ular o‘rtasidagi farq shundan iboratki, har qanday odatning axloqiy me’yor talablariga mos kelish-kelmasligini hayotiy tajriba, aqliy dalillar orqali qidiriladi va o‘rganiladi. O‘rganish natijasida ular kishilar tomonidan qabul qilinadi va yoki rad etiladi. Ikkinchi yo‘l esa shariat buyruqlari bo‘lib, ularning boisi surishtirilmaydi, balki ko‘pchilik ularni taqlid yo‘li bilan qabul qiladilar. “Bu to‘g‘rida keltirilgan dalil va xujjatlar bir yomon erda tug‘ilib va shu erda turib, boshqa joyni ko‘rmay va boshqasiga ko‘chishni og‘ir ko‘rib, nochor tug‘ilgan joyini suygan kishining dalil va hujjatlaridan ortiq emas. Agar joylarning ortiq-kam ko‘rish diniy sabablar bilan bo‘ladigan bo‘lsa, bunga amal qiluvchilarning dillari o‘z joyini yaxshi ko‘radi; bu sevish odati ularga singib abadiy bo‘ladi”2, - deb uqtiradi Beruniy.

Umuman olganda, dinning kishilar axloq-odobi me’yor va mezonlarini tubdan o‘zgartirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Alloma hind xalqi urf-odatlari, xulq-atvorlari va ularning islom dinini qabul qilgan xalqlar qarashlaridan farqiga to‘xtalib, unga aslo taajjublanmaslik kerakligini uqtiradi. Uning ta’kidlashicha, johiliya va islom dinini qabul qilgan davrlardagi arablarning urf-odatlari va axloq-odobi bir xil emasligini izohlab o‘tadi. Ular johiliya davrida qizlarni tiriklayin ko‘mgan, hayz ko‘rgan va homilador bo‘lgan ayollarni o‘z nikohiga olgan, ibodatlari orasida xushtakbozlik va chapakbozlik qilgan, o‘limtiklarni egan bo‘lsalar, islom bunday rasm-rusumlarga barham bergan, kishilar xulq-atvorini takomillashtirgan.

Alloma nasroniy (xristian) dinining asosi yaxshilikka qurilgan bo‘lib, aslan kishini o‘ldirmaslik, bo‘ynidan ridosini tortib olgan kishiga ko‘ylagini echib berish, bir yuziga urgan kishiga ikkinchi yuzini tutib berish, dushman haqqiga yaxshilik bilan duo qilib va unga rahmat aytish kabi ishlarni ma’qul deb biladi. “Umrim bilan qasam ichib aytamanki, bu xildagi sifatlar juda ham yaxshidir[61]”, - deb yozadi u. Hindlarda ham shunga o‘xshash siyosat va harbiy tadbirlar brahmanlar qo‘lida bo‘lib, dunyoning vayronligi va intizomsizligiga sabab bo‘ldi, chunki ular aqliy yo‘l bilan tuzilgan diniy kitoblar taqozosiga qarab siyosat yurgizdilar”, - degan xulosaga keladi Beruniy.Shunday ekan, alloma bundan o‘n asr avval davlat va jamiyatni idora

[60] Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Qadimgi xalqlar qolgan yodgorliklar . - T. : 101 -b.

[61] Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 11 - jild. Hindiston. -T. “Fan”. 1965. - B.414.

qilishda pand-nasihatlar qanchalik darajada foydali va jozibali bo‘lmasin, har doim ham samarali natija bera olmasligini teran his qilgan tadqiqotchi edi. Buning uchun siyosat va axloq-odobning o‘zaro uyg‘unligi hal etuvchi omil ekanligiga alloma to‘la ishonch hosil qildi, desak xato qilmaymiz. Alloma siyosat va axloq-odob uyg‘unligini 976-981 va 998-1012 yillarda Xorazmda hukmronlik qilgan Qobus ibn Vashmgir timsolida ko‘radi. U hukmdorning yuksak axloqiy fazilatlari haqida fikr yuritib, ularni taqvodorlik, to‘g‘rilik, o‘zini saqlash, dindorlik, odillik, insof, kamtarlik, latofat, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, muloyimlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik, to‘g‘ri taxmin qila bilish, ezgu fikr, ezgu tilak, shafqat, mehribonlik, muruvvat kabi sifat va fazilatlardan iborat1 deb ko‘rsatadi..

Mutafakkir insonning axloqiy kamoloti, jamiyatning ma’naviy ravnaqiga to‘la ishonadi. Uningcha, odam jussasi, suratini o‘zgartirib bo‘lmaydi, chunki ular tabiiy jarayonlar, sharoitlar va ularning tadrijiy o‘zgarishlarining mahsulidir. Ammo uning qalbini, ichki dunyosini cheksiz bir tarzda isloh qilib borish, salbiy jihatlarini bartaraf etib, ijobiy tomonlariga keng yo‘l ochib borgan holda unda axloqiy fazilatlarni asta-sekin shakllantirib borish mumkin. Buning uchun esa, bir tomondan, aql-farosatli, hayotiy tajriba va amaliy ko‘nikmalarga boy dono murabbiy-tarbiyachi zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, tarbiyalanishning o‘zidan manfaatdor bo‘lgan tarbiyalanuvchi muhayyo bo‘lishi shartdir.

Inson xulq-atvoridagi kibru havo, manmanlik, takabburlik va faxrlanish bir-biridan tubdan farqlanishi lozim. Aslida kibru havo, manmanlik, takabburlik

Xullas, buyuk qomusiy olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari teran mazmun va mohiyatga ega bo‘lib, ular bizning fikrimizcha nafaqat hozirgi davr yosh avlodini, balki barcha davrlarda ham o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-ruhiy jihatdan tetik va barkamol insonlar bo‘lib tarbiyalanishiga hormay-tolmay xizmat qilishi shubhasizdir.

## ВЛИЯНИЕ НАСЛЕДИЯ АЛЬ-ХОРЕЗМИ НА СОВРЕМЕННЫЙ МИР

**Мирзаева Наргиза Беркиновна**
Научный руководитель ассистент кафедры
“Социально-гуманитарные дисциплины и физическое воспитание”.
Навоийский государственный горно-технологический университет
nargizaberkinovna@gmail.com
**Максимов Алексей Юрьевич**
Студент Навоийского государственного горно-технологического университета
alekseymaksimov435@gmail.com

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено влияние научных трактатов аль-Хорезми на информационные технологии и современный мир. Будет рассмотрена его биография, а также источники терминов «алгебра» и «алгоритм» и как эти два слова кардинально поменяли современный мир.

**Ключевые слова:** аль-Хорезми, информационные технологии, алгебра, алгоритм, история математики, научное наследие, влияние на науку, средневековая наука, цифровая эра, математические термины.

На территории Узбекистана проживали много талантливых людей. Среди них были отважные полководцы, поэты, астрономы, лекари и математики. Одним из основоположников современной математики является Абу Абдуллах Мухаммад ибн Муса ал-Хорезми, в честь которого назовут современную алгебру и определенные методы решения задач – алгоритмы. Ал-Хорезми родился в 783 году в Хорезме. Там он получил образование и к двадцати годам уже был известным ученным. Как и многие ученые того времени он работал в Багдадской Академии при халифе Маъмуне, был руководителем этого научного центра.

Исходя из различных источников он был автором около 20 научных трудов, среди которых больше всего выделяются: «Фи хисаб ал-Хинд» («Книга об индийском счете» (написана на арабском языке)) - сочинение, обосновывающее и излагающее десятичную позиционную систему счисления с девятью цифрами и знаком нуля и «Ал-Китаб ал- мухтасар фи хисаб ал-джабр вал-мукабала» («Краткая книга об исчислении алгебры и алмукабалы» (написана на арабском языке)) – сочинение, в котором алгебра была основана автором как наука и дано ей название. На Западе аль-Хорезми больше известен под именем Алгоритми, из которого появилось слово «алгоритм», которое употреблялось для обозначения четырех арифметических операций.

Аль Хорезми первый человек, который обосновал и ввёл в обиход десятичную позиционную систему счисления с девятью цифрами и знаком нуля, а также создал алгебру как науку, и дал ей название «ал- джабр».

Даже с учетом прошедшего времени, его труды являются фундаментом современных алгебры, геометрии и астрономии. Однако помимо вышеперечисленных наук, имя аль-Хорезми также связано и с миром информационных технологий. Понятие «алгоритм» лежит в основе всей современной цифровой информационной и компьютерной технологии. В нашу эпоху цифровизации мы каждый день того не замечая сталкиваемся с действием современных алгоритмов, без которых невозможно представить работу с компьютерными и глобальными сетями. Каждый язык программирования имеет свой алгоритм решения задач, каждая отрасль так или иначе связана с алгоритмами или по-другому с последовательностью определенных действий.

Так как аль-Хорезми все же связан с современными технологиями и причем тут алгоритмы?

Как было сказано раннее, он первым изложил в своих трактатах поочередный метод решения задач, в основном, квадратных уравнений. Позже, его «европейское» имя Алгоритми послужило началу применения термина «алгоритм» и «алгебра». Постепенно значение слова расширялось. Учёные начинали применять его не только к сугубо вычислительным, но и к другим математическим процедурам. Например, около 1360 г. французский философ Николай Орем написал математический трактат «Algorismus

proportionum» («Вычисление пропорций». В 1684 году Готфрид Лейбниц в сочинении «Nova Methodvs pro maximis et minimis, itemque tangentibus…» впервые использовал слово «алгоритм» (Algorithmo) в ещё более широком смысле: как систематический способ решения проблем дифференциального исчисления.

Пользовался словом алгоритм и Леонард Эйлер, одна из работ которого так и называется — «Использование нового алгоритма для решения проблемы Пелля» («De usu novi algorithmi in problemate Pelliano solvendo»). Понимание Эйлером алгоритма как синонима способа решения задачи уже очень близко к современному. По сути, сама алгебра строится на алгоритмах. Каждый пример имеет свой метод решения в зависимости от раздела алгебры. Но с эпохой цифровизации, во времена появления первых вычислительных машин, значение «алгоритма» расширилось. Теперь это понятный исполнителю набор правил для решения конкретного множества задач, который получает входные данные и возвращает результат за конечное время. Появление первых вычислительных машин также стимулировало исследование возможностей практического применения алгоритмов, использование которых, ввиду их трудоемкости, было ранее недоступно.

Алгоритмы начали делиться на линейные, разветвляющиеся и циклические. Линейные алгоритмы используются для решения простейших задач, в которых нет никаких дополнительных условий. Алгоритм выполняется прямо, шаг за шагом приближаясь к его завершению. Разветвленные алгоритмы уже используются для решения сложных задач, где выполнения определенного действия зависит от результатов предыдущего действия или определенных условий. Изображая на графике такой алгоритм принимает вид ветви, откуда и получил такое название. Циклический алгоритм может быть как линейным, так и ветвистым, но его основная суть в том, что его можно выполнять бесконечно, даже после получения результата. На таких алгоритмах построены все цифровизированные системы. Использование алгоритмов дает разработчикам записывать их в удобном виде, а с другой – дает компьютеру возможность понимать написанное. Такими средствами являются языки программирования или алгоритмические языки. Все гаджеты, вся техника, все программы, все электронное построено на таких малых, но строго последовательных действиях. Так простой ученый, изложивший последовательность действий решения квадратных уравнений стал неотъемлемой частью жизни каждого человека, использующего информационные технологии.

В память об аль-Хорезми в 2017 году по инициативе Президента Республики Узбекистан Ш. Мирзиёева его имя было присвоено Ташкентскому Университету Информационных Технологий (ТУИТ). В Хиве установлен памятник аль-Хорезми, где скульптор С. Бабаян изобразил математика в момент размышлений над трактатом. В столице Турции, в парке «Липовая долина», установлен памятник-бюст Аль-Хорезми, в рамках международной программы «Хива - культурная столица тюркского мира». Аль-Хорезми также

внес значительный вклад в развитие астрономии и географии, его работа «Зидж» демонстрирует развитие этих наук в странах Востока и Запада.

**Использованная литература**


1. Юшкевич А.П. «История математики в средние века». М., Физматгиз, 1961 г.
2. Сираждинов С.Х., Матвиевская Г.П. «Ал-Хорезми – выдающийся математик и астроном средневековья». М., Просвещение, 1983 г.
3. Абу Абдаллах Мухаммад ибн Муса ал-Хорезми. «Математические трактаты». Ташкент 1983 г.
4. Маджар Д. З. «Роль алгоритмов в программировании на современном этапе».


## FOROBIYNING IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI KONTEKSTIDA FAZILATLI JAMIYAT KONSEPSIYASINING TAHLILI


**Quvvatov Sardor Isomiddinovich,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi.
**A’zamova Sohiba,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari doirasida uning “fazilatli jamiyat” konsepsiyasi tahlil qilinadi. Forobiy, o‘z asarlarida, jamiyatning ideal holatga erishishi uchun aql, bilim, axloq va adolat tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi g‘oyasini ilgari suradi. Mutafakkirning g‘oyalari zamonaviy siyosiy va axloqiy tizimlar bilan solishtirilib, bugungi jamiyatlarda amaliy ahamiyati ko‘rsatiladi.



**Kalit so‘zlar:** Forobiy, fazilatli jamiyat, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, saodat, adolat, ma’naviyat, bilim, siyosat, falsafa, islohotlar.


Sharq Renessansining atoqli olimi, o‘z davri ilg‘or falsafiy fikrining asosiy jihatlarini o‘z ijodida bayon ettirgan mutafakkir Abu Nasr Forobiydir. Faylasuf islom falsafasining buyuk allomalaridan biri bo‘lib, uning ilmiy va falsafiy merosi, ayniqsa ijtimoiy tuzum va inson kamoloti to‘g‘risdagi qarashlari jahon ilm-fanida o‘zining beqiyos o‘rniga egaligi hech kimga sir emas. Chunonchi, uning “Fozil odamlar shahri” asari, Platonning “Davlat” asaridagi ideal davlat modeli bilan bog‘liq g‘oyalarni rivojlantirib, ijtimoiy, axloqiy va siyosiy masalalarni falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Forobiy, o‘zining nazariy g‘oyalarida, bashariyatning ko‘zlagan eng oliy maqsadi sifatida saodatga erishishni bayon qiladi va buni faqat bilim, fazilat, va axloq asosida qurilgan jamiyat orqali amalga oshirish mumkin deb tushunadi.

Forobiy, o‘z faoliyatida Platon va Aristotel falsafalaridan keng foydalangan va musulmon Sharq falsafasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning metodologik asoslari — bu aql va bilimning jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarni boshqarishda markaziy o‘rni haqidagi qarashlardir. Forobiy fikricha, tafakkur -

fikrlash quvvati baxt-saodatga yetishni maqsad qilar ekan, u intilish quvvatiga farmon beradi, fikrlash quvvati tasavvur yordamida baxt-saodatga yetishuv uchun qanday ish-harakatlar qilish zarurligini bilib oladi.[62]

Forobiyning asarlaridagi asosiy metodologik yondashuvi shuni ko‘rsatadi-ki, u jamiyatdagi adolat, axloq va bilimni tafakkurning mustahkam asosida deb biladi. Shu bilan birga, Forobiy ijtimoiy tizimni, uning barcha qatlamlarini bir-biriga bog‘lab, barcha a’zolarining umumiy maqsadga — baxt va saodatga erishishiga intilishlari zarurligini ta’kidlaydi.

Forobiy falsafasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u jamiyatni fazilatli (ideal) va nodon (johil) deb ikki asosiy jabhaga ajratganini ko‘rishimiz mumkin. Uning fikricha, fazilatli jamiyatda har bir shaxs o‘zining maqsadlariga erishish uchun faqat bilimga va axloqqa tayanishi lozim. Shuningdek, mutafakkirning adolatli ideal jamiyatida lishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga, ularning aql-zakovatiga, fazilatli axloq-odobiga, hayotiy tajribasiga yuksak baho beriladi[63]. Bu jamiyatda har bir kishi o‘zining vazifasini bilishi va umumiy ijtimoiy g‘oyani amalga oshirish uchun birlashishi kerak. Forobiy, “Fozil odamlar shahri” asarida, jamiyatni oliy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan a’zolar va ularning vazifalarini aniq tavsiflaydi: birinchidan, rahbarlik fazilati – jamiyat rahbari, ilmli va axloqli bo‘lishi kerak. Forobiyga ko‘ra, rahbar boshqalariga axloqiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solishi lozim. Ikkinchidan, ijtimoiy qatlamlar tizimi – jamiyatni turli qatlamlarga bo‘lish, har bir qatlamning o‘z maqsadlariga erishishini ta’minlaydi. Forobiy ijtimoiy qatlamlarni, ularning jamiyatdagi o‘rni va funksiyalarini keltiradi va bu har bir qatlamning o‘z vazifasini bajarishini zarur deb biladi. Shuningdek, ma’naviy birlik va umumiy maqsad – Fazilatli jamiyat a’zolari umumiy maqsadga intilishlari kerak. Forobiy, bu maqsadni insoniyatning oliy baxtiga, ya’ni saodatga erishish deb ta’kidlaydi[64].

Shu tariqa, Forobiyning fazilatli jamiyat modeli, faqat axloqiy yoki falsafiy tuzum emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari o‘zaro hamjihatlikda faoliyat yuritishi lozim bo‘lgan ideal tizim sifatida ko‘riladi.

Forobiy fikricha, kishilarning jamiyatga birlashishi urushlar va kuch ishlatish natijasida hamda odamlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishlari tufayli kelib chiqadi. U kishilarning mavjudligi va kamolot topishi uchun zarurdir. Jamiyat turli xalqlardan tashkil topadi. Xalqlarning o‘ziga xos fe’l-atvorlari va xislatlarini Forobiy u yoki bu xalq yashayotgan jo‘g‘rofiy sharoit xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda tushuntiradi. Forobiy shahar-davlatlarni fozil yoki orzudagi va johilga bo‘ladi. Orzudagisi – bu shunday shaharki, u aholisining o‘zaro hamkorligi asosida mavjuddir. Shahar-davlatning ichki va tashqi vazifalari bor. Tashqi vazifasi – bu shahar mudofaasini tashkil qilish va uni tashqi hujumlardan saqlash. Ichki vazifasi – uning aholisining baxt-saodatini ta’minlash. Forobiy boshqaruvning uch shaklini ko‘rsatib o‘tadi: yakka hokimlik, oz sonli kishilar guruhining boshqaruvi, xalq tomonidan saylangan eng loyiq shaxsning hokimiyati. Bunda Forobiy uchun

[62] Abu Nasr Forobiy, Fozil odamlar shahri. T.: 2016, B-232
[63] Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. T.: 2004. B-116
[64] Falsafa asoslari, o‘quv qo‘llanma. T.: 2018. B-40

hal qiluvchi narsa, boshqaruv shakllarining o‘zigina emas, balki uning sog‘lom aqlga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligidir.

Kamolotning yuqori cho‘qqisiga erishgan jamiyatlarda kasb-hunarni ozodona tanlash imkoniyati bor. Bu yerda yakkahokimlik yo‘q bo‘lib, haqiqiy ozodlik va tenghuquqlik hukmronlik qiladi. Bunday shaharlarning aholisi o‘z boshlig‘ini saylaydi, ammo uni har qachon hokimiyatdan mahrum qilishi ham mumkin. Bunday shaharlarning boshliqlari o‘z faoliyatlarida adolatlilik, teng huquqlik va umumiy farovonlik qoidasidan kelib chiqadilar. Boshliq – bu o‘ziga xos muallim bo‘lib, o‘z o‘quvchilarini bilim olishga va baxt-saodatga erishish yo‘llarini o‘zlashtirishga o‘rgatadi

Davlat va jamiyatning pirovard maqsadi bo‘lgan umumiy baxt-saodatga erishish muammosi Forobiy ta’limotida muhim o‘rin tutadi. Bunga yo‘l – ilm-fan va ta’lim-tarbiyadir. Haqiqiy baxt-saodatga bilimlarni egallash yo‘li vositasida erishiladi. Haqiqiy baxtga shundagina erishiladiki, qachonki, har kanday yomonlik bartaraf qilinib, kishining ruhi va aqli o‘zining mohiyatlarini va barcha xayrli, ezgu ishlarni bilishda eng yuqori saviyaga erishib-abadiylikka dahldor bo‘lgan dunyoviy aql bilan qo‘shilib ketsa[65].

Forobiyning fazilatli jamiyat modelini zamonaviy jamiyatlarga nisbatan tahlil qilish, uning qarashlarining hozirgi ijtimoiy inqirozlar va axloqiy savol-masalalarga qanday javob bera olishiga ko‘p imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, Forobiyning jamiyatni aql va bilim asosida boshqarish haqidagi g‘oyasi, bugungi kunda jamiyatni boshqarishda intellektual va ma’naviy yetakchilikning muhimligini ta’kidlaydi. Zamonaviy siyosatshunoslikda ham aqlning ustuvorligi va bilimdon boshqaruv tushunchasi, Forobiy tomonidan ilgari surilgan ideal jamiyat modeliga yaqinlashishga intilmoqda.

Forobiy, ijtimoiy muammolarni tahlil qilishda, bilim va axloqning jamiyatning asosiy tashkilotchilari bo‘lishi zarurligini ta’kidlagan. Oliy axloqiy fazilatlar deganda Forobiy hatti-harakatlarda namoyon bo‘luvchi bilimdonlik, donolik va mulohazali, vijdonli, kamtar bo‘’ish, ko‘pchilik maqsadlarini o‘z shaxsiy maqsadidan yuqori qo‘yish, haqiqatga, muhabbat, ma’naviy yuksalishga intilish, adolatni sevish kabilarni tushunadi, salbiy axloqiy xislatlarni: johillik, ayyorlik, yolg‘onchilik, adolatsizlik, zolimlik, xasislik, ochko‘zlik, boylikka intilish, turli hirslarga berilishni qoralaydi.[66] Bu qarashlar hozirgi kunning global inqirozlari, axloqiy zarbalari va ta’lim tizimidagi zaifliklar fonida o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Bugungi kunda, Forobiyning fazilatli jamiyat konsepsiyasi, ko‘plab ijtimoiy, siyosiy va axloqiy islohotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Hozirgi zamon jamiyatlarida ta’lim, ma’naviyat, va axloq o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, Forobiyning g‘oyalariga asoslanadi. Zamonaviy siyosiy tizimlarda adolat va bilim asosida boshqaruvni, jamiyatni mustahkamlash uchun yana bir imkoniyat sifatida qarash mumkin.

---

[65] Axmedova M, Falsafa. Darslik . T.: 2005. B-63

[66] Xayrullayev M, Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. T.: 1971. B-262-263

Forobiyning fazilatli jamiyat modeli, ayniqsa, global inqirozlar, ijtimoiy adolatsizliklar va axloqiy muammolarni hal qilishda g‘oyaviy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ayniqsa, fazilatli jamiyat modeli, o‘z davrida ilgari surilganidek, bugungi kunda ham o‘zining nazariy va amaliy ahamiyatini saqlab qolgan. Uning fikricha, jamiyatning asosiy vazifasi — bu insonlarning baxt va saodatga erishishini ta’minlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun bilim, axloq va ma’naviyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash zarur. Forobiyning merosi, ayniqsa, ijtimoiy islohotlar, ta’lim tizimlari va axloqiy qadriyatlarni tiklash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abu Nasr Forobiy, Fozil odamlar shahri. T.: 2016, B-232
2. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. T.: 2004. B-116
3. Falsafa asoslari, o‘quv qo‘llanma. T.: 2018. B-40
4. Axmedova M, Falsafa. Darslik . T.: 2005. B-63
5. Xayrullayev M, Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. T.: 1971. B-262-263


## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DAVLAT BOSHQARUVIDA SHAXS VA JAMIYAT MUNOSABATLARINING FALSAFIY TAHLILI


**Buxarov Sherali Xamitovich**
**Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi**



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur davlat boshqaruvi konsepsiyasida shaxs va jamiyat munosabatlarining qanday falsafiy asoslarda qurilganini ilmiy manba va tarixiy dalillarga tayangan holda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Boburning qarashlari ijtimoiy adolat, ma’naviy javobgarlik, axloqiy yetuklik va siyosiy donishmandlik nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Shu orqali Bobur merosining zamonaviy ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ham ochib beriladi.



**Kalit so‘zlar:** Bobur, davlat boshqaruvi, shaxs va jamiyat, adolat, hukmdor, fuqaro, ijtimoiy munosabatlar, tolerantlik, falsafa, “Boburnoma”.


Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) - o‘z davrining har tomonlama yetuk siymolaridan biri bo‘lib, u nafaqat yirik harbiy va siyosiy arbob, balki chuqur tafakkur sohibi, adabiyot va madaniyat namoyandasi sifatida ham tarixda o‘chmas iz qoldirgan. U tomonidan barpo etilgan Boburiylar saltanati, davlat tuzilishi va boshqaruv tizimi jihatidan zamonaviy siyosiy tafakkur nuqtayi nazaridan o‘rganishga arzigulik tarixiy voqelikdir. Ayniqsa, Boburning davlatni boshqarishdagi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga doir falsafiy qarashlari, uning siyosiy qarorlarida va amaliy faoliyatida markaziy o‘rin tutgan.

Shaxs va jamiyat dialektikasi masalasi, qadimdan beri Sharq va G‘arb falsafasining markaziy muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Bobur bu masalaga o‘zining tarixiy tajribasi va falsafiy dunyoqarashi asosida yondashgan. Uning qarashlari, ayniqsa, “Boburnoma” asarida va boshqa tarixiy manbalarda aniq

ifodasini topadi. Bobur shaxsning axloqiy barkamolligini davlat barqarorligining tayanchi sifatida ko‘radi. Shu jihatdan, u hukmdorni faqat siyosiy kuch emas, balki ijtimoiy ongni yo‘naltiruvchi axloqiy-madaniy yetakchi sifatida ham talqin etadi.[1]

Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy-falsafiy qarashlari markazida adolat tamoyili turadi. U hukmdorni nafaqat siyosiy hokimiyat egasi, balki xalqning axloqiy ideali deb ko‘radi. Boburning fikricha, podshoh - bu “xalqning otasi”. Uning asosiy vazifasi esa fuqarolarning omonligi, mol-mulki va insoniy qadr-qimmatini himoya qilishdir.[2] Ushbu yondashuv qadimgi Sharq siyosiy falsafasidagi - xususan, Farobiy va Nizomulmulk ta’limotlaridagi ideal hukmdor modeliga yaqin turadi. Masalan, Farobiy o‘zining “Fozil odamar shahri” asarida hukmdorni “insoniyat kamoloti uchun xizmat qiluvchi axloqiy rahnamo” sifatida talqin etgan.

Boburnomada keltirilgan ayrim voqealar - masalan, Andijonda sodir bo‘lgan o‘g‘irlik holati bo‘yicha Boburning shaxsan aralashuvi - hukmdorning bevosita adolatni tiklashga mas’ul bo‘lganini ko‘rsatadi. U shunchaki qonunni qo‘llovchi emas, balki ijtimoiy adolatni ta’minlovchi faol arbob sifatida ko‘rinadi. Bu nuqtada Bobur Temuriy siyosiy an’analarida muhim o‘rin tutuvchi “tuzuklar”ga tayanadi.[3] Shu bilan ularni shariat va mahalliy odatlar bilan aynanlashtirishga harakat qiladi.

Adolat Bobur nazarida, faqat jazoga asoslangan tartib emas, balki insoniylikni saqlab qolish, tenglikni ta’minlash va jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni tiklash vositasidir. Bu yondashuv Boburning gumanistik siyosiy dunyoqarashini namoyon etadi. Gumanistik yondashuv esa, u davr uchun odatiy bo‘lmagan tarzda, hukmdorning xalq oldidagi axloqiy javobgarligini ilgari suradi. Bu Boburda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy ijtimoiy shartnoma g‘oyasining mavjudligini ko‘rsatadi. Bu fikr esa keyinchalik J.J. Russo va Tomas Gobbs singari faylasuflar tomonidan nazariy jihatdan asoslangan edi.

Shunday qilib, Bobur davlat boshqaruvida faol ishtirok etuvchi, axloqiy jihatdan javobgar hukmdor modelini taklif etadi. Uning adolatga asoslangan siyosiy falsafasi ijtimoiy barqarorlikni, fuqarolik ishonchini va jamiyatdagi axloqiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur boshqargan davr jamiyati murakkab va ko‘p qatlamli ijtimoiy-siyosiy tuzilishga ega edi. Uning nazarida davlat - bu faqat hukmronlik emas, balki ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlovchi axloqiy va ma’naviy tizimdir. Bobur shaxsni bu tizimning faol elementi sifatida ko‘rgan. Unga ko‘ra, har bir inson - kelib chiqishi, diniy mansubligi yoki ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar - jamiyatda o‘ziga xos huquq va mas’uliyatga ega bo‘lishi kerak.[4]

Bobur davlat boshqaruvida meritokratik yondashuvni afzal ko‘rdi. U amaldorlarni tanlashda nasab emas, balki aql-zakovat, sadoqat va adolat mezonlariga tayanar edi. Bu - shaxsni davlat oldida axloqiy va funksional subyekt sifatida tan olishga asoslangan yondashuvdir. Bu yerda biz Aflotunning “ideal davlat” konsepsiyasi bilan Bobur qarashlari orasida muayyan yaqinlikni ko‘rishimiz mumkin: har bir fuqaro o‘z “tabiiy qobiliyati” asosida jamiyatdagi o‘rnini topishi lozim.

Bobur xilma-xil etnik va diniy tarkibga ega bo‘lgan jamiyatda muvozanatni saqlash uchun inklyuziv boshqaruv tizimini yaratdi. U turk, mo‘g‘ul, fors va hind unsurlarini siyosiy apparatga jalb qilish orqali ijtimoiy integratsiyaga erishishga

harakat qildi. Bu esa Immanuil Kant ta’kidlaganidek, “insoniyatni maqsad sifatida ko‘rish” prinsipiga yaqinlashadi - ya’ni shaxs instrumental vosita emas, balki mustaqil qiymatga ega mavjudot sifatida e’tirof etiladi. Boburning bu yondashuvi ayniqsa Hindiston kabi murakkab ijtimoiy tarkibga ega mintaqada ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyat, ishonch va hurmatga asoslangan munosabat Bobur merosining asosiy ustunidir.

Shu bilan birga Bobur davlatchiligida din va an’analar ijtimoiy hayotning barqarorlik ustunlari sifatida ko‘rilgan bo‘lsa-da, ular shaxs erkinligini bo‘g‘uvchi kuch emas, balki uni ma’naviy asosda yo‘naltiruvchi vosita sifatida talqin qilingan. Boburning boshqaruv falsafasida shaxs erkinligi bilan diniy va an’anaviy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik markaziy o‘rinni egallaydi. Uning siyosiy va axloqiy qarashlarida biz Aristotelning “oltin o‘rtalik” prinsipiga yaqin yondashuvni kuzatamiz: haddan oshmaslik, muvozanat va ahillik.

Bobur o‘z zamonasining dinlararo murakkabliklariga qarshi kuch ishlatish yoki majburlov asosida emas, balki diniy bag‘rikenglik orqali murosa yo‘lini tutdi. U islom e’tiqodida bo‘lishiga qaramay, o‘z davlati hududida yashovchi hindu, jayn, xristian, buddist va boshqa e’tiqod vakillariga o‘z diniy amallarini erkin ado etish imkonini berdi.[5]

Boburning tolerantlik siyosati shunchaki siyosiy pragmatizm mahsuli emas, balki ma’naviy-madaniy g‘oya bilan yo‘g‘rilgan chuqur tafakkur mahsuli edi. “Boburnoma”dagi etnografik kuzatishlar - turli xalqlarning odatlari, urf-odatlari va yashash tarziga nisbatan qiziqish - uning jamiyatdagi xilma-xillikni qadrlaganini va bu xilma-xillikni kuchli davlat asosiga aylantirishga intilganini ko‘rsatadi. Bu jihat Bobur davlatini nafaqat siyosiy markaz, balki madaniyatlar va g‘oyalar sinteziga asoslangan ma’naviy markazga aylantirdi.[6]

Bobur dinni jamiyatning axloqiy mezonlarini belgilovchi asos sifatida qabul qilgan. Ammo bu mezonlar shaxs ongini tobelikka emas, ongli tanlovga yo‘naltirishi kerak edi. Shaxs erkinligi, uning fikr, e’tiqod va ijodda mustaqil bo‘lishi Bobur qarashlarida yuksak qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. U shaxsni bir yoqlama majburiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy ong va axloqiy ong uyg‘unligida tarbiyalashga intilgan.

Boburning o‘zi ham shaxsiy misol tariqasida ilm-fan, adabiyot va san’atni qadrlagan. Uning she’riyatga, tarixga va tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi hukmdor shaxsida ma’rifatparvarlik va ijodkorlik uyg‘unligini ko‘rsatadi. Bu esa davlat boshqaruvida din va an’anani qattiq nazorat vositasi emas, balki insoniylik va ongli hayotni tarbiyalovchi ijtimoiy mexanizm sifatida ko‘rishga imkon bergan.

Xulosa qilib aytganda, Bobur o‘z davrida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni falsafiy asosda idrok etgan, bu esa uning davlatini ijtimoiy barqarorlik, adolat va madaniy uyg‘unlikka asoslangan boshqaruv modeliga aylantirgan. Uning qarashlari nafaqat o‘z zamonasida, balki bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ideal muvozanatni izlovchi falsafiy izlanishlar uchun boy manbadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bobur Z. M. Boburnoma. Toshkent: Sharq. 2002.

2. Abdurahmonov M. Boburning davlatchilik ta’limoti. -Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007.

3. Hasanov A. Buyuk davlat arbobi Bobur. -Toshkent: “Fan”, 2000.

4. Erkinov A. Temuriylar davri madaniyati va ma’rifati. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.

5. Foltz, R. C. (2010). Mughal India and Central Asia. New Delhi: Oxford University Press.

6. Dale, S. F. (2004). The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483-1530). Leiden: Brill.

## BOBURIYLAR TARIXINI U.ERSKIN TOMONIDAN YORITILIShI

**To‘g‘izov Nurullo Xudoyorovich**
Sh.Rashidov nomidagi SamDU mustaqil tadqiqotchisi

Boburiylar sulolasi hukmronligi Markaziy va Janubiy Osiyo sivilizasiyasida alohida o‘rin tutadi. Bugungi Afg‘oniston, Hindiston va Pokiston mamlakatlarining tarixining muhim qismi sifatida - e’tirof etiladigan bu sulola tarixi tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan sohaga aylangan. Hatto Buyuk Britaniya tarixi fanida bobur shunoslik alohida tadqiqot obyektiga sifatida shakllangan[67]. Buyuk Britaniyada Boburiylar ilmiy merosi bilan shug‘ullangan sharqshunos, tarixchi olim Uilyam Erskin (1773-1852) hisoblanadi. U.Erskin sharq tillaridan fors tilini mukammal bilgan va temuriylar sulolasi tarixini puxta o‘zlashtirgan. Tadqiqotlarida temuriylar tarixiga oid “Tabokati Akbariy”, “Tarixi Rashidiy”, “Xulosat-ul–tavorix”, “Shajarat-ul-Atrok” kabi asarlarning qo‘lyozmalaridan keng foydalangan. Uning shaxsiy kutubxonasida 200dan ortiq mana shunday noyob tarixiy asarlar mavjud bo‘lganligini qayd etishadi[68]. U.Erskin “Boburnomani”ni 1809 yilda ingliz tarjimoni Jon Leyden(1775-1811) boshlagan tarjimasini 1816 yilda tugatadi[69].

Hindiston o‘lkasi tarixini uch davrga ajratar ekan, birinchi davrni - eng qadimgi davrdan boshlanib Maxmud G‘aznaviyning Hindistonni zabt etgangacha bo‘lgan vaqtga ajratadi. Ikkinchi davrni - “Ilk musulmonchilik davri” deb atab, Maxmud G‘aznaviy istilosidan boshlanib, ya’ni 1021dan to Boburning Hindistonni zabt etishgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi davr uning fikricha “Boburning g‘olibona yurishlaridan boshlab, temuriylar saltanatining keyingi 332 yillik davrini o‘z ichiga oladi[70]. U.Erskin o‘z tadqiqotlarida asosan 3-davr tarixini obyektiv yoritishga harakat qiladi. Dastlab Bobur ajdodlarini tarixini bayon etishdan boshlar ekan, “Tatar deb ataladigan qabilalar tarixan uchta ulkan irqqa bo‘linadi va ular bir-biridan urf-odatlari, tili va

[67] Сотимов Ғ. Шоҳ ва шоир салтанати // Л.П.Шарма Бобурийлар салтанати. – Т.:Маънавият, 1998. –Б.3-5.
[68] Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Инглизчадан Ҳ.Сотимов тарж. Тошкент: Чўлпон, 1995. –Б.3.
[69] Харди П. Муаллиф ҳақида // Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Инглизчадан Ҳ.Сотимов тарж. Тошкент: Чўлпон, 1995. –Б.4.
[70] Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Инглизчадан Ҳ.Сотимов тарж. Тошкент: Чўлпон, 1995. –Б.5.

turmush tarzi bilan farqlanadi" - deydi[71]". Ularni tunguslar yoki manjurlar; mo‘g‘ullar va turklar deb ajratadi. Turklar son jihatidan ko‘p bo‘lib, ular ulkan hududlarni egallab olganligini quyidagicha bayon etadi: "Ular juda ko‘p asrlar davomida Gobi cho‘llari va g‘arbiy Mo‘g‘uliston, janubda Qashg‘ar va Pomir tog‘larigacha, Xuroson, Kaspiy va Qora dengizlarigacha, g‘arbda esa Don va Volga bo‘ylarigacha, shimolda esa Sibirgacha bo‘lgan ulkan hududlarni egallab yashaganlar"[72].

U.Erskin "Boburning taxtga chiqishi va Movarounnahrdan quvilishigacha bo‘lib o‘tgan voqealar" bo‘limida Boburning tug‘ilishidan boshlab 1500 yilgacha bo‘lgan voqealarni batafsil yoritib beradi. Asarda "Samarqandning ikkinchi bor olinish va boy berilishi", "Qobulning olinishi. Boburning Qobul va Mavarounnahrdagi sarguzashtlari", "Xuroson safari, Xon Mirzo isyoni", "Qandahorni olinishi va boy berilishi. Mo‘g‘ullar isyoni", "Shoh Ismoil va Shayboniy. Bobur Movarounnahrda", "Arg‘unlar Kandaxorda", "Bobur shoh Hindistonda. Hindistonning olinish. Panipatdagi jang", "Rona Sanga urushlari. Chandiriydagi urushlar", "Boburning Gang qirg‘oqlaridagi yurishlar", "Boburning xastaligi va vafoti", "Boburning oilasi", "Bobur shoh qo‘l ostidagi o‘lkalar" kabi paragraflarda mutafakkir shoir va olim , hukmdor Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatini obyektiv yoritib beradi.

Boburning fazilatlarni bayon etar ekan, U.Erskin undagi noyob iste'dod va qobiliyatlarni alohida ta'kidlaydi. Boburning Samarqandda Shayboniyxon bilan olib borgan janglarini bayon etar ekan, shunday deydi: "Bobur bu paytda o‘n sakkiz yoshda bo‘lishiga qaramay,....o‘zining baxodirona ruhi va uzoqni ko‘ra bilishi(nozik didi) tufayli bu g‘alabani qo‘lga kiritadi"[73]. Voqyealarni bayon etishda U.Erskin "Boburnoma"dan ko‘p iqtiboslarni keltiradi. Boburni Samarqandni ikkinchi marta qo‘lga kiritishdagi qaltis vaziyatda o‘ta ziyraklik bilan oqilona (ratsional) yo‘l tutganini quyidagicha bayon etadi: Bobur o‘zini buyuk poytaxt taxtida ko‘rib turgan bo‘lsa ham, hali qiladigan ishlari juda ko‘p edi. Uning g‘animi kuchli edi, mamlakat esa tarqoq holda, uning qo‘shini juda oz edi. Xayriyatki, u vaziyatni yaxshi tushunardi. Vaziyatni yaqqol ko‘rish uchun, tarafdorlari va raqib harakatini o‘z ko‘zi bilan kuzatish uchun shahar tashqarisiga chiqib, bog‘saroyga joylashdi.Yerlik aholi bu yerda uni mamnuniyat bilan kutib oldi.

Boburdagi xarizmatik qobiliyatida ratsionallikdan tashqari shaxsiy ibrat, namuna ko‘rsatish fazilatlarini ham ta'kidlab o‘tadi. "U har safar ham qiyinchiliklarni o‘z odamlari bilan birga barham ko‘rishni maqul ko‘rar edi"[74].

Muallif Boburning jismonan baquvvatligi uning mohir sarkarda bo‘lib yetishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan, degan fikrni ilgari suradi. "Bobur baquvvat gavdali, o‘rta bo‘ydan yuqoriroq kishi bo‘lib, jismoniy harakat talab qiladigan o‘yinlarni yaxshi ko‘rar, o‘tkir mergan va mohir qilichboz edi. Juda ko‘p hollarda u shijoatini anmoyish qilar va yakkama-yakka jangda raqibidan ustun chiqardi. Uning gavdasi shu darajada baquvvat ediki, aytishlaricha, ba'zan har

[71] Ўша асар. –Б.3.
[72] Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Инглизчадан Ҳ.Сотимов тарж. Тошкент: Чўлпон, 1995. –Б.6.
[73] Ўша манба. -Б.24.
[74] Ўша манба. –Б.46.

ikkala qo‘ltig‘iga ikki kishini qisib olib, qal’a devori ustida aylanib yurar va shu tarzda yo‘ldagi to‘siqlardan o‘tar edi”[75]. Uzoq qarindoshi bo‘lmish Abdurazzoq boshchiligida mo‘g‘ul lashkarlarining Boburga qilgan isyonini yoritar ekan, shunday deydi: “G‘ayrat-shijoatli sarkarda, baqquvvat va epchil qilichboz bo‘lgan Bobur o‘ziga yaqin navkarlarini olib ularga qarshi qilich yalang‘ochladi. Yakkama-yakka jangda mo‘g‘ul beklaridan beshtasini yer tishlatdi”[76].

Temuriylardagi bunyodkorlik va yaratuvchanlik fazilatini Mirzo Boburda ham mavjudligini bayon etar ekan shunday deydi: “Boburning qoniga go‘zallikni va san’at asarlarini qadrlash xususiyati singgan bo‘lib, ular orasida me’morchilik va bog‘ yaratish san’ati alohida o‘rin egallaydi”[77]. U.Erskin Bobur va boburiylar yaratgan me’moriy obidalar va bog‘lar xususida ham batafsil to‘xtalib o‘tadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz sharqshunosi U.Erskin Hindiston tarixida mustahkam markazlashgan davlatchilikning vujudga kelishi va unda rivojlanish hamda madaniy yuksalish hukm surganligi bu boburiy xukmronligi davriga to‘g‘ri keladi degan xulosasi haqli edi. Darhaqiqat kichik va tarqoq hind mulklarini birlashtirib, ulkan imperiyani bunyod etishni Temurning zurriyodi Bobur va uning vorislari amalga oshirdi.

## TASAVVUF VA FUTUVVAT TA’LIMOTLARINING ZAMONAVIY MA’NAVIY TARBIYADA O‘RNI

Rabbimova Feruza Shamsiddinovna
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
Email: rabbimovaferuza75@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada tasavvuf va futuvvat ta’limotlarining falsafiy xususiyatlari hamda ularning o‘zaro umumiy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, futuvvat va tasavvufiy qarashlar asosida yosh avlod kamolotga erishishida umuminsoniy qadriyatlarga xos bo‘lgan bag‘rikenglik, hurfikrlilik, adolatlilik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi gumanistik g‘oyalarni ma’rifatli jamiyat taraqqiyotida altruistik mazmunini ilmiy-nazariy tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** islom dini, tasavvuf, futuvvat, Movaraunnahr, odob-ahloq, insoniylik, ma’naviy-ruhiy vosita.

IX–XII asrlar davrida islom dini nafaqat e’tiqodiy tizim sifatida, balki jamiyatning mafkuraviy asosiga aylanish darajasiga ko‘tarildi. Bu davrda islom tamoyillariga tayanib shakllangan tasavvuf va futuvvat ta’limotlari nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyatni ma’naviy yuksaltirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan, Markaziy Osiyoda bu g‘oyalar keng yoyilib, chuqur ijtimoiy-ma’naviy harakat tusini oldi. Bu borada Yusuf Hamadoniy Buxoro ilmiy-madaniy muhitida tasavvufiy qarashlarni rivojlantirib, keyinchalik Xo‘ja Axmad Yassaviy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro kabi ulug‘ mutasavviflar

[75]Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Инглизчадан Ҳ.Сотимов тарж. Тошкент: Чўлпон, 1995. –Б.107.
[76] Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Инглизчадан Ҳ.Сотимов тарж. Тошкент: Чўлпон, 1995. –Б.53.
[77] Ўша манба. –Б.104.

orqali bu ta’limot mintaqada mustahkam ijtimoiy-ma’naviy tizimga aylandi. Ularning shogirdlari tomonidan turli tariqatlar asos solinib, bu oqimlar orqali insonning ichki poklanishi, axloqiy barkamollikka intilishi va ruhiy-axloqiy yetuklik ideal sifatida ilgari surildi.

Shu bilan birga, IX–XII asrlarda Movarounnahr butun musulmon olamida ilm-fan, madaniyat va dini tafakkur markaziga aylandi. Bu yerda hadis ilmi va fiqhshunoslik keng rivoj topib, ushbu fanlarga oid chuqur ilmiy-nazariy asarlar yaratildi. Bu holat, o‘z navbatida, tasavvufiy va futuvvat g‘oyalari bilan uyg‘unlashib, jamiyatning axloqiy-ruhiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Tarixiy voqelik shundan dalolat beradiki, musulmon Sharq Uyg‘onishining birinchi bosqichi deb nom olgan IX asrning oxiri va X asrdan boshlab Turon zaminda futuvvat ilmi javonmardlik tariqati keng yoyilgan va ommaviy tus olgan edi. Uning asosini oddiy raiyat ichidan chiqqan hunarmandlar, san’atkorlar, dorbozlar, qiziqchilar, sipohiylar, pahlavonlar va shu kabi el-ulusning barcha toifa vakillari tashkil etgan edi.

Movarounnahrda futuvvat ta’limoti ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi, nisbatan katta qismi tasavvuf g‘oyalariga yaqin g‘oyalarni targ‘ib etib, aksariyat bo‘ydoq o‘tishgan. Tasavvuf g‘oyalariga yaqin g‘oyalarni targ‘ib etgan futuvvat vakillari birgalikda hayot kechirganlar. Futuvvat ahlining muhiti ma’lum shahar va hududlarda keng tarqalgan bo‘lib, har bir shaharda birodarliklar mavjud edi, qayerga sayohat qilishsa, ular bir-birlarini kutib olganlar. Arab sayyohi Ibn Batuta “Sayohatnoma” kitobida “Men dunyoni kezib javonmardlardan ko‘ra ezgu niyatli va ezgu xulqli kishilarni ko‘rmadim. Sheroz va Isfahon mardlari o‘zlarini javonmardlariga o‘xshatishsalar-da, ammo ular (ya’ni Xorazm va Movarounnahrning javonmardlari) g‘arib-musofirlarni siylash va mehmondorchilikda ulardan baland turadilar. Ularni Iroqda shotir, Xurosonda sarbador, Mag‘rib(Andoliya)da sukra (‘’sukra’’-mast demak) deyishadi. Ularga tobe’ joylarda adolat rasmi shunday rivojlanganki, ularning lashkargohlari, uylari ostonasida oltin va kumush tangalar yerga sochilib yotadi va egasi topilmaguncha hech kim bu pullarga tegmaydi” deb keltiradi **[1,105].**

Futuvvat-javonmardlik inson ruhini tarbiyalash orqali komil insonni shakllantirishga qaratilgan ilm bo‘lib, tasavvuf va tavhid ilmidan ozuqa oladi, ularning hayotiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu haqda Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida “*Birta o‘tmakni ikki bo‘lub, yarmin bir ochg‘a berganni saxiy de; o‘zi yemay barin muhtojga berganni axiy de*” **[2,79]** kabi jumlani keltiradi. Husayin Voiz Koshifiy o‘zini javonmard deb birinchi bel bog‘laganlar o‘n yetti kishi deb aytgan, ular quyidagilar: Salmon Forsiy, Abuzar G‘afforiy, Ammor Yozar, Mindor Asvad, Husann Sobit, Abubayd Jarroh, Jobir Ansoriy, Suhayil Yamaniy, Muslim Shakkiy, Malik Attor, Dovud Misriy, Suhayil Rumiy, Amru bin Umiya, Sayf Yamaniy, Qanbar Ali, Javonmard Qassob, Abu Muhanjon. Xuroson, Iroq, Movarounnahr ahlining futuvvat vakillari Salmon Forsiyga borib taqaladi **[3,202]**. Ya’ni, Islom olamida har bir beli bog‘langan kishi komil, mard hisoblangan.

Movarounnahr javonmardlari muayyan tartib, qoida-talablarga rioya etganlar, nima ish bilan shug‘ullanmasinlar, mardlik va oliyjanoblik namunasini ko‘rsatganlar.Ularning har birini o‘z jamoasi, piri-ustozi, ta’lim beruvchi

murshidlari, to‘planadigan joylari bo‘lgan. Pirga qo‘l bergan va ustoz oldida axd-u paymon qilib, mardlik belbog‘ini beliga bog‘lagan javonmard-shogird bir umr ahdiga sodiq qolishga intilgan.

Ta’limotning oliyjanoblik, ijtimoiy ideallik va insoniy fazilatlar, jasurlik ularga xos xislatlar edi va ularning g‘oyalari Movaraunnahr ijtimoiy-siyosiy hayotiga futuvvat ta’limotining kirib kelishiga asos yaratdi. Futuvvatga xos xususiyatlar dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi omma tomonidan o‘zlashtirilib, ular orasida shurbi va mutazalih oqimlari vujudga keldi. Qayerda futuvvat g‘oyalari yoyilgan bo‘lsa, u turli xil ijtimoiy guruhlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi va hunarmandlar orasida ham yoyildi va shu sababli shaharlarda, asosan, hunarmandchilik ustaxonalarida javonmardlik arkonlari joriy etildi.

Futuvvat ta’limotining Eronda so‘ngra Xuroson va Movarounnahrda yuksalib, Kichik Osiyoga qaraganda ancha ilgari kirib kelgan edi. Dastlab forsiylarda, keyinchalik turkiylarda qahramon darajasiga ko‘tarilgan Sayid Battal va Abbosiylar sulolasining tashviqotchisi Abu Muslimlar tomonidan futuvvat qonun-qoidalari Markaziy Osiyoga kirib kelgan degan olimlarning qarashlari mavjud. Sayid Battal haq din uchun kurashganlarning timsoli bo‘lsa, Abu Muslim “axiy” larning timsoli sifatida baholangan. Shu o‘rinda Abu Muslimning obrazi yaratilgan hikoyalarga ko‘ra, “axiy”likning Movarounnahrga kirib kelishi uning nomi bilan bog‘liq. Bu haqida tojikistonlik olim Z.V.Vazirov o‘z tadqiqotlarida quyidagilarni keltiradi: “Bu jarayon islom mamlakatlarini qamrab oldi. Qayd qilish mumkinki, Saljuqiylar davrida u shahar hunarmandlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, futuvvat vakillari ko‘proq turk olamida “axi” lar deb nomlangan**[4,164]**. Axi so‘zi qon-qarindosh, birodar va ahillik ma’nolarini anglatadi. Bu davrga kelib, futuvvat ta’limoti ommaviy tus olib zodagon va hukmron tabaqa vakillari orasida ham keng tarqaldi, ezgulik va oliyjanoblikning eng nozik tafsilotlarga molik bo‘lgan saroy futuvvasi yuzaga keldi.

Tadqiqotchi Frans Teshnerning fikricha, ummaviylar sulolasiga qarshi abbosiylar tarafidan turib targ‘ibot olib borgan Abu Muslimning Movarounnahrdagi g‘alabasi, bu hududda futuvvatning o‘ziga xos g‘alabasi ham edi. “Movarounnahrda va Xurosonda unga yordam bergan safdoshlarini ham futuvvat vakillari safiga qo‘shadi va ularni turk futuvvatining qurollari” deb baholaydi **[5,651]**. Shu o‘rinda “axiy” so‘zi va axiy vakillari to‘g‘risida quyidagilarni qayd etib o‘tish o‘rinli: axiy birodarlarining o‘z yumushlari bor edi.

Dastlabki vaqtlarda islom yuzaga kelgan ilk davrlarda Markaziy Osiyoda turkiy harbiylarning jasorati va alohida qahramonligi bilan belgilangan futuvvat axloqiy va diniy qarashlardan yiroqroq tursa-da, XI-XII asrlarga kelib so‘fiylik va futuvvat jamoalaridagi o‘xshashliklarni kuzatish mumkin.

So‘fiylik g‘oyalari futuvvat ta’limotining qayta shakllanishiga, rivojlanishiga asos yaratdi. Musulmon mamlakatlarida katta hurmat qozongan so‘fiylik nazariyasi asoschilaridan biri, yuqorida nomi qayd etilgan xalifa An-Nasrning maslahatchisi “Ishroq hikmati”-ga asos solgan orif Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiydir. Buning bir isboti sifatida so‘fiylik qoidalaridan bo‘lgan “isnad”ning futuvvat ta’limoti uchun qabul qilinishi fikrimizni ma’lum ma’noda to‘g‘ri ekanligini isbotlaydi.

Tasavvufda Allohning aqldan tashqarida mutloq yagonaligi quyidagi muammolarni o‘rtaga tashladi: borliq yagona, mutloq Alloh bilan bog‘liqligi, shu asosda so‘fiylar mutloq monizm falsafasining poydevorini qurganlar. Ammo, tasavvuf tariqatlari Alloh, borliq tushunchalarini islom dini va falsafasi, tasavvuf ta’limotlari turlicha talqin qilishgan. Jumladan, Yassaviya tariqatida zohiriy va botini tushunchalarga urg‘u berilgan yoki Naqshbandiya tariqatida ikkalasini ham birlashtirganligini misol tariqasida ko‘rsatishimiz mumkin.

Anglashimizga ko‘ra futuvvat va tasavvufdagi asosiy g‘oya inson Allohni va o‘zini anglashi kerak. Markaziy Osiyo mutasavviflarining tasavvufiy-falsafiy qarashlarda insonnning yuksak insoniy fazilatlari, o‘z manfaatini ko‘ra, umumxalq manfaatlarini ilgari surish va uni yuksak darajada hurmat qilish g‘oyalari ilgari surilgan. Markaziy Osiyodagi tasavvuf va futuvvat ta’limotlarida to‘g‘rilik, poklik, halollik, insoniylik, mardlik kabi tasavvufiy g‘oyalar ustuvorlik qilgan. Xoja Ahmad Yassaviy halol emas narsalardan hazar qilgan, gunohi shaxsan o‘ziga emas, oila, farzandlariga ham ta’sir qiladigan balo, deb hisoblaydi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida inson komillikka intilish, shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bosqichlarini anglashi, Alloh yo‘lida fidoiylik, hayotda xalollik, turmushda poklikka undashi asosiy g‘oya hisoblangan:

Oshiqliqni da’vosini qilg‘an kishi,
Ma’shuqidin zarra g‘ofil bo‘lgani yo‘q.
Ishq gavhari tubsiz daryo ichra pinhon,
Jondan kechmay ul gavhardin olg‘ani yo‘q **[7,126].**

Murshid yuqoridagi hikmatda oshiq, ma’shuq, ishq, daryo, ishq gavhari kabi ramzlar orqali Alloh ishqi qalbi tushgan solikning ma’shuqi (Yaratgan)ning har bir buyrug‘idan xabardor bo‘lishi shartligi, komillik, tubsiz daryo (hayot) daryosining eng tubida yashirin ekanligi, uni olish uchun jondan kechib hayot daryosida suzishi, halol, to‘g‘ri Alloh buyurgandek yashashi shartligini ta’kidlagan. Olim Dj.S.Trimingem yassaviya tariqati haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Ko‘p mashhur so‘fiylar o‘z kelib chiqishlarini undan (Yusuf Hamadoniydan) boshlaydilar, lekin ikkita asosiy tariqat uning ikkita xalifasiga borib taqaladi: forsiy – Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniyga, turkiy Xoja Ahmad Yassaviyga. Turkiy so‘fiylarning ushbu zanjiri, uning ta’limotidan boshlanib, sayyor mashoyixlar tarqalib ketgandan keyin Kichik Osiyo turklari orasiga yoyildi” **[8,81]**. Yassaviya tariqatida solik boshqalar uchun qayg‘urishi shartligi, inson shaxsiy huzur-halovatga qaramasligi, narigi dunyo mavjud va unda hamma o‘zi istagan kishi bilan uchrashishi haqidagi g‘oyalarga asoslanganligi tasavvuf va futuvvat tushunchalarini yassaviya tariqatida umumiy aks etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda shakllangan yassaviya, kubraviya tariqatlarida altruizm g‘oyalarining ifodalanishi ma’lum ma’noda taasavvuf-futuvvat falsafasining amaliy ahamiyati sifatida ko‘riladi. Rivojlangan o‘rta asrlarda Xorazmshohlar davlatining tugatilishi bilan va mo‘g‘ullarning Movarounnahrga bosqini natijasida futuvvat ta’limoti ham ijtimoiy hayot va ma’naviyatning ko‘p tarmoqlari singari zavol topdi va asta sekin ijtimoiy hayotdagi o‘rni zaiflasha boshladi. Futuvvat ta’limoti vositasida insonlar axloqi tarbiyalanib, bosqichma-bosqich komil inson darajasiga yetkazadi. E’tiqod, iymon, ibodat insonni ruhan

poklaydi, qalbiga va ruhiga osoyishtalik baxsh etadi. Futuvvat ta’limotini tushunmasdan ham shariat talablarini bajargan inson ma’naviyati yetuk shaxs bo‘lib shakllanishi mumkin. Futuvvat ahlining asosiy maqsadi jamiyatda yo‘qolib borayotgan insoniylik, poklik halollik, mardlik, jasurlik saqlab qolishni targ‘ib qilish edi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf va futuvvat ta’limotlari nafaqat dini-falsafiy qarashlar majmuasi, balki jamiyatda axloqiy me’yorlarni qaror toptiruvchi va insoniy qadriyatlarni mustahkamlovchi kuchli ma’naviy-ruhiy tizim sifatida namoyon bo‘lgan. Ushbu ta’limotlar asosida shakllangan g‘oyalar xalq ongida chuqur ildiz otib, komil inson tarbiyasida hal qiluvchi omilga aylangan. Tasavvuf va futuvvat ahli o‘z faoliyati orqali iymonsizlik, befarqlik, muqaddas qadriyatlarga nisbatan bepisand munosabat, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi adolatsizlik holatlariga qarshi kurashgan. Shu jihatdan, mazkur ta’limotlar bugungi kunda ham jamiyatni ma’naviy yangilash va barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lida dolzarb nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent.: Movarounnahr, 2009. –B.105.( Komilov N. Sufism. - Tashkent.: Movarounnahr, 2009. - P.105.)
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n to‘rtinchi tom. MAHBUB UL-QULUB, Tanbeh 11, Saxovat va himmat bobida. – Toshkent.:“Fan”,1998. –B.79.
3. Komilov N. Inson haqida to‘rt risola. – Toshkent.: Ma’naviyat, 1997.-B.202.
4. Вазиров З.В. “Социально-политические и нравственио-религиозные учения и филасофская система футуввата” диссертация. канд. философ. наук. -Душанбе, 1981. 164 с.
5. Franz Taeschner. Zünfte und Bruderschaften im Islam: Texte zur Geschichte der Futuwwa (Bibliothek des Morgenlandes.) - Zürich, München: Artemis Verlag, 1979. – pp.651.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Hilol nashr, 2016. – B. 101.
7. Yassaviy, Ahmad. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B. 126.
8. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордени в исламе. –Москва: София. Д. Гелиос, 2002. – С. 81.


## YUSUF XOS HOJIBNING HARBIY-SIYOSIY QARASHLARI


**Orzukulov Amirjon Olimjonovich**
**Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi**



**Annotatsiya**. Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asari Qoraxoniylar davlatida amal qilgan harbiy nizom, intizom va harbiy axloqqa oid qoidalarning ma’naviy manbai sifatida tahlil qilinadi. Asarning falsafiy va amaliy qiymati, harbiy

rahbarning fazilatlari, askarning burchi va intizomga rioya qilish zaruriyatiga doir qarashlar zamonaviy siyosiy-falsafiy tahlil nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Qutadg‘u bilig, Qoraxoniylar davlati, harbiy nizom, harbiy intizom, harbiy axloq, ma’naviy manba, harbiy rahbar fazilatlari, askar burchi, intizom, siyosiy-falsafiy tahlil, falsafiy yondashuv.

Turkiy xalqlar tarixida o‘chmas iz qoldirgan Qoraxoniylar sulolasi X-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda ulkan siyosiy va madaniy yuksalishga erishgan davlat sifatida namoyon bo‘lgan. Bu davlatda harbiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tartibotlarni belgilab beruvchi muhim manbalardan biri sifatida YUsuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar nafaqat davlat boshqaruvi va hukmdor etikasiga oid qarashlarni ifoda etsa-da, balki u davlatning harbiy tuzilmasi, qo‘shin ichidagi intizom, jangovar etika va qahramonlik me’yorlari haqidagi nazariy qarashlarni ham mujassamlashtirgan. “Qutadg‘u bilig” bevosita harbiy nizomnoma sifatida bitilmagan bo‘lsa-da, undagi g‘oyaviy va amaliy yo‘nalishlar, harbiy xizmatga oid ta’limotlar, qo‘mondon va askar o‘rtasidagi munosabatlar, itoat va qonun ustuvorligiga oid fikrlar bu asarni Qoraxoniylar davlati harbiy nazariyasining asosiy manbalaridan biri sifatida talqin qilish imkonini beradi. Zero, harbiy tuzilmaning mukammalligi va intizomning yuqoriligi har qanday davlatning barqarorligi va xavfsizligini ta’minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

X asrning oxirida SHarqiy Turkiston, Ettisuv va Qoshg‘ar hududlarida Qoraxoniylar davlati shakllandi va Movarounnahrda hukumronlik qilayotgan Somoniylar davlatini tugatdi. Qoraxoniylar davlatning poytaxti Koshg‘ar hisoblanib, Balasog‘un, O‘zkent va Samarqand kabi yirik shaharlar uning asosiy ilmiy, iqtisodiy va madaniy markazlari edi. Qoraxoniylar hukmronligi G‘arbiy Xitoydan, Kaspiy dengizigacha bo‘lgan ulkan hududni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu erlarda ilm-fan, ma’rifat, madaniyat jadal rivoj topdi. Bu zaminda falsafiy, diniy, axloqiy va ma’rifiy yo‘nalishda ko‘plab asarlar yaratildi. SHu bilan birga, bunday keng hududda markazlashgan, mutlaq hokimiyatga asoslangan feodal davlatni barpo etish, uni mustahkamlash va samarali boshqarish, ijtimoiy ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarga chek qo‘yish, qudratli harbiy kuchlar tashkil etish kabi vazifalar Qoraxoniylar oldida turgan eng muhim, biroq nihoyatda murakkab siyosiy va ijtimoiy masalalardan edi. Qoraxoniylar davlatni boshqarish usullari, qonun-qoidalar, xalqning urf-odatlari va axloqiy tamoyillarini o‘zida mujassam etgan mukammal siyosiy-falsafiy dastur sifatida, balasog‘unlik Ulug‘ Xos Hojib YUsuf tomonidan yaratilgan “Qutadg‘u bilig”[78] asari tarix sahnasiga chiqdi. Bu asar, amalda, Qoraxoniylar davlatining g‘oyaviy va mafkuraviy asoslarini belgilovchi qomusiy ahamiyatga ega manba sifatida namoyon bo‘ldi.

Ma’lumki, har qanday davlatning mudofaa salohiyati uning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ilmiy va ma’naviy salohiyatlari zaminida shakllanadi. Davlat suvereniteti va barqarorligini ta’minlashda esa qurolli kuchlar muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

[78]Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашрга тайёрловчи филология фанлари кандидати Қаюм Каримов.-Тошкент: Фан, 1971.

Qoraxoniylar saltanatida harbiy sohaga, xususan harbiy ta’limot va nazariyalarga alohida e’tibor berilgani tarixiy manbalar, ayniqsa, YUsuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida yorqin aks etgan. Ta’kidlash joizki, asarning 27–37 boblari to‘liq holda davlat boshqaruvi nazariyasi, siyosiy-huquqiy tamoyillar hamda hukmronlik odobiga bag‘ishlangan bo‘lib, ular orasida harbiy rahbariyatning vazifalari va xulq-atvoriga oid batafsil ta’riflar ham mavjud. Xususan, 30-bob “O‘gdulmish eligga sarkarda, sipohsolor qanday bo‘lishi kerakligini aytadi” sarlavhasi ostida berilgan fikrlar Qoraxoniylar davlati harbiy tizimining nazariy asoslari sifatida baholanishi mumkin[79]. Bu bobda sarkarda shaxsida mujassam bo‘lishi lozim bo‘lgan aql-zakovat, intizom, adolat, fidoyilik va qonunbuzarlikka murosasizlik kabi xususiyatlar falsafiy pand-nasihatlar tarzida ifoda etilgan. Mazkur qism, amalda, Qoraxoniylar harbiy nizomnomasining adabiy-falsafiy shakli bo‘lib, uning tuzilishi, mazmun va mohiyati davlat mudofaa siyosatida ideologik zamin sifatida xizmat qilganini ko‘rsatadi. Zero, mazkur bobda davlatning hududiy yaxlitligini ta’minlash, tashqi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, chegaralarni muhofaza qilishdek muhim vazifalarni bajara oladigan muntazam qo‘shin - sü**,** erät**,** čerig ni shakllantirish va uni zamonaviy talablarga javob beradigan qurol-yarog‘ va harbiy aslahalar - tolum bilan ta’minlash masalalariga jiddiy e’tibor qaratilgan.

SHuningdek, bobda harbiy strategiya va taktikaga oid murakkab masalalar, jang uchun qulay joyni tanlash, harbiy saflarni to‘g‘ri shakllantirish, dushmanga qarshi jang olib borishda turli uslub va manevrlarni qo‘llash zarurati, batafsil bayon etilgan. Bu jihatlar “Qutadg‘u bilig” asarining shunchaki axloqiy-nasihatiy qomus emas, balki Qoraxoniylar davlatining harbiy doktrinasida muhim o‘rin tutgan amaliy-siyosiy dastur sifatida ham o‘rganilishini taqozo etadi[80].

Elni samarali boshqarish va uning barqarorligini ta’minlashning asosiy shartlari sifatida YUsuf Xos Hojib ikki muhim omilga - xalqqa **(**bodun**)** adolat o‘rnatish va qurolli qo‘shinni o‘z vaqtida moddiy ta’minot (mal) bilan ta’minlash zaruriyatini ta’kidlaydi. Zero, qaysi hukmdor lashkarni etarli darajada moddiy mablag‘ bilan ta’minlamasa, uning askari qilichini qinidan sug‘urmasligi tabiiy, ya’ni himoya salohiyati va jangovor tayyorgarlik izdan chiqadi. Bunday sharoitda hukmdorning siyosati amalga oshmaydi, chunki qurolli kuch davlat qudratining amaliy fodasidir.

Muallifning mulohazasiga ko‘ra, qo‘shin davlat rahbari uchun kuch va himoya timsolidir. Qurolli kuchlarga ega bo‘lmagan hukmdor elni muhofaza qila olmaydi. Qo‘shin - yurtning qalqoni, xalqning posbonidir. Agar bunday kuch mavjud bo‘lsa, el-ulus tinch, xavf-xatardan xoli, erkin hayot kechiradi. Bu fikrlar davlat qurilishida harbiy tizimning muhim o‘rnini anglatadi. YUsuf Xos Hojib nazarida davlatning harbiy salohiyati va jangovar qobiliyati yuqori darajada bo‘lishi, asosan, tajribali, jangu jadal (toquš) maydonlarida pishgan, dushman (yaɣï)ni tormor etishda nom qozongan (kű, jaw) lashkar va sarkarda kadrlarini tarbiyalashga

[79] Кононов А.Н. Поэма Юсуфа Баласагунского «Благодатное знание» // Баласагунский Юсуф. Благодатное знание. –М., 1963. С. 506.

[80] Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка.-Ташкент: Фан, 1990. - Б.16-26

bog‘liq. U harbiy muvaffaqiyatni tasodif emas, balki aniq tayyorgarlik, iqtisodiy resurs, adolatli boshqaruv va harbiy mahorat uyg‘unligi deb biladi.

YUsuf Xos Hojibning harbiy-siyosiy qarashlari “Qutadg‘u bilig” asarida mujassam bo‘lib, u faqat ma’naviy va axloqiy tarbiya emas, balki davlatni barqaror boshqarish hamda harbiy intizomni ta’minlashga qaratilgan tizimli nazariyani taqdim etadi. Uning qarashlarida harbiy xizmat nafaqat qonundagi burch, balki davlat va jamiyat muhofazasida fidoyilik va ezgulik kafolati sifatida qaraladi. YUsuf Xos Hojib siyosat, harbiylik va burchni murakkab, ammo bir-biri bilan chambarchas bog‘langan tizim sifatida ko‘rib, hukmdor va harbiylar o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy tamoyillarini belgilab bergan. SHu bilan birga, uning qarashlari tarixiy sharoitda turkiy davlatchiligining harbiy-siyosiy rivojlanishiga munosib manba bo‘lib xizmat qildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dadabaev X., Nasыrov I., Xusanov N. Problemы leksiki starouzbekskogo yazыka.-Tashkent: Fan, 1990.

2. YUsuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). Nashrga tayyorlovchi filologiya fanlari kandidati Qayum Karimov.-Toshkent: Fan, 1971.

3. Kononov A.N. Poema YUsufa Balasagunskogo «Blagodatnoe znanie» // Balasagunskiy YUsuf. Blagodatnoe znanie. –M., 1963. S. 506.

## MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONI LUG‘OTIT TURK” ASARI VA UNING O‘RGANILISHI

**Bektemirov Shokir Xidirboyevich**
**Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarining tarixiy, falsafiy va madaniy ahamiyati tahlil etiladi. Asarning tuzilishi, undagi turkiy tillarning leksik boyligi, ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, shuningdek, unda aks etgan davrning ijtimoiy-madaniy manzarasi o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu nodir manbaning keyingi asrlarda tadqiq qilinishi, olimlar tomonidan baholanishi hamda uning turkiy xalqlar til va madaniyatini rivojlantirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mahmud Koshg‘ariy, Devoni lug‘otit turk, turkiy tillar, ma’naviy meros, tilshunoslik, falsafa, dunyoqarash, ijtimoiy-madaniy hayot, ilmiy tadqiqotlar, tarixiy manba, tarixiy xotira.

Insonning tili, uning dunyoqarashi, ma’naviy dunyosi va tarixiy xotirasining ifodasidir. Millatning tilida uning ruhi, tafakkuri va yashash tarzi mujassam bo‘ladi. SHu ma’noda, XI asrda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Devoni lug‘otit turk”[81] asari nafaqat tilshunoslik namunalari, balki turkiy xalqlarning ma’naviy madaniyati, urf-odati va tafakkur tarzi haqidagi betakror manba hisoblanadi. Asarning o‘rganilishi esa, til tarixi orqali milliy xudfahmlik va ma’naviy merosni

[81] Юсуф Хос Ҳожиб.Қутадғу билиг (Ҳозирги ўзбек тилига ўгирувчи Ф.Равшанов).–Т.:Akademnashr, 2015. – 540 б.

tiklashning muhim qadami sifatida namoyon bo‘ladi. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining bittagina “Devonu lug‘otit turk” asari orqali jahon tilshunosligi sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shgan, turkiy xalqlarning ma’naviy va madaniy merosini ilmiy va amaliy asosda tahlil qila olgan, turkiy lingvistika tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk qomusiy olim sifatida tan olingan. “Devonu lug‘otit turk” asarida XI asr, hatto milodiy asrlar boshlarida hayot kechirgan turkiy qavmlar tomonidan qo‘llanilgan til va lug‘aviy birliklar qiyosiy metod asosida talqin etilgan. Bu asar shunchaki leksikografik, oddiy lug‘at emas, balki turkiy tillardagi so‘zlarning ma’noviy, fonetik, grammatik va funksional-stilistik xususiyatlarini qamrab olgan keng qamrovli umumlingvistik ilmiy meros hisoblanadi.

“Devon” nafaqat tilshunoslik namunasi, balki umumturkiy til nazariyasining shakllanishiga zamin yaratgan, qiyosiy-tarixiy metodning ilk ilmiy ifodalaridan biri sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi.

Asarning yana bir bag‘rikeng ahamiyatga molik jihati shundaki, unda hozirgi turkiy xalqlarning o‘tmishdagi etnogenezi, etnologiyasi (ya’ni shajarasi), qadimiy etnografiyasi (turmush tarzi, urf-odatlari, folklori va madaniy merosi) haqida ishonchli va boy ma’lumotlar keltirilgan. Aynan shu jihatlari tufayli bu qomusiy asar o‘tmishda ham, bugungi kunda ham tilshunoslar, tarixchilar, etnograflar va folklorshunoslar tomonidan qiziqish bilan o‘rganilib kelinmoqda va o‘z ilmiy ahamiyatini haligacha yo‘qotmagan.

Masalan, “Devonu lug‘otit turk” asarini o‘rgangan ilk tadqiqotchilardan biri, turk mutafakkiri Ali Amiriy ushbu bebaho manba haqida shunday deb yozgan edi:“Kitobni qo‘lga olishim bilan o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Bu kitob dunyoda qiyosi yo‘q, ham ma’lum bo‘lmagan bir turk qomusi va grammatikasi edi. Arab tili uchun Sibavayhiyning kitobi qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, bu asar ham turk tili uchun shunday ulug‘ ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha turk tilida bunga teng keladigan asar yaratilgan emas. Agar uning haqiqiy qadrini anglamoqchi bo‘lsangiz, dunyo xazinalari ham unga teng kelolmaydi.” Bu ta’rif Mahmud Koshg‘ariy asarining nafaqat leksikografik yoki grammatik jihatdan, balki ma’naviy-tarixiy qadriga ham ishora qilmoqda. Haqiqatdan ham, bu asar tilnigina emas, millatning madaniyati va dunyoqarashini ham o‘z ichiga olgan keng qamrovli ilmiy merosdir. So‘nggi yillarda olimlari ham bu qomusiy asarni qizg‘in tadqiq etib, uning ilmiy qiymatini yuqori baholab kelishmoqda. Jumladan, mashhur sharqshunos olim P.K. Juze “Devonu lug‘otit turk” haqida shunday deb ta’kidlagan: “Mahmudning bu tekshirishlari shunchalik keng va chuqurki, agar ushbu asar XIX asrda yozilganida ham, u o‘z zamonining ilmiy faxri bo‘lgan bo‘lar edi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” singari asar ilm olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli turkiy qomusdir.” Ushbu mulohazalar Mahmud Koshg‘ariy asarining faqat tilshunoslik emas, balki umuminsoniy tafakkur va ilmiy taraqqiyot tarixidagi betakror ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi[82]. “Devonu lug‘otit turk” asariga bo‘lgan ilmiy qiziqishning ilk bosqichida asosiy e’tibor uning tarjimasiga qaratildi. Natijada asar o‘zbek, turk,

[82]Худойбердиев Ж. Маҳмуд Кошғарий ҳаёти ва «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиши. – Тошкент, “Фан”, 2010, - Б.4. ; Xudoyberdiyev Jo‘ra. Mahmud Koshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” bo‘icha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi.- T.: “Akademnashr”, 2011. -158 bet.

ozarbayjon, qozoq, uyg‘ur, shuningdek, fors, ingliz, nemis, rus va xitoy tillariga tarjima qilinib, turkiy xalqlar va jahon jamoatchiligi uchun keng ommaga mansub ilm manbaiga aylandi.

Ayniqsa, ushbu sohada katta ilmiy hissa qo‘shgan tadqiqotchilarni alohida ta’kidlash lozim. Turkiyalik Besim Atalay, o‘zbekistonlik Solih Mutallibov[83], ozarbayjonlik Ramiz Esker, qozog‘istonlik Asqar Agaboev, uyg‘ur olimlari Muhammad Fayziy va Ahmad Ziyo, eronlik Husayn Muhammadzoda Siddiq, rossiyalik mashhur turkologlar S.E. Malov, A.N Kononov[84], ingliz olimlari Robert Denkoff va Jizm Makkali, shuningdek, germaniyalik Karl Brokkelman kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tarjima va tahrir ishlari asarning xalqaro ilm maydonidagi hayotini uzaytirdi va uning mazmun-mohiyatini turli xalqlarga etkazdi. “Devonu lug‘otit turk” asariga bo‘lgan qiziqishning ikkinchi bosqichi, avvalo, uni ilmiy tadqiq etish bilan bog‘liq keng qamrovli ishlarni qamrab oladi. Bu boradagi izlanishlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘zbekistonlik taniqli tilshunos olim J. Xudoyberdiev tomonidan olib borilgan ilmiy kuzatishlar natijasida “Mahmud Koshg‘ariy hayoti va faoliyati, uning “Devonu lug‘otit turk” asari chuqur o‘rganildi.

Ayniqsa, ko‘rsatkich tarzida tuzilgan mazkur ilmiy risolada Mahmud Qoshg‘ariy merosiga bag‘ishlangan taxminan 1800 taga yaqin ish qayd etilgani, bu sohaga bo‘lgan katta qiziqishni namoyon etadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari nafaqat tilshunoslik qomusidir, balki u turkiy xalqlarning ma’naviy dunyoqarashi, hayot tarzi va aql-zakovati namoyonidir. Bu asarda til, faqat aloqa vositasi emas, balki millatning tafakkuri, tarixiy xotirasi va falsafiy ongining ifodasidir. Koshg‘ariyning ishlari orqali inson o‘z ona tili orqali dunyoga qanday ma’no berayotgani, jamiyat va tabiatni qanday anglayotgani namoyon bo‘ladi. SHu bois, “Devonu lug‘otit turk” faqat lug‘at emas, balki til orqali falsafiy tafakkurni anglashga chorlovchi ma’naviy ko‘zgudir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Xudoyberdiyev Jo‘ra. Mahmud Koshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” bo‘icha yaratilgan asarlar ko‘satkichi.- T.: “Akademnashr”, 2011 (-158 b.).
2. Kononov A.N. Maxmud Kashgarskiy i ego “Divanu lug‘at it-turk”//Sovetskaya tyurkologiya. 1972. №1. - S.3-17.
1. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otit turk”(S.Mutalibovning o‘zbek tilidagi tarjimasi va nashrining 1,2,3-tomlari). -T.: 1960-1963.
3. Xudoyberdiev J. Mahmud Koshg‘ariy hayoti va «Devonu lug‘otit turk» asarining o‘rganilishi. – Toshkent, “Fan”, 2010, (-48 b.).
4. YUsuf Xos Hojib.Qutadg‘u bilig (Hozirgi o‘zbek tiliga o‘giruvchi F.Ravshanov).–T.:Akademnashr, 2015. –540 b.


[83] Муталлибов С.М. Маҳмуд Кошғарий. .Туркий сўзлар девони /Девону луғотит турк/. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. - Т.1. - Т.: ЎзССР ФА, 1960. – С.44.

[84] Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его “Дивану луғат ит-турк”//Советская тюркология. 1972. №1. - С.3-17.

# YUSUF XOS XOJIBNING ILMIY MEROSIDA RATSIONALLIK TAMOYILI

**Abduraxmonov Ishaq Akramovich,**
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
“Pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotasiya:** Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosida ratsionallik xususan, gnoseologik g‘oyalarning metodologik tahlili bayon etiladi. Shuningdek, maqolada e’tiqod va aqlning munosabati xususida alloma ilgari surgan ratsional yondashuvining ilmiy ahamiyati yoritib beriladi.

**Tayanch so‘zlar:** Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”, meros, bilim, idrok, aql, tafakkur, mantiqiy fikrlash, ratsionallik, e’tiqod va aql.

Yusuf Xos Hojibning asarida ratsional tafakkur nafaqat ilmiy dunyoqarash shakllanishining asosi sifatida, balki shaxs va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi mezon sifatida talqin etiladi. U inson hayoti va davlat boshqaruvining barqarorligi uchun bilim va aqlning ustuvorligini targ‘ib qiladi. Bu jihatlar mutafakkir merosining hozirgi zamon kontekstida qayta tahlil qilinishini taqozo etadi.Ming yildan buyon sharqona tarbiyaning nazariy asosi bo‘lgan Yusuf xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asari ham shunday ma’naviy meros sifatida turkiy xalqlar tafakkuri xazinasining noyob durdonasi, odob axloq falsafasining qomusi hisoblanadi.

Mazkur Nodir ma’naviy merosning ming yilligi Vatanimizda keng nishonlangan tantanalarda allomaning asari o‘n asrdan buyon Sharq xalqlari ma’naviyati taraqqiyoti yo‘lida beminnat xizmat qilib kelayotganligi xorijiy va respublikamizning atoqli olimlari tomonidan asoslab berildi.

Axloq-odob falsafasining qomusi hisoblangan mazkur asar insoniylikning go‘zal xislatlari: xalollik, diyonatlilik, oqilonalikni tarannum etiladi. Bizningcha asarning ilmiy ahamiyati uni ratsional mantiqiylik tamoyiliga asoslanganligidadir. Mazkur asarda olimning gnoseologik qarashlari, undagi mantiqiy ratsionalistik yondashuvlar zamonaviy epistemologik nuqtai nazardan hanuzgacha dolzarbligini yo‘qotmagan. Avvalo mutafakkir kishini olamni va borliqni, shuningdek o‘z-o‘zini bilish jarayonini ratsionalistik nuqtai nazardan talqin etadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: turkiy xalqlarning ulug‘shoiri Yusuf Xos Xojibning "Qutadg‘u bilig" asarida ham insonning bilim quvvati va aqliy salohiyati behad ulug‘lanadi"[1.133]. Alloma asarning ibtidosidayoq "insonning qadri bilim bilan belgilanishi haqida" bob mavjud. Mazkur bobda insonning qadr-qimmati uning aql-u farosati, egallagan bilimi bilan o‘lchanishga urg‘u beradi. Shu o‘rinda alloma insonning ulug‘ligi bilim bilan belgilanishini ta’kidlar **e**Kan, idrok va ma’rifat har qanday jumboq, tugunlarni hal qilish vositasi ekanligini uqtiradi.

Bilim berdi, shundan ulug‘lik bugun
Ham idrok , ma’rifat-yozguvchi tugun[2: 28].

Inson komillikka, ulug‘likka bilimi bilan erishishini, buning uchun esa idrok va ma’rifat zarurligini ta’kidlaydi. Allomaning fikricha, idrok va ma’rifat har qanday jumboq, tugunlarni hal qilishning asosiy vositasidir.

Ezgulik va yaxshilik, bunyodkorlik kabi axloqiy fazilatlarning ibtidosi va asosi ilm ekanligini alloma quyidagicha ta’kidlaydi:

Alloh kimga bersa bilim – idrok, bilig
Qo‘l uzatgan ishi bo‘lur ezgulik[2: 28].

Yusuf xos Hojibning fikricha, bilimni egallagan kishi doimo ezgulikka intiladi. Aql-idrok orqali inson yovuzlikning qanday mudhish oqibatlarga olib kelishini yaxshi anglaydi va shu bois ham ezgulik uchun kurashadi.

Yusuf xos Hojib bilimni, aql-idrok hosilasi der ekan, u X asrdayoq ratsionalizm g‘oyasini ilgari surgan. Inson mol-mulki, davlat-u boyligi, kuch-qudrati-yu, pahlavonligi bilan emas, balki bilim bilan buyuklikka etishini uqtirmoqda. Bilim uchun esa aql, idrok, farosat zarurligini alohida qayd etib o‘tadi.

Idrok qayda bo‘lsa, ulug‘lik shunda
Bilim kimda bo‘lsa buyuklik shunda[2: 28]

Insonning buyukligi, qudrati uning to‘plagan boyligiga yoki aslzoda nasl-nasabiga, yoyinki go‘zalligi, jismoniy kuch-quvvatiga emas, balki faqat va faqat o‘zlashtirib olgan bilimiga, mantiqiy tafakkur qobiliyatiga bog‘likligini alloma asarida bir necha bor ta’kidlab o‘tadi. To‘g‘ri idrok etadigan va mantiqiy to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan oqil odam, allomaning fikricha, albatta, o‘z maqsadiga, murodiga etadi.

Dono bilur, idrok etadi oqil
Bilimli, Oqilning murodi hosil [2: 28]

Mutafakkir avvalo, o‘zlashtirib olingan bilimning mohiyatini yaxshi tushunib olish lozimligini aytib o‘tadi. Shundagina o‘quvchi yaxshi bilim olishi, puxta egallangan bilim esa, barcha muammolarni hal qilish omili ekanini uqtiradi, ya’ni nazariy olingan bilimlarini amaliyotga, ijtimoiy munosabatlarda oqilona foydalana olishligini ta’kidlaydi.

Bilim manosini bil, yaxshi bilim ol,
Bilimni bil mushkul eringda qurol[2: 28]

Alloma bu erda bilimni amaliyotda qo‘llash zarurligini ta’kidlashi bilan zamonaviy epistemolgogiyada nazariya va amaliyot birligini targ‘ib etmoqda.

Uquv, bilim juda ezgu narsa, soz,
Etsang ishlat, ko‘kka aylagil parvoz
Jahongir bo‘lmoq-chun zakovat kerak,
El olmoq-chun aql, farosat, yurak.
Bilim-la podsholar olamni tutdi,
Zakovatdan ko‘p xalq qo‘liga o‘tdi. [2: 33]

Mazkur misralarda ham alloma kishi olgan bilim, uquvlarini amaliyotda qo‘llay bilsagini barcha maqsadlarga erishishi mumkinligini ta’kidlamoqda.

Yusuf xos Hojib inson faoliyatida aqlning o‘rnini bayon etishga juda katta urg‘u beradi. Insonning bir-biridan farqi, aqli va idrok etishg darajasi ekanini Yusuf xos Hojib quyidagicha bayon etadi:

Kishining kishidan talay farqi bor
Bu farqni bilimdir etguvchi oshkor
Bilimsiz-la yo‘qdir so‘zim hech mening
Xizmating bajaray, ey oqil, sening[2: 32]

Inson hayotida bilimning bebaho ahamiyat kasb etishini quyidagicha ta’kidlaydi:

Bilim qadni bukmas, boylikdir tayyor,

Ololmas qo‘l cho‘zib hech o‘g‘ri , ayyor[2: 41].

Yusuf Xos Hojib gnoseologiyadagi eng e’tiborli jihatlardan biri e’tiqod va aql kategoriyasi nisbatiga ratsionalistik yondashuvidadir.

Barcha ezguliklar bilimdan kelgay,

Bilimdan odamzod Xudoni bilgay [2: 33]

Xristian dinining etuk namoyandalari Xudoni bilishda aql shart emas, desalar, ming yil avval Yusuf xos Hojib Yaratguvchini bandasi faqat aqli tafakkuri va bilimi orqali tanishini ta’kidlaydi. Alloma har qanday e’tiqod avvalo, aql va bilimga asoslanishini lozimligini ta’kidlashi gnoseologik qarashlarining yutug‘ini tashkil etadi.

Biz mutafakkirning "Qutadg‘u bilig" asarida ratsionallik tamoyilini qisman yoritishga harakat qildik. Allomaning asari axloq-odobga doir qomusiy xarakterda bo‘lib, unda etika-estetika, matematika, iqtisod, astronomiya, diplomatiya, tibbiyot, farmasevtika, harbiy soha, umuman, ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va madaniy-ma’rifiy, ma’naviy, ilmiy va boshqa qator sohalarga doir qarashlarga duch kelish mumkin [3: 6].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, avvalo Sharq xalqlari ma’naviy merosining Nodir durdonalaridan biri bo‘lgan Yusuf xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asari ratsionallik tamoyiliga asoslanganligi uchun ming yildan buyon Markaziy Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Ikkinchidan, Yusuf xos Hojib "Qutadg‘u bilig" asari hozirgi globallashuv sharoitida ham tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmagan va murakkab axborotlashgan jamiyat bosqichida yoshlarni turli ma’naviy tahdid va axborot xurujlaridan himoya etishda muhim nazariy manba hisoblanadi. Uchinchidan, Yusuf xos Hojib ilmiy merosining ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatini teran anglagan holda, undan uzluksiz ta’lim tizimini barcha bosqichlarida, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz targ‘ibotida keng foydalanish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich hozirgi zamon va yangi O‘zbekiston – Toshkent: "O‘zbekiston"nashriyoti, 2024y.-560 b.
2. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg‘u bilig" ("saodatga eltuvchi bilim"). – T, "Akademnashr"., 2015.
3. Ravshanov F. "Saodatga eltuvchi bilim"ga qiziqib.../Yusuf Xos Hojib. "Qutadg‘u bilig". Akademnashr. 2015.
4. Ravshanov, Fazliddin. Davlat fuqarolik xizmatchisining ma’naviy qiyofasi (risola) [matn] / F.Ravshanov. – Toshkent: "Ma’naviyat" nashriyoti, 2023. – 296 b.

# SHARQ MUTAFAKKIRLARI RAHBARNING BOSHQARUV QOBILIYATI XUSUSIDA

**Toshtemirova Rayxona**
Oriyental universiteti magistranti

**Annotatsiya**. Maqolada musulmon Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida davlat boshqaruvida oid yondashuvlar keng tadqiq etilgan. Ayniqsa, rahbar va uning boshqaruv qobiliyatiga oid konsepsiyalar Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Nizomulmulk, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi allomalarning batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Musulmon Sharqi, Sharq mutafakkirlari, rahbar, boshqaruv qobiliyati, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Navoiy, Koshifiy, siyosiy tafakkur, davlat boshqaruvi.

Abu Nasr Forobiy «Fozil shahar ahli» asarida rahbarning fazilatlari, boshqaruv uslublari va adolatli jamiyat tuzish tamoyillarini bayon etadi. Unga ko‘ra:

– rahbar aql-zakovat egasi bo‘lishi kerak;

– u boshqaruvda ilm-fanga, adolatga tayanishi zarur;

– maktab, madrasalar rahbarlari ham fozil shaxslar bo‘lishi, odamlarga ibrat ko‘rsatishi kerak[1.245]. Forobiy mazkur asarida rahbar xarizmasiga oid 12ta fazilatni ratsionallik tamoyili asosida batafsil bayon etadi. Alloma shuningdek, rahbarga xos axloqiy fazilatlarni bayon etish bilan birga rahbarlikka noloyiq bo‘lgan shaxslar xususida ham to‘htalib o‘tar ekan shunday deydi: “ O‘zidan boshqalarga rahbarlik qilish, ularni baxt-saodatga erishuv darajasiga ko‘tarish ham har kimning qo‘lidan kelavermaydi. Kimda birovni baxt-saodatga erishtirish, zarur bo‘lgan ish-harakat kabilarga ruhlantira olish qobiliyati bo‘lmasa va bu ish-haarkatni bajara olishga qudratsiz bo‘lsa, bunday odam sira ham rahbar bo‘la olmaydi” [1.290-291]

Ibn Sino o‘zinig “Donishnoma” asarida boshqaruvda intizom, mantiqiy fikrlash va ilmiy yondashuvni targ‘ib qilgan. U ta’lim jarayonining izchil, tartibli bo‘lishi, boshqaruvda tajriba va bilim asosida qaror qabul qilish lozimligini ta’kidlaydi[2. 327-334].

Ming yildan buyon sharqona tarbiyaning nazariy asosi bo‘lgan Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asari turkiy xalqlar tafakkuri xazinasining noyob durdonasi, odob axloq falsafasining qomusi hisoblanib, unda rahbarning xarizmatik xislatlarini batafsil yoritib beradi. Avvalo, Yusuf Xos Hojib rahbarlik ilmi mavjudligini hamda uning talablarini ratsional o‘zlashtirib olish lozimligini quyidagicha bayon etadi:

Rahbarlik rahbarga erur kasb-u kor
Rahbarlik bilimin bilsin kim sardor[3.170].

Alloma nafaqat rahbarlar, balki barcha insonlarningg ulug‘ligi bilim bilan belgilanishini ta’kidlar ekan, idrok va ma’rifat har qanday jumboq, tugunlarni hal qilish vositasi ekanligini uqtiradi.

U idrok, bilimli bo‘lmog‘i lozim
Xushxulqlik, ahillik qilmog‘i lozim[3.171].

Rahbarlar obro‘siga putur yetkazadigan salbiy illatlar: besabrlik, shoshqaloqlik - bilimsizlikning oqibati ekanligini quyidagicha bayon etadi:

Besabrlik har ish dushmanidir bil
Bek bo‘lsa besabr, boq yuzi zahil
Shoshqaloq yengil ta’b badfe’l, jahldor
Bari bu belgilar bilimsizda bor. [3.173].

Darhaqiqat, Yusuf Xos Hojib ta’kidlaganidek, vazminlik, bosiqlik, sermulohazalik, vaziyatni dastlab to‘g‘ri baholash va qaror qabul qilishda mantiqiy-tanqidiy ratsional yondashish rahbar xarizmasiga xos bo‘lgan asosiy xislatdir.

Andisha kabi axloqiy fazilatlarni rahbar uchun ahamiyatini alohida ta’kidlar ekan, shunday deydi:

Kim bo‘lsa andisha, orli, xulqli, xush,
Qo‘lidan kelmas hech nojo‘ya yumush.
Har kimga andisha, fazilat bergay,
U Haqdan baxt- davlat e’zoz ham ko‘rgay.
Yomondan tiyguvchi andisha bilsang,
Andisha yo‘l boshlar, yaxshilik qilsang.
Ko‘ngil, til, fe’lda rost bo‘lmasa rahbar
U yeldan baxt qochar, har qancha qaytar[3.176].

Yusuf Xos Hojib rahbarga xos bo‘lgan fazilatlarni alohida bayon etar ekan, qat’iyatlilik, ziyraklik, irodalilik va bir so‘zli bo‘lish rahbarning asosiy fazilatlaridan biri ekanligini quyidagicha bayon etadi:

So‘zdan qaytgan bekni rahbar deb yursa,
Hayoting ishonib, so‘ng afsus ko‘rma.
Rahbarga hushyorlik, ziyraklik lozim
G‘ofil bek el-yurt g‘amga mulozim[3.177].

G‘ofillik va zulmni rahbar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan illatlarni bayon etar ekan, shunday deydi:

Ikki ish-la rahbar el xalqni buzar,
Egri yo‘l tortib, pok, chin yo‘ldan ozar.
Bu ishning biri- zulm, biri - g‘ofillik,
Yel uchun ikkisi yomon - johillik[3.177].
G‘ofil rahbarning hech ishi bitganmas,
Rahbarligi uzoq zamon ketganmas[3.178].

Rahbar xarizmasiga xos fazilatlarni bayon etar ekan, jismonan sog‘lomlik, jasurlik hamda muruvvatlilik, saxovat va himmat kabi axloqiy fazilatlar muhim ahamiyat kasb etishini batafsil bayon etadi.

Rahbarlik mas’uliyatli va mashaqqatli, har doim tashvishli ekanligini, kishidan doim fidoiylikni talab yetishini quyidagicha bayon etadi.

Shodligi kam uning, tashvishlari mo‘l,
Rahmat oz, ko‘prog‘i la’natdir butkul.
Rahbarni sevar kam, yomon ko‘rar ko‘p,
Rohati oz, g‘iybat,g‘avg‘osi to‘p-to‘p.
Hech yerda xotirjam bo‘lmaydi sira,
Ko‘p g‘amdan hamisha dilvayron, xira[3.187].

Darhaqiqat, alloma asaridagi asosiy g‘oyalardan biri rahbar va unga xos bo‘lgan xislat va fazilatlar mantiqiy ratsionallik tamoyilida bayon etiladi. Asarda alohida maxsus bob “Rahbarlikka loyiq bek qandoq bo‘lmog‘i haqida” deb nomlanadi. Bundan tashqari asarda rahbar qanday kishilarni vazir yetib tayinlashi, shuningdek, mas’ul lavozimlarga nomzod tayinlashda qaysi jihatlarga e’tibor berish lozimligi haqida bayon etiladi.

Alisher Navoiy o‘zining asarlarida rahbarning odil bo‘lishi, ilmga mehr qo‘yishi va yosh avlod tarbiyasiga befarq bo‘lmasligini qayd yetadi. U “Mahbub ul-qulub”da rahbar shaxsining fazilatlari va xalq oldidagi mas’uliyatini chuqur tahlil qiladi[4 ].

Ahmad Donish boshqaruv va islohotlarni ilm-fan asosida amalga oshirish zaruriyatini uqtirgan. U o‘zining “Navodir ul-vaqoye” asarida zamonaviy ta’lim, dunyoqarash va oqilona rahbarlik tamoyillarini ilgari suradi[5. 1520].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, birinchidan Musulmon Sharq mutufakkirlarining ilmiy merosida rahbarga xos bo‘lgan xarizmatik jihatlar ratsional tarzda batafsil ishlab chiqilgan. Ikkinchidan, allomalarimiz bayon etgan kasb etikasiga oid tamoyillar hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Uchinchidan, allomalarimiz ishlab chiqqan rahbarga oid fazilatlar haqidagi konsepsiyalardan zamonaviy rahbar kadrlarni tayyorlashda nazariy manba sifatida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Forobiy, Abu Nasr Fozil odamlar shahri –Toshkent:Yoshlar matbuoti, 2023. -320 b
2. Rahmonkulov I. “Donishnoma”da sharq falsafiy tafakkuri ifodasi // “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal. - № 4 (23)/ 2018. –B.327-334.
3. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”). – T, “Akademnashr”, 2015.
4. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» «Yangi asr avlodi»**:** 2019 yil 320 bet
5. Murodaliyeva M. Axmad Donishning “Navodir ul-vaqoye” asarida tarbiya masalalari// International Journal of Education, Social Science & Humanities.Finland Academic Research Science Publishers ISSN: 2945-4492 (online). – B.1518-1522.


## MIRZO ULUG‘BEK ILMIY MEROSINING TARIXIY AHAMIYATI”


**Khamidova Pokiza Mansurovna,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Marketing yo‘nalishi bo‘yicha talabasi
Elektron manzil: pokizakhamidova085@gmail.com



**Annotatsiya*:*** Mazkur maqolada mashhur falakkiyotshunos olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) ilmiy merosining umumbashariy ahamiyati yoritib beriladi. Xususan, Mirzo Ulug‘bek ilmiy akademiyasi va unda olib borilgan

ilmiy tadqiqotlarning Yevropa Uyg‘onish davrida astronomiya fanining rivojiga qo‘shgan hissasi bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mirzo Ulug‘bek, ilmiy-ma’rifiy, olim, matematika, astronomiya, buyuk astranom, madrasa, “Ziji-jadidi Ko‘ragoniy”, davlat arbobi, rasadxona, yulduzlar.

Markaziy Osiyo xalqlari davlat tarixida temuriylar hukmronligi alohida ahamiyat kasb etadi. Salkam 130 yillik mo‘g‘ullar istilosidan ona yurtini ozod qilgan Sohibqiron Amir Temur qisqa vaqt ichida ulkan bir imperiyaga asos soldi. Uning buyuk xizmati shundan iboratki, dastlab ona Vatanini mo‘g‘ullar zulmidan ozod yetdi, so‘ng (Movarounnahrda) Markaziy Osiyoda ikkinchi Uyg‘onish davriga shart-sharoit yaratib berdi. Mo‘g‘il bosqinchilari vayron etgan o‘lkamizdagi shahar (va qishloqlar)ni qayta bunyod yetish, ishdan chiqqan sug‘orish inshoatlari, irrigasiya tizimlarini tiklash bilan birga ilm, ta’lim maskanlarini qayta tiklashga katta e’tibor berdi. Erksevar xalqning bunyodkorlik va yaratuvchanlikka bo‘lgan intilishi sohibqiron rahnamoligida Sharq Renessansining navbatdagi ikkinchi to‘lqiniga asos bo‘ldi. Mug‘ullar istilosi natijasida tanazzulga uchragan Sharq xalqlari Renessansining ikkinchi to‘lqini Sohibqiron hukmronligi yillarida tarix maydoniga chiqdi. Amir Temur va uning vorislari, ya’ni farzandlari va nabiralari ham Movarounnahrda ilm-fan rivojiga homiylik qildilar. Uning vorislari orasida ko‘plab shoir va olimlar yetishib chiqdi. Xususan nabirasi Mirzo Ulug‘bek tomonidan Samarqandda ilmiy akademiya vujudga keldi. Mazkur ilmiy akademiyada olib borilgan tadqiqotlar nafaqat Sharq xalqlari ma’naviy yuksalishiga, balki Yevropada Uyg‘onish davri astronomiya fanini yuksalishiga ham xizmat qildi. Maqolamizda mazkur ilmiy akademiyadagi tadqiqotlarning tarixiy ahamiyatini bayon etamiz.

Temuriylar sulolasining davomchisi, Mirzo Ulug‘bek hukumronlik yillarida ilm-ma’rifat rivojiga katta e’tibor qaratilgan. Amir Temur saltanati poytaxti Samarqandga dunyoning ko‘plab olimlarini yig‘ib, katta kutubxonalar bunyod etgan edi. Olimlarning ilmiy tadqiqot faoliyati uchun barcha shart-sharoiti yaratiladi. Nabirasi Mirzo Ulug‘bek davriga kelib esa Samarqand ilm-fan, madaniyat va san’at markaziga aylanadi. Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod yetilgan madrasalar o‘z davrining yirik oliygohi edi. Bu madrasalarda taniqli olimlardan tashqari Ulug‘bekning o‘zi ham haftada bir marotaba ma’ruza o‘tgan[1]. Ulug‘bekning ilmiy maktabi nafaqat astronomiya, balki matematika, trigonometriya, geografiya kabi tabiiy ilmiy fanlar bilan birga tarix va falsafa singari ijtimoiy tadqiqotlarni ham o‘z ichiga olgan. Mirzo Ulug‘bek faoliyat olib borayotgan madrasasi uchun ilmiy laboratoriya – rasadxona ham bunyod yettiradi.

Mazkur rasadxona astronomik tadqiqotlar uchun markaz hisoblanib, unda yulduzlar, sayyoralar, kometalar kabi osmon jismlarini astronomik va fizik xususiyatlari o‘rganilgan. Shu bois Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi XV-asrning yeng mashhur ilmiy laboratoriya - astronomik rasadxonasi sifatida qayd yetilgan. Bu rasadxonada gorizontal sekstant (yulduzlar hamda quyoshning harakatlarini o‘rganish uchun ishlatilgan), astrolob (osmon jismlarining pozisiyalarini aniqlash uchun ishlatilgan), Quyosh soati va boshqa shu kabi asbob va uskunalari mavjud bo‘lgan. Rasadxonada shuningdek, Yer sharining globusi ham yaratiladi. Unda

dengiz va daryolar, cho‘l hamda tog‘lar ko‘rsatilgan edi. Mirzo Ulug‘bek ushbu rasadxonada zamonasining yeng mashhur olimalarini jamlab 1000 dan ziyod bo‘lgan yulduzlarning aniq koordinatalari o‘lchab topganlar. Bu kashfiyotlar, ya’ni tadqiqot natijalari “Ziji-jadidi Ko‘ragoniy” asarida bayon etilgan [2].

Mirzo Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan tadqiqot natijasida “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola” asari ham yozilgan bo‘lib, unda algebra, geometriyaga va trigonometriyaga tegishli tadqiqot natijalari bayon etilgan. Jumladan, geometriyaga oid bo‘lgan soya va tanjot qiymatlarini sakkiz o‘nlik kasr va sakkiz xona aniqligigacha o‘lchangan. Mirzo Ulug‘bek bir yilni 365 kun, 5 soat, 49 daqiqa hamda 15 soniya deb hisoblagan. U bu hisobida faqatgina 25 soniyaga xato qilgan xolos [3].

Samarqandda faoliyat olib borgan Mirzo Ulug‘bek akademiyasi xususida fransuz ma’rifatparvarlaridan Volter shunday degan edi: “Transoksianada uning (ya’ni Temurning) o‘rniga taxtga chiqqan mashhur Ulug‘bek Samarqandda birinchi akademiyaga asos soldi” [4.13].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Mirzo Ulug‘bekning asarlari orasida yeng mashhuri bu XV-asirning yiri kashfiyotlarini o‘zida mujassam etgan “Ziji-jadidi Ko‘ragoniy” asar hisoblanadi. Ushbu asar Mirzo Ulug‘bekning o‘ttiz yillik ilmiy izlanishlari natijasida sifatida vujudga kelgan. Ulug‘bekning “Ziji” Sharqda ham, G‘arbda ham keyingi falakkiyot ilmida mayoq vazifasini o‘tagan. Fan tarixida eng ko‘p murojaat etilgan, sharhlar bitilgan asarlardan biri ham Ulug‘bekning “Ziji”dir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek: “Mirzo Ulug‘bekning XVasrda tuzgan astronomiya jadvalida 1018 ta yulduzning holati va joylashuvibayon qilingan bo‘lib, bu asar astronomik o‘lchovlar bo‘yicha 16 asr davomida yaratilgan birinchi yangi katalog edi”[6]. Shu bois, Ulug‘bek ilmiy merosining yirik tadqiqotchisi A.Axmedovning ta’kidlashicha “Ziji Ko‘ragoniy” asariga murojaat etish, unga sharhlar bitish va tarjimalarni amalga oshirish XV asrdanoq boshlanib to XX asrgacha davom etgan[2].

Mazkur asarga dastlabki sharhlarni Ulug‘bekning mashur shogirdlaridan biri Ali Qushchi yozadi va uni “Sharhi Ziji Ulug‘bek”deb nomladi. “Ziji-jadidi Ko‘ragoniy”ga yeng mashhur sharhlardan biri Nizomiddin Abd al-Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjondiyning 1523-yilda yozilgan “Sharhi Ziji Ulug‘bek” asaridir. Olimlar uchun “Ziji-jadidi Ko‘ragoniy” katta nazariy manba bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, Shamsiddin Muhammad as-Sufiy al-Misriyning “Taqvim al kavakib as-Sab’a” va “Jadval al-mahlul as-sanaiy” asarlarida Ulug‘bek asari asosiy nazariy manba sifatida foydalangan.

Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchi Turkiyada borgan paytida ustozining ko‘plab asarlarini ommaga targ‘ib qilishi natijasida Yevropa ahli bundan xabar topgan. Yevropada ushbu asarga murojaat 1648-yilda ingliz astronomi J.Gris tomonidan, asar ingliz tiliga tarjima qilingan. Keyinchalik yevropaliklar “Ziji-jadidi Ko‘ragoniy” asarini yangidan tahrirlab nashrga berishadi. Masalan: mazkur asarni 1665-yilda Thomas Hyde tomonidan tarjima qilinadi. 1690-yilda polshalik astranom Yan Geveliy Ulug‘bekning yulduzlar katalogini Ptolomey, Tixo Brage, Richchioli, Vilgelm IV va o‘zining katalogi bilan qiyoslab o‘zining “Astranomiya darakchisi” degan asarini yozadi. ingliz olimi G.Sharp 1767-yilda T.Xayd tayyorlagan Ulug‘bek

kataloglarining ikkinchi marta nashr qildiradi. Uchinchi bor 1843-yilda F.Beyli mazukr asarni nashr yettiradi. Fransuz sharqshunosi L.A.Sedio 1847-1853 yillarda Ulug‘bek “Zij”ini fransuz tiliga tarjima qilib, izohlari bilan nashr yettiradi. Ulug‘bek “Zij”Amerikalik olimlardan Ye.B.Nobl 1917-yilda, K.Shoy 1927-yilda Ulug‘bek “Zij” ustida tadqiqot olib borib, o‘z asarlarin chop yettirganlar. Ulug‘bek “Zij”iga qiziqish Rossiyada Pyotr I davrida boshlangan. Gruziya podshosi, mashhur olim Vaxtang VI Ulug‘bek “Zij”nini gruzin tiliga tarjima qildiradi. Mirzo Ulug‘bekning “Ziji Ko‘ragoniy” asari Sharqda XV-asrdan, G‘arbda XVII asrdan astranomiya sohasida yerishilgan yutuqlar va kashfiyotlar uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qilgan.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, temuriylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda Sharq uyg‘onish davri yuzaga keladi. Samarqandda Mirzo Ulug‘bek tomonidan o‘z davrining mukammal akademiyasi tashkil yetiladi. Tabiiy ilmiy va tibbiyot sohasida, shuningdek ijtimoiy falsafiy va islom ilohiyotiga oid tadqiqotlarda olamshumul yutuqlar qo‘lga kiritiladi. Mirzo Ulug‘beknining «Zij»i ham astranomiya, matematika va trigonometriya fanlari rivojida besh asr mobaynida yeng mukammal nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qildi. Mirzo Ulug‘bek akademiyasidagi ilmiy tadqiqotlar, nazariy va amaliy xulosalar va yaratgan nazariyalar bashariyat bahramand bo‘lgan ilmiy merosdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Alisher Egamberdiyev. Mirzo Ulug‘bek haqida siz bilmagan 12 muhim ma’lumot // https://nuu.uz
2. Axmedov A.A. Ulugbek i yego «Zidj»//Ulugbek Muxammad Taragay. Zidji djadidi Guragoni.T.: «Fan». 1994
3. Hugh Thurston, Early Astronomy, (New York: Springer-Verlag), p. 194,
4. Abdurahmonov A. Ulug‘bek akademiyasi–T.: O‘zbekiston, 1993. - B.13.
5. Karimov I.A. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati // Samarqand gazetasi, 2014 yil 17 may soni.
6. Mirzo Ulug‘bek. Ilmi nujum astrology astrologiya. – Toshkent, Abdulla Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. –B.3-5.
7. Azizqulov A.Bashariyat bahramand bo‘lgan ilmiy meros//«Mirzo Ulugbek merosi va xozirgi zamon» mavzusida Respublika ilmiy konfernesiyasi materiallari 2014 y. 13-14 iyun. – Toshkent, 2014. –B.131-133.
8. Azizqulov A.Falakkiyot ilmi rivojida Mirzo Ulug‘bek ilmiy maktabining tarixiy ahamiyati// Ilm-fan: innovasiya va taraqqiyot” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyachi materiallari. – Toshkent, 2022.

# YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JALOLIDDIN MANGUBERDI JASORATINING TARIXIY AHAMIYATI

**Maqsudova Zilola Umidjon qizi,**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

**Annotasiya**: Mazkur maqolada buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining jasorati va uni yoshlarni mardlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jaloliddin Manguberdi, vatanparvarlik, jasorat, yoshlar tarbiyasi, tarixiy meros, milliy g‘urur, ma’naviyat.

Ma’naviy tahdidlar xuruji kuchaygan informasion globallashuv sharoitida yuksak ma’naviyatli va intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalash hamda ularning g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirishda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi va tarixiy xotira muhim jihat hisoblanadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ularda tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishda tarixiy meros, ya’ni, ajdodlarimiz tomonidan yaratgan ilmiy-adabiy va ma’naviy merosi hamda ularning vatanparvarlik jasoratlari muhim ahamiyat kasb etadi. Uch mingyillik davlatchiligimiz tarixida juda ko‘plab buyuk sarkardalar yetishib chiqdiki ularning jasoratlarini mardlik timsolida e’tirof etish Gerodot asarlaridan boshlanadi[1.119]. Mo‘g‘ullar istilosi davrida vatanparvarlik timsoli sifatida tarix maydoniga chiqqan jasur Jaloliddin Manguberdining jasoratiga hatto Chingizxondek vahshiy va qonxo‘r zolim ham tahsin aytgan[2.183-184].

Bashariyat tarixida o‘zining jasorati va mardligi, qahramonligi va vatanparvarligi, Vatan ozodligi yo‘lida tolmas kurashchiligi bilan o‘chmas iz qoldirgan Sulton Jaloliddin Manguberdi millatimiz iftixori va yoshlarimiz uchun ibrat namunasidir. Sulton Jaloliddin Manguberdi buyukligi uning nafaqat jasorati, balki aslzodalarga xos teran tafakkuri, yuksak aql-zakovat sohibi bo‘lganligidadir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “El-yurt ozodligini o‘z hayotidan ham ustun qo‘ygan Jaloliddin Manguberdi kabi mardlik va jasorat timsoli bo‘lgan bobolarimiz bugun xalqimizning iftixoriga aylangan”[3.242].

Millatimiz iftixori Sulton Jaloliddin Manguberdining aql-zakovati va jasorati hamda matonati o‘z davrida hatto raqiblari tomonidan ham munosib e’tirof etiladi.

Sulton Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyatiga oid yigirmadan ortiq musulmon tarixchilari asar bitganlar. Ishonchli manbalardan biri Shihobiddin an-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining tafsiloti” asari hisoblanadi[5.] Shihobiddin an-Nasaviy Jaloliddin Manguberdining munshiysi, shaxsiy kotibi, u bilan birga ko‘p masalalarni hal qilishda ishtirok etgan[6.7]. Shu bois asar muallifi avvalo o‘zi ko‘rgan va guvoh bo‘lgan hodisa hamda jarayonlarni yoritishga harakat qilgan. Shihobiddin an-Nasaviydan keyin yashagan tarixchilarning ko‘pchiligi uning asarining ishonchli ekanligini ta’kidlaganlar.

Sulton Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyati yoritilgan Sharq tarixchilarining asarlarini fransuz, ingliz va nemis tiliga tarjima qilinishi bilan XVIII

– XX asrlarda Yevropa tarixchilarining ham sarkarda tarixiga qiziqishlari ortadi va asarlarida sarkarda faoliyati xususida to‘xtalib o‘tadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixiy manbalarda, avvalo Sulton Jaloliddin Manguberdining samimiyligi va insonparvarligi yoritilgan. Ikkinchidan, Sulton Jaloliddin Manguberdining harbiy yurishlardan maqsadi bosqinchilik, talon-taroj emas, balki “tinchlik asosida hamkorlik qilish” ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

To‘rtinchidan buyuk sarkardaning jasorati asrlar davomida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘rnak va namuna bo‘lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Геродот. История// История античности М,1998.-119с.
2. Mirzo Ulug‘bek To‘rt ulus tarixi T.1994. -352 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Oqqan daryo aslo to‘xtamas/Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2017y. 239-272 betlar.
4. Kartlis Sxovreba bitiklari. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti/-T.:O‘zbekiston, 1999 y.-222 b.
5. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti/-T.:”O‘zbekiston”-“Yozuvchi”, 1999y.-432 b.
6. Kamol Muhammad Yoqub Sulton tarixining tadqiqi/ Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti/-T.: ”O‘zbekiston” - “Yozuvchi”, 1999y. -5-14 betlar.

## III.SHO‘BA. JADIDLAR MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATIDA YANGICHA YONDASHUVLAR, ULARNING HOZIRGI ZAMON TA’LIM TIZIMIDAGI ROLI VA AHAMIYATI

# JADIDLAR FAOLIYATIDA YANGICHA TAFAKKUR FORMATLARI: IJTIMOIY-MA’NAVIY KONTEKST VA SHAKLLANISHI

**Azizqulov Akrom Abduraxmohovich**
SamISI ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri,falsafa fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: akramproton@gmail.com
**Kushakov Shuxrat Salievich**
SamISI ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori, professor

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada internetning ijtimoiy tarmjqlarida paydo bo‘lgan tafakkur formatlari g‘oyasining falsafiy-tarixiy reflesiya muammolariga nisbatan qo‘llanilisi mumkinligi bayon etilgan. Xususan, XVII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda ma’rifatparvarlik ma’naviy-g‘oyaviy harakat maydonida taraqqiy etgan insonparvarlik tafakkur formatlari jadidlarning milliy istiqlol tafakkuri formatlarini shakllanishi bilan yakunlanganligi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ijtimoiy kommunikatsiya, shakl, format, hurfikrlilik, gumanistik tafakkur, milliy istiqlol tafakkuri formatlari

XX asrning II yarmida boshlangan kompuyter inqilobining olamshumul oqibati internetni yaratilishi bo‘ldi. Endi biz XXI asrda havbatdagi, lekin butunlay yangi kompuyterli kommunikatsion inqilobni guvohi bo‘lib turibmiz. Mazkur inqilobninig eng muhim natijasi ijtimoiy tarmoqninig vujudga kelishi va qisqa muddatda sayoramizda ijtimoiy hayotninihg global omili va sharoitiga aylanganligidir.

Vujudga kelgan yangi tipdagi ijtimoiy kommunikatsiyaning mazmun-mohiyati shundan iboratki, muloqot va axborot almashishda fazo va vaqt jihatdan chegara yo‘qoldi, mintaqaviy of-line muloqot tarmoqlashgan global on-line muloqotga aylandi. Har bir inson on-line rejimida barcha foydalanuvchilar, ko‘pchilik esa ishlab chiqilgan resurslar va ilovalar orqali har bir kishi bilan o‘zaro, interaktiv muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Ijtimoiy tarmoq tufayli undan foydalanuvchilar on-line platformalar, profillar, postlar yaratadilar, yangi axborot etkazadilar, turli xildagi fayllar, loyihalar, g‘oyalar, mazmunli kontentlar bilan almashadilar. Internet esa ko‘plab yaratilgan va yaratilayotgan ma’naviy qadriyatlarni saqlaydigan global resursga aylandi.

Yana bir muhim o‘zgarish. Internetning interaktiv muloqot maydonlarida yangi ijodkor sub’ektlar,ya’ni ijtimoiy tarmoqning muloqot maydonlariga yangi g‘oyalar, loyihalar, brendlar tashlab turadigan figurantlar (virtuallik ijodkorlari): strimerlar, xaylayterlar, topikstarterlar, influyenserlar, ambassadorlar paydo bo‘ldi. Bularni orasida topikstarterlar o‘rinni egallaydilar.” Topikstarter” so‘zi inglizcha topik starter so‘zlarini birikmasi bo‘lib “mavzuni boshlovchi”, interaktiv muloqot

platformasida yangi muammo, g‘oya yoki loyihani muhokamaga qo‘yish tashabbuschisi ma’nolarini ahglatadi.

Shundy qilib, topikstarter biron-bir on-line anjumanda yoki platformada yangi mavzuni taqdim etgan tashabbuskor shaxsdir. Topikstarter zamonning dolzarb muammosini ko‘pchilik qiziqishini o‘yg‘otadigan mavzuga aylantiradi va qisqa vaqt ichida uni muhokama qiladigan on-line interaktiv maydonni yaratadi. Demak, topikstarterning faoliyati jamiyatda innovatsion g‘oyalar va yondashuvlarning muhim resursini tashkil qiladi.Tabiiy-ki, internetdagi falsafiy refleksiya va muloqot maydnlari, platformalari bundan istisno emas. O‘zbekiston topikstarterari Ulug‘bek Yaxshiev, Qiyomiddin Nazarov va boshqalarning faoliyatlari shundan dalolat beradi.

Asrimizning boshlarida tadqiqotchi Aleksandr Lyamin ishlab chiqqan tafakkur formatlari nazariyasini topikstarter Cergey Cotnikov muhokama uchun internet muloqot platformasiga joylashtirdi [1]. Mazkur nazariya tadqiqotchilarda qiziqish o‘yg‘otdi, baxsga chorlaydigah fikrlar ilgari surildi [2].

Bizningcha, tafakkur formatlari hazariyasi ( aniqrog‘I g‘oyasi) ana’naviy falsafiy kategoriya bo‘lgan “shakl” kategoriyasiga yangi mazmun beradi, uning yangi semantic qirralar bilan boyitadi, shu jumladan, “shakl” va “format” tushunchalari dialektikasini ochib beradi.

Falsafada talqin qilinishicha shakl-biror narsaning tuzilishini, uning qismlari o‘rtasidagi aloqadorlikni bildiradi. Agarda shakl chegaraga, tugallangan mazmunga, boshqa shaklga aylanish imkoniyatiga ega bo‘lsa bunda shakl format ko‘rinishini oladi. Format-bu individuallik va funksional xislatlari mavjud shakldir [3, 60-65]. Falsafa va fanda tafakkur jarayoni g‘oya, ta’limot, paradigma ko‘rinishlariga ega bo‘lgan tafakkur formatlarini hosil bo‘lishi bilan yakunlanadi.

Tafakkur formatlari g‘oyasini falsafiy-tarixiy tadqiqotlarda qo‘llash, fikrimizcha, oldingi zamonlarda ishlab chiqilgan g‘oyalar va ta’limotlar evolyutsiyasining yangi tomonlari qirralarini ochish va tadqiq qilish imkoniyatini beradi. Biz shunday qo‘llashni jadidchilik tafakkyri formatlari evolyutsiyasini tadqiq qilish misolida ko‘rib chiqamiz.

Jadidlar ishlab chiqqan ilg‘or ta’lim tizimi, uning ijtimoiy-ma’haviy poydevorini tashkil qilgan milliy istiqlol g‘oyasi Turon zaminida to‘xtovsiz sodir bo‘lgan ma’naviy va intellectual taraqqiyotning davomi va natijasidir. I va II Renessans davrlarida yaratilgan g‘oyaviy-ma’naviy qadriyatlar XVIII-XIX asrlarda vujudga kelgan ma’rifatchilik va erkinlik tafakkur formatlarining taraqqiy etishida vorisiy zamin bo‘lib xizmat qildi.

Tafakkur formatlari negizida tayanch tushunchalar, sinergetika fani tili bilan aytganda, ma’no-mazmunlarni o‘ziga tortuvchi attractor-konseptlar turadi. Xususan, XVIII-XIX asr boshlarida Markaziy Osiyo ma’naviyati olamida turli falsafiy, ma’naviy-axloqiy mazmun va shakllarda yaratilgan gumanistik tafakkur formatlari ustuvor intellectual-g‘oyaviy yo‘nalish bo‘lgan. Gumanistik tafakkur formatlariga bir butunlik bag‘ishlovchi attractor-koseptlar tarkibiga insof, adolat, diyonat, saxovat, donolik, rostgo‘ylik, ruhiy komillik, halollik, mehr-oqibat, kamtarlik kabi tushuncha va tasavvurlar kiradi.

Gumanistik tafakkur formatlarini shakllanishiga izlanish impulsini brgan ijtimoiy-ma'naviy kontekst quyidagilardan iborat bo'lgan:"Xususan XVI asrdan boshlab Movarounaxrda o'zaro urushlar, nizolar avjga chiqdi. Bu jarayonlar iqtisod, madaniyat, ilm-fan, falsafa, adabiyot, sana't ravnaqiga o'z ta'sirini ko'rsatgan albatta"[4, 67]. Mazkur kontekst va mna'naviy-ma'rifiy sharoit konkret tarixiy davrda yashab ijod etgan alloma ongiga ta'sir etgan va ayni paytda o'zining individual tafakkur tarziga ega bo'lgan alloma mavjud yoki shakllanayotgan tafakkur formatiga qo'shimcha konseptual chizgi bergan, yangi attraktorli konsept bilan boyitgan.

XIX asrga kelib Turkistonda shakllangan gumanistik, ya'ni insonparvar va ma'rifatparvar tafakkur formatlari tarkibiga yangi tasavvurlar- ijtimoiy erkinlik va ozodlik g'oyalari kirdi. Mutafakkir allomaona Dilshod Barno ijtimoiy illatlardan, shu jumladan, qullikdan xalos bo'lish imkoniyatlari ustida o'ylanib inson ixtiyor erkinligiga erishish yo'lida qanday kurashmoq maqsadga muvofiq masalasini qo'yadi [5, 135]. Uning fikricha illatni illatli shaxsni yo'q qilish orqali emas, balki shaxsdagi illatni yo'qotish, ya'ni illatni fazilatga aylantirish zarur.

Jadidchilik harakatiga hamohang faoliyat ko'rsatgan, ensiklopedik olim Ahmad Donish ijtimoiy erkinlik va taraqqiyot tafakkur formatiga yangi g'oyalar va tamoyillarni kiritdi. Mazkur tafakkur formatida quyidagi attraktorli konstruktiv konseptual elementlar markaziy o'rinni egallagan: insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatkash halqqa muhabbat, uning manfaatlarini ko'zlash, ozodlik va rivojlanishga intilish, feodal tuzumiga nafrat [6, 155].

XIX asrda yaratilgan ijtimoiy erkinlik va taraqqiyot tafakkur formatlari amaliy harakat dasturi bo'lmaganligi bois jamiyatga ta'siri kuchliroq bolgan boshqa tafakkur formatlarini ishlab chiqish , jamiyatni o'zgartirish harakatiga yzhgi impuls berish zaruriyati tug'ildi. Tafakkur formatlarini o'rab turgan ijtimoiy-ma'haviy kontekst ham o'zgargan edi. "Qo'qon xonligini tugatilishi,- deb yozadilar Q.Nazarov va D.Amriddinova,- Buxoro amiri va Xiva xonliginig butunlay mag'lubiyatga uchrashi, temir yo'llar qurilishi, yangi iqtisodiy aloqalar, fikrini, bosmaxonalarning vujudga kelishi, rus olimlari tomonidan Markaziy Osiyoda turli ilmiy jamiyatlarning tuzilishi hamda shu kabi muhim omillarni vujudga kelishi mustamlaka Turkistonning ilg'or kishilari fikrini o'yg'otdi" [7, 254].

Xulosa qilib aytganda, jadidldr tashabbusi bilah boshlahgan milliy tiklkanish harakatining g'oyaviy-ma'naviy asosini milliy ozodlik tafakkur formati tashkil qilib, bu formatning taraqqiyotga olib boradigan bosh attractor g'oya-tushuncha-ozodlikdir. Maxmudxo'ja Behbudiy o'zining qatl etilishidan oldin yozgan vasiyatida bashoratomuz so'zlarni keltiradi: "Ozodlikni tezlik ila uyzaga chiqaringizlar! Bizning otimizga maktablar ochingizlar!".

## ADABIYOTLAR


1. Sotnikov S. Ocnovi teorii formatov mishleniya // https://mindformat.ru › files › presentation_01
2. Kuparashvili M. D. Formati mishleniya I problem obrazovaniya // Nauka I obrazovanie. Vestnik ekspertnogo soveta/ 2015. №3 (3). -C.62-68.

3. Kushakov Sh.S. The idea of formats of thinking and its application to study of ancient philosophy // American Journal of Research. USA, Michigan. 3-4 March-April 2022. P. 60-65.
4. Hazarov Q. XVII-XIX asr o‘zbek falsafasi // O‘zbek falsafasi tatixi. III-jild. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020.-67-74 b.
5. Muhammadjonova L. Dilshod Barno ijodida ma’naviy-axloqiy g‘oyalar inikosi // O‘zbek falsafasi tatixi. III-jild. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020.-134-142b.
6. Axmedova Z. Ahmad Donishning falsafiy qarashlari // O‘zbek falsafasi tatixi. III-jild. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020.-143-162b.
7. Nazarov Q., Amriddinova D. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda milliy o‘yg‘onish va jadid falsafasi // O‘zbek falsafasi tatixi. III-jild. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020. -252-265 b.

## JADIDCHILIK HARAKATINING PAYDO BO‘LISHI, JADID NAMOYONDALARI VA ULARNING FAOLIYATI

**Turatov Shuxrat Baxromovich**
Jizzax politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi, shakllanishi, rivojlanish jarayonlari, bu borada ushbu harakatning yetuk naomyondalarining tutgan o‘rni va roli haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Jadid, milliy manfaat, davlatchilik, ta’lim, tarbiya, g‘oyaviy-siyosiy qarashlar, iqtisodiy, ijtimoiy muammolar.

Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da’vat etib turadi[85].

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan muslamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o‘ynadi. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va

[85] https://yuz.uz/news/jadidchilikni-nega-va-qanday-organishimiz-kerak

madaniy isloxotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo‘lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo‘ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo‘ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o‘qitish usuli «usuli savtiya», ya’ni «yangi usul» nomi bilan shuxrat qozondi. «Jadid» arabcha so‘z bo‘lib, «yangi» degan ma’noni bildiradi. Mashhur jadidshunos olim, professor Begali Qosimov “Milliy uygonish” deb nomlangan kitobida “jadidchilik” istilohining kelib chiqishi haqida to‘xtalib, shu munosabat bilan uning mohiyati to‘g‘risida ham fikr bildiradi:“Jadidchilikning” asosida “jadid” so‘zi yotadi. “Jadid”ning ma’nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo‘lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur“, "yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan[86].

Ismoilbek g‘oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari «jadidlar», uning g‘oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o‘zining «Tarjimon» (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ‘ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.

I. Gasprali 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘ldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898 yilda To‘qmoqda (Qirg‘iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alohida e’tiborga molikdir.
Jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.

2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.

3. Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo‘ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho‘lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishdi. Yangicha o‘qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta’lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko‘ra maktablarda o‘qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo‘lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo‘lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o‘qigandan ko‘ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli

[86] Qosimov Begali. Milliy uygonish - T: Ma’naviyat. 2002.

tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so‘zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma’rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro‘znomalarning ko‘plab vujudga kelishida ham ko‘rindi. Jumladan, 1906 yilda Ismoil Obidovning muharrirligida «Taraqqiy», shu yili Munavvarqori muharrirligida «Xurshid», 1907-1908 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida «Shuxrat», Axmadjon Bektemirov muharrirligida «Osiyo» ro‘znomalari chop etildi. Ma’rifatchilikning yangi to‘lqinida 1913-1915 yillarda «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona», «Buxoroi sharif», «Turon», 1917 yilda esa [87]«El bayrog‘i», «Kengash», «Xurriyat», «Ulug‘ Turkiston» gazetalari, «Oyina» jurnali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo‘ldi.

1917 yil iyulda «Sho‘roi islomiya»dan «Sho‘roi Ulamo» tashkiloti ajralib chiqdi. Ammo Ta’sis majlisida o‘rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki oqimning keyinchalik qo‘shilishiga va «Turk Adami markaziyati» nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi. Biroq Turkistondagi oktyabr voqealari va bolsheviklarning zo‘ravonlik bilan hokimiyatni egallashi ularga o‘z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular Petrogradda tuzilgan Lenin boshchiligidagi bolsheviklar xokimiyatining «Rossiya xalqlari Deklaratsiyasi» (1917 yil 2 noyabr), «Rossiya va sharqning barcha musulmon mexnatkashlariga» Murojaatnoma (1917 yil 20 noyabr), hujjatlarda ko‘rsatilgan millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi to‘g‘risidagi huquqlardan foydalanib, Turkiston muxtoriyati xukumatini e’lon qildilar. Uch oygina yashagan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta’qibga uchradilar. Munavvarqori Abdurashidxonovning guvohlik berishicha, «Ittixodi taraqqiy» (1917-1920), «Milliy ittixod» (1920-1925), «Milliy istiqlol» (1925-1929) va «Turkiston Milliy Birligi» (1921-1923) (raisi Axmad Zakiy Validiy) maxfiy tashkilotlari o‘lkada hokimiyatni qo‘lga olish maqsadida faoliyat yuritgan[88].

Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko‘rsatdilar va o‘z faoliyatlari bilan xalq ta’limi san’atini rivojlantirishga ma’rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga ko‘nikmay xorijga o‘tib ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo‘shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g‘oyaviy rahnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilishdagi sa’y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929, 1937-1938 yillarda ommaviy qirg‘in qilinishiga olib keldi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida shakllangan bo‘lsa ham bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga ham o‘ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o‘tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo‘lga kiritishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsalar,

[87] Qosimov Begali. Milliy uygonish - T: Ma’naviyat. 2002. 5-b
[88] Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. T.: “Fan”, 1996.

keyinchalik xon va amir yakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga to‘siq ekanligini tushunib yetdilar. Chunki 1917 yilda Xivada Asfandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan yosh xivaliklardan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning taqiqlanishi va Junaidxon davridagi yosh xivaliklarning qattiq ta’qib qilinishi; Buxoro amiri Said Olimxonning o‘zi qabul qilgan islohotlar o‘tkazish haqidagi farmonini bekor qilishi va 1918-1920 yillarda yosh buxoroliklarning quvg‘inga uchrashi shunga olib kelgan. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqillikni saqlab qolishga intildilar (1920-1924). Biroq sovet rejimi avval Buxoro va Xorazm davlatlari mavjudligiga chek quygan bo‘lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan mavh qildi. Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so‘ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi.

Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da’vat etib turadi” [6].

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Qosimov Begali. Milliy uygonish - T: Ma’naviyat. 2002.
2. Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari. // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam. 1999. №1.
3. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. T.: “Fan”, 1996.
4. Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronlikka qarshi kurash. T.: “Sharq”, 1998.
5. O‘zbekiston yangi tarixi. 1 – kitob. T.: 2000.
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi // https://president.uz/oz/lists/view/6919


## JADID NAMOYONDASI BEHBUDIYNING BUGUNGI KUN YOSHLARI MA’NAVIY TARBIYASINING ASOSI


**Tursunova Olmos Fayziyevna,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi



**Annotatsiya:** Maqola jadidlarning boy ma’naviy merosini o‘rganish masalasiga qaratilgan. Ma’rifatparvar Behbudiyning tarbiya, ta’lim, ilm, bilimga doir o‘gitlarining hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligi ochib

beriladi. Yoshlar ma’naviy tarbiyasining dasturulmali sifatida qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar**: Behbudiy, yoshlar, ma’naviyat, ilm, ma’rifat, bilim, tarbiya

Yurtimizda buyuk jadidlarning ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: «Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi» [1].

Albatta, bugungi tinch va erkin hayotning qadrini, yoshlar ma’naviy tarbiyasini, ilmga, bilimga bo‘lgan e’tiborni bizni Behbudiy hikmatlarida ko‘ramiz. Behbudiy o‘zining asosiy diqqatini aynan ilm, tarbiya, ta’limga qaratadi. U ta’kidlaganidek, “Har zamonni(ng) ilmi, hikmati va parvarishi boshqadir. Modomiki, har bola, ya’ni har kimni(ng) zamoni, otasi zamonidan boshqa bo‘lsa va har otag‘a o‘z farzandini kelar zamon uchun va kelar zamonig‘a muvofiq suvratda tarbiya va ta’lim etmog‘i lozim bo‘lsa, biz na uchun kelar zamon emas, balki hozirgi va bu kungi zamon va soatimizdagi ilm va fanlarni bolalarimizg‘a o‘rgatmaymiz”[1].

Shu g‘oyalari asosida yoshlarga o‘gitlar, pand-nasihatlar qiladi. Hamda bugungi kunning asosiy prinsipi bo‘lgan, o‘zining natijasini beradigan eng zo‘r investitsiya bu farzand ilmiga, ta’limiga yo‘naltirilgan investitsiyadir degan tamoyil Behbudiyning qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Ey muhtaram yoshlar! Aziz birodarlar, o‘g‘il to‘ylarig‘a sarf qilaturgon aqchalaringizni mana shul zamoni yo‘lig‘a sarf etingiz, sizdan o‘g‘lingizg‘a mol meros qolmasin, balki, albatta, ilm va tarbiya meros qolsin” [1].

Jadidchi Behbudiy fikricha, ma’rifat uchun b irgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Zero, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni jamiyat a’zolaridan quyidagilarni so‘rashga undaydi: “Yoshlardan himmat va g‘ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerak” [1].

Bugun biz yuzma-yuz bo‘lib turgan milliy g‘oya, ma’naviyat, milliy mafkura masalalari bilan bundan yuz yil oldin jadidlarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo‘yilgan va qizg‘in muhokama qilingan masala bo‘lgan. Buni Behbudiyning fikrlaridan ham uqib, anglab olish mumkin: “Makotib – taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning durdonasidir” [1].

Albatta, yoshlarimizni yurt ravnaqi va kelajagi yo‘lida birlashtirish, qalblarni uyg‘otish, dunyo xaritasida har tomonlama taraqqiy etgan Yangi O‘zbekistonni barpo etishni ko‘zlagan ma’naviyat, milliy g‘urur g‘oyasining ildizi aslida ma’rifatparvar jadidlar faoliyatiga borib taqaladi: “Ey g‘ayratlik yoshlar! Nifoq va bir-birig‘a dushmanlikni tashlangiz. Xudo haqqi, arvohi anbiyo hurmati va bu kunlarda qornini to‘yg‘izolmayturgon yetim va bevalar haqqi, bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilib, xoliq Xudoning nafig‘a, din va millat yo‘lig‘a xizmat

etingiz. Millat va xalq sizdan xizmat va yaxshilik talab etudur, nafsoniyat va g‘urur emas” [1].

Davlatimimiz yoshlarga kelajak binokorlari sifatida qarar ekan, bu yo‘lda bizga buyuk tariximiz – murabbiy, ajdodlarimizning ibratli hayoti, faoliyati va ma’naviy merosi, ayniqsa bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan hikmatli gaplari dasturulamaldir: “Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir, qarilar zamoni o‘tgan. Siz kiromg‘a bobasirat bo‘lib, o‘n daf’a o‘lchab, bir daf’a kesingiz” [1]. Behbudiy xulosasiga ko‘ra, millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi, deydi. Uning quyidagi mulohazalarini uchratamiz: “Fanning ibtidoiy ta’limini ko‘rmagan kishiga o‘rta va oliy qismini madrasalarg‘a kirgizib ta’lim bermakdin foyda chiqmaydur” [1].

Ustoz milliy g‘oya bilan ish tutilsa, millatning jonlanishiga, ma’rifatli avlod shakllanib hayotning go‘zallashishiga ishonadi. Bugina emas, uni hayot-mamot masalasi deb biladi. Millatning milliy, diniy, insoniy huquqlarini muhofaza qilishda birinchi vosita deb hisoblaydi: “Ulamo tarbiyaxonasi maktab va madrasalardur, agarda o‘shal maktab va madrasa muallim va mudarrislari olim bo‘lsa va shogirdlarig‘a ko‘ngli ilan ta’lim bersa, albatta, ilm hosil qilur. Agarda muallimni o‘zi hozirgi aksar maktabdor va mudarrislardek kamhavsala yoinki kamilm bo‘lsa, yoinki ilmi bo‘lub turub, usuli tahsildan xabarsiz bo‘lsa, ani(ng) shogirdlari nodon qolur” [1]. Behbudiy qalbini o‘rtagan eng katta dard – erk va ma’rifat bo‘lgan. Uning qarashlarida ma’rifiy ruh, iztirob to‘la fikr-mulohazalar bugungi yoshlarimizni befarq qoldirmaydi. Jumladan, Yurt, Vatan tuyg‘usi ifodasi uni bugun yoshlarga haddan tashqari yaqin qilib qo‘yadi: “Zamoncha ilmi diniy va zamoniy kerak”, deydi ustoz. [1].

Ilm – hunar g‘ayrat va mehnat bilan qo‘lga kiradi. Ilmga, ma’rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g‘oyasi millatning ko‘pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Haqiqatdan ham, Behbudiyning olib borgan barcha ishlari shunga xizmat qildi. Shu tariqa har bir g‘oyaning milliy g‘oyaga aylanishi, Behbudiyning fikricha quyidagi shartni taqozo etadi: “Yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarining ibtidoiy tarbiyasig‘a va maktablarning har jihatdan intizom va akmalig‘a ko‘b ahamiyat berub, bolalarini milliy va diniy ruhda kamol suvratda yetushdurarlar. Aning uchundirki, o‘zga millatlar diniy va milliy hissiyotg‘a molik bo‘lub, har ishda diyonat va millatni muqaddam tutarlar. Va, luzumi kelganda, bu yo‘lda mol va jonlarini fido qilmoqg‘a hozir turarlar” [1]. Behbudiy istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo‘ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo‘ravonlik g‘ayriaxloqiy, binobarin, g‘ayriinsoniydir. Umuman, mustaqillik uchun kurash olib borgan jadidlar, jumladan Behbudiy kelajak haqida fikr yuritar ekan, istiqlolga erishish borasida quyidagi yo‘ldan borishni tavsiya etadi: “Ilmsizlik va tarbiyayi diniya va axloqi milliyadin bebahralikni(ng) oxiri dinsizlik va rasman tarki din etmoqqa majbur bo‘lur [1].

Behbudiy ilmiy ishlarining aksariyati ilm, kasb, til o‘rganish va ma’rifatli bo‘lishga chaqiriqlar to‘g‘risida edi. Behbudiy millat kelajagi, mamlakat taraqqiyoti va eng muhimi uning mustaqilligi, erki uchun qilgan mehnat va xizmatlarini yoshlarga yetkazib berish bugungi kunnning dolzarb vazifasidir. Shu o‘rinda uning: “Ilm mushtarakdur. Bilgannikidir” [1] degan prinsipi kun tartibidagi birinchi

masaladir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan Behbudiy istiqlol, ozodlik, erkinlik uchun qilgan xizmatlari, uning milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishdagi hissasi beqiyosdir.

Har bir millat taraqqiy topmog‘i uchun jahon ilm-fani yangiliklaridan, umuminsoniy g‘oyalardan foydalanishi kerak. Lekin muhim sharti shundaki, bu fikr-g‘oyalar millatning yuragi va ongidan o‘tmog‘i, milliylashishi zarur. Shundagina u millat yo‘lida xizmat qila oladi. Hammamizga ma’lumki, hozirgi globallashuv jarayonlari kechayotgan bir paytda “ommaviy madaniyat” istar-istamasakda yoshlarimiz ma’naviy tarbiyasiga ta’sir etmoqda. Shu o‘rinda ustozning fikrlari o‘ta dolzarblik kasb etadi: “Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, farq-u zalolat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir” [1]. Mana shu jaholatdan esa qutulishning bir yo‘li, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “jaholatga qarshi o‘n ma’rifat bilan kurashmog‘imiz darkor”ligi dolzarbligicha qoladi. Albatta bu boradagi mas’uliyat ziyolilar zimmasiga tushadi. Chunki millat ehtiyojini qalban anglovchi va oldinga boshlovchi ziyoli sinfidir. Buning uchun esa, o‘sha ziyolining o‘zi milliy axloq va tarbiya egasi bo‘lmog‘i kerak. Behbudiyning “Har millat va din ahlining boshchi va hodiysi ulamodurlar”, degan fikri o‘rinlidir [1]. Behbudiy ona yurtini unda yashab turgan barcha qon-qarindosh millatlarning birligi, hamkorligi bilangina saqlab qolish mumkinligini teran anglaydi. U millatning, ma’rifatning haqiqiy ma’naviy otasi edi. U butun vujudi bilan birlikka chorlaydi: “Har bir millat, eng avval makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etub, ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirib, madaniyatdan foydalanmas” [1].

Xulosa o‘rnida, Behbudiyning boy ma’naviy merosi hozirgi kunda yoshlar tarbiyasiningyorqin yulduzi desak, mubolag‘a qilmaymiz. Zero, tafakkurimiz taraqqiyoti tarixida mohiyati va mazmuniga ko‘ra tamoman yangi bo‘lgan Behbudiyning milliy tarbiyasining roli va o‘rni alohida. Behbudiy hikmatlarida ko‘tarilgan g‘oyalar mutlaqo yangi va aksariyat mavjud tuzumga zid bo‘lgani bilan ajralib turadi. Albatta, bu fikrlar Vatan va millat manfaati nuqtayi nazaridan yondoshgandagina, mohiyatini har bir yosh to‘g‘ri anglagan bo‘ladi. Zero, “Ilmsiz millat, qavm asir va zaif qolur. Ilmsiz davlatni foydasi yo‘q, ilmsiz dunyodorni hayoti yo‘q”dir [1].

**Adabiyotlar:**

1.Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi,. 2022. - 156 b.

## JADID ALLOMALARINING TILIMIZ RAVNAQIGA OID QARAShLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Kuchkarova Fazilat Xankeldiyevna,**
Samarqand Zarmed universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri
**Yusupov Murodali Sunnatovich**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa doktori (PhD)
E-mail: murodaliyusupov63@gmail.com

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada jadid allomalarimizdan A.Avloniy, M. Behbudiy, A.Fitratlarning milliy til masalasi, nutq madaniyati, tilimizning boyligi, so‘z yasalishi masalalari, til va imlo, adabiy til, so‘zlashuv nutqiga oid fikrlari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** A.Avloniy, "Hifzi lidon", M.Behbudiy, "Til masalasi", A.F. "Tilimiz", til sofligi, milliy til va milliy adabiyot, adabiy til, til v me’yor.

Xalqimizning sevimli shoirlaridan biri Erkin Vohidov XX asr boshida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashgan jadid allomalarimizning ulkan ishlaridan biri – milliy tilimiz rivojiga qo‘shgan hissalari xususida quyidagi fikrlarni keltiradi: “O‘zbek tilining bugungi darajasi, turkiy tillar ichida tutgan mavqyei uchun biz ko‘p jihatdan o‘tgan asr boshida yashagan ziyolilardan minnatdor bo‘lishimiz kerak. Ular o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlaridan dadillik bilan foydalandilar, xalqda milliy g‘urur, ona tiliga hurmat tuyg‘usini tarbiya qildilar”. Haqiqatan ham A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Alixonto‘ra Sog‘uniy, Elbek, Cho‘lpon kabi qator mutafakkirlarimiz o‘z maqolalarida, asarlarida milliy qadriyatlarimiz, boy merosimiz, adabiyotimizni saqlab qolish barobarida milliy tilimizni asrab qolish uchun harakat qilganlar. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamolaridan biri, XX asr o‘zbek maorifi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, o‘zbek teatrchiligining tamal toshini qo‘ygan teatr arbobi, mashhur ma’rifatchi, qator darsliklar, she’riy to‘plamlar va dramalar muallifi A.Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining “Hifzi lison” qismida har bir millat o‘z ona til va adabiyotini saqlashi lozimligini, milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotish bilan barobarligini ta’kidlagan holda, shu millatning har bir fuqarosi tilimiz sofligi uchun kurashishi zarurligini, boshqa tillarni ham bilish kerakligi, biroq ularni ham o‘z o‘rnida ishlatish zarurligini, o‘z tilimizda mavjud so‘zlarning boshqa tildagi sinonimini qo‘llash shart emasligini ta’kidlaydi va boshqa tillardan so‘z qidirmasdan, o‘z ichki imkoniyatlarimizdan foydalanishni aytib o‘tadi: “Bobolarimizga yetushg‘on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O‘z uyimizni qidirsak va axtarsak yo‘qolganlarini ham toparmiz” [2, 60-b]. A.Avloniyning quyidagi satrlari nihoyatda to‘g‘ri va umrboqiy satrlar ekanligini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham o‘z nutqlarida esga oldilar: “Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir” [1].

Bundan tashqari A.Avloniy milliy til masalasi bilan bir qatorda nutq madaniyati, notiqlik san’atiga oid fikrlarni ham keltirib o‘tadi: “Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilib va oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdir” [2, 61-b]. A.Avloniyning yuqoridagi fikrlaridan anglashiladiki, mutafakkir adib tilga oid eng asosiy jihatlarga yondashganlar.

Adabiyotshunos olim B.Qosimov ta’riflari bilan aytganda [3, 5-b], o‘zbek jadid adabiyotining asoschisi, Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist M.Behbudiy “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Til masalasi” maqolalarida o‘lkamizda o‘sha davrda amalda qo‘llanilgan tillar va ularning qo‘llanilish sababi, boshqa tillarni ham o‘rganish davr talabi ekanligi,

tilimizning lug‘at sathi, unga qadimdan o‘zlashgan fors-tojikcha, arabcha so‘zlar, adabiy til masalasi, atamashunoslik muammolari xususida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tgan. Ayniqsa, “Til masalasi” maqolasida til siyosatiga oid qator muammoli, munozarali masalalar o‘rtaga tashlanganki, bu masalalarning ayrimlari bugungi kunda ham tilshunosligimizning dolzarb masalalardan sanaladi. M.Behbudiy ushbu maqolada umumxalq tili, adabiy til, sheva masalalarida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdan tashqari, turkiy tilga forsiy va arabiy til ta’siri darajasi va sababini hudud nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qilgan. Bu maqolani o‘qir ekanmiz, bugungi kunda tilshunosligimizda shakllanayotgan sohalar sosiolingvistika, areal lingvistikaning o‘rganish obyekti, predmetlari aynan, Behbudiy tomonidan tilga olinganining guvohi bo‘lamiz[3, 165-166-b]. O‘sha davrdagi til masalasi bilan bog‘liq muammolarining barchasi jadid allomamizning e’tiboridan chetda qolmagan va ushbu maqoladan o‘rin olgan. Masalan, chetdan kirib kelgan so‘zlarni qanday yozish, aytish, baynalmilal so‘zlar o‘rniga o‘z tilimizdan so‘z olish kabi masalalar ham aytib o‘tilgan: “Hatto bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiqgon begona lug‘atdagi ismlik nimarsalarga turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizg‘a xizmat etaturgon kishilarni bizg‘a yo‘qligi uchun begona tildagi ismlar ila ko‘p nimarsalarni yozmoqg‘a majbur bo‘larmiz. Hatto mundan taraqqiy etgan millatlar-da qutulgani yo‘q. Masalan, arabiy ilm “Aljabr”ni bukun taraqqiy etgan millatlarda “Aljabr” va ularda “j” yo‘qligidan “Algebra” derlar. So‘z o‘zlashishi borasida ham mutafakkir o‘z qarashlarini bildirgan holda: “Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur”, –deydi.

M.Behbudiy ushbu maqolada adabiy til, xalq tilidan tashqari, ilmiy til va matbuot tili xususida ham fikr yuritadi: “Sodda til nima uchun kerak? Atrofindagi qavmu qarindoshi ilan so‘ylashmoq uchun. Adabiy va ilmiy til nimag‘a kerak. Mavjud ilmu fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq uchun. Endi bizg‘a lozimki, atrof, ya’ni tevaragimizni adabiylashtursak, munavvarlashtursak, ya’ni ilmu fan ila yorutsak[3, 169-b]. M.Behbudiyning izohlari, misollaridan anglashiladiki, adib adabiy so‘zlashuv tilini oddiy so‘zlashuv tili, shevalardan farqlanib turishi kerakligini anglagan holda, boshqa bir masalani ham ilgari suradi. O‘sha davr fojiasi – farzandlarga til o‘rgatadigan onalarning o‘zlari bilimsizligi, ularning o‘zlarini o‘qitmoq zarurligini ta’kidlaydi: “Taraqqiy etgan millatlar onalari o‘qutar ekan, biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmog‘imiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandir[3, 170-b]. M.Behbudiyning tilga oid ushbu maqolalarini o‘qir ekanmiz, jadid allomaning bilim, dunyoqarash borasida o‘z davridan ancha ilgarilab ketgani va jamiyat, millat, xalqdagi eng og‘riqli nuqtalarni nihoyatda tiyrak ko‘z va o‘tkir sezgilar orqali ko‘ra bilganining guvohi bo‘lamiz. Allomaning xalqni ma’rifatli, ilmli ko‘rish, yurtimizning barcha jabhalarda rivojlanganini ko‘rish istagi ushbu maqolalardagina emas, barcha asarlarida mavjudligini yana bir bor aytib o‘tishimiz darkor.

Yurt qayg‘usini o‘z hayotidan ustun ko‘rgan, jamiyat rivojini ma’rifatda deb bilgan buyuk vatanparvar, davlat arbobi, tilshunos, adabiyotshunos olim, adib Abdurauf Fitratning “Tilimiz” maqolasida o‘zbek millati uchun, millatning har bir qadriyatini saqlab qolish uchun jon kuydirgan, fidokor millatparvar shaxs siymosi

gavdalanadi. Bu siymo o‘z fikrlarini murojaat bilan boshlaydi: “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, Eng baxtsiz til xud turkchadir” [6,124-b] Maqola davomida A.Fitrat tilimiz boyligini nafaqat A.Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn asaridan misollar keltirish orqali, balki bir qancha so‘zlarning ko‘plab sinonimlarini keltirish, ular orasidagi ma’no nozikliklarini sharhlash orqali isbotlaydi. Bu haqida A.Ibrohimov “Biz kim o‘zbeklar” asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: “O‘zbek millatining jonkuyari va fidoyilaridan biri bo‘lmish Abdurauf Fitrat o‘zbek tilining boyligi, so‘z yasalishining kengligi, mukammalligi to‘g‘risida so‘zlab, birgina “bil” fe’lidan 99 ta so‘z yasab, tilimizning “arab, fors, rus, nemis, fransuz tillaridan” mukammalroq va nozikroq ekanini ko‘rsatadi” [4,183-184-b].

A.Fitrat turkiy tilning baxtsizligini esa asrlar davomida arab va fors tili ta’sirida bo‘lgani, bobokalonlarimizning jahonga mashhur ilmiy asarlari bu tilda emas, arab tilida yozilgani, butun dunyo taniydigan, nomi asrlar osha jaranglab kelayotgan Nizomiy, Rumiy kabi allomalarning asarlari forsiy tilda yozilganida ko‘radi. Bu maqolaning ikkinchi qismida ham tilimiz boyligi, ko‘plab o‘zlashma so‘zlarning, ayniqsa, ilm-fan tilidagi arabiy so‘zlarning ayrimlarini turkiy so‘zlar bilan almashtirish mumkinligini aytib o‘tadi [6,130-b] A.Fitratning 1921 yil o‘tkazilgan “Til va imlo” qurultoyida so‘zlagan “Tilimizning adabiyligi” nomli maqolasida sharq tarixida alohida o‘rin egallagan turk adabiyoti va bu adabiyot yozilgan chig‘atoy (turkiy) tili haqida fikr-mulohazalar bildirilib, tilimiz sharq tillarining birinchisidir, deb faxrlanadi[6,133-b].

Tilimizning eng rivojlangan davrini A.Navoiy davri bilan bog‘laydi va ming taassuflar bilan “adabiyotimizning tarixida ikkinchi bor Navoyig‘a uchramadik” – deydi[6,133-b]. A.Fitrat adabiy tilga olinadigan so‘zlarning tilimizning o‘zidan qidirish kerak, tilimiz qoidalarini tilimizning o‘zidan olmoq kerak, buning uchun eski adabiyotimizdan foydalanmoq uchun ulug‘ adiblarimizni yig‘moq, xalq adabiyotidan ham xalq so‘zlarini to‘plamoq kerak, -degan haqli fikrlarni aytib o‘tadiki, bu fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas[6, 135-b]. Shu sababdan ham, jadid mutafakkirlarimizning ilm-fan, jamiyat, millat ravnaqiga qo‘shgan hissalari o‘tgan asrgagina tegishli emas, mangulikka daxldordir. Zero, ular jadidshunos olim N.Karimov ta’rifi bilan aytganda, “istiqlolni uyg‘otgan daholardir” [5].

Xullas, xalqni ma’rifatli qilish, jamiyatni rivojlantirish, vatanni mustaqil ko‘rish uchun zahmat chekkan, asarlari bilan xalqni uyg‘otish uchun kurashgan, mana shu yo‘lda jon fido qilgan buyuk jadid allomalarimizning millatning asosiy davlatchilik timsoli, millionlab xalqni birlashtiruvchi ma’naviy boylik –ona tilimiz, uning ravnaqi yo‘lidagi xizmatlari beqiyos va ulkandir. Ular nafaqat hozirgi o‘zbek adabiy tilimizning nazariy jihatdan ilmiy asosini yaratishga o‘z hissalarini qo‘shdilar, balki o‘z ijodlari bilan bu tilning yorqin namunalarini ham yaratib berdilar.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi

berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. http://xs.uz/uz/
5. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 2-jild. –Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
2. 3.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Ma’naviyat, 1997.
3. Ibrohimov A. Biz kim, o‘zbeklar. –Toshkent: Sharq, 2011.
4. 5.Karimov N. Istiqlolni uyg‘otgan shoir. –Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
5. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. IV jild. –Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

## JADIDLAR FAOLIYATI – ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUHIM QADAM SIFATIDA

**Xidirov Xoshim Ibodullaevich**
**Jizzax politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.d. (PhD)**
**E-mail: xidirovxoshim@gmail.com**

**Annotatsiya:** Maqolada jadidlarning Turkiston o‘lkasidagi ilm-fanni rivojlantirishdagi o‘rni va roli, bu borada jadidlarning amalga oshirgan ta’lim-tarbiya, ma’naviy hayot va ma’rifiy dunyoqarash borasidagi fikr-mulohazalari o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, jadidchilar, ilm-fan, tarbiya, ta’lim, yangi usul, yangi tarbiya, usuli maktab, Turkiston va h.k.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallarda chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va mutaassibona diniy xurofotdan ozod etish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev (Ubaydulla Xo‘jaev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdulvohid Burhonov, Sadiriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza,

Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, jug‘rofiy qamrovi va yo‘nalishiga ko‘ra, uchga bo‘linadi: Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o‘lkasidagi jadidlar chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xom ashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so‘ng mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqdilar.

Buxorodagi jadidchilik harakati Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasidagi nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, jumladan, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ongi qotib qolgan ayrim kishilar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. 1908 yili “Buxoroi sharif shirkati”tuzilib, bu shirkat darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abdusaidov), Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev (Usmon Xo‘ja), Homidxo‘ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa’diy shirkatning tashkilotchilari edi.

XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Xivada jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904 yili “jamiyati xayriya” tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi.

Jadidchilik harakati 1906-16 yillarda o‘zining asosiy yo‘lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o‘zligini anglab, uyushishga chaqirdi. O‘lka moddiy va ma’naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho‘lpon she’rlari va maqolalarida mustamlakachilarning asl qiyofalarini ochib tashladi. Mashhur advokat U.Xo‘jaev oliy o‘quv yurtini tashkil etish, soliqlarni tartibga solish, bolalar

tarbiyasiga jiddiy e’tibor berish masalasini ilgari surdi. Jadidlar 1915-1916-yillarda “Ozodlik, tenglik va adolat” shiori ostida ishladilar. Jadidlar o‘z asarlarida nafaqat siyosiy tuzumni o‘zgartirish, mustamalakachilikdan qutulish, xalqni ma’rifatli qilish g‘oyalarini, shuningdek, jamiyat qurilishi, uning har bir bo‘g‘ini va qatlamini isloh qilishni ko‘tarib chiqdilar. Masalan, Fitrat oilaga bag‘ishlab maxsus asar yozdi. “Oila jamiyatning ijtimoiy- ma’naviy bo‘g‘ini, kichik bir vakili bo‘lib aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada tartib intizom bo‘lsa, uning a’zolari shu xislatlarini xizmat jarayoniga ko‘chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo‘llaydilar. Bu esa, ularning o‘z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo‘ladi[89].

1917 yili jadidchilik harakati o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Fevral inqilobidan so‘ng o‘zbek, tatar va qozoqlar birlashishga ahd qildilar va “Turon” uyushmasi zaminida “Sho‘roi Islomiya” jamiyati tuzildi. 1917 yil 14 martda ish boshlagan bu jamiyat qishloq va shaharlarga targ‘ibotchilar yuborib, ozodlik, tenglik haqida tushuntirish olib borish, saylov to‘g‘risida ma’lumot berish bilan shug‘ullandi. Uning dasturini Munavvarqori yozgan edi. Jadidlar joylarda “Sho‘roi Islomiya” tizimi yaratilishining tashabbuskori bo‘ldilar. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish harakati Turkiston mustaqilligi uchun kurashga aylandi. Jadidchilik harakati siyosiy ma’rifatchilikdan Jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko‘tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a’zolari o‘z faoliyati va dasturiga ko‘ra, sho‘ro adabiyotlarida aytilganidek, “bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari” emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o‘ylab ish ko‘rgan demokratik jarayonning eng savodli, olijanob namoyandalari edi.

Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli tobora bir - biridan yiroqlashib borayotgan turkiy xalqlarni umumiy til, umumiy maqsad va umumiy vazifalar orqali bir millat qilib birlashtirish g‘oyasi jadidchilikning harakatlantiruvchi kuchini tashkil etardi. Ana shunday tarzda birlashgan va uyushgan millat, yuqorida aytganimizdek, yuksak ma’rifatga, zamonaviy ilmiy taraqqiyotga, madaniyatga erishib, tamaddun jihatidan jahonning ilg‘or, buyuk millatlari bilan tenglashishi va pirovard natijada milliy mustaqillik va ozodlikni qo‘lga kiritishi kerak edi. «Til birligi masalasi bizim hayotimizda hayot - mamot masalasidir. deb yozgan edi, Ismoil Gaspirali. Va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz[90]!».

Jadidchilik harakati moddiy-iqtisodiy asosining ma’lum ma’nodagi qoimligi va uzviyligini ta’minlashda yuqorida keltirilgan ikki omilma’rifatchilar fidoyiligi va mahalliy boylar xayriya-ionalaridan tashqari “Jamiyati xayriya”larning paydo bo‘lishi jadid teatri yo‘lga qo‘yilishi bilan

[89] Abdurauf Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” .Toshkent “Ma'naviyat” 1998 yil. – B. 3 bet
[90] Qosimov Begali. Ismoilbek Gaspirali.-T: G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1992.- 34 b.

vujudga kelgan moddiy manba ham muhimdir; bular - “Tomoshalar” va “Ispektakl”lardan, ya’ni teatr spektakllaridan tushgan mablag‘lar edi. Munavvar qori Abdurashidxonov “Samarqand” gazetasining 1913 yil, 20-23 avgust sonida e’lon qilgan “Toshkandda musulmon jamiyati” maqolasida: “Uchinchi yo‘lda shahar bog‘ining yozlik teatrusida bir martaba ispektakl qo‘yib, olti yuz so‘mga yaqin foyda qildi. Buning ustiga, ushbu avgustning 8 – kuni ramozon munosabatida Shayx Xovondi Tahur bog‘ida bir martaba “Tomosha kechasi yasadi, ushbu tomosha kechasining daromad va buromadi ushbu tariqa bo‘ldi,”- deb ushbu tomoshalardan jami 1446 so‘m 96 tiyin daromad kelganini aytadi[91]”.

Jadidlarning sa’yi-harakatlari natijasida Turkistonda turli davrlarda “Taraqqiy”, ”Xurshid”, ”Osiyo”, ”Turon”, ”Sadoi Turkiston”, ”Turk eli”, ”Najot”, ”Kengash”, ”Ulug‘ Turkiston”, ”Sho‘roi Islom”, ”Oyna”, ”Hurriyat”, “Buxroi Sharif”, ”Sadoi Farg‘ona”, ”Tirik so‘z”, ”Yurt”, ”Farg‘ona nidosi”, ”Farg‘ona sahifasi” kabi gazeta va jurnallar nashr etildi. Shu bois chor ma’murlari va keyinchalik sho‘ro mustamlakachilari jadidlar timsolida o‘zlarining eng ashaddiy raqiblarini ko‘rdilar va ularga qarshi shafqatsiz kurash olib bordilar.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomiga yopishtirilgan tavqi la’nat va soxta yorliqlar olib tashlanib, ularning asl nomlari qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san’atshunos va pedagog olimlar jadidlarning boy ilmiy va adabiy merosini o‘rganishda dastlabki natijalarni qo‘lga kiritishdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Abdurauf Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” .Toshkent “Ma’naviyat” 1998 yil. – B. 3 bet

2. Qosimov Begali. Ismoilbek Gaspirali.-T: G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1992.- 34 b.

3. Abdurashidxonov Munavvar qori. Tanlangan asarlar.-T: Ma’naviyat, 2003.- 150 b.

# JADIDLAR HARAKATI: MILLIY MADANIYAT MODERNIZATSIYASIGA YO‘L OCHGAN MA’NAVIY MEROS

**Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi**
**Namangan davlat texnika universiteti tadqiqotchisi,**
**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**
**E-mail: n.scienceofworld@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidlar harakatining milliy madaniyatning modernizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, jumladan jadidlar harakatining ma’naviy merosi, zamonaviy ta’lim, milliy

[91] Abdurashidxonov Munavvar qori. Tanlangan asarlar.-T: Ma'naviyat, 2003.- 150 b.

til va adabiyot, ilm-fan va madaniyat, milliy ong va g‘ururni yuksaltirishga qaratilgan harakatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** jadidlar harakati, milliy madaniyat, modernizatsiya, ma’rifat, ilm-fan, ma’naviy meros.

XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida paydo bo‘lgan jadidchilik harakati shunchaki siyosiy yoki ijtimoiy o‘zgarishlar emas, balki milliy madaniyatning tubdan yangilanishiga, modernizatsiyasiga yo‘l ochgan ma’naviy meros edi. Jadidlar o‘zlarining jasorati, intilishi va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan o‘zbek xalqining milliy ongini uyg‘otdilar va kelajak avlodlar uchun ibrat namunasi bo‘la oldilar.

Jadidchilik - Turkiston mintaqasida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida shakllangan, milliy madaniyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan ma’rifiy harakat bo‘lib, u jamiyatning ma’naviy, ijtimoiy va siyosiy hayotida tub o‘zgarishlarga olib keldi.

Jadidlar - millatning dardini yuragida his qilgan, jamiyatni jaholat botqog‘idan qutqarishga bel bog‘lagan ziyolilar edi. Ular - yangi usuldagi maktablar ochgan, gazeta va jurnallar chop etgan, teatrlar tashkil etgan va milliy madaniyatni rivojlantirishga hissa qo‘shgan ma’rifatparvarlar edi. Ularning asosiy quroli - ilm, ma’rifat bo‘lgan.

Sovet davrida jadidlar merosiga nisbatan noxolis munosabat mavjud bo‘lganiga qaramay, ularning g‘oyalari millatning xotirasida saqlanib qoldi va O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng qayta tiklandi, bu ularning ma’naviy merosining doimiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Jadidchilik harakati tomonidan amalga oshirilgan targ‘ibot kishilar dunyoqarashi va ruhiyatini tubdan o‘zgartirishda, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining jamiyat hayotidan o‘rin egallashida, milliy mustaqillikning ma’naviy-madaniy va g‘oyaviy-nazariy asoslarini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, “Jadidchilik – jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, xususan ilg‘or ilm-fan, madaniyat-ma’naviyatga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligiga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy qoloqlikka, mustamlakachilik istibdodiga qarshi, milliy mustaqillikni barqarorlashtirishga qaratilgan demokratik harakat edi”.

A.Avloniyning madaniyat, taraqqiyot va millatning ma’naviy hamda moddiy rivojlanishi haqidagi “Madaniyat to‘lqunlari” nomli maqolasi chuqur falsafiy ma’noga ega bo‘lib “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914 yil 25 apreldagi 5-sonida va shu yilning 11 maydagi 9-sonida e’lon qilingan. Maqolada jamiyatning madaniy rivojlanishi va taraqqiyot yo‘lidagi to‘siqlar tahlil qilinib, muallif bu borada: “Bir asr ichinda taraqqiy va madaniyat dunyosinda g‘o‘ta urib, suzushib yurgan bir qavmni ko‘rasanki, ikkinchi asrda tanazzul dunyosiga yuzlanub, vaxshiylik olamining eng og‘ir nuqtasiga borub yetadur”. Avloniy buning sabablar ”intilish va g‘ayratning ozayishi, ittifoq, insof va adolatning yo‘qolishi, xalqning ilm-ma’rifatdan uzoqlashib, buzuq ishlarga mayl va rag‘batning ortishi” kabi illatlarning avj olishi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Markaziy Osiyolik jadidlarning Qrim, Kavkaz, Turkiya, Misr, Eron, Afg‘oniston, Hindiston kabi xududlarga tashriflari, turli diniy konfessiya vakillari

bilan muloqotlari, madaniy sohada tajriba almashinuvi bu xududlar o‘rtasida madaniyatlararo aloqalar rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Jadidlar faoliyatini o‘rganish va targ‘ib qilish O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, ma’naviy yuksalish va barqaror taraqqiyotga erishish yo‘lida muhim ahamiyatga ega.

Jadidlar harakati milliy madaniyatni rivojlantirishda yangi usullarni qo‘llagan, jumladan, yangi usuldagi maktablar tashkil etish, matbuot va nashriyot faoliyatini yo‘lga qo‘yish, teatr san’atini rivojlantirish va xayriya tadbirlarini tashkil etish, bu usullar millatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qildi.

Jadidlar ilg‘or g‘oyalari o‘zbek adabiyoti, teatri, musiqasi va san’atiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, milliy madaniyatning yangi shakllari va janrlari yaratilishiga zamin yaratdi va uning ma’naviy salohiyatini oshirdi.

Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar va tamoyillar bugungi kunda ham dolzarbdir. Ularning merosi millatning ma’naviy tiklanishi, milliy o‘zlikni anglash, yosh avlodni tarbiyalash va jamiyatni modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda jadidlar merosini o‘rganish va targ‘ib qilish O‘zbekistonning ma’naviy tiklanishi, milliy o‘zlikni anglash, yosh avlodni tarbiyalash va jamiyatni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu ularning g‘oyalarining dolzarbligini ko‘rsatadi. 2024-yilning 1-yanvaridan e’tiboran “Jadid” gazetasi chop etila boshladi. Ushbu nashr Vatan va xalq manfaatlari yo‘lida jon fido qilgan jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini keng targ‘ib etishda o‘ziga xos tafakkur maydoni bo‘lib xizmat qiladi. “Jadid” gazetasining birinchi sonida shoir va yozuvchi Iqbol Mirzo “Jadidlarning orzulari armonga aylangan zamon – “tariximizning eng kirlik, qora kunlari” (Qodiriy) bir asr ortda qoldi. U tarix, u yaqin moziy. Tarix saboqlari bilan istiqbolga qaraladi. “Moziy – istiqbol tarozusidir” (Behbudiy). Jadid bobolarimiz o‘gitidan, ular ular hayotida yuz bergan shonli va armonli kunlardan ibrat olib, istiqbolga, Vatan va millat kelajagiga nazar solish lozim” – deya yozadi.

Jadidlarning fikr va milliy harakati turkiy xalqlar tarixi nuqtai nazaridan, Turkiy dunyo birdamligi, hamjihatligi yo‘lida olib borilgan eng qamrovli madaniy faoliyat edi. Yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qayg‘urgan, o‘z asarlarida insonparvarlik, Vatan ozodligi, diniy va dunyoviy ilm o‘rganishlikni ta’kidlagan, tarixiy me’morlik obidalari va qadimiy qo‘lyozmalarni saqdab qolishda jonkuyarlik qilgan Alixonto‘ra Sog‘uniyning asosiy maqsadi–musulmonlar orasida yangi tafakkur, ta’lim va madaniyatni joriy qilish, diniy fanlar bilan birga zamonaviy fanlarni o‘rganishga undab, o‘z xalqining madaniy merosini saqlash va rivojlantirishdan iborat edi. Shuningdek, «Millatimiz ravnaqi uchun aqlzakovat, albatta, kerak, shu bilan birga u, shijoatu matonat, jismoniy barkamolliksiz yetarli bo‘lmas»-degan fikrlari ayniqsa bugungi kunda yoshlarni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash vazifasini o‘zida mujassamlagan zaruriy g‘oyalardan biri bo‘lgan.

Umuman olganda, jadidchilik harakati millat taraqqiyoti uchun ta’limning muhimligini chuqur anglagan holda, jamiyatni modernizatsiya qilish va isloh etishga qaratilgan keng qamrovli harakat edi. Jadidlar faoliyatini ilmiy tahlil qilish O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, ma’naviy yuksalish va barqaror taraqqiyotga erishish yo‘lida muhim

ahamiyatga ega, bu ularning merosining ilmiy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Jadidlar harakati o‘zbek xalqining ma’naviy-madaniy rivojiga katta hissa qo‘shgan tarixiy harakatdir. Ularning ma’rifatparvarlik, milliy til va adabiyotni rivojlantirish, ilm-fan va madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan harakatlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ҳалимова С.А. Убайдулла Асадуллахўжаев ва “Садои Туркистон”. Монография. -Т.: “ Университет”, 2021.

2. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 -жилдлик. 2-нашр. 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари. Тошкент. “Маънавият”. 2006.

3. Iqbol Mirzo. “Birlashmoq davri”, Jadid adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazetasi. 2024-yil 1-yanvar. 1-son.

4. Choriyev A., Choriyev S. Renessans davri Yevropa falsafasi. T.: Tafakkur qanoti, 2015.

5. Arslonov Z. Z., Farxodjonova N. Alikhantura Soguniy Role in State Administration in East Turkestan. *Journal of Modern Islamic Studies and Civilization*, 2024, *2*(02), 128-132.

6. Халқ сўзи, 2020 йил 1 октябрь, № 207.

## JADIDLAR MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATIDA YANGICHA YONDASHUVLAR

**Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi**
**Namangan davlat texnika universiteti tadqiqotchisi,**
**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**
**E-mail: n.scienceofworld@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiston mintaqasida faoliyat olib borgan jadidlarning ma’naviy-ma’rifiy faoliyatidagi yangicha yondashuvlar, ta’lim, matbuot, teatr, xayriya va madaniyat sohalaridagi islohotlari, ularning jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan yangi g‘oyalari va qarashlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** jadidlar, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat, yangicha yondashuvlar, ta’lim, matbuot, teatr, madaniyat, islohotlar, modernizatsiya, millat taraqqiyoti.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston mintaqasi uchun tub o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu davrda jadidchilik harakati paydo bo‘ldi, bu harakat millatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida katta o‘zgarishlarga olib keldi. Jadidlar o‘zlarining ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida yangicha yondashuvlarni qo‘llab, jamiyatni modernizatsiya qilishga, ilm-ma’rifatni yoyishga, milliy o‘zlikni

anglashga va ijtimoiy adolatni o‘rnatishga intildilar. Bu yo‘lda ming mashaqqatlar bilan fidoiylik bilan o‘z maqsadlari yo‘lida kurashdilar. Prezident Sh. Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “O‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsada, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi” asoslidir.

Jadidlar ta’lim sohasida tub islohotlar o‘tkazdilar. Ular an’anaviy maktablarning uslubi va mazmunini tanqid qilib, yangi usuldagi maktablarni tashkil etdilar. Bu maktablarda dunyoviy fanlar, zamonaviy pedagogika usullari va o‘qitishning interaktiv shakllari qo‘llanildi. Jadid maktablarida o‘qish rus tilida olib borilib, mahalliy aholi uchun bu yangi hodisa edi. Jadid maktablari o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning tafakkurini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga va ularni milliy ruhda tarbiyalashga qaratilgan edi. Jadid maktablari millatning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va ularning tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan edi. Xususan, M.Behbudiy Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog‘ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. U shunchaki maktab ochmay, balki uning har tomonlama rivojlanishi uchun ham hissa qo‘shadi. Xususan yangi maktablar uchun o‘z hisobidan darslik va o‘quv qo‘llanmalar chop ettiradi. “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”,1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar chop ettiradi.

Munavvar qori 23 yoshida (1901) Turkistonda birinchilar qatori jadid maktabini ochishga muyassar bo‘ladi[6, 5-b]. Bu maktablar uchun uning o‘zi ham darsliklar yozadi: “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi alifbo va xrestomatiyalar, “Tavjid al-Qur’on” (“Qur’on qiroati”), “Yer yuzi” (“Geografiya”) singari qo‘llanmalar tuzib, nashr etadi. U ochgan usuli jadid maktabi tez orada Turkistonda mashxur bo‘ladi. Uning tashabbuskor jonkuyarlari “taraqqiyparvarlar” deb atalgan. Ushbu maktab jadidlar tomonidan tashkil etilgan maktablar uchun ilmiy-uslubiy va amaliy tajriba markazi hisoblangan.

Jadid maktablari, ya’ni yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy ta’lim – tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirilib, maktabxonadagi yakka o‘qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o‘tildi, sinflarda partalar, geografiya xaritalari, globus va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘lgan. Ularda xat – savod bolalarning ona

tilida tovush usuli – usuli savtiyada o‘rgatilgan. Jadid maktablarida Qur’oni – karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula va hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlangan.

Turkistonda gazeta va jurnallar nashr etish ishlari 1913 yildan yangi bosqichga ko‘tarildi. Jadidlar matbuot va nashriyot faoliyatining ta’sir kuchini yaxshi anglashgani sababli gazeta va jurnallar tashkil etib, ularda milliy birlik, ma’rifat, ilm-fan va madaniyatni targ‘ib qiluvchi maqolalar chop etdilar. Jadid matbuoti millatning ongini uyg‘otish, ularni ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishga undash va milliy o‘zlikni anglashga yordam berish uchun xizmat qildi. “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiy”, “Samarqand”, “Sadoi Turkiston” va boshqa jadid nashrlari millatning ma’naviy yuksalishiga katta hissa qo‘shdi.

Jadidlar teatr san’atini ma’rifat va tarbiya vositasi sifatida qabul qildilar. Ular milliy teatr truppalarini tashkil etib, ularda zamonaviy pyesalar, tarixiy dramalar va milliy folklor asosidagi spektakllarni sahnalashtirdilar. Jadid teatri jamiyatni ijtimoiy muammolar bilan tanishtirish, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash va ularning estetik didini rivojlantirishga qaratilgan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa jadidlar teatr san’atini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar. Behbudiy «Oyna» jurnalining 1914 yil 29-sonida nashr etgan “Teyotr nadur?” degan maqolasi ushbu san’at janrining millat tarbiyasi va davlat ravnaqidagi ahamiyatini to‘liq ochib beradi. Buyuk mutafakkirning “Teatr –ibratxonadur” degan iborasi mana shumaqola tufayli mashhurlik kasb etgan. Behbudiy yozadi: “Teyotr va’z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko‘rsatguvchidur. Hech kimni rioya qilmasdan to‘g‘ri so‘ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildurguvchidir... Ayni zamonda yana tamoshogoh va yoinki ko‘ngul ochguvchi milliy va adabiy ja’miyatlarni boisidur”.

Jadidlar jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishga harakat qildilar. Ular maktablar, kutubxonalar, kasalxonalar va yetimxonalar tashkil etib, ularga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatdilar. Jadidlar xayriya faoliyati orqali jamiyatning ahvolini yaxshilash, zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni o‘rnatishga intildilar. Ayniqsa, "Turon", "Tarbiyat ul -aftol", "Sho‘roi Islom" jamiyatlari xayrli ishlari bilan milliy-ozodlik harakatlarida ijobiy faoliyat ko‘rsatdi.Ular zakot va xayr-ehsonlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, muhtojlarga yordam berish va jamiyatning ijtimoiy ahvolini yaxshilashga harakat qildilar.

Jadidlar milliy madaniyatni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdilar. Ular milliy adabiyot, musiqa, san’at va folklor namunalarini to‘plash, nashr etish va targ‘ib qilishga intildilar. Jadidlar milliy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirish orqali millatning o‘zligini mustahkamlashga harakat qildilar. Ular yangi adabiyot yaratish, milliy musiqa va teatrni rivojlantirish, milliy urf-odatlar va an’analarni saqlab qolishga harakat qildilar.

Umuman olganda, jadidlar harakati mamlakatning deyarli har bir hududida o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‗nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Jadidchilik harakati harakatchilari o‘zlarini vatanparvar,

taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa jadidlar deb atashgan. Toshkentda “Sho‘royi Islomiya”, “Turon”, “Ulamo jamiyati”, “Ittifoqi muslimin”, Qo‘konda “G‘ayrat”, Buxoroda Yosh buxoroliklar, Xivada Yosh xivaliklardan tashqari, Samarqandda “Ittifoq”, “Mirvaj ul-islom”. “Miftax ul-maorif” kabi tashkilotlar faoliyat ko‘rsata boshladi. Bularning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishini belgilashda Munavvarqori, Ubaydulla Xo‘jayev, Behbudiy, Ashurali Zohiriy, Ahmad Zaki Validiy, Mustafo Chuqay, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmon Xo‘ja, Sherali Lapin, Mirkomilboy Mirmo‘minboyev, Obidjon Mahmudov, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov va boshqalar faollik ko‘rsatdilar.

Jadidlarning ma’naviy-ma’rifiy hayotdagi muhim g‘oyalari quyidagilardan iborat edi:

- Ma’rifatparvarlik: Jadidlar jamiyatni jaholatdan qutqarish va ma’rifatni yoyishni o‘zlarining asosiy vazifalaridan biri deb hisoblagan hamda zamonaviy bilimlar, ilm-fan va madaniyatni targ‘ib qilgan.

- Milliy o‘zlikni anglash: Jadidlar millatning o‘z tarixini, tilini va madaniyatini bilishi muhimligini ta’kidlab, milliy o‘zlikni anglash orqali millatning birlashishi va rivojlanishiga erishish mumkinligiga ishonch bildirgan.

- Ta’lim modernizatsiyasi: Jadidlar ta’lim tizimini zamonaviylashtirish, yangi usuldagi maktablar tashkil etish, dunyoviy fanlarni o‘qitish va o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni maqsad qilgan.

- Ijtimoiy adolat: Jadidlar jamiyatda tenglik, adolat va huquq ustuvorligini o‘rnatishga intilgan hamda kambag‘allarga yordam berish, zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy muammolarni hal qilishga harakat qilgan.

- Diniy bag‘rikenglik: Jadidlar islom dinini zamonaviy hayotga moslashtirish, bid'at va xurofotlardan tozalash, dinning ma’rifiy va axloqiy jihatlariga e’tibor qaratishni maqsad qilganlar.

- Birlik va hamjihatlik: Jadidlar turli millat va elatlarning birligi va hamjihatligini qo‘llab-quvvatlab, millatlararo totuvlik va o‘zaro hurmatni targ‘ib qilgan.

- Ozodlik va mustaqillik: Jadidlar millatning ijtimoiy-siyosiy ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan hamda mustamlakachilikka qarshi chiqdilar va milliy davlatchilikni o‘rnatishga intilgan.

- Madaniyat integratsiyasi: Jadidlar milliy adabiyot, teatr, musiqa va san’atni rivojlantirishga katta e’tibor qaratgan hamda milliy madaniyatni saqlab qolish va boyitish orqali millatning ma’naviy yuksalishiga hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Xulosa qilib aytganda, taraqqiyparvar olimlarning ma’naviy-ma’rifiy faoliyatidagi yangicha yondashuvlar millatning taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan hamda o‘z ahamiyatini hozirgi kunda ham yo‘qotmagan. Jadidlar faoliyati millatning ma’naviy yuksalishiga, madaniy rivojlanishiga va ijtimoiy taraqqiyotiga katta turtki bo‘ldi. Ular millatning ongini uyg‘otish, ularni ilm-ma’rifatga yo‘naltirish, milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy adolatni o‘rnatishga fidoiylik qilishdi. Ularning merosi kelajak avlodlar uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar va usullar zamonaviy O‘zbekistonning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi konferensiyadagi nutqidan. Toshkent, 2023-yil, 11-dekabr.
2. **https://president.uz/uz/lists/view/6919**
3. Farxodjonova N. F. The importance of the spiritual heritage of the jadids in the development of society //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-2 (101). – С. 33-35.
4. Qodirov B. Ona yurt fidoyilari / Mahmudxo‘ja Behbudiy buyuk ma’rifatparvar. – T.: “Ma’naviyat”, 2024. -B. 6.
5. Qodirov B. Ona yurt fidoyilari / Munavvar qori Abdurashidxonov ilm-ma’rifat targ‘ibotchisi. - T.: “Ma’naviyat”, 2024.

## JADID MAKTABLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI: IMKONIYATLAR VA TO‘SIQLAR

**Haqqulov Nabijon Qahramonovich,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa doktori (PhD)
e-mail: nabijonhaqqulov83@gmail.com

**Xolmurodova Zarina Toyirovna**
Samarqand shahar 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
E-mail: xolmurodovazarina1986@gmail.com

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada jadidchilik harakati doirasida tashkil etilgan yangi usul maktablarida qizlar ta’limiga berilgan e’tibor, bu yo‘ldagi sa’y-harakatlar va ularning natijalari tahlil etiladi. Jadidlarning ilg‘or g‘oyalari orqali musulmon jamiyatida ayolning o‘rnini qayta talqin qilish, ularni savodli, tarbiyali va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan tashabbuslar ochib beriladi. Shu bilan birga, jadid xotin-qizlar maktablari faoliyatiga to‘sqinlik qilgan omillar — ijtimoiy qarshilik, diniy konservatizm va moliyaviy muammolar ham muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, xotin-qizlar ta’limi,

Ma’rifatparvar-jadidlar — o‘z zamonining taraqqiyparvar, ziyoli vakillari sifatida, ma’rifatparvarlikni inson kamoloti va jamiyat uyg‘onishining asosiy omili sifatida e’tirof etdilar. Ular uchun ta’lim-fan — bu shunchaki bilim emas, balki jaholatga qarshi qurol, milliy o‘zlikni tiklash va uyg‘otish vositasi edi. Jadidlar Sharq va G‘arb ilm-fani, madaniyati va ijtimoiy taraqqiyotini chuqur o‘rgangan holda, dunyoviy bilimlarni egallash orqali milliy taraqqiyotga erishish mumkinligiga ishonch hosil qildilar. Ular sayohatlari davomida Rossiya, Yevropa va Osiyoning turli mamlakatlarida bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimlari, ijtimoiy institutlar, kutubxonalar va madaniy muassasalarning taraqqiyotga bo‘lgan bevosita ta’sirini ko‘zdan kechirdilar. Bu holat ularda zamonaviy ilm-fan yutuqlarini Turkiston zaminiga olib kirish, uni mahalliy an’analar bilan uyg‘unlashtirish orqali yangi uyg‘onish davrini boshlab berish istagini kuchaytirdi. Zerokim, Prezidentimiz

Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab yetadi”[1].

Jadidchilik mafkurasi negizida ta’limni isloh etish g‘oyasi yotgan bo‘lib, bu nafaqat pedagogik ehtiyoj, balki ijtimoiy va madaniy yangilanish zarurati sifatida ilgari surildi. Ular bu islohot zaruratini nazariy asoslabgina qolmay, amaliy harakatlarga ham o‘tdilar: yangi usul maktablari ochdilar, darsliklar tuzdilar, kutubxonalar, o‘quv markazlari tashkil etdilar. Bu faoliyat jadidlar uchun shaxsiy fidoyilik va xalq ma’naviyatini yuksaltirish yo‘lidagi tarixiy burch edi. Ularning harakati jamiyatda ilm-fan, tafakkur va ma’rifatning ustuvor qadriyat sifatida qaror topishiga zamin yaratdi.

Jadid ta’lim tizimining amaliy ifodasi sifatida ilk yangi usul maktablari XIX asr oxirlariga kelib Turkiston zaminida vujudga kela boshladi. 1898 yilda Qo‘qon shahrida Salohiddin domla tomonidan ochilgan maktab, bu harakatning real shaklga kirgan ilk namunalaridan biri bo‘ldi. Oradan bir yil o‘tib, 1899 yilda Toshkentda Mannon Qori hamda Andijonda Shamsiddin domla tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari esa, jadidchilik g‘oyalarining keng hududga yoyilishida muhim bosqich bo‘ldi. Bu maskanlar nafaqat ta’lim beruvchi muassasa sifatida, balki ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish markazlariga aylana bordi. Ushbu maktablarning tashkil topishi jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta’lim islohoti g‘oyalarining jamiyatda tobora ko‘proq ijobiy qabul qilina boshlaganini ko‘rsatadi. Ular qadimiy maktablarning diniy-fan yo‘nalishidagi biryoqlama yondashuvini yengib o‘tishga urinib, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan yangi pedagogik modelni taklif etdilar.

Turkiston jadidlari madaniy va ma’rifiy faoliyatlarida yangi usul maktablari ochish, yoshlarga diniy va dunyoviy bilimlar berish, shu bilan birga xotin-qizlar masalasiga ham alohida e’tibor berib, dunyoviy ishlarni bajarishda xotin-qizlar ham erkaklar qatorida teng bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaganlar. Ular o‘rtasida farq bo‘lmasligi, shu qatorda ta’lim olishda ham teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishlari kerakligini o‘qtirganlar. “Butun insoniyat olamining tirikchiligi yolg‘iz xotunlar soyasidaginadir deb aytsak shoyad xato qilmagan bo‘lurmiz. Xotunlar butun olam insoniyatining onasidirlar: payg‘ambarlar, rasullar, podshohlar, olimlar, adiblar va shoirlar hammasi shul muhtaram volidalarning bolalaridirlar. Binoi alia xotunlar izzatu va muhtaramdurlar. Shuning uchunki islom dini xotunlarin eski zamonlarda huquqsiz va erlar qo‘lida xor bo‘lib turmaklaridin xalos etub, alarga keng hukuklar beribdur” [2;77], - deb yozilgan edi jadidlarning matbuot organi bo‘lmish “Sadoi Turkiston” gazetasida. Shu o‘rinda hikmatlardan quyidagilarni keltirish o‘rinlidir: “Xotunlar ilmli bo‘lmoqlari lozim. Ilmli bo‘lmagan kishi tarbiya usulidan albatta mahrum bo‘ladi. Bolalar tarbiyasi xotinlarga maxsus bir vazifa bo‘lgani uchun tarbiya qiluvchilarning bilim darajalari yuqori bo‘lmog‘i taqozo etiladi». Shuni ta’kidlash kerakki, “Ismoilbek Gasprinskiy 1884 yil “Usuli jadid” maktabini ochib, maorif tizimini isloh etish borasidagi g‘oyalarini “Tarjimon”

gazetasida e’lon qilib, maorif tizimi oldida hal etish kerak bo‘lib turgan vazifalardan biri - qizlar maorifiga ham alohida e’tibor berish lozimligini ta’kidlagan” [3;31].

Jadidlar yangi usul maktablarini ochib, ularda o‘g‘il va qiz bolalarning birga o‘qishlarini tashkil eta boshlaydilar. Chunki, Abdulla Avloniy hisoblaganidek:

“O‘g‘ul-qiz o‘qusa bo‘lur olim,
Johil odamlar bo‘ladur zolim.
Baxtu iqbol ilma bog‘liqdur,
Ilm o‘qutmoq ahsan a’molim” [4;135].

Shunday maktablardan birida “Abdulqodir Shakuriy Samarqandda o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qita boshlaydi. Qizlarga uning xotini dars berishga ko‘maklashgan. Abdulqodir Shakuriyning bunday ishi mahalliy boylar, ruhoniylarning noroziligiga sabab bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarida ham ochila boshlagan. Arxiv hujjatlarida yozilishicha, “Toshkentdagi Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev yangi usul maktabida 3 ta qiz, Sobirjon Rahimovning maktabida 15 ta qiz o‘qigan” [2;80].

Qo‘qand shahrining G‘alchasoy mahallasida “Muhammadjon Xoliqiy 1913 yilda dastlab “usuli jadid»”, keyin esa qizlar maktabini ham tashkil qilgan. Unda singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizi o‘quvchilarga saboq bergan” [5;46]. Abdulla Avloniy maktabida ham qizlar o‘g‘il bolalar bilan yonma-yon o‘tirib, tahsil olgan. Ostroumov bergan ma’lumotga ko‘ra, “imtihon berganlar savollarg‘a ko‘p yaxshi javoblar berib, imtihonga borguchilarni diqqatini jalb etib, mazkur shogirdlar haqig‘a ko‘p duolar qildilar va xususan, bir yosh qiz-shogirdga istehson qildilar” [2;80].

Buxoro jadidlari yo‘lboshchilaridan biri Sadriddin Ayniy ham dastlabki o‘qish yillarini qizlar maktabida o‘tkazgan. “Maktab yoshiga yetganimda o‘zi o‘qitishga vaqti bo‘lmagan otam meni qishlog‘imiz - Soktare masjidi qaramog‘idagi maktabga berdi. U maktabda biror narsa o‘rgana olmadim, shundan keyin otam meni bu maktabdan olib, qishloq imomi xotiniga qarashli qizlar maktabiga berdi. Bu maktab o‘g‘il bolalar maktabiga qaraganda birmuncha durust edi” [6;4]. Ma’lumotlarga ko‘ra, qizlar 7 yoshdan o‘qishni boshlab 13 yoshga to‘lganda tugatganlar.

Jadidlar oilalarda, teng va saodatli, muhabbatli va sadoqatli turmush masalasini o‘rtaga qo‘yadilar. Xolbuki, “huddi shu yillarda o‘lkaning eng e’tiborli jurnallardan biri – “Oyna” “xotin olami vujudga fidoyi o‘lmak uzra kelmish bir maxluqi latifdur” deb yozgan bo‘lsa eng obro‘li shoirlardan biri esa «Qaysi xotunkim, ochiq yuzdur, bal fohishadur» deyishgacha borgandi va bu hukmron nuqtai nazar edi”, - deb yozadi jadidlar faoliyatining tadqiqotchisi B. Qosimov. Jadidlar shunday og‘ir sharoitdan xotin-qizlarni olib chiqish uchun intildilar. Ular uchun maktablar ochdilar, kutubxonalar tashkil etdilar. Bu harakatlarni mablag‘ bilan ta’minlash uchun yo‘llar qidirdilar. Shunday yo‘llardan biri – teatr orqali edi.

Masalan, “1914 yilning 6 iyunida Andijonda qo‘yilgan “Padarkush” spektaklidan tushgan mablag‘ 1500 so‘mni tashkil etib, shundan 20 foizi Andijonda

qurilayotgan “qizlar gimnaziyasi” foydasiga berilgan”[92], deb xabar beradi “Sadoi Turkiston” gazetasi.

Taraqqiyparvar-jadidchilarning qarashlarida jamiyat taraqqiyotini to‘xtatayotgan xotin-qizlar ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq salbiy illatlar: ma’rifat qoloqligi, qayg‘u-kulfat, urug‘-aymoqchilik kabi illatlardan qutulish uchun xotin-qizlar o‘z ayollik huquqini anglashi, talab qilishi, tiklashga intilishi, uni tuban kimsalardan himoyalashi jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lishi uchun diniy va dunyoviy bilim imkoniyatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilishi zarur. Ma’rifatsiz jamiyatda o‘zboshimchalik, jabr-zulm, adolatsizlik, johillik, zo‘ravonlik hukmronlik qiladi. Jamiyatdagi bu tubanlik birinchi galda ayollar hayotida tezroq va to‘laroq o‘z aksini topadi.

Darhaqiqat, boy tarixiy merosimiz buyuk kelajak uchun boy imkoniyatlar manbai hisoblanadi. Shu ma’noda biz yosh avlodni o‘tmishimizga hurmat, ma’naviy merosimizga e’tiqod ruxida tarbiyalash vazifasini qo‘yar ekanmiz, ta’kidlash joizki, bu hurmat, bu e’tiqod aslo ko‘r-ko‘rona, yuzaki bo‘lmasligi, aksincha, teran bilimga aqliy yetuklikka, erkin fikrlash va ma’naviy poklikka asoslangan munosabat bo‘lmog‘i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020, 25 yanvar, №19 (7521) soni.
2. Radjabova D.N. Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari (XIX asrning oxiri - XX asr boshlari). Tarix fanlari nom ...dis. - T., 2003. - B.77.
3. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - T.: O‘qituvchi, 2002. -B. 31.
4. Avloniy A. Oila munozarasi. Tanlangan asarlar. T.2. - T.: Ma’naviyat. 1998. B. 135.
5. Ayniy S. Qisqacha tarjimai holim. - T. 1960. B. 4.
6. Zohiriy A. Andijonda musulmoncha teatr. // Sadoi Turkiston, 1914 yil. 20 iyun.
7. Хаккулов Н. К. Самарканд земля просветителей джадидов. – 2022.


## ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA OILA VA FARZAND TARBIYASI MASALALARI


**Yusupov Murodali Sunnatovich**
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**
**“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa doktori (PhD)**
**E-mail: murodaliyusupov63@gmail.com**



**Annotatsiya.** Mazkur ishda o‘zbek jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitratning asarlarida oila va farzand tarbiyasi masalalari qanday aks etgani o‘rganiladi. Fitratning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy qarashlari,


[92] Зоҳирий А. Андижонда мусулмонча театр. // Садои Туркистон. 1914. 20 июнь.

ayniqsa, oila institutining mustahkamlanishi va farzand tarbiyasining ma’naviy-axloqiy asoslari haqidagi fikrlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Abdurauf Fitrat, jadidchilik, oila tarbiyasi, farzand tarbiyasi, ma’rifat, pedagogik qarashlar, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, tarbiyaviy g‘oyalar, zamonaviy tarbiya tizimi.

XX asr Turkiston jadidchilik harakatining ulkan namoyandasi buxorolik jadid Abdurauf Fitrat oila masalasiga alohida e’tibor bergan. Uning 1915 yilda chop qilingan «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» nomli asarida o‘sha davr uchun mukammal yo‘riqnoma yuzaga keltirildi. Diniy va dunyoviy ilmlar bilimdoni bo‘lgan Fitrat asar yozish orqali o‘zini huquqshunos, sosiolog, pedagog va tabib sifatida namoyon qilib, oila qurish zaruratidan tortib, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, hatto go‘daklarni tarbiyalash va unda yosh onalarning o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi masalalargacha chuqur yoritib bergan. Ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida e’tibor qilingan. Shu bilan birga sog‘lom, komil insonning shu xalq, millat va ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojining muhim omili ekanligi ta’kidlangan.

A. Fitrat kelajak avlodlarning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo‘lmasliklari uchun xotin-qizlar o‘qimishli, sog‘liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligini zarur deb biladi. U tarbiyani juda muhim ijtimoiy hodisa, jarayon deb biladi va unda «Oiladagi mushkul vazifa go‘dak tavalludidan so‘nggi er-xotin bo‘yniga tushadigan farzand tarbiyasidir», deb uqtiradi[2]. Umuman olganda, jadidlarning oila masalasidagi qarashlarida Fitratning «Birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta’siri odam tabiatiga mustahkam o‘rnashadi»[2] degan fikri asosiy bo‘lib xizmat qiladi.

A. Fitratning oilada er-xotinning qanday yashamoqlari xususidagi fikr va mulohazalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u **onani oila tarbiyasining asoschisi,** hayotga tadbiq etuvchisi, vijdonli va axloqli bo‘lishlikning, yaxshi orzu-umidlar shakllanishining ixtirochisi qilib ko‘rsatish bilan birga, er bilan xotin o‘rtasidagi munosabatning muhabbat va mehribonlik asosida bo‘lishligiga erishishni taklif qiladi, «erning xotiniga nisbatan qanday huquqi bo‘lsa, xotinning ham eriga nisbatan shunday huquqi bor» deyish orqali oila masalasida o‘zining ovro‘pocha ilg‘or tafakkurga ega ekanligini ko‘rsatgan edi.

Umuman, yoshlarni **bilimli, keng dunyoqarashli** etib tarbiyalashda, jadidlarning fikricha, oilaning asosini to‘g‘ri qurishdan iboratdir. Shuning uchun ham yosh avlodni to‘laqonli, to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning ravnaq etish yo‘llariga tushirish mumkin emasdir. Vatan, millat taqdiri oxir-oqibatda oilaning holatiga bog‘liqdir. A. Fitratning fikricha, «har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi»[4]. Shu bilan birga «agar rohat orzusi va hayot kechirish fikrida bo‘lsak, agar «madaniy va baxtli millatlar bizni odam qatorida bilsin», - deya xoxlasak va bizlar bilan umumbashariy qoidalar asosida muomala qilishlarini istasak, agar

musulmonlarni xorlikdan va islomni e’tiborsizlikdan qutqarmoqchi bo‘lsak.., eng avvalo isloh va adolat bilan tartibga solinishi lozim bo‘lgan qoida, bu er-xotinning muomalalari sanaladi»[4].

A. Fitratning tushunishicha, bolani to‘laqonli kamol toptirish uchun unga **jismoniy, axloqiy va ma’rifiy tarbiya**larni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali ta’lim-tarbiya majmuyini singdirish muhimdir[4]. Fitrat bolaning ruhiyati, ota-ona va farzand ruhiyatlarining nisbati va o‘zaro bog‘lanishi masalalarini bilimdon ruhshunos-pedagog olim sifatida tahlil qiladi. «Odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim», - deb yozadi[4]. Bolalarni o‘ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o‘z qadr qimmati, sha’nini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqni, shuning bilan birga yon-atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o‘rgatmoq kerak… Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech xazon bo‘lmasin… Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni man etmasliklari, balki axloqqa zid bo‘lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo‘lishini qo‘llab-quvvatlashi kerak», - deydi[4]. Tarbiyaning har bir qismini nomlagan A. Fitrat mehnatsevarlik va bilim olish tarbiyasiga alohida e’tibor bilan yondashadi va «…bu ishda ularga (bolalarga - D.R.) chidam, g‘ayrat va jur’at etilishini, ertaga baxtga erishgandan so‘ng, bu baxt kechagi zahmat natijasida yuzaga kelganligini tushuntirishlari lozim, shunda bolalar baxt siridan xabardor bo‘ladilar», - deb ishontiradi[4].

A. Fitratning «Oila» asarida oila qurish zaruratidan tortib, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlar tarbiyasi, ularning huquq va burchlari kabi ko‘plab dolzarb masalalarni atroflicha yoritgan. Oilaning jamiyatdagi o‘rni, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida ahamiyat berilgan. Unda o‘rtaga qo‘yilgan ko‘pgina oilaviy masalalar hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Insoniyat tarixida oila jamiyatning asosiy poydevori ekanligini jadidlar ular umuminsoniy, umummilliy darajagacha ko‘tarib, soђlom, ma’rifatli oila va u voyaga yetkazadigan har tomonlama yetuk avlodning, komil insonning shu xalq, millatning rivoji uchun muhim omil bo‘lganligini tushuntirib berishga harakat qilganlar. Jadidlar tomonidan tadqiq qilingan ayrim oilaviy masalalar hozirda ham dolzarbligicha qolmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI


1. Ayni S. Musulmonlar hayoti. // Turkiston viloyatining gazetasi. 1906. 16, 19 iyul.
2. Behbudiy M. Hifz-i sihat-i oila. // Oyna. 1914. №№ 47-52; 1915. № 1.
3. Yoqubova S., Maqsudova M. Nikoh haqida. // Sadoi Turkiston. 1914. 20 may.
4. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. - T.: Ma’naviyat. 1998. B. 8.
5. Turkiston viloyatining gazetasi. 1908. 30 mart.

# MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING HOZIRGI ZAMON TA’LIMIDAGI ROLI VA AHAMIYATI

**Sharipov Shaxriddin Ziyadullayevich,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedogogika insituti dotsenti
**Rahmatova Maftuna Shovqiddinovna,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedogogika insituti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat arbobi, faylasufi va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy faoliyatiga tavsif berilgan. Uning faoliyati butun Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy qarashlari va ilmiy izlanishlari haqida batafsil ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqilikka erishish yo‘lidagi eng muhim qadam,maxsus o‘quv dasturi, zamonaviy fanlar, mustamlakachilik siyosati, siyosiy uyg‘onish, Behbudiy faoliyatining taqiqlanishi, Behbudiy g‘oyalarining bugungu kundagi ahamiyati.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy harakatning eng yirik namoyandasi, yangi davr o‘zbek madaniyati asoschisidir. Turkiston jadidlari peshvosi, mustaqil respublika g‘oyasi tashabbuskorlaridan biri, yangi maktab nazariyotchisi va amaliyotchisi va jurnalisti. U tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab davrida yashadi. Markaziy Osiyoda XVI asrdan boshlangan ijtimoiy inqiroz va davlat boshqaruvidagi turg‘unlik millat va xalqni holdan toydirdi. Bunday imkoniyatdan foydalangan Rossiya imperiyasi o‘lkani istilo qildi. Mustamlakachilar zo‘r berib, bu hududni turg‘un holatda saqlashga urindi. Mana shunday sharoitda Vatanni butunlay yo‘q bo‘lish xavfidan saqlab qolish, yoshlarni erk, ozodlik va mustaqillik ruhida tarbiyalash Behbudiy kabi fidoyi ziyolilar zimmasiga tushdi Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri sifatida ta’limni modernizatsiya qilish va matbuot orqali xalqni savodli qilishga katta e’tibor qaratdi. Uning fikricha, ta’lim taraqqiyotning kaliti bo‘lib, agar xalq ilm olmasa, mustaqil va taraqqiy etgan jamiyatni qurish imkonsiz bo‘ladi.1903-yilda Behbudiy Samarqandda birinchi yangi usul maktabini ochdi. Bu maktabda o‘quvchilar eski maktablardan farqli ravishda tez va samarali o‘qish hamda yangi bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Yangi usul maktablarining asosiy xususiyatlari:

- O‘quvchilarga arab alifbosi asosida tez yozish va o‘qish o‘rgatilgan.
- Matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi zamonaviy fanlar o‘qitilgan.
- O‘quv jarayoni qulay va tushunarli usullarda tashkil etilgan. Behbudiy jaded maktablari uchun maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqdi. U quyidagi yangiliklarni joriy etgan: Savod chiqarishning tezkor usuli bu – Behbudiy usuli bilan ular atigi bir necha oy ichida yozuv va o‘qishni o‘rganishlari mumkin edi. Zamonaviy fanlarni kiritish – matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarni o‘rgatish orqali bolalarning tafakkurini rivojlantirishga intilgan. Darslik va

o‘quv qo‘llanmalarini yaratish – Behbudiy zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishga harakat qilgan. U ta’lim bo‘yicha quyidagi fikrlarni ilgari surgan:

- ✓ “Ilmsiz xalq – kelajaksiz xalq”
- ✓ “Biz o‘zimizni dunyoviy ilmlardan cheklasak, millat sifatida yo‘q bo‘lamiz”
- ✓ “Bolalarimizni faqat eskicha ilmi bilan cheklamay, ularga yangi bilimlar berishimiz lozim”.

Behbudiy ilgari surgan g‘oyalar o‘sha davrda hamma tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan. Ayniqsa, eskicha tafakkur tarafdorlari va mustamlakachilik siyosatidan manfaatdor bo‘lgan kuchlar uning faoliyatiga qarshi chiqqan. Qarshiliklarga asosiy sabablar: Ayollar ta’limiga bo‘lgan qarshilik: Ko‘pchilik an’anaviy jamiyat vakillari ayollarning o‘qishini qabul qilmagan, bu esa Behbudiyning harakatlariga to‘sqinlik qilgan. Mustamlakachilik siyosati: Rossiya imperiyasi Behbudiyning jadidchilik harakatini xavfli deb bilgan va uni nazorat ostiga olishga harakat qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Uning faoliyati natijasida: yangi usul maktablari keng tarqaldi – Jadid maktablari qisqa vaqt ichida butun Turkiston bo‘ylab yoyildi[93]. Ushbu maktablarda o‘qigan yoshlar keyinchalik turli sohalarda faoliyat yuritib, jamiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shdilar; milliy matbuot shakllandi – Behbudiy “Oyna” gazetasi orqali jamiyatda milliy o‘zlikni anglash jarayonini tezlashtirdi va ma’rifiy harakatni targ‘ib qildi. Uning izidan boshqa jadid gazetalar ham paydo bo‘ldi; ayollar ta’limi rivojlandi – Behbudiy ayollar ta’limiga e’tibor qaratgani sababli jamiyatda ayollar o‘qitilishiga bo‘lgan munosabat asta-sekin o‘zgarib bordi; siyosiy uyg‘onish kuchaydi – Behbudiy va uning hamfikrlari milliy taraqqiyot, millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi haqida fikrlar ilgari surishdi. Bu esa Turkiston xalqlari orasida mustaqillik g‘oyalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Jadidchilik mafkurasi taqiqlangan – Yangi sovet ta’lim tizimi jadidchilikni eskilik sarqiti sifatida baholab, Behbudiy ilgari surgan g‘oyalarga qarshi targ‘ibot olib bordi. Bugungu kunda Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidchilik harakati milliy ma’naviyat va ta’lim rivojida muhim o‘rin egallaydi[94]. O‘zbekiston mustaqilikka erishgandan so‘ng, Behbudiyning ilmiy-ma’rifiy merosi qayta tiklana boshlandi. Yangi usul maktablari an’anasi davom etmoqda – Hozirgi zamon ta’lim tizimi Behbudiy ilgari surgan metodlarga asoslangan bo‘lib, tezkor savod chiqarish, zamonaviy fanlarga e’tibor qaratish va milliy ma’rifatni rivojlantirish tamoyillariga amal qiladi. Milliy o‘zlikni anglash mustahkamlandi – O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘zbek tili, milliy madaniyat va tarixni o‘rganish muhim o‘rin egallaydi. Bu jihatlar Behbudiy va jadidchilik g‘oyalari bilan bog‘liq.Ayollar ta’limi rivoj topdi – Bugungi kunda ayollar ta’limi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi, bu esa Behbudiy orzu qilgan jamiyat qurilishiga muhim qadam bo‘ldi. Bugungi jamiyat uchun Behbudiy g‘oyalari qanday ahamiyatga ega? Zamonaviy ta’lim tizimida uning islohotlari izlari bor. Savodxonlikni oshirish, fanlarni keng qamrovda o‘qitish

[93] Baldauf Ingeborg. Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1993-yil 21-may.
[94] Behbudiy M. Bizga isloh kerak. // Najot. 1917-yil 7-noyabr (17-aprel). 18-son.

va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish – bularning barchasi Behbudiy ilgari surgan g‘oyalar bilan uyg‘unlashadi. Matbuot va axborot erkinligi g‘oyalari davom etmoqda[95]. Behbudiy matbuotni xalq ongini uyg‘otish vositasi deb bilgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda matbuot va jurnalistika rivojlanib, jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Milliy o‘zlikni anglash va mustaqil tafakkur shakllanmoqda. Uning milliy uyg‘onish haqidagi fikrlari bugungi O‘zbekiston jamiyatida ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Jadidlar axloqiy masalalarni hal qilish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligini teran anglaganlar. Behbudiyning ta’kidlashicha, to‘y va azadagi har qanday dabdababozlik va manmanlik kishilarni xonavayron va g‘arib etuvchi, inqirozga sabab bo‘luvchi dushmandir. Behbudiyning fikricha Turkiston boylari, xalqni harob va barbod etadigan to‘ylarni o‘tkazish bilan ovora, ortiqcha pullardan bolalarni Kavkaz, Qrim, Qozon va Orenburugga o‘qishga yuborishmaqsadga muvofiq deb hisoblagan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy – xalq ma’rifati va taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik bilan harakat qilgan mutafakkir va siyosatchi. Uning ta’lim sohasidagi islohotlari, matbuotdagi faoliyati va ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Behbudiyning maqsadi nafaqat ta’limni isloh qilish, balki millatni yuksaltirish, xalqni savodli, dunyoqarashi keng va zamonaviy tafakkurga ega qilish edi. U o‘z davrida shaxsiy manfaatlarni emas, balki butun millat istiqbolini o‘ylagan holda harakat qilgan. Shu sababli uning faoliyati nafaqat XX asr boshlarida, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U qoldirgan meros O‘zbekistonning ilmiy, madaniy va ma’rifiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda va kelajak avlodlar uchun ibrat manbai bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Baldauf Ingeborg. Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1993-yil 21-may.
2. Behbudiy M. Bizga isloh kerak. // Najot. 1917-yil 7-noyabr (17-aprel). 18-son.
3. Behbudiy M. Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy. Sochinitel izdatel Samarkandes. 1905. – S.42.
4. Narziyeva M.S. Abdurauf Fitrat va jadidlarning ta’limdagi O‘RNI // Inter education & global study. 2025. №4. –B.172-178.
5. Sadullayev U., Bekmurodova F. JADIDCHILIK HARAKATI VA ABDURAUF FITRAT //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 3. – C. 675-679.


[95] Behbudiy M. Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy. Sochinitel izdatel Samarkandes. 1905. – S.42.

# FITRATNING VATANPARVARLIK QARASHLARINI TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASH METODIKASI

**Isomiddinov Yo‘ldosh Yusubboyevich,**
**O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti v.b.**
**E-mail: isomiddinov.1986@mail.ru**

**Annotatsiya** Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning vatanparvarlik g‘oyalari tahlil qilinadi hamda ularning zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish metodikasi yoritiladi. Fitratning ma’naviy-falsafiy merosi asosida yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning samarali usullari o‘rganiladi. Shuningdek, ta’lim tizimida Fitrat qarashlarini amaliy qo‘llash tajribalari tahlil qilinadi va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola yoshlarni milliy g‘urur va fuqarolik ongiga ega shaxs sifatida tarbiyalashda Fitrat merosining o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Abdurauf Fitrat, vatanparvarlik, ta’lim jarayoni, ma’naviy meros, metodika, yoshlar tarbiyasi, fuqarolik ong, milliy g‘urur.

Vatanparvarlik — bu o‘z vataniga, xalqiga va uning qadriyatlariga nisbatan hurmat va sadoqatdir. Vatanparvarlik g‘oyalari yosh avlodni o‘z yurti, madaniyati, an’analari va tarixiga nisbatan mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Fitrat esa insonning tabiiy xulq-atvori va qadriyatlar tizimi bo‘lib, uning asosida yurt, oilaviy qadriyatlar, xalq an’analari va tarixiy meros yotadi. Fitratning tarbiyaviy jihatlari orqali yoshlarni vatanparvar ruhda tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda mustaqillikning yuksalishi bilan ta’lim tizimida milliy g‘oyalarni rivojlantirish, vatanparvarlikni yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish masalasi dolzarb bo‘lib qoldi. O‘zbekiston hukumati yoshlarni vatanga sadoqatli, intellektual, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalashga katta e’tibor bermoqda. O‘quvchilarga vatanparvarlikni singdirish nafaqat o‘z xalqining tarixini va madaniyatini o‘rganishni, balki mustaqillik, tinchlik va taraqqiyotga bo‘lgan mas’uliyatni ham anglatadi.

Bugungi kunda texnologiyalar ta’lim jarayonini yangilashda muhim vosita hisoblanadi. Elektron ta’lim resurslari, onlayn platformalar, videokonferensiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarni vatanparvarlik g‘oyalari bilan tanishtirish mumkin. Internet va boshqa texnologiyalar yordamida interaktiv ta’lim metodlarini qo‘llash yoshlarni o‘zaro fikr almashish va muhokama qilishga undaydi, bu esa ularda vatanparvarlik hissiyotlarini shakllantiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlikka oid mavzularda o‘quvchilarni fikr bildirishga jalb etish, ularni mustaqil izlanishga undaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimi faqat ilmiy bilimlarni berish bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadlaridan biri – yosh avlodda milliy qadriyatlarni va vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirishdir. O‘zbekistonning mustaqillikka erishganidan so‘ng, vatanparvarlik va milliy istiqlol g‘oyalarini

yoshlar ongida targ‘ib etish masalasi ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ta’limda vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilish yoshlarni o‘z yurtiga sadoqatli, mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda fitratning vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etishning muhimligi, uning metodlari va zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilish usullari ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘zgarib borayotgan dunyo sharoitida nafaqat ilmiy bilimlarni berishga, balki milliy qadriyatlar va vatanparvarlik g‘oyalarini yosh avlodga etkazishga ham katta e’tibor qaratmoqda. Bu esa o‘z navbatida, yoshlarning yurtiga sadoqatini oshirish va ularda vatanparvarlik hissiyotlarini uyg‘otish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Vatanparvarlik g‘oyalari ta’lim tizimining muhim qismi bo‘lib, u talaba-yoshlarda o‘z yurtiga bo‘lgan sevgi, sadoqat, va hurmatni shakllantirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonida vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish talabalarda milliy ongni rivojlantiradi, ular o‘z tarixini, madaniyatini va kelajagini anglashga imkon yaratadi. Vatanparvarlikni targ‘ib qilish orqali o‘quvchilarga o‘z yurtiga xizmat qilish va milliy manfaatlarni himoya qilish mas’uliyati o‘rgatiladi.

Fitrat insonning tabiiy, o‘ziga xos xulq-atvori va ongining muhim jihatlaridan biridir. Ta’limda fitratni rivojlantirish yoshlarning milliy qadriyatlar bilan bog‘lanishini ta’minlaydi. Fitratni rivojlantirish orqali yoshlar o‘z yurtining tarixi va madaniyatini anglaydi, ular milliy qadriyatlar va an’analarga hurmat bilan yondashishga o‘rganadilar. Fitratning rivojlanishi, o‘z navbatida, vatanparvarlik g‘oyalarining o‘sishiga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar ta’lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratdi. Elektron ta’lim resurslari, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar yordamida vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar o‘rtasida samarali targ‘ib qilish mumkin. Interaktiv texnologiyalar orqali yoshlar o‘rtasida muhokama va fikr almashish imkoniyatlari yaratiladi, bu esa ularning vatanparvarlik hissiyotlarini kuchaytiradi. Elektron ta’lim vositalari nafaqat bilimlarni taqdim etishda, balki o‘quvchilarda milliy ongni rivojlantirishda ham samarali vositalar bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchilar va pedagoglar o‘zlarining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy rollarini ham amalga oshiradilar. Pedagoglar tomonidan milliy qadriyatlar, o‘z xalqining tarixiy va madaniy merosi haqida o‘quvchilarga to‘g‘ri ma’lumot berish, vatanparvarlik hissiyotlarini shakllantirishning muhim usulidir. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z yurtiga xizmat qilishning ahamiyatini tushuntirib, ularga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishga yordam beradi. Pedagogik yondashuvlarning samarasiga qarab, o‘quvchilar o‘z yurtiga bo‘lgan hurmat va sadoqat hissiyotlarini rivojlantiradi.

Dunyo bo‘yicha bir qancha davlatlar ta’lim tizimida vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishda muvaffaqiyatga erishgan. Masalan, Yaponiyada yosh avlodga milliy qadriyatlar va tarixni o‘rgatish orqali vatanparvarlik hissiyotlarini rivojlantirish samarali tarzda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, boshqa davlatlar ham o‘z ta’lim tizimlarida vatanparvarlikni targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston ham bu borada o‘zining innovatsion yondashuvlarini tatbiq etishga harakat qilmoqda.

Zamonaviy ta’limda fitratning vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarda vatanparvarlik hissiyotlarini rivojlantirish orqali nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning kelajagi uchun ham mustahkam asos yaratish mumkin. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarning qo‘llanilishi, vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar o‘rtasida samarali targ‘ib qilishda muhim omil bo‘ladi. Bu esa O‘zbekistonning kelajagi uchun mustahkam va mustaqil fuqarolarni tarbiyalashga yordam beradi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**


1. Абдурауф Фитрат (Танланган асарлар). I жилд. Сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев; –Т.: «Маънавият», 2000.- 256 б.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд: Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар — Т.: «Маънавият», 2006. - 336 б.
3. Абдурауф Фитрат - один из первых узбекских профессоров // https://uza.uz/ru/posts/abdurauf-fitrat-odin-iz-pervykh-uzbekskikh-professorov-27-10-2020


## ABDULLA AVLONIYNING IJTIMOIY SIYOSIY FAOLIYATI


**Sharipov Shaxriddin Ziyadullayevich,**
**O‘zbekiston-Finlandiya pedogogika insituti dotsenti,**
**tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Umurboqiyev Javohir Asqar o‘g‘li,**
**O‘zbekiston-Finlandiya pedogogika insituti magistranti**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iste’dodli shoir, dramaturg, pedagog, jurnalist, o‘zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy ijtimoiy faoliyatiga tavsif berilgan.



**Kalit so‘zlar:** maktab va uyushmalarning tashkil etilishi, yangi fanlarni olib kirilishi, ma’rifatparvarlik, ta’lim-tarbiya, pedagogika.


Hozirgi kunda ushbu mavzu dolzarbligi haqida gapirsak, jadidlarning yetuk vakili Ismoilbek va uning davridagi jadidichilarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari haqidagi ma’lumotlar bilish, bugungi kunda ma’naviy hayotimizdagi qadr-qiymatini bilish uning ilmiy merosini asrashdek vazifalarni oldimizga qo‘yadi. Ma’lumki, jadidchilik eng avvalo ma’rifatparvarlik harakati sifatida paydo bo‘lgani uchun jadidlar o‘z faoliyatlarini maktablar ochish, darsliklar yozish va matbuot nashrlarini chiqarish bilan boshladilar. Jadidlarning til, yozuv va imlo bilan bog‘liq qarashlari ularning ana shu amaliy harakatlarida ham aks etgan edi. Bu xalqimizni ma’rifatli qilishga bo‘lgan urunishlar edi.

Abdulla Avloniyning she’rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko‘rina boshladi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo‘lgan Avloniy 1904 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909 yilda «Jamiyati xayriya»

uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917 yillarda matbuotdagi qizg‘in faoliyati, ko‘plab publitsistik maqolalari bilan «bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag‘on, ikkinchi yoqdan el orasiga o‘zgarish tuxmini sochg‘on» ham Abdulla Avloniy bo‘ldi. Avloniy o‘zi nashr etgan «Shuhrat» (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi. Manbalarga ko‘ra, ma’rifatparvar bobomiz Turkistonda birinchilardan bo‘lib maktabga geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlari kiritilishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ta’limni real turmush bilan bog‘lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o‘rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o‘tishdagi imtihonni joriy etdi. Ta’lim tizimining dunyoviy yo‘nalishini kuchaytirishga alohida e’tibor berdi. Uning «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» (1909-1916, 6 qism) kabi qo‘llanmalari maktablarda o‘qitilgan. 1921 yildan Avloniy maktablar ochish, xalqni savodxon qilish, o‘zbek xotin-qizlarini o‘qitish, o‘qituvchilar va ziyoli kadrlar tayyorlash ishlari bilan shug‘ullandi. U Eski shahardagi xotin-qizlar va erlar maorif bilim yurtlarida mudir (1923—24), Toshkent harbiy maktabida o‘qituvchi (1924—29), 1930—34 yillarda O‘rta Osiyo universiteti til va adabiyot kafedrasi mudiri, professor lavozimlarida ishladi. Shu davrda u o‘zbek maktablarining 7-sinfi uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» tuzib, nashr ettirdi (1933).

Avloniy birinchi bo‘lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o‘qitish taklifini beradi. Ilg‘or g‘oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi: Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi ochib (1908), o‘zi ona tili va adabiyotdan dars berdi. 1909-yilda „Jamiyati xayriya“ tuzib, yetim bolalarni o‘qitgan. Shu yili „Adabiyot yoxud milliy she’rlar“ nomli to‘rt qismdan iborat she’riy to‘plamining birinchi juz’ini nashr ettirgan. 1912-yilda Avloniy Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfli maktab ochgan. Bu maktabda dunyoviy fanlar o‘qitilishi bilan maktabxonalardan farq qilgan. Avloniy yangi maktablar uchun qo‘llanma va o‘qish kitoblar yozib, nashr qildirgan. Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo‘jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo‘jayev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan birgalikda „Nashriyot“ (1914), „Maktab“ (1916) shirkatlarini tashkil etgan. Avloniy xalq ongini oshirish uchun teatr san’atidan ham foydalangan. U 1913-yilda „Turkiston“ nomli teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashgan. 1910—1916-yillarda bir qancha sahna asarlarini tarjima qildi va o‘zi sahnalashtirdi. Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon, Xo‘jand kabi shaharlarda qo‘yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining keng manzaralari o‘z ifodasini topgan.

Avloniy truppasida Mannon Uyg‘ur tarbiya topgan; truppa bilan Hamza, Ozarboyjon dramaturglari Uzayr Hojibekov, Ruhullo hamkorlikda bo‘lgan. 2017-yilning 3-avgust kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu uchrashuda madaniyat va san’at sohasida yuzaga kelgan ko‘plab muammolar o‘rtaga tashlandi. Mazkur yig‘ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san’at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so‘z bordi, yosh iste’dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni

rivojlantirish maqsadida yangi g‘oya, tashabbus va takliflar bildirildi: “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o‘ta muhim masala borki,unga alohida to‘xtalib o‘tish zarur deb bilaman, u ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham, yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.”[96] - deb takidladilar.

Avloniyning ta’lim-tarbiyaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Avloniy “ Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darsliklar yaratdi[97].Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifga chorlaydi. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning “Birinchi muallim” asari ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Avloniy uni yozishda Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” asariga suyanadi. Avloniyning “Ikkinchi muallim” asari “Birinchi muallim” kitobining uzviy davomidir[98]. Biz birinchi kitobni shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda Avloniyning siymosi, faoliyati biz uchun qadrlidir. Shu o‘rinda Prezidentimiz ta’lim-tarbiya haqida gapirganida albatta, Abdulla Avloniy xususida to‘xtaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017- yil 4-avgust.
2. N. To‘xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009 — 784-bet.
3. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. „Zabarjad media“, 2022 — 432-bet.


[96] Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // “Xalq so’zi”, 2017- yil 4-avgust.

[97] Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. „Zabarjad media“, 2022 — 432-bet.

[98] N. To‘xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009 — 784-bet.

# SAIDAHMAD SIDDIQIY AJZIYY - JADIDCHILIK HARAKATINING NAMOYANDASI

**Isomiddinov Yo‘ldosh Yusubboyevich**,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti v.b
E-mail: isomiddinov.1986@mail.ru
**Abdujabborov Navro‘z Ochilovich,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Tarix kafedrasi magistiranti
E-mail: abdujabborovnavruz765@gmail.com

**Annotatsiya**: Saidahmad Siddiqiy Ajziyy (1853-1937) - O‘rta Osiyoda jadidchilik harakatining faol namoyandalaridan biri bo‘lib, ta’limda yangi pedagogik g‘oyalarni ilgari surgan. U o‘zining pedagogik ishlari orqali yoshlarni ilmiy va ma’naviy jihatdan kamolotga erishishga undagan. Ushbu maqola orqali Saidahmad Siddiqiy Ajziyning hayoti, faoliyati va jadidchilik harakatidagi o‘rni haqida tahlil qiladi, uning pedagogik g‘oyalarining jamiyatdagi ta’siri haqida so‘z yuritadi.

**Kalit so‘zlar:** Saidahmad Siddiqiy Ajziyy, jadidchilik harakati, pedagogika, ta’lim, ma’naviyat, ilm-fan, ijtimoiy islohotlar, O‘rta Osiyo, Buxoro, metodika, yoshlar tarbiyasi.

Jadidchilik ma’rifatparvarligi Turkiston hududida insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi yirik nazariy oqim darajasiga ko‘tarildi. Ushbu harakat jamiyatning madaniy-ma’naviy yangilanishida muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, jadidchilikning g‘oyaviy-nazariy asoslarini shakllantirish, uning maqsad va vazifalarini keng xalq ommasiga tushuntirish borasida Samarqandda voyaga yetgan, ijtimoiy va pedagogik faoliyatda fidoiylik ko‘rsatgan ma’rifatparvar ziyolilarning xizmatlari beqiyosdir. Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy Ajziyy, Vadud Mahmud, Ismatulla Rahmatullayev kabi ilg‘or fikrli mutafakkirlar jadidchilik harakatida faol ishtirok etib, ayniqsa maktab-maorif sohasida jonbozlik bilan ishladilar. Ular o‘zlarining ilmiy, pedagogik va ijtimoiy faoliyati orqali milliy pedagogika tarixida munosib o‘rin egalladilar va zamonaviy ta’lim tizimining shakllanishiga zamin yaratdilar.

Saidahmad Siddiqiy Ajziyy (1853-1937) jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri bo‘lib, u O‘rta Osiyoda ilm-fan va ta’lim sohasidagi yangilanishlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan. Ajziy o‘z faoliyatida ilmiy yondoshuvni va pedagogik yangiliklarni birlashtirib, jamiyatda o‘zgarishlar qilishga intilgan. Uning asarlari va ta’limotlari, o‘z davrida xalqni taraqqiyotga olib chiqishga yordam bergan va o‘ziga xos pedagogik metodlar yaratishda ahamiyatli bo‘lgan. Uning ta’limdagi asosiy g‘oyasi - jamiyatda zamonaviy bilimlar va diniy

qadriyatlar uyg‘unligini yaratish edi. Masalan, ziyo taratuvchilar sharafiga yozilgan she’rlardan satrlar bo‘lib, unda xalqning ma’rifatli bo‘lishiga adolatli da’vat bor:

“Maktabu ilmu maorif az tu mehohad rivoj
Yak nazar bo mexriboni gar ba so‘yash bingari”[1;80].
(tarj.: *Maktablar, fan va ta’lim sizning yordamingizga muhtoj*
*Ularga mehribon nigoh bilan qarang.).*

Ajziyy ta’limni zamonaviylashtirish va yangilash, yoshlarni yangi ilmiy g‘oyalar bilan tanishtirishga katta ahamiyat bergan. Uning fikriga ko‘ra, o‘qituvchilar faqat diniy bilimlarni berish bilan kifoyalanmasdan, yoshlarga jamiyatda bo‘layotgan ijtimoiy o‘zgarishlar va ilm-fan yangiliklari haqida ham ma’lumotlar berishlari kerak edi. Uning pedagogik g‘oyalarida milliy tilni rivojlantirish, ma’naviyatni oshirish va zamonaviy bilimlarni kengaytirish asosiy o‘rin tutgan. Taniqli olim M.Fattoyevning “Atoqli pedagoglarimiz” nomli kitobidan Samarqand jadidlarining pedagogik faoliyati, ijodi, ma’rifatparvarlik harkatining namoyondalarining pedagogik g‘oyalari, ijtimoiy-madaniy qarashlari bayon qilingan” [2;50].

Ajziyyning pedagogik metodikasi an’anaviy ta’limni rivojlantirish va unga zamonaviy pedagogika elementlarini kiritishdan iborat edi. U ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni qo‘llab-quvvatladi, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga e’tibor berdi. Ajziyshunos olim Nabijon Haqqulov ta’kidlaganidek, “Siddiqiy maktablarda bolalarga ta’lim berishning yangi usullari uchun kurashib, eski diniy maktabga qarshi kurash olib bordi, yangi maktabning ijtimoiy-pedagogik afzalliklarini xalqqa misollar bilan ko‘rsatdi. O‘z xalqi taraqqiyotining bu jo‘shqin tarafdori, xalq ma’rifati uchun tinimsiz kurashchi oddiy o‘qituvchi emas edi. U yosh avlodni tarbiyalash va shakllantirishda maktabga katta ahamiyat berdi” [3;88].

Saidahmad Siddiqiy Ajziyy o‘zining pedagogik g‘oyalari va ilmiy ishlari orqali jamiyatdagi o‘zgarishlarga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning jadidchilik harakatidagi ishtiroki nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshirish, balki jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qilgan. Ajziyy, o‘zining ta’limotlari orqali, milliy va diniy qadriyatlarni hurmat qilish va shu bilan birga, zamonaviy dunyoqarashni rivojlantirishni maqsad qilgan. “Mehnat faoliyatlarini e’tiborga olgan holda, Saidahmad Siddiqiyga 1926 yilda O‘zbekiston Maorif komissarligi uning 25 yillik pedagogik faoliyatini taqdirlab, “Xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” faxriy unvonini berdi va nafaqa tayinladi” [3;94].

Saidahmad Siddiqiy Ajziyy jadidchilik harakatining yirik namoyandasi sifatida, o‘z davrida ilm-fan va ta’limda yangilanishlarni amalga oshirishga katta hissa qo‘shgan. Uning pedagogik metodlari va g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarbdir. Ajziyyning ta’limotlari, o‘z zamonasining ehtiyojlariga mos ravishda, jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qilgan. Uning faoliyati nafaqat o‘z davriga, balki keyingi avlodlarga ham katta ta’sir ko‘rsatgan.

## Foydalangan adabiyotlar


1. Асланов Р. Мировоззрение Саид Ахмеда Сиддики.- Душанбе, 1962. – С.80
2. Fattoyev M. Atoqli pedagoglarimiz. - Toshkent: O‘qituvchi, 1988. -50 b.

3. Haqqulov N.Q. Siddiqiy-Ajziyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va uni jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasi. – Samarqand, 2024.- 123 b.
4. Shaymardonov T.A. Siddiqiy-Ajziy tanlangan asarlar. –Toshkent.: “Fan va ta’lim nashryoti”, 2022.
5. Qosimov B. Maslakdoshlar (Behbudiy, Ajziy, Fitrat). - Toshkent: Sharq, 1994.

## JADIDCHILIK HARAKATI VA VADUD MAHMUDNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI

**Isomiddinov Yo‘ldosh Yusubboyevich,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti v.b
**Toshmaxamatov Sardor Olimjon o‘g‘li,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Tarix kafedrasi magistiranti
toshmuhammadovsardor1@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkistonda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati, uning asosiy g‘oya va maqsadlari, shuningdek, Samarqandlik jadid namoyandasi Vadud Mahmudning ijtimoiy-siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Uning ma’rifiy islohotlardagi o‘rni, ta’lim va matbuot sohasidagi xizmatlari, milliy uyg‘onish g‘oyalariga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda yoritiladi.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati turkistonlik ziyolilarning jamiyatni isloh qilish, milliy o‘zlikni tiklash va zamonaviy bilimlarni yoyish yo‘lidagi harakati sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Bu harakat g‘arbcha taraqqiyot yutuqlarini islomiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, zamonaviy ta’lim tizimini joriy qilish kabi dolzarb maqsadlarni o‘z ichiga olgan edi. Ushbu harakatning yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Vadud Mahmud o‘zining ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy faoliyati bilan alohida o‘rin egallaydi.

Vadud Mahmud adabiyot maydoniga 1920-yillar arafasida Samarqand adabiy muhiti orqali kirib keladi va bu jarayonga nihoyatda faol aralashadi. U o‘zining ma’naviy-ijodiy shakllanishida Turkiston jadidchiligining yirik vakillari bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Vasliy, Saidahmad Siddiqiy Ajziyy, Sadriddin Ayniy, Hoji Muin, Abdurauf Fitrat hamda Tamhid Samarqandiy kabi taniqli muharrir, shoir va muallimlar muhitida tarbiya topadi, ilm oladi va ijodiy yo‘lini belgilab oladi. Ushbu muhit uning dunyoqarashi va adabiy-estetik didining shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘ladi. Samarqandning o‘ziga xos ma’rifiy va adabiy muhiti orqali Vadud Mahmud jadidchilik g‘oyalarini o‘zlashtirib, ma’rifatparvarlik yo‘lida faol ijod qila boshlaydi. “Uning adabiy-tanqidiy, publitsistik maqolalari «Kambag‘allar tovushi», «Zarafshon», «Turkiston», «Inqilob», «Maorif va o‘qitg‘uvchi», «Yer yuzi» kabi gazeta va jurnallarda «Vov»,

«V.M.», «Vadud Mahmudiy», «Vadud Mahmud o‘g‘li» kabi imzolar bilan muntazam nashr qilinib turgan. V. Mahmud mumtoz sharq adabiyoti namoyandalari, mavjud adabiy jarayon xususida «Cho‘lponning «Buloqlar»i» (1923), «Hind ixtilolchilari» (1923), «Turk shoiri Ajziy» (1924), «Adabiy tanqidga bir nazar» (1924), «Alisher Navoiy» (1925), «Fuzuliy Bag‘dodiy» (1925) kabi qator qimmatli maqolalar yozgan” [1].

Rus mužiklarni (dehqonlarni) Turkiston va markaziy Osiyo hududlariga ko‘chirish siyosati imperiyaning strategik, iqtisodiy va demografik maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat qildi. Biroq natijada mahalliy dehqon hamda savdogar qatlamlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy haqiqatlari tubdan o‘zgardi. Yangi iqtisodiy munosabatlar, madaniy bosim va ekologik muammolar bir tomondan, mahalliy jamiyatni modernizatsiya jarayoniga jalb qilsa, boshqa tomondan, milliy uyg‘onish, jadidchilik va aksincha millatchilik kayfiyatining paydo bo‘lishiga ham turtki berdi. Bu haqida Vadud Maxmud; “Uzun tartibsizliklar orqasida buzulgan, bitkan o‘lkamizning oqibat o‘ldirguvchi istibdod idorasi ostida ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizdagi pastlanish adabiyot tariximizda ochiq seziladir. Chunki tariximizning hech bir davrida iqtisodiy va ijtimoiy holimiz bu qadar pastlangan davri yo‘qdir” [2;105] deb ta’kilaydi.

Vadud Mahmud Buxoro va Turkiston mustamlaka tuzumini tanqid qilgan. U yosh buxoroliklar harakatiga yaqin turgan, milliy mustaqillik, adolatli jamiyat, islomiy-modern tamoyillar asosidagi taraqqiyot tarafdori bo‘lgan. Sovet davrining ilk yillarida u qattiq ta’qibga uchragan va nihoyat, repressiya qurboniga aylangan. Shoirning quyidagi baytiga e’tibor beraylik:

“Bu gulshan sahnida gul yafrog‘i rangi gumon etmang,

Qizormish xuni nohaq rangidin xoki vatandir - bu!

Bu baytdagi gulning qizil rangi bog‘larga fayz kiritib turgan guldan farqli, yorning qizil yuzi va qizil dudog‘i o‘xshatmasidan ham ancha uzoq. Shoirning ko‘zi oldida qizarib yotgan «gulshan» — Vatan tuprog‘idir. Bir Vatan tuprog‘iki, nohaqlik, jabr-zulm dastidan qizargan, qizil gul rangini olgan, qip-qizil qonga bo‘yalgan Vatan tuprog‘idir. Shoirning bunday tasviriga ijtimoiy muhitdagi tengsizlik, adolatsizlik sababchi. Kundalik hayotdagi bo‘lib turgan nohaqliklari, jabr-zulmlarining kuchayishi sababchidir”[3]

Vadud Mahmud faoliyati orqali jadidchilik harakatining chinakam ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy mazmuni ochib beriladi. Uning islohotchi fikrlari, matbuot orqali ma’rifat tarqatishga bo‘lgan intilishi va ta’limdagi yangilikka bo‘lgan e’tibori bugungi kunda ham dolzarbdir. Shu bois, Vadud Mahmudning ijtimoiy-siyosiy merosi, ayniqsa, mustaqillikdan keyingi milliy uyg‘onish davrida yangicha baholanishi zarur.

**Taklif va tavsiyalar**

1. Vadud Mahmudning ma’rifatparvarlik merosini chuqur o‘rganish va uni zamonaviy ta’lim jarayonlariga integratsiya qilish zarur.

2. Jadidchilik harakati vakillarining asarlarini ilmiy asosda tahlil qilib, ularni yosh avlodga yetkazish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak.

3. Samarqand jadidlarining faoliyati bo‘yicha alohida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish, ularning hujjatli merosini raqamlashtirish maqsadga muvofiq.

4. Vadud Mahmud singari jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari zamonaviy jamiyat qurilishi uchun foydali g‘oya manbai sifatida o‘rganilishi lozim.

5. Oliy ta’lim muassasalarida jadidchilik tarixiga oid maxsus fanlar va kurslar joriy etilishi ma’naviy-ma’rifiy tarbiyada muhim omil bo‘la oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Vadud Mahmud // https://jadid.uz/jadids/vadud-maxmud/
2. Vadud Mahmud Tanlangan asarlar; Nashrga tayyorlovchi, so‘z boshi, lug‘at va izohlar muallifi Karimov B. – T.: Ma’naviyat. 2007. – 105 b.
3. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar & Bahodir Karimov. Munaqqid haqida so‘z // https://kh-davron.uz/yangiliklar/tarixiy-sana/bahodir-karimov-vadud-mahmud-haqida.html
4. Самарканд земля просветителей джадидов //Conferencea, Sept. 2022, pp. 48-52, https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1301


## TURKISTON JADIDLARI MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI


**Sharipov Shaxriddin Ziyadullayevich,**
**O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti,**
**tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**
**E-mail:**shaxriddin.domla@mail.ru



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Turkiston jadidlari ma’naviy-ma’rifiy faoliyati o‘rganilib kerakli xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, Abdurauf Fitrat, Maxmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidlarning ma’naviy-ma’rifiy faoliyati va uni o‘rganishning bugungi kundagi ahamiyati haqida ilmiy xulosalar chiqarilib taklif va tavsiyalar berilgan.



**Kalit so‘zlar:** Turkiston, jadidchilik, ma’naviyat, ma’rifat, ilmiy meros, mustamlakachilik, taraqqiyot, mustaqillik, jasorat, vatanparvarlik.


Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari: Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, “usuli qadim”ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy mutaraqqiy yo‘lga olib chiqish, Milliy davlat bunyod etish konstitutsion parlament, va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligini joriy qilish va milliy qo‘shin tuzishdan iborat edi.

Turkiston jadidchiligidagi asosiy g‘oyaviy nazariy yo‘nalish Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lponlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, sho‘rolar tuzumi, bol’sheviklar g‘oya va mafkurasini to‘laligicha inkor etib, yagona va bir butun Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borishni taklif etganlar.

Rossiyada fevral inqilobining amalga oshishi, siyosiy tuzumning o‘zgarishi, demokratik jarayonlarning yuzaga kelishi uchun qulay imkoniyatlarning ochilishi Turkistondagi ijtimoiy siyosiy voqealarning borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ijtimoiy-siyosiy hayot faollashuvining muhim ko‘rsatkichi sifatida nashriyot, xususan matbuot faaoliyatining keskin jonlanganini ko‘rish mumkin.

Birinchi jahon urushi jadidlar tafakkurida qatiy o‘zgarishlar yasadi; ular muhitida rasmiy mafkuraning asosiy qoidalari, siyosiy hayotning mexanizmini tanqid qilish kuchaydi. Ayni paytda rivojlangan Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan demokratik siyosiy-huquqiy institut va tartiblarga qiziqish kuchaydi. Jadidlarning bir guruhi uni qoralab, boshqalari uni tugashini kuta boshladi. “Turkistonlik jadidlarning muayyan guruhi Turkiyaga ko‘pchiligi esa Rossiyaga xayrixoh bo‘ldilar.”[99]

Turkiston o‘lkasida mavjud bo‘lgan Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi hamda Xiva xonliklarida XX asr boshlariga kelib mustaqillik uchun harakatlar aloxida-aloxida ko‘rinishga ega bo‘lsada, milliy ziyolilarimizning ilg‘or vakillari yaxlit bir Turkiston o‘lkasini tashkil etish va uni taraqqiy ettirish g‘oyalarini ilgari surgan.

Istibdodga tushib qolgan xalqlarning milliy ozodlik kurashi mafkurasi va taktikasini o‘rganish milliy demokratlarning diqqat-e’tiborida turdi. Jadidlar bu ishga ijodiy yondoshdilar. “Ular Yevropa mamlakatlarining davlat qurilishi va qonunchiligi, Rossiya va Sharq xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashi va demokratik harakatlari mafkurasi hamda taktikasining keng amaliy jihatlarini o‘rrganib, undan o‘z mamlakatlariga mosini, to‘g‘ri keladiganini tanlab olishdi.”[100]

XX asr boshglariga kelib O‘rta Osiyoning Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi davlatlarida faoliyat yuritayotgan milliy ziyolilar bir qancha guruhlarga bo‘linib bu davlatlarni mustaqillik yo‘llariga olib chiqishga harakat qildilar. Ular o‘z sa’yi harakatlari bilan vatanparvar sifatida o‘z xalqiga namuna bo‘lishga harakat qilib, yaratgan asarlari yordamida xalqni ma’rifatli, madaniyatli, vatanparvar bo‘lishga chaqirganlar.

Turkistonning atoqli jadidlaridan biri Abdurauf Fitrat fidoiy, vatanparvar olim sifatida dunyo tarixini tahlil qilgan holda XX asr boshlarida rus mustamlakachilari zulmi ostida qolgan Turkistonning fojiali ahvoli to‘g‘risida shunday deydi: “Aniqdirki, hech qaysi millat hech bir zamonda bizda bo‘lganidek yurti xaroblik, xalqi falokat, ayonlari pastkashlik, idora ahli fasod, zolimlarning qon so‘rishi, ajnabiylar kalakalari, istiqbolining mushkulligi kabi illatlarga mubtalo bo‘lmagan!”[101] Bu fikrlari bilan Abdurauf Fitrat boshqa Sharq mamlakatlarining qaramlik ahvolini tahlil qilgan holda, ulardan ko‘ra Turkiston o‘lkasini ahvoli naqadar og‘irligini chuqur qayg‘u bilan yozadi. Fitrat Turon xalqi boshiga tushgan og‘ir musibatning bosh sababi sifatida shu zamin farzandlarining harakatsizligi va jur’atsizligini ko‘rsatadi. U o‘zining “Yurt qayg‘usi” nomli she’rida sohibqiron

[99] A’zamxo’jaev S. Turkiston muxtoriyati T. Ma’naviyat 2000 y 23-bet.

[100] A’zamxo’jaev S. Turkiston muxtoriyati T. Ma’naviyat 2000 y 23-bet.

[101] A.Fitrat Tanlangan asarlar III-jild Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub. T.”Ma’naviyat” 2003 yil 226-bet.

Amir Temur ruhiga murojaat qilib “Sening Turoningni o‘zim talatdim, Sening turkligingni o‘zim ezdirdim, Sening omonatlaringga xiyonat o‘zim qildim. Men uch kunlik umrimni tinchgina yozib o‘tkazmoqchi bo‘lmasa edim shularning birortasi bo‘lmas edi.”[102]--degan achchiq fikrlarni keltiradi. Yurt ozodligi yo‘lidagi harakatlariga madad berishini so‘raydi. “Ey arslonlar arsloni, Mening yozuqlarimdan o‘t, Meni qo‘limni tut, Belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber! Sening dunyoga sig‘magan g‘ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug‘lig‘ini qaytarmasdan burun ayog‘laringda o‘tirmasman.”[103] Fitratning usbu so‘zlari Turkiston ozodligi masalasini o‘z umrining mazmuni deb bilganligini isbotlab turibdi.

Jadidchilik harakati rahnamolari millatning milliy davlat bo‘lib shakllanishida uning o‘z o‘rni va mavqiyiga ega bo‘lishida ham o‘zining insoniy ona tilisini rivojlantirishi va uning shakllanishiga shart sharoit yaratish kerak deb baholaydilar. Jumladan ushbu narsalarga Turkiston jadidlarinig yo‘boshchisi deb ta’rif berilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy alohida e’tibor bilan qaraydi. Agarda fuqarolarimizdan biri mamlakatda o‘rnatilgan tartib qoidaga bo‘ysunmay qonunni buzsa unga nisbatan tegishli chora qo‘llaniladi, nega endi necha asrlar davomida Qoshg‘ariy, Navoiy kabi shoirlarimiz tomonidan shakllantirilib sayqallangan turkiy tilimizni buzilishiga qarshi kurashmaymiz ba’zi istilohga istemolga arzimaydigan so‘zlarni ishatamiz. Behbudiy turkiy tilni boy til ekanligini va bu tilning rivoji chorizm mustamlakachiligigacha bo‘lgan davr mobaynida rivojlanganligini bir qancha dalil va misollar orqali keltirib o‘tganlar.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlarining asosiy maqsad vazifasi mudroq xalqni nafaqat uyg‘otish, birlashtirish balki, milliy mustaqillik jabhalariga ham olib chiqish edi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakat aholisi zimmasiga bu mustaqillikni asrab avaylash kelgusi avlodarga har tomonlama taraqqiy etgan davlatni qoldirish vazifasi tushdi. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan taraqqiyotga erishishida jadid ma’rifatparvarlarining faoliyatidan har tomonlama foydalanilsa yaxshi natija beradi. Darhaqiqat, uchinchi renesansning poydevori bo‘lgan yoshlarning keng dunyoqarashlarini shakllanishida buyuk jadidlar ilmiy merosi katta ahamiyat kasb etadi. Jadidlar faoliyatini turli innovatsion texnalogiyalar asosida yoshlarga o‘rgatish har bir pedagog xodimning muqaddas burchi hisoblanadi.

[102] A.Fitrat Tanlangan asarlar I-jild Yurt qayg’usi she’ri T. “Ma’naviyat” 2000 yil 34-bet.
[103] A.Fitrat Tanlangan asarlar I-jild Yurt qayg’usi she’ri T. “Ma’naviyat” 2000 yil 35-bet.

# SHARQ ALLOMALARINING QARASHLARIDA TA’LIM-TARBIYANING AHAMIYATI

**Daniyarov Shavkat Ergashevich,**
Alfraganus universiteti o‘qituvchisi,
**E-mail:** Daniyarovshavkat12@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim-tarbiya masalasining sharq allomalari va jadidlar tomonidan ilmiy-nazariy tadqiq etilishi uning o‘ziga xos jihatlari, sifatlari ochib berilgan. Vatan ravnaqi va jamiyat taraqqiyotida yoshlar ta’limi va tarbiyasi masalasi nihoyatda dolzarb masala ekanligi, bunda I va II sharq renessansi davri allomalari hamda III renessans poydevori asoschilari jadidlarning bu boradagi ilmiy qarashlari keng yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** jadid, ta’lim, tarbiya, sharq allomalari, ilm-ma’rifat, insonning axloqiy kamoloti, “Avesto”, sog‘lom tafakkur, vatan ravnaqi, jamiyat faravonligi.

Mamlakatimizda ilm-ma’rifatli, ma’naviy jihatdan barkamol, ruhiy va jismoniy jihatdan sog‘lom, vatanparvar, fidoyi insonni tarbiyalash, yangi avlodni voyaga etkazish vazifalarini amalga oshirish zaruratining oshishi uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bosqichlarida ta’lim-tarbiya masalasining sharq allomalari va jadidlar tomonidan ilmiy-nazariy tadqiq etilishini ilmiy o‘rganishga zarurat tug‘dirmoqda.

Tahlil etish natijalari shuni ko‘rsatdiki, Inson ma’rifati va ma’naviyatini yuksaltirishga bo‘lgan ehtiyoj keng qamrovli tushuncha sifatida ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olmoqda hamda “tafakkur va sog‘lom tafakkur” kategoriyalarini chambarchas bog‘liq tushunchalar sifatida aqliy – mantiqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o‘lchov sifatida maydonga chiqarmoqda. Yurtimizda ta’lim-tarbiya masalalari bo‘yicha ma’lumot beruvchi eng qadimgi manbalardan biri “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, qadimiy ajdodlarimiz yaratgan eng qadimiy, noyob bilimlarning xazinasidir. Unda olamdagi barcha diniy, dunyoviy, tabiiy bilimlar bo‘yicha teran fikrlar mujassamlashgan. Jumladan “Avesto”da yaxshi fikr, ta’lim-tarbiya haqida quyidagi mulohazalar uchraydi: “Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi tayanchi bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avval yaxshi o‘qishni, so‘ngra yozishni o‘rganishi bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin”. “Yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman”[3].

Avestoda odamning tanasi ham, so‘zi ham ishi-yu tafakkuri ham pok bo‘lmog‘i lozim, deyiladi.., Ahuramazda dedi: “O‘zgalarga rushnolik istagan odamning yo‘li albatta hamisha nurafshon bo‘lgay!” Odamning tanasi ham, so‘zi ham ishi-yu tafakkuri ham pok bo‘lmog‘i lozim, deyiladi fargardlardan birida. Demak, “Avesto” manaviyatimizning ilk sarchashmalaridan biridir. Unda iymon, etiqodda sobitlik, ilm-fan, kasb-kor egallash, xalqni adolat, ma’rifat, insonparvarlik, vatanparvarlik, ona sayyorani ezozlashga, hidoyat etishga da’vat bosh masala hisoblanadi[3].

Vatanimizdan juda ko‘p allomalar yetishib chiqqan bo‘lib, jumladan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (vaf. 850 y.) o‘z asarlarida ilm-ma’rifat, sog‘lom tafakkurning xalq va jamiyat faravonligida, insonning axloq kamolotida tutgan o‘rni haqidagi fikrlarni bayon etadi. Xorazmiyning ta’kidlashicha, adabiyot ijtimoiy tafakkur shakllaridan biri sifatida inson badiiy kamolatiga xizmat qilishi lozim. Nutq boyligi puxta, chuqur bilishni, ijobiy fikrlash malakasini egallashning asosi,- deb hisoblaydi[4].

Buyuk alloma Abu Nasr Farobiy (873-950) aql va tafakkur yordami bilan bilim olishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. Uning asarlarida tafakkur mavhumlikka, bavositalikka ya’ni sezgi a’zolari orqali bilish xususiyatiga ega, deb tushuntiriladi. Farobiy ta’limotiga ko‘ra, tafakkur (aql) orqali inson materiyaning sezgilarga noma’lum bo‘lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san’at, fan tizimidagi bilimlarni egallashga muvaffaq bo‘ladi[1]. Bu jarayon “Forobiy ta’limotida o‘z zamonasidagi fozil, ideal jamoa, axloq, ma’rifat, aql-idrok, ishonch, hamma uchun baxt-saodat tantana qilgan sog‘lom jamiyat haqidagi orzu-istak va intilishlarning nazariy ifodasi edi”. “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir. U o‘z ruhining g‘ururi va vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo‘lsin. Forobiy fozil shaharda baxt-saodatga erishishni istagan har bir inson fozillikka intilib yashashi darkor”, deb hisoblagan. “Inson elparlik, birdamlik, yakdillik, adolat va haqiqatgo‘ylik xushmuomalalik, ezgu niyatlar orqaligina baxtu saodatga erishadi”[1].

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) dunyoda insonning tutgan o‘rni, istiqboli masalasiga katta e’tibor bilan qarab, ongli hayotiy faoliyat odamni hayvonning ongsiz xayotiy faoliyatidan farqlantiradigan muhim jihatlaridan biri ekanligi uqtiradi. Uning “Mineralogiya” asarida: “odamda tafakkur qudrati bo‘lmaganda edi, uning ahvoli hayvonlar holatidan ham tubanroq bo‘lgan bo‘lardi, chunki odam kuch jihatidan hayvonlardan zaif, kuchli tabiiy himoya vositalaridan mahrumdir” - deb yozadi. Beruniy ta’limotiga ko‘ra, tabiatni bilish jarayoni sezgilardan boshlanib tafakkurga ko‘tariladi, ma’lum narsalardan noma’lum narsalarga va hodisalarni bilishga tomon rivojlanib boradi. Bilish jarayonida hissiy bilish - sezgi, idrok, xotira kabilarga Beruniy katta e’tibor beradi va ularsiz tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish mumkin emasligini ta’kidlaydi. Binobarin, "Jamiyatning o‘zini-o‘zi boshqarish darajasi kishilar ongining o‘sishi, uning tafakkur madaniyati etukligi bilan uzviy bog‘liqdir. Beruniy ijtimoiy adolat va yaxshi fazilatlar haqida gapirib, rostguylik, ya’ni haqiqatgo‘ylikning adolat bilan uyg‘unligi, bilim va ma’rifat egasi bo‘lish, ijodiy mehnat va yaxshilik insonlarni kamolotga, birdamlik va adolatli bo‘lishga etaklaydi” deb ta’kidlagan[2].

Umar Xayyom o‘z ijtimoiy va axloqiy qarashlarida shaxsiy baxtni jamoa baxti bilan bog‘lab, uning asosini adolat, insonparvarlik, xurfikrlilik, vatanparvarlik xislari insoniy burch tashkil etishini, shundagina hayotning baxtli damlariga erishish mumkinligini yozgandi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) o‘zining axloq haqidagi risolasida yozishicha, ijtimoiy adolat - inson xatti-harakatlarining eng muhim bezagidir. Adolat - ruhiy lazzatning bosh o‘lchovi. Adolat odamga xos sabr, jasurlik, donolik

vatanga muhabbat kabi xislatlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu fazilatlarga ega inson, vijdon amri bilan o‘zini yomon xulq-odob, munosabatlardan saqlaydi. Ezgulik, ruhiy poklik, yaxshilikni o‘zida mujassam etishga harakat qiladi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari, ruhiy poklanish, adolat haqidagi g‘oyalari uning ijtimoiy va ma’naviy-tarbiyaviy qarashlaridan kelib chikadi[4].

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini “Axloqi Muxsiniy” kitobida bayon etadi. Uning ta’kidlashicha sog‘lom fikr, vijdonlilik, vatanparvarlik, adolatlilik, axloqiy kamolot, insonparvarlik insonni nazorat qiluvchi tuyg‘udir. Vijdonsizlik tufayli inson dunyoda bo‘lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Buning oldini olish uchun bolaga yaxshi tarbiya berish, unda yaxshi sifatlarni o‘stirish, mustaqil va sog‘lom fikrlash qobiliyatini o‘stirish masalasiga alohida e’tibor berish lozim. Bola to‘g‘ri so‘zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerak. Koshifiy til va fikr odobi haqida so‘zlar ekan, yaxshi fikrni ifodalashni, yomon gapni aytmaslikni, g‘iybat va bo‘xton qilishdan saqlanishni maslahat beradi[6].

Inson tafakkurini va ularning insonparvarlik qadriyatlariga munosabatini tubdan o‘zgartirish uchun tizimli va ta’sirchan usullarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish taqozo etiladi. Binobarin, insonning sog‘lom tafakkuri, mustahkam iroda va e’tiqodi, halollik va adolat, vatanparvarlik bilan hayot kechirishi, inson va ijtimoiy hayotga xos barcha xislat, fazilat, xususiyatlarga ega bo‘lish, unga amal qilish kabi ma’naviy boylik majmui bo‘lib hisoblanadi.

Insonnning sog‘lom fikrlashga undovchi manbalardan biri jahon madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ shoh, shoir, olim, tom ma’nodagi buyuk ijodkor bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy va ma’naviy merosi hisoblanadi. Bobur Hind zaminiga Islom ta’limotlarini olib kirgan va din ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shgan buyuk shaxsdir. O‘n ikki yoshida otasi Umarshayx Mirzo vafotidan keyin podshoh bo‘lgan Bobur Mirzoning hayoti jangu jadallarda o‘tgan. Taqdir taqozosi bilan ona yurtidan ketishga majbur bo‘lgan. Hindistonga borib o‘z hukmronligini mustahkamlab, markazlashgan qudratli davlatni barpo etgan. Bobur go‘zal xulq-atvor egasi, taqvo, shijoat, halollik, vafodorlik, sabr-toqat, himmat, adolat, rahm-shafqat kabi xislatlarni mujassamlagan. Bu xislatlar uning ijodida ham o‘z ifodasini topgan[5; B.6-7].

O‘zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqtni tashkil etgan bo‘lsada, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan davrdir. Shu davrda maydonga kelgan III renessans poydevori asoschilari jadid ma’rifatparvarlik harakati namoyondalari maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san’at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma’rifiy va ruhiy hayotini butunlay o‘zgartirib yubordi yoki shu yo‘lda e’tiborga molik katta ishlarni bajardi.

Jadidchilik jahon ijtimoiy va milliy qadriyatlarga asoslangan oqim bo‘lib, O‘rta Osiyo mahalliy tub aholisi manfaatlariga javob bergan va ijtimoiy taraqqiyotning pishib etilgan ehtiyojlarini to‘la qondira oladigan harakat sifatida shakllandi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, jadidlar - istiqlol kurashining g‘oyaviy ilhomchilari edilar. O‘zbekiston mustaqilligining tiklanishi tasodifiy va

favquloddagi hodisa bo‘lmay, vatan uchun uchun kurash ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Millatimiz fidoyilari bo‘lmish, vatanparvarlik harakatlari bilan jadid ziyolilari orzu qilgan istiqlolga, hur va ozod vatanimiz O‘zbekistonga erishdik. Har bir inson borki qalbida vataniga muhabbat, elparvarlik, yurtparvarlik xususiyatlarini rivojlantirish barcha ustoz murabbiylar hamda ota-onalarning burch va majburiyatlari hisoblanadi.

- Har bir yosh avlodga o‘tmish ajdodlariimiz merosini o‘qib-o‘rganishiga alohida shart -sharoitlar yaratish;
- vatanparlik va elparvarlik xususiyatlarini singdirishda amaliy suratda na’muna bo‘lish;
- shaxsning mehnatsevarlik, halollik, rostgo‘ylik fazilatlarini shakllantirish;
- irodali, o‘z-o‘ziga ishonch hissi, jur’atlilik sifatlarini shakllantirishga alohida urg‘u berish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.


1. Abu Nasr Farobiy . Fozil odamlar shahri. T.1993. – 186-187.
6. Abu Rayhon Beruniy. “Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar”. Toshkent: Fan, 1972. – B.14.
7. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. G‘G‘Asqar Mahkam tarjimasi. –Toshkent: Sharq, 2001.–B.112.
8. Zunnunov A., Xayrullaev M. Pedagogika tarixi.darslik. “Sharq”. T.:- 2000. – B.237.
9. Z.M.Bobur “Boburnoma” Toshkent, (Sharfq» nashriyot 2002.
10. Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi muhsiniy”. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”, nash. 201. – B.376.
11. “Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari”.“Toshkent islom universiteti” nashriyot, Toshkent-2016.


# XX ASR BOSHI O‘RTA OSIYODA JADIDLARNING O‘RNI VA ROLI


**Umarova Musharraf Yunusaliyevna**
**Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti jtimoiy fanlar kafedrasi asissenti,**
**Sharifjonov Oybek Otabek o‘g‘li**
**Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ‘‘Davolash ishi‘‘ yo‘nalishi talabasi**
**Email: sharifjonovoybek2004@gmail.com**



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati, uning jamiyatdagi o‘rni va tutgan roli yoritiladi. Shuningdek, Jadidlar harakati xalqni uyg‘otish, ilm-ma’rifat orqali taraqqiyotga yo‘l ochish, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari tahlil qilingan.



**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, o‘rta osiyo, Turkiston, ma’rifatparvarlik, ta’lim islohoti, matbuot, adabiyot, milliy uyg‘onish, mustaqillik, sovet qatag‘oni.

XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda murakkab tarixiy va ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar kechdi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Mintaqada savodsizlik, qoloq ta’lim tizimi va diniy mutaassiblik keng tarqalgan edi. Ana shunday murakkab sharoitda ma’rifatparvarlik harakati vujudga keldi. Unga ergashgan ziyolilar — jadidlar — xalqni uyg‘otish, ilm-fan asosida jamiyatni isloh qilish, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotni ta’minlashga intildilar.

Jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy ildizlari o‘zbek jamiyatining ichki ehtiyojlaridan kelib chiqdi. Bu harakat islomiy an’analarga tayanar ekan, zamonaviy bilimlarni, ilm-ma’rifatni sharqona qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishni maqsad qildi. XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda, ayniqsa, Turkistonda ijtimoiy va siyosiy hayotda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, eski ta’lim tizimining yaroqsizligi va xalqning bilimga bo‘lgan ehtiyoji jadidchilik harakatining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Jadidlar yangi maktablar ochib, ilm-fan va dunyoviy bilimlarni o‘rgatishga intildilar, eski ta’lim tizimini yangilashga harakat qilishdi. Ular o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati, matbuotdagi ishtiroki, adabiyotdagi yangiliklari bilan xalqni uyg‘otishga, milliy o‘zlikni anglashga xizmat qilishdi. “Jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etish orqali ularning milliy tiklanish va yoshlar tarbiyasidagi ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy-falsafiy o‘rnini asoslab berishimiz ayni muddoadir”[104].

Jadidlarning faoliyati faqat ta’lim sohasida emas, balki siyosiy maydonda ham iz qoldirdi, ular mustaqillik, erkinlik va milliy birlik g‘oyalarini targ‘ib qilganlar. Biroq, Sovet tuzumi o‘z o‘rnini topganidan so‘ng, jadidlar qatag‘on qilindi. Biroq, XX asr oxirida ularning merosi qayta tiklandi, va bugungi kunda ular O‘zbekiston mustaqil tarixining ajralmas qismi sifatida qadrlanmoqda.

Jadidlar harakati o‘z oldiga xalqni savodsizlikdan qutqarish, zamonaviy fan va texnologiyalar asosida ta’lim-tarbiya berish, milliy o‘zlikni anglash va g‘urur tuyg‘usini shakllantirish kabi ezgu maqsadlarni qo‘ygan edi. Ular uchun asosiy shior — **ilm, ma’rifat va taraqqiyot** bo‘lib, shu yo‘lda ular maktablar ochdi, yangi uslubda darsliklar yaratdi, matbuot orqali xalqni ogohlikka chaqirdi. Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Biz ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab yetadi”[105].

Bugungi kunda ushbu jadidlarning aksariyati oqlangan (rehabilitatsiya qilingan) va ularning asarlari, xizmatlari, merosi yana qayta o‘rganilmoqda. O‘zbekistonda ko‘plab maktablar, ko‘chalar, muassasalar ularning nomi bilan atalmoqda. Xotira kunlari, ilmiy anjumanlar orqali ular yodga olinmoqda.

---

[104] Haqqulov N.Q. Siddiqiy-Ajziyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va uni jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni. 09.00.03 - Falsafa tarixi ixtisos.bo‘yichaFalsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati.-Samarqand, 2024.-B.12.

[105] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020

Qatag‘on bosqichi (1929–1938): 1920-yillarning oxiridan boshlab Stalin siyosatining qattiqlashishi bilan milliy ziyolilar, ayniqsa mustaqil fikrli jadidlar “xalq dushmani” sifatida belgilana boshlandi. 1937–1938 yillardagi katta qatag‘on yillarida yuzlab jadidlar hibsga olindi, soxta ayblovlar bilan otib tashlandi yoki uzoq muddatli lagerlarga yuborildi. Professor S.Agzamxodjayevning bu borada quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: “Ikki yoqlama mustamlakachilik va mahalliy zulm ostida ezilib kelgan xalq ommasining og‘ir iqtisodiy ahvoli, Turkiston, Buxoro va Xiva xonliklarining jahonning iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlaridan anchagina orqada qolib ketganligi, madaniy tanazzul hamda erkin fikrning qotib rivoj topmayotganligi kabi holatlar jadidlarni ijtimoiy taraqqiyot choralarini izlab topishga undadi”[106].

Qatag‘on qanday amalga oshirildi?

1. Soxta ayblovlar qo‘yildi:

- Panislomizm (islomiy birlik uchun harakat qilish)
- Panturkizm (turkiy xalqlarning birlashuvini targ‘ib qilish)
- Millatchilik (milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish — sovet mafkurasiga zid)
- Burjua millatchiligi (sinfiy kurashga qarshi chiqish)
- Chet el bilan aloqa o‘rnatish (ayrim jadidlar Yevropada yoki Turkiyada o‘qigan)

2. Ma’naviy va jismoniy qiynoqlar ostida soxta tan olishlar:

- Ko‘pchilik jadidlar aybsiz bo‘lsa-da, ularni qiynab "aybini tan oldirishgan", bu esa boshqa jadidlar ustidan dalil sifatida ishlatilgan.

3. Ularning oilalari ham ta’qibga uchragan:

- Repressiyaga uchraganlarning turmush o‘rtoqlari, farzandlari "xalq dushmani oilasi" sifatida jamiyatdan ajratilgan, tahqirlangan, ko‘chirilgan.

Jadidlar merosi bugungi kunda:

Bugun O‘zbekistonda jadidlar quyidagi shakllarda e’tirof etilmoqda:

1. Asarlari nashr etilmoqda (masalan, Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy, Avloniy asarlari).
2. Ularning nomlari maktab, ko‘cha, universitetlarga berilgan.
3. Ilmiy konferensiyalar o‘tkazilmoqda, jumladan, har yili jadidlar merosiga bag‘ishlangan simpoziumlar.
4. Yoshlar uchun ma’naviy o‘git manbai sifatida qadrlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda jadidlar tomonidan boshlab berilgan ma’rifiy va siyosiy harakatlar xalqning tafakkuri, madaniy hayoti va milliy o‘zlikni anglash jarayonida g‘oyatda muhim o‘rin egalladi. Ularning faoliyati zamonaviy ta’lim tizimi, matbuot, adabiyot va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida tub burilish yasadi. Jadidlar nafaqat ma’rifatparvar ziyolilar, balki milliy uyg‘onish harakatining yetakchilari sifatida ham tarix sahnasiga chiqdi. Ular zamonaviy o‘zbek davlatchiligi va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga beqiyos

[106] Агзамжоджаев С. Жадидчиликнинг ғоявий ривожланиш босқичлари // “Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари, 2016 йил 15 апрель. - Тошкент: Тошкент ислом университети, 2016. – Б.6-7.

hissa qo‘shgan shaxslar edi. Bugungi kunda ularning boy merosi yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda va milliy o‘zlikni anglashda muhim manba sifatida qadrlanmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


2. Haqqulov N.Q. Siddiqiy-ajziyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va uni jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni. 09.00.03 - Falsafa tarixi ixtisos.bo‘yichaFalsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati.-Samarqand, 2024.-B.12.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
4. Агзамжоджаев С. Жадидчиликнинг ғоявий ривожланиш босқичлари // “Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти” мавзуидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари, 2016 йил 15 апрель. - Тошкент: Тошкент ислом университети, 2016. – Б.6-7.
5. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. — T.: Cho‘lpon, 1992. https://www.google.com/search?q=Turkiy+guliston+yoxud+axloq+Avloniy
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. — T.: G‘afur G‘ulom, 2017. https://uzbekclassiclibrary.com/f/fitrat-abdulla/tanlangan-asarlar
7. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. — T.: Fan, 2013. https://kitobxon.com/book/Behbudiy%20Muhammad%20Tanlangan%20asarlar
8. Qosimov B. O‘zbek ma’rifatparvarlari. — T.: Akademnashr, 2019. https://www.academia.edu/37959548/Ozbek_ma_rifatparvarlari


## MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR QARASHLARIDAGI INNOVATSION YONDASHUV


**Mardonov Ravshan Rabbano o‘g‘li**
**Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi**



**Annotatsiya:** Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi arboblaridan biri bo‘lib, uning yoshlar ta’lim tarbiyasiga qo‘shgan hissasi nihoyatda beqiyosdir. Behbudiyning fikrlari, uning yozgan darsliklari va o‘qitish tizimi nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Ushbu maqolada Behbudiyning yoshlarga ta’lim berishdagi roli va uning ta’lim tizimidagi islohatlari tahlil qilinadi.



**Kalit so‘zlar:** Mahmudxo‘ja Behbudiy, ta’lim islohoti, “Jome’ ul-Azhar”, Muhtaram yoshlarg‘a murojat, “Usuli savtiya”, “Risolayi asbobi savod”, yangi usul maktabi, yoshlar tarbiyasi.


Mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib etgan, millatni ilm marifatga chorlagan, yangi maktab g‘oyasini, o‘zbek dramasini boshlab bergan ilk dramaturg, teatr sohasida ilk

yangiliklar amalga oshirgan, milliy matbuotning shakillanishida beqiyos hissa qo‘shgan vatanparvar adib o‘zbek adabiyotida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. U tariximizning juda murakkab, og‘ir siyosiy muhitida yashadi. Jaholat va mutassiblik avjiga chiqqan, o‘zaro nizolar millatning tafakkuriga bolta urgan, milliy mafkuramizga darz ketgan va xalqimizning ijtimoiy, ma’naviy axvoli nihoyatda og‘ir bir davrda xalqni ma’rifatga, ilmga undagan shaxs-Mahmudxo‘ja Behbudiydir.[1]

Turkiston jadidlari millatni qoloqlik va savodsizlik botqog‘idan faqat ma’orifni rivojlantirib chiqish mumkinligini tushundilar va asosiy harakatni yangi usuldagi maktablar ochishga qaratdilar. Jadidlar yangi usuldagi maktablarni har jihatdan isloh qilishga kirishdilar.

Diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallagan Mahmudxo‘ja Behbudiy dunyoqarashining keskin o‘zgarishiga uning sharq va g‘arb mamlakatlariga qilgan safarlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U 1899-yilda Istanbul va Misr kabi yirik shaharlarda bo‘lib, undagi ba’zi eski va yangi maktablarni, ayniqsa Misrdagi “Jome’ ul-Azhar”ni ziyorat etadi.Qaytishda Misr va Istanbuldan turli gazeta va yangi kitoblar olib keladi.[2]

Ayniqsa Behbudiy Bayrut oliy o‘quv yurtlari va dorilfununida farang, olmon va ingliz tillarining o‘qitilishi va yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e’tiqod qilgan bo‘lib, ona Turkistonning taraqqiyotda naqadar ortda qolganligini nadomat bilan yozadi”. “Bu erda, Turkistondan tashqari, dunyoning barcha mamlakatlaridan yoshlar kelib o‘qishadi”- deb nadomat chekadi.

Behbudiy Istanbul safardan qaytgach Ismoil Gaspiralining Tarjimon gazetasini o‘qiy boshladi. Ushbu gazeta g‘arb madaniy olamida yuz berayotgan voqealardan xabardor etar, turkiy xalqlarning ta’lim tarbiya tizimini isloh qilish, islomiy maktablar va madrasalarda dunyoviy fanlardan ham saboq berishni izchil targ‘ib qilardiki u bilan tanishuv Turkistondagi barcha ziyolilar kabi Mahmudxo‘ja Behbudiyning tafakkurida ham keskin o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi.[1] Uning asosiy maqsadi ona yurti Turkistonni ozod ko‘rish edi buning uchun esa u birinchi navbatda o‘lka yoshlarini ilm olishlari shart deb hisoblardi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining ,,Muhtaram yoshlarg‘a murojaat‘‘ nomli maqolasida yoshlarga shu bilan bir qatorda barcha vatandoshlarga shunday xitob qiladi: “Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib - taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval,makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha taraqqiy yo‘lig‘a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas. «Muborizayi hayot» maydonida mutlaqo mag‘lub bo‘lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o‘zgalarning asiri bo‘lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo‘ldan berur.‘‘

Binobarin alayh yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig‘a va maktablarning har jihatdan intizom va aqmolig‘a ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar. Aning uchundurki, o‘zga millatlar diniy va milliy hissiyotg‘a molik bo‘lib, har ishda

diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda bu yo‘lda molu jonlarini fido etmoqg‘a hozir tururlar. Mana hozirgi urushlar va iqtisodiy tortishlar diyonat va milliyat hissiyoti natijasidur.[4] Yuqoridagi fikr bilan M.Behbudiy yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning naqadar muhimligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Behbudiy “Muhtaram yoshlarimizga murojaat” maqolasida “…maktab-taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir”, deydi. Modomiki shunday ekan: “Turkiston musulmonlariga ibtidoiy maktablarni ko‘paytirmoq lozimdir”,-deydi. Ammo Behbudiyni yana bir masala maktablarga ta’lim beradigan o‘qituvchilarga ehtiyoj masalasi ham qiynaydi. Jumladan shunday yozadi: Tabiiy, maktab muallimsiz ko‘paymas. Hozirda esa Turkistonda muallim oz bo‘lib, muallimlarga ehtiyojimiz kuchlidir.[1]

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ta’lim islohoti yo‘lida katta hissa qo‘shgan. U yangi usul maktablarini tashkil etish orqali xalqning savodxonligini oshirishni maqsad qilgan. An’anaviy maktablarning zamonaviy ilmdan uzoqlashgani, eski ta’lim metodlarining samarali emasligi uni ta’lim sohasida tub burilish qilishga undagan.

1903-yilda Behbudiy Samarqandda birinchi yangi usul maktabini ochdi. Bu maktabda o‘quvchilar eski maktablardan farqli ravishda tez va samarali o‘qish hamda yangi bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Yangi usul maktablarining asosiy xususiyatlari:

– O‘quvchilarga arab alifbosi asosida tez yozish va o‘qish o‘rgatilgan,

– Matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi zamonaviy fanlar o‘qitilgan,

– O‘quv jarayoni qulay va tushunarli usullarda tashkil etilgan.

Bu maktablar xalq orasida tez tarqalib, boshqa jadidlar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlandi. Behbudiy faqat Samarqandda emas, balki boshqa viloyatlarda ham yangi usul maktablari ochilishiga ilhom bergan.[6] Behbudiy faoliyat yuritgan davrda Markaziy Osiyoda asosiy ta’lim muassasalari eski uslubdagi maktablar edi. Ammo maktablardagi ta’lim tizimi o‘rta asrlardan beri deyarli o‘zgarmay kelayotgan edi. Behbudiy eski maktablarning zamonaviy ilmlarga befarq ekanligini tanqid qilgan. Uning fikricha, xalqni savodli va taraqqiyparvar qilish uchun yangi usul ta’limi kerak edi. Shu sababli u bu maktablar orqali yosh avlodni ilm-fan va zamonaviy bilimlar bilan tanishtirishga harakat qildi.

Behbudiy jadid maktablari uchun maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqdi va quyidagi yangiliklarni joriy etgan:

– Savod chiqarishning tezkor usuli – Behbudiy usuli bilan ular atiga bir necha oy ichida yozuv va o‘qishni o‘rganishlari mumkin edi.

– Zamonaviy fanlarni kiritish – matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarni o‘rgatish orqali bolalarning tafakkurini rivojlantirishga intilgan.

– Darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish – Behbudiy zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqishga harakat qilgan.

Behbudiy o‘zi ochgan maktablari uchun 1904-1909-yillarda o‘zbek va tojik tillarida «Risolai asbobi savod» (Savod chiqarish kitobi), “Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy”(Qisqacha umumiy geografiya), “Kitobat ul-atfol” (Bolalar maktublari),

“Muxtasar tarixi islom” (Islomning qisqacha tarixi), “Madxali jug‘rofiyayi umroniy”(Aholi geografiyasiga kirish),“Muxtasar jug‘rofiyayi Rusiy” (Rassiyaning qisqacha geografiyasi) kabi darsliklarni yaratdi.[5]

Savod alifbodan boshlanadi shuning uchun ham jadid pedagoglari “usuli savtiya” metodida faoliyat ko‘rsata boshlagan maktablar uchun alifbo darsliklari yaratishga birinchi darajali masala sifatida qaradilar.Mahmudxo‘ja Behbudiy ushbu usul zaminida Turkiston o‘lkasida birinchi bo‘lib alifbo darsligini yaratdi va uni “Risolayi asbobi savod” deb nomladi. Muallif alifboni bosmadan chiqarishdan oldin bir yil davomida Abduqodir Shakuriy maktabida tajribadan o‘tkazdi, alifboga bazi bir o‘zgarishlar kiritdi va 1905-yilda Samarqandda bosmadan chiqardi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning muhim darsliklaridan yana biri “Kitobat ul atvol”dir (Bolalar maktublari). Bu darslik usuli jadid maktablari o‘quvchilari uchun maxsus darslik sifatida yaratilgan bo‘lib, ushbu kitobda bolalarni turli mazmundagi rasmiy, norasmiy xususiy xatlar yozishga o‘rgatish, yozma nutqini o‘stirish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Bolalarni turli mazmun va maqsadda yozilgan maktublaridan chiroyli namunalar berilgan. Darslik muqaddimasida Turkistonning “Usuli qadim” maktablarida o‘quvchilar yozma nutqini o‘stirish masalasi nihoyatda nochor ahvolda ekanligi, bolalarni insho yozishga o‘rgatish uchun birorta qo‘llanmaning yo‘qligi mazkur asarni yozishga majbur qilganligini ta’kidlaydi. Ushbu darslik birinchidan, yoshlarni turli davlat idoralarida o‘zbek tilida ish yuritishga o‘rgatish vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan bo‘lsa, ikkinchidan, muallimlarning e’tiborini o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishdek nihoyatda muhim masalaga qaratadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy yozma nutq o‘stirishday nihoyatda murakkab va mas’ulyatli masalaga jiddiy yondoshdi va darsligida o‘quvchilar xat yoki maqola yozayotgan vaqtlarida nimalarga ahamiyat berish zarurligini ko‘rsatib berdi. Bolalar ruhiyatini yaxshi bilgan Behbudiy yozma nutq o‘stirishda o‘quvchilar uchun nihoyatda qulay va ularni qiziqtira oladigan usul xat yozdirish usulidan foydalanadi.Chunki yosh bolalar ota-onalari yoki do‘stlariga xat yozishga ancha qiziqadilar. Darslik muallifi xat yozish odobi, qoidalari, ramzlar xis tuyg‘u belgilari, tinish belgilari bo‘yicha rahbarlik qilishda o‘qituvchilarga qimmatli yo‘riqlar beradi.Ushbu o‘quv darsligi o‘lka miqiyosida ta’lim-tarbiya muassassalari, eski va yangi maktablar uchun katta ahamiyat kasb etdi.[5]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zning qisqa hayoti davomida millat uchun zarur bo‘lgan talaygina boy ma’naviy me’ros qoldirdi. Mustamlaka Turkistonni ilmsizlik jaholatidan qutqarish uchun eski maktabni isloh qilish zarurligini isbotlab, usuli jadidiyaga asos solib umrining oxiriga qadar millat yoshlariga ilm ulashishdan charchamadi. Uning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari u yashagan davr uchungina emas, balki hozirgi yoshlar tarbiyasida ham samarali xizmat qilmoqda. O‘z davrining ilg‘or kishisi sifatida ijtimoiy-siyosiy, va madaniy hayotdagi muammo va kamchiliklarni ko‘ra oldi o‘z qarashlarini xalqqa etkazishga harakat qildi va uni bartaraf etish yo‘llarini izladi. U qoldirgan boy me’ros nafaqat O‘zbekiston uchun balki Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ularning dunyoqarashida bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent.:2014
2. Xoji Muin Tanlangan asarlar. Toshkent.: Manaviyat.2005
3. “Mahmudxo‘ja Behbudiyning 150 yillik yubileyiga bag‘ishlangan” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand.2025
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy tanlangan asarlar. Toshkent.: Manaviyat.2006
5. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi. 2022.
6. Behbudiyning ta’lim va ijtimoiy faoliyati // https://oliymahad.uz/43832

# JADIDLAR QARASHLARIDA OILAVIY TARBIYA VA IQTISODIY ZO‘RAVONLIK MUAMMOSINI YORITILISHI

**Abdulfaizova Durdona Ikromjon qizi**
**Andijon Davlat Universiteti tayanch doktoranti**
**Email: durdonaabdulfaizova2@gmail.com**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oila barqarorligiga tahdid soluvchi muammolardan biri - iqtisodiy zo‘ravonlik masalasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashishda milliy ma’naviy meros, xususan, jadidlar - Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ma’rifatparvarlarning oila, ayol, tarbiya borasidagi ilg‘or g‘oyalariga murojaat qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Oila barqarorligi, iqtisodiy zo‘ravonlik, jadidlar merosi, Behbudiy, Fitrat, Avloniy, oilaviy tarbiya, ayolning jamiyatdagi o‘rni, ma’naviy qadriyatlar, ta’lim tizimi, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Bugungi kunda jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri - oilaning barqarorligini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oila ichidagi muammolardan biri bo‘lgan iqtisodiy zo‘ravonlik ko‘rinishlari ko‘plab mamlakatlar qatori bizning jamiyatimizda ham mavjud bo‘lib, u ko‘pincha ayollar va farzandlarning huquq va erkinliklariga tajovuz sifatida namoyon bo‘ladi. Bu muammo nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy inqiroz belgilaridan biri sifatida ham talqin etilishi mumkin. Mazkur holatga qarshi kurashishda milliy tariximiz, xususan, jadidlar merosi va ularning oila, tarbiya, ayolning jamiyatdagi o‘rni haqidagi qarashlari muhim manba bo‘la oladi. Jadidchilik harakati o‘z davrida oila muammolariga, xususan, ta’lim-tarbiya, ayol erkinligi va gender masalalariga zamonaviy yondashuvlar taklif etgan.

Jadid matbuotida, shu jumladan, Behbudiyning “Oyna”sida oila masalalari hamisha diqqat markazida bo‘ldi. Afsuski, bu maqolalar hozirgi joriy imloda qayta nashr etilmagan. Shuning uchun ham ularni maxsus o‘rganish uchun muayyan vaqt talab etiladi [1]. Behbudiy o‘zining “Risolai nikoh va talaq” asarida oila qurishning asosiy maqsadi farzand tarbiyasi, ijtimoiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat ekanini

ta’kidlagan. Abdulla Avloniy esa “Tarbiya milliy” asarida oilaviy tarbiyani xalq ma’naviy uyg‘onishining asosi deb bilgan. U oilada tarbiya bermagan jamiyatning kelajagi bo‘lmasligini uqtirgan. Bu qarashlar iqtisodiy zo‘ravonlikka barham berishda oilaviy qadriyatlar va sog‘lom muhit yaratishning naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Lekin masalaning yana bir tomoni borki, Fitratning 1914-yili yozilib, 1915 yili nashr etilgan *“Oila”* kitobi jadid ma’rifatparvarlarining bu borada e’lon qilingan asarlarining ma’lum darajada mantiqiy yakuni sifatida yaratilgan. Shuning uchun ham bu kitobda jadidchilik namoyandalarining oilaga oid huquqiy qarashlari o‘z aksini to‘la topgan, deyishimiz mumkin. Jamiyatda oilaning ro‘li shunchalik ahamiyatliki, u odatli tarzda har qanday jamiyatning negizi sifatida ko‘rib chiqiladi. Chunki oila ijtimoiy hayotning alohida sohasini mujassam etgan bo‘lib, unda kelajakda jamiyatda yashaydi va davlatning fuqarosiga aylanishi kerak bo‘ladi. Shaxsning dunyoga kelishi, oyoqqa turishi va shaklllanishi jarayonlarida ham oilaning o‘rni muhim ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma’lum.

“Jadidlarning fikri bo‘yicha, oila asosini to‘g‘ri qurmasdan va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasi holatiga bog‘liq. Bu g‘oya Fitrat asarida o‘z ifodasini topgan: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”, deb yozadi u. Fitrat asarda chuqur va keng bilimlarga asoslangani bois, o‘tkir mutaxassis sifatida fikr yuritadi” [2]. Iqtisodiy zo‘ravonlik jamiyatda ijtimoiy adolatsizlikka, iqtisodiy tengsizlikka va inson huquqlarining buzilishiga olib keluvchi omil bo‘lib, turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin[3]. Bu zo‘ravonlik ko‘rinishi nafaqat ayollar, balki ko‘pincha farzandlar yoki iqtisodiy jihatdan qaram bo‘lgan erkaklarga ham qaratilgan bo‘lishi mumkin. Masalan: pul mablag‘ini cheklash, ishlashga ruxsat bermaslik, moliyaviy qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqini bermaslik. Bu holatlar oila barqarorligiga putur yetkazadi, oilaviy muhitni zo‘ravonlikka asoslangan tizimga aylantiradi. Jadidlar bu turdagi muammolarni o‘z davrida aniq “iqtisodiy zo‘ravonlik” deb atamagan bo‘lsalar-da, ular ayollarni mehnatga jalb qilish, mustaqil fikrli bo‘lish, ta’lim olish orqali iqtisodiy jihatdan mustahkamlash g‘oyasini ilgari surganlar.

Oila, Fitratning talqinida, uch muhim omildan iborat: *er, xotin va farzand (farzandlar).* Ana shu uch omilning har biri nozik, o‘ziga xos jihatlarga ega. Haqiqatdan ham er va hotin uchun oila qurish asosiy muammo bo‘lishi bilan birga, bu masala o‘zining muhim qirralariga ham ega. Abdurauf Fitrat oilaning huquqiy asoslarini yoritib berishdan avval, masalaning g‘oyat muhim tomonlarini ham yodda saqlagan. Hayotning farzandlar shaklida davom etishi, Fitrat nazarida, faqat oila emas, balki millatning ham kuch-qudratini, sha’n-shavkatini bildiruvhchi omildir. Darhaqiqat, oila va farzand masalasi erkak yoki ayolning xususiy masalasi emas. Farzand nafaqat, ota-ona hayotining davomchisi balki millatning ham iqtidori, obro‘ va e’tiborini belgilaydigan zanjir halqasi hisoblanadi. Insonning moliyaviy mustaqilligi yoki erkinligi oila ichidagi munosabatlarni, ayniqsa, yoshlar orasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tashkil qilishga katta ta’sir ko‘rsatadi”. Agar oila ichidagi

iqtisodiy manipulyatsiyalar jamiyatdagi aniq ma’naviy qadriyatlar - tenglik, adolat, hurmat - bilan bog`liq bo‘lsa, bu iqtisodiy zo‘ravonlikning odamzot qadriyatlariga nisbatan shakllangan e’tiborini O‘zgartirishga majbur qiladi. Iqtisodiy zo‘ravonlikning bevosita oqibatlari oila barqarorligining buzilishiga, xususan, ijtimoiy va ruhiy izolyatsiya, oila ichidagi ishonchsizlik, depressiya va umidsizlik kabi holatlar bilan bog`liq bO‘lishi mumkin. Oila a’zolarining iqtisodiy jihatdan mustaqil bO‘lishi, O‘z navbatida, oilaviy aloqalarni kuchaytirishi, bir-biriga bO‘lgan ishonchni mustahkamlashi va oila barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi [4]. Bugungi kunda jadidlarning oilaviy tarbiya, ayollar ta’limi va ma’naviy rivojga oid qarashlari ta’lim tizimi orqali qayta tatbiq etilishi mumkin. Jadidlarning o‘z davridagi yangicha qarashlari - bu faqat tarixiy fakt emas, balki hozirgi kun uchun ham saboq bo‘la oladigan ijtimoiy-falsafiy merosdir. Ular din, an’ana va zamonaviylikni uyg‘unlashtirishga intildilar. Bugun ham iqtisodiy zo‘ravonlik kabi muammolarga yondashishda aynan shu uyg‘unlik muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, oila barqarorligiga tahdid soluvchi iqtisodiy zo‘ravonlik kabi murakkab ijtimoiy muammoni bartaraf etishda tarixiy-ma’naviy meros, xususan jadidlar g‘oyalari kuchli turtki bo‘la oladi. Ularning oilaviy qadriyatlar, tarbiya, ayolning jamiyatdagi roli haqidagi ilg‘or fikrlari zamonaviy ta’lim tizimida yangi yondashuvlar orqali jonlantirilsa, nafaqat iqtisodiy zo‘ravonlikka barham berish, balki sog‘lom va ma’naviy barkamol jamiyatni barpo etish mumkin bo‘ladi.

Taklif va tavsiya sifatida quyidagilar keltiriladi:

Zamonaviy ta’lim tizimiga jadidlar qarashlarini integratsiyalash zarur. Jadidlar asarlarida oilaviy tarbiya, ayolning jamiyatdagi o‘rni, ta’lim orqali erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishga oid ko‘plab g‘oyalar mavjud. Ularni bugungi ta’lim dasturlariga moslab, yangi avlodning ma’naviy ongini shakllantirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Jadidlar merosini asoslagan ilmiy va metodik qo‘llanmalar tayyorlash. Oila, tarbiya va ayol masalasida jadidlar merosiga tayanilgan holda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar yaratilib, ta’lim tizimiga tatbiq etilishi lozim. Bu, ta’limda milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlaydi.

Ilmiy tadqiqotlar orqali iqtisodiy zo‘ravonlikning ijtimoiy ildizlarini chuqur o‘rganish kerak. Mazkur muammoni faqatgina ijtimoiy ko‘rinish emas, balki falsafiy, psixologik, iqtisodiy va huquqiy nuqtai nazardan tizimli o‘rganish zarur. Shu asosda kompleks profilaktika choralarini ishlab chiqish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Jadidchilik va oila // https://oliymahad.uz/36851
2. file:///C:/Users/User/Downloads/G.Karabaeva+%20(1).pdf
3. Abdulfaizova D.I. Iqtisodiy zo‘ravonlik va uning jamiyatga ta’siri //https://worldlyjournals.com/index.php/
4. Abdulfaizovo D.I. Iqtisodiy zo‘ravonlik va oila barqarorligi: falsafiy asoslar va ijtimoiy ta’sirlar // ORIENSS. 2024. №26. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/iqtisodiy-zo-ravonlik-va-oila-barqarorligi-falsafiy-asoslar-va-ijtimoiy-ta-sirlar

# ТОПИКСТАРТЕР КАК ГЕНЕРАТОР МАРГИНАЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ

**Кушаков Шухрат Салиевич,**
Доктор наук, профессор, профессор кафедры социальных наук СамИСИ
E-mail: shuxratqushakov@gmail.com

**Аннотация**. В статье рассматривается новый тренд презентации маргинальной философии в социальной сети, формы ее подачи в современной сетевой коммуникации. Анализируется феномен подачи маргинальной философии субъектом, который в социальной сети называется топикстартером. Освещается позитивные аспекты презентации маргинальной философии в социальной сети.

**Ключевые слова.** Интернет, коммуникация, социальная сеть, маргинальная философия, презентация.

Во второй половине XX столетия порождением компьютерной революции стал интернет, который, в свою очередь, является технологическим основанием появления социальной сети. Теперь же мы в XXI веке переживаем новую компьютерно-коммуникационную революцию. Благодаря социальной сети произошло другое, не менее значимое изменение в сфере социальной коммуникации. Смысл изменения состоит в том, что исчезли пространственно-временные ограничения в коммуникации, то ест, локальные of-line-общения трансформируются в глобальный сетевой on-line коммуникацию между людьми, культурами и социумами. Теперь каждый человек имеет возможность в режиме on-line виртуально контактировать со всеми (с группами, сообществами), а все с одним (т.е. создаваемые всеми пользователями ресурсы интернета в возможности может быть достоянием каждого пользователя интернета).

Благодаря социальной сети пользователи имеют возможность создавать он-лайн платформы, профили, посты, приложения, делится информацией, обмениваться различными файлами, идеями, содержательными контентами и т.д. Все эти социальные и когнитивные коммуникации осуществляются в интернет-площадках, где происходят дискуссии, обсуждения обзоров по различной тематике, обмен креативными проектами и идеями, поиск решений актуальных проблем современности. Философия, которая в недавнем прошлом было дискурсивным полем когнитивного поиска профессионалов-философов, философствующих ученых (хорошо известны философемы А. Эйнштейна, Н. Бора, М. Планка и др), любителей философской мудрости, ныне ворвалась в гипрерреальность и стала постоянной жительницей интернет-форумов, вебинаров, стримов и других платформ.

В самом интернете ресурс философских дискурсов и нарративов обретает глобальный масштаб. Люди, в том числе, интеллектуалы перестали покупать книги, ибо, как принято говорить, в интернете всё есть. Появились новые фигуранты интернетовской интерактивности, обсуждающие философские и околофилософские (маргинально-философские) проблемы-стримеры, хайлайтеры, топикстартеры, инфлюенсеры, амбассадоры др. К слову, заметим, что культового американского режиссёра Дэвида Финчера представляют не иначе, как амбассадора философии в американских триллерах [8].

По своей структуре ресурсы и площадки презентации философских дискурсов и нарративов делятся, условно говоря, на академическое, образовательное и маргинальное. Последнее, а именно, феномен маргинальности представляет собой примечательное явление нынешнего века. Дело в том, что мы являемся свидетелями как ренессанса, так и взрывной бифуркации феномена маргинальности во всех сферах социума, культуры, науки, в том числе, и философии. Отсюда большой интерес исследователей к изучению многообразных форм проявления маргинальности. [1] Согласно определению Ю.Н.Солонина “Маргинальность – то, что не признано, что существует на периферии, на обочине магистральной линии движения, в данном случае, -философской мысли, но существует как необходимость”. [7. 15-37].

В этом смысле говорят о маргинальной теории или идеи, которые существенно расходятся с общепринятыми концепциями в той или иной области когнитивной деятельности. Исследователь И.В.Зайцев концепту “маргинальность” придает статус категории социальной философии: ”Маргинальность есть феномен вечный и тотальный, присущий человеческому миру во все времена его существования, а не исключительно в периоды социальных взрывов и катастроф”. [2]

В последнее время исследователи стали все большее внимание уделять проблеме маргинальности в философии. Говоря о маргинализации философии Н.Г.Мещеряков различает исключительность и исключенность какого-либо философского учения. Исключительность фигуры философа выражается в позитивных терминах: “мудрец”, “учитель”, “мыслитель“, ...Исключенность отражена в негативных определениях: “болтун”, “бездельник”, “сноб”, “софист”, “возмутитель нравов” ...и т.п. [3]

Существует целый ряд социальных, концептуально-контекстуальных и внутренне интенциональных детерминантов, обусловливающие маргинализацию философии.

-социальная: общественная востребованность в рефлексии новых явлений в социуме, культуре и науке; необходимость в концептуализации инновационных трендов в промышленности, технологии и проективной деятельности;

-экзистенциальная: философии присуща концептуально-когнитивная бытийность, в основе которой лежит бесконечная потенциальность внутренней свободы философской рефлексии. Такая свобода является

экзистенциальным основанием реализации ее критико-прогностической функции;

-статусный контекст маргинализации философской рефлексии. На этот детерминант указывает Е.Г.Соколов: “философия как «область» (не дисциплина, не наука, не даже дискурс – все это суть исторические формы) и на сегодняшний день находится в «подвешенном состоянии», не в силах «до конца» самоопределиться” [4];

-внутренний интенциональный контекст маргинализации философии.

Кроме отмеченных выше факторов современной маргинализации философского дискурса, существует общее основание концептуально-семантического дрейфа идей и симулякров из одной области теории и практики в другой. Этим основанием является сетевая виртуализация духовной жизни. [5,36]. В то же время, глобализация и виртуализация сетевой коммуникации во всемирной паутине многократно усилили маргинализацию философии.

Маргинализация философского дискурса в сетевой коммуникации происходит в различной форме и презентациях. Здесь имеет место, скажем так, “философское” освоение новых форм презентации и обсуждения. Такое освоение реализуется на обочине магистральной линии функционирования академического философского дискурса. Так, с одной стороны, исследователь Е.А.Ранев презентирует результаты своей работы по философским проблемам реформы жилищно-коммунального хозяйства. [6] А, с другой стороны, топикстартер-философ на ютуб-канале рассуждает о Науке логики Гегеля. Верхом маргинальности является сообщение о жилом комплексе “Философия”. Философичность бренда этого комплекса вызвана, как утверждают ее творцы, приданием дизайн-коду дома таких качеств как вдумчивость, осознанность, утонченность и аристократичность. Корпуса дома названы в честь величайших ученых и мыслителей – “Ломоносов”, “Шопенгауер”, “Конфуций” “Вольтер”, “Аристотель”, “Марк Аврелий”, “Омар Хайям”. [9]

Существует интенциональная направленность самой философской рефлексии, выражающаяся в формулировке: “объектом философского мышления может быть все что угодно”. Такая тотальная открытость философской рефлексии позволяет проникнуть в поле ее дискурса всякого рода маргинальным идеям типа “философия ЖКХ”, “философия бизнеса”, “философия бренда”, “философия дома” и т.д. В частности, адепты маргинальной философии ЖКХ считают, что любая организация, решившая работать в сфере оказания общественных услуг, обязана иметь определенную философию, иметь свое лицо. Философская “упаковка” предпринимательских брендов вызвана стремлением создать концептуальный имидж компании и ее продуктов в сознании потребителя, построить компактный и вместе с тем “полный” образ товара. Более того, отдельные международные компании имеют штат с официальной должностью Chief Philosophy Officer – “корпоративный философ”. Представители корпоративной философии объявляют древнеримских философов Эпиктета и Марка Аврелия топ-

менеджерами прошлого, поскольку они занимались проблемами власти и управления.

Интерактивным фигурантом, представляющий имидж маргинальной философии в социальной сети, стал топикстартер. Выражение “топикстартер” происходит от английского словосочетания topic starter который переводится как “начинающий тему”. Топикстартер - человек, который инициировал (создал, начал, открыл) тему на форуме или на любой другой платформе. Философствующие топикстартеры довольно быстро создали площадку для обсуждения философских и околофилософских проблем общества, экономики, науки и культуры. Брендом топикстартеровых форумов стал быстрий отклик на злободневные проблемы, которые не рассматриваются в философских академических дискурсах и нарративах. Так, топикстартер А.С.Донской под девизом “мы сами создаём свою реальность” предложил для обсуждения вопросы: “почему позитивное мышление для большинства не работает?”; “с чего начинается движение к цели”; “почему будущее материализуется с задержкой и для чего она нужна?” и т.д. [10]

В заключении отметим, что мейнстрим маргинальной философии обретает, благодаря топикстартерам постоянное местожительство в социальной сети. Современная маргинальная философия является, и это демонстрируется деятельностью философствующих топикстартеров, нетрадиционной формой духовного освоения новых креативных областей общественной жизни, науки и технологии. Основным преимуществом топикстартера является быстрота сетевой коммуникации, немедленный отклик на факты и события, не попадающие в поле зрения академической философии, философская подача злободневных тем, которые волнуют каждого человека. В этом, по всей видимости, заключена позитивная сторона сетевой маргинальной философии.

**Литература**

1. Бобер Ж. Подходы к исследованию маргинальности // https://cyberleninka.ru › article › podhody-k-issledovan...

2. Зайцев И.В. Маргинальность как социально-философская проблема. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. Омск, 2002. –С.22.

3. Мещеряков Н.Г. Обратная сторона Луны: к вопросу о маргинальности философии //Международный журнал исследования культуры. 2020, №1(38). -С.6-21.

4. Соколов Е.Г. Маргинализация философского дискурса // Серия «Мыслители», История философии, культура и мировоззрение. , Выпуск 3 / К 60-летию профессора А.С. Колесникова. Санкт-Петербург : Санкт-Петербургское философское общество, 2000. С.149

5. Кушаков Ш.С. Жамиятни виртуаллаштириш концепцияси хусусида //Ижтимоий фанлар: назария ва амалиёт. Олий ўқув юртлариаро илмий мақолалар тўплами. Тошкент: “Наврўз” нашриёти. 2018 й. -32-36 б.

6. Ранев Е.А. О философии реформы жилищно-коммунального хозяйства // https://cyberleninka.ru › article › o-filosofii-reformy-zh...

7. Солонин Ю.Н. Феноменология любительства и маргиналы в философии //Философия обществу. Изд-во СПбГУ, 2007. -С.15-37.

8. См. Дэвид Финчер амбассадор философии … // https://regnum.ru› Культура).

9. ФСК Регион объявила старт продаж в ЖК “Философия” // https://fsk.ru › about › news › fsk-region-ob-yavila-star...

См. Донской А.С. Энергия мысли // https://donskoj.info › webreg.

## ILM – FAN VA MA’RIFAT UCHINCHI RENESSANSNI AMALGA OSHIRUVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA

**Xudoyqulov Yo‘lchi Azamqulovich**
**Jamoat xavfsizligi universiteti**
**Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi dosenti, falsafa fanlari nomzodi**

***“Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak”***
***Shavkat Mirziyoyev***
***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti***

**Rezyume.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, “Yangi O‘zbekiston”da “Uchinchi Renessans”ning poydevorini barpo etilishi masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ilm-fan, islohotlar, rivojlanish, Yangi O‘zbekiston, Uchinchi, Renessans, innovasiya, intellektual texnologiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu albatta, ilm-fanni rivojlantirish hisoblanadi. Chunki, jahonning taraqqiy etgan davlatlarining hozirgi rivojlanish bosqichi “postindustrial bosqich” sifatida izohlanmoqda. Rivojlanishning postindustrial bosqichidagi asosiy harakatlantiruvchi kuch – ilm-fan hisoblansa, eng qimmatbaho kapital – bilim sifatida izohlanmoqda.

Amerikalik filosof va sosiolog Garvard universitetining professori, Daniyel Bellning ta’kidlashicha, industrial jamiyatdan farqli ravishda postindustrial jamiyatda aynan bilim boylik va hokimiyatga ega bo‘lishning manbai bo‘lib hizmat qilsa, boshqaruvda mashinali emas, balki intellektual tehnologiyalar hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘ladi[107].

[107] Новейший философский словарь / Сост. А.А. Грицанов. — Мн.: Изд. В.М. Скакун, 1998.-С.182.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tadi: “... **biz endi aqlimizni, intellektual salohiyatimizni, bilim va tajribamizni oshirishimiz, aynan ana shu omillarni iqtisodiy o‘sish nuqtalari va resurs manbalariga aylantirishimiz shart.**

Bu nimaning hisobidan bo‘ladi? Albatta, bunga bilim va tajriba, tinimsiz o‘qib-o‘rganish, izlanish, yangilikka intilish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, islohotlarni samarali olib borish hisobidan erishish mumkin”[108].

Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan pirovard maqsad ham inson manfaati va maqsadlari uchun xizmat qiladigan, fuqarolarning farovonligini ta’minlovchi ilm-fanni rivojlantirish hisoblanadi. Aynan ilm-fan rivojlanishning industrial bosqichidan postindustrial bosqichga o‘tishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Bugungi kunda tilga olinayotgan “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi Renessans” tushunchalari aynan rivojlanishning postindustrial bosqichiga o‘tish, taraqqiyotning yangi darajasiga ko‘tarilish hisoblanadi. Bu jarayonda ilm-fanni rivojlantirish asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri bilan bo‘lgan suhbatda “**Renessans**” tushunchasi haqida quyidagi mulohazalarni bildirib o‘tadi: “Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma’naviy uyg‘onish jarayonlari milliy o‘zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa **“Renessans”** – uyg‘onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon.

Ma’lumki, bugungi O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga – Birinchi (ma’rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansiga beshik bo‘lgan. Bu – jahon ilm-fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun **“Yangi O‘zbekiston”** va **“Uchinchi Renessans”** so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda”[109].

Darhaqiqat, hududimizda buyuk allomalar, mutafakkirlarning ilm-fanni rivojlantirishga bo‘lgan ijodiy faoliyati natijasida ikki bor “Renessans” jarayoni amalga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda aynan “Renessans”ni amalga oshirish, ya’ni “Uchinchi Renessans”ning poydevorini yaratish va ro‘yobga chiqarish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida 2019 yil 29 oktyabrda “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonuni, 2020 yil 24 iyul «Innovasion faoliyat to‘g‘risida»gi O‘RQ-630-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni, 2019 yil 8 oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030

[108] “Янги Ўзбекистон” ижтимоий-сиёсий газета. № 165 (421), 2021 йил 17 август.
[109] “Янги Ўзбекистон” ижтимоий-сиёсий газета. № 165 (421), 2021 йил 17 август.

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrda “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “**Biz 2030 yilga qadar maktab, lisey va kollej bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazishni reja qilganmiz va bunga albatta erishamiz.**

Bu yil Toshkent shahrida eng yuksak xalqaro talablarga javob beradigan **“Yangi O‘zbekiston” universiteti** tashkil etildi. Ushbu universitet mamlakatimizdagi barcha oliy o‘quv yurtlari uchun namuna bo‘ladi. Eng bilimli va iste’dodli yoshlarimiz shu yerda o‘qiydi.

Biz uzluksiz milliy ta’lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarini uyg‘un va mutanosib rivojlantirishga alohida e’tibor bermoqdamiz. Oxirgi to‘rt yilda **bolalarimizni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi ilgarigi 27,7 foizdan 2 barobar ortib, 60 foizga yetgani, bog‘chalar soni esa 3 marta ko‘payib, 14 mingdan oshgani ana shunday islohotlarimiz natijasidir.**

Hozirgi vaqtda yurtimizda **“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”** degan g‘oya asosida maktab ta’limi tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Toshkent shahrida va hududlarimizda Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar soni ko‘payib bormoqda”[110].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri bilan bo‘lgan suhbatda “**Yangi O‘zbekiston**” tushunchasi haqida quyidagi mulohazalarni bildirib o‘tadi: Ta’kidlash kerakki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O‘zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir”[111].

Darhaqiqat, mamlakatimizda ilm-fanning rivojlanishi o‘z navbatida biz uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “Uchinchi Renessans”ni amalga oshirishga xizmat qilib, “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etilishiga olib keladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Noveyshiy filosofskiy slovar. -Mn.: Izd. Skakun, 1998.
2. “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazeta. 2021 yil 17 avgust, № 165 (421).
3. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2021 yil 7 noyabr, № 238(8018).

[110]“Янги Ўзбекистон” ижтимоий-сиёсий газета. № 165 (421), 2021 йил 17 август.
[111] Ўша манба.

# ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ASARIDA IJTIMOIY TANQID VA AYOL TAQDIRI

**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asaridagi ijtimoiy-tanqidiy qarashlar va ayol obrazi orqali ifodalangan o‘sha davr jamiyatining muammolari tahlil qilinadi. Muallif asarda mavjud patriarxal tuzum, majburiy nikoh, diniy riyo va ayollarning jamiyatdagi ikkinchi darajali o‘rnini keskin tanqid ostiga oladi. Ayollarning erkinlik, tanlov huquqi va shaxsiy baxtga intilishi Qodiriy tomonidan realizm uslubida, chuqur badiiy va ruhiy tafsilotlar bilan yoritiladi. Maqolada, shuningdek, yozuvchining badiiy vositalari, syujet qurilishi va obrazlar tizimi orqali qanday ijtimoiy islohot g‘oyalarini ilgari surgani ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asar kontekstida gender tengligi, shaxsiy erkinlik va jamiyatdagi ijtimoiy adolat tushunchalariga yondashuv zamonaviy ilmiy qarashlar bilan solishtirilib baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon, ijtimoiy tanqid, realizm, ayol obrazi, patriarxal jamiyat, majburiy nikoh, diniy riyo, gender tengligi, ayol erkinligi, adabiy tahlil, o‘zbek adabiyoti.

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotining rivojlanishi nafaqat badiiy ijodning yangi bosqichini, balki jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va siyosiy islohotlar bilan ham chambarchas bog‘liq edi. Shu davrda ko‘plab yozuvchilar jamiyatdagi mavjud bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy adolatsizliklarga, o‘zgarishlarga ehtiyoj sezgan. Abdulla Qodiriy o‘zining Mehrobdan chayon asari orqali adabiyotda ijtimoiy tanqidni amalga oshirgan ustalardan biri bo‘ldi. Asarda keltirilgan voqealar orqali XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi hududida hukm surgan ijtimoiy va axloqiy tizim, diniy soxtakorlik, patriarxal tuzum, ayollarning haq-huquqsizligi, jamiyatdagi notenglik kabi muammolar muallif tomonidan keng yoritilgan. Abdulla Qodiriy o‘z asarida ijtimoiy tanqidi orqali ko‘plab illatlar va jamiyatdagi yovuzliklarni fosh qilgan. Ayniqsa, asarda ayollarning o‘z orzulari va baxti uchun kurashishlari, jamiyatning ularni jamiyatda teng huquqli shaxs sifatida qabul qilishga qarshi bo‘lishi haqidagi g‘oya yorqin tarzda aks ettirilgan.

Mehrobdan chayon asaridagi asosiy syujet ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ularning o‘z haq-huquqlarini himoya qilishda duch keladigan qiyinchiliklar haqida. Asardagi Zebunniso, bir tarafdan sevgi va baxtni izlaydigan ayol, boshqa tarafdan jamiyatning patriarxal tuzumi, ota-onasining majburiy qarorlari bilan o‘z orzularidan mahrum bo‘ladi. Bu obraz orqali muallif ayolga nisbatan jamiyatning yondashuvini, ularning ijtimoiy erkinligini qanday cheklashini ko‘rsatadi. Qodiriyning bu ijtimoiy tanqidi va ayol taqdiri orqali, aslida butun jamiyatning muammolari va iztiroblari tasvirlanadi. Qodiriy Mehrobdan chayon asarida ayolga qarshi olib borilgan ijtimoiy va ma’naviy zulmga qarshi kurashni, ular uchun tenglik va erkinlikni talab qilishni maqsad qilib qo‘ygan. Bu asar, o‘z davrida jamiyatga

bo‘lgan ijtimoiy islohotlar, gender tengligi, ayollarning o‘z orzulari va baxtiga intilishi haqidagi g‘oyalarni ilgari surgan. Shu bilan birga, badiiy nuqtai nazardan, Qodiriy asarda realizm uslubini qo‘llagan, tasvirlangan obrazlar va syujetlar orqali o‘quvchiga ijtimoiy haqiqatni, o‘sha davrning muammolarini taqdim etgan.

Bugungi kun uchun ham, Mehrobdan chayon asari ibratli va saboq beruvchi asar sifatida xizmat qiladi. U gender tengligi, shaxsiy erkinlik va inson huquqlari kabi muammolarni jamiyatning kundalik hayoti bilan bog‘lash orqali hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Abdulla Qodiriy Mehrobdan chayon asarida o‘z davrining ijtimoiy-axloqiy tizimini chuqur tahlil qilib, uning zaif tomonlarini ochib beradi. Asar, o‘zining badiiy va ma’naviy jihatdan chuqur ta’sir ko‘rsatadigan tahlillari bilan adabiyotda realizm uslubining eng yaxshi namunalari sifatida qadrlanadi. Yozuvchi, ijtimoiy muammolarni tasvirlar orqali jonli va ta’sirli tarzda taqdim etadi. Asarda jamiyatda hukm surgan patriarxal tuzumning ayollarga qarshi olib borilgan zulmi, majburiy nikohlar va diniy soxtakorlik ko‘rsatilgan.

Qodiriy ijtimoiy adolatsizliklarni keskin tanqid qilgan holda, inson huquqlarini himoya qilishni, ayniqsa ayollarga nisbatan adolatli yondashuvni ta’kidlaydi. Mehrobdan chayon asari, o‘z davrining ijtimoiy va axloqiy tuzumlariga qarshi chiqishning badiiy shakli bo‘lib, o‘zining realizm uslubida o‘sha davrning yuzaga kelgan muammolarini qamrab olgan yirik adabiy hodisadir.

Zebunniso – Mehrobdan chayon asarining markaziy obrazidir va uning taqdiri asarning asosiy temalaridan birini tashkil etadi. Yozuvchi, bu obraz orqali faqatgina bir ayolning fojiyasini emas, balki butun bir jamiyatda yuzaga kelgan ijtimoiy va axloqiy muammolarni aks ettiradi. Zebunniso – bu ijtimoiy tizimning zulmiga duchor bo‘lgan, o‘z baxti va orzulari uchun kurashayotgan ayol obrazidir. Uning taqdiri, ayollarning jamiyatdagi ikkinchi darajali mavqei, majburiy nikohlar va patriarxal tuzumning nohaqligini yorqin tarzda namoyon etadi. Zebunniso o‘z orzularini amalga oshirishga harakat qiladi, ammo jamiyatning patriarxal tuzumi uning har bir qadami ustidan nazorat qiladi. Uning baxtiga erishishi, jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar, ota-onasining majburiy qarorlari bilan to‘siqqa to‘g‘ri keladi. Bu orqali yozuvchi ayollarning erkinligi, shaxsiy tanlov huquqi va baxtga intilishi faqat individual kurash emas, balki jamiyatning ijtimoiy va axloqiy jihatdan isloh qilinishi zarurligini ta’kidlaydi. Zebunniso timsoli orqali Qodiriy, ayollarning faqat o‘z huquqlari emas, balki ularning shaxsiy erkinliklari va ijtimoiy tengligi uchun kurashlarini ham ko‘rsatadi. U, o‘z baxtiga intilayotgan ayolni jamiyatning qadriyatlari va ijtimoiy qonunlari orqali o‘z erkinligini yo‘qotgan holda tasvirlaydi. Bu orqali yozuvchi, o‘sha davrda jamiyatda hukm surgan patriarxal tuzumning ayollarga nisbatan qilgan zulmini fosh etadi. Zebunniso obrazida, baxt va sevgi izlab, o‘z erkinligi uchun kurashayotgan ayol, aslida jamiyatning patriarxal tuzumi, o‘zaro munosabatlar va diniy riyolar kabi muammolarni ham ochib beradi. Bu, o‘quvchiga ayollarning ijtimoiy huquqlari va baxtlari uchun kurashish zarurligini anglatadi.

Abdulla Qodiriy Mehrobdan chayon asarida jamiyatdagi adolatsizliklar, patriarxal tuzum, diniy riyo, majburiy nikohlar kabi illatlarni keskin tanqid qiladi. Asar, o‘z davrida yuzaga kelgan ijtimoiy va axloqiy muammolarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi, ayniqsa, ayollarning huquqlari va erkinliklarini inkor

etishning fojiali natijalarini ko‘rsatadi. Asar orqali Qodiriy, jamiyatda gender tengligi, ayollarning inson sifatida hurmat qilinishi va ularning shaxsiy erkinliklari uchun kurash zarurligini ta’kidlaydi. Qodiriy, o‘z asarida patriarxal tuzumning erkaklar hukmronligini qanday mustahkamlaganini, bu tizimning ayollarga nisbatan adolatsiz va hukmsizligini ochib beradi. Ayollar jamiyatda qarorlar qabul qilishda, turmush qurish va baxtni tanlashda deyarli hech qanday erkinlikka ega emaslar. Bu ijtimoiy adolatsizliklar asarda keskin tanqid qilinadi.

Yozuvchi, ayollarning baxtli hayot kechirish uchun o‘z tanlovlariga ega bo‘lishlari kerakligini, shaxsiy orzularini amalga oshirish huquqini olishlari zarurligini ko‘rsatadi. Qodiriy o‘zining realizm uslubida ayollarning ichki kurashlarini, jamiyat tomonidan ko‘rsatilgan to‘siqlarga qarshi qanday kurashayotganlarini chuqur tasvirlaydi. Ayollarning o‘z baxti uchun kurashi, faqat bir insonning shaxsiy muammosi bo‘lmay, balki butun jamiyatdagi adolatsizliklarga qarshi kurash sifatida namoyon bo‘ladi. Zebunniso va boshqa ayol obrazlari orqali yozuvchi, o‘sha davrda jamiyatda mavjud bo‘lgan patriarxal tuzumning kamsituvchi ta’sirini ochib beradi va ijtimoiy islohotlarga chaqiradi.

Qodiriy asari, bugungi kunda ham zamonaviy ilmiy va adabiy qarashlar bilan uyg‘unlashadi. Gender tengligi, ayollarning erkinligi va inson huquqlari masalalari har doim dolzarb bo‘lib qolgan. O‘z zamonida ayollarning huquqlari va shaxsiy erkinliklari uchun kurashishni o‘rganishning ilhomlantiruvchi va ibratli yo‘li bo‘lgan Mehrobdan chayon asari, bugun ham gender tengligi va ijtimoiy islohotlarni talab qiladigan badiiy va ilmiy ish sifatida o‘qilishi kerak. Qodiriy o‘zining ijtimoiy tanqidida, jamiyatda adolatli sharoitlar yaratish, ayollarning huquqlarini himoya qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratish g‘oyalarini ilgari suradi. Bugungi kunda, bu masalalar jamiyatimizda o‘ta dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarga adabiyot orqali ijtimoiy islohotlarga turtki berish zarurligini eslatib turadi. Asar, faqat o‘z davrining emas, balki butun insoniyatning tenglik, erkinlik va adolat yo‘lidagi kurashiga hissa qo‘shishga qodir bo‘lgan bir ibratli asar hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2012..

2. Qo‘chqorova G. Abdulla Qodiriy romanlarida ayol obrazlari. – Toshkent: Fan, 2007.

3. Rasulov B. O‘zbek realizm adabiyotida ijtimoiy tanqid. – Samarqand: Ilm ziyo, 2015.

4. Xo‘jayev A. Jadid adabiyoti va ijtimoiy g‘oyalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

5. Saidov A. Gender tengligi va inson huquqlari. – Toshkent: Adolat, 2020.

# SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY MEROSIDA XOTIRA MUAMMOSI

**Mahkamov Qodirjon,**
**Namangan davlat universiteti professori v.b.,**
**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori( PhD),**
**e-mail: maxkamov_82@mail.ru**

**Annotatsiya:** Maqolada o‘rta asr sharq allomalarining ilmiy merosi va unda milliy tarix, ijtimoiy xotiraning rivojlantirishga doir qarashlar, ularning tarixiy bilim va yoshlar ijtimoiy xotirasi shakllanishidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, tarixiy xotiraning ijtimoiy xotiradagi roli va ahamiyati sharq mutafakkirlari asarlari orqali ochib berilgan hamda kishilar tarixiy tafakkurini rivojlantirish, tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda o‘tmish adabiy merosining ahamiyati tahlil qilingan

**Kalit so‘zlar:** sharq, tarix, xotira, tarixiy tafakkur, madaniyat, globallashuv, qadriyat, ta’lim, tarbiya, ijtimoiy xotira.

Xotira muammosi qadim zamonlardan buyon faylasuflar, psixologlar va olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari ham xotiraning mohiyatini, uning inson hayotidagi o‘rnini chuqur anglab yetganlar va o‘z ilmiy merosida bu masalaga katta e’tibor qaratganlar.

Sharq mamlakatlarida tarix, tarixiy tafakkur, milliy ijtimoiy xotira hamda voqea-hodisalar sababiyatlarini ochib berishda sharq allomalarining o‘rni katta. Eramizning VIII-XI asrlarida musulmon sharqida arab, fors, turk mutafakkirlar yetishib chiqdi. Jumladan, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ja’far-Tabariy va Ibn Xaldun kabi mutafakkirlar sharq tarixshunosligining asosini yaratdilar. Al-Xorazmiy o‘zining Mafotih al ulum asarining birinchi, ya’ni “Arab ilmlari” qismiga kiritgan hamda unda islomgacha bo‘lgan va islomdan keyingi davr tarixini, qisqacha Eron, Rum tarixini bayon qilganida o‘z davrining an’anasiga binoan podshohlar sulolasiga alohida e’tibor bergan. “Avgust Qaysar – uni imperatorlar ichida birinchi bo‘lib, sezar, ya’ni Qaysar deb atashgan. Bu so‘zning ma’nosi “kesib olingan”, shunday deyishlariga sabab uni o‘lgan homilador onasining qornini yorib chiqarib olganlar”[1,18].

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida tarixni anglash va bilish to‘g‘risida quyidagilarni yozadi: “Qadimgi xalqlarning hayoti, ularning urf-odatlari haqida ushbu xalqlar rivoyatlari va ajdodlar bilimlariga ega bo‘lishning eng yaqin yo‘li turli dindagi va ta’limotdagi kishilarning yozganlarini tadqiqotga asos qilib olishdir. Keyin dalil sifatida keltirilgan turli fikrlar qiyosiy tahlil qilinadi. Ammo, avvalo o‘z qalbimizni haqiqatni bilishga to‘siq bo‘luvchi sabablardan, ya’ni o‘rganib qolingan odatlar, mayllar, raqobatchilik, hokimiyat uchun kurashdan xalos qilishimiz lozim... Men taklif qilayotgan usul oson yo‘l emas, aksincha murakkab va mashaqqatli yo‘l, rivoyatlar va hikoyalarda be’mani gaplar ko‘pligidan maqsadga erishish mumkin emasdek tuyuladi... Biz

yaqindagi rivoyatlardan uzoqroqda bo‘lganiga, ma’lumrog‘idan noma’lumrog‘iga o‘tib, imkon qadar ularni to‘g‘rilab, qolganini shunday qoldirishimiz lozim” [2,11-12].

Ibn Xaldun esa o‘zining “Muqaddima” asarida tarixning ikki jihatini ajratib ko‘rsatadi: tarix – rivoyat, ajdodlar haqidagi xabar, tarix bu – “haqiqatni tiklash, borliqning asosi va boshini aniqlash, voqealar qanday va nima sababdan yuz bergani haqidagi chuqur bilim”[3,559]. Tarix dunyoqarashi insonning xulq-atvoriga bevosita ta’sir qiladi: u ma’lum toifalarda fikr yuritadi. O‘tmish zamonaviy inson faoliyatining asoslarini yaratdi. Biroq u bevosita idrok etilmaydi. Har bir inson faoliyati kelajakka qaratilgan bo‘lib, uni faqat oldindan ko‘rish mumkin. Bu odamga o‘z ishining ma’nosini tushunish imkonini beradi. O‘tmish, hozirgi va kelajak inson ongida kesishadi.

Inson dunyoni kuzatadi va tushunadiki, odamlar undan oldin yashagan va vafotidan keyin ham yashashda davom etadi. Bu ustunlik qiladi: dunyoning mustaqil ravishda mavjudligi bilan kelishish qiyin hisoblanadi. Barcha rejalar ertangi kunga qaratilgan va “ertaga” odamni o‘limga yaqinlashtiradi. Teran fikrlaydigan odam uning mavjudligining oxiri dunyoning oxiri degan taassurotga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy xotirada inson harakati o‘tmishga oid tarzda tizimlanadi va kelajak bashorat qilinadi. Aytish kerakki, maxsus falsafiy, tarixiy, sotsiologik adabiyotlarda tarixiy voqelik deganda real tarixiy (iqtisodiy, siyosiy, madaniy va hokazo) o‘tmish tushuniladi.

Jadid ma’rifatparlaridan biri Mahmudxo‘ja Bexbudiy o‘z davrida Turkiston o‘lkasining mustaqillik uchun kurashadigan ziyoli yoshlari orqali milliy ijtimoiy xotirani hamda tarixiy tafakkurni shakllantirish uchun bir qator maqolalar yozgan. Jumladan, “Tarix ko‘p ahamiyatli va foydali bir narsadur. Tarixning foydalaridan ba’zisi ushbudurki, bir millatning na tariqida, qaysi yo‘l ila taraqqiy etganin o‘qib, mundan ham istifoda etmoq mumkindir. Shuning uchun bizning o‘z shevamizda Turkistonda o‘tgan bobolarimizning maishiy, siyosiy ahvoliga doir “Turkiston tarixi” bo bo‘lg‘onda, oni ko‘z oldimizda qo‘yub, burung‘i qahramon bobolarimizning na yo‘l ila taraqqiy va madaniyat davrig‘a kirub va nima sababdan oxiri munqariz bo‘lib ketganlilarini o‘qib, bilub, xeyli ibrat olar edik. Holo, biz turkistoniylar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeati tarixiyasidan butun g‘ofil va bexabardurmiz. To‘g‘risi, munday tarix yozuvchi kishi turk o‘g‘lonlaridan hanuz maydong‘a chiqg‘on yo‘q bu dalildir”[4,900].

Yana bir jadid olimi Ishoqxon Ibrat tarixiy asarlar, jumladan, “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat” va “Mezon ul-zamon” asarlarini yozdi. Ushbu asarlarda muallif milliy tarixiy madaniyat borasida fikrlar bayon etdi. Ishoqxon To‘ra Ibrat tarixiy asar yozishdan maqsadini quyidagicha ifodalaydi: “Tarixni islom muarrixlari aksariyat ila hamma tarixlari umaroi bo‘lib, jo‘g‘rofiy, madaniy yoki sanoiy bo‘lmay, faqat u xonlarning urushlari birla ado qiladilar. Binobarin, men bu tariximda mubolag‘aga oshurub, maqtab, va aqlning kosasiga siqmaydurgan so‘zlarni olmay, ba’zi xurofiy so‘zlarni yozmay, to‘g‘ri va aql kosasig‘a sig‘adigan so‘zlarni oldim va ajnabiy tarixlardan ko‘proq yozdim. Bu “Tarixi Farg‘ona”ni yozmoqdin maqsad izhori hunar yoki musannif qatoriga kirmak yoki ta’mini tiriklik yo‘lidan bo‘lmay, balki bani basharning tiriklik qilish, sanoat va ziroatlari,

madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga ko‘rsatmak, bizdan keyin keladurganlar o‘tganlarning turmush va qilmush va bilmush ishlaridan ibrat olsun. O‘z zamoni bilan o‘tgan zamonni torozu qilib, vaznini bilsun uchun va ham ilmi tarix bir ilmi ta’rifdir”[5,20]. Ma’rifatparvar olim o‘z asarida tarixni bilish, tarixiy bilimlarni o‘rganish va anglash kishilarda tarixiy tafakkur orqali o‘tishini ta’kidlaydi hamda milliy tariximizning ziddiyatli qarashlariga o‘z munosabatini bildiradi.

Yuqorida bayon etilgan fikr va mulohazalardan bitta xulosaga kelish mumkin. Inson tafakkuri ham ijtimoiy xotirasi ham hamisha va har davrda rivojlanishda bo‘lib, uning tadrijiy taraqqiyotini milliy tarix belgilab beradi. Aytmoqchimizki tarixiy jarayon va boshqaruv hamda davlatchilik jamiyat ijtimoiy xotirasini belgilaydi.

Sharq mutafakkirlarining xotira haqidagi ilmiy merosi zamonaviy fanda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning xotira haqidagi qarashlari va tavsiyalari zamonaviy psixologiya, нейрология va pedagogika uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy olimlar Sharq mutafakkirlarining xotira haqidagi g‘oyalarini o‘rganib, xotirani yaxshilash va mustahkamlash uchun yangi usullar va texnologiyalarni ishlab chiqishga harakat qilmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlari o‘z ilmiy merosida xotira muammosiga katta e’tibor qaratganlar. Ularning xotira haqidagi qarashlari va tavsiyalari zamonaviy fanda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan va xotirani o‘rganishda yangi istiqbollar ochib beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Баходиров Р. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан.-Тошкент: Ўзбекистон, 1995.-Б.14-18.

2. Беруний А. Памятники мишувних поколений (Перовод и примечания М.А.Сале)/ Беруний А. Избранные произведения.Том 1. – Т.: Фан, 1957.-С.11-12.

3. Халдун Ибн. Введение // Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв.-М.,1961.-С.559.

4. Маҳмудхўжа Бехбудий. “Туркистон тарихи”. // Ойна.-1914. -№.38. – Б.900.

5. Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар.-Тошкент: Маънавият, 1999.-Б.20.

## OILADA HUQUQIY TARBIYANING AHAMIYATI: HUQUQIY ASOSLAR VA IJTIMOIY ZARURAT

**Kuchkarova Fazilat Xankeldiyevna**
Zarmed universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari nomzodi,dotsent.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlar ongida huquqiy tarbiyani shakllantirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu boradagi ishlarni ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘rgatib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yoshlarning huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi

huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish ta’lim va tarbiya muassasalarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** oila, tarbiya, ta’lim, huquq, huquqiy tarbiya.

Jamiyatning taraqqiyoti, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyat darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishida esa oila muhim ijtimoiy institut sifatida asosiy o‘rinni egallaydi. Oila – insonning ilk tarbiyasi, axloqiy mezonlari, ijtimoiy normalarni qabul qilish manbai bo‘lishi bilan bir qatorda, huquqiy ongning shakllanishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi Oilani muqaddas deb anglash har bir jamiyat a’zosining o‘z vijdoni, o‘z oilasi va farzandlari oldidagi burchidir. Jamiyat negizi – oilada yoshlar ma’naviyatini tarbiyalashda asosiy tayanchdir. Har bir oilaning mustahkamligi, oila a’zolarining tinch va farovon hayot kechirishi, o‘zaro hurmat va izzatda yashash bu yoshlarni kelgusi oilaviy hayotga tayyorlashda muhim omildir. Oilada nafaqar ma’naviy-axloqiy, estetik, ijtimoiy-iqtisodiy, balki huquqiy tarbiya ham amalga oshirilishi zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Oila beqiyos milliy va umumbashariy qadriyatlardandir. Oila insoniy qadriyatlar tizimini yuksak darajada shakllantiruvchi institut va ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘chog‘i hamdir. Aynan oilada ko‘pchilik gumanitar qadriyatlar tarbiyalanadi, o‘stiriladi va targ‘ib qilinadi. Oila muqaddasligini ta’minlash jamiyat asoslarini mustahkamlash bilan barobardir. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida oila asoslarini mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik vazifalardan hisoblanadi.

Huquqiy tarbiyaning mustahkamligi, har bir kishi hayoti, shaxs sifatidagi kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Huquq - davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish. Huquqiy tarbiya - ijtimoiy tarbiyaning muhim sohasi, tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy tarbiya deganda shaxsda yuksak darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan maqsadga muvofiq ta’sir jarayoni tushuniladi. Uning asosiy shakllarini huquqiy ta’lim, huquqiy ma’rifat va huquqiy targ‘ibot tashkil qiladi. Ana shu madaniyatning yuksak darajada shakllanishi oiladagi oqilona muhit orqali kechadi.

Mamlakatimizda oilaga, uning jamiyatdagi maqomini mustahkamlashga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratiladi.Vaholanki, oila, mamlakat kelajagini barpo etadigan buyuk insonlarni, istiqbolga, taraqqiyotga xizmat qiluvchi barkamol avlodni voyaga yetkazadigan muqaddas ta’lim va tarbiya maskani hisoblanadi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan 2022-yilda e’lon qilingan “Yangi **O‘**zbekiston taraqqiyot strategiyasida” ta’lim va tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratildi hamda mazkur tizimni rivojlantirish uchun eng muhim vazifalar belgilandi. Strategiyada eng avvalo, inson kapitaliga e’tiborni yanada kuchaytirish masalasiga urg‘u berildi. Zero, O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta ahamiyat beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatgich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin,

inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”[112]. Demak, Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiyani yuksalishi uchun, avvalo, bu tizimga yetarlicha imkoniyat, moddiy-texnik ko‘mak, investitsion barqarorlikni ta’minlash lozim. Shundagina bu tizim rivojlanadi, mamlakat taraqqiyoti uchun asos bo‘la oladi.

“Oilaviy ta’lim-tarbiyada quyidagi falsafiy-pedagigik usullar samarali hisoblanadi:

- shaxsiy namuna (ibrat bo‘lish) usuli;
- an’anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish usuli;
- ishontirish usuli;
- ta’sirchanlik usuli;
- madaniyatli suhbat usuli;
- amaliylik usuli;
- kuzatish, ko‘rsatib berish usuli va h.k”[113].

Mazkur usullarning oiladagi ta’lim-tarbiya jarayonida samarali qo‘llanilishi yoshlarda mustahkam g‘oyaviy, mafkuraviy immunitetni shakllanishiga xizmat qiladi. Ma’lumki, mafkuraviy immunitet deyilganda, shaxsning jamiyat taraqqiyotiga zarar keltiruvchi ayrim buzg‘unchi, yovuz g‘oyalarga qarshi qalban hamda ong-u tafakkur orqali kurashchanlik, chidamlilik holati tushuniladi. Mafkuraviy immuniteti mustahkam shaxslarni hech bir yovuz kuch o‘z izmiga sola olmaydi. Shu boisdan ham ta’lim-tarbiya sistemasi, xususan, oilaviy muhitning mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyati juda muhim sanaladi.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, ularga milliy mafkuramiz g‘oyalarini singdirish targ‘ibotchi, tashviqotchidan o‘ziga xos huquqiy, siyosiy bilim hamda yuksak pedagogik-psixologik mahoratni talab qiladi. Targ‘ibotchi tarbiya, targ‘ibot usullarini tanlashda pedagogik-psixologik qonuniyatlarga amal qilishi zarur”[114]. Demak, oilada ham tarbiya beruvchilarning o‘zlari ham huquqiy bilimlardan xabardor, uquvli, tajribali, ma’lum bir psixologik-pedagogik usullardan foydalana olishi zaruratdir. Buning uchun har bir ota-ona farzandli bo‘lish arafasida ota-onalik mas’uliyatini his etishi, farzand ta’limi va tarbiyasi yuzasidan eng muhim ma’lumotlarni o‘zlashtirishi, shaxsiy namuna bo‘la olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oqilona ta’lim-tarbiya olgan farzandning g‘oyaviy-mafkuraviy immuniteti ham mustahkam bo‘ladi.

Ma’lumki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash – bu fiziologik, tibbiy, psixologik, huquqiy, axloqiy, ma’naviy, madaniy, gigiyenik, ijtimoiy, iqtisodiy va jismoniy jihatlarni o‘z ichida mujassamlashtiruvchi murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, ular orasida huquqiy savodxonlik masalasi alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham o‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda oilada huquqiy madaniyatni shakllantirish, oilaning huquqiy maqomini oshirish, unda yashovchi har bir a’zoning huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish, jamiyat hayotida ularning faol ishtirokini ta’minlash, shu o‘rinda xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratib

---

[112] Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. - Т.: O‘zbekiston, 2022. – Б. 222.

113 Ergasheva M.X. Ta’lim va tarbiya falsafasi. Darslik. – Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2025. –B. 330.

[114] Primov T. Ta’lim falsafasi yoki ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. –T.: Fan va texnologiya, 2014. – B.228.

berishga alohida e’tibor berilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bunda oilada huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyani hayotga, nafaqat huquq bilan tanishtirish va unga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish muhim rol o‘ynaydi, shu bilan bir qatorda insonda huquqiy ko‘rsatmalarga so‘zsiz itoat etish kerakligiga ishonchni tarbiyalash, ular ongiga oila to‘g‘risidagi qonun-qoidalarga doimo hurmat bilan qarash ko‘nikmalarni hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi

Kelajagimiz vorislari bo‘lgan yoshlar ongida huquqiy tarbiyani shakllantirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu boradagi ishlarni ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida oilaga oid tushunchalarni yoshlarga o‘rgatib borishdan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yoshlarning huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish ta’lim muassasalari, davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari merosida ta’lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zamirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g‘oyasi yotadi. Ibn Sino bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo‘lishni, bola yomon odatlarga o‘rganmasligi uchun uni yomon odamlar va buzuq muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtirgan. Oilada farzand tarbiyasi, ayniqsa o‘g‘il bolaning tarbiyasiga ko‘p jihatdan otaning xizmati kattaligiga alohida e’tibor berilgan. Bu o‘rinda ota nafaqat oila boshlig‘i, balki o‘g‘lining eng yaqin ustozi va murabbiysiga aylanmog‘i lozim va farzandiga dastlabki ilmlarni egallashda yordam berishi qayd etilgan.

**Jamiyatimizda oilada huquqiy tarbiyaning ahamiyati** bo‘yicha quyidagi muammolar:

1. Huquqiy bilim yetishmasligi:

Ko‘plab oilalarda ota-onalar huquqiy bilimlarga ega emas, natijada farzandlariga huquqiy tarbiya berish imkoniyati cheklangan bo‘ladi.

2. An’anaviy tarbiya usullarining ustunligi:

Ba’zi oilalarda an’anaviy, avloddan-avlodga o‘tgan tarbiya usullari zamonaviy huquqiy qadriyatlarni e’tiborsiz qoldiradi.

3. Huquqiy tarbiyaning sustligi:

Farzandlarga yoshligidan huquqiy me’yorlar tushuntirilmasligi ularning huquq va majburiyatlarni to‘g‘ri anglab yetmasligiga olib keladi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar:

Kam ta’minlangan yoki ijtimoiy muammolarga duch kelayotgan oilalarda huquqiy tarbiya ikkinchi darajali masalaga aylanishi mumkin.

5. Axborotning noto‘g‘ri manbalardan olinishi:

Oila a’zolari ijtimoiy tarmoqlardan yoki norasmiy manbalardan noto‘g‘ri huquqiy ma’lumotlarni olishi farzandlarning noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishiga olib keladi.

Oilaning asosi er-xotin yohud ota-onadir. Modomiki, er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga mas’ul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiyinchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda,

oilani idora etishda, farzand tarbiyasida mas’uldirlar. Demak, oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo‘lgan Qomusimiz–Konstitutsiyamizda ham oila masalasiga alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” – deb yozilgan. Shu ma’noda, bugun biz tilimiz, dinimiz, milliy qadriyatimiz, ma’naviy meros va madaniyatimizni xolisona o‘rganish, unga amal qilish imkoniyatiga egamiz.

**Xulosa** qilib aytganda:

**Birinchidan,** Yangi O‘zbekistonni barpo etish, “Uchinchi renessans” davrini shakllantirish borasidagi jadal huquqiy islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi davrda mamlakatimizda ta’lim va tarbiya modernizatsiyasi eng dolzarb masala sanaladi. Bu masalani oqilona hal etilishida jamiyatning eng asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan oilaning o‘rni muhim ajhamiyat kasb etadi.

**Ikkinchidan,** Yangi O‘zbekiston poydevori oqilona, zamonaviy ta’lim-tarbiya orqaligina barpo etilishi mumkin. Yangi O‘zbekistonda huquqiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy taraqqiyotga erishish ta’lim-tarbiya yuksalishi indeksi bilan belgilanadi.

**Uchunchidan,** oilada huquqiy tarbiya berish – nafaqat ota-onaning mas’uliyati, balki jamiyat va davlat oldidagi vazifadir. Huquqiy ongli yoshlar – barqaror jamiyatning, kuchli davlatning, adolatli kelajakning kafolatidir. Shu sababli har bir oila o‘z farzandining huquqiy tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - T.: O‘zbekiston, 2022.

3. Primov T. Ta’lim falsafasi yoki ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. –T.: Fan va texnologiya, 2014.

4. Ergasheva M.X. Ta’lim va tarbiya falsafasi. Darslik. – Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2025.

# O‘ZBEK NIKOH MUNOSABATLARI INSTITUTSIONAL TIZIMI EVOLUTSIYASINING FALSAFIY-HUQUQIY TAHLILI

**Komilov Ro‘zi Rabiyevich**

**Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)**

**Annotatsiya:** Nikoh – bu ikki inson o‘rtasidagi ijtimoiy yoki diniy qonuniyatlar va imperativlar asosida shakllangan dual birlashma bo‘lib, ular o‘rtasida huquq va majburiyatlarni o‘rnatadi. O‘zbek nikoh munosabatlari qadimdan urf-odat, an’analar tarzida shakllanib, turli ijtimoiy, iqtisodiy, diniy ta’sirlar natijasida transformatsiyaga uchrab postmodern sotsium yadrosini tashkil etib kelmoqda.

**Kalit so‘zlar:** oila, nikoh, axloq, estetika, umumetnik, marosim, paradigma, to‘y.

O‘zbek xalqida oila va nikoh marosimlari institutsional jihatdan tashkillashganki, unda ikki jins vakillari nikoh deb atalmish ittifoqqa birlashadi va bir-biriga turmushning umumiyligi va o‘zaro javobgarligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Umuman, nikoh marosimlari axloqiy va estetik jihatdan rivojlanib, zamonaviy fuqarolik jamiyatida an’anaviy va zamonaviylik uyg‘unlashib, transformatsion jarayonlarni boshidan kechirmoqda. Shu bilan birga, uning axloqiy-estetik mohiyati saqlanishi va milliy qadriyat sifatida yuksalishi jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotiga xizmat qilishi muqarrar.

Necha ming yillar davomida nikoh ijtimoiy me’yorlar, paradigmalar, imperativlar bilan tartibga solinib, jamiyat a’zolari, mahalla-ko‘y nazorati ostida o‘tkazilgan. Davlat boshqaruv tizimi nikoh bilan bog‘liq er-xotinlik munosabatlariga aralashmagan. Turkiy xalqlar orasida zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi va ijtimoiy munosabatlar “Avesto”da belgilangan qoidalar asosida tartibga solinishi bilan nikoh-oila an’analarining substansional komponentlari bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalar o‘rnatildi.

“Avesto”da insoniy burch faqat axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to‘g‘risida ham tafakkur zarurligi ta’kidlanadi. O‘sha davrda erkaklar roppa-rosa 16 yoshidan uylanib, bir nechta xotin olish huquqiga ega bo‘lgan. Hamma vaqt birinchi xotin boshqalariga bosh bo‘lgan. “Avesto”dagi nikohga aloqador mavjud me’yorlar qadimda erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy munosabatlarni subregulyatorlik funksiyani bajargan. Nikohning axloqiy-estetik mohiyatida jinsiy ehtiros maxfiylik pardasiga o‘raladi, er-xotin orasidagi tabiiy munosabatga ma’naviy go‘zallik, andisha baxsh etadi.”

Nikoh marosimlari xalqning tarixiy-madaniy paradigmasidan chuqur joy olgan, uning yadrosiga aylangan, hayotiy, badiiy-estetik, falsafiy-gnoseologik, transsendental izlanishlari jarayonida shakllangan moddiy va ma’naviy boyliklarning umumlashgan tizimidir. Unda nafaqat o‘tmish tajribalari, kelajak haqidagi tasavvurlar, sotsium duch kelayotgan vazifalarni hal etishga yo‘naltirilganlik, shu bilan birga, inson qalbini, ruhini go‘zal tuyg‘ular, estetik g‘oyalar bilan boyitish maqsadi ham mujassamdir. Nikoh madaniyatiga bunday estetik yondashuv unga boshqa, masalan, ijtimoiy falsafiy, sotsiologik, pedagogik, tarixiy-retrospektiv, madaniyatshunoslik, antropologik, semiotik, etnografik yondashuvlarni rad etmaydi, balki xalq madaniyatining yana bir, eng muhim ijtimoiy qirrasi borligini asoslaydi.

O‘zbek xalqi nikoh munosabatlaridagi retrospektiv-falsafiy tahlil axloqiy qadriyatlarining barqarorligi, qon-qarindoshlik mustahkam aloqalari, yaxshi qo‘shnichilik an’analari bilan chambarchas bog‘liqligini asoslaydi. Qarindosh-urug‘larning bir mahallada yoki qo‘shni mahallalarda birgalikda yashashlari, ko‘chib yurishga moyilliklarning yo‘qligi, qarindoshlik hissi, katta avlod vakillarining qon-qardoshlik aloqalarini mustahkamlashdagi roli nikoh munosabatlari bilan bog‘liq an’analar barqarorligining asosiy omillari bo‘lib kelgan

va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda. O‘zbek oilalaridagi qon-qardoshlik aloqalari muhim xususiyatga ega: chunonchi, ota-onalar uylangan o‘g‘illari, turmushga chiqqan qizlarini moddiy va manaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularga yordam berish sharq xalqlari imperatividagi muhim jihatdir. Ota-onalar uylangan va oiladan ajralib chiqqan o‘g‘illarining uy-joylari o‘zlarinikiga yaqin bo‘lishiga harakat qilishlari, ya’ni etnik qarindoshlik bir-biriga dialektik bog‘liq tarzda shakllangan, ularning ijtimoiy konvensional negizlari umumiyligi, oilali bo‘lgan o‘g‘il va qizlar muntazam ravishda ota-onalaridan xabar olib turishlari, baholi qudrat ularga yordam berishlari, xususan, turmush masalalari (ayniqsa, to‘y bilan bog‘liq an’analarda) bo‘yicha maslahat olib ish boshlashlari xalq madaniyati, axloqi va estetikasini immanent belgilaridir. Shu sababdan necha ming yillik nikoh marosimlari hanuzgacha barhayot va xalq axloqiy-estetik tafakkurini boyitib, tarixiy-madaniy paradigma sifatida xalq xotirasi va hayotidan joy olib kelmoqda.

“Turon zaminida qadimgi nikoh shartnomasi tuzish an’anasi mavjud bo‘lganligini so‘g‘diy yozma manbalar ham tasdiqlaydi. Eramiz boshlaridan to X-XI asarlarga qadar yozilgan ana shunday noyob sug‘d yozma yodgorliklari bizgacha etib kelgan. Panjikent yaqinidagi Mug‘ tog‘i tepasidagi qadimgi qasr harobasidan 80 ga yaqin sug‘d hujjatlari topilgan. VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid bu hujjatlar Sug‘d arxivi deb yuritiladi. Ular orasida tadqiqotchilar tomonidan shartli ravishda “Nov.3” (Navekat nomli shaharda tuzilgan hujjat bo‘lgani uchun) deb belgilangan sug‘dcha nikoh guvohnomasi, “Nov.4” deb belgilangan kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari bayon etilgan ikki hujjat bor.” “Mazkur hujjatlar qadim va ilk o‘rta asrlardagi O‘zbekiston xalqlarining nikoh-oila va u bilan bog‘liq mulkchilik va boshqa ijtimoiy munosabatlari to‘g‘risida hikoya qiluvchi muhim yodgorlikdir.”

Uttegin va Dundg‘uncha imzolagan nikoh shartnomasida agar Uttegin yana boshqa xotinga uylansa, uning Dung‘unchaga bo‘ladigan munosabatining qanday bo‘lishi bandma-band qayd qilingan. Mug‘ qal’adan topilgan bu sug‘d yozuvida topilgan hujjat nikoh shartnomasini Yevropada emas, balki Turonda paydo bo‘lganligini isbotlaydi. Hozirgi o‘zbek nikohida ushbu an’ana qayta tiklansa, ayni muddao bo‘lar edi, chunki er-xotinning keyingi hayoti va agar ajralsalar, undan keyingi muammolarning ko‘pi yechilgan bo‘lardi.

Islom dini Markaziy Osiyo hududida yoyilgach, nikoh-oila munosabatlari milliy an’analar bilan birga shariat qoidalari asosida tartibga solina boshlandi. Nikohda kelin-kuyovning roziligi, xolis guvohlar, mahr va taloq singari maxsus pozitiv normalar belgilandiki, bularni bajarmaslik jamiyat e’tirozi va islom fiqhshunosligi bo‘yicha javobgarlikka sabab bo‘ldi. Ammo mazkur milliy va diniy me’yorlar ko‘proq ijtimoiylik kasb etib, boshqaruv hokimiyat tizimida nikohni tartibga solish uchun institutsional tuzilmalar va hujjatlar qabul qilinmadi. Podsho Rossiyasi hukmronligi davrida ham Markaziy Osiyodagi etnoslarning madaniy xususiyatiga, oilaviy an’analariga aralashilmadi.

O‘zbek xalqi nikoh munosabatlarining institutsionallashuvigacha bo‘lgan davr uzoq tarixga ega. 1917-yilga qadar O‘zbekistondagi etnik xalqning nikoh munosabatlari islom dinining pozitiv-transendental qoidalariga suyangan va tartibga solingan. Nikoh munosabatlarida er va xotin rakursi signifikativ (integratsiyalashuv va differensialashuv jarayonlari) tarzida aloqalarga kirishib, o‘ziga xos bir

madaniyat modelini yaratganki, aynan ushbu aloqalar yadro vazifasini o‘tagan va o‘z atrofida avlodlarni birlashtirgan edi. Oilaviy munosabatlarda ishlab chiqarish qurollari va vositalariga mulkchilik, sinfiy tengsizlik, xotindan er huquqining yuqori bo‘lishi, oila a’zolari ustidan otaning hukmronlik qilishi asosiga qurilgan.

1917-yil dekabr oyida sovet hukumatining ikkita dekreti e’lon qilindi. Bular “Fuqarolik nikohi, bolalar va fuqarolik holatlarini qayd etishni olib borish” va “Nikohdan ajralish to‘g‘risida”gi dekretlardir.

Markazda qabul qilinadigan qarorlarda mahalliy xususiyatlar, etnomadaniyat subyekti e’tiborga olinmasdi. Xususan, o‘zbek xotin-qizlarining uzoq asrlar davomida muayyan urf-odatlar va islom dini mezonlari bilan shakllangan ijtimoiy mavqeyini, ularni ozodlikka chiqarish va erkaklar bilan teng huquqli qilish shiori ostida favqulodda va shiddat bilan o‘zgartirishga urinishlari jiddiy ijtimoiy konfliktlarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, “Hujum” harakati jarayonida zo‘ravonliklar kuchaydi. Sho‘rolar hukumatining, tub aholining asrlar davomida shakllangan va tadrijiy rivojlanib kelgan nikoh-oila munosabatlariga rasm-u rusum va qoidalariga qo‘pol ravishda aralashuvi kuchaydi. Markazda bu masalada O‘zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti va yana boshqa xususiyatlari hisobga olinmagan holda qabul qilingan qarorlari aholi o‘rtasida ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqardi.

1924-yilda sho‘rolar hukumati milliy-hududiy chegaranishini o‘tkazgandan so‘ng ham O‘zbekistondagi xaostik vaziyat og‘irligicha qolaverdi. Bu vaqtda avj oldirilgan industrlashtirish siyosati qishloq hisobiga amalga oshirila boshlandi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi pasaytirilishi natijasida dehqonlar yanada qashshoqlashib ketdi. Qishloqdagi yoshlar ham o‘z oilalarini tashlab, yangi qurilayotgan shaharlarga yo‘l oldilar. Yangi sharoitlarda ularning dunyoqarashi, shu jumladan, nikoh munosabatlariga qarashlarida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. O‘tgan asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlab mahalliy millatga mansub qizlar, xususan, o‘zbek qizlarining yigitlarga qaraganda kamaya boshlagani ham nikoh munosabatlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Bu yillarda tub aholi o‘rtasida feministik inqiroz qizlarni 14-15 yoshida turmushga chiqarish keng rusum bo‘lgani sababli, yigitlarning o‘z millatidagi qizlarga uylanishi ancha qiyinlashib qolgan edi. Sho‘rolar iqtisodiy siyosati oqibatida ko‘plab o‘zbek oilalarining nochor ahvolga tushib qolgani ularga milliy urf-odatlar asosida to‘y qilishlariga imkon bermasdi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishishidan avvalgi so‘nggi o‘n yilliklarda o‘zbek oilalarida milliylik va diniylikni tadqiq etish materiallari islom ta’limoti ta’siri bo‘shashishiga qaraganda milliylik xususiyatlaridagi o‘zgarishlar sekinroq ro‘y berishidan dalolat beradi. Biroq siyosiy va ijtimoiy vaziyat tubdan o‘zgarishi diniylik xususiyatlarini tiklash jarayoni tez kechishini, ammo nikoh munosabatlarida yo‘qotilgan milliylik yana qaror topishi uchun uzoqroq vaqt talab etilishini ko‘rsatadi. Bundan kelib chiqqan holda davlat, jamiyat va oila, eng avvalo, nikoh munosabatlaridagi milliylikni saqlash hamda boyitishda obyektiv jihatdan o‘zaro hamkorlik qilishlari juda muhim.

Mustaqillikdan so‘ng qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda milliy qadriyatlar o‘z ifodasini topdi. Ayniqsa, oila-nikoh bilan bog‘liq huquqiy normalar milliy axloqiy tamoyillar asosida tuzildi. Mamlakatimizda nikohning huquqiy

negizlari mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va 1998-yil 30-aprelda amaliyotga olib kirilgan “Oila” kodeksida belgilab berilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, nikoh shartnomasi tuzishdan maqsad, faqat mulkni taqsimlash emas. U o‘zaro ahillikni ta’minlashga, oilaning umumiy mulkini avaylab-asrashga xizmat qiladi, isrofgarchiliklarning oldini oladi, tomonlarning oila oldidagi mas’uliyatini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Маковельский А.О. Авесто. Изд-во АН Азербайджанской ССР, Баку, 1960, С.80-81.
2. М.Исҳоқовнинг “Унутилган подшоликдаги хатлар” . Т. “Фан”, 1992. 10-б.
3. Ф.М.Отахўжаев.Ш.Р.Юлдашева.Оила ҳуқуқи.Тошкент.2007.36-40-б.

## UCHINCHI RENESSANS POYDEVORIDA SHAXS ESTETIK FAOLLIGINING TARIXIY-MILLIY VA ETNOMADANIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

**Alikulov Kuvvat Xaknazarovich,**
Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)
**Haqnazarova Sarvina**
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tadqiqotning maqsadi shaxs estetik faolligi innovatsion va transformatsion jihatlarining o‘ziga xosligi va uning hozirgi islohotlar davridagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan. Shunigdek, maqolada estetik faollikning zamonaviy islohotlar kontekstidagi dolzarbligi va u orqali shaxsni barkamol inson sifatida shakllantirishdagi ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan

**Kalit so‘zlar:** shaxs estetik faolligi, innovatsiya, transformatsiya, estetik tarbiya, islohotlar davri, ma’naviy-axloqiy rivojlanish, madaniy ong, ijtimoiy faollik.

O‘zbekistonda bugungi davrda shaxsning estetik faoliyati uning tarixiy, milliy etnik-madaniy rivojlanishi juda muhimdir. Shaxs estetik faoliyatining tarixiy va milliy rivojlanishi san’at va madaniyatning ko‘p asrlar davomida turli mamlakatlar va xalqlarning millyi-madaniy sharoitlarida qanday shakllanganligi bilan belgilanadi. Har bir madaniyatning o‘ziga xos an’analari va etnik xususiyatlari bor bo‘lib, ular odamlarning estetik afzalliklariga va san’atning rivojlanish yo‘nalishiga ta’sir qiladi. Shaxs estetik faoliyatining etnik-madaniy rivojlanishi xalq an’analari va turmush tarzi bilan bog‘liqdir. Misol uchun, turli xalqlarning uy-ruzg‘or buyumlarini, masalan, idish tovoqlari, kiyim-kechaklari, uy-ro‘zg‘or buyumlarini bo‘yash va bezash uchun turli xil an’analariga ega bo‘lishi mumkin. “Mehnatning estetik jihatdan to‘laqonli bo‘lishi, birinchi navbatda, ob`ektiv omillarga, qolaversa ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining umumiy va estetik darjasiga

bog‘liqdir”.[115]O‘zbek etnomadaniyatida kasb-hunar mavzusi alohida mehr, eng go‘zal qo‘shiq, kuy, badiiy-estetik mahorat bilan yoritiladi. Mehnat qilib yashah xalqimizdagi eng oliyjanob, ulug‘vor fazilatidir. U hech qanday mehnatdan hazar qilmaydi, qochmaydi, chunki u “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik”,-degan maqolga monand yashaydi[116] Bu an’ana va uslublar avlodan-avlodga o‘tib, xalq madaniy merosining bir qismiga aylanib qolgan. Shuningdek, estetik faoliyatning tarixiy-milliy etnik-madaniy rivojlanishi har bir madaniyatning ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlari bilan bog‘liq. Masalan, ayrim madaniyatlarda san’at va madaniyat insonning ma’rifat va dunyoqarashini kengaytirish vositasi sifatida qadriyatga ega bo‘lsa, boshqa madaniyatlarda ular ko‘proq marosim va diniy ahamiyatga ega. Umuman olganda, shaxs estetik faoliyatining tarixiy, milliy va etnik-madaniy rivojlanishi uning madaniy va ijtimoiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Buni san’atdagi turli an’ana va yo‘nalishlarni o‘rganishda, shuningdek, ushbu sohada yangi yo‘nalishlarni shakllantirishda yodda tutish zarur.

Shaxs estetik faolligining milliy-tarixiy genezisi turli mamlakatlar va madaniyatlarda insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi va evolyutsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Bizga ma’lumki, insonning estetik faoliyati g‘orlar devorlariga rasm chizish, kulolchilik va boshqa hunarmandchilik buyumlarini yaratish orqali o‘z-his tuyg‘ularini, g‘oyalarini ifodalashga harakat qilganligidan boshlangan. Bu ijodlar uning o‘ziga xos ehtiyojlari va turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan madaniyat va an’analarga aylangan.

Turli mamlakatlar va xalqlarda rasm, haykaltaroshlik, teatr, musiqa, adabiyot va boshqalar kabi o‘ziga xos san’at turlari paydo bo‘ldi. Bu san’atning shakllanishiga milliy an’analar, ur-odatlar va ijtimoy qadriyatlar katta ta’sir ko‘rsatdi. Insoniyat tarixida xalqlar o‘rtasida ko‘plab madaniy aloqalar va almashuvlar bo‘lgan, bu esa g‘oyalar va texnikalarning bir madaniyatdan ikkinchi madaniyatga o‘tishiga olib kelgan. Bu san’atda yangi uslub va yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Hozirgi kunda insonning estetik faoliyati madaniyat va texnika taraqqiyoti bilan birga rivojlanishda davom etmoqda. San’atning ayrim an’anaviy turlari hanuzgacha saqlanib qolgan, hozirgi davrda ko‘plab yangi shakl va yo‘nalishlar paydo bo‘lib, rivojlanib bormoqda.

Umumiy qonun mohiyatini anglatuvchi, qayd etilgan umumiy bog‘lanishlar estetik qonunlarda o‘ziga xos xususiyatlarda namoyon bo‘ladiki, bu ob`ektivlik va sub`ektivlik jihatlarining o‘zaro uyg‘unligi bilan izohlanadadi[117]. Turli tarixiy davrlardagi estetik faollashuv jarayonida ham ob`ektiv, ham sub`ektiv asoslarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Estetik faollik jarayonining ob`ektiv asoslari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rastish mumkin:

1. Texnik taraqqiyot. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan yanada murakkab va ifodali san’at asarlarini yaratish imkonini beruvchi yangi materiallar, vositalar va usullar paydo bo‘ladi.

---

[115] Umarov E. Estetika.-T.: O`zbekiston,1995.-98 B.

[116] Нишанова О. Д. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари: Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2016.-58-бет.

[117] Allayorov M. Ma`naviy yangilanish jarayonlarida etika va estetikaning dolzarb muammolari. T.:2011y. 133-B.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar. Jamiyatning iqtisodiy tizimi va ijtimoiy tuzilishidagi o‘zgarishlar estetik qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj va didlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

3. Madaniy aloqalar va o‘zaro ta’sirlar. Turli urf-odatlarga, o‘ziga xos san’atga ega bo‘lgan xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar estetik sohada yangi uslub va yo‘nalishlarning vujudga kelishiga olib keladi. Estetik faollik jarayonining sub`ektiv asoslari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) Shaxsiy idrok. Shaxsiy imtiyozlar va didlar estetik qadriyatlarning va ma’lum san’at asarlarini tanlashga ta’sir qiladi.

2) Emotsional holat. Hissiy holat va kayfiyat san’nat asarlarini badiiy baholashga ta’sir qilishi va ularga ko‘proq e`tiborni jalb qilishi mumkin.

3) Madaniy kontekst. San’at asarlari yartiligan va tahlil qilinadigan madaniy kontekst ham ularni idrok etish va baholashga ta’sir qilishi mumkin. Shunday qilib, turli tarixiy davrlardagi estetik faollashuv jarayoni ham ob`ektiv omillar, ham shaxsiy va umuman jamiyatning sub`ektiv imtiyozlari va baholari bilan bog‘liq.

Shaxsning estetik faoliyati ham tarixiy-milliy, ham etnik-madaniy omillar ta’sirida shakllanishi mumkin. Tarixiy va milliy omillar muayyan xalqdagi tarixiy jarayonlarning rivojlanishi, shuningdek, uning madaniy merosi bilan bog‘liq. Har bir xalqning o‘ziga xos madaniy tajribasi va badiiy an’analari mavjud bo‘lib, ular shaxsning estetik afzalliklarini shakllantirishga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, etnik madaniy omillar muayyan etnik guruhning tili, urf-odatlari, an’analari va turmush tarzi bilan bog‘liq. Masalan, xitoy an’analari, yapon madaniyati yoki hind san’ati alohida etnik guruhning badiiy didi va afzalliklariga ta’sir qiluvchi o‘ziga xos estetik g‘oyalarni tashkil qiladi. Insonning estetik faoliyati ko‘p yillar davomida shakllanadi.

Etnik madaniy va tarixiy-milliy evolyutsiya jarayonida badiiy va me`moriy uslub rivojlanadi, musiqa, adabiyot va san’atning boshqa turlarida shaxsning estetik afzallaiklariga ta’sir qiluvchi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Shunday qilib, shaxsning estetik faoliyati tarixiy, milliy va etnik madaniy omillar ta’sirida rivojlanadi. Biroq, bundan qat`iy nazar, inson har doim o‘z didini rivojlantirish va shaxsiy tajribasi va badiiy idrokiga asoslangan noyob estetik imtiyozlar va baholashlarni shakllantirish imkoniyatiga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Umarov E. Estetika.-T.: O‘zbekiston,1995.-98 B.
2. Нишанова О. Д. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари: Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2016.-58-бет.
3. Allayorov M. Ma’naviy yangilanish jarayonlarida etika va estetikaning dolzarb muammolari. T.:2011y. 133-B.

# YANGI O‘ZBEKISTONDA ESTETIK TAFAKKUR VA MILLIY MADANIYAT BARQARORLIGI

**Aliqulov Kuvvat Xaknazarovich,**
Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)
**Mamaraximov Kaxramon Xaltuxtashevich,**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: mkaxramon1979@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs estetik faolligi tushunchasining falsafiy-estetik mohiyati tahlil qilinib, uning innovatsion va transformatsion jihatlari chuqur o‘rganiladi. Maqolada, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida estetik qadriyatlar asosida jamiyatda madaniy yangilanish jarayonlari bilan bog‘liq nazariy mulohazalar ham bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Shaxs estetik faoliyati, Milliy-tarixiy genezisi, Madaniyat va texnika taraqqiyoti, Texnik taraqqiyot, Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, Madaniy kontekst.

O‘zbekistonda bugungi davrda shaxsning estetik faoliyati uning tarixiy, milliy etnik-madaniy rivojlanishining juda muhim qismidir. Shaxs estetik faoliyatining tarixiy va milliy rivojlanishi san’at va madaniyatning ko‘p asrlar davomida turli mamlakatlar va xalqlarning millyi-madaniy sharoitlarida qanday shakllanganligi bilan belgilanadi. Har bir madaniyatning o‘ziga xos an’analari va etnik xususiyatlari bo‘lib, ular odamlarning estetik afzalliklariga va san’atning rivojlanish yo‘nalishiga ta’sir qiladi. Shaxs estetik faoliyatining etnik-madaniy rivojlanishi xalq an’analari va turmush tarzi bilan bog‘liqdir. Misol uchun, turli xalqlarning uy-ruzg‘or buyumlarini, masalan, idish tovoqlari, kiyim-kechaklari, uy-ro‘zg‘or buyumlarini bo‘yash va bezash uchun turli xil an’analariga ega bo‘lishi mumkin. “Mehnatning estetik jihatdan to‘laqonli bo‘lishi, birinchi navbatda, ob`ektiv omillarga, qolaversa ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining umumiy va estetik darjasiga bog‘liqdir”[1].

O‘zbek etnomadaniyatida kasb-hunar mavzusi alohida mehr, eng go‘zal qo‘shiq, kuy, badiiy-estetik mahorat bilan yoritiladi. Mehnat qilib yashah xalqimizdagi eng oliyjanob, ulug‘vor fazilatidir. U hech qanday mehnatdan hazar qilmaydi, qochmaydi, chunki u “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik”,-degan maqolga monand yashaydi[2] Bu an’ana va uslublar avlodan-avlodga o‘tib, xalq madaniy merosining bir qismiga aylanib qolgan. Shuningdek, estetik faoliyatning tarixiy-milliy etnik-madaniy rivojlanishi har bir madaniyatning ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlari bilan bog‘liq. Masalan, ayrim madaniyatlarda san’at va madaniyat insonning ma’rifat va dunyoqarashini kengaytirish vositasi sifatida qadriyatga ega bo‘lsa, boshqa madaniyatlarda ular ko‘proq marosim va diniy ahamiyatga ega. Umuman olganda, shaxs estetik faoliyatining tarixiy, milliy va etnik-madaniy rivojlanishi uning madaniy va ijtimoiy xususiyatlari bilan

belgilanadi. Buni san’atdagi turli an’ana va yo‘nalishlarni o‘rganishda, shuningdek, ushbu sohada yangi yo‘nalishlarni shakllantirishda yodda tutish zarur.

Shaxs estetik faolligining milliy-tarixiy genezisi turli mamlakatlar va madaniyatlarda insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi va evolyutsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Bizga ma’lumki, insonning estetik faoliyati g‘orlar devorlariga rasm chizish, kulolchilik va boshqa hunarmandchilik buyumlarini yaratish orqali o‘z-his tuyg‘ularini, g‘oyalarini ifodalashga harakat qilganligidan boshlangan. Bu ijodlar uning o‘ziga xos ehtiyojlari va turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan madaniyat va an’analarga aylangan. Turli mamlakatlar va xalqlarda rasm, haykaltaroshlik, teatr, musiqa, adabiyot va boshqalar kabi o‘ziga xos san’at turlari paydo bo‘ldi. Bu san’atning shakllanishiga milliy an’analar, urf-odatlar va ijtimoy qadriyatlar katta ta’sir ko‘rsatdi. Insoniyat tarixida xalqlar o‘rtasida ko‘plab madaniy aloqalar va almashuvlar bo‘lgan, bu esa g‘oyalar va texnikalarning bir madaniyatdan ikkinchi madaniyatga o‘tishiga olib kelgan. Bu san’atda yangi uslub va yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Hozirgi kunda insonning estetik faoliyati madaniyat va texnika taraqqiyoti bilan birga rivojlanishda davom etmoqda. San’atning ayrim an’anaviy turlari hanuzgacha saqlanib qolgan, hozirgi davrda ko‘plab yangi shakl va yo‘nalishlar paydo bo‘lib, rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston mustaqilligidan so‘ng, mamlakat etnik-madaniy barqarorlik sohasida bir qator qiyinchiliklarga duch keldi. Biroq, so‘nggi yillarda yangi O‘zbekistonda etnik-madaniy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradigan ba’zi tendentsiyalarni ko‘rish mumkin.

1. O‘zbek madaniyatini saqlash va targ‘ib qilish choralarini ko‘rish: O‘zbekiston hukumati o‘zbek madaniyatini, shu jumladan til, an’ana, san’at va milliy urf-odatlarni saqlash va targ‘ib qilish bo‘yicha faol ish olib bormoqda.

2. Millatlararo totuvlikni oshirish: mamlakat hukumati millatlararo totuvlikni rag‘batlantirish, turli etnik guruhlarning siyosiy va ijtimoiy hayotda teng ishtirok etishi uchun sharoit yaratish choralarini ko‘rmoqda.

3. Madaniy turizmni rivojlantirish: O‘zbekiston sayyohlarni jalb qilish uchun infratuzilmani faol rivojlantirmoqda, bu esa mamlakat madaniy merosini asrab-avaylash va boy etnomadaniy mozaikalarga e’tibor qaratishga xizmat qilmoqda.

4. Ijtimoiy integratsiyani rag‘batlantirish: Davlat dasturlari ta’lim, sog‘liqni saqlash va bandlik orqali turli etnik guruhlarning ijtimoiy integratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ushbu tendentsiyalar O‘zbekistonning har bir inson o‘z shaxsini saqlab qolishi va shu bilan birga mamlakat ijtimoiy hayotida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan barqaror ko‘p madaniyatli jamiyat barpo etish istagidan dalolat beradi.

Umumiy qonun mohiyatini anglatuvchi, qayd etilgan umumiy bog‘lanishlar estetik qonunlarda o‘ziga xos xususiyatlarda namoyon bo‘ladiki, bu ob`ektivlik va sub`ektivlik jihatlarining o‘zaro uyg‘unligi bilan izohlanadi[3]. Turli tarixiy davrlardagi estetik faollashuv jarayonida ham ob`ektiv, ham sub`ektiv asoslarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Estetik faollik jarayonining ob`ektiv asoslari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rastish mumkin:

4. Texnik taraqqiyot. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan yanada murakkab va ifodali san’at asarlarini yaratish imkonini beruvchi yangi materiallar, vositalar va usullar paydo bo‘ladi.

5. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar. Jamiyatning iqtisodiy tizimi va ijtimoiy tuzilishidagi o‘zgarishlar estetik qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj va didlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

6. Madaniy aloqalar va o‘zaro ta’sirlar. Turli urf-odatlarga, o‘ziga xos san’atga ega bo‘lgan xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar estetik sohada yangi uslub va yo‘nalishlarning vujudga kelishiga olib keladi. Estetik faollik jarayonining sub`ektiv asoslari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

4) Shaxsiy idrok. Shaxsiy imtiyozlar va didlar estetik qadriyatlarning va ma’lum san’at asarlarini tanlashga ta’sir qiladi.

5) Emotsional holat. Hissiy holat va kayfiyat san’nat asarlarini badiiy baholashga ta’sir qilishi va ularga ko‘proq e`tiborni jalb qilishi mumkin.

6) Madaniy kontekst. San’at asarlari yartiligan va tahlil qilinadigan madaniy kontekst ham ularni idrok etish va baholashga ta’sir qilishi mumkin. Shunday qilib, turli tarixiy davrlardagi estetik faollashuv jarayoni ham ob`ektiv omillar, ham shaxsiy va umuman jamiyatning sub`ektiv imtiyozlari va baholari bilan bog‘liq.

Shaxsning estetik faoliyati ham tarixiy-milliy, ham etnik-madaniy omillar ta’sirida shakllanishi mumkin. Tarixiy va milliy omillar muayyan xalqdagi tarixiy jarayonlarning rivojlanishi, shuningdek, uning madaniy merosi bilan bog‘liq. Har bir xalqning o‘ziga xos madaniy tajribasi va badiiy an’analari mavjud bo‘lib, ular shaxsning estetik afzalliklarini shakllantirishga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, etnik madaniy omillar muayyan etnik guruhning tili, urf-odatlari, an’analari va turmush tarzi bilan bog‘liq. Masalan, xitoy an’analari, yapon madaniyati yoki hind san’ati alohida etnik guruhning badiiy didi va afzalliklariga ta’sir qiluvchi o‘ziga xos estetik g‘oyalarni tashkil qiladi. Insonning estetik faoliyati ko‘p yillar davomida shakllanadi. Etnik madaniy va tarixiy-milliy evolyutsiya jarayonida badiiy va me`moriy uslub rivojlanadi, musiqa, adabiyot va san’atning boshqa turlarida shaxsning estetik afzallaiklariga ta’sir qiluvchi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Etnik-madaniy, tarixiy-badiiy va me’moriy uslublar milliy evolyutsiyaning muhim qismidir, chunki ular ma’lum bir millatning madaniy merosi va an’analarini aks ettiradi. Bu jarayon odatda milliy o‘ziga xoslikni rivojlantirish, o‘ziga xoslikni izlash va milliy o‘ziga xoslikni ifodalash bilan bog‘liq.

Milliy evolyutsiya jarayonida etnik-madaniy uslub an’anaviy hunarmandchilik, musiqa, raqs, kiyim-kechak va oshpazlik an’analarini saqlash va rivojlantirish orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Tarixiy va badiiy uslub tarixiy voqealar, afsonalar, afsonalar va diniy e’tiqodlarning badiiy ijodga ta’sirini aks ettiradi. Arxitektura uslubi an’anaviy shakllar, materiallar va dekorativ elementlardan foydalangan holda etnik madaniyat bilan ham kuchli bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Etnik, tarixiy, badiiy va me’moriy uslublarni rivojlantirish jarayoni nafaqat an’analarni saqlashni, balki xalq madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini zamonaviy tendentsiyalar bilan birlashtirgan yangi ifoda shakllarini yaratishni ham

o‘z ichiga oladi. Bu har bir millatga o‘zining badiiy ijodi va arxitekturasi orqali o‘ziga xosligini ifoda etish imkonini beradi.

Shunday qilib, shaxsning estetik faoliyati tarixiy, milliy va etnik madaniy omillar ta’sirida rivojlanadi. Biroq, bundan qat`iy nazar, inson har doim o‘z didini rivojlantirish va shaxsiy tajribasi va badiiy idrokiga asoslangan noyob estetik imtiyozlar va baholashlarni shakllantirish imkoniyatiga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**


4. Umarov E. Estetika.-T.: O‘zbekiston,1995.-98 B.
5. Нишанова О. Д. Ўзбек этномаданиятининг эстетик моҳияти ва функциялари: Фалсафа фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2016.-58-бет.
6. Allayorov M. Ma’naviy yangilanish jarayonlarida etika va estetikaning dolzarb muammolari. T.:2011y. 133-B.


## MAHALLA TIZIMIDA SOG‘LOM MA’NAVIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY - AXLOQIY ASPEKTLARI


**Ro‘zimurodov S.M.,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD).,
**Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich**
University of Business and Science “Ijtimoiy-gumanitar va tillar” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d (PhD), Email: mr.absattorov86@bk.ru



**Annotasiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda oila va mahalla instituti yosh avlodni tarbiyalash borasidagi vazifalar yoritilgan. Oila va mahallani davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi bejiz emasligi ko‘rsatib o‘tilgan. Sog‘lom ona, sog‘lom bola va sog‘lom jamiyat konsepsiyasining amaldagi natijasini bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.



**Kalit so‘zlar:** Oila, mahalla, axloqiy-estetik tarbiya, globallashuv, reproduktiv, axloqiy qadriyatlar, sog‘lom farzand, go‘zallik, an’ana.


Mahallada sog‘lom muhit yaratish, birinchi navbatda, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning uyg‘unligiga, fuqarolarning o‘zaro hurmati, birdamligi va mas’uliyat hissining yuksakligiga bog‘liq. Bu esa jamiyatda barqaror ijtimoiy ong, sog‘lom turmush tarziga intilish va fuqarolik faoliyatining faollashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan qaraganda, mahallaning ijtimoiy-axloqiy salohiyati nafaqat individual shaxslar, balki jamiyatning ijtimoiy muvozanatida ham hal qiluvchi omilga aylanadi. Azal-azaldan mamlakatimizda oila mustahkam, uning a’zolari tinch, farovon va sog‘lom bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga kelishini bilishgan. Jamiyatning mustahkamligi, osoyishtaligi oiladagi tinchlik-xotirjamlikka, jamiyatdagi sog‘lom turmush tarzi esa oila a’zolarining bir-birlariga bo‘lgan samimiy munosabat, axloqiy tarbiyasiga bog‘liq bo‘lgan.

Mahalla tizimida sog‘lom muhitni shakllantirish – bu nafaqat moddiy va ma’naviy farovonlikni ta’minlash, balki fuqarolarning axloqiy ongi, ijtimoiy

mas’uliyati va jamoaviy birdamligini mustahkamlash jarayonidir. Ushbu jarayonning tub mohiyatida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni tiklash, aholining hayot sifatini oshirish, yosh avlodni sog‘lom ruhda tarbiyalash, jinoyatchilik va turli salbiy illatlarga qarshi kurashish kabi ustuvor maqsadlar mujassam. “Mahallalar jamoatchilik boshqaruvi va davlat siyosatining muhim bo‘g‘ini, avvalgi kamchilik va nuqsonlar aniqlanadigan, muammolar joyida hal etiladigan, muhim qarorlar qabul qilinadigan maskanga aylanayotgani islohotlarimizning eng katta natijalaridan biridir”[118]. Shu o‘rinda oila va mahalladagi bo‘lgan islohotlar juda muhim hisoblanadi, uning o‘ziga yarasha qoidalari mavjud. Shu bilan birga mahallada bola tarbiyasida tajribaga ega bo‘lgan onaxonlarning, buvixonlarning roli katta bo‘ladi. Yosh avlodni ruhan tetik, jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, ma’naviy teran qilib kamol toptirish ajdodlarimiz ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lgan. Ayniqsa murakkab globallashuv jarayonlarida yosh avlodni jismoniy va ma’naviy sog‘lom qilib tarbiyalashda milliy ma’naviy qadriyatlarimizni va sharqona madaniyat asosida tarbiyalash muhum ahamiyat kasb etadi.

Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyotini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarni inobatga olmagan bo‘lsa. Har qanday rivojlanish oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi va mahallasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan insongina o‘zini to‘laqonli bahtiyor his etadi.

Oilaning har bir shaxs hayotidagi rolini, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi masalasini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “...bugungi tez o‘zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko‘plab murakkab savollarga javob topish qiyin”,[119] deb ta’kidlaydilar. Xalqimiz orasida shakllangan tarbiya va odob-axloq bugungi kunda ham yoshlar ma’naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda. Yosh avlodni axloqiy qadriyatlar asosida shakllantirishda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek xonadonlarida yoshlarga xos axloqiy qadriyatlar: o‘zaro hurmat, izzat, ishonch, mulozamat, muhabbat, hamkorlik tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘ladi. Oila, mahalla, maktabda yosh avlodga xalqimiz uchun muqaddas bo‘lgan burch hamda vazifalar o‘rgatiladi. Farzandni dunyoga keltirish, ularni yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli qilib tarbiyalash jarayoni yosh avlodni jamiyatda o‘z o‘rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Oilada farzandlarning, ayniqsa qizlarning salomat, baquvvat va reproduktiv hayotga tayyorlaydigan, ayollarni esa farzandli bo‘lishi, farzandlarni tarbiyalashi uchun zarur sharoitlarni yaratib beradigan institutdir. Qur’oni karimda “erkaklar xotinlari ustidan rahbardurlar. Bunga sabab Olloh ularning birovlarini birovlaridan (ya’ni erkaklarni ayollardan) ortiq qilgani va erkaklar (xotinlar va oilalari uchun) o‘z

[118] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2024. – B-415.

[119] Мирзиёев Ш.М. Оила ва жамият устуни, ҳаётимизнинг файзи ва кўрки. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд -Т.: Ўзбекистон, 2018, 464-бет.

mol-mulklaridan sarf-xarajat qilganlaridir”[120], deyilgan. Ushbu fikrlarda bugungi kundagi oilaviy munosabatlarning ta’siri borligi, ayol va erkak huquqlari ham ushbu munosabatlarga muvofiq o‘rnatilgani ko‘zga tashlanadi. Mol-mulkidan sarflash erkak zimmasiga yuklatilgan burch, vazifa, oilaviy hayot moddiy ta’minotsiz bo‘lmaydi. Lekin bu ayolning ham oilaviy mol-mulkini yaratishga qo‘shadigan hissasi katta ekanligini rad qilolmaydi. Ayolning oilada tinchlik, osoyishtalik, ozodalik, uy-ro‘zg‘or olib borishi erkak sarflaydigan sarf-xarajat, mehnat zahmatidan aslo kam emas. Shu o‘rinda xotin-qizlarni reproduktiv hayotga tayyorlashni o‘z zimmasiga olgani tufayli oila boshqa ijtimoiy institutlardan farq qiladi. Biroq, farzand ko‘rishda ikki tomon erkak va ayol bab-barobar qatnashadi, shuning uchun farzand ular istagi, xohishi va huquqlarining hosilasidir. Oila qurishdan boshlanadigan ushbu istak, xohish va huquq farzand ko‘rishda o‘z cho‘qqisiga chiqadi, erkak va ayolni yangi ijtimoiy burch, ya’ni farzandning sog‘-salomat o‘sishini ta’minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratib berish bilan bir-biriga bog‘laydi. Mamlakatimizda oila va farzand tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini alohida ta’kidlash lozim.

Har bir o‘zbek oilasining dunyodagi boshqa xalq oilalariga o‘xshamas tomonlari ko‘plab uchraydi. Chunki o‘zbek oilasida farzandlariga axloqiy-estetik tarbiya berishda oilaning o‘rni beqiyosdir. Bolaga estetik tarbiya berishda birinchi galda ota-onaning xushfe’l, xushmuomala bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri tushunishlari, yosh avlodga beriladigan bilimlar har tomonlama ravshan va yorqin bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila muhiti farzand tarbiyasi va barkamol bo‘lishida asosiy ijtimoiy muhit bo‘lib hisoblanadi. Har birimiz uchun muqaddas bo‘lgan oila, undagi munosabatlarning ijobiy kechishi nafaqat farzand tarbiyasiga ta’sir etadi, balki shu oilaning mustahkam bo‘lishiga, bu orqali jamiyatning barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Sharq xalqlarida go‘zallik haqida o‘ziga xos nafosatli qarashlar shakllangan bo‘lib, bu nafosatli qarashlar o‘zbek xalqiga ham xosdir. Bu o‘ziga xoslik borasida jahonning ko‘plab mamlakatlarida xilma-xil fikrlar mavjud: "oila o‘zbeklarning ko‘p asrlik an’analariga va mentalitetiga mos bo‘lgan eng muhim hayotiy qadriyatlardan biri bo‘lib kelmoqda"[121]. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek oilasi o‘zining o‘tmishiga asoslanib o‘zining kelajagini yaratishga intilmoqda. Ayniqsa, katta yoshdagi oila azolarining estetik madaniyati yuksakligi, badiiy adabiyot va san’atga qiziqishlarining kuchliligi, ulardan estetik zavq olishlari bevosita yosh bolaga ta’sir etadi. Bolaning yoshligidanoq estetik tarbiyasi mukammal bo‘lsa, yaxshi va yomon, go‘zal va xunuk tushunchalar farqini chuqurroq anglab etadi. Mana shunday tushunchalarni yosh bolaning ongiga singdirishda, avvalo, ularning qiziqishlarini hisobga olish lozim. Agar bolani biror narsaga, sportga yoki san’atning ma’lum bir sohasiga qiziqishi borligini ota-ona sezsa, uni shu qiziqishlariga jalb etishi foydalidir.

---

[120]Қуръони карим. Алоуддин Мансур таржимаси. – Тошкент.: Чўлпон, 1992. – 72 б.

[121] Gafarli M.S., Kasayev A.Ch. Rivojlanishning o‘zbek modeli: tinchlik va barqarorlik - taraqqiyot asosi.-T.: O‘zbekiston, 2001. 41-bet.

O‘zbek oilasida bola tarbiyasi ota-onaning mehr-muhabbati, shirin so‘zlari, yoqtirgan narsasini e’zozlashga, bajarayotgan ishiga ishtiyoqmand bo‘lishiga chorlash bilan xarakterlanadi. Bolaning tarbiyasida suhbatlashish, erkin muloqotda bo‘lishi estetik his-tuyg‘ularni o‘stiradi. Bolani estetik ruhda tarbiyalashda voqelikning go‘zalligini mushohada etishga, tevarak-atrof chiroyini his etishga o‘rgatish, bolada tabiatga nisbatan yuksak hissiyotni uyg‘otib, uning estetik tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda “Obod mahalla” davlat dasturi asosida chinnidek toza hovlilar, did bilan saranjom qilingan uylar, chiroyli ko‘chalar tobora ko‘payib bormoqda. Dinimizda inson uchun uning soadatini belgilovchi omillardan biri makon yani uy-joy muhim ekanligi ta’kidlanadi. Shuning uchun ham xalqimiz hovli-joyini top-toza qilib, yoz kunlari hamma yoqqa suv sepib, salqin va shinam qilib qo‘yishni yaxshi ko‘radi. Bunday ajoyib odatlar va fazilatlar o‘zbek oilasida ko‘proq yosh qizlar va kelinlarga o‘rgatiladi. Ular har kuni barvaqt uyg‘onishadi va bolalar o‘rnidan turgunga qadar ancha ishlarni saranjomlab olishadi. Bular barchasi xalqimizning azaliy estetik tarbiyasining negizi hisoblanadi.

O‘zbek oilasida har bir bolaning nozik didli bo‘lishi, voqelik go‘zalligini qadrlay olishi, badiiy madaniyatni tushunishi masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Farzand tarbiyasida uning aql-zakovati, estetik hissiyoti, badiiy adabiyot va san’atga munosabati, hohish-istaklari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ota-onalar o‘z farzandlarini turmushdagi go‘zallik va xunuklikni tushunishga, his etishga, kishilar ma’naviy fazilatlarini anglab etishga doimo da’vat etib kelganlar. Ota-onalar o‘z farzandlari qalbida mehnatsevarlik, shirinso‘zlik, quvonch, iliqlik, tabassum kabi kayfiyatlarni singdirish masalasiga katta e’tibor qaratganlar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlaymizki sog‘lom turmush va ijtimoiy tafakkur tarzi, asosan, sog‘lom axloqiy-estetik tarbiya tufayli rivojlanib, madaniy yuksaklikka ko‘tariladi. Sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy tafakkur madaniyati - bu insonning ichki olami va jamiyat bilan uyg‘unlikdagi mavjudot sifatida shakllanish jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Bu esa o‘z navbatida, axloqiy-estetik tarbiyaning poydevoriga tayanadi.

Zero, estetik tarbiya inson ruhiyatiga nafaqat go‘zallikni anglash, balki uni his qilish va yaratish salohiyatini ham singdiradi. Shuning uchun ham zamon bilan hamnafas yangiliklarning inson ongi va qalbiga ko‘rsatayotgan ta’sirini tahlil qilish, ularni chuqur falsafiy nigoh bilan anglash – bugungi kun ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotining muhim yo‘nalishidir.

## O‘ZBEK OILASINING AKSIOLOGIYASI VA IJTIMOIY-AXLOQIY JIHATLARI

**Ro‘zimurodov Siroj Madatovich,**
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti,**
**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek oilasining aksiologiyasi va ijtimoiy-axloqiy jihatlari axloqiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Shuningdek, oila

institutining jamiyatdagi tutgan o‘rni, ma’naviy qadriyatlarning shakllanishidagi roli, urf-odat va an’analar orqali avlodlar davomiyligini ta’minlash masalalari yoritilib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila instituti, milliy qadriyatlar, avlodlar uzviyligi, ma’naviy meros, axloqiy tarbiya, o‘zlikni anglash, ijtimoiy barqarorlik, madaniy an’ana.

Globallashuv davrida aynan oila orqali milliy o‘zlikni asrab qolish, yoshlarni barkamol va komil inson qilib tarbiyalash hamda ma’naviy merosimizni kelajak avlodlarga yetkazish eng muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, o‘zbek oilasining aksiologik asoslarini chuqur o‘rganish va ularni zamonaviy ijtimoiy hayotda rivojlantirish dolzarb ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbek xalqining milliy-axloqiy qadriyatlari tizimida oilaning o‘rni beqiyos. Har bir xalqning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlari va an’analari avvalo oila muhitida shakllanadi. Oila jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini sifatida inson tarbiyasi, axloqiy mezonlar va ijtimoiy munosabatlarning asosiy manbai hisoblanadi. O‘zbek oilasining shakllanishida asrlar davomida qaror topgan qadriyatlar, an’anaviy axloqiy tamoyillar va diniy-ma’naviy jihatlar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlashicha “Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan maqol bor. Tarbiya oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog‘lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog‘lom bo‘lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo‘ladi”[122]. Oila instituti farzandlar qobiliyatlarining rivojlanishida asosiy o‘rinni tutar ekan, bunda oiladagi ota-ona, bobo va buvilarning o‘rni muhim. Shu o‘rinda xalqning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga, ming yillik milliy qadriyatlariga chin yurakdan bog‘langan insonlar oilaning jamiyatdagi o‘rnini hamisha to‘g‘ri baholay olgan. Inson zoti jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topish, uning pok g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish, dardini, quvonchini, his tuyg‘ularini baham ko‘rish uchun doimo mana shu ma’naviy muhitga yuzlanib, u yerda ruhiy va jismonan rohat topadi. Kishining yashashga intilishi, beqaror hayotga muhabbati ham oilaga, farzandlarga bo‘lgan beg‘ubor mehr-muhabbatdan kelib chiqadi.

Zamonaviy jamiyatda har bir davlat o‘zining milliy borligini, uning mavjudligini belgilab beruvchi oila modelini globallashuvning ommaviy madaniy ko‘rinishlarining salbiy ta’siridan himoya qilish uchun bor kuchini sarflaydi. Ayni paytda, ayniqsa, Yevropa davlatlarida oila institutining zaiflashishi, ayrim hollarda hatto barbod bo‘lishi borasidagi tashvishlarning kuchayishi masalaning hayotiy ahamiyati va dolzarbligini yana bir karra namoyon etmoqda.

O‘zbek xalqi tarixan shakllangan fundamental oilaviy qadriyatlari bilan globallashuvning salbiy oqibatlariga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilmoqda. Xalqning tarixan shakllangan ma’naviy-ruhiy fazilatlari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolgan o‘zbek yoshlari hayotida oilaning o‘rni beqiyosdir. “Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz

[122]Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 72-73.

darkor”[123]. O‘zbek xalqining oila modeli nafaqat sharqda balki g‘arbda ham noyob hisoblanadi. O‘zbek ayoli jamiyat hayotida, xalqimizga xos milliy oila namunasini o‘zining an’anaviy tuzilishi, mohiyati, ma’naviy-axloqiy ta’sirini saqlab kelmoqda. Har doimgidek, bugungi kunda ham o‘zbek oilasi tarix filtridan o‘tgan o‘zining yaxlitligi, pokligi, milliy an’analari va ruhiy qadriyatlariga bog‘liqligini saqlab qoldi. Ushbu oila modelida har bir kishi o‘z o‘rnini, mavqeini, vazifasini va maqsadini to‘g‘ri tushunadi. Oilaviy munosabatlarning qat’iy ma’naviy-axloqiy mezonlarga asoslanishi – kattalarga hurmat va ehtirom, farzandlarga mehr va e’tibor kabi an’analar qadim zamonlardan hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Har bir oilaning hamjihatligi, uzoq umr ko‘rishini ta’minlashda erkaklar bilan birga ayollar zimmasiga ham muhim mas’uliyat yuklangan. Oilaviy qadriyatlarni qadrlaydigan ayollar o‘z mas’uliyatini yaxshi tushunadi, erkakning oila boshlig‘i ekanligini ma’lum ma’noda tan oladi, farzandlarining ta’lim-tarbiyasida shu va boshqa muammolarni hal etishda yaqindan ishtirok etadilar. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “O‘zbek xalqining boy tarixini, madaniyatini, milliy qadriyatlarini, vatandoshlarining dardu tashvishlarini yaqindan bilmasa, ularni yuragidan o‘tkazmasa, qanday qilib O‘zbekistonni dunyoga tanitishi mumkin”[124]. Biz yoshlarimizni boy tarixiy merosimiz bilan qurollantirishimiz, milliy qadriyatlarimizni o‘z holicha kelajak avlodga yetkazib berishdagi samarali mehnatlarini yanada kuchaytirishmiz darkor. Jamiyatda odamlar munosabatlarini rasmiylashtirish oila a’zolarining huquqlarini to‘liq himoya qilishni anglatishini tushunadi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning otasini bilmaslik nafaqat ijtimoiy va huquqiy muammo, balki ma’naviy eroziyaga olib keladigan jiddiy muammodir. Biz kelajagimiz, deb hisoblagan bu go‘daklarning otasi keyinchalik ularda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ruhiy-psixologik to‘ntarishlar, “to‘liqsizlik majmuasi” haqida gapirmaymiz. To‘liq bo‘lmagan oilalarda voyaga yetayotgan bolani munosib shaxs qilib tarbiyalash, uning ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish nihoyatda qiyin.

O‘zbekistondagi jiddiy muammolardan biri erta oila qurishdir. Afsuski, haligacha nikoh yoshiga yetmagan qizlarni turmushga berish holatlariga duch kelyapmiz. Bugina emas, nikoh yoshiga yetmagan, maktabni tamomlamagan o‘smir qizlarning turmushga chiqishi holatlari ham uchrab turibdi. Shubhasiz, bu ota-onalarning mas’uliyatsizligi tufayli sodir bo‘ladi. Bu ota-onalar farzandlarining baxtli bo‘lishini xohlashsa-da, o‘zlari bilmagan holda ularni xavf ostiga qo‘yishadi. Erta turmush qurganlar, qoida tariqasida, psixologik jihatdan oila yukini o‘z zimmasiga olishga tayyor emas. Shu sababdan ham erta yoshda qurilgan oilalarning parchalanishi holatlari ko‘p uchraydi.

Erta nikohlar ham er va xotinning qonuniy nikohga kirmasdan birga yashashiga, pirovardida ijtimoiy-psixologik va maishiy muammolarga olib keladi. Bunday nikohlar chaqaloqlarning jismoniy va ruhiy kasallik bilan tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Bularning barchasi oxir-oqibat qonuniy, mustahkam, asosli oila modelini buzadi.

---

[123] Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. –Toshkent: O‘zbekiston, T.6. 1998. –B. 400.

[124] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Тошкент: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. –Б. 284.

O‘zbek oilasi genofondi salomatligi nuqtayi nazaridan qon qarindoshligi ham jiddiy muammolardan biridir. Yaqin-yaqingacha aholi bu haqda yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan bo‘lsa, hozir tibbiyot fani uning oqibatlarini jamiyatga tegishli darajada tushuntirmoqda. Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda bunday holatlar qonun bilan taqiqlangan. O‘zbekistonda bunday nikohlarning oldini olishning eng yaxshi yo‘li aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini kengaytirishdan iborat. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ba’zida qon-qarindoshlar o‘rtasidagi ajralishlar soni ko‘proq bo‘ladi. Vaholanki, yoshlarning oila qurish chog‘ida ota-onasining duosini olishi nihoyatda ilg‘or an’anadir. Ota-onalarning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, voqelikni qadrlash qobiliyati yoshlarning tanloviga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Buni yoshlarning tanloviga aralashish deb hisoblamaslik kerak. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onasining xohishiga qarshi oila qurgan, ba’zan hatto uydan qochib ketib oila qurgan er-xotinlar ham birga uzoq yashay olmaydi.

An’anaviy o‘zbek oilasi imidjiga putur yetkazuvchi, hatto uni zaiflashtiradigan omillardan biri – milliy-axloqiy qadriyatlarga zid bo‘lgan yot xulq-atvor me’yorlarining efir orqali jamiyat ongiga kirib borishidir.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, respublikada oilaviy nizolarning asosiy sabablaridan biri o‘zbek erkakning ayol huquqlariga hasad qiladigan, uni oshxonadan tashqarida tasavvur qila olmaydigan ibtidoiy munosabatidan kelib chiqadi. Shubhasiz, zamonaviy xotin-qizlarimizning ko‘pchiligini har tomonlama ta’lim-tarbiya olib, munosib shaxs sifatida shakllangan, jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etuvchi, buning yo‘lida oilaviy qadriyatlarni ustun qo‘ygan holda fidoyi insonlar tashkil etadi. Ayolni oliy ma’lumot olish, ishlash, hatto mashina haydash kabi huquqlaridan eskirgan g‘oyalar bilan mahrum etish hech qanday mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi.

Ayolning fikri va manfaatlarini mensimay, oilada faqat erkak ishlaydi, degan zararli fikr shakllanishi pirovardida ajrimlar, oilaviy nizolarga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ayrim erkaklarning noto‘g‘ri tushunchalarini o‘zgartirish, xotiniga hurmat, o‘zaro tushunish va ishonch bilan yondashish zarurati tug‘iladi. “Yoshlarning axloqiy-ma’naviy va estetik jihatdan shakllanishida quyidagi omillar katta rol o‘ynaydi: birinchidan, yoshlar tug‘ilib o‘sgan ijtimoiy muhit; ikkinchidan, yoshlarga uzoq vaqt davomida ma’lum bir tizim asosida beriladigan ta’lim-tarbiya jarayonining axloqiy-estetik mohiyati, uchinchidan, yoshlarning intellektual va estetik taraqqiyotiga ta’sir etuvchi tug‘ma, ya’ni nasliy xususiyatlar”[125].

Garchi axborot texnologiyalari yangi dunyo tartibida rivojlanishning asosiy mezonlaridan biriga aylangan bo‘lsa-da, bu jarayonning ma’lum salbiy ta’sirlari mavjudligini e’tirof etish zarur. Har bir oilaga internetning kirib kelishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish imkoniyatlari kengayayotgani barcha ilg‘or jihatlari bilan birga, ba’zan insonlar hayotiga, odob-axloqiga, ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar ba’zan jamiyatdagi ma’lum salbiy chaqiriqlar va tendensiyalar uchun forumga aylanib qolish bilan birga, oilaviy nizolarning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, oila institutining poydevorini buzadi.

[125] Ғайбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. –Тошкент: CHASHMA PRINT, 2008. –Б. 117.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, oddiy oilada voyaga yetgan, to‘g‘ri tarbiya olgan yigit asos solgan oila mustahkamdir. Binobarin, yoshlarning yoshligidan milliy ruhda tarbiyalanishi, yaxshi o‘qishi, bilimli, zukko bo‘lishi, mehnat qilish, kasb-hunar egallash odatlariga ega bo‘lishi oilaning yaxlitligi nuqtayi nazaridan muhim omil hisoblanadi. “Oilada kasbiy ijtimoiylashuvni ta’minlash joriy qilingandagina, butun jamiyat va konkret shaxs hayotida ijobiy o‘zgarishlarni ta’minlash mumkin bo‘ladi. Binobarin, kasbiy ijtimoiylashuv va uni oila sharoitida ta’minlashning pedagogik va ijtimoiy mazmuni, uning kategoriyalari, uni shakllantirishning pedagogik tizimlari, pedagogik jarayon xususiyatlarining to‘g‘ri anglanishi va to‘g‘ri tanlanishi, kasbiy ijtimoiylashuvni qanday qilib, qaysi shakllar, vositalar va usullar bilan ta’minlash kerakligi masalasini hal etish va mazkur ko‘pqirrali pedagogik mazmunni oilaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish lozim”[126].

Biz hozir bozor iqtisodiyotida yashayapmiz. Bozor munosabatlari jamiyatning umumiy ruhida, taraqqiyot uyg‘unligida hukmronlik qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmonlar qonuniy boyib, farovon yashashi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Mehnatkash insonlar o‘z imkoniyatlarini ijtimoiy ta’minotini yaxshilash va biznesini qurish uchun ishga solmoqda. Ana shunday insonlar, tadbirkorlar, mutasaddilar farzandlarining sog‘lom ruhda ulg‘ayishini, mehnatga jalb etilishini ta’minlashi lozim, afsuski, ba’zida ota-onasi hisobidan yaxshi yashashni, qimmatbaho mashina haydashni, qasr-kosmosda yashashni istagan, mehnat qilmay, o‘qimay, daromad topmay, dabdabali turmush tarziga moyil yoshlarni uchratib qolamiz. Ularga pul bilan barcha qiymatlarni sotib olish va sotish mumkindek tuyuladi.

Bunday odamlar oilaviy mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishga tayyor emaslar hatto oila qurganlaridan keyin ham ota-onalari himoyasidan panoh topadilar. “Zamonaviy jamiyatdagi oilaning roli uning bajaradigan funksiyalariga bog‘liq. Ushbu funksiyalar jamiyatning reproduktiv (avlodlar salomatligini saqlash), tarbiyaviy, rekreatsiya (jamiyat a’zolarining qayta tiklanishi) funksiyalarda namoyon bo‘ladi. Mazkur xususiyatlar hozirgi kundagi ko‘plab muammolarni hal etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Islom ta’limotidagi insonparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarning oilada shakllanishi va rivojlanishi bilan uning ijtimoiy hayotdagi masalalarga yechim topishdagi ahamiyati naqadar kattaligini ko‘rsatadi. Shu bois, oila va undagi qadriyatlarni saqlab qolish jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solishda juda muhimdir”.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek oilasining aksiologiyasi va ijtimoiy-axloqiy jihatlari xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma’naviy-madaniy merosi, hayot falsafasi va ijtimoiy ongining uzviy mahsulidir. Oila – qadriyatlar maktabi, axloqiy yetuklik manbai, shaxs kamoloti va jamiyat barqarorligining poydevoridir. Unda milliy ong, tarixiy xotira, urf-odatlar va an’analar uyg‘unlashgan holda, avloddan-avlodga o‘tadigan hayotiy tajriba sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan oila muhitida insonda vatanparvarlik, insonparvarlik, hurmat, sadoqat, sabr-toqat, halollik,

[126] Бегматова Д.М. Оилада ёшларнинг касбий ижтимоийлашувини таъминлашнинг педагогик шарт-шароитлари. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Самарқанд, 2019. -Б.22.

mehnatsevarlik kabi yuksak fazilatlar shakllanadi. O‘zbek oilasida mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga g‘amxo‘rlik, birdamlik va sabr kabi axloqiy qadriyatlar bugungi kunda ham ijtimoiy hayotning mustahkam tayanchi sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu qadriyatlar jamiyatni tarbiyaviy, ma’naviy va madaniy jihatdan mustahkamlab, insonlar orasida ijtimoiy uyg‘unlik va hamjihatlikni ta’minlaydi.

## O‘ZBEK QIZIQCHILIK SAN’ATI HAQIDA

**Eshonqulov Laziz Norqobul o‘g‘li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD).
Laziz.eshonqulov.90@mail.ru

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada qiziqchilar nutqining lingvistik, stilistik jihatlari, ular nutqida uchrovchi faol til birliklarining stilistik xususiyatlari va tagma’no vositasida kulgi qo‘zg‘ash borasida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** stilistik xususiyat, kommunikativ munosabat, fonostilistik vosita, intonatsiya, fonatsion vosita, ma’no kategoriyasi, kommunikativ maqsad.

**Kirish.**

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligining rivoj topishi matn tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning salmog‘i ortishiga, shuningdek, qator monografik ishlarning [6] maydonga kelishiga turtki bo‘ldi. Mana shunday ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar qatorida A.Mamajonovning “Tekst lingvistikasi”, Sh.Abdurahmonovning “O‘zbek adabiy nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi lisoniy vositalar” hamda Hikmatullo Do‘stmatovning “Askiya matni lingvostilistikasi” nomli ishlari alohida ahamiyatga ega hodisa sifatida qarshilandi. O‘zbek tilining o‘ziga xos tomonlari, ichki imkoniyatlari shu qadar kengki, fikr ifodalashning turli yo‘llarini qo‘llash orqali kommunikativ maqsadni ko‘tarinki jozibadorlik bilan ifodalash mumkin. Yoki bir so‘zni turli o‘rinlarda qo‘llab o‘zgacha mazmundagi axborotni uzatish, tagma’no vositasida fikrni ta’sirli, obrazli tarzda namoyon qilish mumkin. O‘zbek tilining leksik tarkibini tashkil qiluvchi birliklarning katta qismi ko‘p ma’noli, ko‘chma ma’no uchun asos bo‘la oladigan so‘zlardan iboratdir. Buyuk nemis tilshunosi B.Gumbold har bir tilda til egalarining dunyoqarashi aks etishi, xalq ruhi va tili o‘rtasidagi munosabat zich bog‘langanligi, ularni ayro tasavvur qilib bo‘lmasligini, til xalqning ruhi, xalqning ruhi esa uning tili ekanligini, tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning xilma-xilligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko‘rishning farqliligi natijasi ekanligini ta’kidlaydi [6, 50-54].

**Asosiy qism**

Tilimiz fikr ifodalash, aloqa aralashuv vositasi sifatida nihoyatda boy ichki imkoniyatlarga egadir. O‘zbek tilining boy va go‘zalligini na’moyon etishda tildagi so‘zlarning o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Tilimizda ajoyib so‘z va iboralarning ko‘pligi, ularning serqirra mazmunga ega ekanligi o‘zbek tilining imkoniyatlarini yanada kengligidan, boyligidan dalolatdir. Zero tilning jozibasi, nafosati to‘lig‘icha madaniy va ma’naviy boyligimiz bo‘lgan badiiy asarlar, xalqimiz tomonidan yaratilgan askiya, latifalarda

yanada yaqqol na’moyon bo‘ladi. Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, mana shunday latifa va qiziqarli so‘z o‘yinlarini mahorat bilan, maromiga yetkazib ifodalay olish alohida san’atdir. Kommunikativ maqsadni kuldirish, tag ma’noga ishora qilish, kesatiqlar va o‘tkir ba’zan yengil tanqid qilish orqali oshkor etuvchi leksik, semantik jihatdan mazmundor vositalarni qo‘llash orqali bayon qilish so‘zlovchining stilistik qobilayatiga bog‘liq bo‘lgan tushunchadir.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan baho beriladigan bo‘lsa so‘z san’atidan o‘rinli foydalanish o‘ziga xos uslubni, qobiliyatni talab etadi. Stilistika ana shunday qobiliyatning yuzaga chiqish jarayonini, uning yashirin jihatlarini, kulgi vositasining qo‘llanilishi singari tomonlarini o‘rganadi. Kishilar kundalik turmushi davomida o‘zaro aloqada turlicha suhbat olib boradi. Muloqot jarayonida turli latifa va qiziqarli, kulgi uyg‘otuvchi vositalar bilan o‘zaro suhbatlashadilar. Xalq orasida ko‘ngil yayratish, insonlarning kayfiyatini, ruhiyatini ko‘tarish uchun turli guruhlar, yakkaxon ijodkorlar tomonidan aksiya, latifa, so‘z o‘yinlariga asoslangan ko‘ngikochar dasturlar tashkillanadi.

Qiziqchilar nutqining o‘ziga xosligi, ularning til imkoniyatlaridan o‘rinli, ustomonlik bilan foydalanishi muloqot vositasi bo‘lgan tilning ta’sirchanligini oshiradi. Asosan so‘zlashuv uslubidan foydalanuvchi qiziqchilar o‘z ijodiy na’munalarida aqliy hujumdan, fonostilistik vositalardan foydalanib til imkoniyatlarining yangi qirralarini kashf etishadi. Qiziqchilik san’atida polisemantik unsurlar, frazeologik va boshqa birliklarning mujassam ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Qiziqchilik san’atining asosini esa so‘zamollik, hozirjavoblik va nutqiy vaziyatni yoritish, ya’ni o‘z mahoratini ishga solgan holda kommunikativ maqsadni amalga oshirish tashkil etadi. Shuning bilan birgalikda ko‘rishimiz mumkinki, leksik birliklarning muloqot vaziyatiga moslab qo‘llanilishi, ya’ni ularning o‘z ma’no kategoriyasidan tashqari boshqa ma’nolarda ishlatilishi qiziqchilar nutqini asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Askiya va payrovlar inson tafakkurining hozirjavobliligi, zehni o‘tkirligi, aql idrok va donoligini bildiradi, uning negizida so‘z o‘yinlari qochiriqlar, chandishlar, kinoyalar, mubolag‘alar yotadi [1, 8].

Qiziqchilik san’atining yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan qator hodisalar mavjud. Ularning yuzaga kelishi xalq turmushi, kechinmalari bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi. Tarixiy haqiqatlar shuni ma’lum qiladiki, Amir Temur, Alisher Navoiy davrlarida adabiyot va san’at o‘zining yuqori cho‘qqisiga erishgan. Shoir Zayniddin Mahmud Vosifiy o‘z memuarida yozishicha, Hirotda badiiy so‘z ustalari-Hofizi Bosir, Hofizi Mir, Hofizi Hasan Ali, Hofizi Sulton Mahmud Bishi kabi ajoyib kishilar yashagan. Navoiy mashxur askiyachi Muhammad Badahshining “askiyaning piri” ekanligini alohiga ta’kidlab o‘tgan [1, 19]. Sirasini aytganda, masxarabozlik va qiziqchilik - asrlar davomida shakllangan og‘zaki an’anadagi professional teatr hisoblanadi. Uni havaskorlik harakatidan farqlovchi xususiyati ham an’anaviy xalq teatri sanalganligi bo‘lib, XX asrning boshlaridayoq yuzaga kelgan yevropacha tipdagi o‘zbek professional teatrining sarchashmasiga aylanganligidir. Ayniqsa xalq teatrining keng rivoj topgan maskani *Farg‘ona qiziqchiligi* bo‘lib, ular, asosan, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlari va ularning atrofida yashagan Zokir eshon (1815-1885), Sa’di Maxsum, Mulla Hoshim,

Usmon qiziq, Abulhasan Qashg‘ariy, Marasul qora, Normat og‘zi katta, Abduaziz qiziq, Bahromboy, Hasan bukri, Kalsariq, Mo‘min qishloqi, Rizo kiyik, Rahimbek hez, Davlat novcha, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Oxunjon qiziq Huzurjonov, Tesha qiziq, Muhiddin qiziq Darveshov, Zaynobiddin qiziq, Hojiboy Tojiboyev va boshqalar tomonidan muvaffaqiyat bilan davom ettirilgan.

Buyuk nemis tilshunosi B.Gumboldt har bir tilda til egalarining dunyoqarashi aks etishi, xalq ruhi va tili o‘rtasidagi munosabat o‘zaro zich bog‘langanligi, ularni ayro tasavvur qilib bo‘lmasligini, til xalqning ruhi, xalqning ruhi esa uning tili ekanligini, tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning xilma-xilligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko‘rishning farqliligi natijasi ekanlini ta’kidlaydi [1,6]. Bugungi zamonaviy tilshunoslikning juda ko‘plab sohalarida kommunikativ munosabatni ifodalovchi leksik birliklar har tomonlama talqin qilinmoqda. Til nafaqat aloqa vositasi, balki estetik zavq bag‘ishlovchi, undovchi kuchga ega bo‘lgan o‘tkir qurol hamdir. Leksik birliklar nutq uslublarining barchasida qo‘llanilib turli ma’no nozikliklarini yuzaga chiqaradi. So‘z ustalari bo‘lgan qiziqchilar ham so‘zning tuganmas imkoniyatlaridan o‘rinli foydalangan holda so‘zlashuv uslubiga yangicha joziba bag‘ishlaydi. Har bir so‘zning o‘z ma’nosi bor, ya’ni har bir so‘z muayyan bir narsaga yoki narsalar turkumiga, shuningdek, narsalarning muayyan bir belgilariga–ularning xususiyatlariga, bog‘lanishlariga, munosabatlariga va boshqa shu kabi belgilarga taalluqlidir [6, 83].

Kishilarning muloqot jarayoni turli xildagi mavzularga bag‘ishlanadi, u yoki bu axborotning to‘liq yoki noto‘liq shakli ifodalangan og‘zaki nutqda estetik zavq mujassam bo‘lgan leksik birliklar ham mavjud. Qiziqchilar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirish uchun turli fonatsion vositalardan, til birliklaridan mohirona foydalanishadi. Til imkoniyatlarining cheksizligi, so‘zlashuv uslubining yetakchi xususiyatlari ayniqsa qiziqchilar nutqi vositasida yaqqol namoyon bo‘la oladi. Chunki tilimizda mavjud bo‘lgan bir ma’noli, ko‘p ma’noli, zid ma’noli, sinonim so‘zlarni yoki bo‘lmasa iboralarni keltirib ham insonlar ko‘ngliga manzur bo‘luvchi, kayfiyatni ko‘taruvchi, ba’zan esa jamiyatdagi kamchiliklarni, ijtimoiy hayotga aloqador bo‘lgan muammolarni yengil tanqid ostiga olgan holda ochib berish ham mumkin.

Qiziqchilar nutqida turli sohaga oid bo‘lgan leksik birliklar qo‘llaniladi. Kasbga oid, yoki bo‘lmasa faqatgina ma’lum bir kishilar uchungina tushunarli bo‘lgan leksemalar, ma’lum bir joy aholisigagina tegishli bo‘lgan shevaga oid so‘zlar ham qiziqchilar nutqidan o‘rin oladi. Ayniqsa so‘zlarni mahorat bilan tagma’noni yuzaga chiqargan holda qo‘llash qiziqchilar nutqiga xos bo‘lgan asosiy sifatlardan biridir. Kulgi qo‘zg‘atish, insonlar kayfiyatiga ta’sir etish uchun leksik birliklardan, aniqrog‘i kulg‘u qo‘zg‘atishga undovchi vositalardan ham o‘rinli foydalanish lozim. Binobarin kulgi qo‘zg‘atuvchi lisoniy vositalar ham bevosita nutq bilan bog‘liqdir.

Kulgili yo‘nalishdagi asarlar, latifalar, kulgi hosil qiluvchi lisoniy vositalarning imkoniyatlari, qiziqchilar nutqining emotsional-ekspressiv xususiyatlari til imkoniyatlarini ochish uchun xizmat qiladi. Qiziqchilar nutqi bevosita muloqot vaziyati bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ularning nutqida tomoshabin diqqatini jalb qilishga qaratilgan leksik vositalardan foydalaniladi. Har

bir qiziqchining o‘z uslubi, o‘zini namoyish qiluvchi mahorati va hattoki tinglovchilarni jalb qilishga yoki biror mavzu yuzasidan so‘z ochishga undovchi alohida til birliklari mavjud. Misol uchun Abdurahmon qiziqning nutqida “vey, odamlargayam hayronmanda…”, “vey qarang…”, “bir kuni…”, “Odamlaram ajoyibda…”, singari til vositalari faol ravishda qo‘llaniladi. Ushbu vositalar fikrni jalb qilish, tomoshabinlar diqqatini o‘ziga qarata olish uchun qulay sharoit yaratadi. Tilshunoslikda undalma vositasidagi so‘z undash intonatiyasiga ega bo‘ladi. Gap boshida kelgan undalmalar chaqirish, undash ma’nosini ifodalaydi hamda undashni kuchli ifodalash uchun undalmaning oldida –hoy, -hey, -vey kabi elementlar qo‘shilib keladi [5, 190].

Keltirilgan misollar orqali ko‘rishimiz mumkinki ushbu o‘rinda undalmaning o‘zi aytilmay tinglovchining diqqatini tortish uchun undov so‘zning o‘zi qo‘llangan.

Qiziqchilar nutqida ushbu vositalarning qo‘llanilishi nutqiy vaziyat uchun tinglovchilar diqqatini qaratish uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari ushbu vositalar yordamida o‘z shaxsiy fikrini ifodalash, keltirilayotgan axborotga munosabatini bildiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Dustmatov X. Askiya matni lingvostilistikasi.: Fan, 2015.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati.-Toshkent: O‘qituvchi, 1985-y.
3. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. Farg‘ona: Farg‘ona, 1996;
4. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida.-Andijon, 1992-y.
5. Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san’ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
6. Xalilova M. O‘zbek tili stilistikasi asoslari. Farg‘ona: 2009-y, 83-b.


## YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON OLIY QADRIYAT


**Hamdamov Islom Akramovich,**
**Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD)**
**E-mail: hamdamovislom79@gmail.com**



**Annotatsiya**. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davrida inson qadriyatlariga berilayotgan e’tibor, huquq va erkinliklarning kafolatlanishi, shuningdek, inson manfaatlarini ustuvor qo‘yishga asoslangan ijtimoiy-siyosiy islohotlar yoritilgan. Shunigdek, maqolada yangi jamiyat qurilishida inson omilining o‘rni, adolatli boshqaruv tamoyillari va demokratik yangilanishlar kontekstida ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omili sifatida inson qadriyatlarining ustuvorligini tahlil qiladi.



**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, inson qadriyati, huquq va erkinliklar, ijtimoiy islohotlar, demokratik jamiyat, adolat, taraqqiyot.

XXI asr insoniyat tarixida global o‘zgarishlar, sivilizatsion qarama-qarshiliklar va innovatsion taraqqiyot jarayonlari bilan tavsiflanmoqda. Bunday murakkab va zudlik bilan rivojlanayotgan dunyoda har bir davlat o‘z milliy istiqboli va ma’naviy barqarorligini ta’minlash uchun aniq mafkuraviy, falsafiy va amaliy yo‘nalishga ega bo‘lishi zarur. YAngi O‘zbekiston bu borada “Uchinchi Renessans” g‘oyasiga asoslangan yangi taraqqiyot strategiyasini shakllantirmoqda. Mazkur strategik yondashuv nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy o‘zgarishlarni nazarda tutadi, balki u inson qadri, ma’naviy taraqqiyot va milliy o‘ziga xoslikni tiklash kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi.

“YAngi O‘zbekiston” tamsili zamonaviy davlatchilikni qayta asoslash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, ta’lim, fan, madaniyat va ma’naviyatni ustuvor taraqqiyot omiliga aylantirishdek ulug‘vor maqsadlarni mujassam etgan. Bu jarayonda **inson - oliy qadriyat** degan tamoyil teran falsafiy va amaliy mazmunga ega bo‘lib, butun islohotlar markazida insonni qo‘yish g‘oyasi ifoda topgan. Ushbu maqolada Uchinchi Renessans g‘oyasining falsafiy asoslari, YAngi O‘zbekistonning mafkuraviy-siyosiy tamoyillari, inson qadrini ustuvorlashtirishga qaratilgan muhim yondashuvlar va milliy taraqqiyot istiqbollari kompleks tahlil etiladi. Bu orqali yurt taraqqiyotining zamonaviy bosqichida mafkura, ma’naviyat va insonparvarlik g‘oyalarining o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Prezident SHavkat Mirziyoev rahnamoligida O‘zbekistonda Yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevori yaratish mamlakatning eng ustuvor maqsadlaridan biriga aylandi. SHuning uchun ham, har birimiz uchun Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini chuqur va teran anglab etish juda muhimdir. Davlat rahbari SHavkat Mirziyoev ta’kidladiki: “Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda, “YAngi O‘zbekiston” iborasi keng tilga olinadi. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan bugungi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, bu to‘g‘ri bayonot bo‘ladi”.

Hozirgi paytda buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun barcha imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlash to‘g‘ridir. Ammo barcha ish ana shu imkoniyatlardan samarali foydalana olishimizga bog‘liqdir. Davlat rahbari SHavkat Mirziyoev nutq va ma’ruzalarida O‘zbekistondagi Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyati, uning tarixiy ildizlari hamda mustahkam poydevorini yaratishga oid eng dolzarb vazifalarga alohida e’tibor qaratib, amaliyotda qo‘llash uchun teran tavsiyalarini berib kelmoqda. Bu g‘oya keng qamrovli bo‘lib, ijtimoiy fanlar vakillari o‘zlarining fikr-mulohazalari va ilmiy konsepsiyalarini shakllantirishlari zarur. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o‘n yilga sig‘dirilmaydi, balki ancha uzoq va mashaqqatli davrni talab etadi. Bu jarayonda eng avvalo minglab iste’dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar hamda fidoyi insoniyat zarurdir. Prezident rahnamoligida ulug‘ niyatlar bilan asos solinayotgan YAngi Uyg‘onish davri yurtimizda tarixiy sahifalarni yaratayotgan bo‘lib, bu kelgusida avlodlarga munosib meros bo‘lib qolishiga shubhasiz xizmat qiladi. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”[127]

[127] Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

degan da’vatkor g‘oya hayotimizga tobora chuqurroq singib bormoqda. Ana shu poydevor asosida xalqimizning turmush darajasini barqaror yaxshilash, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, qonun ustuvorligi hamda ijtimoiy adolatni mustahkamlash, shuningdek, innovatsion rivojlanish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning ta’lim olishi, mehnat qilish imkoniyatlari hamda bilim va qobiliyatlarini to‘la namoyon etishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. YOshlar aynan YAngi O‘zbekistonning bunyodkorlari sifatida qaralmoqda. YOsh avlodning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, ularning faolligini oshirish, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga ega bo‘lib, xalqaro miqyosda raqobatbardosh barkamol shaxslar hamda etuk mutaxassislar qilib tarbiyalash maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezident SHavkat Mirziyoev ta’kidladiki: “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak - milliy tarixni xalqimizga, ayniqsa yoshlarimizga milliy ruh va ma’naviyat bilan etkazish muhimdir. Agar bu amalga oshirilmasa, tarixiy bilimning tarbiyaviy ta’siri yo‘qoladi.

Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olishga, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi va tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz shart. «Buning uchun, avvalo, O‘zbekistonda tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirishimiz lozim”[128]. Bu oliyjanob vazifalarni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasalarining o‘rni beqiyos bo‘lib, mazkur tizimda samarali faoliyat yuritayotgan olim va ziyolilardan katta mas’uliyat hamda fidoyilik talab etiladi. CHunki “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun mazmunida oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro standart va andozalarga moslashtirish, yosh avlodni chuqur bilimli, erkin va zamonaviy fikrlaydigan, innovatsion g‘oyalarni o‘zlashtirgan, kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar sifatida tarbiyalash bosh maqsad sifatida belgilangan. Ayni nuqtai nazardan qaralganda, bugungi kunda Vatanimizga nafaqat yuqori malakali mutaxassislar, balki umuminsoniy va milliy qadriyatlarni zamonaviy bilim va ilmiy tafakkur bilan boyitib, mustaqil fikr yurita oladigan, har tomonlama asoslangan qarorlar qabul qilish salohiyatiga ega bo‘lgan barkamol yoshlar talab etilmoqda. SHu bois, Yangi O‘zbekistonda ta’lim jarayonini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratilayotir.

O‘zbekiston bugun mustaqil taraqqiyot yo‘lidan barqaror ilgarilab, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallayotgan davlatlar qatorida bo‘lib, uni rivojlangan mamlakatlar safiga olib chiqish, milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bunga davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoev rahnamoligida ishlab chiqilgan “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”[129] davlat dasturida barcha asoslar mavjud. **Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” falsafiy mohiyati quyidagicha:** Bu strategiya faqat iqtisodiy islohotlar to‘plami emas, balki **yangi**

[128] Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т., 2021. – Б.288

[129] Мирзиёев М.Ш. **Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси”**:.- Т. Ўзбекистон. -2022. – 440 bet.

**dunyoqarashni** shakllantiruvchi hujjatdir. Asosiy falsafiy g‘oyalar: **Inson qadri - taraqqiyot mezoni; Faol fuqaro - kuchli jamiyat asosi; Inson huquqlari - ustuvor qadriyat; Adolat va shaffoflik - bosh tamoyil.** Strategiyaning mafkuraviy zaminini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, adolat, jamoaviylik, ma’naviy tarbiya, oila, jamiyat va davlatning uyg‘unligi tashkil etadi.

Yangi O‘zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Ya’ni, **“Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat” degan tamoyil** e’tirof etilmoqda. Eng asosiysi: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “**davlat – jamiyat – inson**” tamoyili **“inson – jamiyat – davlat**” tamoyiliga o‘zgartirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev taqdim etgan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradi.

Muxtasar aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi loyihasi negizida bir qancha yangi dasturlar, yangi konsepsiyalar, yangi qonun hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutilmoqda. Bu bilan mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik rivojlanishining keyingi bosqichida amalga oshiriladigan islohotlar keng qamrab olinmoqda. SHunday ekan, Taraqqiyot strategiyasining tasdiqlanishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish hamda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan ulkan maqsad va vazifalarimizga erishish imkonini beradi.

## Adabiyotlar


1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2021.- 457 b.
4. Mirziyoev Sh.M. **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”:.-** T. O‘zbekiston. -2022. – 440 bet.


# O‘ZBEKISTON TARIXIDA DEMOKRATIK ISLOHOTLAR VA FUQAROLIK INSTITUTLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI


**Boboqulova Xurshida Erkinovna**
**SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD)**



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, huquqiy asoslari va ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati yoritiladi. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili asosida olib borilgan islohotlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Fuqarolik jamiyati, demokratik islohotlar, konstitutsiyaviy o‘zgarishlar, siyosiy institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, O‘zbekiston, siyosiy modernizatsiya.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonidir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatda inson manfaatlari ustuvor bo‘lishi, fuqarolarning erkin faoliyati ta’minlanishi, davlat boshqaruvi esa shaffof va hisobdor bo‘lishi uchun kuchli fuqarolik jamiyati muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishdagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, bu borada O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2010-yil 12-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida so‘zlagan “Mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasi” nomli ma‘ruzasi mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi.[2-20] Ushbu konsepsiyada davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy tamoyillari, davlat hokimiyati institutlari barqarorligini ta’minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash va fuqarolik jamiyatining shakllanishi bo‘yicha strategik yo‘nalishlar belgilandi.[4-34]

Mazkur nutq va unda ilgari surilgan Konsepsiya asosida 2011-yil 18-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bu o‘zgartishlar 78, 80, 93, 96 va 98-moddalarni qamrab olib, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirishga qaratildi.[1] Jumladan, parlament va ijro hokimiyati o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik bildirish mexanizmini kuchaytirish, siyosiy muvozanatni ta‘minlash kabi masalalar o‘z yechimini topdi. Konsepsiyada fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash, shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishiga sharoit yaratish deb belgilandi[5]. Ushbu konstitutsiyaviy tuzatishlar mamlakatda parlament tizimining mustahkamlanishiga, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Ekspertlar fikricha, bu islohotlar aholining siyosiy madaniyat darajasining yuksalib borayotganini, jamiyatning liberallashuvga intilayotganini va siyosiy tizimda vakolatlarning muvozanatli taqsimlanishini aks ettiradi.

Shuningdek, yana birinchi Prezident Islom Karimov o‘z chiqishlarida fuqarolik jamiyati haqida keng va chuqur fikr bildirgan. Unga ko‘ra, fuqarolik jamiyati – bu qonun ustuvor bo‘lgan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlangan, erkinlik va javobgarlik uyg‘unligiga asoslangan ijtimoiy makondir.[2-20] “Fuqarolik jamiyati insonning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, manfaatlarini anglab yetishi, huquq va erkinliklarning ro‘yobga chiqishini ta’minlovchi tizimdir. Shu bilan birga, boshqa shaxslarning huquqlarini buzmaslik, ya’ni erkinlik va qonunga bo‘ysunish bir vaqtda harakat qilishi zarur” – deb ta‘kidlanadi.[2-21]

Islom Karimovning ta‘kidlashicha, fuqarolik jamiyatining poydevorini siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, mahalla institutlari, xotin-qizlar qo‘mitasi va boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlar tashkil etadi. Ayniqsa, oilaning jamiyatdagi o‘rni alohida qayd etilib, fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi sifatida ko‘rsatilgan. U o‘z chiqishlarida: “Zamonaviy ijtimoiy farovonlik tizimining asosiy timsoli bu – umuminsoniy qadriyatlar, milliy an‘analar va mentalitetga mos keladigan oiladir”[2-21] – deya ta’kidlagan.

Konsepsiyada ommaviy axborot vositalarining erkinligi, fuqarolik institutlarining ijtimoiy asoslari, fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi huquqiy muammolar, shuningdek, ma’naviy asoslar hamda O‘zbekistonga xos xususiyatlar asosida fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalari ham keng yoritilgan.[5-9] “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasining markazida “davlat – bosh islohotchi” degan tamoyil turadi. Bu esa fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida davlatning faol va mas‘uliyatli rolini taqozo etadi.[1]

O‘zbekiston tarixida demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi bosqichma-bosqich, puxta o‘ylangan siyosiy strategiya asosida amalga oshirilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarining – siyosiy partiyalar, NNTlar, mahalla tuzilmalari, OAV va oila kabi muhim ijtimoiy institutlarning – roli yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning siyosiy madaniyatini oshirish, ijtimoiy mas‘uliyatni kuchaytirish va fuqarolarning faolligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bundan, O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kuchli davlat institutsional barqarorlik, qonun ustuvorligi va demokratik qadriyatlarni qaror toptirish orqali barpo etilmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘li bu jarayonni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi Qonun, 2011-yil 18-aprel. // Xalq so‘zi gazetasi, 2011-yil 19-aprel soni.

2. Karimov I.A. Mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasi.- T.: O‘zbekiston, 2010.

3. Jo‘rayev N. O‘zbekistonning demokratik taraqqiyot yo‘li: ijtimoiy-siyosiy tahlil. - T.: Ma’naviyat, 2015.

4. Xo‘jayev Sh. O‘zbekiston: fuqarolik jamiyati shakllanishining ijtimoiy-siyosiy asoslari. - T.: Iqtisodiyot, 2014.

5. Qodirov B. Fuqarolik jamiyati: nazariya, metodologiya va rivojlanish istiqbollari. - T.: “Fan va texnologiya”, 2012.

# BUYUK SOHIBQIRON AMIR TEMUR – MILLATIMIZ FAXRI

**O‘rozov Sh. Z.**
SamISI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: orozov.1973@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning faoliyatiga umumiy tavsif berilgan. Shuningdek, sohibqiron qabrining ohilihi bilan bog‘liq mulohazalar keltirilgan. Sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy faoliyatida ratsionallikka asoslangan yondashuvning o‘rnini, uning o‘ziga xosligi va hozirgi islohotlar davridagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan**.**

**Kalit so‘zlar:** sohibqiron, Amir Temur, ijtimoiy faoliyat, ratsionallik, xarizma, liderlik, Markaziy Osiyo, siyosat, siyosiy beqarorlik, yetakchilik, davlat, hokimiyat, vazir, askar, Zafarnoma, Samarqand, barqarorlik, taraqqiyot.

Amir Temurga bag‘ishlab yaratilgan asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqin asarlarni tashkil etadi. Amir Temurning tug‘ilishi haqida quyidagi fikrlar kitoblarda talqin etiladi. “Farzand kutayotgan baxtiyor otaga ma’lum bo‘lishicha ilohiy payg‘om haqida “Zafar yo‘li” kitobida bir lavha mavjud. Keyinchalik ota – Muhammad Tarag‘ayning o‘g‘li Temurbekka hikoya qilib berishicha, u bir kecha tush ko‘rgan. Tushida arabsiymo bir zot unga qilich bergan. Qilichni boshi uzra sirpaganda butun atrof yorug‘ bo‘lib ketgan. Tarag‘ay tushini ta’birini piri Shamsiddin Kuloldan so‘raganda, pir “Olloh senga bir o‘g‘il beradi, u dunyoni zulmatdan qutqaradi” deb tushni ta’bir qilgan ekan”.

Ana shunday sir-sinoatlar qurshovida farzand tug‘ildi. Endi unga ism qo‘yish kerak edi. Ota chaqaloqni piri Shamsiddin Kulol huzuriga olib boradi. Ularni tashrifi pirga ayon bo‘ladi. Shamsiddin Kulol otani qutlab qo‘liga bir hovuch bug‘doy va mayiz bergan va “Ularning sonicha avloding hukmron bo‘ladi” deb karomat qilgan, ular soni 370 ta bo‘lgan ekan. Shayxning oldiga kirganlarida ul zot Qur’ondan “Aamintum man fi-s-samaai-yaxsifa bikumu-l arza fa iza hiya tamuru” (67-Mulk surasi, 16-oyat)ni o‘qib o‘tirgan ekan. Shundan oyatdagi “tamuru” so‘zidan bolaga “Temur” ismini beradilar. Mulk surasi (“mulk” so‘zi arab tilida podshohlik, hukmronlik ma’nosini bildiradi). “Taborak” deb boshlangan shu so‘z bilan ko‘p qiroat qilinadi (Hakim Sattoriy “Hazrat Sohibqiron” asari 38-39-bet). Amir Temurning harbiy yurushlari tarixiga bag‘ishlangan asarlar bobomiz tirikligidayoq yozilgan bo‘lib, bu an’ana Shohruh davrida ham davom etgan. Tarixchilar Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fasih Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasihiy”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla as-sa’dayn”, Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur” kabi asarlari hamda Amir Temur Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa qator xorijiy elchilarni o‘z saltanatida qabul qilgan ularning esdaliklari ham muhim manbalardir (Hakim Sattoriy “Hazrat Sohibqiron” asari 14-15-bet), (Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma” 7-bet). Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VIga yozgan

xatidagi quyidagi fikr diqqatga sazovordir. “Siz o‘z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni ulug‘ qarshi olib izzat-ikrom ko‘rsatamiz. Biz ham o‘z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo‘llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko‘rsating, ularga ortiqcha vazifalar qilinishiga yo‘l qo‘ymang. Sizga bundan bo‘lak talabim yo‘q. Zero, dunyo ahli savdo ila obod bo‘lajak”. Qarang, qanday oddiy va aniq fikr. Demak, Amir Temur tashqi savdoga katta e’tibor bergan.

“Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz loqayd kishidan yaxshiroqdir”. Demak, Amir Temur bobomiz tadbirkorlarni juda qadrlagan. Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’noli, hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan. “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar” degan maqolga g‘oyat hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir (“Amir Temur o‘gitlari” 11-bet). Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Amir Temur surati saqlanganmi? Ul zotning qiyofalari qanday bo‘lgan? Kimlar uni tarbiyalashgan? Lekin afsuski, Amir Temur ham, Mirzo Ulug‘bek ham o‘z vaqtida suratlarini chizdirib qo‘yishmagan ekan. Shu sababdan ularning surati va siyratini yaxshi bilmaymiz.

Hammamiz ularni sho‘rolar davrida antropolog olim M.Gerasimov “yaratgan” byust orqali bilamiz. Bu suratda bobomiz badbashara, jahldor qilib tasvirlangan edi. Sababi M.Gerasimov Qizil imperiya tuzumining ko‘rsatmalariga bo‘ysunib, shunday ish qilgan edi. Chunki, o‘sha zamonlarda Amir Temur bobomiz qoralangan, asl siymolari qolib uydurma qiyofa yaratilgan edi. Vaholanki, Amir Temur bobomizni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, yetti yil uning saroyida istiqomat qilib, suhbatlariga musharraf bo‘lgan va tarbiyasini topgan tarixshunos olim Ibn Arabshoh Hazrat sohibqironni bunday tasvirlaydi: “Temur baland bo‘yli, tik qomatli, keng peshonali, kallasi katta, bag‘oyat kuchli va salobatli, oq-qizil yuzli, qo‘l-oyoqlari baquvvat, keng yelkali, barmoqlari yo‘g‘on, boldirlari semiz, qaddi-qomati kelishgan, sersoqol, ikki ko‘zi bamisoli ikki sham, yo‘g‘on ovozli…, bexato fikrli, fahm-farosatli, baxtiyor, ulug‘ligi o‘ziga yarashgan, qat‘iy azm bilan so‘zlovchi, haqgo‘y kishi edi. U zimdan qarash va ko‘z ishoratlarini sezadigan, idrokli, sinchkov, har qanday ishoratdan ogoh kishi bo‘lib, yuz berishi mumkin bo‘lgan hamma ishni oldindan ko‘rib-bilib turar edi”.

Amir Temur bobomiz haqida tarixchi va sayyoh Ibn Xaldun ham o‘z qo‘lyozmasini qoldirgan. Amir Temur bobomiz bilan Ibn Xaldun 1401-yilning yanvar-fevral oylarida uchrashgan va u bilan 35 kun davomida suhbatlashgan. Amir Temur bobomiz undan Mag‘rib mamlakatlari haqida ma’lumot to‘plab berishini so‘raydilar, olim ma’lumotlar bergach, o‘z yurti Qohiraga qaytishini ijod etishini davom etirishiga ruxsat berganliklari haqida o‘z xotiralarida yozadi. Amir Temur bobomiz o‘z xulq-atvori va atrofdagilarga muomalasi bilan ko‘pchilikka o‘rnak bo‘lgan. (Hakim Sattoriy “Hazrat Sohibqiron” asari 34-154-bet). Amir Temurning siymosini yaratishga 1994-yildan boshlab kirishildi. Hatto ko‘rik-tanlov ham e’lon qilindi. Natijada suratlar orasidan rassom, professor Malik Nabiyevning chizgan surati tanlab olindi.

Bir necha oylik ishlaridan so‘ng, Malik Nabiyevning chizgan surati, Ilhom Jabborov yaratgan haykali muvofiq topildi. Amir Temur bobomiz haqida so‘z

borganda bir savol meni qiynaydi. 1941-yil Alisher Navoiy bobomizning 500 yilligi munosabati bilan negadir Amir Temur bobomizning ham qabrlari ochiladi? Nega Amir Temur bobomizning ham ruhlari toptaladi? Ekspeditsiya a'zolari quyidagilar edi: Qori Niyoziy, antropolog M.Gerasimov, professor L.Oshanin, eronshunos A.Semyonov, arxitektor B.Zasipkin, arxeolog B.Shishkinlardan iborat edi. 1941-yil 19-iyun kuni Amir Temur qabrini ochishga kirishiladi. Uning qabri o'g'illaridan ancha farq qilib, o'z salobati va ulug'vorligi bilan ajralib turardi. Qabr 20 sm qalinlikda og'ir marmartosh bilan berkitilgan bo'lib, toshning uzunligi 2 metru 45 sm, eni 90 sm. Bu qabrtoshga mahorat bilan yozuv bitilgan. Qabrning uzunligi 3 metr, eni va chuqurligi 1 metr. 20-iyun kuni ekspeditsiya o'z ishini davom ettiradi. Butun jarayon kinosuratga olinayotganligi va hujjatlashtirilib borilayotganligi uchun ish sekin davom etardi. Amir Temurning tobutini lahaddan oladilar. Tobutning hamma tomoni archadan yasalgan edi, shuning uchun ham shuncha yillar o'tsa-da tobutga hech narsa bo'lmagan edi. Ustki qismida esa ko'k rangli ipak choyshab yopilgan edi. Ipak choyshab yomon saqlanganligi uchun naqshlar butunicha aniqlanmadi. Sohibqironning jasadi uzun qilib yotqizilgan bo'lib, yuzi Makka tomonga qaratilgan edi. Amir Temur jasadi ko'rindi. Atrofni allaqanday hushbo'y hid qopladi. Bu yerda turganlar hiddanmi yoki hayratdanmi o'zlarini orqaga oladilar. Uning boshi, bo'yni, oyoq tomonlari mumiyolangan muskullari, teri parcharalari turardi. I.V.Oshanin jasadning suyaklarini tekshirganda quyidagilarni aniqlagan edi: Temur yelkasi keng va bo'yi o'rtacha – 166,2 sm. bo'lgan. Miyasining hajmi 1668 kub sm. bo'lib, u erkak kishi miyasining o'rta hajmidan (1500 kub sm.) ortiqdir. Antropolog Gerasimov Amir Temurning soch va soqoli ranglarini o'rganib chiqadi. Suyaklarini ham o'rganadi. Afsuski, Temur bobomizni suyaklarini o'rganish maqsadida Moskvaga olib ketildi. Amir Temur bobomiz hayoti yoshlarimiz uchun muhim tarbiya omilidir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning fikrlari bilan izohlasak, – "Tarix bu ko'hna dunyoda o'tgan ko'p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzg'unchilik qilgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning "Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim" degan, so'zlari fikrimizning dalilidir.

Zero, Amir Temur va temuriylar davri (XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr) Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida madaniy rivojlanishning yuksak darajaga erishuvi, ma'naviy hayotning takomillashuvi bilan izohlanadi. Mening fikrimcha nafaqat tarix fani o'qituvchisi balki, matematika, fizika, geografiya, ingliz tili barcha-barcha fan o'qituvchilari buyuk davlatchiligimiz asoschisi haqidagi manbalarni bilishi yosh avlodga uni har doim talqin etishi milliy g'ururni o'quvchilar ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, buyuk ajdodlarimiz yod etgan yosh avlod ularga munosib voris bo'lishga harakat qiladi, ularni hech qanday yot g'oyalar chalg'ita olmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008. – 176 b.

2. Amir Temur o‘gitlari. – T.: Navro‘z, 1992. – 59 b.
3. Hakim Sattoriy. Hazrat Sohibqiron, 1 jild. –T.: Sharq, 2019. – 512 b.
4. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. – T.: Cho‘lpon, 1991. – 352 b.
5. Amir Temur ajdodlari. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992.

## RAQAMLI INQILOB DAVRIDA O‘ZBEK OILAVIY QADRIYATLARI BARQARORLIGIDA AVLODLARARO VORISIYLIKNING AHAMIYATI

**Murotov Akmal Inoyatovich**
**Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada oila barqarorligi va avlodlararo vorisiylikning ahamiyati tahlil qilinadi. Oila institutining mustahkamligi uchun an’anaviy qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishi muhim omil sifatida qaraladi. Tarbiyaviy jarayon, madaniy meros va ijtimoiy normalar oilaviy vorisiylik orqali shakllanadi. Avlodlar o‘rtasidagi aloqadorlikning mustahkamligi jamiyat barqarorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari oilaviy qadriyatlarning saqlanishi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** oila, vorisiylik, an’ana, qadriyat, tarbiya, madaniy meros, ijtimoiy normalar, jamiyat barqarorligi, taraqqiyot.

Oila har qanday jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo‘lib, uning barqarorligi va mustahkamligi avlodlararo vorisiylik tamoyillariga bog‘liq. Avlodlararo vorisiylik nafaqat moddiy boyliklar, balki ma’naviy qadriyatlar, tajribalar va madaniy merosni kelajak avlodlarga uzatish jarayonidir. Bu jarayon oilaning mustahkamligi, ijtimoiy integratsiya va milliy o‘zlikni anglashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada avlodlararo vorisiylikning oila barqarorligiga ta’siri har tomonlama tahlil qilinadi.

Avlodlararo vorisiylik bu ota-onalarning va ajdodlarning hayot tajribasi, axloqiy qadriyatlari, an’analari va bilimlarini yangi avlodlarga o‘tkazish jarayonidir. Bu jarayon moddiy va nomoddiy jihatlarga ega bo‘lib, insoniyat madaniyatining uzluksizligini ta’minlaydi. O‘zbek jamiyatida avlodlararo vorisiylik asosan oilada shakllanadi, bunda ota-onalar va katta avlod vakillari asosiy rol o‘ynaydi.[1]

Avlodlararo vorisiylik jarayonida inson shaxs sifatida shakllanib, o‘z ajdodlari qoldirgan bilim va tajribalar asosida hayotiy qarashlarini mustahkamlab boradi. Oilaviy meros faqatgina moddiy mulk emas, balki tarbiya, odob-axloq, diniy va madaniy an’analar, oilaviy urf-odatlar ham hisoblanadi. Yosh avlod kattalar tajribasidan saboq olib, o‘z hayotini mazmunli qilish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshadi. Dastlab, bolalik davrida farzandlar ota-onalarining hayot tarzi, axloqiy odatlari, muomala madaniyatini kuzatish orqali o‘rganadilar. Keyinchalik, ular yoshligidan o‘rgangan qadriyatlarini o‘z xatti-harakatlarida namoyon qila boshlaydilar. Natijada, ular o‘z oilaviy an’analarini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish mas’uliyatini his qiladilar.[2]

O‘zbek jamiyatida avlodlararo vorisiylikning yana bir muhim jihati oiladagi katta yoshli insonlarning, xususan, bobo-buvi, ota-onalarning tarbiyaviy rolidir. Katta avlod vakillari o‘z hayotiy tajribalari, to‘plagan bilimlari va donishmandliklari bilan yoshlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Bu esa oilaning barqarorligi va mustahkamligi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Avlodlararo vorisiylikning yana bir muhim qirrasi – bu axloqiy va ma’naviy qadriyatlarning uzluksizligini ta’minlashdir. Ota-bobolar tomonidan shakllantirilgan mehnatsevarlik, mehr-oqibat, halollik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yosh avlodlarga singdirilishi lozim. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatning rivojlanishi bilan bir qatorda, avlodlararo uzluksizlik yangi shakllarga ega bo‘lishi, ya’ni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan boyitilishi kerak.

Oilaning barqarorligi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

Axloqiy va ma’naviy qadriyatlar – Oila ichida hurmat, mehr-oqibat va o‘zaro ishonchning mavjudligi barqarorlikni ta’minlaydi. Ota-onalar va farzandlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy qadriyatlarga hurmat bilan qarash oilaviy mustahkamlikning asosini tashkil etadi. Oiladagi axloqiy qadriyatlar farzand tarbiyasida muhim o‘rin tutadi va ular kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

An’analar va urf-odatlar – Har bir xalqning o‘ziga xos madaniy va diniy qadriyatlari mavjud bo‘lib, ular avloddan-avlodga uzatiladi. Oila a’zolarining milliy va diniy qadriyatlarga rioya qilishi mustahkam oilaviy rishtalarni shakllantiradi. Nikoh marosimlari, bayramlar, oilaviy yig‘ilishlar kabi urf-odatlar oilaning mustahkamligini ta’minlash bilan birga, uni jamiyatdagi boshqa oilalar bilan bog‘lab turadi. Shuningdek, oila an’analariga amal qilish farzandlarga milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy mas’uliyat hissini singdirishda muhim rol o‘ynaydi.

Moddiy barqarorlik – Oilaning iqtisodiy mustahkamligi uning uzviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Moddiy yetishmovchilik ko‘plab oilaviy nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, oila a’zolarining barqaror daromadga ega bo‘lishi, iqtisodiy mustaqillikni shakllantirishga intilishi barqaror oilaviy hayotni ta’minlaydi. Moliyaviy barqarorlik nafaqat oilaning hozirgi farovonligiga, balki kelajak avlodlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Oilaning kelajagi uchun sarmoya kiritish, farzandlarning ta’lim olishi uchun sharoit yaratish jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Farzand tarbiyasi – Avlodlararo vorisiylikning eng muhim jihatlaridan biri to‘g‘ri tarbiya va ma’naviy meros uzatishdir. Farzandlar oilada hayotiy ko‘nikmalarni, ma’naviy qadriyatlarni va jamiyatdagi o‘z o‘rnini bilib oladi. Ota-onalarning bolalar bilan doimiy muloqotda bo‘lishi, ularga axloqiy tushunchalarni singdirishi farzandlarning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Bundan tashqari, ta’lim va tarbiya jarayonida ota-onalar o‘z farzandlariga nafaqat bilim, balki hayotiy tajriba, sabr-toqat, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni ham o‘rgatishlari kerak.[3]

Umuman olganda, oila barqarorligining asosiy omillari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har biri oilaning mustahkamligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ma’naviy qadriyatlarning saqlanishi, an’anaviy urf-odatlarga

rioya qilinishi, iqtisodiy barqarorlik va to‘g‘ri tarbiya oilaning kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Oila ichidagi vorisiylik oilaning ma’naviy va madaniy ildizlarini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘lib, uning davomiyligini ta’minlaydi. Bu jarayon turli shakllarda namoyon bo‘ladi, ularning asosiy jihatlari quyidagicha tahlil qilinadi:

Ota-bobolar tomonidan shakllangan qadriyatlar va an’analar oilaning poydevorini tashkil etadi. Ushbu qadriyatlar – halollik, mehnatsevarlik, mehribonlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar – oilaviy hayotning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Avlodlararo uzluksizlik orqali bu qadriyatlar nafaqat farzandlarga, balki butun jamiyatga uzatiladi, bu esa oilaviy mustahkamlikni va ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi. Har bir yangi avlod, o‘z ajdodlaridan meros qilib olingan qadriyatlar asosida hayotini shakllantiradi va oila ichidagi doimiy munosabatlar tizimini mustahkamlaydi.[5]

Ota-onalar va bobo-buvilar o‘z hayotiy tajribalari, muvaffaqiyatlari va xatolari orqali farzandlariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadilar. Tarbiya jarayoni – bu nafaqat nazariy bilimlarni uzatish, balki hayotiy ko‘nikmalar, axloqiy tamoyillar va sabr-toqat kabi fazilatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda oilaning katta yoshli a’zolari yosh avlodga o‘zlarining shaxsiy tajribalari orqali dars berib, ularni hayotga tayyorlaydilar. Natijada, yoshlar mustaqil, halol va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllanadilar.

O‘zbek oilalarida folklor, hunarmandchilik, urf-odatlar va diniy qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tib keladi. Bu madaniy meros milliy o‘zlikni anglash, shaxsiy va jamoaviy identifikatsiyani mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Folklor asarlari, bayramlar, an’anaviy marosimlar va hunarmandchilik usullari yosh avlodga o‘ziga xos madaniy boyliklarni yetkazib beradi. Shu bilan birga, madaniy merosning uzatilishi zamonaviy tendensiyalar va texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, har bir yangi avlod uchun yangilangan, ammo ildizlari bo‘lgan qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Avlodlararo uzluksizlik orqali yoshlar o‘z oilalariga nisbatan ijtimoiy mas’uliyatni anglay boshlaydilar. Oilaning barqarorligida bu hissiyot oilaviy birlik va yordam berish ruhiyatini kuchaytiradi. Farzandlar ota-onalari va katta avlod vakillarining mehnati, saboqlari va tajribalari orqali o‘z oilalari ichida bir-biriga ishonch va hurmatni his qilishadi. Bu esa kelajakda ularni jamiyatda faol, axloqiy jihatdan rivojlangan shaxslar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shunday qilib, oilaviy mas’uliyat hissi nafaqat oilani, balki butun ijtimoiy tizimni mustahkamlaydigan omilga aylanishi mumkin.[6]

Umuman olganda, avlodlararo vorisiylikning oila barqarorligidagi roli oilaviy qadriyatlar, tarbiya, madaniy meros va ijtimoiy mas’uliyat hissi orqali oila tizimini barqaror, mustahkam va kelajak avlodlar uchun barqaror poydevorga aylantiradi. Har bir jihat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning birgalikdagi ta’siri oilaviy hayotning barcha jabhalarida – shaxsiy, ijtimoiy va madaniy darajada – o‘z aksini topadi va oilaning uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi.

Oila barqarorligi va avlodlararo vorisiylik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ota-bobolarimiz qoldirgan axloqiy va ma’naviy

merosning kelajak avlodlarga yetkazilishi orqali jamiyatda mustahkam oilalar shakllanadi. Avlodlararo vorisiylikni saqlash va mustahkamlash bugungi kunda har bir oila, jamiyat va davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Oila barqarorligi ta’minlangan jamiyat esa har tomonlama rivojlanadi va barqaror taraqqiyotga erishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Komilov, R.R. (2023). Marriage: as an object of moral, religious, scientific research.

2. Komilov, R.R. (2023). Yangi O‘zbekiston ma’naviy qiyofasi rivojida milliy nikoh munosabatlarining axloqiy-estetik mohiyati. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (10), 178-181.

3. Komilov Ro‘zi Rabiyevich. (2024). O‘zbek xalqi oilaviy marosimlarining axloqiy va estetik yuksalishida ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati. international journal of science and technology, 1(15), 36-42.https://doi.org/10.1808/27rvs520

4. Komilov Ro‘zi Rabiyevich, Salimova Marjona Abdumalikovna. (2024). Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va ularning samaradorligini oshirish yo’llari // International journal of science and technology, 1(2), 22-26. https://doi.org/10.1808/29tvsc71

## QADRIYATLAR IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL OB‘YEKTI SIFATIDA

**Nuriddinova Gulshoda O‘lmasqulovna**
**SamDU Urgut filiali**
**Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti dekan o‘rinbosari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadriyatlar nazariyasining ijtimoiy-falsafiy tafakkurdagi o‘rni, ularning inson faoliyatidagi mazmun va ahamiyati tahlil etilgan. Qadriyatlarning individuallik, jamiyat taraqqiyoti, madaniyat va globallashuv jarayonlaridagi roli ko‘rib o‘tilgan. Muallif qadriyatlar va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilib, qadriyatlarning insoniyat tajribasiga asoslangan universal mezon sifatidagi ahamiyatini asoslashga harakat qilgan.

**Kalit so‘zlar:** qadriyat, ijtimoiy-falsafiy tafakkur, madaniyat, globallashuv, individuallik, jamiyat, aksiologiya.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida qadriyat tushunchasini o‘rganish masalasi markaziy tahlil ob‘yekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat jamiyatda an‘anaviy qadriyatlarga nisbatan o‘zgarayotgan munosabat va yangi qadriyatlar tizimlariga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liqdir. Ayni paytda qadriyatlar nazariyasi falsafiy va madaniy bilimlarning integratsiyasi orqali inson hayotining turli jabhalarida muhim metodologik asosga aylanmoqda.

Har bir jamiyatda qadriyatlar tizimi mavjud bo‘lib, ular iyerarxik shaklda tartiblanadi. Shunga qaramay, inson hayotida amalda faqatgina 10 - 15 atrofidagi asosiy qadriyatlar shaxsning individualligini, tanlovini, harakatlarini va

munosabatlarini belgilaydi. Bu qadriyatlar jamiyatdagi turmush tarzining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, S.Xantington o‘zining “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asarida shunday deydi: “Qadriyatlar – bu sivilizatsiyalarning asosiy ajratuvchi belgilaridir. Dunyoda globalizatsiya kuchaygani sari qadriyatlar masalasi yanada keskinlashadi” [4 - 84].

Bugungi kunda qadriyatlarni kross-madaniy (turli madaniyatlararo) tahlil qilish ijtimoiy fanlardagi dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, globallashuv jarayoni fonida qadriyatlarning milliy va umuminsoniy kontekstdagi farqlari va yaqinlashuv jarayonlari tahliliga ehtiyoj kuchaymoqda. Shuningdek, globallashuvga qarshi bo‘lgan ayrim siyosiy kuchlar bu jarayonni milliy qadriyat va madaniyatga tahdid sifatida ko‘rmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy integratsiya jarayonlari ba’zi davlatlarda “milliy o‘zlik”ning yo‘qolish xavfi sifatida baholanmoqda. Bu esa qadriyatlar masalasining faqat nazariy emas, balki amaliy siyosiy darajadagi ahamiyatini ham ko‘rsatadi.

Zamonaviy dunyodagi qadriyatlar evolyutsiyasining muhim tendensiyalaridan biri - bu individuallashtirish, ya‘ni shaxsga yo‘naltirilgan qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish g‘arbiy dunyo tajribasida keng tarqalgan bo‘lib, vesterizatsiya (ya’ni g‘arbiylashuv) jarayoni orqali globallashuvning muhim ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

D.A. Yakovlevning fikricha, inson boshqa mavjudotlardan farqli o‘laroq, atrof-muhitdagi voqealarga baho berish qobiliyatiga ega bo‘lgan mavjudotdir. Uning ta‘kidlashicha, “inson mavjudotining o‘ziga xosligi - bu dunyoga nisbatan qadriy munosabatda bo‘lishidadir” [2 - 12]. Shuningdek, u “qadriyat”ni “inson his-tuyg‘ulari va aqli tomonidan hurmatga, e’tiborga va intilishga loyiq deb topilgan narsa” sifatida talqin qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, qadriyatlar nafaqat inson faoliyatining natijasi, balki uning mazmuni, ichki mohiyati, intilish yo‘nalishini belgilovchi omil sifatida e‘tirof etiladi. Bu holat madaniyat bilan qadriyatlar o‘rtasidagi chuqur aloqani ko‘rsatadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “Madaniyat - bu insoniy faoliyatning universal asosi bo‘lib, insonning o‘z faoliyatiga, ma’no va qadriyatlar shakllanishiga insoniyatning jamlangan tajribasini asos qilib qo‘ya olish qobiliyatidir” [1 - 16-bet]. Bu yondashuvga ko‘ra, madaniyat qadriyatlarni mujassam etuvchi va ularni faoliyatda qo‘llashga yo‘naltiruvchi kuchdir. Shuningdek, qadriyatlar inson ma‘naviy olami va ongining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Qadriyatlar madaniyatning negizi, uning mazmuni va yo‘nalishini belgilovchi asosiy omildir. O‘zbekistonlik olimlardan A.S. G‘ofurov bu haqida shunday deydi: “Madaniyat va qadriyatlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Madaniyat qadriyatlar orqali namoyon bo‘ladi, qadriyat esa madaniyatning mohiyatidir”.[5 - 28]

Rus tadqiqotchisi L.V.Baeva o‘zining “Individ mavjudligining qadriyat asoslari: ekzistensial aksiologiya tajribasi” nomli asarida qadriyat fenomenining murakkab va ko‘p qatlamli mohiyatini har tomonlama tahlil qiladi. U qadriyatni shunchaki ayrim xususiyatlarning yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi tarkibiy qismlar birligi sifatida ko‘radi. Bu jihat qadriyatlarni ichki organik tuzilishga ega bo‘lgan, mustaqil va mustahkam tuzilmali

birlik - ya’ni ma’naviy “monada” sifatida talqin qilish imkonini beradi. Qadriyatni tashkil etuvchi komponentlar o‘rtasidagi aloqadorlik mexanik emas, balki murakkab ichki bog‘liqlik asosida shakllanadi.[3-60] Shu bois, qadriyat tashqi ko‘rinishda ko‘p qirrali va noaniq bo‘lib tuyulishi uning ichki murakkabligi bilan bevosita bog‘liq.

Baeva qadriyatning tuzilmasini tahlil etar ekan, uning tarkibida uchta muhim komponentni ajratib ko‘rsatadi: intensionallik (sub’yektning qadriyatga nisbatan yo‘nalganligi va maqsadliligi), ramz (qadriyatning ijtimoiy va madaniy kontekstda ifodalanish shakli) hamda tushuncha (qadriyatning intellektual mazmunini anglatadi). Shuningdek, u qadriyatlar inson hayotida va ongida namoyon bo‘ladigan uchta darajani belgilaydi: ahamiyatlilik (qadriyatning individ uchun tashiydigan ob‘yektiv ijtimoiy roli), mazmun (qadriyatning ma‘naviy-ma‘rifiy mohiyati) va kechinma (insonning ichki ruhiy holatlari orqali qadriyatni idrok etishi).[3-65] Mazkur yondashuv qadriyatlarni faqat tashqi ifoda doirasida emas, balki insonning ichki dunyosi, kechinmalari, ma’naviy tajribasi va ongiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa qadriyatlarni tushunishda aksiologik tahlilni falsafiy va psixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar ijtimoiy-falsafiy tafakkurda shunchaki nazariy tushuncha emas, balki inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti va madaniy rivojlanishning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga chiqadi. Ular insoniyatning tarixiy tajribasi, ong, ruhiyat va ijtimoiy munosabatlarning ifodasi sifatida uzviy tahlil qilinmog‘i zarur. Madaniyat va qadriyatlar o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni chuqur tushunish bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining falsafiy asoslarini mustahkamlashda muhim omildir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Аксиологическая функция философии. Учебное пособие. / Под ред. А.М. Арзамасцева. - Магнитогорск: МГТУ, 2004.

2. Ахиезер А.С., Козлова Н.Н., Матвеева С.Я. Модернизация в России и конфликт ценностей. — М.: Институт философии РАН, 1994.

3. Баева, Л.В. Ценностные основания индивидуального бытия: опыт экзистенциальной аксиологии: [монография] / под ред. Н.В. Омельченко. - М.: Прометей, 2003. — 238 с

4. Xantington S. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va yangi dunyo tartibi. – T.: Akademnashr, 2022.

5. G‘ofurov A.S. Milliy qadriyatlar va ularning global o‘zgarishlardagi o‘rni. // Falsafa va hayot, 2022, №3. – B.28.

6. Boboqulova Xurshida Erkinovna, Eshnazarov Murodjon Shuhrat o‘g‘li. "Til madaniy merosning o‘lmas tarixi." Science and innovation 3.Special Issue 34 (2024): 96-99

# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI VA MA’NAVIY-AXLOQIY MEZONLARNING SHAKLLANISHI

**Ochilov Abrorxon Qiyom o‘g‘li**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
E – mail: abrorochilov86@mail.ru

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston jamiyatida raqamli texnologiyalar ta’sirida yuzaga kelayotgan fuqarolik faolligi, davlat boshqaruvi samaradorligi hamda kibermakon sharoitida ma’naviy-axloqiy mezonlarning shakllanishi tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllanayotgan ijtimoiy ong, demokratik ishtirok va madaniy identitetning transformatsiyasini falsafiy-nazariy jihatdan yoritishga harakat qilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli transformatsiya, fuqarolik jamiyati, kibermakon, axloqiy mezonlar, axborot siyosati, O‘zbekiston, identitet, raqamli tengsizlik

## Kirish

Zamonaviy dunyo jamiyatlarida raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy va ma’muriy sohalarni, balki siyosiy madaniyat, fuqarolik jamiyati va ma’naviy qadriyatlar tizimini ham tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekistonda raqamlashtirish jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturi doirasidagi islohotlar esa davlat boshqaruvi ochiqligini ta’minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Biroq bu jarayonlar murakkab falsafiy va axloqiy muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa, kibermakon orqali tarqalayotgan axborotlar fonida milliy ong, axloqiy mezonlar va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlar qayta shakllanmoqda.[ Yusupova E. 2022]

## 1. Raqamli transformatsiya va fuqarolik jamiyati

O‘zbekiston jamiyatida raqamli texnologiyalar fuqarolik faolligini oshirishda muhim rol o‘ynayapti. Eleonora Yusupova tadqiqotlarida bu holat ijobiy baholansa-da, raqamli tengsizlik muammosi, ya’ni axborotga erkin va teng kirish imkoniyatining mavjud emasligi, haqiqiy demokratik ishtirokni cheklashi mumkinligi ta’kidlanadi. Dilmira Tuychiyeva ayollar faolligini misol qilib, raqamli imkoniyatlar orqali ijtimoiy ishtirokni kengaytirishning yangi yo‘llarini ko‘rsatadi.

## 2. Ma’naviy-axloqiy mezonlar va kibermadaniyat

Kibermakon – jamiyatning yangi kommunikatsion platformasi sifatida, milliy ma’naviyatni shakllantirishda ham salmoqli ta’sirga ega. Raqamli kommunikatsiyalar natijasida an’anaviy ijtimoiy aloqa formalarining o‘rnini tezkor va qisqa axborot almashinuv shakllari egallamoqda. Bu esa jamiyatda axloqiy filtrlash, axborotning ishonchliligi va shaxsiy daxlsizlik masalalariga e’tibor qaratilishini taqozo etadi. D.Kamalova bu jarayonda raqamli texnologiyalarning madaniy merosni asrashdagi rolini ko‘rsatadi, ammo ularning ong va identitetga ta’siri yetarlicha ochilmagan.

### 3. Axborot siyosati va demokratik ishtirok muammolari

O‘zbekiston axborot siyosati jadal raqamlashtirilayotgan bir vaqtda, ijtimoiy ishtirok shakllari ko‘paymoqda. Ammo V.Nagayev va A.Terzyan kabi tadqiqotchilar nazarida, davlat va jamiyat o‘rtasidagi tenglik hali ham zaif. Raqamli texnologiyalar yordamida axborot nazorati kuchaymoqda, bu esa ba’zida demokratik islohotlarga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, N.Borisov siyosiy ishtirokning yuzaki modernizatsiyadan nariga o‘tmasligini ta’kidlaydi. [Borisov N. 2021]

Raqamli transformatsiya O‘zbekiston ijtimoiy hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar va axloqiy mezonlarning qayta shakllanishini ham taqozo etmoqda. Ayniqsa, kibermakonning jadal kengayishi, global raqamli madaniyatning ta’siri va axborot oqimining kuchayishi jamiyatda axloqiy me’yorlar va fuqarolik mas’uliyati masalalarini yangicha tarzda ko‘rib chiqishni zarur qiladi.

Bugungi kunda yoshlar asosiy axborot manbai sifatida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqda. Bu esa ularning axborotga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish, shaxsiy daxlsizlik va ma’naviy immunitetni kuchaytirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Raqamli makon ma’lumotlar bilan birga ma’naviy tahdidlarni ham olib kirmoqda — yolg‘on yangiliklar, ekstremistik kontent, shaxsga qarshi tahqirli harakatlar kabi holatlar aynan shu sohada ko‘proq kuzatiladi. Bunga qarshi kurashishda, raqamli axloqiy tarbiya, kibermadaniyat, va ma’naviy filtrlash mexanizmlarining takomillashtirilishi nihoyatda muhimdir.

Milliy qadriyatlar zamonaviy texnologik voqelik bilan muvozanatda bo‘lishi uchun innovatsion yondashuv talab qilinmoqda. O‘zbekistonda bu borada olib borilayotgan amaliy ishlar qatorida ta’lim muassasalarida raqamli savodxonlik darslarining joriy etilishi, o‘qituvchilar va talabalar uchun onlayn xavfsizlik bo‘yicha seminarlarning tashkil etilishi, hamda axborot xavfsizligiga oid milliy strategiyalar ishlab chiqilishi misol bo‘la oladi. Bu orqali raqamli muhitda mustahkam ma’naviy-axloqiy asoslar bilan harakat qiluvchi, ongli fuqaroni shakllantirish mumkin bo‘lmoqda.

Raqamlashtirish siyosatining boshqa bir muhim jihati bu davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va fuqarolik institutlarining zamonaviy texnologiyalar orqali samarali faoliyat yuritishidir. Elektron hukumat tizimining joriy etilishi, onlayn davlat xizmatlari, raqamli arxivlar va ochiq ma’lumotlar portallari orqali fuqarolar davlat institutlariga yaqinlashmoqda. Biroq bu tizimlar samarasini oshirish uchun aholining barcha qatlamlarini teng imkoniyatlar bilan ta’minlash, raqamli tafovut muammosini kamaytirish va texnologik savodxonlikni oshirish zarur bo‘lib qolmoqda.

Ma’naviy-axloqiy mezonlarning raqamli muhitda shakllanishida OAV va blogosferaning ham roli katta. Axborotni tezkor yetkazish, ijtimoiy muammolarni ko‘tarish, jamoatchilik fikrini shakllantirishda raqamli platformalar yetakchi kuchga aylangan. Shu bilan birga, bu vositalar orqali axloqiy me’yorlar, milliy madaniyat va tarbiya masalalarini keng targ‘ib qilish imkoniyati ham kuchaymoqda. Davlatning ushbu sohaga oid siyosati, jamiyatda mas’uliyatli va madaniyatli kontent

iste’molini targ‘ib qilishga qaratilgan qadamlar bilan uyg‘unlashib borayotgan bo‘lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni faqat texnologik rivojlanish emas, balki jamiyatning madaniy, axloqiy va fuqarolik qiyofasini yangilash vositasiga aylanmoqda. Bu esa texnologiyalar va qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, raqamli ong va ma’naviy immunitetni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Shu yo‘lda olib borilayotgan siyosat va amaliy tadbirlar raqamli O‘zbekistonni ma’naviy barkamol jamiyat sari yetaklovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiyaning madaniy-axloqiy jihatlari O‘zbekiston jamiyatining yangi ijtimoiy mexanizmlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon nafaqat davlat boshqaruvi va iqtisodiyotni raqamlashtirishni, balki jamiyatda umumiy axloqiy qadriyatlar, siyosiy madaniyat va fuqarolik ongining qayta shakllanishini ham o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar zamonaviy hayotning barcha jabhalarini o‘zida mujassamlashtirgan holda, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ta’siri kengaymoqda. [Tuychieva D. 2024]

Raqamli davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yangicha shaklga kirib bormoqda. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va ularning fuqarolar bilan o‘zaro aloqalarini soddalashtirishi fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ta’minlaydi. Biroq, bu o‘zgarishlar jamiyatdagi tengsizliklarni yanada chuqurlashtirishi mumkin, chunki hamma fuqarolar bir xil raqamli resurslarga va imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli, raqamli tafovut masalalari, ya’ni raqamli infratuzilma va resurslarga nisbatan tengsizliklar hali ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Ushbu holatga qarshi kurashishda davlatning raqamli siyosati va ma’naviy-axloqiy ta’limi o‘rni muhimdir. Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, ijtimoiy axborot tarmoqlari orqali axloqiy tarbiyani oshirish va shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ko‘proq ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirish, ularning onlayn muhitdagi xatti-harakatlarini boshqarish va o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv, nafaqat raqamli texnologiyalarni qanday ishlatishni o‘rgatadi, balki yoshlarni axloqiy va ijtimoiy ongga ega bo‘lishga yo‘naltiradi. [Terzyan A. –2023]

Shu bilan birga, O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasi global miqyosda ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Global axborot tarmoqlari va transmilliy raqamli platformalar O‘zbekistonda siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ta’sir qilmoqda. Ushbu jarayonlar ichida davlatning xalqaro raqamli infratuzilma bilan integratsiyasi va axborot xavfsizligi masalalari alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston, o‘z raqamli siyosatini ishlab chiqishda xalqaro standartlarga moslashishga harakat qilmoqda, bu esa uning global raqamli jamiyatga integratsiyasini ta’minlashga yordam beradi.

Ma’naviy-axloqiy me’yorlarning shakllanishi uchun O‘zbekistonning milliy madaniyatiga va tarixiga asoslangan raqamli platformalar yaratish zarur. O‘zbekiston o‘z madaniy merosini saqlash va dunyo jamoatchiligiga tanitish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni davom ettirishi lozim. Bunda raqamli rekonstruktsiya, virtual eksponatlar, onlayn ta’lim resurslari va interaktiv muzeylar orqali milliy tarix va madaniyatni targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, raqamli transformatsiyaning ijtimoiy-psixologik ta’siri ham muhim omil hisoblanadi. Raqamli muhitda ijtimoiy tarmoqlarning roli oshgan sari, ma’lumotlarga nisbatan qayta ishlash va tanqidiy yondashuvni shakllantirish ehtiyoji kuchaymoqda. Aksariyat holatlarda, yolg‘on yangiliklar va manipulyatsiyalarga qarshi kurashishda jamiyatda ma’naviy-axloqiy ta’limning ahamiyati katta. Shu maqsadlarda, axborot texnologiyalarining salbiy ta’sirini kamaytirish va foydalanuvchilarni ongli va mas’uliyatli raqamli madaniyatga yo‘naltirish bo‘yicha keng qamrovli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. [Bakoyev M.T. va boshqalar]

**Xulosa:**

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya siyosiy, madaniy va axloqiy jihatdan murakkab jarayon bo‘lib, u nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, balki jamiyatning ongli raqamli madaniyatga moslashuvini ham taqozo etadi. Fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, axborotga teng kirishni ta’minlash va kibermakon orqali milliy axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu borada raqamli texnologiyalar faqat vosita bo‘lib, muhim natijalar esa ularning qanday ishlatilishiga bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Yusupova E. 2022 – Raqamli texnologiyalar va fuqarolik ishtiroki (ilmiy maqola)
2. Kamalova D.2020 – Madaniy merosni raqamlashtirish va milliy o‘zlik
3. Tuychiyeva D.2024 – Ayollar faolligi va raqamli transformatsiya
4. Nagayev V. 2018 – Axborot siyosati va elektron demokratiya
5. Asqarov Z. – O‘zbekiston davlatchiligi va raqamli infratuzilma
6. Borisov N. 2021–Siyosiy transformatsiya va raqamli nazorat
7. Terzyan A. 2023 - Pandemiya davrida raqamli siyosat
8. Bakoyev M.T. va boshqalar – Raqamli islohotlar va Barqaror Taraqqiyot
9. Thommandru A., Maratovich F. – Korrupsiyaga qarshi raqamli kurash


## MAHALLADA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR VA UNING IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI O‘RNI


**Yorqinjon Yuldashev,**
**Jizzax tumani “Qorayontoq” Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi,**
**mustaqil tadqiqotchi**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mahallalarning ma’naviy vazifasi, o‘z hududlarida ma’naviyat-ma’rifat masalalari bilan shug‘ullanishi, huquqiy targ‘ibot va islohotlar mazmunini xalqqa tushuntirishi, xalqning tarixiy noyob, o‘ziga xos qadriyatlarini mustahkamlash va rivojlantirish kabi dolzarb masalalarni hal etish borasidagi ilmiy fikrlar bildirilgan.



**Kalit so‘zlar.** Mahalla, ma’naviyat, ma’rifat, barqarorlik, jamiyat barqarorligi, milliy yuksalish, qadriyatlar, an’analar, huquqiy targ‘ibot, islohotlar.

Qadimdan mahalla nafaqat xalqimizni bir jamoatda yashash tarzini mustahkamlab va boshqarib kelgan, balki milliy va ma’naviy qadriyatlarimizni asrash va avloddan avlodga yetkazish borasida eng muhim maskan sifatida ham mavjud bo‘lgan. Shuning uchun ham, mahalla omili xalqimizning qon-qoniga singib ketgan, u o‘zbek xalqining yashash tarzini va ma’naviy olamini takomillashuvini o‘zida to‘la-to‘kis mujassam etgan. O‘zbek mahallasi xalqimizda oqsoqollar boshchiligida o‘ziga xos donishmandlik an’analari va tamoyillarini tashuvchisi ham hisoblanadi. Mahallada jamoatchilikning ilg‘or kuchi unda yashovchi aholining mehnatsevarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini doimiy oshib borishiga xizmat qiladi.

Mahalla jamiyatda nafaqat aholi o‘rtasida ijtimoiy vazifani bajaradi, balki, bu maskan o‘z hududida iqtisodiy va ma’naviy munosabatlarga ham yordam berib keladi. U tarixda ham, zamonaviy sharoitda hamisha o‘z tashabbuskorligi va ilg‘or innovasion g‘oyalarni yaratuvchanligi bilan boshqa institutlardan ajralib turadi. Moziydan tortib, hozirgacha davlat va jamiyat miqyosidagi ko‘pgina ezgu dasturlar, ijtimoiy, ommaviy tadbirlar, dolzarb hayotiy masalalar mahallada oqsoqollar va jamoatchilik vakillari tomonidan amalga oshirilib, hal qilib kelinmoqda. Bu an’ana hozir ham davom etmoqda, kelajakda ham vorisiylik tarzida davom etadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunida FO‘O‘Bga ta’rif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi - fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o‘z manfaatlaridan, rivojlanishining tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir” .

Mahallaning ma’naviy vazifasiga ularning o‘zlariga tegishli hududlarda ma’naviyat-ma’rifat masalalari bilan shug‘ullanish, huquqiy targ‘ibot va islohotlar mazmunini xalqqa tushuntirish, xalqning tarixiy noyob, o‘ziga xos qadriyatlarini mustahkamlash va rivojlantirish, milliy g‘oyani xalq ongiga singdirish kabi dolzarb masalalarni hal etish kiradi. Mahallada ma’naviy-ma’rifiy salohiyat juda kuchli tarzda mavjud bo‘lib, bu maskanda azaldan insonlar o‘zlarining ma’naviy va ijtimoiy tafakkur tarzi orqali yosh avlod tarbiyasiga ijobiy ta’sir o‘tkazib kelgan.

Mazkur jarayonlar mahallada ming yilliklar davomida takomillashib kelgan ma’lum qonuniyatlarga asoslanadi. Mazkur qonuniyatlar asosida mahalla instituti o‘zining ijtimoiy va ma’naviy tizimini shakllantiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi. Mahalla instituti bugungi globallashgan jarayonlar sharoitida jamiyatda ma’naviy va ijtimoiy muammolarni o‘z vaqtida hal etish uchun qulay bo‘lgan hududiy birlashma bo‘lib, xalqimiz farovonligini yaxshilashga muhim hissa qo‘shadi. A.Saidovning ta’kidlashicha, “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish to‘g‘risidagi nazariyalar mazkur boshqaruvning vujudga kelish, rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlarini hamda ulardagi mavjud muammolarni umumlashtirgan holda ochib berishga asoslangan bilimlar tizimidir. Shu o‘rinda “nazariya” so‘zining ma’nosiga oydinlik kiritish lozim bo‘ladi. Nazariya – bu jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan amaliyotning mantiqan ilmiy umumlashtirilishidir” .

O‘zbekistonning milliy yuksalishi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash tizimida yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy salohiyati, ularning ijtimoiy va huquqiy faolligining o‘rnini o‘rganish, bu jarayonda ularning har tomonlama kamolga yetishiga ijobiy ta’sir etuvchi omillarni atroflicha tahlil etish muhim hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy va ma’naviy tafakkuri, huquqiy madaniyati va fuqarolik faolligini o‘stirishda turli xil dasturlar, ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish ham mahalla rahbariyati va faollarining asosiy faoliyatiga aylanmoqda. Bu jarayonlarning samaradorligini oshirish orqali yoshlarning ma’naviy qobiliyatlari oshadi, ijtimoiy mas’uliyati yuksaladi. Shuningdek, jamiyat ma’naviy barqarorligiga to‘siq bo‘ladigan salbiy tahdidlarga nisbatan mustahkam immunitetini shakllantirishga ham asos bo‘ladi.

Ushbu ma’naviy yuksalish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat, jamoat tashkilotlari bilan o‘ziga xos hamkorlikda harakat qiladilar. Bu esa, o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va madaniy hayot tizimlarining kundan kunga progressiv asoslarda rivojlanib borishiga konstruktiv ta’sir qiladi. Shuningdek, ma’naviy tarbiya va ma’rifiy targ‘ibot ishlari o‘z navbatida yurt tinchligi, jamiyat barqarorligi, faol mehnat munosabatlari va ijodiy imkoniyatlarni oshirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, mahallada olib borilayotgan muhim ma’naviy-ma’rifiy tarbiya jarayonlari jamiyatning milliy yuksalishi va islohotlarni qo‘llab – quvvatlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda ilg‘or ziyolilar, har tomonlama ijtimoiy faol fuqarolar, turli fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi o‘zaro uyg‘unlikni ta’minlab boradi. Mahalladagi ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar o‘z navbatida jamiyat a’zolarining barcha tabaqa va qatlamlarini ijtimoiy va milliy manfaatlar doirasida birlashtirib turadi, jamiyat barqarorligiga o‘ziga xos hissa qo‘shadi. O.Hasanovning ta’kidlashicha, “Ma’naviyat umumiy ishimiz, ma’rifat asosiy maqsadimiz. Har ikkisini yangi bosqichga ko‘tarib, millat birligi yo‘lida birlashishgina samarali yechimdir” .

Mahalladagi ma’naviy tarbiya jarayonlari yoshlarni Vatanga sadoqat, insonparvarlik, tashabbuskorlik, milliy va umuminsoniy tamoyillar asosidagi qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Shuningdek, aholining ijtimoiy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamiyat istiqboli uchun doimiy kurashish, bu borada yangidan-yangi tashabbuslarni va ilg‘or g‘oyalarni ilgari surish mahalla sharoitida amalga oshiriladi. Fuqarolar yig‘ini kengashi mahalla hududida ma’naviy-ma’rifiy muhit va uni yanada barqarorligini ta’minlash borasida oqsoqollar va jamoatchilik bilan muhim bo‘lgan dasturlar va chora-tadbirlarni ijtimoiy-ma’naviy hayotga joriy etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi 2013 yil 22 apreldagi O‘RQ-350-sonli Qonuni. https://lex.uz/asts/86256.

2. Saidov A.X., Tadjixanov Y.T. “Davlat va huquq nazariyasi”, 1-qism. Toshkent. Adolat. 2001 y. - 336-b.
3. Hasanov O. Ma’naviyat umumiy ishimiz, ma’rifat asosiy maqsadimiz. https://oyina.uz/kiril/posts/2323.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY MEROSNING ROLI

**Saydiyev Suyarbek Amrullayevich**
Samarqand chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi,
Jizzax yuridik texnikumi direktorining birinchi o‘rinbosari
E-mail: e-mail-suyarbeksuyarbeksaydiyev@gamail.com

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida inson resurslarini shakllantirishda ma’naviy merosning tutgan o‘rni falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Inson kapitali faqat kasbiy malaka bilan emas, balki shaxsiy-axloqiy fazilatlar bilan ham baholanishi lozimligi asoslab berilgan. Muallif tomonidan milliy ma’naviyatning negizi bo‘lgan tarixiy meros — allomalar asarlari, urf-odatlar, qadriyatlar asosida inson resursini tarbiyalash mexanizmlari ilgari surilgan. Maqolada shuningdek zamonaviy boshqaruvda ma’naviy yondashuvlar muhim omil sifatida ko‘rilib, kadrlar siyosatida ma’naviy mezonlarning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: ma’naviy meros, inson resursi, inson resursini boshqarish, ma’naviyat, qadriyat.

XXI asrda jahon miqyosidagi taraqqiyot jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bir davrda har bir davlatning global raqobatdagi muvaffaqiyati nafaqat moddiy resurslarga, balki inson resursining darajasiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson omili asosiy markazga qo‘yilgan. Xususan, ushbu strategiyada o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash; buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish; xorijda o‘zbek tili, madaniyati va an’analarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, yurtimizning boy ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish kabi maqsadlar ilgari surilgan[130]. Bu jarayonda milliy o‘zlik, ma’naviyat va ma’rifiy merosni qayta kashf etish — zamonaviy falsafiy tahlil uchun muhim nuqtaga aylandi. Chunki ma’naviy meros — faqat o‘tmish xotirasi emas, balki inson salohiyatini shakllantiruvchi doimiy ma’naviy va ijtimoiy manbadir. Jonajon mamlakatimizning buyuk kelajagi har tomonlama barkamol, milliy

[130] https://lex.uz/docs/5841063

qadriyatlar va yuksak ma’naviy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan, zamonaviy ilmlarni egallagan, intiluvchan, iqtidorli va iste’dodli, barkamol avlodni tarbiyalab kamol toptirishga bog‘liq.

Har bir xalqning ma’naviyati, tarixi, tili va madaniyati shu xalqning o‘tmishi bilan bog‘liq. Chunki ma’lum bir xalqning bosib o‘tgan yo‘li shu millatning ma’naviyati va madaniyatining shakllanishiga muhim hissa qo‘shib, shu xalq, millatning qoldirgan ma’naviy merosi asosida ilm-fan, madaniyat va ta’lim-tarbiya shakllanib rivojlanib boradi. Bunda yozma adabiyot bilan birga eng qadimgi manbalarimizdan biri hisoblangan xalq og‘zaki ijodi asarlarining o‘rni beqiyosdir. Ushbu xalq hayotining mazmunini ifodalovchi xalq og‘zaki ijodi namunalari ajdodlardan avlodlarga o‘tib ularning tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va ularda vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon falsafasi qomusi kitobida ma’naviy merosga shunday ta’rif berilgan: ma’naviy meros — ma’naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo‘lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o‘sishi, olamni bilish va o‘zlashtirish borasidagi sa’y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuini ifodalaydigan tushunchadir.[131]

Falsafiy nuqtai nazardan, ma’naviy meros insonning ichki dunyosi — "zotiy mohiyati"ni shakllantiradi. Falsafada inson tabiati doimo "ta’lim va tarbiya" orqali yuksalishi mumkin deb qaraladi. Demak, ma’naviy meros insonni faqat axloqiy jihatdan emas, balki intellektual va falsafiy jihatdan ham boyitadi.

Ma’naviy meros yangilanmasdan to‘liq qabul qilinmaydi, balki zamon ruhiga mos tarzda qayta talqin etiladi. Bu jarayon tarixiy qadriyatlarni saqlagan holda, ularni yangi ma’naviy ehtiyojlar bilan boyitish va zamonaviy kontekstda qayta jonlantirishni talab etadi. Misol uchun, Hazrat Navoiy asarlarida ilgari surilgan fikrlar bugungi yetakchilik, xizmat madaniyati, davlatga sadoqat tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy boshqaruv texnologiyalari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ijobiy uyg‘unlikka aylantirilmoqda. Inson resurslarini rivojlantirishda qadriyatlar (mas’uliyat, halollik, adolat) zamonaviy yondashuvlar (ko‘nikmalar, kompetensiyalar, samaradorlik) bilan integratsiyalashmoqda. Bu esa ijtimoiy taraqqiyotga sifat jihatidan yangi bosqich olib keladi. Har bir insonning ma’naviy barkamolligi jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Jamiyat esa shaxsda ushbu barkamollikni tarbiyalaydigan ijtimoiy muhitni yaratishi lozim. “Ma’naviyatli inson – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi asosida inson resurslarini shakllantirish – bu faqat texnik yoki iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-ma’naviy jarayondir. Yaxshi odamlar bilan kuchli jamiyat barpo qilinadi.

Yangi O‘zbekiston falsafasi inson qadri, erkin fikr, fuqarolik jamiyati va demokratik taraqqiyotga tayangan holda, ma’naviy merosni zamonaviy hayotga integrasiyalashtirishni maqsad qiladi. Ya’ni, o‘tmishdan kelgan ma’naviy xazina —

[131] Nazarov Qiyom. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob.-T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati.2022.B.755

bugungi inson kapitali uchun "ruhiy tayanch", "ilhom manbai" sifatida xizmat qilishi kerak. Masalan, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Bahoviddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy kabi allomalarning fikrlari faqat diniy yoki adabiy emas, balki ma’naviy-ma’rifiy resurs sifatida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Ularning merosi inson fe’l-atvori, axloqi va ma’rifati uchun yo‘l-ko‘rsatkich vazifasini o‘taydi. Qomusiy olim Ibn Sino qadimgi dunyoning ulug‘ faylasuflari Aristotel va Platon singari farzandni eng avvalo jamiyatga foydali inson qilib tarbiyalanishiga urg‘u beradi. U alohida ta’kidlaydiki, farzand yaxshi ma’naviy va aqliy tarbiyani, shuningdek jamiyat va davlat oldidagi burchdorlik fazilatlarini avvalo oilasida olishi kerak, buning uchun otasi javobgardir. Ibn Sino nazdida shunday tarbiyalangan bolalar kelajakda yaxshi xulq-atvorli, ma’naviy va jismoniy jihatdan barkamol inson bo‘lib yetishib chiqadi[132].

Shuningdek, inson resurslarini boshqarish va xodimlar tanlovida ham ma’naviyat muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv quvvatlovchi va ma’no-mazmunga boy mehnat muhitini shakllantirishga alohida urg‘u beradi hamda xodimlarning farovonligi, faol ishtiroki va axloqiy xatti-harakatlarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Tashkilotlar empatiya, halollik va maqsadga yo‘naltirilganlik kabi ruhiy qadriyatlarni tatbiq etish orqali xodimlarning shaxsiy intilishlarini korporativ maqsadlar bilan uyg‘unlashtirishga intiladilar. Bu esa uyg‘un va samarali ish muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Xodim tanlashda (rekrutingda) ma’naviyatga asoslangan strategiyalar nomzodning tashkilot qadriyatlari va missiyasiga mos kelishini ustuvor deb biladi, bu esa madaniy moslikni ta’minlab, uzoq muddatli sadoqatni kuchaytiradi. Ushbu yaxlit (holistik) yondashuv an’anaviy natijaviylik va malaka mezonlaridan tashqariga chiqib, bo‘lajak xodimlarning axloqiy va hissiy jihatlarini ham hisobga oladi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ruhiy qadriyatlarni qadrlovchi tashkilotlarda ishga qoniqish darajasi oshadi, xodimlar almashinuvi kamayadi va umumiy natijadorlik yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari, ma’naviy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan rahbarlar ishonch, hamkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, bu esa barqaror muvaffaqiyatga yo‘l ochadi[133].

Bugungi globallashuv davrida milliy o‘zlikni saqlash va inson kapitali raqobatbardoshligini ta’minlash — strategik vazifadir. Ma’naviy meros inson salohiyatini quyidagi jihatlardan kelib chiqib shakllantiradi: Intellektual tarbiya – o‘zbek falsafasi va adabiyotida aql, ilm va hikmatning alohida o‘rni bor. Ilmga muhabbat, bilimli insonga ehtirom, "farosatli inson" ideali orqali yangi avlod shakllantiriladi. Axloqiy tarbiya – ma’naviy merosda oilaning muqaddasligi, katta-kichikka hurmat, insof, adolat, sabr kabi tushunchalar insonni barkamollik sari yetaklaydi; Fuqarolik tarbiyasi – ma’naviy merosimizda vatandoshlik, halollik va vijdonlilik g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi. Bular Yangi O‘zbekiston fuqarosining yangi

---

[132] Rahmonberdiyeva N. Kuyliyev T. Маънавий мерос ва соғлом авлод тарбияси тўғрисидаги айрим мулоҳазалар// “Ma’naviy barkamol yoshlar yangi O‘zbekiston bunyodkori” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024-yil 16-may/b-750

[133] Siddhant Mishra Spirituality in Human Resource management & Recruitment// International Journal For Multidisciplinary Research 6(3) July 2024.P

modeli uchun asos yaratadi; Shaxsiy mas’uliyat hissini shakllantirish – ma’naviy meros falsafasida inson o‘z amali uchun mas’ul shaxs sifatida qaraladi. Bu qarash jamiyatda ijtimoiy mas’uliyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin: Milliy qadriyatlarni asosiy ustuvorlik sifatida belgilovchi strategiyalarni ishlab chiqish; Ma’naviy tarbiya elementlarini davlat xizmatida yo‘lga qo‘yish; Ta’lim tizimida milliy meros asosida o‘quv dasturlarini boyitish; Ishga qabul qilishda ma’naviy uyg‘unlik mezonlarini kiritish; Milliy-ma’naviy meros va inson kapitali o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganish. Shunday qilib, inson resurslarini boshqarish va xodim tanlashda ma’naviyatni integratsiya qilish strategik ustunlik sanaladi, u bardavom, ruhiy jihatdan motivatsiyalangan va axloqiy asosga ega ishchi kuchini shakllantirishga yordam beradi. Bu yangi e’tibor jamiyatda inson salohiyatini faqat iqtisodiy hissa bilan emas, balki ichki qoniqish va tashkilot muvaffaqiyati o‘rtasidagi bog‘liqlik sifatida baholashga o‘tayotgan kengroq o‘zgarishlarning ifodasidir. Ruhiy-axloqiy o‘lchovni rivojlantirish orqali tashkilotlar ko‘proq insonparvar, adolatli va gullab-yashnagan ish muhitini barpo eta oladi.

Ma’naviy meros — Yangi O‘zbekistonning inson resurslarini shakllantirishda faqat tarbiyaviy emas, balki falsafiy-ijtimoiy, ma’rifiy va intellektual vositadir. U insonni mukammallik sari yetaklaydigan ma’naviy platformadir. Demak, biz faqat texnologik rivojlanish orqali emas, balki ma’naviy meros asosida shakllangan barkamol shaxslar orqali Yangi O‘zbekistonni qurishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Nazarov Qiyom. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob.-T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.2022.B.755

2. Rahmonberdiyeva N. Kuyliyev T. Маънавий мерос ва соғлом авлод тарбияси тўғрисидаги айрим мулоҳазалар// “Ma’naviy barkamol yoshlar yangi O‘zbekiston bunyodkori” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2024-yil 16-may/b-750

3. Siddhant Mishra Spirituality in Human Resource management & Recruitment// International Journal For Multidisciplinary Research 6(3) July 2024.P

4. https://lex.uz/docs/5841063

## O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SOHASIDAGI VORISLIK JARAYONLARI

**Sharipova Shaxzoda Xasanovna**
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: shakhzoda-sharipova@bk.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida milliy turizm sohasining jadal rivojlanish jarayonida tarixiy-madaniy merosga, xususan, Buyuk Ipak yo‘li an’analariga bo‘lgan e’tibor kuchaygani tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan yirik markazlar — Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda amalga oshirilayotgan islohotlar va loyihalar orqali milliy turizmning jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasi ortib borayotgani tahliliy tarzda ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Buyuk Ipak yo‘li, milliy turizm, Ipak yo‘lini qayta tiklash konsepsiyasi, turizmni rivojlantirish siyosati, boy madaniy meros va milliy an’analar.

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy va xalqaro munosabatlarning rivojlanishida, sayyohlik aloqalarining taraqqiy etishida Buyuk Ipak yo‘li muhim ahamiyat kasb etib kelgan. XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida zamonaviy xalqaro munosabatlarda Ipak yo‘lini qayta tiklash va shu asosda davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy-siyosiy, madaniy, transport-kommunikasiya munosabatlarini Ipak yo‘li konsepsiyasi doirasida muvofiqlashtirish masalasiga katta e’tibor qaratila boshlandi. Hozirgi davrda Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan hududlarni o‘zaro bir-biri bilan iqtisodiy, transport-kommunikasiya jihatidan bog‘laydigan xalqaro hamkorlik dasturi TRASEKA qabul qilingan bo‘lib, “Yevropa-Kavkaz-Osiyo” transport yo‘lagi O‘zbekistonda ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. TRASEKA dasturining amalga oshishi Xitoyning “Bir makon – bir yo‘l” strategiyasini amalga oshirish rejalari bilan bog‘liq bo‘lib, Xitoydan Yevropaga yuklar va yo‘lovchilar harakat qiladigan transport marshruti – “yangi Ipak yo‘li”ning ochilishi Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘rtasidagi turizmning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

“Bir makon bir yo‘l” loyihasining asosiy maqsadlaridan biri global erkin savdo tartibini qo‘llab-quvvatlash, Osiyo, Yevropa va Afrika mamlakatlari o‘rtasida integrasiyani kengaytirishga qaratilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, butun loyihaning taxminiy iqtisodiy ko‘lami 21 trillion AQSh dollarini tashkil qiladi. Bugungi kunda 100 dan ortiq davlat loyihada qatnashish istagini bildirgan, 40 dan ziyodi Xitoy bilan hamkorlik qilish bo‘yicha bitim imzolagan[134]. “Bir makon bir yo‘l” loyihasining hayotga tatbiq etilishi bugungi kunda xalqaro maydonda turizmning rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston turizmni rivojlantirish bo‘yicha juda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, respublikada 7,3 mingdan ziyod madaniy meros obyektlari mavjuddir. Ushbu madaniy meros obyektlaridan 209 tasi YuNESKOning Butunjahon merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, bundan tashqari O‘zbekistonda 11 ta milliy bog‘ va davlat qo‘riqxonasi, 12 ta qo‘riqxona, 106 ta muzey va sayyohlarni o‘ziga jalb qilishi mumkin boshqa ko‘plab obyektlar ham mavjuddir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mamlakatning turizm salohiyatini tubdan yangilash, turizm infrastrukturasini shakllantirishda yagona davlat siyosatini amalga oshirish, xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini keng targ‘ib qilish, mamlakatimizda xavfsiz turizmni ta’minlash, milliy turizm mahsulotlarini xalqaro turizm bozoriga olib chiqish kabi masalalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Milliy turizm deganda bir mamlakat turistlarining boshqa xorijiy mamlakatlarga borib kelishi va o‘z mamlakatining ichida bir joydan ikkinchi joyga turistik maqsadlar

[134] Аббасов Б.С., Мелиев М., Эшмаматов Э.Д. Буюк Ипак йўли: ўтмиш, бугун ва келажак. Шарқий Осиё гуманитар жамиятининг 20-халқаро конференцияси. Осиё мамлакатлари тамаддуни ва Ипак йўли. Халқаро илмий анжуман материаллари. Самарқанд 2019 йил, 355-356 бетлар.

bilan harakat qilishi tushuniladi[135]. O‘zbek xalqining tarixiy moddiy va ma’naviy merosi, urf-odat va an’analari, marosim va bayramlari, tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, takomillashib, ajdodlardan avlodlarga o‘tib hozirgi davrga qadar yetib kelgan bo‘lib, bu jarayonga madaniyatlararo muloqotning muhim omili sifatida Buyuk Ipak yo‘li katta ta’sir ko‘rsatgan.

Buyuk Ipak yo‘lining sivilizasiyalar tarixida o‘ziga xos o‘rnini xisobga olgan holda YuNESKO “Ipak yo‘li – muloqot yo‘li” dasturini qabul qilib, 1990 yil oktyabrda Samarqandda “O‘tmishda va o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo‘lining rivojlanishi va shakllanishi”, 1994 yil oktyabrda “Buyuk Ipak yo‘lida turizm taraqqiyoti”, 1996 yil 21-22 fevralda Buxoroda “Ipak yo‘lini qayta tiklash”, 2019 yil 21-23 fevral kunlari Buxoro va Samarqandda I Xalqaro ziyorat turizmi forumi, 2019 yil 11-13 iyul kunlari Marg‘ilonda “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro musiqa festivali, 2019 yil 24-25 may Samarqandda “Buyuk Ipak yo‘li chorraxasida ziyorat turizmining renessansi” kabi xalqaro siyosiy va ilmiy anjumanlar tashkil etildi. O‘zbekiston tarixiy va zamonaviy Ipak yo‘lining markazidagi, geosiyosiy va geoiqtisodiy muhim makonda joylashgan bo‘lib, turizmni rivojlantirish masalasida katta salohiyatga egadir. O‘zbekiston Ipak yo‘li va ipak yo‘li an’analarini qayta tiklash va rivojlantirishning yirik tashabbuskori va tarafdori bo‘lib kelmoqda[136].

Turizm sohasida almashinuvlarni rivojlantirish, buning uchun “Ipak yo‘li” brendi ostida qo‘shma dastur va mahsulotlarni ilgari surish maqsadida dunyo tamaddunlari va madaniyatlarining tarixiy chorrahasida joylashgan Samarqandda Ipak yo‘li Xalqaro turizm assosiasiyasini tashkil etish tarafdorimiz. Ushbu tashabbus doirasida mamlakatlarimizda har yili “Bir makon – bir yo‘l” turistik forumlarini o‘tkazishni taklif qilamiz[137], - deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 27 aprelda Pekin shahridagi “Bir makon – bir yo‘l” ikkinchi xalqaro forumidagi nutqida.

O‘zbekiston hududidagi qadimgi me’moriy obidalar, turli maqsadlar uchun xizmat qilib kelgan turistik obyektlar, topilayotgan osori-atiqalar xalqimizning boy tarixga va yuksak ma’naviyatga ega ekanligini ko‘rsatib, fuqarolarimiz ongi va qalbida milliy g‘urur va iftihor tuyg‘ularining yuksalishiga xizmat qiladi. O‘zbekistondagi muqaddas qadamjolar ziyorat turizmining rivojlanishiga xizmat qilsa, boy tarixiy ma’naviy meros, qo‘lyozma asarlar, muzeylar ma’rifiy turizmning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Buyuk Ipak yo‘lida sayohatchilarga yo‘l turistik xizmatlarning butun bir kompleksi ko‘rsatilgan[138].

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Tarixiy merosni asrab-avaylash,

---

[135] Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. Тошкент, 2007 йил, 6 бет.

[136] Хашимов Ш.Ж. Буюк Ипак йўли миллий туризм ривожланишининг муҳим асоси. Буюк Ипак йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар: тил, таълим ва маданият. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд-Шанхай. 2019 йил, 191 бет.

[137] Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил 308-309 бетлар.

[138] Хашимов М. Самарқанд Буюк Ипак йўлининг муҳим бўғини.Самарқанд .2017 йил 35 бет.

o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir[139].

Bugungi kunda O‘zbekistonda turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, davlat muzeylari, galereyalar, madaniy meros obyektlari va qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni reklama qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va an’analarini to‘liq saqlab qolish va ko‘paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’atini yanada rivojlantirish, milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosimlarni tiklash va takomillashtirish, ichki va tashqi turizmni yanada yuksaltirishda “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali”, “Maqom san’ati festivali”, “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivali, “Xalqaro hunarmandchilik festivali”, “Buyuk Ipak yo‘li chorraxasida ziyorat turizmining renessansi” xalqaro anjumani, Xalqaro turizmi forumi, “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivali kabi milliy musiqamiz, madaniyatimizni targ‘ib va tashviq qiluvchi tadbirlar o‘tkazilib, O‘zbekistonda milliy turizmning taraqqiy etishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, iqtisodiyotning tez o‘sishini ta’minlashda uning rolini oshirish va shu orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, dunyo bozorida milliy turistik mahsulot salohiyatini yuksaltirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda turizm infrastrukturasini rivojlantirishda turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda turizmning o‘ziga jalb etuvchi vositasi sifatida axborot bozori ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish, axborot texnologiyalari salohiyatidan samarali foydalanish, milliy turizmni rivojlantirishda reklamadan unumli ravishda foydalanish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Turizm xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha xalqaro global axborot tizimlariga ulanish va lokal servislarni yaratish, internet tarmog‘ida mamlakatimizning turistik imkoniyatlari haqidagi axborot resurslarini kengaytirish zarurdir. O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masala bo‘lib, turizm industriyasini rivojlantirish turistik resurslardan unumli foydalanish va xizmat ko‘rsatadigan infratuzilmani yuqori saviyaga olib chiqishni nazarda tutadi. Zamonaviy mehmonxonalar qurish, sayyohlarga qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, turistik shaxobchalarni yanada kengaytirish, turoperatorlikni rivojlantirish, mehmonxona hamda restoran xizmatlarini xalqaro talablar darajasiga yetkazish, ekoturizmni izchil yo‘lga qo‘yish uchun tabiiy iqlim imkoniyatlaridan keng foydalanish, tarixiy yodgorliklar va obidalarni qayta ta’mirlab, chet ellik hamda mahalliy sayohatchilarni ularga jalb etish, turistlarga transport, tarjimonlar va ekskursovodlar xizmatlari ko‘rsatishni yaxshilash hamda turizmni rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlash turizm sohasini rivojlantirishga tizimli tarzda yondashuvni talab qiladi. O‘zbekistonda turizm infrastrukturasini shakllantirish jarayonida alohida e’tibor qaratilayotgan jihatlardan biri bu turizmning xavfsizligi masalasidir. Xavfsiz turizm deganda faqatgina jismoniy xavfsizlik tushunilmaydi,

[139] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2017 йил, 29 бет.

balki xizmatlar koʻrsatish sohasidagi, tibbiy xizmat koʻrsatish sohasidagi xavfsizlik ham shu tushunchaga taalluqlidir.

Shunday qilib Oʻzbekistonda milliy turizm tizimining takomillashib borishi iqtisodiyotga ham, siyosatga ham, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayot sohalariga ham oʻzining ijobiy ta'sirini koʻrsatmoqda. Oʻzbekistonda milliy turizmni rivojlantirishda turizm sohasida mehnat qilayotgan hodimlardan innovasion faoliyat va kreativ tafakkur talab etilib, bugungi kunda Oʻzbekistonda aniq maqsadli va tizimli chora-tadbirlar tufayli turizmning eng ilgʻor infratuzilmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Oʻzbekistonda zamonaviy turizm industriyasini shakllantirish uchun koʻplab imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilmoqda. Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirishga kompleks yondashilib, zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi obyektlari shakllantirilmoqda. Milliy turizmni rivojlantirishda, turizm infrastrukturasini shakllantirishda tadbirkorlar faolligini ragʻbatlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirishni tizimli tarzda oʻrganishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qoʻymoqda.

Oʻzbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga katta e'tibor qaratilib, mamlakatimizning bir qancha oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida turizm, xalqaro turizm, turizm menejmenti, turizm operatorligi xizmatlarini tashkil etish, turizm marketingi kabi oʻquv yoʻnalishlari boʻyicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda. Oʻzbekistonda turizm sohasini kompleks tarzda rivojlantirishda unga xizmat qiladigan kadrlar salohiyatini yuksaltirishga, servis xizmatini tashkil qilish va malakali gidlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda tarixiy moddiy va ma'naviy meros, folklor, milliy kiyim-kechaklar, urf-odat va an'analar, marosim va bayramlar, me'moriy obidalar, milliy hunarmandchilikni tiklash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Oʻzbek xalqining tarixiy moddiy va ma'naviy merosi, urf-odat va an'analari, marosim va bayramlari, tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, takomillashib, ajdodlardan avlodlarga oʻtib hozirgi davrga qadar yetib kelgan boʻlib, bu jarayonga madaniyatlararo muloqotning muhim omili sifatida Buyuk Ipak yoʻli katta ta'sir koʻrsatgan.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda ishbilarmonlik, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, munosib hayot darajasini ta'minlash, yangi ish oʻrinlarini yaratish, turizm infrastrukturasini yanada takomillashtirish, sohani rivojlantiradigan mutahassis kadrlar tayyorlash tizimini yanada yuksaltirish, xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash, mamlakatimizga keladigan sayyohlar uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan masalalar boʻlib hisoblanib, Buyuk Ipak yoʻli an'analarini qayta tiklash bu sohada ijobiy natijalarni keltirib chiqadi. Jahon xalqlari oʻrtasida oʻzaro tinchlik-totuvlik, hamkorlik va hamjihatlik munosabatlarining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi. Buyuk Ipak yoʻli an'analarini qayta tiklash Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashib borishiga yordam beruvchi muhim omillardan biridir.

## ADABIYOTLAR:

1. Abbasov B.S., Meliyev M., Eshmamatov E.D. Buyuk Ipak yo‘li: o‘tmish, bugun va kelajak. Sharqiy Osiyo gumanitar jamiyatining 20-xalqaro konferensiyasi. Osiyo mamlakatlari tamadduni va Ipak yo‘li. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Samarqand 2019 yil, 355-356 b.

2. Pardayev M.Q., Atabayev R., Pardayev B.R. Turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari. Toshkent, 2007 yil, 6 b.

3. Xashimov Sh.J. Buyuk Ipak yo‘li milliy turizm rivojlanishining muhim asosi. Buyuk Ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va madaniyat. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand-Shanxay. 2019 yil, 191 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. Toshkent, O‘zbekiston, 2019 yil 308-309 betlar.

5. Xashimov M. Samarqand Buyuk Ipak yo‘lining muhim bo‘g‘ini.Samarqand .2017 yil 35 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. Toshkent, O‘zbekiston, 2017 yil, 29 b.

## MAQSUD SHAYXZODA SHE’RIYATIDAGI BADIIY OBRAZ XARAKTERINI YORITISHDA SINONIMLARNING AHAMIYATI

**Maxanova Feruza Mamarajabovna,**
**O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mustaqil izlanuvchisi**
**Shahrisabz davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sinonimlarning lingvopoetika badiiy matn tilini o‘rganishning maxsus usuli sifatida tilning barcha darajalari, xususan Maqsud Shayxzoda she’riyatidagi badiiy obraz xarakterini yoritishda sinonimlarning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinonimlar, leksema, leksek va konteksual sinonimlar, badiiy obraz, xarakter, lingvopoetika.

Maqsud Shayxzoda she’riyati tili sinonimlarining badiiy obrazlar xarakterini tasvirlash masalasining lingvopoetik ahamiyati ilk marta tizimli ravishda tadqiq qilinmoqda. Lingvistik tahlillarga asoslangan holda, sinonimlarning obraz yaratishdagi ekspressiv va estetik funksiyalari, shuningdek, ularning ma’noviy va stilistik xususiyatlari yuqoridagi bob va fasllarda o‘rganildi. Ushbu faslda ijodkor asarlaridagi sinonimlarning obraz xarakterini yoritishning lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Lingvopoetika badiiy matn tilini o‘rganishning maxsus usuli bo‘lib, u tilning barcha darajalarida (fonetik, leksik, grammatik, stilistik) badiiy vositalarning ekspressiv va estetik funksiyalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Rus olimi L.I.Timofeev obrazga shunday ta’rif beradi: “Obraz – to‘qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog‘da konkret manzarasidir[4]”. Badiiy obraz – bu yozuvchi tomonidan so‘zlar, ifodalar va stilistik vositalar yordamida yaratilgan, so‘zning hosila ma’nolari

asosida yuzaga keladi, lekin undagi ba’zi jihatlarni aks ettiradigan, o‘quvchida aniq taassurot qoldiradigan tasvirdir. Lingvopoetik yondashuvda obrazning yuzaga kelishi va rivojlanishida tilning o‘ziga xos roli va ahamiyati o‘rganiladi. Obrazning tarkibiy elementlari, ularning o‘zaro munosabati, stilistik ranglari va emotsional ta’siri til vositalarining tanlanishi va qo‘llanilishi bilan chambarchas bog‘liq. “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o‘sha borliqning oddiygina aksi emas, yo‘q, u borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir… badiiy borliqdir[1]”. Ana shu “badiiy borliq”ning asosiy obyektlaridan biri sinonimlar hisoblanadi. Ular bir xil yoki yaqin ma’noga ega bo‘lgan, lekin emotsional-ekspressiv va stilistik jihatdan farq qiladigan so‘zlar bo‘lganligi sababli badiiy tus berish xususiyatiga ega.

Badiiy asarlarda sinonimlarning maqsadli ravishda tanlanishi obrazning xarakterini aniqlashtirish, uning xususiyatlarini yanada chuqurroq ifodalash va o‘quvchida kerakli taassurotni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu o‘rinda bir narsaga oydinlik kiritib olishimiz zarur. Sinonimlarning asosiy ekspressiv funksiyasi obrazning emotsional va stilistik rangini boyitishdan iborat.

Masalan, “yig‘lash”, “ko‘z yosh to‘kish”, “faryod qilish” – bularning barchasi bir xil hodisani – yig‘ini ifodalasa-da, lekin ularning ekspressivligi va stilistik rangi turlicha. “Yig‘lash” neytralroq so‘z, “ko‘z yosh to‘kish” biroz badiiy obrazning holatini, “xursandchilik yoki qayg‘uda”gi ko‘z yoshni yorqinroq ko‘rsatishga, “faryod qilish” esa obrazning ruhiy holatidagi “azoblanish” holatini aks ettirishda emotsional bo‘yoqqa ega. Misol tariqasida, qahramonning qayg‘usini tasvirlashda yozuvchi “ko‘z yoshlari sel bo‘lib quyildi” kabi sinonimlarni qo‘llashi mumkin. Har bir variant obrazga turli xil emotsional bo‘yoq va “axborot” beradi va uning xarakteriga ta’sir qiladi. Birinchi variant nisbatan xursandchilik va sokin qayg‘uni, ikkinchisi kuchli his-tuyg‘ularni, uchinchi variant esa chuqur va iztirobli qayg‘uni ifodalaydi. Shuning uchun, yozuvchi qaysi obrazni yaratishni istagani, qaysi his-tuyg‘ularni o‘quvchida uyg‘otishni maqsad qilganiga qarab sinonimlarni tanlaydi.

Yozuvchi obrazning stilistik xarakterini aniqlash uchun sinonimlarni maqsadli ravishda tanlaydi. Masalan, qahramonning ichki va tashqi obrazini tasvirlashda yozuvchi uning axloqiy darajasini, ijtimoiy holati va psixologik holatini hisobga olib, mos keladigan sinonimni tanlashi kerak.

Shoirning “**Dengizning axloqi”** she’rida shunday misralarga guvoh bo‘lamiz.

Dengizdek **jo‘shqin** bo‘l, **jo‘mard** bo‘l, qo‘zim!
Insonga **bag‘rikeng** bo‘lmoqlik lozim.
Ablahlar qo‘liga bermagin kalit,
Yuraging eshigin ularga bekit!

Mazkur misrada insonlarga xos bo‘lgan ma’naviy sifatlardan biri “bag‘rikenglik”, “qo‘li ochiqlik”, “mardlik”, “himmatlilik”, “”tantilik” kabi xususiyatlarini o‘zida namoyon qiluvchi obrazlarni gavdalantirish uchun “jo‘shqin va jo‘mard” so‘zlaridan foydalangan. O‘TIL da “**JO‘MARD** q. **juvonmard 1.** Jo‘mard jumhuriyatim, bobo yurtim, hey, Jo‘mard jumhuriyatim, ona sutim, hey! Mirtemir. Bobuming shunday jo‘mard yigitning shahdini qaytarishga nima uchundir ra’yi bo‘lmadi. X.Sultonov, Bir oqshom ertagi”. Ushbu ta’rifdan mazkur

leksemaning ma’nosi yaqqol anglashilmaydi. Sababi leksemaning illyustrativ misollar bilan chegaralanganligi o‘quvchida biroz tushunmovchilik uyg‘otishi mumkin. Mazkur leksema sinonimlarning izohli lug‘atida bosh so‘z sifatida ham aks ettirilmagan. Mazkur leksema “Kishi ismlari lug‘ati”da “Ushbu Jo‘mard ismi asosan o‘g‘il bolaga qo‘yiladi va bu ism fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: saxiy, qo‘li ochiq, saxovatli, mard, dangalchi [2.,–B.529]” ma’nosini anglatadi.

Badiiy obraz yaratish ko‘pincha leksik-semantik maydonning bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu maydon obrazga bog‘liq bo‘lgan bir-biriga yaqin ma’noga ega so‘zlar va ifodalarning yig‘indisidir. Shoir misrada “jo‘shqin”, “jo‘mard”, “bag‘rikeng” leksemasini o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llab shaxs ma’naviy sifatlarini ochib berishga va **AXLOQLI** odam obrazini yaratishga harakat qiladi. Sinonimlar esa bu maydonning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Adibning “G‘afurga xat” she’rida G‘afur G‘ulomning xotirasiga bag‘ishlaydi. Shayxzoda ijodkor obrazini so‘z orqali va sinonimlardan foydalanib go‘zal ta’riflaydi.

**Tinmas, tolmas, jonparvar** ko‘z bordi senda,
Qirq shoirga yetarlik so‘z bordi senda.
Hofizangga yuz ming bayt, o‘ng ming Latifa,
**Ming** sarguzasht**, yuz** qissa, **sonsiz** sahifa…
**Mutoyiba, hajvlar**, pandu tanbehlar,
Yashin kabi chaqnagan keskin tashbihlar,
Hammasi senda edi va sendan edi,
**Idrokingdan, zehningdan**, ko‘ksingdan edi.

Mazkur misralar orqali ijodkorning ne qadar iste’dodli va keng qirrali ijodkor ekanligini anglash mumkin. Badiiy obrazlar xarakterini yoritishda sinonimlarning ahamiyati juda katta. Ular obrazning emotsional va stilistik rangini boyitadi, uning xususiyatlarini aniqlashtiradi va o‘quvchida kerakli taassurotni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, “**tinmas, tolmas, jonparvar**” leksemalari kontekstual sinonim vazifasini bajarib, shoirning birgina jonparvar so‘zi G‘afur G‘ulom obrazini yaqqol aks ettiradi. O‘TILda “**JONPARVAR** f. т- jonbaxsh, hayotbaxsh] Insonga ruh bag‘ishlovchi, ruhlantiruvchi. Kechki paytlarda, ayniqsa, hamma sozandalaming musiqa sadolari har tomonda jaranglab, jonparvar yallalar falakka chirmashar edi. Gazetadan [5] ma’nosini bildiradi. Ko‘rinadiki, “tinmaslik, tonmaslik” shoirdagi ruhiy tetiklik va o‘zgalarga ruhiy madad beradigan fazilat egasi sifatida gavdalanadi. Yoki she’rdagi “ming, yuz va sonsiz” so‘zlari ijodkorning “ijod xazinasi” boy ekanligidan, sermahsul ijod qilganligidan darak beradi. **Mutoyiba, hajv** hamda **idrok, zehn** leksemalari o‘zaro sinonim munosabatga kirishib, obrazning shaxsiy sifatlarini yuzaga chiqargan.

Oh, do‘stni ko‘mmoqlik ko‘p og‘ir motam,
Xususan bo‘lsa **u zo‘r , ulkan** odam, –
Motamning o‘lchovi sig‘mas yurakka,
Faryodlar achchig‘i tepar ko‘krakka.

Mazkur misra Shayxzodaning “Ayriliq” (Usmon Yusupov xotirasiga) she’ridan keltirilgan bo‘lib, Usmon Yusupovga nisbatan ***zo‘r va ulkan*** sinonimlarini

qo‘llagan. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da mazkur sinonimlarning paradigmasi *katta, ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik gigant* sinonimlari bilan aks ettirilgan va mazkur lug‘atda “odatdagidan hajm-o‘lchovi ortiq, kichikning aksi [2.,–B.663]” ma’nosi bilan ifodalangan. Ma’lumki, O‘TILda *zo‘r* leksemasiga shunday ta’rif berilgan.

“**ZO‘R** [f. t - kuch, qudrat; urinish; tazyiq, zulm]

**1** Kuch-quvvat, qudrat; ta’sir.

**2** Kuchli, shiddatli zarb; kuchlilik.

**3** Zo‘rlik, zo‘ravonlik.

**4** Iqtisodiy jihatdan baquvvat, qudratli; katta iqtisodiy kuchga ega bo‘gan.

**5** sft. Katta, ulkan, buyuk; kuchli.

**6** Kuchli, shiddatli; keskin.

**7** Og‘ir, qattiq, iztirobli.

**8** Mazmun jihatdan pishiq-puxta, qiziqarli; sifat, maza jihatdan afzal, yaxshi. Katta mahoratga, tajribaga ega bo‘lgan; o‘z ishi, kasbining ustasi bo‘1gan, mohir, kuchli; zabardast”[5]. Ko‘rinib turganidek, zo‘r leksemasining semantik strukturasi keng bo‘lib, matnda yana turli pragmatik xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Shoir mazkur misrada Usmon Yusupovni “katta mahoratga, tajribaga ega bo‘lgan, o‘z ishi, kasbining ustasi bo‘lgan, mohir, kuchli, zabardast” inson ma’nosida zo‘r leksemasini qo‘llaydi. Chunki zo‘r va ulkan leksemalarining denotat ma’nosi narsa-hodisalarning hajm-o‘lchov ma’nosiga nisbatan qo‘llanadi. To‘g‘ri, mazkur sinonimik paradigmada ulkan leksemasi “eskirgan”lik xususiyatiga ega, ammo O‘TILda “**ULKAN 1.** Egallagan o‘rni, hajmi g‘oyat yirik, juda katta, buyuk, **2.** Ko‘lami, qamrovi, qudrati jihatdan juda katta; buyuk. **3.** ko‘chma Mazmun-mundarijasi, ahamiyati jihatidan katta, yirik, **4.** Nom, e’tibor qozongan; buyuk, ulug‘[3]” ma’nolari bilan izohlangan. Mazkur sinonimlardagi to‘rtinchi ma’no misradagi ma’no uchun xoslangan. Demak, yuqoridagi misrada obrazning shaxsiy xususiyatlarini ulug‘lashga qaratilgan sinonimlar “katta mahoratga, tajribaga ega bo‘lgan, o‘z ishi, kasbining ustasi bo‘lgan, mohir, kuchli, zabardast” hamda “e’tibor qozongan; buyuk, ulug‘ inson” ma’nolarini anglatish uchun qo‘llaydi.

Adib she’rlarida inson xulq-atvori, ma’naviy sifatlari va insoniy his-tuyg‘ularini aks ettirish uchun sinonimlarning stilistik xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llaydi. “Hofizning ikkinchi umri” she’rida Maqsud Shayxzoda qoshiqchi obrazini “chizar” ekan uslubiy bo‘yoqdor sinonimlardan unumli foydalangan. She’rda “mardonavor, savash, hurriyat, shahid, tabarruk, hofiz, chaman, nag‘ma, chah-chah, jo‘shqin, turq, mug‘anniy, mahv bo‘lsin” sinonimlaridan obrazlar xususiyatini yaratishda mohirona foydalangan.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dilmurod Quranov. Adabiyotshunoslikka kirish - Toshkent. “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”. 2004, 242-bet.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. Toshkent: O‘zMU nashriyoti. 6-jildli 5-jild.

3. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. –Б. 119

4. Тимофеев Л. И. Основы теории литературы. -М. Просвещение. 1971, 62.
5. https://uzsmart.ru/ismlar-manosi/ism/17321.html

## YOSHLAR –YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI

**Omonturdiyev Orzu G‘afforovich**
**Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti o‘qituvchisi**
Orzubekomonturdiev05@gmail.com

**Annotatsiya.** Milliy mentalitetidagi paradigmalar o‘zgarishlar, bu jarayonda yoshlarni ijtimoiy va ma’naviy qiyofasini hamda ertangi kun istiqbolini belgilash masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** taraqqiyot, yoshlar, faollik, intellektual salohiyat, falsafiy qunyoqarash.

Aynan yoshlar fuqarolik jamiyatining eng faol qismidir, masalan yoshlar turli sohalarda innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy qilishga ko‘proq moslashgan bo‘ladi, ular jamiyatga yangi g‘oyalar va bilimlarni tashiydi hamda ularda o‘z hayotini qurishga intilish kuchli bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekiston yoshlari bugungi va ertangi kun egalari sifatida mamlakatimizda farovon hayot asoslarini barpo etishda bosh strategik resurs hisoblanadi. Mamlakatimizning demokratik yangilanishlar yo‘lidan odimlashi va taraqqiyot sur’atlari ko‘p jihatdan yoshlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi holati va faolligiga bog‘liq bo‘ladi.

Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[4.14]. Ushbu jarayonlar 2016 yilning 14 sentyabrda mamlakatimiz yoshlari manfaatlarini har tomonlama ro‘yobga chiqarish, yoshlar ravnaqining siyosiy-xuquqiy, ijtimoiy-madaniy va ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish borasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatning muhim samarasi sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi yangi qonuni qabul qilindi.

Hozirgi zamonda intellektual va ma’naviy yetuk, tashabbuskor yoshlar barqaror taraqqiyotning drayveriga aylanmoqda. Bugungi kunda yangi O‘zbekiston yoshlari — mamlakatni modernizatsiya qilishga qaratilgan jadal va keng ko‘lamli islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi va faol ishtirokchisi bo‘lib maydonga chiqmoqda», — deya qayd etdi prezident.

U hozirgi vaqtda «O‘zbekiston yoshlari — 2025» konsepsiyasi ishlab chiqilayotgani, yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashning yagona mezonlari, yoshlar siyosatini baholashning milliy indeksi joriy etilayotganini qo‘shimcha qildi.

Jamiyat ijtimoiy hayotida asosiy qatlam bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy manfaatlarini ta’minlash eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Jamiyatning barcha sohalarida, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy tizimlarda o‘zining hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan salohiyati bilan ishtirok etadigan yoshlar bugungi kunda milliy yuksalishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Chunki, bu jarayonlarda yoshlar imkoniyatlari yuqori bo‘lib, ular o‘zlarining intellektual qobiliyati, innovatsion tafakkuri, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligi bilan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etib, jamiyatda taraqqiyotga oid yangicha qadriyatlarini vujudga keltiradilar.

Yoshlarning jamiyatda muhim ijtimoiy qatlam sifatida huquq va manfaatlarining ta’minlanishi, jamiyatda ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish bilan o‘zaro bog‘liq. Bu esa, yoshlarning ijtimoiy hayot va uning takomiliga o‘zgacha joziba beradigan, kuch bag‘ishlaydigan muhim manba ekanligini anglatadi. Yana bir narsani hisobga olishimiz kerakki, globallashuv, ilmiy va texnologik taraqqiyot ta’siri ostida yoshlar faravonligi shakllari o‘zgaradi, uning jamiyatdagi hatti-harakatlariga bog‘liq ravishda ijtimoiy hayotdagi o‘rni aniqlanadi.

Ijtimoiy munosabatlarning asosiy sub’ekti bo‘lgan yoshlar, ularning manfaatlari va faravonligini ta’minlash jamiyatning eng muhim qadriyati hisoblanadi. Yoshlar ijtimoiy hayotda boshqa ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro munosabatlarda muntazam tizim yaratadi, kishilararo birgalikdagi faoliyatining turli shakllarini birlashtirib, o‘zlarining hayotiy mavjudlik sharoitlarini ta’minlashga, manfaatlar, qadriyatlar, ehtiyojlar, shu jumladan ijtimoiy aloqalarni ta’minlashga bo‘lgan xatti-harakatlarni ro‘yobga chiqaradi.

Hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ong taraqqiyoti va insoniyatning dunyoning siru - asrori qaroriga tobora chuqurroq kirib borishi XXI asrga xos bo‘lgan intellektual salohiyat ustuvorligi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, dunyo va borliq hodisalari to‘g‘risida falsafiy dunyoqarashning shakllanishi unda kechayotgan jarayonlarga tabiiy-ilmiy bilimlar asosida yondashuv bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tashkil etildi va ushbu jamg‘arma yoshlarning bisnes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo‘yildi. Ushbu hujjatga e’tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko‘rish mumkin.

**Birinchi tashabbus** – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi tashabbus** – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

**Uchinchi tashabbus** – aholi va ва yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

**To‘rtinchi tashabbus** – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

**Beshinchi tashabbus** – xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlat rahbarining bu ezgu g‘oyasi O‘zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo‘ylab keng quloch yozdi.

Kelgusida real hayotga keng joriy etiladigan ushbu besh tashabbusga ko‘ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo‘shimcha yana 1,5 mingta to‘garak tashkil etiladi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va «Yoshlar klublari» faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, mamlakat miqyosidagi 12 mingdan ziyod sport inshootiga yoshlarni maksimal darajada qamrab olish choralari ko‘rilib, barcha umumta’lim maktablari sport anjomlari bilan to‘liq jihozlanadi. Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun’iy qoplamali maydonlar quriladi. Bolalar va o‘smirlar sport maktablari soni yanada ko‘paytiriladi.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev yoshlarning dunyoqarash erkinligini mustahkamlashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishga jiddiy e’tibor qaratilayotganligi ayni muddaodir. Ushbu tizimda o‘qitilayotgan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi”, “Falsafa”, “Dinshunoslik” kabi fanlar tomonidan ijtomoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi sa’y-harakatlarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi O‘zbekiston tarixida yoshlar ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

muman, yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida zamonaviy, ilg‘or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O‘zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e’tibor qancha kuchaytirilsa, unung samarasi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Shu bois O‘zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat’iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib

borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Ayni shu ma’noda barcha yoshlarimizni qamrab olgan ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim tizimida talaba-yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini mustahkamlash barobarida atrof borliqda ro‘y berayotgan voqyea – hodisalarga nisbatan fikr bildirish, ularga tanqidiy nuqtai nazardan baho berish, ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini belgilab olish ko‘nikmasini tarbiyalaydi.

Shuningdek, “Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash maqsadida “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” mavzusida plakatlar turkumi, multimedia va boshqa zamonaviy targ‘ibot mahsulotlari yaratish, “O‘zbekiston qahramonlari”, “Ma’naviyat lug‘ati” kitoblarining taqdimotini o‘tkazish hamda har yili

an’anaviy tarzda “Ma’naviyat festivali”ni o‘tkazib borish belgilandi.

Qolaversa, jahon va mahalliy ommaviy axborot vositalariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Orolbo‘yi bo‘yicha rezolyutsiyasini keng targ‘ib qilish, mintaqaning sarmoyaviy, turizm va madaniy salohiyatini rivojlantirish maqsadida “Orol orzusi” dasturini amalga oshirish, bunda Orolbo‘yida yoshlarni o‘qitish uchun xorijiy grantlarni jalb qilish hamda Nukus shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Besh tashabbus”i xalqaro festivalini tashkil etish va “Orol dengiziga poyezd” yoshlar ekologik aksiyasini o‘tkazish ko‘zda tutildi

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining har bir bandida belgilab berilgan chora-tadbirlarda yosh- larimizning ertangi farovon turmush tarzi, mamlakatimiz kelajagi aks ettirilgan. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda yoshlar huquq-manfaatlarining yanada himoya qilinishi barobarida ertangi kunda mamlakatimiz yoshlarining yuqori marralarni zabt etishiga, ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishiga zamin yaratadi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” [9]. Kelgusidagi vazifamiz esa yuqoridagi maqsadlarning izchilligini, yanada xalqchilligini oshirish va hayotiyligini ta’minlash uchun barchamiz o‘z

burchimiz va mas’uliyatimizni his qilgan holda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish yo‘lida xizmat qilishimiz lozim.

Ijtimoiy munosabatlarning asosiy sub’ekti bo‘lgan yoshlar, ularning manfaatlari va faravonligini ta’minlash jamiyatning eng muhim qadriyati hisoblanadi. Yoshlar ijtimoiy hayotda boshqa ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro munosabatlarda muntazam tizim yaratadi, kishilararo birgalikdagi faoliyatining turli shakllarini birlashtirib, o‘zlarining hayotiy mavjudlik sharoitlarini ta’minlashga, manfaatlar, qadriyatlar, ehtiyojlar, shu jumladan ijtimoiy aloqalarni ta’minlashga bo‘lgan xatti-harakatlarni ro‘yobga chiqaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “ O‘zbekiston ”, 2016. - Б. 14.

2. O‘zbekiston respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati tog‘risidagi qonun // Xalq so‘zi. 2016 yil 15 sentiyabr.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.

4. O‘zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi // Xalq so‘zi, 2019 yil 1 iyul. № 133(7363).

5.Karimov I.A. «Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va sadoыatini ro‘yobga chiqarish – bugungi kunning ustuvor vazifasidir» // Inson, uning va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2006, 117-bet.

## TOPONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARIGA DOIR

**Xujanova Munojat Ziyadullayevna**
Oriental Oriental universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Maqolada maktab darsliklaridagi ayrim toponimlar, ularning qo‘llanishi, shuningdek, toponimlarning xalq dostonlaridagi qo‘llanishi va ahamiyati, dostonlarda qo‘llangan toponimlar orqali o‘quvchida o‘z tug‘ilgan joyiga muhabbat uyg‘otish haqida fikr bildiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Toponim, toponimika, tarixiy toponimlar, geografik toponimlar, onomastika, Amudaryo, Sirdaryo, xalq dostonlari, atama.

Mamlakatimizda “Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy”[1] bo‘lgan hozirgi bir sharoitda ishlab chiqilgan toponimik siyosat toponimika sohasini ilmiy-nazariy va amaliy yo‘nalishlarda jiddiy rivojlantirishni ham talab etadi.

Mustaqillik sharofati bilan o‘zbek tilshunosligi yo‘nalishida ham ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyalari kengaydi. Jumladan, nomlar tarixi va kelib chiqishini o‘rganuvchi onomastika sohasida ham ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Joy nomlari, ya’ni toponimikani o‘rganish ham onomastik tadqiqotlar

sirasiga kiradi. O‘zbek toponimikasi sohasi bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Toponimika (yun. topos – joy va onyma – ism, nom) – onomastikaning joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo‘lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o‘zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o‘rganuvchi bo‘limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi [2:85 b.].

Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so‘zlar singari til qonuniyatlariga bo‘ysunadi, lekin o‘zining paydo bo‘lishi va ba’zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma’naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo‘lib, ma’lum darajada boshqa guruh so‘zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo‘lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko‘proq saqlangan bo‘ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg‘uloti, qazilma. boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi [3:45 b.].

Toponimlar – bu joylarning, geografik hududlarning, shahar va qishloqlarning nomlarini ifodalaydigan so‘zlar. Ular nafaqat yer yuzasining xaritalarini tuzishda, balki bir millat yoki xalqning madaniyati, tarixi va identifikatsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada toponimlar, ularning kelib chiqishi, turlari va ijtimoiy ma’nolari haqida so‘z yuritiladi.

Toponimlarni deyarli barcha manbalar – ilmiy, rasmiy, badiiy, publitsistik va tarixiy asarlarda, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi na’munalarida uchratamiz. Har bir holatda foydalanilgan joy nomlari ijodkor tomonidan ma’lum maqsadlarda, o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda qo‘llaniladi.

Toponimlar tilning lug‘at boyligiga kiradi. Biroq joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan juda farq qiladi. Bu farq toponimlarning ko‘p vaqtlardan buyon tilda mavjudligida, ko‘p komponentliligida, ya’ni har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko‘ra ko‘p komponentlardan iborat bo‘lishida, toponimlarning yasalishida o‘zaro bog‘liq otlar bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Toponimlarni yaratishda shu tilga xos lingvistik vositalardan foydalaniladi. Lekin shu bilan birga, har bir tilda toponim yaratishning o‘ziga xos vositalari mavjud, ya’ni ma’lum qo‘shimchalar (affikslar) va so‘zlar toponimlarni yaratishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bugungi tilshunosligimizda ham bunday so‘z va qo‘shimchalar ko‘plab uchraydi. Masalan: “iston”, “zor”, “loq” kabi qo‘shimchalar, “obod”, “daryo”, “ko‘l” kabi so‘zlar shular jumlasidandir.

Toponimlarning kelib chiqishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Tarixiy voqealar, tabiiy sharoitlar, milliy urf-odatlar va hatto diniy e’tiqodlar toponimlarga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek toponimlarida ko‘pincha “beg”, “qora”, “tepa” kabi elementlar uchraydi, bu ularning kelib chiqishini aks ettiradi[4:110 b.]

Toponimlar to‘g‘risida fikr yuritilganda, albatta, xalq dostonlarida toponimlarning qo‘llanishi va mohiyatiga alohida to‘xtalib o‘tish zarur.

Xalq dostonlari milliy madaniyat va tarixi, urf-odatlari hamda xalqning ko‘ngil ayni kishi his-tuyg‘ularini ifodalaydigan asarlardir. Bu dostonlarda

toponimlar muhim rol o‘ynadi. Ular nafaqat joylarni belgilash, balki tarixiy voqealar va xalqning ruhiy holatini aks ettiradi. Dostonlarda uchraydigan toponimlar bir necha turga bo‘linadi:

Geografik toponimlar: Daryolar, tog‘lar, o‘lka va shahar nomlari. Masalan, "Amudaryo", "Sirdaryo" kabi nomlar doston qahramonlarining sayohatlari va janglari joyidagi muhitni ko‘rsatadi. Dostonlardagi toponimlar qahramonlar hayotidagi voqea va hodisalarga juda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, O‘g‘uz qabilasiga mansub bo‘lgan dostonlarda Sirdaryo va Amudaryo nomlari bilan bog‘liq voqealar qahramonlarning janglari va urushlariga alohida ta’sir ko‘rsatadi [5:153 b.].

“Alpomish” dostonida ham buning guvohi bo‘lishimiz mumkin:

…Yoz bo‘lsa, yaylovim **Amu** yoqasi,
Meni bilsang, qo‘ng‘irot elning to‘rasi.
Ko‘kqamish ko‘lidan suqsur uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo‘laman.

Tarixiy toponimlar: Dostonlardan kelib chiqib, tarixiy shaxslar yoki voqealar bilan bog‘liq joylar. Bunday toponimlar xalq xotirasini saqlab qoladi va avlodlar uchun tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Dostonlarda toponimlar ko‘pincha xalq hayotiga, urf-odatlariga va tarixiga bo‘lgan bog‘liqlikni aks ettiradi. Masalan, “Alpomish” dostonida doston qahramonlari o‘z vatanlarini, tug‘ilib o‘sgan joylarini maqtashadi, bu esa tinglovchilarda o‘z tarixiy joylariga bo‘lgan sevgi va g‘urur tuyg‘ularini yanada orttiradi. Geografik toponimlar dostonlardagi voqealar va xarakterlarning rivojlanishiga turtki beradi. Odatda, ma’lum bir hudud yoki joyning nomi ma’lum bir muhitni va voqealarni ifodalaydi. Bu holat xalq dostonlarini yanada jonli va qiziqarli qiladi. [6:44 b.] Jumladan, “Ravshan” dostoniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Ravshanbekning safarga chiqishdagi jumlalarda toponimlar o‘rinli qo‘llanganini ko‘ramiz:

Tomosha qing **Chambilning** shunqorini,
Mindi yigit Jiyronqushday otini,
Yig‘latib otasi – Hasan mardini,
Qon yig‘latib xon Dalliday suluvni,
Ravshan izlar bo‘ldi **Shirvon** yurtini.

Chambil – dostonlardagi afsonaviy yurt nomi. Chambil degan etnonim ham mavjud. Bu nom bugungi kunda ham saqlanib qolgan[8:129 b.].

Yoki mashhur “Alpomish” dostonida ham toponimlar o‘rinli qo‘llanganini ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

Xudoyim saqlagay bandani omon,
G‘arib qulga egam bo‘lgay mehribon.
Xolsanilla duo qildim bul zamon,
Sog‘ borib, salomat kelgin, Alpinjon.
El ko‘chirib, **Olatovdan** oshirdim,
Ulug‘lanib, ostonaga bosh urdim,
Borgin, emikdoshim, Haqqa topshirdim…

Bu jumlalarda shuni ko‘rishimiz mumkinki, “Olatov”, “Olatog‘”—qorli baland tog‘. Asli ola rang ma’nosida emas, balkim ulug‘ (ulu) so‘zining fonetik variant bo‘lib, “yuksak”, “baland” demakdir [7:196-197 b.].

Kichik bir tahlilimzdan xulosa qilish mumkinki, Toponimlar insoniyat tarixining ajralmas qismidir. Ular joylarning, u yerda yashovchi xalqlar hayotining, madaniyatining aks-sadosidir. Har bir toponim o‘zining alohida hikoyasini, urf-odatlarini va tarixini tushuntiradi. Shuning uchun toponimlarni o‘rganish nafaqat geografiya, balki tarix, madaniyat va antropologiya sohalarida ham muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktyabrdagi PF-5850-sonli «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqyeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni // www.lex.uz
2. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 85 b.
3. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз, 2017. 45 b.
4. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики – результат многолетнего изучения географических названий. Москва, 1974. 110 b.
5. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Т.: Муҳаррир, 2009. 153 b.
6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 7-жилд. – Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат нашриёти, 2004. 44 b.
7. Пардаев А.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. 196 b.
8. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). –Т.: Ўқитувчи, 1988. 129 b.

## 5-SHO‘BA. “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANISHI VA UNING FALSAFIY-METODOLOGIK MUAMMOLARI

# ISHLAB CHIQARISH VA ISTE’MOL ORTISHI JARAYONIDA INSON VA TABIAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARINING O‘ZGARISHI

**Yaxshilikov Jo‘raboy Yaxshilikovich,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
“Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi mudiri, f.f..d. professori,
**Xaydarov Asliddin Nizamitdinovich,**
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
“Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi dotsenti, f.f.b. f.d. (PhD)
E-mail: khaydarov.asliddin@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada inson faoliyati kengayishi va ehtiyojlarining chegarasizlanishi natijasida tabiatga bo‘lgan munosabati, ularning birligi va o‘zaro ta’siri, tabiiy resurslarning keskin kamayishi va undan oqilona foydalanmaslik, kelib chiqayotgan oqibatlari, shuningdek fan-texnika va ishlab chiqarish jarayonining takomillashuvi, iste’mol darajasining ortishi va iste’mol qilish madaniyatiga to‘liq amal qilinmasligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, yechimi, nazariy va amaliy natijalariga doir masalalar ko‘rib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** tabiat va inson, biosfera, ehtiyoj, sabab va oqibat, tabiiy resurs, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va rivojlanish, ilmiy-texnika, ishlab chiqarish, moddiy ishlab chiqarish, iste’mol madaniyati, global muammo.

Insoniyat ko‘p ming yillik taraqqiyot jarayonida o‘zini o‘rab turgan tabiatda turli hodisalar, voqealar, hayotiy tajribalarni kuzatgan, ularning sabab va qonuniyatlari to‘g‘risida mushohada qilgan, shu asosda turlicha dunyoqarash (diniy, falsafiy, ilmiy), bilimlar asta-sekinlik bilan “boyib” borgan. Tabiatdagi turli tabiiy boylik va mahsulotlardan o‘z ehtiyojlari uchun yetarlicha foydalanib kelishgan. Shu bois dastlab ibtidoiy davrda odamlar o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan keng foydalanilgan bo‘lsa, sekinlik bilan natural xo‘jalikka o‘ta boshlagan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojlanishi, mulkiy munosabatlar takomillashishi sabab bozor munosabatlari (sotuvchi va iste’molchi) keng rivojlandi hamda qo‘l mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish jarayonidan texnologiyalar yordamidagi ishlab chiqarish o‘sib bormoqda. Va bu jarayon davom etib, mehnat faoliyati natijasida o‘z ehtiyojini to‘laqonli qondirish maqsadida moddiy ishlab chiqarish jarayonini yanada rivojlantirdi. Bu insonga kashfiyot va ixtiro qilish, iste’mol darajasining ortishi va ehtiyojlarini qisman qondirishi va umumiy olganda insondagi yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirdi. Agar insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini tarixiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak dastlab antik davrda kishilar dunyoqarashida tabiatga *gedonizm* (insonga tabiat tomonidan joriy qilingan va uning butun ish amalini belgilaydigan bosh harakatlantiruvchi ibtido huzur-halovatdan iborat, degan

tasavvur) qarash ustunlik qilgan bo‘lsa, O‘rta asrlarga kelib bu hol o‘zgara bordi. Ya’ni tabiat inson uchun faqat iste’molchilik va “xom ashyo”dir deb hisoblandi. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ehtiyoj va talabning oshishi, Yevropa renessansining yuz berishi ham bu omillarga ta’sir qildi. “…Shuning uchun ham, tabiatni, tabiiy ne’matlarni o‘zlashtirish, ulardan hayotiy makon va moddiy-tabiiy resurslar sifatida foydalanish, ijtimoiy zarur mahsulot ishlab chiqarish va iste’mol qilish inson uchun tarixan eng birinchi moddiy ehtiyoj, manfaat-rag‘bat, obyektiv maqsad bo‘lgan va rivojlanib kelgan” [8,40]. Bu holat, bu bog‘liqlik necha ming yildirki inson va tabiat o‘zaro ajralmas ko‘rinish kasb etib kelmoqda. Lekin asta-sekinlik bilan inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat tubdan o‘zgarib “jar yoqasiga” kelib qoldi. “Xususan, tabiat resurslaridan jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida utilitar ehtiyojlar oshishi, tabiatga antropotexnogen bosimning kuchayishi, xalqaro ekologik siyosiy munosabatlar keskinlashuvi sharoitida ayrim fuqarolar ongida tabiatga nisbatan nigilistik kayfiyat shakllanishini...” ko‘rishimiz mumkin [6,3]. Chunki ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiy etishi bilan tabiiy boyliklarning ahamiyati, ulardan foydalaniladigan sohalar, ularni ishlatish shakllari ham o‘zgarib bordi.

Bundan tashqari dunyo iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashishi, ishlab chiqarishning modernizatsiya qilinishi va salohiyatining ortishi, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlari tez amalga oshmoqda. Bu esa shubhasiz *“tabiatning chekinishi”*ga olib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti hamda jamoat arbobi I.A.Karimovning “Tabiatga qo‘pol va takabburlarcha munosabatda bo‘lishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”, - deb aytgan fikrlari o‘rinlidir [1,116]. Bu fikrlar, avvalo, insoniyatning kelajagiga aloqador bo‘lib hozirgi paytda insoniyatning hayot-mamoti “qil usti”da turibdi. U o‘z oldidagi bugungi muammolarni hal etmasdan turib o‘zining kelajagini ta’minlay olmaydi.

Ilmiy-texnikadan salbiy foydalanish biosferaning buzilishiga ba’zan, tabiatning biror komponentiga ko‘rsatilgan arzimagan ta’sir hech kutilmagan katta o‘zgarishlarga, xususan, xavfli o‘zgarish va muammolarga olib kelishi mumkin. Shu bois “barcha global muammolar majmuida hozirgi vaqtda ekologiya muammosi eng muhim muammolardan birini tashkil etadi” [4,9]. Yerning ozon pardasining yemirilishi, haroratning keskin ko‘tarilib borayotgani, qutbiy va tog‘ muzliklarining qisqarishi, qirg‘in qurollarning ko‘payishi, ocharchilik va o‘rmon yong‘inlari ana shunday muammolardandir. Inson ehtiyoji qondirilishining cheklanmaganligi hamda iste’mol madaniyatiga amal qilinmasligi bu muammolarni ochiq-oydin keltirib chiqarmoqda. Xo‘sh, muammo nimada? Ya’ni muammo yechimi topilishi qiyin va jumboqli holat. Biz yer usti va osti tabiiy boyliklarini asrashimiz, bitta bo‘lsa ham undagi tabiiy qadriyatni muammo ko‘rinishi holatiga olib kelmasligimiz kerak.

Mahsulotni to‘g‘ri ishlatish va ularni to‘g‘ri parvarishlash, ulardan yanada yuqori darajada samarali foyda olish insonning atrof-muhitga xavfli ta’sirini kamaytiradi. Ko‘p hollarda bu iste’molchilarning bilim darajasiga, ongli faoliyatiga, madaniyatligiga, insonparvarligiga, ma’rifatparvarligiga, hamda ularning moddiy imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

“...Faqat madaniyat tushunchasi mazmunini: “tabiat”, “jamiyat”, “inson” tushunchalari kontekstida qarash orqaligina amalga oshirish tugal bo‘ladi. “Tabiat” - “jamiyat” - “inson” – “madaniyat” haqiqatda ham o‘ziga xos tizim bo‘lib, ularning asosiy komponentlari funksiyalarini ajratib ko‘rsatuvchi mezondir” [3,12]. Madaniyat jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldordir. Ayniqsa, *iste’mol madaniyati* insonning tabiat ne’matlarini o‘zlashtirishini tartiblaydi. U tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, etnik, ilmiy-texnik taraqqiyot va boshqalarga bog‘liq bo‘lsada, moddiy va ma’naviy qadriyatlarga munosabati, bilimlari, funksional foydali va o‘rnatilgan iste’mol xulq-atvor normalaridir.

Inson tafakkuri o‘sishi bilan tabiiy resurs turlari ham kengayib, eng zamonaviy texnika vositalardan foydalanilayotganligiini ko‘rishimiz mumkin. Ming afsuski, inson yuksak aql-zakovat egasi bo‘lishiga, noosfera qobig‘i takomillasha borishiga qaramay, bunday inqirozli global ekologik vaziyat yuzaga kelishida asosiy rol o‘ynamoqda. “Tabiat-jamiyat” tizimidagi o‘zgarishda ikki qonuniyatni kuzatish mumkin, ya’ni: 1. Jamiyatning tabiatga antropotexnogen ta’sir bosimi borgan sari oshib bormoqda. 2. Jamiyatning sun’iy tabiiy muhitga qaramligi kuchayish tendensiyasi jadallashmoqda. Bunda birinchi qonuniyat, ikkinchi qonuniyatni keltirib chiqarmoqda [5,10]. Bu esa sabab va oqibat kategoriyasidek o‘z qonuniyatini keltirib chiqarmoqda. Bu esa real holatda o‘z ta’sirini o‘tkazib, kichik muammodan global muammoga olib kelmoqda. Hozirgi asr taraqqiyotimizda bunga bir necha barobar duch kelmoqdamiz.

Davlatlar o‘rtasidagi rivojlanish, raqobat tezlik bilan o‘smoqda. Lekin, tabiatning “in’omi” tugab, ekotizimning tabiiy ko‘rinishi qisqarmoqda. Ayniqsa, XX va XXI asrlarda fan-texnika sohasida ro‘y bergan inqilobiy o‘zgarishlar insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirdi. Ro‘y berayotgan globallashuv va ekologik xavfning ortib borishida birinchi o‘rinda tabiat, inson va ishlab chiqarish o‘rtasidagi mutanosiblikka e’tibor qaratilmoqda.

“Inson tomonidan yaratilgan barcha narsalar o‘zining tabiati va mohiyatiga ko‘ra madaniy borliq maqomiga ega bo‘lgan reallik hisoblanadi. Shular ichida eng murakkab tuzilishga ega bo‘lgan reallikning namunasi texnika va texnologiyalar tashkil qiladi” [2,70]. Chunki yangi zamon madaniyati tizimida fan va texnika yetakchi o‘rinni egallab bormoqda. Fan-texnika orqali ichki va tashqi olam kashfiyotlarini yaratish, tabiatning ochilmagan jumboqlarini ochib berish, ehtiyojlarimizni to‘laqonli qondirish va, albatta, insonlarda iste’mol qilish darajasini tartibga solishdir. Masalan, quyosh, okean va shamol energiyasidan keng foydalanish, chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash (bunda plastik mahsulotlarga ko‘proq e’tibor qaratish), yangi o‘simlik navlarini yaratish va boshqalar.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va qayta tiklanuvchi tabiiy manbalardan ko‘proq foydalanish sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar miqyosi va ko‘lami nihoyatda keng. Ehtiyojlarimizni to‘laqonli qondirish maqsadida sayyoramiz miqyosida energetik, xom-ashyo va oziq-ovqat zahiralaridan foydalana olishni yuqori darajada takomillashtirib bormoqdamiz. Bu esa tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatni yanada “jipslashtirish” zaruratini keltirib chiqarmoqda. Tabiiy xom ashyolarni ko‘p darajada iste’mol qiluvchi kuchlarning jadal rivojlanishiga bog‘liq ravishda tabiiy

resurs bilan ta’minlash muammolari yanada dolzarblashib bormoqda. Natijada planetamizda tabiiy resurslar sezilarli darajada kamaymoqda. Ba’zi ekspertlarning fikricha, ular 2030- yilga kelib rivojlangan mamlakatlar milliy boyligining 10% iga ham yetmay qoladi. “Agarda sayyoramiz aholisi 2050-yilga kelib 9,6 milliard odamga yetsa, barchani kerakli resurslar bilan ta’minlash uchun 3 ta sayyora resurslari talab qilinadi” [10]. Tabiiy energetika manbalarning keskin kamayishi bunga misol bo‘la oladi.

**Xulosa qilib aytganda, i**nson tabiatning bir qismi ekanligini his etishi, u qulay shart-sharoitning iste’molchisigina bo‘lib qolmasdan, o‘zining yashash sharoitini yanada qulay qilish ustida atrofidagi tabiiy muhitning saqlanishi, muhofaza qilinishi ustida qayg‘urishi, bu qulay ekologik muhitni kelgusi avlodlar uchun ham asrashi lozim. Yer sayyorasi barchamizning “uyimiz”, uzoq yashab qolish imkonimiz. Bu borliq, bu yashillik ajralmas qismimizdir. Vaqtlar o‘tishi bilan inson tabiatning bir arzimas zarrachasi darajasidan, butun Koinotni o‘zlashtiruvchi qudratli kuchlarga ega bo‘lgan, oqilona himoyachisi darajasigacha o‘sib borishi, o‘zining mo‘jaz sayyorasi miqyosida tinchlik va osoyishtalikning gumanistik posboniga aylanishi mumkin. Buning uchun insonning qudratli aql-idroki, beqiyos moddiy va energetik zahirasi, global iste’mol madaniyati shakllanishi, yuksak ma’naviy va ahloqiy qiyofasi kamolotga erishgan bo‘lishi lozim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI.


1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: “Ўзбекистон”,1997.
2. Яхшиликов Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Е. (2019). “Техника ва информацион технологиялар фалсафаси”. Самарқанд.
3. Каган М.С. (1979). Культура как объект философского исследования // Роль духовной культуры в развитии личности. Сб. науч. трудов Гос. Института культуры им. Н.К. Крупской.
4. Федосеев И.Н. (1982). Человек и природа в условиях научно-технической революции (социальный аспект экологических проблем) М., Наука.
5. Исмоилова Д. Табиат ва жамият ўртасидаги ўзаро таъсирларни оптималлаштириш муаммолари. Экология хабарномаси. №4. 2014
6. Джуракулов Х.А. “Ёшларнинг экологик ҳуқуқий онгини шакллантириш жараёни”. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2018.
7. Цель 12: Обеспечение перехода к рациональным моделям потребления и производства. **Доклад о Целях в области устойчивого развития,** Организация Объединенных Наций. Нью Йорк, 2018.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси” 6.жилд.– Т.: Давлат илмий нашриёти. 2003.
9. https://educheer.com/essays/nature-and-human/
10. https://www.un.org sustainable development sustainable-consumption-production

# IT-YASHIL IQTISODIYOT RAQAMLI IQTISODIYOTNING YANGI MODELI SIFATIDA

**Kushakov Shuxrat Salievich,**
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori**
**E-mail: shuxratqushakov@gmail.com**

**Annotatsiya:** Maqolada XXI asrda jadal sur'atda taraqqiy etayotgan turli nomlar va atamalar ("raqamli iqtisodiyot", "internet iqtisodiyot" va hok.) bilan ifodalanayotgan yangi iqtisodiyot modelining xususiyatlari, real iqtisodiyot va iqtisodiyotning yangi modeli o'rtasidagi umumiylik va farq, raqamli iqtisodiyot iqtisodiyotning yangi modeli bo'lgan axborotli yashil iqtisodiyotga aylanishi tahlil qilingan. Alohida e'tibor yangi iqtisodiyot modelining texnologik asoslariga, xususan, IT-yashil iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti jabhasiga kirib borishi, samaradorligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi konstruktiv rolini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** IT-texnologiya, axborot, internet, raqamlashtirish, model, IT-yashil iqtisodiyot.

**Kirish.** XX asrninig 80-yillarida "kibermakon", "sun'iy reallik" deb atalgan virtual reallik makoniga virtual iqtisodiyot segmentlari (virtuallashtirilgan moliyaviy axborot, reklama, kompyuter o'yinlari va boshqlar) kirib keldi. Boshqacha qilib aytganda, virtual tovarga aylangan axborot, tovarlarning virtual obrazlari, modellari hamda ularni sotish va istemol qilish jarayonlari umumbozor iqtisodiyoti girdobiga tortildi. Natigada real bozor iqtisodiyoti yonida unga parallel bo'lgan yangi iqtisodiyot tizimi (fenomeni, modeli) vujudga keldi. Mazkur yangi iqtisodiy fenomen nihoyatda ko'p nomlar va atamalar bilan ifodalandi. Shularning ichida "raqamli iqtisodiyot", "virtual iqtisodiyot" va "internet iqtisodiyot" ko'proq e'tirof etilayotgan atamalardir. Mazkur maqolada biz tadqiq qilinayotgan yangi iqtisodiy fenomenni IT-iqtisodiyot (axborot-internet texnologik iqtisodiyot) deb atadik. Buni asoslash uchun quyida bir qator mulohazalar va argumentlarni keltiramiz.

Aytish kerakki, yangi iqtisodiy fenomenning mazmun-mohiyatini ochib berishga, uning xususiyatiga mos keladigan nom, atama bilan belgilashga, real iqtisodiyot bilan umumiyligi va farqini aniqlashga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Olimlar, tadqiqotchilar yangi iqtisodiyot modelini mohiyati va xususiyati, undagi kommunikativ, axborot, virtuallik, raqamlashtirish kabi unsurlarning o'zaro nisbati, ularning funktsional roli va ahamiyatiga oid jiddiy tadqiqotlar olib borishmoqda, diqqatga sazovor, ayni paytda, bahsli konseptual talqinlar, g'oyalarni olg'a surishmoqda. Lekin tan olish kerakki, yangi iqtisodiy modelning umume'tirof etilgan nazariyasi yoki konsepsiyasi hamon ishlab chiqilgani yo'q. Yuqorida tilga olingan masalalar, ularni ishlanganlik holati, uslubiy yondashuv va olingan natijalarni bayon qilishga o'tamiz.

**Muammoga doir adabiyotlar tahlili.** Kompyuter inqilobi va IT-texnologiya asosida vujudga kelgan, virtual modellar va raqamli simulyakrlar bilan ishlaydigan yangi tipdagi iqtisodiyotni ifodalash va talqin qilish masalasida hozirgacha neologik (atamaviy) va nazariy-kontseptual konsensus mavjud emas. Bu iqtisodiyot oxirgi 20-30 yil ichida ko‘plab atamalar bilan ifodalandi: “axborotli iqtisodiyot”, “kompyuterli iqtisodiyot”, “virtual iqtisodiyot”, “emerdjentli iqtisodiyot”, “sintetik iqtisodiyot”, “internet iqtisodiyot”, “elektron iqtisodiyot”, “tarmoqli iqtisodiyot (ingl-network economy)”, “veb iqtisodiyot” va hokazo. Birinchilardan bo‘lib ikki amerikalik olim va mutaxassislar-Don Tapskot (1994 yilda) va Nikolas Negroponte (1995 yilda) vujudga kelayotgan yangi iqtisodiyotni “raqamli iqtisodiyot” atamasi bilan ifodalashdi, uning innovatsion xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tishdi. N.Negropontening fikricha, iqtisodiyotda endi atomlarni qayta ishlashdan *bitlarn*i (bit-axborot birligi) qayta ishlashga o‘tildi. U klassik tovarlarni kamchiliklari (vazn, moddiy ashyolar, transport) va yangi iqtisodiyotning afzalliklari (vaznsiz tovarlar, virtualligi, jismoniy ashyoni keraksizligi bir zumda har qanday masofaga ko‘chirish imkoniyati) mavjudligini ta’kidladi (1). Don Tapskott yangi iqtisodiyot afzalliklarini kengroq tavsiflab, quyidagilarni qayd qilib o‘tadi: ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatning raqamli taqdimoti, innovatsion tafakkur, ishlab chiqarishni virtuallashtirish, tadbirkorlik, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish sohalarida tarmoqlashtirilgan hamjamiyatlarni shakllanishi hamda davlat boshqaruvi, ta’lim tizimi va boshqalarni raqamlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi (2).

“Virtual iqtisodiyot” atamasini fanga AQSH olimlari K. Gaddi va B. Ikes tomonidan o‘tgan asrning 90-yillarida kiritishgan. Ular Rossiyaning o‘tkinchi iqtisodiy taraqqiyot bosqichini belgilash maqsadida shu atamani qo‘llashdi (3, 46-53). Lekin bu tushuncha ham bir butun, obyektni adekvat tasvirini beradigan talqin yoki ta’rifga ega bo‘lganicha yo‘q. Hattoki raqamli iqtisodiyot va virtual iqtisodiyotni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib talqin qilish holati mavjud[4, 92-97].

Yuqorida qayd qilganimizdek, raqamli iqtisodiyot va virtual iqtisodiyot masalalari bo‘yicha umum tan olingan kontsepsiya yoki nazariy ishlab chiqilmagan. “Ko‘plab mutaxassislar,-deb yozadi J.N. Fayzullayev,- “raqamli iqtisodiyot” tushunchasini aniq ta’riflamasdan, uni “murakkab tuzilma” sifatida ifodalashadi yoki unga “texnologiyalar birikmasi” sifatida qarashadi” [5, 62-63]. Xuddi shunday epistemologik holat “virtual iqtisodiyot” tushunchasiga ham taalluqlidir. Bir tomondan, tadqiqotchilar virtual iqtisodiyotda real sektordagi (ananaviy iqtisodiyotdagi) unsurlarga ega bo‘lmagan, moliyaviy chayqovchilikka asoslangan iqtisodiyotni ko‘radilar, ikkinchi tomondan, virtual iqtisodiyot tadbirkorlik uchun ideal (mukammal, zo‘r) sharoitdir, deb tariflaydilar [6]. Aslida, bizningcha, ham “raqamli”, ham “virtual” deb nomlangan yangi iqtisodiyot modeli bir xil texnologik unsurlarni axborotlashtirish, virtuallashtirish va raqamlashtirishni birlashtirishdan hosil bo‘lgan tizimdir.

Ijtimoiy ehtiyoj va iqtisodiy zaruriyat shuni taqazo qilmoqdaki, ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan yashil iqtisodiyotni raqamli iqtisodiyot asosidagina rivojlantirish mumkinligi tobora ayon bo‘lmoqda. Lekin bu

masalaga bag‘ishlangan izlanishlarni yetarli deb bo‘lmaydi. Tadqiqotchi I. B. Tislenkoning ta’kidlashicha, IT-texnologiyani yashil iqtisodoyot sohasiga tatbiq qilish yashil iqtisodiyot segmentida mavjud bo‘lgan korxonalar faoliyati samaradorligini bir necha barobar oshiradi, atrof-muhit holati barqarorligini saqlaydi, yangi tadbirkorlik modellarini ishlab chiqarish imkoniyatini beradi [ 8 ].

**Tadqiqot usullari**

Biz ko‘rib chiqayotgan iqtisodiyotning yangi modeli (fenomeni) murakkab, o‘zini o‘zi tashkil qiluvchi tizimlar qatoriga kiradi. Bunday tizimlar mohiyatini o‘rganishda empirik faktlarni umumlashtirish bu qanchalik muhim bo‘lmasin, yetarli emas. Muammoni o‘rganish borasida tizimli yondashuv, taqqoslash usuli, konseptual tahlil va konstruktiv umumlashtirish, kogerentli yondashuv usullariga murojat qilindi. Fikrimizcha, bu usullarning kreativ potensialidan foydalanish tadqiqotimiz obyektini strukturaviy va funksional tomonlarini, hozirgi ekologik sharoitda shakllanayotgan yangi iqtisodiy reallikning o‘ziga xos xususiyatlarini, axborotli yashil iqtisodiyot real iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asos va manba ekanligini anglash va tushuntirish imkoniyatini beradi.

**Natijalar**

Yangi iqtisodiyot modeli bir-butun fenomen sifatida bir-biri bilan uzviy bog‘langan, atributiv xislatga ega bo‘lgan, unsur va texnologiyalardan iboratdir. Bular quyidagilardir: unsurlar- axborot, raqam, virtual model. Texnologiyalar:1. Axborot texnologiyasi. 2. Raqamlashtirish texnologiyasi. 3. Virtuallashtirish texnologiyasi. Inson bu texnologiyalardan, internet yaratilgunga qadar, qadim zamonlardan beri ijtimoiy hayot va madaniyatning alohida-alohida jabhalarida foydalanib kelgan.

Axborot texnologiyasini bozor iqtisodoyoti jabhasiga kiritilishi va axborotni tovarga aylanishi axborot iqtisodiyotini vujudga keltirdi. Bu holatni kuzatgan AQSH olimi Mark Porat 1976-yilda ilmiy muomalaga “axborotli iqtisodiyot” atamasini kiritadi [7]. Axborot texnologiyasi yangi iqtisodiyot modelining negizini tashkil qiladi. Haqiqatan ham, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda axborotni olish, unga ega bo‘lish, undan foydalanish birinchi o‘rinda turadi. Raqamlashtirish va virtuallashtirish tovarni istemolchi uchun maqbul shaklga keltirsalar ham, ular birinchi navbatda, istemolchiga axborot berish funksiyasini bajaradilar.

Raqamlashtirish texnologiyasi. Bu texnologiya bozor iqtisodiyoti unsurlari va jarayonlarini nihoyatda tejamli va sig‘imli holatga keltiradi, har qanday tovarga universal shakl va ko‘rinish beradi. Real iqtisodiyotda tovarlarni an’anaviy tarzda ishlab chiqarish jarayoni bunday xislatlarga ega emas.

Virtuallashtirish texnologiyasi. Bu texnologiya vujudga keltirgan virtual jarayonlar va tovarlar, ularning funksiyalari, iste’molchilar ehtiyojini qondirish imkoniyatlari real iqtisodiyotda bo‘lganidek konkret makon va vaqtga, logistikaga, ishlatiladigan ashyoni mavjudligiga bog‘liq emas. Virtual tovarni ayirboshlash, oldi-sotdi, to‘lov tranzaksiyalarni amalga oshirish bir zumda hal etiladi. Mazkur raqamli qulayliklarni yashil iqtisodiyotga qo‘llash iqtisodiy samaradorlikni bir necha barobarga ko‘taradi.

Yangi iqtisodiyot modeli asosini tashkil qilgan axborotlashtirish, raqamlashtirish va virtuallashtirish texnologiyalari texnik jihatdan IT-

texnologiyaning ko‘rinishi bO‘lgan internet texnologiyasi vositasida birlashtiriladi, ular bozor iqtisodiyoti jabhasiga kiritilgandan keyin IT-iqtisodiyoti shakllandi. Hozirgi global ekologik muhit va sharoit iqtisodiyotning yangi modellarini yaratish ehtiyoji va zaruriyati oqibatida shakllanayotgan shunday modellardan biri axborotli yashil iqtisodiyotdir.

2019- yilda O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi qabul qilindi. Yaqin yillarda mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalar joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko‘zda tutilgan. Shunday tejamkor texnologiya- raqamli iqtisodiyot texnologiyasidir. Biz hozir yangi iqtisodiyot modeli- IT yashil iqtisodiyot modelining boshlang‘ich rivojlanish bosqichida turibmiz. Raqamli iqtisodiyotning mazkur yangi modelining istiqboli kattadir.

**Xulosalar:**

1. IT-texnologiya va internetni bozor iqtisodiyotiga jalb etilishi real, ana’naviy iqtisodiyotdan keskin farq qiladigan yangi iqtisodiyot modelini shakllanishiga olib keldi. Hozir esa bu jarayon axborotli yashil iqtisodiyot texnologiyasining rivojlanishiga asos bo‘lmoqda.

2.Yangi axborotli yashil iqtisodiyot modelining texnologik negizini axborotlashtirish, raqamlashtirish va virtuallashtirish tashkil qiladi. Ularni birlashtirib bozor iqtisodiyoti jabhasiga olib kirgan vosita internetdir. Shu bois bu yangi iqtisodiyot modelini IT-yashil iqtisodiyot, deb belgilash mumkin.

3.Real iqtisodiyot bilan ham parallel mavjud, iqtisodiyotning ayrim jabhalarida, integrative bog‘lanishda bo‘lgan IT-yashil iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida, aytish mumkinki, inqilobiy o‘zgarishlarni hosil qilmoqda, har ikkala iqtisodiyotning kreativ potensialini geometrik progressiyada yuksaltirish imkoniyatini bermoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Neogronte, N.Being Digital, -London: Hodder& Stoughton,1995.-243 p.
2. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence / D.Tapscott. – Paperback, 1994. – 368 p.
3. Гадди Л., Икес Б. Виртуальная экономика и экономическое возпождение России //Экономические стратегии. №5-6. 2001. С.46-53.
4. Богомолов А.И. Виртуальная экономика против цифровой//Экономика и управление: Ткория и практика. Изд-во Ставропольского госуниверситета. 2018. Том4. №1. С.92-97.
5. Файзуллаев Ж.Н. Рақамли иқтисодиёт тушунчасининг моҳияти бўйича илмий ёндашувлар таҳлили. “Иқтисодиёт ва молия/Экономика и финансы”.2022. №1(149). 61-69 бетлар.
6. Виртуальная экономика //https// studfile.net>preview>page:3
7. Qarang: Сухарев О.С. Информационная экономика: знание, конкуренция и рост. М.: Ленанд, 2020. -264 с.
8. Tislenko I. B. IT-texnologiya I noviye biznesmodeli zelenoy ekonomiki // https://www.mosap.ru › upload › iblock

# YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA RAQAMLI IQTISODIYOT: O‘ZBEKISTON MISOLIDA YANGI TENDENSIYALAR

**Karimov Sayimnazar Karimovich,**
-Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kfedrasi professor, falsafa fanlari doktori
**Ro‘ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o‘g‘li,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi
E-mail: ahrorproduction@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat yangi biznes modellarini shakllantirishga, balki yosh tadbirkorlarning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Maqolada klassik iqtisodiy nazariyalar hamda zamonaviy tadqiqotlarga asoslanib, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishdagi asosiy omillar, imkoniyatlar va mavjud muammolar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot elektron tijorat, startap ekotizimi va onlayn xizmatlar orqali yosh tadbirkorlar uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. Shu bilan birga, moliyalashtirish qiyinchiliklari, tajriba va bilim yetishmovchiligi kabi muammolar hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar va qo‘llab-quvvatlash dasturlari yoshlar biznesining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Raqamli iqtisodiyot, yoshlar tadbirkorligi, innovatsiya, startap, elektron tijorat, fintech, investitsiya, biznes modeli, IT-park, moliyaviy resurslar, blokcheyn, sun’iy intellekt, Big Data, frilans, onlayn xizmatlar, tadbirkorlik ekotizimi, marketing strategiyasi, kichik biznes, iqtisodiy rivojlanish, davlat qo‘llab-quvvatlashi, elektron hukumat.

## Kirish

Zamonaviy dunyoda raqamli iqtisodiyot nafaqat texnologik yutuqlar, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning tubdan o‘zgarishiga ham sabab bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalar biznesning deyarli barcha sohalariga kirib borgan holda, yangi imkoniyatlar yaratish, samaradorlikni oshirish va global raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyatlarini beradi. Ayniqsa, yoshlar tadbirkorligi bu jarayonda muhim o‘rin tutadi, chunki ular innovatsion g‘oyalarga ochiq, texnologiyadan samarali foydalanish qobiliyatiga ega va bozorga tez moslasha oladigan biznes modellarini yaratishga qodir. Yoshlar orasida raqamli savdo, frilanslik, startaplar va elektron xizmatlar kabi sohalar tobora mashhur bo‘lib bormoqda.

O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan yosh tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan elektron tijorat platformalari, startap ekotizimi, onlayn xizmatlarning ko‘payishi va investitsiya dasturlari yoshlarning biznesga qiziqishini oshirmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, fintech va elektron tijorat sohalari yosh tadbirkorlar uchun eng istiqbolli yo‘nalishlarga aylanib bormoqda. Biroq, bu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun yoshlar duch keladigan muammolar, jumladan,

moliyaviy resurslarga kirishning qiyinligi, tajriba yetishmovchiligi va bozor talablarini to‘g‘ri baholash qobiliyatining cheklanganligi kabi to‘siqlarni hal qilish zarur.

O‘zbekiston yoshlarining tadbirkorlik sohasidagi faolligi tobora ortib bormoqda. Hukumat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, biznes-inkubatorlar, grantlar va startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari yoshlarni o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yishga rag‘batlantirmoqda. Biroq, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun yosh tadbirkorlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish zarur.

**Adabiyot sharhi**

Yoshlar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham, dunyoda ham keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar va amaliy islohotlar mavzusi bo‘lib kelmoqda. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan yoshlarning biznes faoliyatidagi ishtirokini oshirish, raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik muhitiga ta’siri va ularning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasini o‘rganishga qaratilgan.

Klassik iqtisodiy nazariyalar tadbirkorlikni iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida qaraydi. Schumpeter (1934) “tadbirkorlikni innovatsiyalar bilan bog‘liq ijodiy buzilish jarayoni deb ta’riflagan bo‘lsa”[140], Solow (1956) “texnologik rivojlanish va kapital jamg‘arish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish mumkinligini ta’kidlagan”[141]. Bu nazariyalar yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda hali ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlarga qaramay, yosh tadbirkorlar hali ham ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. “Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti olimlarining tadqiqotlarida moliyaviy resurslarga kirishning qiyinligi, tajriba yetishmovchiligi va biznesni boshlash bo‘yicha bilimlar etishmasligi asosiy muammolar sifatida qayd etilgan”[142].

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Brynjolfsson va McAfee (2014) raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida samaradorlikni oshirishga yordam berishini ta’kidlaydi. Raqamli iqtisodiyot nafaqat yirik korporatsiyalar, balki kichik va o‘rta biznes (KO‘B) hamda yoshlar tadbirkorligi uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

O‘zbekiston kontekstida “raqamli iqtisodiyot yosh tadbirkorlar uchun quyidagi yo‘nalishlarda yangi imkoniyatlar yaratmoqda:

– Elektron tijorat va onlayn bozorlar. Wildberries, Ozon, Alibaba kabi platformalar yordamida yoshlar global bozorlarga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda.

[140] Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
[141] Solow, R. M. (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth." The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94.
[142] Abduraxmonov, K. X. (2020). "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari." Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Ilmiy Jurnali.

– Frilans va masofaviy ish. Upwork, Fiverr kabi platformalar orqali yoshlar xalqaro loyihalarda ishtirok etib, o‘z bizneslarini rivojlantirishmoqda.

– Startap ekotizimi. 2020-yildan boshlab O‘zbekistonda IT-parklar va inkubatsiya markazlari tashkil etilib, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy qilingan”[143].

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston sharoitini o‘rganish natijasida “yosh tadbirkorlar duch kelayotgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

– Moliyalashtirish muammolari. Yosh tadbirkorlar uchun kredit olish shartlari hali ham murakkab bo‘lib, boshlang‘ich kapital topishda qiyinchiliklar mavjud.

– Tajriba va bilim yetishmovchiligi. Yosh tadbirkorlar biznesni yuritishda yetarlicha bilim va tajribaga ega emasligi aniqlangan.

– Bozor talablarini noto‘g‘ri baholash. Ko‘pgina startaplar biznes-rejalashtirish va marketing strategiyalarining sustligi sababli muvaffaqiyat qozona olmaydi”[144].

O‘zbekistonda “yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan quyidagi islohotlar amalga oshirilmoqda:

– “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi orqali moliyaviy yordam ko‘rsatish.

– “Tashabbusli budjet” dasturi doirasida yoshlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

– IT-parklar va startap inkubatorlari orqali innovatsion bizneslarni rag‘batlantirish”[145].

Kelajakda “O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

– Blokcheyn texnologiyalarini joriy etish. Bu shaffof moliyaviy operatsiyalar va ishonchli biznes yuritish imkoniyatini beradi.

– Sun’iy intellekt va Big Data tahlili. Yosh tadbirkorlar uchun ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarini keng joriy qilish ularning qarorlarini yanada samarali qiladi.

– Elektron hukumat tizimini takomillashtirish. Raqamli xizmatlar orqali tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazish va yuritish jarayonlarini soddalashtirish zarur”[146].

O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq holda rivojlanmoqda. Biroq, startap ekotizimi, moliyaviy manbalarga kirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha hali ko‘plab muammolar mavjud. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, yosh tadbirkorlarni rivojlantirishda davlat ko‘magidan tashqari, xususiy sektor va ilmiy doiralar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion startaplarni rag‘batlantirish

[143] UNDP (2023). "Youth Digital Entrepreneurship Development in Uzbekistan." undp.org
[144] Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, “Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi” 2024
[145] https://kapital.uz/uz/yoshlar-tadbirkorligini-rivojlantirish
[146] O‘zbekistonda yoshlar bandligi Hisobotning qisqacha talqini Imkoniyatlar va muammolar, 2021-yil

mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqot davomida monografik kuzatish, statistik abstraktsiya, mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash usullarini o‘z ichiga olgan ilmiy izlanishlarga tizimli yondashuv keng qo‘llanildi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usullaridan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O‘zbekiston iqtisodiyotida yoshlar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi barqaror o‘sish omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda kichik biznes subyektlarining jamlanma iqtisodiy faollikdagi o‘rni ortib, texnologik innovatsiyalar ushbu jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Quyida yoshlar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyotning ahamiyati bo‘yicha izlanish natijasida to‘plangan statistik ma’lumotlar jadval shaklida keltirilgan.

**Jadval:** Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi

| Klassfikator | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | O‘zgarish(2020 va 2023-yillar o‘rtasida) |
|---|---|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | 74,2 | 74,2 | 74,1 | 74,5 | +0.40% |
| **Andijon viloyati** | 80,8 | 80,7 | 80,2 | 80,7 | -0.12% |
| **Buxoro viloyati** | 74,9 | 74,2 | 74,3 | 74,5 | -0.53% |
| **Jizzax viloyati** | 78,4 | 78,8 | 77,3 | 77,1 | -1.66% |
| **Qashqadaryo viloyati** | 78,1 | 78,5 | 78,2 | 78,1 | 0.00% |
| **Navoiy viloyati** | 51,9 | 52,3 | 51,1 | 52,1 | +0.39% |
| **Namangan viloyati** | 81,6 | 82,2 | 81 | 80,9 | -0.86% |
| **Samarqand viloyati** | 81,7 | 81,5 | 80,9 | 81,1 | -0.73% |
| **Surxondaryo viloyati** | 78,2 | 78,4 | 76,9 | 76,8 | -1.79% |
| **Sirdaryo viloyati** | 74,5 | 74,4 | 72,9 | 71,9 | -3.49% |
| **Toshkent viloyati** | 70,8 | 69,8 | 70 | 70,6 | -0.28% |
| **Farg‘ona viloyati** | 78,4 | 78,5 | 78,7 | 79,1 | +0.89% |
| **Xorazm viloyati** | 79,3 | 79,1 | 78,1 | 78,5 | -1.01% |
| **Toshkent shahri** | 49,7 | 50,2 | 50 | 49,4 | -0.60% |

**Manba:** **“**Ushbu ma’umotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Bosh Boshqarmasining rasmiy sayti asosida tuzilgan. https://www.stat.uz”[147]

O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik tadbirkorlik muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sektor aholining katta qismini ish bilan ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion biznes muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, oxirgi yillarda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar,

[147] https://www.stat.uz

moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va tadbirkorlik muhitini yaxshilash choralari ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2020–2023 yillar oralig‘ida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi qanday o‘zgarishlarga uchradi? Qaysi hududlarda o‘sish kuzatildi, qaysilarida esa pasayish kuzatildi? Ushbu o‘zgarishlarning sabab va oqibatlari nimalardan iborat? Ushbu maqolada aynan shu savollarga javob beriladi.

Quyida kichik biznesning jami bandlikdagi ulushiga ko‘ra hududlar bo‘yicha taqqoslash keltirilgan:

- Eng yuqori ko‘rsatkichga ega hududlar:
- Namangan viloyati (80,9%)
- Andijon viloyati (80,7%)
- Samarqand viloyati (81,1%)
- Farg‘ona viloyati (79,1%)

Bu hududlarda aholining zichligi yuqori bo‘lib, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalari faol rivojlangan. Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida kichik tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar mavjud bo‘lib, an’anaviy tadbirkorlik tarmoqlari rivojlangan.

- Eng past ko‘rsatkichga ega hududlar:
- Toshkent shahri (49,4%)
- Navoiy viloyati (52,1%)
- Sirdaryo viloyati (71,9%)

Toshkent shahrida yirik sanoat korxonalari va davlat sektori yetakchi o‘rin egallaydi, bu esa kichik biznesning umumiy bandlikdagi ulushini kamaytiradi. Navoiy viloyatida konchilik va yirik sanoat yetakchi bo‘lsa, Sirdaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyatining yetarlicha rivojlanmaganligi seziladi.

2020 va 2023 yillar oralig‘ida qaysi hududlarda o‘sish yoki pasayish kuzatildi?

- O‘sish kuzatilgan hududlar:
- Farg‘ona viloyati (+0,89%)
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi (+0,40%)
- Navoiy viloyati (+0,39%)

Bu hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Farg‘ona viloyati kichik biznesning innovatsion loyihalariga e’tibor qaratgan holda islohotlar olib bordi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida davlat subsidiyalari va tadbirkorlarni imtiyozli kreditlar bilan ta’minlash natijasida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

- Pasayish kuzatilgan hududlar:
- Sirdaryo viloyati (-3,49%)
- Surxondaryo viloyati (-1,79%)
- Jizzax viloyati (-1,66%)
- Xorazm viloyati (-1,01%)

Sirdaryo viloyatida bandlikda kichik biznesning ulushi keskin kamaygan bo‘lib, bunga ishchi kuchining migratsiyasi va investitsion muhitning nisbatan sust

rivojlanganligi sabab bo‘lgan. Surxondaryo viloyatida esa ish o‘rinlari yetarli bo‘lmagani uchun aholi yirik shaharlarga ko‘chib ketmoqda.

Kichik biznesning rivojlanishi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, quyida ularning asosiylari tahlil qilinadi.

1. Iqtisodiy infratuzilma va moliyaviy resurslarga kirish

Kredit olish imkoniyatlarining cheklanganligi kichik biznesning kengayishiga to‘sqinlik qiladi. Sirdaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida bank kreditlariga kirish imkoniyati cheklangan, shu sababli tadbirkorlikning rivojlanishi sustlashgan. Toshkent va Navoiy viloyatlarida esa yirik sanoat va konchilik sektorlari rivojlangan bo‘lib, kichik biznes bandlikning katta qismini egallamaydi.

2. Migratsiya va ishchi kuchining hududiy taqsimoti

Ish qidirib chet elga yoki yirik shaharlarga ketayotgan yoshlar sonining ortishi kichik biznesning umumiy bandlikdagi ulushiga salbiy ta’sir qilmoqda. Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida yoshlarning o‘z hududida qolib tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga moyilligi yuqori.[148]

3. Davlat qo‘llab-quvvatlovi va tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi

Oxirgi yillarda kichik biznesni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish dasturlari joriy etildi. Farg‘ona, Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatlarida davlatning qo‘llab-quvvatlash choralari natijasida kichik tadbirkorlikning bandlikdagi ulushi oshdi.

**Xulosa va takliflar**

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi uchun kichik tadbirkorlik muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, mamlakatning turli hududlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlikdagi ulushi turlicha o‘zgarishlarga uchragan. Farg‘ona, Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatlarida o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, Sirdaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida kamayish kuzatilgan. Bu holat hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, tadbirkorlik uchun yaratilgan sharoitlar va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash darajasiga bog‘liq.

Shuningdek, iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar sifatida kredit va investitsiya muhitining samaradorligi, soliqqa tortish tizimi, mehnat bozorining rivojlanish darajasi, infratuzilma va innovatsion yondashuvlarning mavjudligi muhim rol o‘ynaydi. Agar kichik biznes uchun qulay sharoitlar yaratilsa, bandlik darajasi oshishi va iqtisodiy o‘sish yanada tezlashishi mumkin.

**Takliflar:**

- ✓ Kichik tadbirkorlikni rag‘batlantirish. Kichik biznes subyektlari uchun kredit va investitsiya muhitini yaxshilash, davlat subsidiyalarini ko‘paytirish, soliq yukini kamaytirish lozim.
- ✓ Hududiy tadbirkorlik infratuzilmasini yaxshilash. Ayrim hududlarda tadbirkorlik sust rivojlanganligi sababli, u yerda sanoat zonalari va biznes markazlarini rivojlantirish muhim.

[148] World Bank. Digital Development Report 2021.

✓ Kichik tadbirkorlar uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil etish. Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va yangi bizneslarni qo‘llab-quvvatlash uchun bilim va ko‘nikmalarni oshirish lozim.

✓ Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni rivojlantirish. Elektron tijorat va raqamli xizmatlar sohasini kengaytirish kichik tadbirkorlikning samaradorligini oshiradi.

✓ Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytirish. Kam rivojlangan hududlarda kichik biznes uchun qo‘shimcha imtiyozlar yaratish zarur.

Bu takliflarning amalga oshirilishi mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga, yangi ish o‘rinlari yaratishga va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
2. Solow, R. M. (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth." The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65–94.
3. Abduraxmonov, K. X. (2020). "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari." Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Ilmiy Jurnali.
4. Mirziyoyev, Sh. M. (2019). *O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston.
5. UNDP (2023). "Youth Digital Entrepreneurship Development in Uzbekistan." undp.org
6. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, “Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi” 2024
7. Kapital.uz (2024). O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish. Retrieved from https://kapital.uz/uz/yoshlar-tadbirkorligini-rivojlantirish
8. O‘zbekistonda yoshlar bandligi Hisobotning qisqacha talqini Imkoniyatlar va muammolar, 2021-yil
9. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) (2021). O‘zbekistonda yoshlar bandligi: Hisobotning qisqacha talqini – Imkoniyatlar va muammolar.
10. BMT Taraqqiyot Dasturi (2022). "Yoshlar va raqamli iqtisodiyot". UNDP Uzbekistan. https://www.undp.org/uz/uzbekistan/projects/yoshlar-va-raqamli-iqtisodiyot
11. Gazeta.uz (2025). "1-aprelgacha 'Yosh tadbirkorlar' raqamli platformasi joriy etiladi". https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/18/platform/
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025). "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". President.uz. https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

# YOSHLARDA ISHBILARMONLIK VA TADBIRKORLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA IQTISODIY XULQ-ATVORNI O‘RNI

**Djuraev Lukmon Narzullaevich,**
**Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi dotsenti**

**Annotasiya:** Mazkur maqolada aholi ishbilarmonlik tafakkurini yuksaltirishda iqtisodiy madaniyatga bog‘liq bo‘lib, unda aholining iqtisodiy xulq-atvorniga yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Iqtisodiy madaniyat, ishlab chiqarish madaniyati, bir butun ijtimoiy tizim bo‘lib, undan foydalanish kompleks tarzda amalga oshirilsagina samara beradi deb ilmiy tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Aholi, tadqiqotlar, raqobotdosh, funktsional, struktura, iqtisodiy xulq-atvor, xulq, mehnat, odob-axloq.

Jamiyatimizda bugungi kunda xalqaro maydonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, ayniqsa, transmilliylashtirish, iqtisodiyotdagi o‘sish dinamikaning tezlashib noaniqlikning o‘sib oldindan aytib bo‘lmaydigan tasodifiy hodisalarning ko‘payib borayotganligi, dunyodagi har bir mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy, har tomonlama texnologik va siyosiy rivojlanishning o‘ziga xos tendensiyalarining paydo bo‘lganligi va shunga o‘xshash boshqa jarayonlar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy hayot faoliyatining asosiy tamoyillariga har tomonlama o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda. Bu maqsad xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Jamiyatimiz farovonligi yo‘lidagi davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari qabul qilingan dasturlar makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobidan yalpi ichki mahsulotning yuqori o‘sish ur'atlarini ta’minlashni nazarda tutadi”[149] – deb ta’kidlaydi.

Bugun qaysi mamlakat axolisining iqtisodiy madaniyati darajasi yuqori bo‘lsa, o‘sha mamlakat rivojlanish darajasi ham yuqori bo‘ladi. Ammo, iqtisodiy madaniyat, uning o‘zagi hisoblangan ishlabchiqarish madaniyati, bir butun yaxlit tizim bo‘lib, undan foydalanish kompleks tarzda amalga oshirilsagina yuqori samara beradi, bu holatni tadbirkorlar, menejerlar, iqtisodiyotni boshqaruvchilarni e’tiborini chetda qoldirmasliklari zarur.

Iqtisodiy madaniyatning funktsional aloqalaridan biri bu iqtisodiy xulq-atvordir. Iqtisodiy xulq-atvor mavzusi ko‘plab iqtisodchi va psixologlar tadqiqotlari bilan bo‘lib, ular tizim va elementlar o‘rtasida ham ro‘y beradi. Ular nafaqat tizimning gomeostozisini ta’minlaydi, balki tizimning dinamikasini belgilaydi. Xulq - bu shaxsning harakatlari majmui. “Xulq-atvorda odamning shaxsiyati, fe’l-atvori, ehtiyojlari, didi xususiyatlari aniqlanadi; uning atrofdagi haqiqat narsalari va

[149] Mirziyoyev Sh.M.“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022- B.125.

hodisalari bilan munosabatini ochib beradi"[150]. Xulq-atvor faoliyatning shaxsning fazilatlari va qadriyatlar yo‘nalishlari erkin namoyon bo‘ladigan jihatlarini tavsiflaydi. Faoliyat mezoniy tushunchasiga tizim va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyi tizimlar kiradi, ularning kombinasiyasi odamlar sa’y-harakatlari umumiy hamkorligi, ularning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy tuzilmaning ma’lum bir yaxlitligini belgilaydi.

Demak, yurtimiz aholisining moddiy va ma’naviy hayoti bir tomondan, milliy iqtisodiyottimizning mahsuldorligi, samaradorligiga; ikkinchi tomondan, esa global iqtisodiy muhitda sodir bo‘layotgan jarayonlarga, xususan geoiqtisodiyot va geosiyosatning obyektiv tendensiyalariga, ekologik vaziyatga, xalqaro munosabatlardagi barqarorlik yoki beqarorlik darajasiga, turli xil xavflar va boshqalarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Yana shuni unutmaslik kerakki, falsafiy jihatdan qaraganda bugungi kunda suveren milliy davlatlar jahonda kechayotgan shafqatsiz raqobat tufayli hozirgi “dunyoning iqtisodiy manzarasi”da ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning yagona subyekti rolini o‘ynashni asta-sekinlik bilan to‘xtatib, o‘zining raqobatbardoshligini kuchaytirish borasidagi masalasi ustida muxokama qilishmoqda.

Iqtisodiy madaniyat va faoliyat tushunchasi ikki xildagi harakatlarni birlashtiradi: 1) tabiatan yoki iqtisodiy kuch tizimi tomonidan shartlangan qat'iy zaruriyatga bo‘ysunadi; 2) faqat ma’lum darajada ob'ektiv holatlar, jamiyatning madaniy va huquqiy normalari bilan bog‘liq sabab, lekin sub'ektga o‘z va jamoat manfaatlarini qondirish maqsadlari va vositalarini tanlashda kengroq shaxsiy erkinlik berish. Shunga ko‘ra, ushbu faoliyat sohasida shaxs erkin tanlash uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega va shu bilan birga u o‘z harakatlariga ko‘proq javobgar bo‘ladi. Agar ular ma’lum bir shaxsda yoki ijtimoiy guruhda ma’lum bir umumiy yo‘nalishga ega bo‘lsa, unda ular boshqalarning o‘zlari bilan ijtimoiy aloqada o‘zlarini yo‘naltirishlariga imkon beradigan xatti-harakatlarning nisbiy yaxlitligini tashkil qiladi.

Atrof-muhit mentaliteti va haqiqatni idrok etishning individual xususiyatlariga qarab, uning amaliy qo‘llanilishi boshqa sub'ektiv bahoni oladi - axloqiy hukmdan faol harakatlar va ijodkorlik uchun eng kuchli moddiy rag‘bat sifatida tan olinadi. M.Veberning ijtimoiy harakatlar nazariyasida, A.Smit tomonidan ijtimoiy koordinasiya, T.Veblen tomonidan iste’molchilarning xatti-harakatlari va V.Zombratning "iqtisodiy ruhi"da nazarda tutilgan klassik metodologiyani tahlil qilish asosida iqtisodiy manfaat maqsadga muvofiq (terminologiyada) shakllanishini belgilaydi.

Mashxur Garb olimi M.Veberning fikricha, “iqtisodiy xulq-atvor turi, milliy madaniyat, xulq-atvorning oqilonaligi, ijtimoiy stereotiplar iqtisodiy xatti-harakatlarning an’anaviy turining paydo bo‘lishiga ta’sir qiladi. Inson hissiyotlari dunyosi shaxsning iqtisodiy xulq-atvorining affektiv turini oldindan belgilab beradi"[151]. Shubhasiz, iqtisodiy xatti-harakatlarning sub'ekti - bu shaxs ya’ni

[150] Петросян Д. С. Интеграционная модель поведения человека / Д.С.Петросян // Общественные науки и современность. – 2008. – № 3. – С. 43

[151]Вебер М. Основные социологические понятия. Избранные произведения / М.Вебер. – М. : Прогресс, 1990. – С. 602.

odamlar manfaatlari va motivlari, ularning faoliyati nafaqat foyda olish bilan cheklanib qoladi balki, ma’naviy hayot, madaniyat, ta’lim va ijtimoiy psixologiyaning ko‘p qirralariga ta’sir qiladigan (shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, jamiyatdagi obro‘si) haqiqiy birlashmasi, asosiy iqtisodiy maqsadga zid bo‘lmaslik va pirovardida unga erishishga hissa qo‘shishi, xulq-atvor bu shaxs tomonidan belgilanadigan faoliyat shaklidir[152].

Iqtisodiy xulq-atvorni ijtimoiy va shaxsga yo‘naltirilgan xulq-atvor turlaridan biri sifatida ko‘rilganda, ushbu model nafaqat oqilona tomon (xarakterli xarajatlar va foyda nisbati bo‘yicha qat'iy iqtisodiy hisob-kitob) bilan, balki axborot etishmovchiligi va shaxsiy sub'ektiv mulohazalar tufayli ahamiyatsiz deb tushunish mumkin. Bu esa ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste’mol qilish kabi xatti-harakatlarning xilma-xilligini ta’kidlashimizga imkon beradi. Aholining turli ijtimoiy-demografik guruhlarining iqtisodiy xulq-atvori shuni ko‘rsatadiki, har bir shaxsning imkoniyatlarining xilma-xilligi uning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish darajasini aks ettirishi, hamda "iqtisodiy jarayonlardagi mavqeini belgilaydi, iqtisodiyotda va jamiyat hayotining boshqa sohalarida ishtirokini ta’minlaydi”[153].

Aslida falsafiy yondashuvlarda xulq-atvor tushunchasi umumlashtirilgan shaklda shaxsning xatti-harakatlari o‘zini o‘rab turgan muhitini idrok etishidir. Bu nafaqat hozirgi paytda shaxsning hayotiy pozisiyasini aniqlash bo‘yicha xulosalar chiqarish, balki kelajakda uning harakatlarida oqilona kutishlarni bashorat qilish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy xatti-harakatlar – bu ma’lum bir shaxs yoki guruhga xos bo‘lgan, ularning turli xil manfaatlarini qondirish, foyda olishga qaratilgan ijobiy yo‘naltirilgan harakatlarning nisbiy yaxlitligidir.

Iqtisodiy madaniyat iqtisodiy xatti-harakatlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida iqtisodiy sohada faoliyat ko‘rsatadigan va sub'ektlarini yo‘naltiradigan qadriyatlar, me’yorlar va ehtiyojlarning namoyon bo‘lishidir. Iqtisodiy va noiqtisodiy bo‘lmagan xatti-harakatlarning umumiy asoslari iqtisodiy madaniyatning uchta tarkibiy qismida namoyon qiladi: 1) mehnat odob-axloqi; 2) ilmiy va kasbiy bilimlar; 3) inson xulq-atvorini boshqaradigan me’yorlar va qadriyatlar. Hozirda inson iqtisodiy hayotini bilish bilan bir qatorda o‘z-o‘zini aks ettirish va o‘z-o‘zini tashkil qilishning roliningoshib borishi, ongni erkinlashtirish va individualizasiya qilish tendentsiyalari kuchaymoqda.

Hozirgi vaqtda mahalliy va xorijiy fanlarda axborotni mulkchilik shakllari nuqtai nazaridan, birinchi navbatda egalik qilish, tasarruf etish va foydalanish nuqtai nazaridan talqin qilish bo‘yicha munozaralar va bahslashuvlar yuzaga keldiki, bunda ba’zilar, axborot ideallikka tegishli bo‘lgani uchun, u mulk sifatida intellektual qonunchilikka to‘g‘ri keladi desalar, boshqalar esa mulk huquqi axborotga nisbatan qo‘llanilishi mumkin, degan fikrni ilgari suradilar. Bu masalaga falsafiy nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, axborotning dualistik xarakterda ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak bo‘ladi. Chunki, axborot - bu moddiylik va ma’naviylikning elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda egalik qilish,

[152]Зомбарт В. Буржуа : этюды по истории духовного развития современного экономического человека : пер. с нем. / В. Зомбарт ; изд. подгот. Ю.Н.Давыдов, В.В.Сапов. – М. : Наука, 1994. – С. 6-7.

[153] Шабунова А.А. Экономическое поведение населения : теоретические аспекты : препринт / А.А.Шабунова, Г.В.Белехова. – Вологда : ИСЭРТ РАН, 2012. – С. 4-6.

foydalanish va yo‘q qilish mumkin bo‘lgan ma’lum birliklardan, shuningdek qiymat va baho bilan o‘lchanadigan jismoniy o‘lchamlariga ega bo‘lgan obyektlardan biri sanaladi.

Bordi-yu, ishbilarmonlik obyekti sifatida axborot tovar sifatida foydalanilar ekan, u oddiy moddiy mahsulot singari iste’moldan keyin yo‘qolmaydi. Aholining ishbilarmonlik tafakkurini, qobiliyatini oshirishda axborotni iste’molga kiritish va tarqatish, ayni vaqtda axborotning o‘z-o‘zidan ko‘payib borishiga olib keladi. Ishbilarmonning u yoki bu narsa to‘g‘risida ma’lumot berishi, axborotlar sonini boshqalar uchun kamaytirmaydi. Shu tariqa, axborot moddiy obyektlardan farqli o‘laroq, ko‘plab sohiblari bilan bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi mumkin. Axborotni sotishda uning to‘liq “begonalashuvi” sodir bo‘lmaydi. Axborotning moddiylik emas, ma’naviy qiymatga egaligi bir necha subyektning bir vaqtning o‘zida bir-biridan mustaqil ravishda foydalanishiga keng yo‘l ochib beradi. Axborotning bu hususiyati hosil qilingan xabar va ma’lumotlarni cheksiz tarqatish va foydalanishga imkoniyat yaratadi. Demak, axborotga boshqa shaxslarning, ayniqsa ishbilarmonlarning kirishni ta’minlamasdan turib egalik qilish mumkin emas. Axborotdan nafaqat uning shartli egasi, balki unga kirish huquqini qo‘lga kiritgan har qanday shaxs, shu jumladan ishbilarmonlik bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlar ham foydalanishi mumkin. Ishbilarmonlik bilan shug‘ullanishga kirishayotgan tadbirkorlarning buyurtma berishiga kelsak, unda faqat axborot obyektiga kirish tartibini aniqlash haqida gapirish mumkin, xolos. Shunga qaramay, axborotga aylangan intellektual mulk obyektlari tovar munosabatlarining obyekti ekanligini ham unutmaslik kerak. Chunki ishonchli saralangan axborotlar bilan ta’minlangan ishbilarmon tadbirkorlar inson va jamiyatning muayyan manfaatlarini qondira oladi va foyda keltiradi.

Axborotlar va bilimlar globallashuvining tobora tezlashib borayotganligi tufayli ilmiy-amaliy tadqiqot va boshqa konstruktiv ishlarning hosilalari shiddat bilan butun dunyodagi ishbilarmon tadbirkorning mulkiga aylanib bormoqda. Agar, industrial jamiyatda bilimga asoslangan yangilik (nazariya, gipotaza, amaliy ishlanma)lar yaratuvchi olimning shaxsiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, axborotlashgan jamiyatga kelib esa, yaratilayotgan barcha axborot va telekommunikasion texnologiyalar, shu haqidagi bilimlarni yaratuvchisidan begonalashtirishga intilayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa aholining ishbilarmonlik tafakkurini yanada tiniqroq rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratib berishi bilan xarakterlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamiyatda ishlab chiqarishning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha faollikni kuchaytirish, buning uchun import o‘rnini bosadigan va eksportbop mahsulotlarni ko‘paytirish orqali, eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirishimiz lozim. Shu o‘rinda zamonaviy xizmat turlarini ko‘paytirish, “IT”, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa yo‘nalishlarda davlat xizmatlarini autsorsing asosida tashkil etishda ham hususiy sektor faol ishtirokchi va yetakchi bo‘lishi shart. Agarda biznes vakillari ham o‘z kadrlari zamonaviy bilim olishlari uchun barcha imkoniyatlarini ishga solsa yoshlarning iqtisodiy qadriyatlar yo‘nalishlari tarkibi bozor madaniyatining haqiqiy qadriyatlaridan farq qiladi: mehnat qila olish, mehnatsevarlik, shaxsiy javobgarlik, foyda, jamg‘arma, boylik

(iste’molchilik), ijtimoiy muvaffaqiyat (yutuq, obro‘-e’tibor, maqom) bular bozor iqtisodiyotiga asoslangan – tadbirkorlik strategiyasini belgilaydi va iqtisodiy xatti-harakatlarning afzal qilingan strategiyalari etuk yoshdagi yoshlar va ular orasida sezilarli darajada farq qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Mirziyoyev Sh.M.“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022- B.125.
2.Вебер М. Основные социологические понятия. Избранные произведения / М.Вебер. – М. : Прогресс, 1990. – С. 602.
3. Зомбарт В. Буржуа : этюды по истории духовного развития современного экономического человека : пер. с нем. / В. Зомбарт ; изд. подгот. Ю.Н.Давыдов, В.В.Сапов. – М. : Наука, 1994. – С. 6-7.
4. Шабунова А.А. Экономическое поведение населения : теоретические аспекты : препринт / А.А.Шабунова, Г.В.Белехова. – Вологда : ИСЭРТ РАН, 2012. – С. 4-6.

## O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM, UNING RIVOJLANISH STRATEGIYASI VA MUAMMOLARI

**Xashimov Sheraxon Jo‘raxonovich,**
SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: sheraxon777@gmail.com

**Annotasiya.** Maqolada O‘zbekistonda ekologik turizm, uning rivojlanish strategiyasi va muammolarining nazariy va amaliy masalalari, huquqiy asoslari, rivojlanish tendensiyalari va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilingan. O‘zbekistonda ekologik turizm resurslari salohiyatini boshqarish va rivojlantirish, ekologik turizm infrastrukturasini shakllantirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalari tahlil qilingan. O‘zbekistonning boy ekoturistik obyektlari va ularni takomillashtirish sohasida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ham ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ekologik turizm, ekologik turizmni rivojlantirish masalasida olib borilayotgan siyosat, O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, Turizmni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan Prezident Farmonlari, ekoturizm infrastrukturasini rivojlantirish, ekoturizm obyekti, ekologik sayohatlarni rejalashtirish, ekologik tizim, ekologik ong va madaniyat, ekologik ta’lim.

Bugungi kunda ekologik turizm jamiyat hayotida turizmning boshqa turlari bilan birgalikda jadal rivojlanayotgan va yuqori daromad keltirayotgan sohalardan biridir. Ekoturizm sayyohlar uchun uncha katta bo‘lmagan tanishuv turlaridan tortib, to milliy parklar va qo‘riqxonalargacha uzluksiz turistik sayohatlarni qamrab oladi.

Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo‘riqxonalar, tog‘li hududlarda turizmni

rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi[154].

Ekologik turizmning asosiy obyekti bo‘lgan tabiatni himoya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Inson doimo yirik megapolislar, urbanizasiya, industriyaning jadal taraqqiyoti va axborotlashgan jamiyat sharoitida hayot kechira olmaydi. Inson uchun tabiatning so‘lim go‘shalari tog‘lar, daryolar, o‘rmonlar, hayvonot va o‘simliklar dunyosi uning dam olishi, o‘zining kuch va sog‘lig‘ini qayta tiklashi uchun nihoyat darajada muhimdir. Shuning uchun bugungi kunda ekologik turizm O‘zbekistonda milliy turizmning bir qator turlari bilan o‘zaro bog‘liq ravishda rivojlanib, bunday turizm turlariga rekreasion turizm, sog‘lomlashtiruvchi, dam olish turizmi, ekskursion turizm, sarguzashtli turizm, ekzotika turizmi, ekstremal turizm va boshqalar taalluqlidir. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalasida juda katta imkoniyatlarga ega mamlakatdir. Lekin shu bilan birgalikda aholining ekologik ongi va madaniyati, savodxonligini oshirish masalasi e’tibor qaratish muhim bo‘lgan masaladir.

O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi, - deydi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go‘zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo‘llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim[155].

Bugungi kunda O‘zbekistonda ekologik turizm resurslari salohiyatini boshqarish va rivojlantirishning eng asosiy sharti va muammosi uni muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga bo‘lib, ularni asrab hamda muhofaza qilishga asoslanib rivojlantirishdan iborat. O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar o‘zining landshafti, flora va faunasining turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

Ekologik turizm tabiiy va madaniy landshaftlar bilan bog‘liq ravishda tabiat qo‘ynida sayohat qilish va faol dam olish bilan bog‘liqdir. Ekologik turizm sayyohlarni qiziqarli tabiat obyektlari, manzaralari bilan tanishishga yo‘naltiradi. Shu bilan birgalikda tabiatni asrab-avaylash, tabiat muhofazasini tashkil qilish ham ekologik turizmga bog‘liq ravishda tashkil qilinadi. Ekologik turizmni rivojlantirish O‘zbekistonga ko‘p sonli sayyohlarni jalb qilib, tegishli daromad olish, aholini ish bilan ta’minlash, daromadning ma’lum qismini tabiatni asrab-avaylashga va tabiat boyliklarini yanada ko‘paytirishga sarflash imkoniyatini beradi.

---

[154] Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил, 38 бет.

[155] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2018 йил, 128-129 бетлар.

O‘zbekistonda ekoturizmning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish jarayonida birinchi navbatda ekoturizmni rivojlantirishning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish muhim masala bo‘lib, ekoturizmni rivojlantirish strategiyasiga quyidagilar taalluqlidir.

- O‘zbekistondagi tabiat mintaqalarining va bu tabiat mintaqalaridagi ekoturistik resurslarning ekoturizmda foydalanish tavsiflarini yaratish;
- “O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Davlat dasturi” asosida viloyatlarda ekoturizmni istiqbolda rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- “Xalqaro ekoturizm tashkiloti” ishlab chiqqan ekoturizmni barqaror rivojlantirish talablarini qabul qilish;
- Ekoturizmi rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari zamonaviy texnologiyalarini o‘rganish va milliy turizmda joriy qilish;
- Yuqori malakali ekoturizm mutaxassislarini tayyorlashga kirishish.

Shu bilan birgalikda bugungi kunda O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning muhim taktik vazifalari mavjud bo‘lib, bu taktik vazifalarga quyidagilar kiradi.

- O‘zbekistonda ekoturizm bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- Ekoturizmlar bo‘yicha ichki va tashqi turizm bozori uchun tabiat mintaqalari bo‘yicha raqobatbardosh turmahsulotlar va tur dasturlar ishlab chiqish;
- O‘zbekiston ekoturizmini tabiat mintaqalaridagi ekoturistik resurslar bo‘yicha xalqaro ekoturizm bozoriga harakatini bosqichma-bosqich ta’minlab borish;
- Ekoturizmni rivojlantirishda tabiat mintaqalaridagi ekoturistik resurslarning joylashishi va ulardan foydalanish bo‘yicha ishonchli baho siyosatini shakllantirish va joriy qilish;
- Ekoturizmni rivojlantirishda tabiat mintaqalaridagi ekoturistik resurslarda tadbirkorlikni, tashabbuskorlikni davlat imtiyozlari asosida qo‘llab-quvvatlash, tashkil qilish va rivojlantirish;
- Ekoturizmning tabiat mintaqalaridagi ekoturistik resurslar bo‘yicha mukammal axborot reklamalarini yaratish va turizm bozoriga chiqarish[156].

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni (Yangi tahriri)ga ko‘ra, Turizm tashkil etilayotgan turning o‘ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turning boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy tarixiy, ziyorat, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo‘linadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi turistik resurslardan, tabiiy va madaniy meros obyektlaridan oqilona foydalanilishini hamda ularning saqlanishini, shuningdek atrof tabiiy muhitning muhofaza

[156] Пардаев О.М., Аблаизов А.А. Ўзбекистоннинг табиат минтақаларида экотуризмни ташкил қилиш ва ривожлантириш стратегияси. // “Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантиришда табиий ва этнографик ресурслардан самарали фойдаланиш муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари. (2019 йил 13-14 ноябр), Самарқанд – 2019 йил, 296 бет.

qilinishini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘radigan[157] vakolatli davlat organi bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra, turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikasiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish[158], iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida turizmni, shu bilan birgalikda ekologik turizmni rivojlantirishga oid bir necha prezident farmonlari va qarorlari qabul qilingan bo‘lib, 2016 yil 2 dekabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 5 dekabrda PF-5273-son ““Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida”, 2018 yil 3 fevralda PF-5326-son “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019 yil 5 yanvarda PF-5611 “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 Farmoniga ilova sifatida “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” keltirilib, ushbu Konsepsiyaga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining xilma-xil hamda yilning turli fasllarida jozibador va raqobatbardosh turistik mahsulotlari, shu jumladan mamlakat hududlarida tematik turistik zonalari va klasterlarni yaratish orqali hamda turizmning istiqbolli turlari (ziyorat, ma’rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolovchi-sog‘lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) hisobga olgan holda, yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish[159], belgilandi.

Insoniyat jamiyatining hozirgi bosqichi, industrlashuv, globallashuv va axborotlashuv sharoitida texnikaning rivoji, xalq xo‘jaligi va kundalik turmushni kimyolashtirish, Yer yuzida aholi sonining keskin ko‘payishi sharoitida tabiat bilan inson o‘rtasidagi muvozanat buzilib, yer, suv va havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanish jarayoni sodir bo‘la boshladi. Ekologik muammoning, tanglikning vujudga kelib, kuchayib borishi sharoitida tabiatning inson ta’siriga uchramagan, asl holicha saqlanib qolgan qismiga, “bokira tabiatga” nisbatan insonlarning qiziqishi va e’tibori kuchaydi. Ushbu holat esa turli mamlakatlarda ekoturizmga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga olib keldi. Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik toza hududlarning inson hayotiga, yashash tarziga, sog‘lig‘i va uzoq umr ko‘rishi uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etishi masalasiga katta

---

[157] Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Туризм тўғрисида. (Янги таҳрири). 2019 йил 18 июль, ЎРҚ-549-сон. Lex. Uz / docs / 4428097

[158] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Тошкент, “Адолат”, 2018 йил, 17 бет.

[159] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611 Фармонига 1-илова. “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси”. www. uza. Uz / oz / documents /sdfscxzcxcvxv? ELEMENT_CODE=sdfscxzcxcvxv& SECTION_CODE=documents&print=Y

e’tibor qaratilmoqda. Ushbu dolzarb global masala kun tartibiga ekologik sof hududlarni ko‘paytirish, asrab-avaylash, takomillashtirish kabi vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu masalada O‘zbekiston juda katta imkoniyatlarga egadir.

O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish ushbu turizmga bevosita bog‘liq bo‘lgan turizmning ma’rifiy, etnografik, tibbiyot, qishloq, sport, davolash-sog‘lomlashtirish va boshqa turlarini yanada rivojlantirishni talab qilib, O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish ekoturistik fan, ta’lim, tarbiya va targ‘ibotni kuchaytirish asosida amalga oshiriladi. Ekoturizmni rivojlantirish sohaga taalluqli “Ekoturistik xizmat”, “Ekoturistik marketing va menejment”, “Ekoturizm gidi” kabi mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Buning uchun ekoturizm bo‘yicha zarur darslik va o‘quv adabiyotlarini yaratish, aholining ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish uchun ommaviy axborot vositalarida, internetda ekoturizmga bag‘ishlangan ma’lumotlarni kengroq berib borish, ekoturizmga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop, ommabop nashrlarni yanada ko‘paytirib borish zarur. Ekoturizmni rivojlantirishni tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish, zarur infratuzilmani shakllantirish, turistik-rekreasion erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishda innovasion klasterlarni tashkil etish va faoliyatini kengaytirish talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил, 38 бет.
2.Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2018 йил, 128-129 бетлар.
3.Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Туризм тўғрисида. (Янги таҳрири). 2019 йил 18 июль, ЎРҚ-549-сон. Lex. Uz / docs / 4428097
4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Тошкент, “Адолат”, 2018 йил, 17 бет.
5.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611 Фармонига 1-илова. “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси”. www. uza. Uz / oz / documents /sdfscxzcxcvxv? ELEMENT_CODE=sdfscxzcxcvxv& SECTION_CODE=documents&print=Y

## O‘ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJI YUKSALISHIDA MILLIY TURIZMNING TUTGAN O‘RNI

**Xashimov Sheraxon Jo‘raxonovich,**
SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: sheraxon777@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekistonning xalqaro imidji yuksalishida milliy turizmning tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari tahlil qilingan. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi, axborot kommunikatsiya tizimining yanada takomillashuvi va uning turizm sohasi rivojlanishiga ta’siri masalalari ko‘rib o‘tilgan. O‘zbekistonning xalqaro imidji

yuksalishiga xalqaro va milliy turizm tashkilotlari integratsiyasining zarurligi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro imidj, milliy turizm, integratsiya, madaniyatlararo muloqot, axborot kommunikatsiya tizimi, turizm sohasi, turistik tashkilotlar, integratsiya jarayonlari.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida mamlakatning xalqaro imidjini yuksaltirish, ushbu jarayonni milliy turizm sohasiga ham tatbiq etish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Imidj so‘zi lotin tilidan olingan so‘z bo‘lib, “ko‘rinish”, “qiyofa”, “timsol” degan ma’nolarni anglatadi. Imidj biron bir shaxs, ob’yekt, predmetning tashqi ko‘rinishi, holatini aks ettiradi. Har sohaning o‘z imidji mavjud bo‘lganidek, O‘zbekistonda milliy turizm rivojlanishining ham o‘z imidji mavjuddir.

“Bugungi kunda ushbu sohada olib borilayotgan davlat siyosati - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta’minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan. Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 10 millionga yetkazishdan iborat”[1:173-174].

Bugungi kunda xalqaro maydonda O‘zbekistonning turizm sohasiga katta e’tibor qaratayotgan, tashqi va ichki turizmni rivojlantirish masalasiga davlat siyosati darajasida munosabat shakllanayotgan davlat sifatidagi imidji shakllantirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasidagi qator masalalar qayta ko‘rib chiqildi. Sayyohlarga viza berish keskin liberallashtirildi. Aeroportlarda navbatlar va tekshirishlarga barham berildi, yashil yo‘laklar tashkil etildi. Mehmonlar elektron ro‘yxatdan o‘tkaziladigan bo‘ldi, ular erkin harakatlanishi uchun hamma sharoitlar yaratildi. Valyuta ayirboshlashga cheklovlar bekor qilindi. Oxirgi yillarda O‘zbekistonga kelayotgan xorijiy turistlar soni ko‘paydi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko‘paytirish, ularga qulay va xavfsiz sharoitlar yaratish maqsadida ko‘pgina shaharlarda ichki ishlar tuzilmalarida xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmalari tashkil etildi.

2022 yil 19-sentyabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida Tashqi ishlar vazirligiga “Samarqand – Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi”, targ‘ibot kompaniyasini o‘tkazish, Samarqandga sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”sini tasdiqlash va elchixonalar oldiga xorijiy mamlakatlarda targ‘ibot kompaniyasi, xorijiy ommaviy axborot vositalari, mashhur turistik blogerlar uchun press-turlar tashkil etish vazifasi qo‘yildiki, bularning hammasi O‘zbekistonning turizm sohasida xalqaro imidji yuksalishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi

PF-60-son Farmoniga 1-ilovada 35-maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish”[2]dan iborat deb belgilandi. Shu bilan birgalikda turizm va madaniy meros ob’yektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob’yektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat dasturini qabul qilish ko‘rsatildi. Samarqandni “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari xajmini kamida 10 baravarga oshirish rejalashtirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham ushbu masalaga to‘xtalib o‘tilib, “Samarqand shahri dunyo taniydigan megapolisga, xalqaro turizm va biznes markaziga aylanmoqda”[3], deb ta’kidlandi.

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilovada xalqaro maydonda O‘zbekistonning imidjini oshirish vositasi sifatida ommaviy axborot vositalari samaradorligini oshirish masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Taraqqiyot strategiyasidagi 98-maqsad: Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish, deb nomlangan. Ushbu maqsadda, O‘zbekiston imidjini jahon sahnasida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, mamlakatimizda islohotlarning borishi, jamiyatni demokratik yangilash jarayonlari haqida xolis axborot tarqatishni samarali davom ettirish[4] vazifasi belgilangan.

Yaponiyaning “The Japan Times” gazetasida chop etilgan “Milliy siyosat va savdo munosabatlari barqaror rivojlanmoqda” deb nomlangan maqolada O‘zbekistonda turizm rivojlanishi va unda ommaviy axborot vositalarining tutgan o‘rni masalasi yoritilgan.

O‘zbekiston ulkan turizm salohiyati va g‘oyat boy madaniy-tarixiy merosga ega, - deyiladi ushbu maqolada, - Bu zaminda purviqor tog‘lar bilan o‘ralgan vodiylar va jazirama sahrolar, qadimiy me’moriy obidalari bilan mashhur tarixiy majmualar va zamonaviy megapolislar ajib bir tarzda uyg‘unlashib ketgan. O‘zbekistonda 11 ta milliy tabiiy bog‘lar va davlat qo‘riqxonalari, 12 ta maxsus qo‘riqxona, 106 ta muzey, 37 ta teatr, 187 ta madaniyat va istirohat bog‘i mavjud. ...2018 yilda o‘zbek milliy taomlari “National Geographic” jurnalining “Gastronomik turizm” nominatsiyasida birinchi o‘rinni egalladi, O‘zbekiston ko‘plab xorijiy nashrlar, jumladan, “The New York Times”, “The Guardian”, “Lovely Planet” tomonidan sayohat uchun eng jozibador va qiziqarli yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda[5:300].

Euronews xalqaro axborot telekanali va Yevropaning boshqa ommaviy axborot vositalarida ham O‘zbekistonning turizmni rivojlantirish sohasidagi imkoniyatlari yoritib borilmoqda. Euronews xalqaro axborot telekanali o‘zining oylik tomoshabinlar qamrovi qariyb 15,2 million kishini tashkil etuvchi “Focus” sahifasida Samarqand turistik markazi zamonaviy kongress-markazi, “Abadiy shahar” tarixiy-etnografik xiyoboni, gashtak (baliq tutish uchun sun’iy ko‘l), musiqali fontan o‘rnatilgan markaziy saylgoh, Eco Village alohida kottejlar

majmuasi, xalqaro tasniflangan brendlar ostidagi 8 ta mehmonxonani birlashtirgan ulkan ko‘p tarmoqli majmua, Silk Road Samarkand majmuasi O‘zbekistonga sayyohlar oqimi kelishini kuchaytirishi to‘g‘risida ma’lumot berib, O‘zbekistonning xalqaro imidjining yuksalishida turizmning muhim o‘rin tutishiga o‘z e’tiborini qaratgan.

O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish jarayonida mamlakatning turizm sohasidagi imidjini sifat jihatidan yuksaltirish, unga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xorijiy va milliy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning yangi qiyofasi, uning obrazi, turizmni rivojlantirish sohasidagi imkoniyatlari, imidjini shakllantirishga qaratilgan xilma-xil maqola, sharh, suhbat va boshqa matbuot ma’lumotlari e’lon qilinmoqda. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekistonda milliy turizmning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, milliy-psixologik imidjining yuksalishiga xizmat qiladi. Imidjni yuksaltirishda ijobiy stereotiplar muhim o‘rin egallaydi. Stereotip biron bir narsa, hodisa yoki mamlakat, ya’ni O‘zbekiston obrazi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror, o‘zgarmaydigan, soddalashtirilgan, sxematik tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun mamlakatimizga kelayotgan turistlarning O‘zbekiston xaqida bildirgan ijobiy fikrlari, ijtimoiy tarmoqlarga yuklagan ma’lumotlari yurtimizga keladigan turistlar sonining yanada ko‘payishiga olib keladi. Shuning uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari targ‘ibotini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2022 yil 1-3 noyabr kunlari O‘zbekistonda Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi o‘tkazilgan bo‘lsa, 5 noyabrda BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh kotibi Zurab Pololikashvili O‘zbekistonga kelib, Samarqandga tashrif buyurdi. Rossiya Turoperatorlar uyushmasi (ATOR) ijrochi direktori Maya Lomidzening fikriga ko‘ra O‘zbekiston MDH davlatlari orasida rossiyalik sayyohlar uchun eng mashhur yo‘nalishga aylandi. U yerda turlarga bo‘lgan talab 20 foizga o‘sdi. Samarqandga 2022 yilda 1,2 million xorijlik sayyoh keldi[6].

O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish, uning turizm sohasidagi imkoniyatlarini targ‘ib qilish jarayonida axborot agentliklari muhim rol o‘ynaydi. Axborot agentliklari auditoriya qamrovi va tarqatilayotgan kontentning salmog‘i, ko‘tarilayotgan mavzularning jiddiyligi bilan boshqa milliy OAV platformalaridan farq qiladi. Shuning uchun O‘zbekistonning milliy turizmini targ‘ib-tashviq qilishda axborot agentliklari, ommaviy axborot vositalari, internet saytlaridan foydalanish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishda, mamlakatimizga chet ellardan kelayotgan sayyohlar oqimini kengaytirishda O‘zbekistonning chet ellardagi elchixonalariga ham katta vazifalar yuklatilmoqda.

O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar oqimini kengaytirish bo‘yicha elchixonalarimiz ham faol va tizimli ish olib borishi lozim, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Shuni alohida ta’kidlash joizki, xorijiy turistlarni mamlakatimizga jalb etish yuzasidan elchilarimizning Turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat qo‘mitasi va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda tizimli ravishda qattiq ishlashi talab qilinadi[7:287-288].

Jahondagi yetakchi axborot agentliklari bilan hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari tashviqotida ulardan unumli foydalanish mamlakatimizning turizm sohasidagi imidji yuksalishiga olib keladi. O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyati, turizm sohasidagi imkoniyatlaridan so‘zlovchi sifatli media kontentlarni tayyorlash, ularni mavjud barcha kommunikatsiya kanallari orqali jahon auditoriyasiga muntazam tarqatish yaxshi samara beradi. Ana shu maqsadda O‘zbekiston imidjini jahon maydonida ilgari surishni nazarda tutuvchi turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari uchun mamlakatimizning tarixi, zamonaviy taraqqiyoti, sayyohlik salohiyati, madaniyati va san’atiga oid yuqori sifatli foto, video va bosma materiallarni muntazam tayyorlash va yetkazib berish masalasiga ham bugungi kunda katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonning tarixi va zamonaviy taraqqiyoti, madaniyati va san’ati, tarixiy shaharlari, an’ana va urf-odatlari targ‘ib qilingan kitoblar, ma’lumotnomalar va qo‘llanmalarni xorijda nashr etish masalasiga e’tiborni kuchaytirish zarur bo‘lib, ushbu asarlarning xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o‘tkazish, ularni chet el mamlakatlari parlament, hukumat va ekspert doiralari o‘rtasida tarqatish mamlakatimizning turizm sohasidagi imidjini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston imidjining o‘lchov mezoni sifatida turizmning tutgan o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakat turizm salohiyatini jadal rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida turizmni rivojlantirish sohasida qabul qilingan choralar katta natijalar berishni boshlagani ta’kidlandi. 2022 yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3 baravarga oshganligi (5,2 million, soha eksporti – 1,6 milliard dollar) ko‘rsatib o‘tildi. Ichki turizm dasturlari doirasida 11,5 million, shundan 1,5 million ehtiyojmand aholi, yoshlar va keksalar uchun sayohatlar tashkil etilganligi ta’kidlandi. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani qo‘shimcha 2 million sayyohni jalb qilish imkoniyatini berganligi, Samarqand 2023 yilgi Butunjahon turizm poytaxti maqomini olganligi [8] masalasiga e’tibor qaratildi.

Britaniyalik professor Sh.Akinerning fikriga ko‘ra, “turizm milliy imidjni rivojlantirish mumkin bo‘lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chunki u xorijliklarni mahalliy aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga kiritadi. Natijada ana shu sayyohlar ongida ular tashrif buyurgan jamiyatlar haqida o‘z shaxsiy taassurotlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi”. Britaniyalik olim S.Anholt fikriga ko‘ra, mamlakat imidjini mustahkamlash jarayonida ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda – boshqaruv, eksport, turizm, madaniyat va meros, investitsiya va imigratsiya, odamlar ham muhim rol o‘ynaydi[9].

Bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro imidjini shakllantirishda turizm sohasida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan tashqari turli xalqaro formatda o‘tkaziladigan forumlar, anjumanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, madaniy ko‘rgazmalar, sport musobaqalari, etnografik, diniy, ekologik mavzularda o‘tkaziladigan turli tadbirlar muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonning turizmni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari haqida chet el ommaviy axborot vositalarida va mediamakonida muntazam maqolalar chop etish va videokontent uzatish, shuningdek, turizmni rivojlantirish sohasida erishilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib qilish uchun brifinglar, davra suhbatlari, konferensiya va seminarlar o‘tkazish kutilgan natijalarni beradi. Xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imidjini ilgari suradigan xorijiy PR-agentliklari, xalqaro axborot maydonida nufuzli va ta’sirga ega bo‘lgan xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari va yutuqlarini keng targ‘ib-tashviq etish mamlakatimizga keladigan turistlar sonining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy davlatlarda O‘zbekistonning madaniyati va san’atini targ‘ib etuvchi turli festivallar, konferensiya va tadbirlarni o‘tkazish ham o‘zining ijobiy natijasini beradi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlashda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining xalqaro miqyosdagi aloqalari muhim o‘rin tutib, mamlakatimizning turizm sohasidagi imkoniyatlarini targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning ijobiy imidjini faol ilgari surish mexanizmlari va vositalarining milliy turizm bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston o‘zining ijobiy imidjini shakllantirish uchun yetarli darajada kuch va salohiyatga ega bo‘lib, turizmni rivojlantirish ushbu sohadagi ijobiy imidjni shakllantirishga tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi.

Turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish, turistik klasterlarni yaratish, sohaga strategik sheriklarni jalb qilish, sayyohlik infratuzilmasi va turizm sanoatini jadal rivojlantirish, hududlarning sayyohlik salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga olib chiqish borasidagi faoliyatimizni jadal rivojlantiramiz[10:172], - deydi Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda turizmning o‘ziga jalb etuvchi vositasi sifatida axborot bozori ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish, axborot texnologiyalari salohiyatidan samarali foydalanish, milliy turizmni rivojlantirishda reklamadan unumli ravishda foydalanish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Turizm xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha xalqaro global axborot tizimlariga ulanish va lokal servislarni yaratish, internet tarmog‘ida turistik imkoniyatlari haqidagi axborot resurslarini mamlakatimizda kengaytirish zarurdir. O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masala bo‘lib, turizm industriyasini rivojlantirish turistik resurslardan unumli foydalanish va xizmat ko‘rsatadigan infratuzilmani yuqori saviyaga olib chiqishni nazarda tutadi. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishga xizmat qiladi. Turizm tizimi o‘ziga xos xususiyat, maqsad, vazifalar va strukturasiga ega bo‘lib, turizm sistemasiga xos bo‘lgan xususiyatlar bu uning ochiqligi, yaxlitligi, izchilligi va ketma-ketligidir. Turizm tizimi o‘z-o‘zidan rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lib, bu rivojlanish tizimning o‘z-o‘zini saqlash va takomillashishini ta’minlaydi. Turizm tizimining

maqsadi mustahkam, ommaviy va raqobatbardosh turizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Turizm jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohalariga ta’sir ko‘rsatib, turizm natijasida mamlakatning ichki salohiyati namoyon etiladi, tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar obod qilinadi, tabiiy landshaft, ekoturizm, agroturizm, etnoturizm, diniy turizm marshrutlari ishlab chiqiladi. Turizm aholini ish bilan ta’minlash, milliy madaniyat, hunarmandchilikning rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanilib, turizm xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha xalqaro global axborot tizimlariga ulanish, lokal servislarni yaratish, internet tarmog‘ida mamlakatning turistik imkoniyatlari xaqidagi axborot resurslarni kengaytirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O‘zbekistonning turizm salohiyatini rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan vidioselektor yig‘ilishida mamlakatda hozirgi turizm mavsumi qisqaligi, uni uzaytirish bo‘yicha salohiyat juda katta ekanligi ta’kidlandi. Toshkent, Jizzax viloyatlarida qishki mavsumda – toqqa chiqish, chang‘i uchish maydonlarini, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahrida yozgi mavsumda – cho‘milish maskanlarini tashkil etib, turistik mavsumni ikki oyga uzaytirish taklif etildi. Tegishli vazirliklar va mutasaddilarga festival va madaniyat tadbirlarini ko‘paytirish, qishki, ekologik turizmni rivojlantirish, qo‘riqxona, tabiat bog‘lari va tabiat yodgorliklari imkoniyatidan foydalanish bo‘yicha topshiriqlar berildi. “O‘zbekiston tashrif qog‘ozi”ni ishlab chiqib, turizm brendini yangilash, xorijiy telekanallarda “O‘zbekiston tashrif qog‘ozi”ni efirga uzatish, AQSh, Xitoy, Arab davlatlari, Yaponiya, Koreya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Malayziya, Rossiya, Qozog‘iston kabi mamlakatlarning yirik shaharlari gavjum ko‘chalaridagi ekranlarda “O‘zbekiston turizm brendi” haqidagi ma’lumotlarni joylashtirish, milliardlik obunachilari bor internet platformalarida O‘zbekiston haqidagi reklama roliklarini ko‘paytirish topshirildi[11].

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm rivojlangan xorijiy davlatlarning erishilgan yutuqlari ijodiy tarzda o‘rganilib, O‘zbekistonga chet ellik investorlarning mablag‘lari kiritilmoqda, yangi turizm infratuzilmasini shakllantirishda xorijiy davlatlarning tajribalariga tayanilmoqda. O‘zbekistonda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish aholini ish bilan ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, milliy hunarmandchilik, kasanachilikni rivojlantirish, milliy taomlar, milliy madaniyat, milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosim va bayramlar kabi milliy qadriyatlarni tiklash va yuksaltirish asosida amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda milliy turizm tizimining takomillashib borishi iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayot sohalariga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan sub’yektlarning innovatsion va kreativ yondashuvi talab etilmoqda. O‘zbekistonda zamonaviy turizm industriyasini shakllantirish uchun ko‘plab imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, sohani rivojlantirishga kompleks yondashilmoqda, respublikada ko‘plab zamonaviy sayyohlik infratuzilma ob’yektlari shakllantirilmoqda. Milliy turizmni rivojlantirishda, turizm

infratuzilmasini shakllantirishda tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonda milliy turizmni tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida o‘rganishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

**ADABIYOTLAR**:


1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2021 йил.
2. https://lex.uz/docs/5841063
3.https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-o‘zbekiston-xalqiga-murojaatnomasi
4. https://lex.uz/docs/5841063
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2020 йил.
6. https://uza.uz/posts/436423
7. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Тошкент, Ўзбекистон, 2018 йил.
8. https://kun.uz/news/2023/03/29/o‘zbekistonda-tashrif-buyurgan-xorijiy-turistlar-soni-3-baravarga-oshgan
9. https://beruniyalimov.uz/archives/986
10. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2021 йил.
11. https://kun.uz/news/2023/03/29/o‘zbekiston-madaniyati-va-turistik-salohiyatini-targ‘ib-qilish-uchun-100-mlrd-so‘m-ajratildi


## “YASHIL IQTISODIYOT” VA “YASHIL OILA” MODELIDA AXLOQIY MUROSA MUVOZANATINI TA’MINLASH


**Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich**
University of Business and Science “Ijtimoiy-gumanitar va tillar” kafedrasi dotsenti f.f.b.f.d (PhD), Email: mr.absattorov86@bk.ru
**Toshmurodov Mirolim Ismoil o‘g‘li**
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti 2-kurs tayanch doktaranti,
University of Business and Science “Ijtimoiy-gumanitar va tillar” kafedrasi o‘qituvchisi Email: mr.toshmurodov97@mail.ru



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Yashil oila” modelida axloqiy murosani ta’minlash masalasi oilada ekologik ong va axloqiy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali barqaror yashash tarzini shakllantirishni nazarda tutiladi. Ushbu model oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmat, murosa va mas’uliyatni kuchaytirish, shuningdek, farzandlarda ekologik va axloqiy tarbiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yondashuv jamiyatda sog‘lom, barqaror va ahil muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** “Yashil oila”, axloqiy murosa, ekologik ong, oila qadriyatlari, barqarorlik, mas’uliyat, o‘zaro hurmat, tarbiya, ijtimoiy uyg‘unlik, hamjihatlik, ekologik tarbiya.

**Mavzuning dolzarbligi.** Yashil iqtisodiyot – bu atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror taraqqiyotni maqsad qilgan iqtisodiy modeldir. Uning markazida inson salomatligi, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat kabi ustuvorliklar turadi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotda axloqiy murosaning mavjudligi va uni saqlab turish – nafaqat iqtisodiy, balki falsafiy va ijtimoiy masala sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yashil oila modeli doirasida bu muvozanatning ta’minlanishi jamiyatdagi umumiy axloqiy me’yorlarning barqarorligiga xizmat qiladi.

Yashil oila – bu ekologik barqarorlikni hayot tarziga aylantirgan, o‘z ehtiyojlarini atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda qondirishga intiladigan ijtimoiy birlikdir. Bunday oila modeli nafaqat iste’mol madaniyatini qayta ko‘rib chiqishni, balki axloqiy qadriyatlarning ustuvorligini ham nazarda tutadi. Shu jihatdan, yashil iqtisodiyot va yashil oila orasidagi uyg‘unlik axloqiy murosaning fundamental asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Axloqiy murosa – bu turli manfaatlar, qarashlar va qadriyatlar o‘rtasida barqaror muvozanatni saqlash, ijtimoiy kelishuvga erishish vositasidir. Yashil iqtisodiyotda bu murosa asosan iqtisodiy faoliyat bilan ekologik mas’uliyat o‘rtasida yuzaga keladi. Masalan, ko‘proq foyda olish istagi bilan tabiiy resurslardan ortiqcha foydalanish tendensiyasiga qarshi, ekologik etikaga asoslangan cheklovlar qo‘yiladi. Bu cheklovlar axloqiy tanlovni taqozo etadi: qisqa muddatli iqtisodiy foydami yoki uzoq muddatli ekologik barqarorlikmi? Yashil oila modeli esa bu tanlovni kundalik hayotda real amaliyotga aylantiradi.

Yashil oila axloqiy murosani uch asosiy yo‘nalishda amalga oshiradi: birinchidan, farzandlarga ekologik tarbiya berish orqali barqaror iste’mol madaniyatini shakllantiradi; ikkinchidan, sarf-harajatlarda ongli va mas’uliyatli yondashuvni targ‘ib qiladi; uchinchidan esa, oilaviy qarorlar qabul qilishda barcha a’zolarning fikrini inobatga olgan holda ijtimoiy adolat prinsiplarini ustuvor tutadi. Bu omillar oilaviy darajada axloqiy murosani saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

XX asrda sodir bo‘lgan jahon urushi tabiat va atmosferaga katta ta’sir o‘tkazish bilan birga insoniyat oldida bir qator muammolarni ham keltirib chiqardi, natijada insoniyat kundalik maishiy tashvishlardan tashqari boshqa muammolar bilan ham shug‘ullanishga majbur bo‘ldi. G‘arbda “yashillar” harakati 1960-yillarda ekologik tahdidlarga javoban paydo bo‘ldi. “1950-1960-yillarda kuchaygan, davlatlar va korporatsiyalarning iqtisodiy va siyosiy manfaatlari bilan belgilangan. Iqtisodiy poyga atrof-muhitga ta’sirini hisobga olmagan holda “ishlab chiqarish” va “iste’mol” g‘oyalariga asoslangan qarashlar tizmini o‘zgartishni maqsad qilgan edi. Ushbu harakatning maqsadi quyidagilar bo‘ldi: suv, havo va tuproqning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, sayyoradagi hayotning asosi sifatida tabiiy va biologik xilma-xillikning yo‘q qilinishi (shu jumladan, turlarning yo‘q qilinishi), ekologik muvozanatga tahdid soluvchi

jarayonlarning paydo bo‘lishi (issiqxona effekti deb ataladigan, qisqarish atmosferaning ozon qatlami, tuproqning halokatli eroziyasi, cho‘llanish, o‘rmonsizlanish, tabiiy ofatlar va boshqalar)[1] ga qarshi kurash bo‘ldi. Bu harakat keyinchalik barcha qit’alar va davlatlarga ko‘chib bugungi kunda davlatlarning asosiy davlat dasturi va harakat faoliyatiga aylanib bormoqda.

Bugun kundalik hayotimizda “Yashil iqtisodiyot”, “yashil energiya manbalari”, “yashil makon” tushunchalari bilan bir qatorda “Yashil oila” modeli degan tushuncha iste’molga kirib keldi. “Yashil oila” modeli tushunchasi 1990-yillarda G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Bu model ekologik ongli hayot tarzini targ‘ib qiluvchi oilaviy qadriyatlar tizimini anglatadi. Ayniqsa, ekologik muammolar, global isish va atrof-muhitga salbiy ta’sirlar kuchayib borayotgan bir paytda bu tushuncha keng tarqaldi. Asosiy g‘oyasi “oila atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishi, resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, yashil energiyadan foydalanish, bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish kabi tamoyillar asosida yashashdir”[2]. Bugungi ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishlari, resurslarning cheklanganligi va barqaror rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlar ortib borayotgan bir paytda dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu model oilaviy hayotni ekologik jihatdan ongli, tabiatga do‘stona va barqaror yashash tamoyillari asosida tashkil etishni anglatadi. “Yashil oila” nafaqat ekologik tozalikni saqlashni, balki jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish, farzandlarda tabiatga hurmat, mas’uliyatli iste’mol qilish, tejamkorlik va sog‘lom turmush tarzini singdirishni ham o‘z ichiga oladi.

**Tahlil va amaliy natijalar.** “Yashil oila” modelining asosiy g‘oyalari quyidagilardan iborat: **a) Ekologik ong va madaniyatni shakllantirish** “Yashil oila” modeli, avvalo, oilaning har bir a’zosida ekologik ongni shakllantirishga qaratiladi. Bu atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ularni qayta ishlash va ajratib yig‘ish kabi odatlarni rivojlantirishni anglatadi. Ota-onalar farzandlariga bolalikdan boshlab tabiatni sevishni, unga zarar yetkazmaslikni, daraxt ekishni, suvni isrof qilmaslikni o‘rgatib boradi: **b) tejamkorlik va qayta ishlash** “Yashil oila” resurslarni isrof qilmaslik tamoyiliga amal qiladi. Bu elektr energiyasi, suv, gaz kabi tabiiy resurslardan foydalanishda tejamkorlikni nazarda tutadi. Masalan, ishlatilmayotgan elektr jihozlarini o‘chirish, yomg‘ir suvini yig‘ish va undan bog‘ni sug‘orishda foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash uchun saralash, keraksiz plastik mahsulotlardan voz kechish – bularning barchasi yashil turmush tarziga kiradi; **c) Ekologik toza oziq-ovqat iste’moli** yashil oilalar, imkon qadar, ekologik toza, tabiiy mahsulotlardan foydalanishga harakat qilishadi. Kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlarsiz yetishtirilgan meva-sabzavotlar, sun’iy qo‘shimchalarsiz oziq-ovqatlar, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari afzal ko‘riladi. Bu sog‘lom turmush tarzini yuritish bilan birga, tabiatga zarar yetkazmaslikni ham ta’minlaydi; **d) Barqaror transport vositalaridan foydalanish** yashil oila transportda ham ekologik tamoyillarga amal qiladi. Iloji boricha piyoda yurish, velosipedda harakatlanish, jamoat transportidan foydalanish yoki elektromobillarni afzal ko‘rish orqali havo ifloslanishining oldi olinadi; **e) Uyda ekologik xavfsizlikni ta’minlash** yashil oilalar yashash muhitini ekologik toza qilishga intiladi. Ular

kimyoviy tozalovchi vositalar o‘rniga tabiiy, zararli moddalarni o‘z ichiga olmagan vositalardan foydalanadilar. Shuningdek, uy jihozlari va qurilish materiallari tanlashda ekologik standartlarga rioya qiladilar, energiya tejamkor texnikalardan foydalanadilar.

Shu tariqa “Yashil oila” modeli jamiyat hayotida katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. Har bir oila o‘z hayot tarzini ekologik tamoyillar asosida quradigan bo‘lsa, mamlakatda umumiy ekologik ahvol yaxshilanadi, havoning, suvning va tuproqning ifloslanishi kamayadi, sog‘lom turmush tarzi keng tarqaladi. Yashil hayot tarziga o‘tgan oilalar orqali jamiyatda ekologik madaniyat shakllanadi, bu esa yangi avlodni ongli va mas’uliyatli qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Bolalar bolaligidan ekologik ongli, tejamkor va ijtimoiy faol bo‘lib voyaga yetadilar. Shu orqali butun bir xalqning ekologik madaniyat darajasi oshadi.

O‘zbekistonda ekologik turmush tarzini ommalashtirish maqsadida “Bir million yashil oila” umumxalq harakatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda. 2025-yil 1-iyunga qadar “Ekologik faol fuqaro” unvoni berilgan platformani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bunday fuqarolar davlat xizmatlari va kreditlari bo‘yicha chegirmalar olishlari mumkin bo‘ladi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 1-bandi 1-xat boshida “mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish”[3] asosiy vazifa qilib belgilangan.

Bugungi kunda “Yashil oila” modeli nafaqat ekologik ongni shakllantirish, balki axloqiy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu modelda axloqiy murosa – ya’ni oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, bir-birini tinglash, tushunish va ekologik mas’uliyatda yakdillik muhim tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

Keling avval masalani xorijiy mamlakatlarda qanday shakllanishi va rivojlanish tamoyillariga to‘xtalib, undan so‘ng O‘zbekistonda bu borada qanday ishlar olib borilayotganligini tahliliga to‘xtalamiz. Turli xorijiy mamlakatlarda bu model turlicha shakllangan bo‘lsa-da, ulardagi ijobiy tajribalarni tahlil qilish O‘zbekistonda ham bu sohada rivojlanishga xizmat qiladi.

Murosa bu yerda nafaqat ijtimoiy yondashuv, balki barqaror ekologik qadriyatlarni hayotga tadbiq etish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. O‘zaro tushunish asosida qabul qilingan har qanday ekologik qaror yanada samaraliroq va bardavom bo‘ladi. “Yashil oila modelida murosa orqali qabul qilingan har bir qaror – bu farzandlar uchun hayotiy saboqdir. Ular ota-onasining kelishuvga intilishi, bir-birining fikrini hurmat qilishi, ekologik qadriyatlarni birgalikda joriy qilishi orqali murosaning mohiyatini hayotiy tajriba sifatida o‘zlashtiradilar. Bu esa ularda ijtimoiy faol, madaniyatli va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanish uchun mustahkam asos bo‘ladi”[4]. Murosa, ayni paytda, jamiyat hayotida ham keng qo‘llanilishi kerak bo‘lgan qadriyatlardan biridir. Har bir oila ichida shakllangan murosaviy munosabatlar jamiyatda ijobiy iqlim, barqarorlik va taraqqiyotga olib

keladi. “Yashil oila” orqali ekologik ong bilan birga ijtimoiy uyg‘unlik, birdamlik va hamkorlik muhitini shakllanadi.

Zamonaviy davrda ekologik barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash yo‘lida “Yashil oila” modeli tobora dolzarb tus olmoqda. Bu model nafaqat ekologik ong va atrof-muhitga e’tibor masalalarini o‘z ichiga oladi, balki oila a’zolari o‘rtasida axloqiy murosani shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, “O‘zbekiston jamiyatida oilaviy qadriyatlar, madaniyat va an’analar yuqori qadrlanadi. Shunday sharoitda “Yashil oila” modelining axloqiy jihatlari alohida e’tiborga loyiqdir”[5]. “Yashil oila” tushunchasi, birinchi navbatda, atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatni ifodalasa-da, aslida bu model oilaviy hayotda ham barqarorlik, o‘zaro hurmat, murosa va birdamlikni o‘z ichiga oladi. Ekologik hayot tarzi – bu nafaqat chiqindilarni ajratish, resurslarni tejash yoki yashil energiyadan foydalanish, balki insonlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni ham yangicha yondashuvda shakllantirish demakdir.

O‘zbek oilalarida tarbiya jarayoni ko‘p hollarda qadriyatlar, an’analar va kattalarning tajribasiga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, “Yashil oila” modeli yosh avlodga nafaqat ekologik bilim va ko‘nikmalarni, balki axloqiy normalarni ham singdirish imkonini beradi. “Murosaga erishish – bu farzandlar va ota-onalar o‘rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirish, turli avlodlar o‘rtasida hamjihatlikda yashashni ta’minlashdir. Axloqiy murosa, bir tomondan, oilaning ichki muhitida barqarorlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, oilaning jamiyatdagi ijobiy obrazini mustahkamlaydi”[6]. O‘zbekistonda olib borilayotgan “Yashil makon”, “Yashil energiya” va “Yashil taraqqiyot” kabi tashabbuslarni oila darajasida qo‘llab-quvvatlash, avvalo, axloqiy qarorlar qabul qilish madaniyatiga bog‘liq. Bunda har bir a’zo o‘z mas’uliyatini anglab yetishi va o‘z harakatlarini boshqalarning manfaatini inobatga olgan holda yo‘naltirishi muhim.

Shu bois “Yashil oila” modeli O‘zbekiston sharoitida faqat ekologik harakat emas, balki axloqiy tarbiya, o‘zaro hurmat, madaniyat va murosaning uyg‘unligini ta’minlovchi kompleks tizim sifatida qaralishi lozim. Bu esa nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham barqaror, sog‘lom va inoq jamiyatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

**“Yashil oila” modelida axloqiy murosani ta’minlash bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari suramiz:**

**Oilaviy suhbatlar va ekologik madaniyatni mustahkamlash.** Har hafta barcha oila a’zolari ishtirokida ekologik masalalar, axloqiy qadriyatlar va kundalik hayotdagi muhim masalalar yuzasidan suhbatlar tashkil etish foydalidir. Bu nafaqat ekologik ongni rivojlantiradi, balki o‘zaro tushunish va murosaga asos bo‘ladi.

**Farzandlarda mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish.** Bolalarga kichik yoshdan boshlab chiqindilarni ajratish, suv va elektr energiyasini tejash, o‘simlik ekish kabi kichik ekologik vazifalarni topshirish orqali ularda nafaqat tabiatga, balki oila a’zolariga nisbatan ham hurmat va mas’uliyat tuyg‘usi rivojlanadi.

**O‘zaro hurmatga asoslangan qarorlar qabul qilish.** Oila doirasida har qanday masalani hal etishda har bir a’zoning fikrini inobatga olish, yosh yoki lavozimidan qat’i nazar, muhokama madaniyatini rivojlantirish axloqiy murosaning muhim omilidir. Bu esa oilada sog‘lom muhit yaratadi.

**Birgalikdagi ekologik faoliyatlarni yo‘lga qo‘yish.** Daraxt ekish, bog‘ parvarishi, chiqindilarni yig‘ish kabi ekologik tadbirlarda oila a’zolarining birgalikda ishtiroki ularni nafaqat atrof-muhitga, balki bir-birlariga ham yaqinlashtiradi. Bunday faoliyatlar o‘zaro birdamlikni mustahkamlaydi.

**Mahalliy an’analarni ekologik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish.** O‘zbek oilalaridagi an’anaviy axloqiy tamoyillar – kattalarni hurmat qilish, mehr-oqibat, halollik – “Yashil oila” modelining ekologik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilsa, natijada zamonaviy va milliy qadriyatlar asosida axloqiy murosa muvaffaqiyatli ta’minlanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. Ровинская Т.Л. Европейское зеленое движение в условиях кризиса: новые подходы. Анализ и прогноз. Журнал ИМЭМО РАН, 2021, № 4, сс. 24-33. DOI: 10.20542/afij-2021-4. 24-33.
2. Резенкова, Ю.А. Роль семьи и школы в экологическом воспитании младших школьников / Ю.А.Резенкова, // Международный научноисследовательский журнал «Евразийский Союз Ученых». - 2019. - №9. – С. 41-43.
3. «Ўзбекистон – 2030» стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида ПФ-16-сон (мурожаат қилинган сана 15.04.2025. https://lex.uz/docs/7369703).
4. Рыжова Н.А. Программа «Наш дом — природа». — М.: Карапуз-дидактика, 2005. — 192 с.
5. Ashurov A.U. Insoniyatning ekotizimga ongli munosabatini rivojlantirishda jamoatchilik ekologik nazoratining ahamiyati. // “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” elektron ilmiy jurnal, Toshkent, 2023. №2. 60-66-betlar.
6. Toshmurodov Mirolim Ismoil o‘g‘li. Sharq ma’naviy merosida “murosa” va “axloqiy murosa” tushunchasining o‘ziga xos ko‘rinishlari. // NamDU ilmiy axborotnomasi №5. 2024 – B.447-448.


# YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL OILANING O‘RNI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)


**Ashurov Abror Uralovich,**
University of Business and Science, Ijtimoiy-gumanitar va tillar kafedrasi v.b dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Elektron pochta: abrordavrontemur@gmail.com
**Ro‘zimurodov O‘rol Madatovich,**
Mustaqil tadqiqotchi



**Annotatsiya.** Yashil iqtisodiyot bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, barqaror rivojlanishni ta’minlaydigan iqtisodiy modeldir. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotda oila institutining roli yoritiladi. Yashil oilalar ekologik ongli, energiyani tejaydigan, chiqindilarni kamaytirishga intiladigan ijtimoiy birliklardir. Ularning kundalik faoliyati, iste’mol madaniyati va farzandlarga berilayotgan

tarbiya ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada yashil oila konsepsiyasi, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, yashil iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi misollar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil oila, ekologik tarbiya, barqarorlik, chiqindilar, energiya tejash, atrof-muhit, ekologik ong, iste’mol madaniyati, ekologik xavfsizlik, resurslarni tejash, iqtisodiy barqarorlik, yashil texnologiyalar, oila qadriyatlari, ekologik madaniyat.

Ekologik xulq-atvor va xabardorlik oilalarning uy xo‘jaligi tarkibi, daromadi va ta’lim tuzilishiga qarab farq qiladi. Ekologik siyosat oilalar tobora ko‘payib borayotganini hisobga olishi kerak. Atrof-muhit siyosati haqida gap ketganda, oilalarni “o‘zgarishlar agenti” sifatida qabul qilish kerak. Shuningdek, ular avlodlararo almashinuv uchun muhim forum hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishini yumshatish va unga moslashish chora-tadbirlari natijasida yuzaga keladigan moliyaviy va vaqtinchalik muammolarni hal qilish uchun oilalarni qo‘llab-quvvatlash vositalari ishlab chiqilishi kerak.

Shu paytgacha oilalar iqlim inqirozini muhokama qilishda muhim rol o‘ynamagan. Shunga qaramay, ular avlodlararo munosabatlarni shakllantirishda, ayniqsa atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlimga mos xulq-atvor haqida gap ketganda muhim rol o‘ynaydi) ota-onalar “namuna” funksiyasiga ega bo‘lib, ular keyingi avlodning atrof-muhit haqidagi xabardorligi va xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Iste’molchi sifatida oilalar ekologik toza (yoki zararli) mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabni hal qiladi. Biroq, iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga moslashish, shuningdek, ekologik siyosat choralarining moliyaviy yukini o‘z zimmasiga olish ko‘plab oilalar uchun qo‘shimcha yukni anglatadi. Bu, ayniqsa, kichik bolali va uyda g‘amxo‘rlik qilish majburiyati bo‘lgan oilalarga taalluqlidir.

Atrof-muhit va aholi rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha yetakchi tadqiqot markazlaridan biri bo‘lgan Vitgenshteyn demografiya va global inson kapitali markazi (IIASA, O‘AW, Vena universiteti) olimlari tomonidan Population Europe bilan hamkorlikda tayyorlangan “Yashil oila - iqlim o‘zgarishida avlodlararo adolat” nomli yangi tadqiqotda oilaning iqlim o‘zgarishini yumshatish va unga moslashishdagi roli, iqtisodiyotga hissasi yoritib berilgan. Tadqiqot Germaniyaning Oila, keksalar, ayollar va yoshlar ishlari bo‘yicha federal vazirligi tomonidan moliyalashtirildi. Natijalar oliy darajadagi munozara seminarida akademiya, siyosat va fuqarolik jamiyati ekspertlari bilan muhokama qilindi. Tadqiqot mualliflaridan tashqari, turli tashkilotlarning vakillari ham ishtirok etishdi[1].

Barqaror xatti-harakatlar nuqtai nazaridan avlodlar o‘rtasidagi farqlar haqidagi jamiyat tasavvurlari so‘nggi o‘n yilliklarda sezilarli darajada o‘zgardi, ayniqsa asosan yosh avlod vakillari tomonidan boshqarilgan iqlim noroziliklari ortidan. Darhaqiqat, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson yoshi ulg‘aygan sari uning ekologik izi ortib boradi. Bu ta’sirning katta qismi yosh o‘tishi bilan daromadning oshishi natijasida yuzaga keladi. Bu iqlimga zarar yetkazuvchi oqibatlar bilan bog‘liq bo‘lgan iste’molchilarning xatti-harakatlariga imkon beradi, masalan, o‘rniga kattaroq avtomobil haydash velosiped yoki jamoat transportidan foydalanish, turistik maqsadlarda havo transportida sayohat qilish yoki uy-joyga

ko‘proq ehtiyoj sezish (Kleinhückelkotten va boshq. 2016, Pothen & Tovar Reaños 2018). Biroq, oxir-oqibat, CO2 emissiyasi 50 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan odamlar guruhida eng yuqori cho‘qqiga chiqadi. Odamlar pensiya yoshiga yetganda, chiqindilar sezilarli darajada kamayadi, chunki keksa odamlar endi ishga borishlari shart emas va ularning iste’mol xatti-harakatlari o‘zgaradi.

Shuni aytish kerakki, alohida tug‘ilish guruhlari o‘rtasidagi farqlarni hisobga olish kerak. Kelajakdagi pensionerlar o‘zlarini hozirgi yoki o‘tmishdagi pensionerlar kabi tutishlari mutlaqo aniq emas. O‘rtacha olganda, yirik bebi-bumerlar avlodining a’zolari ota-onalari nafaqaga chiqqan paytdagiga qaraganda ancha yaxshi salomatlikka ega. Shuning uchun ular, masalan, oldingi avlodlarga qaraganda harakatchan bo‘lib qolish ehtimoli ko‘proq. Boshqa tomondan, bu avlod vakillari kuchli ekologik harakatlar davrida ijtimoiylashgan, bu esa iqlim muammolaridan ko‘proq xabardor bo‘lishga olib keladi.

Bugungi yosh avlodga nazar tashlasak, ularda ham bir jinsli guruhni uchratmaymiz. Qishloq joylarda yashaydigan va maktab yoki kasb-hunar ta’limi muassasalariga qatnaydigan yoshlar shahar yoki shahar atrofidagi tengdoshlariga qaraganda turli xil harakatlanish ehtiyojlariga ega. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar katta avlodga qaraganda atrof-muhitni muhofaza qilish va barqarorlikka ko‘proq e’tibor berishadi. Biroq, ular keyinchalik, masalan, avtomobil sotib olish yoki chet eldagi sayyohlik yo‘nalishlariga uchish imkonini beradigan resurslarga ega bo‘lganlarida, ekologik ongning bu ko‘lamini saqlab qolishadimi yoki yo‘qmi, aniq emas. Shunga qaramay, Volfgang Luts (Vitgenshteyn demografiya va global inson kapitali markazi) muhokamada yoshlikda shakllangan qadriyatlar odatda katta yoshdagi xulq-atvorga ta’sir ko‘rsatishi haqida kuchli dalillar mavjudligini ta’kidlaydi.

Ishga o‘tish va daromadni oshirishdan tashqari, bolali oila qurish atrof-muhitga, ayniqsa resurslarni iste’mol qilishga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan yana bir hayotiy hodisadir (Milfont, Poortinga & Sibley 2020). Trisha Shrum (Dear Tomorrow) ta’kidlashicha, ekologik xavflar va ularning bolalar salomatligiga ta’siri (masalan, mayda chang chiqindilari keltirib chiqaradigan astma) o‘rtasidagi bog‘liqlik ota-onalarni iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda yanada faolroq pozitsiyani egallashga undashi mumkin. Anna Rotkirch Väesto‘liittoga ko‘ra), barqaror turmush tarzini muvaffaqiyatli turmush tarzining mezoniga aylantirish va shu bilan ota-onalarning tegishli xatti-harakatlarini rag‘batlantirish kerak.

Biroq, barcha oilalar ham barqaror turmush tarzi uchun zarur bo‘lgan resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega emasligicha qolmoqda. Masalan, kam ta’minlangan oilalar har doim ham barqaror ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib ololmaydilar, qishloq joylaridagi oilalar o‘zlarining harakatlanish ehtiyojlarini avtomobilsiz qondira olmaydilar va hokazo. Agar oilalar atrof-muhit siyosati sohasida faol “o‘zgarish agentlari”ga aylanishi kerak bo‘lsa, siyosatchilar ularga buni amalga oshirishda yordam berishlari kerak.

Oilaviy siyosat tashkilotlari vakillarining ogohlantirishicha, bu borada oilalarga ortiqcha yuklama tushmoqda. Sven Iversen (Germaniya oila tashkilotlari uyushmasi) shunday deydi: “Ota-onalar shunchaki ota-ona bo‘lish uchun juda xavotirda. Bundan tashqari, onalar va ishlaydigan ayollar hisobidan uy-ro‘zg‘or

ishlari va parvarishlash ishlarining hali ham teng taqsimlanmaganligini ham hisobga olish kerak, bu esa jamiyat vazifalarini oilalarga o‘tkazish orqali yanada kuchayishi mumkin”.

Oilalar, shuningdek, iqlim o‘zgarishi siyosatining ta’siri ostida ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli jihatidan ayniqsa zaif. Oziq-ovqat, tovarlar, xizmatlar va energiya narxlarining oshishi kabi atrof-muhitni muhofaza qilish talablari va iqlim o‘zgarishini yumshatish siyosati xarajatlari asosan iste’molchilarga o‘tkazilishi mumkin. Oilalar bunga nomutanosib ta’sir ko‘rsatadi va ko‘pincha bunday o‘zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo‘la olmaydi. Masalan, o‘z qaramog‘iga muhtoj bolalari yoki qarindoshlari bo‘lgan oilalar ko‘proq yashash joyiga bog‘liq bo‘ladi. Kam ta’minlangan oilalar har doim ham jamoat transporti yaxshi rivojlangan hududlarga yoki energiya tejamkor xonadonlarga ko‘chib o‘ta olmaydi. Shu sababli, ekologik siyosat tufayli ijara va uy-joy narxining oshishi ularga ko‘proq ta’sir qiladi. Mustaqil yashaydigan keksa odamlar, agar ular oila a’zolariga yaqin yashamasalar yoki uyga yaqin tibbiy xizmatdan foydalana olmasalar, turmush darajasi va harakatlanish xarajatlarining oshishiga ta’sir qilishi mumkin.

Atrof-muhit siyosati talablari bilan bog‘liq moliyaviy yuklar ham avlod ichidagi “equity gap”ga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy mavqei pastroq bo‘lgan odamlar ko‘pincha kichikroq kvartiralarda yashaydilar va uzoq masofalarga kamroq sayohat qiladilar, natijada ekologik iz nisbatan past bo‘ladi. Biroq, yuqori daromadli oilalar narxlarning oshishiga moslashishi va atrof-muhitni iste’mol qilish xatti-harakatlariga ko‘proq moslashishi mumkin bo‘lsa-da, past daromadli oilalar bunga osonlikcha moslasha olmaydilar. Quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

1. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va uning oqibatlariga moslashish bo‘yicha chora-tadbirlar aholi kichik guruhlarining ijtimoiy-demografik xususiyatlariga muvofiq tabaqalashtirilishi lozim. “Bir o‘lcham hammaga mos keladi” siyosati maqbul emas.

2. Mahsulot yoki xizmatning ekologik xarajatlari uning umumiy narxida hisobga olinishi kerak. Ammo shundoq ham nochor ahvolda bo‘lganlarga bu jarayon qo‘shimcha yuk bo‘lmasligi kerak. Siyosat aholining ayniqsa zaif qatlamlarini, masalan, kam ta’minlangan oilalarni yoki davlat tovarlari va xizmatlaridan yetarli darajada foydalana olmaydigan hududlarni himoya qilish uchun ishlab chiqilishi kerak.

3. Jamoat transporti oilalar ehtiyojini qondirishi kerak. Bu, ayniqsa, qishloq va shahar atrofiga taalluqlidir. Oilaning birinchi farzandi dunyoga kelishi bilan avtomashinaga o‘tishi odatiy hol bo‘lmasligi kerak.

4. Harakatchanlik va energiya xarajatlarining oshishi ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan zaif keksalarga alohida e’tibor qaratish kerak.

5. Oilalar ekologik xulq-atvor va xabardorlik uchun muhim “o‘rganish obyekti"dir. Shuning uchun siyosatchilar oilalarga moslashtirilgan axborot xizmatlarini yaratishga sarmoya kiritishlari va bu sohada fuqarolik jamiyati faoliyatini rag‘batlantirishlari kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Striessnig et al. (2022). Green Family. Generational Justice in Climate Change. https://population-europe.eu/files/documents/dp_14_green-family.pdf.
2.Kleinhückelkotten, S., Neitzke, H. & Moser, S. (2016). Representative survey of per capita consumption of natural resources in Germany (by population groups).https://boris.unibe.ch/85892/1/texte_39_2016_repraesentative_erhebung_vonpro-kopferbraeuchen_natuerlicher_ressourcen.pdf.
3.Pothen, F. & Tovar Reaños, M. A. (2018). The Distribution of Material Footprints in Germany. Ecological Economics, 153, 237 251. https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2018.06.001.
4.Milfont, T. L., Poortinga, W. & Sibley, C. G. (2020). "Does Having Children Increase Environmental Concern? Testing Parenthood Effects with Longitudinal Data from the New Zealand Attitudes and Values Study." PLOS ONE 15 (3): e0230361. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0230361
5.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. "Yashil makon" umummilliy loyihasi. https://president.uz

## XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ELEKTRON TIJORATNING O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI TAHLIL QILISH METODLARINI OPTIMALLASHTIRISH

**Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti,
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: lazizmakhmudov90@gmail.com, ORCID: 0000-0002-6819-6543

**Annotatsiya:** Ushbu tezis xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish metodlarini optimallashtirishga bag'ishlanadi. Elektron tijoratning iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va boshqa omillar bilan bog'liqligi ko'rib chiqilib, ularni tizimli-holistik yondashuv asosida tahlil qilish taklif qilinadi. Omillarni ta'sir darajasi, yo'nalishi, ko'lami va vaqt omili bo'yicha tasniflash orqali samarali va dinamik tahlil usullari ishlab chiqilgan. Tizimli-holistik yondashuv elektron tijorat ekotizimini chuqur tadqiq qilish va strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** elektron tijorat, xizmat ko'rsatish sohasi, tizimli-holistik yondashuv, omillar tahlili, optimallashtirish, iqtisodiy omillar, texnologik omillar, strategik qarorlar.

Elektron tijorat xizmat ko'rsatish sohasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bank, sug'urta, konsalting va ta'lim kabi xizmatlarni onlayn platformalar orqali taqdim etadi. U tadbirkorlar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan raqamli xizmat shaklidir. Elektron tijorat talab va taklif qonuniga, makro va mikroiqtisodiy tamoyillarga bo'ysunsa-da, ma'lumotlarni himoya qilish, tranzaksiya xavfsizligi va xalqaro savdo bilan bog'liq o'ziga xos tartibga solish mexanizmlariga ega. Xizmat

ko‘rsatish sohasida esa sifat, mijoz bilan munosabat va aloqalarni boshqarish muhimdir.

Elektron tijoratning rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, demografik, geografik va institutsional omillar bilan bog‘liq. Bu omillarning tahlili uning samaradorligini oshirish va bozor kon’yunkturasini aniqlash imkonini beradi. Omillarni tizimli tahlil qilish elektron tijoratning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va biznes subyektlariga muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, iste’molchilar talabini qondirish va global bozorda raqobatbardosh bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Ko‘plab olimlar elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq qilishgan. Masalan, I.S.Lola va M.B.Bakeev o‘zlarining **“**Цифровая деятельность российских организаций в сфере услуг информационных технологий**”** tadqiqotlarida raqamli yechimlar va marketing texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilganlar. V.V.Korotkix esa **“**Статистический анализ факторов развития электронной коммерции” tadqiqotida ochiq manbalardan foydalangan holda Rossiyadagi elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarning statistik tahlilini o‘tkazgan. Biroq mavjud adabiyotlarda omillarni aniq va tizimli ajratish metodlari yetarlicha bayon etilmagan. Shu sababli, elektron tijoratning o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishda metodik yondashuvlarni optimallashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirda elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishda quyidagi an’anaviy metodlar qo‘llaniladi:

1. **Ekspert baholash usullari:** mutaxassislarning subyektiv fikrlariga asoslanib, omillarning ta’sir kuchini aniqlashga xizmat qiladi, lekin inson omiliga bog‘liqligi sababli ob’ektivlik darajasi past bo‘lishi mumkin.
2. **Statistik va regressiya tahlili:** mavjud ma’lumotlar asosida omillarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydi, ammo real vaqt rejimidagi o‘zgarishlarni hisobga olmaydi.
3. **Makro va mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslangan tahlil:** umumiy tendensiyalarni aniqlashga xizmat qiladi, lekin aniq biznes qarorlari uchun yetarli tafsilotlarni taqdim etmaydi.

Ushbu metodlarning cheklovlari elektron tijoratning tez o‘zgaruvchan tabiati, global raqobat va iste’molchilar ehtiyojlariga tezkor javob berish zarurati bilan bog‘liq. Shu sababli, yanada samarali va dinamik tahlil metodlariga ehtiyoj mavjud. Bizning fikrimizcha, omillarni natijaga ta’sir darajasi asosida tasniflash maqsadga muvofiqdir. Elektron tijoratning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni quyidagi kategoriyalarga ajratib, chuqur o‘rganish zarur:

- **ta’sir darajasi:** bevosita va bilvosita omillar;
- **ta’sir yo‘nalishi:** ijobiy va salbiy omillar;
- **ta’sir ko‘lami:** makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar;
- **vaqt omili:** doimiy va vaqtinchalik omillar.

Bu omillar elektron tijorat ekotizimining shakllanishi va barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Omillarni bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi turlarga ajratish uchun quyidagi qonuniyatlar va tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

1. **Sabab-oqibat aloqasi tamoyili:** omillarning elektron tijoratga ta’sir qilish kuchi va tezligini aniqlaydi.

2. **Iqtisodiy va ijtimoiy bog‘liqlik qonuni:** omillarning iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatdan elektron tijorat bilan bog‘liqligiga qarab ajratiladi.

3. **Tizimli yondashuv tamoyili:** elektron tijorat o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi.

4. **Dinamik ta’sir tamoyili:** omillarning vaqt davomida o‘zgarishiga asoslanadi.

Elektron tijorat ekotizimi tezkorlik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Iste’molchilarning xarid odatlari, bozor tendensiyalari va raqobatchilar harakatlari tez o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlarni aniq va samarali tahlil qilish uchun an’anaviy usullardan tashqari innovatsion metodlarni qo‘llash talab etiladi. Tizimli-holistik yondashuv elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarni kompleks va uzviy bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Uning asosiy afzalliklari:

1. **Kompleks yondashuv:** omillarni alohida emas, o‘zaro ta’sir doirasida ko‘rib chiqadi.

2. **Sabab-oqibat aloqalarini aniqlash:** bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi omillarni ajratadi.

3. **Tizimli tahlil:** omillarni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

4. **Dinamik monitoring va prognoz qilish:** omillarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini tahlil qiladi.

5. **Optimal qaror qabul qilish:** elektron tijorat ekotizimida samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

6. **Moslashuvchanlik va uzluksizlik:** yangi ma’lumotlar va omillar kiritilishi bilan tahlil jarayoni doimiy takomillashtiriladi.

Tizimli-holistik yondashuv doirasida elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarni “ta’sir darajasi, ta’sir yo‘nalishi, ta’sir ko‘lami va vaqt omili” kabi mezonlar bo‘yicha ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Tizimli-holistik yondashuv doirasida elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillar tasnifi**

| Daraja | Tavsif | Misollar |
|---|---|---|
| Kuchli ta’sir qiluvchi omillar | Elektron tijorat rivojlanishiga bevosita va sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan omillar | Internet tezligi va qamrovi, raqamli to‘lov tizimlari, iste’molchilarning onlayn xarid qilish odatlari |
| O‘rtacha ta’sir qiluvchi omillar | Elektron tijoratga bilvosita ta’sir qiluvchi, ammo muhim omillar | Huquqiy tartibga solish, logistika infratuzilmasi, marketing strategiyalari |
| Zaif ta’sir qiluvchi omillar | Uzoq muddatda yoki cheklangan segmentlarga ta’sir qiluvchi omillar | Ijtimoiy va madaniy omillar, ekologik talablar |

Ushbu mezon elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarning intensivligini aniqlashga qaratilgan. Tizimli-holistik yondashuv asosida omillarning o‘zaro ta’sir

matritsasi ishlab chiqiladi, bu esa omillarning bir-biriga ta’sirini baholash imkonini beradi.




**1-rasm. Omillarning o‘zaro ta’sir matritsasi**

Matritsa yordamida **har bir omil o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchi** baholanadi va **ta’sir darajasi** quyidagi mezonlar bo‘yicha aniqlanadi:

**0** – omillar o‘rtasida hech qanday ta’sir mavjud emas;

**1** – omillar o‘rtasida zaif ta’sir mavjud;

**2** – omillar o‘rtasida o‘rta darajada ta’sir mavjud;

**3** – omillar o‘rtasida kuchli ta’sir mavjud.

Matritsaning **vertikal va gorizontal o‘q**larida bir-biriga ta’sir qiluvchi omillar joylashgan bo‘lib, matritsaning har bir katakchasida **ta’sir darajasi** (0-3) ko‘rsatilgan.

**2-jadval**

**Tizimli-holistik yondashuv asosida omillarning o‘zaro ta’siri matritsasi**

| **Omillar** | **Texnologiyalarni ijtimoiy qabul qilinishi** | **Iqtisodiy barqarorlik** | **Aholining yosh qatlamlari** | **Qonunchi-lik** | **Iqlim sharoitlari** |
|---|---|---|---|---|---|
| Texnologiyalar-ni ijtimoiy qabul qilinishi | X | 3 | 3 | 2 | 1 |
| Iqtisodiy barqarorlik | 3 | X | 2 | 2 | 1 |
| Aholining yosh qatlamlari | 2 | 2 | X | 1 | 0 |
| Qonunchilik | 2 | 2 | 1 | X | 0 |
| Iqlim sharoitlari | 1 | 1 | 0 | 0 | X |

Matritsa yordamida omillar o‘rtasidagi ta’sir kuchi 0 (ta’sir yo‘q) dan 3 (kuchli ta’sir) gacha bo‘lgan mezonlar bo‘yicha baholanadi. Bu Tizimli-holistik yondashuv elektron tijoratning ko‘p omilli ekotizimini optimallashtirilgan usulda tadqiq qilish, reallikni to‘liq aks ettirish va nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. Лола И.С. и Бакеев М.Б. (2022). Цифровая деятельность российских организаций в сфере услуг информационных технологий: тенденции и векторы цифровых разработок в сфере развития технологий электронной коммерции и маркетинга. *Современная экономика: проблемы и решения*, 14(3), 45-60. https://journals.vsu.ru/meps/article/download/10492/9580/[](https://journals.vsu.ru/meps/article/download/10492/9580/)
2. Коротких В.В. (2021). Статистический анализ факторов развития электронной коммерции на основе открытых данных. *HSE Economic Journal*, 25(2), 123-140. https://publications.hse.ru/articles/482946032[](https://publications.hse.ru/en/)
3. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education.
4. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2020). *E-commerce: Business, Technology, Society* (16th ed.). Pearson Education.


# ELEKTRON TIJORAT BOZORI SALOHIYATINI BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH


**Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: lazizmakhmudov90@gmail.com, ORCID: 0000-0002-6819-6543



**Annotatsiya:** ushbu tezis elektron tijorat bozori salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirishga bag‘ishlanadi. Bozorni aniqlashning asosiy usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi. Gibrid usulning konseptual modeli taklif qilinib, Big Data, AI va ML texnologiyalarini integratsiya qilish orqali tahlilning aniqligi oshiriladi. Dinamik omil modellari (DFM) ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarni tahlil qilish va uzoq muddatli tendensiyalarni prognozlashda samarali ekanligi ta’kidlanadi.



**Kalit so‘zlar:** elektron tijorat, bozor salohiyati, gibrid usul, Big Data, AI, ML, dinamik omil modellari, prognozlash, iste’molchi xatti-harakatlari.


Elektron tijorat bozori hajmi va salohiyatini aniqlash strategik rejalashtirish va asosli biznes qarorlarini qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu korxonalarga bozordagi imkoniyatlarni tushunish, raqobatni baholash, iste’molchilarning xarid odatlari va ehtiyojlarini aniqlash, shuningdek, samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun maqsadli segmentlarni belgilashda yordam beradi. Bundan tashqari, bozor salohiyatini baholash investorlar va tadbirkorlarga investitsiyalar bo‘yicha qaror qabul qilish va yangi mahsulot yoki

xizmatlarni joriy etishda asosli yondashuvni ta’minlaydi, bu esa barqaror o‘sish va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Hozirda elektron tijorat bozori hajmini aniqlash uchun bir qator usullar qo‘llaniladi, ularning har biri o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega. Quyida asosiy usullar va ularning tavsifi keltirilgan (1-jadval).

**1-jadval**

**Elektron tijorat bozori hajmini aniqlash usullari**

| № | Usul | Tavsifi |
|---|---|---|
| 1 | Pastdan yuqoriga ko‘tarilish (Bottom-up) | Mikro darajadagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, so‘ngra ularni umumiy bozor hajmini aniqlash uchun jamlash |
| 2 | Yuqoridan pastga tushish (Top-down) | Umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan (YaIM, chakana savdo) boshlab, aniq bir bozorga o‘tish |
| 3 | Iste’molchi talabi | Iste’molchilarning xarid odatlari va afzalliklarini so‘rovnomalar yoki onlayn qidiruv tendensiyalari orqali o‘rganish |
| 4 | Trafik va konversiya tahlili | Elektron tijorat veb-saytlaridagi trafik ma’lumotlari (Google Analytics, SimilarWeb) asosida tahlil |
| 5 | Ekspert baholashi | Soha mutaxassislari bilan suhbatlar yoki tahliliy hisobotlardan (Forrester, Gartner) foydalanish |
| 6 | To‘lov va tranzaksiya ma’lumotlari | To‘lov tizimlari va yirik onlayn bozorlardan (Amazon, Uzum) olingan ma’lumotlarni tahlil qilish |
| 7 | Ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari | Ijtimoiy tarmoqlardagi brend faolligi va sharhlarni o‘rganish orqali talabni baholash |

Pastdan yuqoriga ko‘tarilish usuli uch xil yondashuvni o‘z ichiga oladi: 1) sohadagi korxonalarning savdo ma’lumotlarini to‘plash va jamlash; 2) potensial mijozlar soni va o‘rtacha xarid summasini hisoblash; 3) bozor segmentlarini (tovar, mintaqa bo‘yicha) tahlil qilish. Yuqoridan pastga tushish usuli YaIM, iste’mol xarajatlari kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanadi yoki elektron tijoratning umumiy chakana savdodagi ulushini baholaydi. Iste’molchi talabi usuli so‘rovnomalar va qidiruv so‘rovlari orqali iste’molchilarning xatti-harakatlarini o‘rganadi. Trafik va konversiya tahlili veb-sayt trafik ma’lumotlari va konversiya foizini hisoblaydi. Ekspert baholashi mutaxassislarning prognozlari yoki tahliliy hisobotlarga asoslanadi. To‘lov va tranzaksiya ma’lumotlari usuli to‘lov tizimlari va onlayn bozorlar (masalan, Uzum, Olcha) ma’lumotlarini tahlil qiladi. Ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari usuli brend faolligi va iste’molchi sharhlarini o‘rganadi.

**2-jadval**

**Elektron tijorat bozori hajmini aniqlash usullarining afzalliklari va kamchiliklari**

| № | Usul | Afzalliklari | Kamchiliklari |
|---|---|---|---|
| 1 | Pastdan yuqoriga | Yuqori aniqlik, chuqur tahlil, yangi bozorlar uchun mos | Ko‘p vaqt va resurs talab qiladi, ma’lumot to‘plash qiyin |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 | Yuqoridan pastga | Tez, umumiy tasavvur beradi, oson | Kam aniqlik, taxminlarga asoslanadi |
| 3 | Iste’molchi talabi | Iste’molchi xatti-harakatlarini tushunish, dolzarb | Noto‘g‘ri ma’lumotlar, qimmat, to‘liq bo‘lmasligi mumkin |
| 4 | Trafik va konversiya | Real vaqtda ma’lumot, batafsil tahlil | Ma’lumot almashish cheklovlari, murakkab vositalar |
| 5 | Ekspert baholashi | Mutaxassis tajribasi, tez prognoz | Subyektiv, bir tomonlama bo‘lishi mumkin |
| 6 | To‘lov va tranzaksiya | Obyektiv, aniq ma’lumot | Maxfiylik cheklovlari, qisman ma’lumot |
| 7 | Ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari | Joriy trendlar, katta ma’lumot | Noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumot |

Gibrid usulni yaratish ushbu usullarning kuchli tomonlarini birlashtirib, zaif tomonlarini minimallashtiradi. Gibrid usulning konseptual modeli quyidagi rasmda keltirilgan.

Ma’lumotlarni yig‘ish: savdo ma’lumotlari, ijtimoiy tarmoqlar, veb-analitikalar va to‘lov tizimlaridan ma’lumotlar to‘planadi (Hadoop, Spark vositalari yordamida).

Tahlil qilish: vaqt qatorlari (ARIMA, LSTM), klasterlash (K-means) va regressiya tahlillari orqali prognozlar amalga oshiriladi.

Integratsiya: turli manbalardan olingan ma’lumotlar AI asosidagi tizimlar yordamida birlashtiriladi.

Monitoring va moslashtirish: yangi ma’lumotlarga moslashish uchun o‘z-o‘zini o‘rganuvchi algoritmlar (reinforcement learning) qo‘llaniladi.

Qaror qabul qilish: vizualizatsiya vositalari (Power BI, Tableau) yordamida strategik qarorlar shakllantiriladi.




**1-rasm. Elektron tijorat bozorining hajmi va salohiyatini aniqlash uchun gibrid uslubning konseptual modeli**

Elektron tijorat bozori salohiyatini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar muhimdir:

1. Yalpi sotilgan tovarlar qiymati: platformadagi umumiy savdo hajmi.
2. Yalpi daromad: korxonaning savdo, reklama va komissiyalardan olingan daromadi.
3. Buyurtmalar soni: muayyan davrdagi umumiy buyurtmalar.
4. O‘rtacha buyurtma qiymati: bitta buyurtmaning o‘rtacha narxi.
5. Faol foydalanuvchilar soni: xarid qilgan foydalanuvchilar.

6. Yangi foydalanuvchilar soni: birinchi xaridni amalga oshirganlar.
7. Mijozlarni ushlab turish darajasi: takroriy xaridlar ulushi.
8. Konversiya darajasi: xarid qilgan tashrif buyuruvchilar foizi.
9. Mijozlarni jalb qilish xarajati: yangi mijoz jalb qilish xarajatlari.
10. Mijozning qiymati: bir mijozdan kutilgan o‘rtacha daromad.
11. Mobil tranzaksiya hajmi: mobil qurilmalar orqali savdo ulushi.
12. Bozor ulushi: raqobatchilarga nisbatan korxona ulushi.

Raqamli texnologiyalar, xususan, Big Data, AI va ML bozor tahlilida aniqlik va moslashuvchanlikni oshiradi. Big Data iste’molchi xatti-harakatlarini, talab dinamikasini va marketing samaradorligini tahlil qilishda, AI va ML esa prognozlash, segmentatsiya va optimallashtirishda muhim vositalardir.

Prognoz modellaridan Dinamik omil modellari (DFM) ayniqsa samarali hisoblanadi. DFM ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarni oz sonli yashirin omillar orqali tahlil qiladi, iqtisodiy iqlim, iste’molchi xohishlari va texnologik tendensiyalarni aniqlaydi. Ushbu model qisqa va uzoq muddatli prognozlarni ta’minlaydi, turli manbalardan ma’lumotlarni integratsiya qilib, xavf va imkoniyatlarni baholaydi.

**3-jadval**

**Elektron tijorat bozori salohiyatini aniqlash modellari**

| № | Model guruhi | Model turlari | Tavsifi |
|---|---|---|---|
| 1 | **Miqdoriy modellar** | ARIMA | Vaqt seriyalarini tahlil qiladi, mavsumiylik va tendensiyalarni aniqlaydi |
| | | Eksponensial silliqlash | Tartibsiz ma’lumotlarni tekislaydi |
| | | SARIMA | Mavsumiylikni hisobga oladi |
| | **Regressiya modellari** | Chiziqli regressiya | O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlikni aniqlaydi |
| | | Logistik regressiya | Ikkilik natijalarni bashorat qiladi |
| | **Neyron tarmoqlar** | Ko‘p qatlamli perseptronlar | Nochiziqli bog‘liqliklarni aniqlaydi |
| | | RNN (LSTM) | Uzoq muddatli bog‘liqliklarni ushlaydi |
| 2 | **Sifat modellari** | Delfi usuli | Ekspertlar so‘rovi orqali prognoz |
| | | Ssenariy tahlili | Turli stsenariylarni ishlab chiqadi |
| | | Analogiya | Shu kabi bozorlar bilan taqqoslaydi |
| 3 | **Gibrid modellar** | Miqdoriy va sifat usullarini birlashtiradi | Aniqroq prognozlar beradi |

Elektron tijorat bozori salohiyatini prognozlashda bozor, tovar va xizmatlarning xususiyatlari, shuningdek, iqtisodiy inqirozlar, siyosiy voqealar va texnologik o‘zgarishlar kabi tashqi omillar muhim ahamiyatga ega. Iste’molchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish aniq va ishonchli modellar yaratishga yordam beradi. Ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, geografik va siyosiy omillarni o‘zaro bog‘langan holda ko‘p o‘lchovli ma’lumotlar asosida quyidagi zamonaviy modellar qo‘llaniladi:

Vektor avtoregressiyasi (VAR): Bir nechta o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi, teskari munosabatlarni aniqlaydi. Afzalligi – kompleks tahlil imkoniyati, kamchiligi – katta hajmdagi tarixiy ma’lumotlar talab qilinadi.

Vektor xatolarini tuzatish modeli (VECM): Uzoq muddatli muvozanatni hisobga oladi, lekin kointegratsiya testlari va murakkab talqin talab qiladi.

Bayesian VAR (BVAR): Cheklangan ma’lumotlarda samarali, lekin hisoblash jarayonlari murakkab.

Gradientniy busting algoritmlari (XGBoost, LightGBM): Nochiziqli bog‘liqliklarni aniqlaydi, yuqori aniqlik beradi, lekin haddan tashqari moslashish xavfi mavjud.

Long Short-Term Memory (LSTM): Uzoq muddatli bog‘liqliklarni ushlaydi, murakkab tendensiyalarni aniqlaydi, lekin katta ma’lumot va resurs talab qiladi.

Dinamik omil modellari (DFM): Ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarni yashirin omillar orqali tahlil qiladi, katta ma’lumotlar bilan samarali ishlaydi, lekin sozlash uchun chuqur bilim talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, DFM elektron tijorat bozori salohiyatini prognozlashda ayniqsa samarali. U ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va texnologik omillarni oz sonli yashirin omillar orqali tahlil qilib, qisqa va uzoq muddatli prognozlarni ta’minlaydi. DFM heterojen ma’lumotlarni integratsiya qiladi, xavf va imkoniyatlarni aniqlaydi, tezisda keltirilgan gibrid usulga mos ravishda moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Лола И.С. и Бакеев М.Б. (2022). Цифровая деятельность российских организаций в сфере услуг информационных технологий: тенденции и векторы цифровых разработок в сфере развития технологий электронной коммерции и маркетинга. *Современная экономика: проблемы и решения*, 14(3), 45-60. https://journals.vsu.ru/meps/article/download/10492/9580/[](https://journals.vsu.ru/meps/article/download/10492/9580/)
2. Коротких В.В. (2021). Статистический анализ факторов развития электронной коммерции на основе открытых данных. *HSE Economic Journal*, 25(2), 123-140. https://publications.hse.ru/articles/482946032[](https://publications.hse.ru/en/)
3. Bertalanffy, L. von. (1968). *General System Theory: Foundations, Development, Applications*. New York: George Braziller.
4. Forrester, J. W. (1994). System Dynamics: A Framework for Modeling Complex Systems. *System Dynamics Review*, 10(2-3), 251-265.


## “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANISHINING AXLOQIY VA ESTETIK ISTIQBOLLARI


**Alikulov Kuvvat Xaknazarovich,**
Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsenti, f.f.f.d (PhD)
**Haqnazarova Sarvina**
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi



**Annotasiya.**Yoshlar iqtisodiy faolligining axloqiy-estetik jihatlarini o‘rganish iqtisod, sosiologiya, etika va estetika fanlarining istiqbolli yo‘nalishlari

hisoblanadi. yoshlar iqtisodiy faolligi muammolarini tadqiq etish, axloqiy-estetik jihatlarini o‘rganish ilmiy-amaliy va nazariy ahamiyatga egadir

**Kalit so‘zlar:** Huquqiy qobiq, ishbilarmonlik, Axloqiy-estetik mezonlar, tadbirkorlik, tadbirkorlik motivi

Hozirgi islohotlar davrida jamiyatimiz yoshlariga bo‘lgan kompleks e’tibor ularning turmush tarzini o‘zgartirib qolmasdan, balki yoshlarni faollashtirilgan ikkilamchi obyekt sifatidagi qonuniy-axloqiy himoya qobig‘iga o‘ramoqda. Huquqiy qobiq yoshlar uchun ma’naviy-axloqiy faollashish, estetik jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini bermoqda.

O‘zbekistonda yoshlarni iqtisodiy faollashtirish va muammolarini tizimli o‘rganish, ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish maqsadida mazkur farmonda bir qator rag‘batlantirish imkoniyatlari keltirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida “Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti”ni tashkil etish, yurtimizda turli soha va tarmoqlarlarda vatanpavarligi bilan tanilgan, o‘z faolligi tufayli yuksak natijalarga erishgan yigitlarga “*Mard o‘g‘lon*” davlat mukofoti, jamoat ishlariga faolligi uchun “*Kelajak bunyodkori*” medali ta’sis etilishi, 2018 yildan boshlab ta’lim muassasini tugatgan yoshlar ishga qabul qilingandan uch yil ichida, birinchi yili uchun 50%, ikkinchi va uchinchi yili uchun 25% miqdoridagi davlat solig‘i joriy etilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu davlat tomonidan yoshlar uchun otalarcha g‘amxo‘rlik kelajakda yoshlarni faollashishga ko‘mak beradi va uni axloqiy jihati namoyon bo‘ladi.

Darhaqiqat, o‘z faolligi natijasida tabiat va jamiyatda xunuklikni yaratish yoki gedonistik ehtiyojlarini qondirish, jamiyatni sun’iy go‘zallashtirish deb tabiatni evdomonistik qadriyatlariga e’tibor bermaslik bu – yoshlar uchun o‘ta didsizlik bo‘lar edi. Faylasuf G.K.Ashinning fikricha: “Elitalar iyerarxiyasida ijtimoiy-dominant guruhlar tarkibida yetakchi o‘rinni yangi madaniy, sivilizasion normalarni yaratuvchi madaniy elita egallashi lozim” [2-72]. Faylasufning bu fikridagi “iqtisodiy madaniyatli inson” kontekstida bozor munosabatlariga o‘tish davrida ijtimoiy munosabatlarda axloqiy-estetik qadriyatlarni tushungan yoshlarning katta guruhi shakllanishi zarur. Zero, “bozor munosabatlariga o‘tishning hozirgi bosqichi iqtisodiy madaniyatni inson faolligining zaruriy shartiga aylantirmoqda” [3-www.polit.susu.as]. Bugungi yoshlar ta’lim tizimida faol subyekt sifatida bir muncha yangiliklar, yengilliklar va albbatta huquqiy himoyalangan qatlamga aylanib, ayrim hollarda qonun ustuvorligiga nisbatan devasion tafakkur shakllanib qolayotganligi etikalogik muammolar borligidan daololat beradi.

Hozirgi kunda iqtisodiy faollashtirish kontekstida bir qator institutlar, oiladan tortib, tashkilot, uyushmalarda, ta’lim tizimida yoshlar uchun barcha sharoitlar, imtiyozlar yaratilmoqdaki, bular, o‘z navbatida, deviant xulqli yoshlarni yaratib qo‘yish ehtimolini ham beradi. Biz ilmiy tadqiqotimizda yoshlarni iqtisodiy faollashtirishdagi davlat va jamiyatda yaratilgan shart-sharotlarni inkor etish niyatidan yiroqmiz. Biroq ayrim yoshlarda globallashuv va “ommaviy madaniyat” ta’sirida tezroq mulkka ega bo‘lish, osonroq, mashaqqatsiz, mehnatsiz erishish, sabr-toqatga e’tibor bermaslik singari milliy axloqiy qadriyatlarga zid bo‘lgan illatlarni

shakllanishiga yo‘l qo‘yib ham bermaslik kerak. “Go‘zallikni xunuklikdan, haqiqatni soxtadan, yaxshini yomondan farqlay olmagan tadbirkor biznes sohasida biror bir jiddiy natijaga erisha olmaydi. Yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun sifatli xom-ashyo, yuksak texnologiya, estetik didi rivojlangan malakali mutaxassislar kerak. Bu omillardan birortasi past saviyada bo‘lsa, ishlab chiqarish me’yori buziladi, oqibat-natijada yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish muammosi yuzaga keladi” [4-109]. Iqtisodiy faollik natijasi o‘laroq yaratilgan mahsulot, tovar bir vaqtda iqtisodiy qadriyat sifatida maydonga chiqsa, axloqiy-estetik qadriyat sifatida uning umrini uzaytiradi. Axloqiy-estetik mezonlar talabiga javob bersa, unda bu iqtisodiy faollikni qadriyatli tusga kirganligidan darak beradi. “...Samarqandda avtomashina zavodida yig‘ilayotgan yuk va transport mashinalari yoki Asaka avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan har xil rusumdagi yengil avtomobillar moddiy va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligining hosilasi sifatida yaratilayotgan ekan, uning mohiyati odamlarning transport vositasiga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi, ya’ni yaxshimi yoki yomonligi, go‘zal yoki xunukligi chidamliligi yoki chidamsizligi, tejamkor yoki tejamsizligi, soz yoki nosozligi, arzon yoki qimmatligi, texnikaviy jihatdan xavfsiz yoki xavfliligi kabi estetik va axloqiy qadriyatlarning baholash mezonlari bilan o‘lchanadi. Ana shu mezonlar talabiga ijobiy javob bergan barcha turdagi avtomobillar moddiy va ma’naviy qadriyatlar maqomini oladi. Uni odamlar katta qiziqish bilan xarid qilib oladilar va ko‘z qorachig‘iday asraydilar” [5-118].

Yana bir muammo sifatida yoshlar ichida o‘z kapitali, boyligi bilan g‘ururlanish, mahallada, jamiyatda umume’tirof etilgan odob chegarasidan chiqish holatlari uchrayotganiligi, boylik manbasini noqonuniy o‘zlashtirish holatlarini keltirib o‘tish joiz. Shu to‘g‘risida biznes olamining yirik nomoyandasi Janubiy Koreyalik Kim U Jung shunday deydi: “...boylik g‘ururlanish uchun asos bo‘lishi mumkin emas, o‘z boyligi bilan maqtanish tentaklikdir. Agar maqtanadigan bo‘lsa, orttirilgan boylikdan emas, balki undan qanday foydalanayotganligi va uning biror ishga foydasi tegayotganligidan maqtanish kerak”[6-113]. Bundan shunday xulosa keladiki, yoshlar biznes olamiga kirib borar ekan, faolligi axloq normalari va estetik talablar asosida bo‘lishi, bu ularning muvaffaqiyatini bildiradi.

Hozirgi kunda iqtisodiy qadriyatlarni yaratish, yoshlarni iqtisodiy faollashtirish, bu borada qator chora-tadbirlar ko‘rish, hokimiyat boshqaruv tizimidagi etikalogik transformasion jarayonlarda, bir-birini taqozo qiladigan ikki tendensiya ko‘zga tashlanmoqda: *birinchisi* – inson manfaatlari va xalq bilan muloqot konteksti ostida *birlamchi* (tabiiy-iqtisodiy) *ehtiyojlar ustuvorlashuvi qonuni* yoshlarni iste’molchilik huquqini muhofaza qilishda, tadbirkorlik muhitini yaratishda va undagi huquqlarni muhofaza qilishda har bir fuqaroga, yoshlarni o‘ziga ham, rahbariyat tizimiga ham, alohida, xususiy individual vazifani yuklamoqda; *ikkinchisi* – yoshlar iqtisodiy faolligining kompleks-sistemali xarakteri va uni ishbilarmonlik, tadbirkorlikning turli ko‘rinishlarida rivojlantirish yo‘nalishlarini, iqtisodiy ong va iqtisodiy madaniyat funksiyalari integrasiyasini kuchaytirib, ularning boshqaruvi axloqiy tamoyillarga asoslanishi va innovasion taraqqiyoti estetiklashtiruvchi tamoyillarga asoslanishini taqozo qilmoqda.

Birgina zamonaviy dastiyor bo‘lgan internet ijtimoiy tarmog‘i yoshlarning iqtisodiy faolligiga hamisha ham ijobiy xizmat qilayotgani yo‘q. Hozirgi davrda axborot ochiqligi, elektron hukumatning joriy qilinishi internet tarmog‘isiz bu ishlarni jadallashtirish imkoniyati yo‘qdek hissiyotni beradi. Internetdan maqsadli foydalanish iqtisodiy faollik omili sifatida tarix sahnasiga chiqishi nur ustiga a’lo nur bo‘lgan bo‘lardi. O.N.Arestova, L.N.Babanin va A.Ye.Voyskunskiylarning fikricha yoshlarni internetdan foydalanishlarida bir qancha motivlar ustuvorlik qiladi:

•tadbirkorlik motivi;
• yangi malumotlarni bilish motivi;
• kommunikativ motivi yoki muloqot motivi;
• hamkorlik qilish motivi;
• o‘z-o‘zini namoyon qilish motivi;
• aloqani o‘rnatish, hissiyotli aloqa motivi;
• o‘zini maqtash motivi;
• o‘yin va rejalashtirish motivi[7-59].

Bizning fikrimizcha, bugungi shakllanib kelayotgan yoshlarning iqtisodiy faolligi quyidagi mezonlar asosida shakllantirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi: 1) motivasion; 2) kognitiv; 3) texnologik-innovasion; 4) kreativ; 5) pragmatik. Ushbu mezonlar asosida ta’lim va tarbiya institusional tizimi takomillashtirilishi, pirovard maqsad sari yo‘naltirilishi samarali yutuqlarga olib keladi.

Yoshlar iqtisodiy faolligining mezonlari axloqiy imperativlar bilan korelyasion bog‘liq holda rivojlanishi yuqoridagi mezonlarni sistemalashtiradi. Jamiyatda mavjud axloqiy qadriyatlar imperativligi, mahalladagi axloqiy “atmosfera” ijtimoiy manfaatni birinchi o‘rinda ko‘rishni ta’kidlaydi. Ya’ni yoshlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mahalladagi ishsizlarni ish bilan ta’minlashi, mavjud ijtimoiy muammolarni yechishga ko‘maklashishi bilan o‘lchanadi. Biznesda ijtimoiy fikr katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Iqtisodiy faollashadigan yoshlar avvalo ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri baholay bilishi, ya’ni ijtimoiy makondagi talab va taklifni birinchi bo‘lib his kilishi, o‘zi shug‘ullanayotgan tadbirkorlik sohasida yetarli bilim, malaka va tajribaga ega bo‘lishi, hisob-kitobini, bankdagi muomala madaniyatini o‘rganish va o‘zlashtirishi, bozor muomala madaniyatini egallaganligi, odamshunosligi – ishonarli sheriklarni tanlay bilishi, qo‘rqmasdan tavakkalchilikka qo‘l ura olishi kerak. Biz yuqorida aytganimizdek, jamiyatda mavjud axloq imperativlari iqtisodiy faollashtirishga, uni institutlashtirishga, funksional integrasiyalashtirishga ko‘maklashadi va davlat tomonidan chiqarilgan me’yoriy-huquqiy normalarga itoatda bo‘lishini ta’minlaydi.

Yoshlarga iqtisodiy imkoniyatlar berishda bu ilmiy asoslangan bosqichlarni inobatga olish, shu asoslar bo‘yicha yoshlarni faollashtirish – mavjud iqtisodiy tanglik (*ishsizlik, loqaydlik, jinoyatchilik*) oqibatlarini, kelajakda ijtimoiy muammolar sabablarini bartaraf qilishning yangi usul, vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, beg‘ubor, shijoatli yoshlarni jamiyatga katta foyda keltiruvchi potensialga aylantirish g‘oyat katta axloqiy-estetik ahamiyatga ega. Ya’ni yoshlarni distruktiv g‘oyalardan saqlash va ularni konstruktiv, pragmatik insonlar qilib voyaga yetkazish, iqtisodiy faollik – ezgulikka yo‘l ekanligini, uni yanada rivojlantirish

hayot asoslarini ta’minlash zaruriyati bilan bog‘liqligini anglashiga, vatanparvarlik hissini, tuyg‘usini tarbiyalashga, iqtisodiy hayotning gedonistik va evdomonistik ahamiyati oshib borayotganini tushunishga olib kelmoqda.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

**1**.https://www.norma.uz/raznoe/eshlarga_oid_davlat_siesati_samaradorligini_oshirish_va_uzbekiston_eshlar_ittifoqi_faoliyatini_qullab-quvvatlash_tugrisida
**2**. Ашин Г.К. Философия составляющая элиталогии // Вопросы философии. - 2004 №7
**3**. Хвошева В.Е. http: //www. polit. susu. ac. ru/articles/ativism/htm.
**4**.Собирова З. Жамият янгиланиши ва бадиий-эстетик омиллар. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2007
**5**.Нурматова М. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. – Т.: Университет, 2009
**6**.Ким У Жунг. Бизнеснинг буюк олами. –Т.: Ўзбекистон, 1997
**7**.Гуманитарные исследования в Интернете [Текст] / Под ред. А.Е. Войскункого. – М.: Можайск-Терра, 2000.

## ISLOM IQTISODIY TAMOYILLARINING ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIMLARGA TA’SIRI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI MISOLIDA

**Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi, Davronova Sabrina**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti IK 824-guruh talabalari
**Ilmiy rahbar: N.Q.Haqqulov**
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa doktori (PhD)
e-mail: nabijonhaqqulov83@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada islom iqtisodiy tamoyillarining mohiyati va ularning zamonaviy iqtisodiy tizimlarga, ayniqsa O‘zbekiston sharoitida, ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida foizsiz banklar, zakot, halal iqtisodiyot, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlik kabi asosiy tushunchalar ilmiy manbalar asosida yoritiladi. O‘zbekistonning iqtisodiy siyosatida diniy qadriyatlarning qanchalik o‘rin egallayotgani va bu yo‘nalishdagi amaliy tajribalar ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, islomiy iqtisodiyot prinsiplari nafaqat axloqiy jihatdan asosli, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali tizim bo‘la oladi. Ushbu maqola iqtisodchi olimlar, dinshunoslar va siyosatshunoslar uchun foydali nazariy hamda amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** islom iqtisodi, O‘zbekiston, foizsiz bank, zakot, halal biznes, iqtisodiy adolat, dinshunoslik.

### Kirish

Islom dini nafaqat axloqiy va ma’naviy tizim, balki o‘ziga xos iqtisodiy tamoyillarga ham ega bo‘lgan mukammal tizimdir. Islomiy iqtisodiy modelda halollik, tenglik, ijtimoiy adolat, boylik taqsimoti va spekulyatsiyadan voz kechish kabi qadriyatlar asosiy o‘rinni egallaydi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Payg‘ambar

Muhammad (s.a.v.) va sahobalar davrida iqtisodiyotda zakot, sadaqa, karz-hasana (foizsiz qarz), va ijtimoiy mas’uliyatli tijorat amaliyotlari muhim rol o‘ynagan (Chapra, 2000). Zamonaviy dunyoda, ayniqsa musulmon davlatlarida, islomiy iqtisodiy tamoyillar asosida faoliyat yurituvchi banklar, moliyaviy institutlar va halal bizneslar ko‘payib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning diniy va iqtisodiy uyg‘unlik yo‘lidagi harakatlari alohida e’tiborga loyiq. Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston diniy erkinlikni tan oldi va iqtisodiyotni bozor munosabatlariga moslashtirdi. Bu esa islomiy iqtisodiy tamoyillarni muayyan darajada integratsiyalash imkonini berdi (Qosimov, 2021). Ushbu maqola aynan O‘zbekiston misolida islomiy iqtisodiy g‘oyalarning amaliyotda qanday aks etayotganini, bu tamoyillar zamonaviy iqtisodiy tizimga qanday ta’sir qilayotganini, hamda ularning samaradorligini chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi.

**Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda islom iqtisodiy tamoyillarining zamonaviy iqtisodiy tizimlarga ta’sirini chuqur o‘rganish uchun integrallashgan aralash metodlar (mixed methods approach) yondashuvi qo‘llanildi. Bir tomondan, tarkibiy-kontent tahlil asosida diniy manbalar, fiqhiy asarlar, va iqtisodiy modellar o‘rganildi; ikkinchi tomondan esa empirik va statistik ma’lumotlar asosida zamonaviy iqtisodiy faoliyatga islomiy tamoyillarning amaliy ta’siri tahlil qilindi. Dastlab, islom iqtisodiyotining nazariy asoslarini tahlil qilish uchun asosiy manba sifatida Qur’oni Karim oyatlari, hadislar, Abu Yusuf, Al-G‘azzoliy, Ibn Xaldun va zamonaviy islom iqtisodchilari — M. U. Chapra, M. Sidiqqiy, va H. Ahmed kabi mutaxassislarning ishlari o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Islom Akademiyasi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi nashrlaridagi maqolalar ham tahlil qilindi.

Empirik bosqichda O‘zbekistonda so‘nggi besh yil ichida foizsiz moliyaviy xizmatlar, zakot va halal biznesga oid rasmiy statistik ma’lumotlar, Markaziy Bank, Davlat Statistika Qo‘mitasi va Halal sertifikatlash tashkilotlari hisobotlari asosida tahlil qilindi. Jumladan, 2020–2024 yillar oralig‘ida islomiy moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi tijorat banklarining soni, ulardagi mijozlar hajmi, va taklif qilinayotgan mahsulotlar ko‘lamining o‘sish sur’atlari taqqoslandi. Bundan tashqari, 15 nafar iqtisodchi va dinshunos mutaxassis bilan yarimstrukturalangan intervyular o‘tkazildi. Savollar asosan uchta toifaga bo‘lindi: (1) Islomiy iqtisodiy tamoyillarning mohiyati; (2) Ularning zamonaviy iqtisodiy faoliyatga moslashuvi; (3) O‘zbekiston kontekstida ularni rivojlantirishdagi imkoniyat va to‘siqlar. Intervyular kodlash texnikasi yordamida tematik tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasining kuchli jihati — nazariy va amaliy aspektlarning birlashtirilganligi, islomiy iqtisodiy modelning nafaqat diniy, balki ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini ham yoritib berishidadir. Bunda holistik yondashuv tanlandi — ya’ni islom iqtisodiy tamoyillari faqatgina moliyaviy foyda emas, balki axloqiy, madaniy va ijtimoiy barqarorlik uchun vosita sifatida tahlil qilindi.

**Natijalar**

**Jadval: O‘zbekistonda islomiy moliyaviy mahsulotlarni taklif qilayotgan banklar soni va ularning faoliyati (2020–2024)**

| Yil | Islomiy moliyalashtirish mahsulotlarini taklif etgan banklar soni | Taklif etilgan asosiy mahsulotlar | Mijozlar soni (ming) | Moliyaviy aylanma (mlrd so‘m) |
|---|---|---|---|---|
| 2020 | 0 | Yo‘q | 0 | 0 |
| 2021 | 1 (eksperimental) | Ijara, Murobaha | 1.2 | 6.5 |
| 2022 | 2 | Murobaha, Salam | 4.5 | 18.7 |
| 2023 | 4 | Ijara, Mudaraba, Musharaka | 12.3 | 42.6 |
| 2024 | 7 (kutilmoqda) | To‘liq islomiy bank xizmatlari | 21.6 | 83.2 |

2024-yil ma’lumotlari prognoz asosida shakllantirilgan.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2023; Islamic Finance News Central Asia Report, 2023; “Islomiy moliyalashtirish bo‘yicha normativ hujjatlar to‘plami”, Adliya vazirligi, 2023.

Jadvalga asoslangan tahliliy izoh:

2020-yilda islomiy moliyalashtirish bozorida faoliyat boshlamagan bo‘lsa, 2021-yildan boshlab ayrim tijorat banklari (masalan, “Asia Alliance Bank” va “Kapitalbank”) eksperimental tarzda foizsiz moliyaviy mahsulotlar (ijara, murabaha)ni taklif qila boshladilar. Bu mahsulotlar Shariatga muvofiq foyda asosida tuzilgan shartnomalarga tayanadi va an’anaviy kreditlar o‘rnini bosadi. 2022-yildan boshlab mahsulotlar qatori kengaydi: salam — oldindan to‘lov asosidagi shartnomalar va qishloq xo‘jaligi sohasida qo‘llaniladigan moliyalashtirish vositasi sifatida joriy etildi. Bu yil moliyalashtirish hajmi 18.7 mlrd so‘mga yetdi, bu esa bank sektorida bu yo‘nalishga qiziqish ortayotganini ko‘rsatadi. 2023-yilda esa mudoraba (foizsiz sheriklik) va musharaka (aktivlar asosida foydani bo‘lish) shartnomalari taklif qilina boshlandi. Shuningdek, yangi banklar ham islomiy moliya segmentiga kirib kelgan. Mijozlar soni 12 mingdan oshib, aylanishdagi moliya 42.6 mlrd so‘mga yetdi. 2024-yil uchun prognozlarga ko‘ra, 7 ta bank bu sohada faoliyat yuritishi, mijozlar soni 20 mingdan oshishi va moliyaviy aylanma ikki barobarga ko‘payishi kutilmoqda. Bu o‘sish O‘zbekistonda islomiy moliyaviy mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortib borayotganini tasdiqlaydi.

**Muhokama**

O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirish tizimining shakllanishi so‘nggi yillarda tezlashib, jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bu yo‘nalish 2021-yildan boshlab tajriba asosida joriy qilina boshlagan. 2020-yilda hech bir bank Shariat asosidagi moliyaviy mahsulotlarni taklif qilmagan bo‘lsa, 2021-yilda allaqachon 1 ta bank —

masalan, Asia Alliance Bank — foizsiz ijara va murabaha asosidagi moliyalashtirishni boshlagan. Ushbu eksperiment 1.2 ming mijoz tomonidan foydalanilib, jami 6.5 milliard so‘mlik moliyalashtirish aylanmasi amalga oshirilgan. 2022–2023 yillar oralig‘ida sektorda tezkor kengayish kuzatildi. 2022-yilda 2 ta bank islomiy moliyalashtirishni kengaytirib, yangi mahsulot sifatida “salam” shartnomasini joriy etdi — bu ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida istiqbolli vosita bo‘lib chiqmoqda. Mijozlar soni 4.5 mingga yetib, 18.7 mlrd so‘mlik aylanma hosil bo‘lgan. Bu bosqichda aholining diniy talablariga mos moliyaviy xizmatlarga ehtiyoji ortib borayotgani yaqqol sezildi. 2023-yilda esa tizimning institutsional shakllanishi uchun muhim burilish bo‘ldi — foizsiz bank xizmatlari taklif qilayotgan banklar soni 4 taga yetdi va ular orasida tijorat banklari, mikromoliyaviy tashkilotlar, va bir nechta fintech subyektlar bo‘ldi. Mijozlar soni uch karra o‘sib, 12.3 ming kishini tashkil etdi. Aylanmadagi mablag‘ 42.6 mlrd so‘mga chiqdi. Bu o‘sishlar zamonaviy iqtisodiyotda islomiy moliyaviy vositalarning raqobatbardoshligini ko‘rsatadi. 2024-yilga oid prognozlar esa yanada ijobiy. Markaziy Bankning 2023-yilgi “Islomiy moliyalashtirish bo‘yicha yo‘l xaritasi”ga muvofiq, 7 ta bank islomiy moliyaviy mahsulotlarni to‘liq joriy etishi kutilmoqda. Aholining moliyaviy savodxonligi oshgani sari islomiy moliyalashtirishga bo‘lgan ishonch ham ortib bormoqda. Mijozlar soni 21.6 ming kishiga, aylanma esa 83.2 mlrd so‘mga yetishi bashorat qilinmoqda (Markaziy Bank, 2023). Muhokamadan anglashiladiki, foizsiz moliya nafaqat diniy tamoyillarga javob beradi, balki real iqtisodiy o‘sishga, moliyaviy inklyuzivlikka va kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Biroq bu soha hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, to‘liq regulyatsiya va institutlashtirish talab etiladi.

**Xulosa**

Yuqorida taqdim etilgan jadval va unga tayangan tahlillardan xulosa shuki, O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirish tizimi bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda va bu yo‘nalish jamiyatda mavjud ma’naviy-e’tiqodiy talabga bevosita mos keladi. 2021-yildan boshlab tajriba tariqasida boshlangan bu tizim bugunga kelib 4 ta faol bank, 12 mingdan ortiq mijoz va 42 milliarddan ortiq aylanma bilan iqtisodiyotda mustahkam o‘rin egallay boshladi. Bu jarayonda moliyaviy inklyuzivlik kuchaymoqda: islomiy moliya an’anaviy bank xizmatlaridan chetda qolgan aholining ishonchini qozonmoqda. Ayniqsa, zakot va halal biznes modellari yordamida ijtimoiy tenglik va barqaror iste’mol madaniyati shakllanmoqda. 2024-yil uchun prognozlar esa bu yo‘nalishning yanada jadallashishini, jumladan, banklar sonining 7 taga yetishi, mahsulotlar sonining ko‘payishi va investitsion faollik ortishini ko‘rsatmoqda.

Biroq bu ijobiy dinamikani saqlab qolish va rivojlantirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

Islomiy moliyalashtirish faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonunchilik bazasi ishlab chiqilishi;

Markaziy Bank huzurida islomiy moliya regulyatori yoki mas’ul qo‘mita tashkil etilishi;

Aholining islomiy moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha muntazam dasturlar tashkil etilishi;

Xalqaro tajribani o‘rganish asosida mahalliy sharoitga mos innovatsion islomiy moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqilishi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Chapra, M. U. (2000). The Future of Economics: An Islamic Perspective. The Islamic Foundation.
2. Siddiqi, M. N. (2006). Islamic Banking and Finance in Theory and Practice. Islamic Economic Studies, 13(2), 1–28.
3. Ahmed, H. (2011). Product Development in Islamic Banks. Edinburgh University Press.
4. Djalilov, K., & Öztürk, I. (2014). Does Islamic banking contribute to economic growth? The World Economy, 37(6), 810–825. https://doi.org/10.1111/twec.12118
5. Hassan, M. K., & Lewis, M. K. (2007). Handbook of Islamic Banking. Edward Elgar Publishing.
6. Usmonov, A. (2022). Islomiy moliyaning O‘zbekistonda rivojlanish istiqbollari. Din va jamiyat, 4(1), 50–59.
7. Islamic Finance News. (2023). Central Asia Islamic Finance Report 2023. Retrieved from https://www.islamicfinancenews.com
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2023). Islomiy moliyalashtirishni rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi. Tashkent: Markaziy Bank nashriyoti.
9. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. (2023). Islomiy moliyalashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. Tashkent.
10. World Bank. (2022). Islamic Finance: Opportunities and Challenges in Central Asia. Washington, DC: World Bank Publications.
11. Nurmatov, B. (2023). Islom iqtisodiyotining raqamli integratsiyasi va imkoniyatlari. Iqtisodiy tadqiqotlar, 5(2), 44–53.
12. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Zakot va ijtimoiy himoya tizimlari: Markaziy Osiyo tajribasi. New York: UNDP.
13. Islamic Financial Services Board. (2021). Islamic Financial Stability Report 2021. Kuala Lumpur: IFSB Publications.


## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI KASBLARNING PAYDO BO‘LISHI VA UNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA’SIRI


**Ro‘ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o‘g‘li,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi
E-mail: ahrorproduction@gmail.com
**Ilmiy rahbar: N.Q.Haqqulov**
Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa doktori (PhD)



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kasblarning shakllanishi va ularning mehnat bozori dinamikasiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat

bozori tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Yangi kasblarning vujudga kelishi, mavjud kasblarning esa transformatsiyalashuvi zamonaviy iqtisodiyotga xos bo‘lgan tendensiyalardandir. Maqolada O‘zbekiston misolida bu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan, davlat tomonidan bu borada ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va mavjud muammolar tahlil etilgan. Xususan, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, bandlikni ta’minlash va zamonaviy kasb-hunarga o‘qitish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, mehnat bozori, yangi kasblar, bandlik, raqamli ko‘nikmalar, kasbiy transformatsiya.

**Kirish.** Globallashuv va raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi natijasida dunyo mehnat bozorida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kasblarning paydo bo‘lishi mehnat resurslari strukturasini yangicha shakllantirishni talab qilmoqda. An’anaviy kasblarning raqobatbardoshligi pasayib, o‘rniga sun’iy intellekt, big data, axborot xavfsizligi, onlayn marketing, blokcheyn va boshqa texnologiyalar bilan bog‘liq kasblar keng tarqalmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, bandlikni ta’minlash va fuqarolarning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi PQ–4851-sonli qarori (“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida) bu boradagi muhim huquqiy asoslardan biri bo‘lib, raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda, raqamli soha uchun malakali kadrlarni tayyorlash masalasini ham o‘z ichiga oladi[1]. Shuningdek, 2022-yil 12-apreldagi PF–101-sonli Farmon (“Yoshlar bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”) bilan yoshlarning yangi zamonaviy kasblarga yo‘naltirilgan o‘qitilishi va ularni ish bilan ta’minlashga qaratilgan tizim yaratilgan[2].

Shu bois, mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning mehnat bozori dinamikasiga ta’siri, yangi kasblarning paydo bo‘lishiga olib kelgan omillar va O‘zbekistondagi amaliy holatlar tahlil qilinadi. Bu esa mamlakatning raqamli transformatsiya jarayonida mehnat resurslarini qayta moslashtirish strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

**Adabiyotlar tahlili**

Raqamli iqtisodiyotning tez sur’atlar bilan rivojlanishi mehnat bozorining tuzilishi va dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu bo‘limda raqamli transformatsiya sharoitida yangi kasblarning paydo bo‘lishi, mehnat bozori strukturasidagi o‘zgarishlar, hamda bu jarayonlarning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari bo‘yicha xalqaro adabiyotlar tahlili keltiriladi.

World Economic Forum tomonidan tayyorlangan “The Future of Jobs Report 2023” [4] tadqiqoti natijalariga ko‘ra, keyingi besh yil ichida global iqtisodiyotda 85 million ish o‘rni yo‘qolib, 97 million yangi ish o‘rinlari yaratilishi prognoz qilingan. Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, raqamli marketing va raqamli transformatsiya mutaxassislariga talab keskin oshishi kutilmoqda.

McKinsey Global Institute [5] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot mehnat bozori talab qiladigan ko‘nikmalar tarkibini tubdan o‘zgartirmoqda. Tadqiqot 2030 yilga kelib texnologik va analitik ko‘nikmalarga bo‘lgan talab 55% ga oshishini, o‘rta malakali standart operatsion vazifalarga talab esa 15% ga pasayishini bashorat qiladi.

LinkedIn kompaniyasining “Emerging Jobs Report” [6] tadqiqotiga ko‘ra, so‘nggi besh yilda eng tez rivojlanayotgan kasblar qatorida ma’lumotlar fani mutaxassislari, devops injenerlar, kiberhavfsizlik mutaxassislari, sun’iy intellekt tizimlari ishlab chiqaruvchilari va raqamli marketologlar o‘rin olgan. Bu kasblarning o‘sish sur’ati yiliga o‘rtacha 30-40% ni tashkil qilmoqda.

Acemoglu va Restrepo [7] o‘z tadqiqotlarida avtomatlashtirish va yangi texnologiyalarning mehnat bozoriga ta’sirini kompleks baholash modelini taklif qiladi. Ular avtomatlashtirish mehnat talabini kamaytirishi bilan bir vaqtda, innovatsion texnologiyalar yangi mahsulot va xizmatlar yaratilishi orqali mehnat talabini oshirishi mumkinligini ta’kidlaydilar.

OECD tadqiqotlariga ko‘ra [8], rivojlangan mamlakatlarda ish o‘rinlarining o‘rtacha 14% to‘liq avtomatlashtirish xavfi ostida, 32% ish o‘rinlari esa sezilarli o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Biroq, ayni paytda raqamli transformatsiya ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratishi hamda mavjud kasblar mazmunini boyitishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Deloitte [9] ning tadqiqotlari raqamli transformatsiya natijasida yo‘qolgan har bir ish o‘rniga 2.4 ta yangi ish o‘rni yaratilishini ko‘rsatadi. Yangi ish o‘rinlari asosan ma’lumotlar bilan ishlash, raqamli xizmatlar ko‘rsatish, dasturiy ta’minot ishlab chiqish va yangi texnologiyalarni boshqarish sohalarida paydo bo‘lmoqda.

Bugongi kunda mehnat bozori dinamikasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri - ish beruvchilar talab qilayotgan ko‘nikmalar tarkibining o‘zgarishidir. World Economic Forum [10] ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yilga kelib ishchilarning 50% dan ortig‘i o‘z ko‘nikmalarini yangilashlari talab etiladi. Eng muhim ko‘nikmalar qatoriga analitik fikrlash, kreativlik, texnologik savodxonlik, moslashuvchanlik va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari kiradi.

MIT tadqiqotchilari [11] raqamli iqtisodiyot sharoitida “gibrid ko‘nikmalar” tushunchasini kiritib, bu kasbiy va raqamli ko‘nikmalarning uyg‘unlashuvini anglatishini ta’kidlaydilar. Masalan, marketolog endi nafaqat an’anaviy marketing strategiyalarini, balki ma’lumotlar analitikasi va raqamli marketingni ham bilishi zarur.

Raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotlar uchun ahamiyati ham ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. Masalan, Schwab [12] “to‘rtinchi sanoat inqilobi” konsepsiyasini rivojlantirib, raqamli transformatsiya natijasida milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligi ularning yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va ishchi kuchini zamonaviy ko‘nikmalar bilan qurollantirish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lishini ta’kidlaydi.

Jahon banki ekspertlari [13] mamlakatlarning raqamli iqtisodiyotga tayyorligini baholab, mehnat bozori siyosati, ta’lim tizimi va ijtimoiy himoya mexanizmlarini zamonaviy talablarga moslashtirish zarurligini qayd etadilar. Ular raqamli transformatsiya natijasida vujudga kelayotgan ko‘nikmalarga bo‘lgan

talabning o‘zgarishini inobatga olish va ta’lim tizimini shunga mos ravishda qayta qurish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar tahlili raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori dinamikasi va yangi kasblarning paydo bo‘lishi global ahamiyatga ega masala ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘plab tadqiqotlar avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari ma’lum kasblarning yo‘qolishiga olib kelsa-da, yangi kasblar va ish o‘rinlarining yaratilishiga ham turtki bo‘lishini ta’kidlaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun innovatsion ta’lim tizimlari, uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va moslashuvchan mehnat bozori siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tahlil va natijalar**

Ushbu bo‘limda raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kasblarning paydo bo‘lishi va uning mehnat bozori dinamikasiga ta’sirini baholash maqsadida o‘tkazilgan tahlillar va ularning natijalari keltiriladi. Tahlillar miqdoriy va sifat jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, zamonaviy iqtisodiy modellar asosida baholanadi.

O‘zbekiston mehnat bozorida raqamli iqtisodiyot ta’sirini baholash uchun 2018-2024 yillar davomida yig‘ilgan ma’lumotlar asosida ekonometrik tahlil o‘tkazildi. Tahlilda quyidagi model qo‘llanildi:

$$E_i=\beta_0+\beta_1 DT_i+\beta_2 HC_i+\beta_3 I_i+\varepsilon_i$$

Bu yerda:

$E_i$ - mehnat bozori ko‘rsatkichi (bandlik darajasi yoki ish haqi indeksi)

$DT_i$ - raqamli transformatsiya indeksi

$HC_i$ - inson kapitali ko‘rsatkichi

$I_i$ - institutsional muhit sifati indeksi

$\varepsilon i$ - xatolik

Regression natijalariga ko‘ra, raqamli transformatsiya indeksidagi 1 birlik o‘sish O‘zbekistonda bandlik darajasining 0.32% ga o‘sishiga olib kelmoqda ($p<0.05$). Bu natija rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichidan (0.45%) pastroq, ammo rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtacha ko‘rsatkichidan (0.28%) yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya natijasida real ish haqi o‘rtacha 0.41% ga o‘sishi kuzatilmoqda ($p<0.01$), bu esa raqamli ko‘nikmalar mehnat unumdorligini oshirishiga dalolat beradi.

Yangi kasblarning paydo bo‘lish tendensiyalari

Tadqiqot davomida O‘zbekistonda so‘nggi 5 yil ichida paydo bo‘lgan yangi kasblar tahlil qilindi. 1-jadvalda eng tez rivojlanayotgan 10 ta yangi kasb va ularning o‘sish sur’atlari keltirilgan.

**1-jadval.** O‘zbekistonda eng tez rivojlanayotgan yangi kasblar (2020-2024)

| Kasblar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | O‘rtacha yillik o‘sish sur’ati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Ma’lumotlar tahlilchisi** | 850 | 1,240 | 1,875 | 2,690 | 3,950 | 46.9 |
| **Raqamli marketing mutaxassisi** | 780 | 1,130 | 1,680 | 2,250 | 3,120 | 41.5 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchisi** | 2,540 | 3,420 | 4,650 | 6,320 | 8,470 | 35.2 |
| **Kiberhavfsizlik mutaxassisi** | 410 | 570 | 790 | 1,120 | 1,560 | 39.7 |
| **UI/UX dizayneri** | 620 | 850 | 1,190 | 1,640 | 2,250 | 38.0 |
| **Bulutli texnologiyalar arxitektori** | 290 | 410 | 590 | 840 | 1,180 | 42.0 |
| **IoT mutaxassisi** | 180 | 260 | 390 | 580 | 870 | 48.3 |
| **Mashinali o‘qitish injener** | 160 | 240 | 370 | 560 | 860 | 52.3 |
| **Raqamli transformatsiya menejeri** | 310 | 430 | 620 | 870 | 1,240 | 41.4 |
| **Blokchain mutaxassisi** | 90 | 140 | 220 | 340 | 530 | 55.8 |

***Manba:*** *Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori o‘sish sur’ati blokchain mutaxassislari (55.8%), mashinali o‘qitish injenerlar (52.3%) va Internet of Things (IoT) mutaxassislari (48.3%) kasblarida kuzatilmoqda. Bu tendensiya global mehnat bozori tendensiyalariga mos keladi. Ammo rivojlangan mamlakatlarga qiyoslaganda, O‘zbekistonda bu kasblar absolyut sonlarda hali ham kamroq, bu esa raqamli transformatsiyaning hali dastlabki bosqichda ekanligidan dalolat beradi.

Ko‘nikmalarga bo‘lgan talabning o‘zgarishi

O‘zbekiston mehnat bozorida ko‘nikmalarga bo‘lgan talabning o‘zgarishini baholash uchun 2018-2024 yillar davomida e’lon qilingan 50,000 dan ortiq vakansiyalar tahlil qilindi. Natijalar 1-rasmda keltirilgan. [1-rasm: O‘zbekiston mehnat bozorida ko‘nikmalarga talabning o‘zgarishi, 2018-2024]

Tahlil natijalari ko‘rsatishicha, 2018 yildan 2024 yilgacha texnik ko‘nikmalarga talab 3.2 barobarga, raqamli savodxonlikka talab 2.8 barobarga va analitik ko‘nikmalarga talab 2.5 barobarga oshgan. Ayni paytda an’anaviy ma’muriy ko‘nikmalarga talab 15% ga, qo‘lda bajariladigan operatsion vazifalarga talab esa 22% ga kamaygan.

Ayniqsa, Python, SQL, ma’lumotlar analitikasi, sun’iy intellekt hamda bulutli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga talab eksponensial sur’atlarda o‘sgan. Bu raqamli iqtisodiyotning mehnat bozori talablariga bevosita ta’sirini ko‘rsatib beradi.

**Tarmoqlar bo‘yicha mehnat bozori o‘zgarishlari**

Tadqiqot doirasida O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy tarmoqlarida raqamli transformatsiya ta’sirida bandlik tarkibining o‘zgarishi ham o‘rganildi. 2-jadvalda 2020-2024 yillar davomida tarmoqlar bo‘yicha bandlik strukturasi dinamikasi keltirilgan.

**2-jadval.** Tarmoqlar bo‘yicha bandlik strukturasi dinamikasi (ming kishi)

| Tarmoqlar | 2020 | 2024 | O‘zgarish, % | Yangi kasblar ulushi, % |
|---|---|---|---|---|
| **Qishloq xo‘jaligi** | 3,420 | 3,180 | -7.0 | 4.2 |
| **Sanoat** | 1,950 | 2,140 | +9.7 | 12.5 |
| **Qurilish** | 1,340 | 1,420 | +6.0 | 7.3 |
| **Savdo** | 1,280 | 1,350 | +5.5 | 15.8 |
| **Transport va logistika** | 640 | 680 | +6.3 | 11.2 |
| **Axborot-kommunikatsiya** | 170 | 290 | +70.6 | 68.4 |
| **Moliya va bank** | 210 | 280 | +33.3 | 41.5 |
| **Ta’lim** | 1,180 | 1,260 | +6.8 | 18.9 |
| **Sog‘liqni saqlash** | 780 | 840 | +7.7 | 14.6 |
| **Boshqalar** | 1,430 | 1,560 | +9.1 | 9.8 |

***Manba:*** *Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori bandlik o‘sishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (70.6%) va moliya-bank (33.3%) sektorlarida kuzatilgan. Aynan shu tarmoqlarda yangi kasblar ulushi ham eng yuqori - mos ravishda 68.4% va 41.5%. Qishloq xo‘jaligida esa bandlik 7% ga kamaygan bo‘lib, bu tarmoqda yangi kasblar ulushi atigi 4.2% ni tashkil etadi.

Bu ma’lumotlar O‘zbekiston mehnat bozorida sektorlar bo‘yicha notekis transformatsiya jarayoni kechayotganini ko‘rsatadi. Raqamli transformatsiya xizmat ko‘rsatish, ayniqsa axborot-kommunikatsiya va moliya sektorlarida ancha jadal bormoqda.

**Mehnat bozori moslashuvchanligi va institutsional omillar**

Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiya sharoitida mehnat bozori moslashuvchanligi va institutsional omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Buning uchun Granger sabab-oqibat test va kointegration tahlili metodologiyasidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, quyidagi institutsional omillar mehnat bozoriga yangi kasblarning kirib kelishi va mehnat bozori moslashuvchanligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda:

1. Ta’lim sifati (korrelyatsiya koeffitsienti $r=0.68$, $p<0.01$)
2. Internet infratuzilmasi ($r=0.72$, $p<0.01$)
3. Biznes muhiti ($r=0.56$, $p<0.05$)
4. Normativ-huquqiy baza ($r=0.61$, $p<0.01$)

Qiziq jihati shundaki, statistik tahlil natijalariga ko‘ra, Internet infratuzilmasi va ta’lim sifati mehnat bozori moslashuvchanligiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida aniqlandi. Bu omillar ta’siri mehnat bozori tartibga solish qattiqligi ta’siridan ham yuqori ekanligi aniqlandi.

Raqamli ko‘nikmalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik

Tadqiqot doirasida raqamli ko‘nikmalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish uchun panelli ma’lumotlar asosida ekonometrik tahlil o‘tkazildi. Tadqiqotda O‘zbekistonning 14 ta hududi bo‘yicha 2018-2024 yillar davomida to‘plangan ma’lumotlardan foydalanildi. Quyidagi model qo‘llanildi:

$$GDP_{it}=\beta_0+\beta_1 DS_{it}+\beta_2 K_{it}+\beta_3 L_{it}+\alpha_i+\delta_t+\varepsilon_{it}$$

Bu yerda:

$GDP_{it}$ - i-hududning t-davrdagi yalpi hududiy mahsuloti

$DS_{it}$ - i-hududning t-davrdagi raqamli ko‘nikmalar indeksi

$K_{it}$ - i-hududning t-davrdagi kapital zaxirasi

$L_{it}$ - i-hududning t-davrdagi ishchi kuchi

$\alpha_i$ - hudud-spetsifik effektlar

$\delta_t$ - vaqt-spetsifik effektlar

$\varepsilon_{it}$ - xatolik

Tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli ko‘nikmalar indeksidagi 10% lik o‘sish YaHMning 1.8% ga o‘sishiga olib kelmoqda ($p<0.01$). Bu natija raqamli ko‘nikmalar iqtisodiy o‘sishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, hudud-spetsifik effektlar tahlili ko‘rsatishicha, raqamli ko‘nikmalar Toshkent shahri va Toshkent viloyatida iqtisodiy o‘sishga eng kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda, eng past ta’sir esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida kuzatilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekistondagi kasblarning avtomatlashtirish ehtimolini baholash uchun Frey va Osborne metodologiyasi modifikatsiyalangan holda qo‘llanildi. Tahlil natijalari 2-rasmda keltirilgan. [2-rasm: O‘zbekiston mehnat bozorida kasblarning avtomatlashtirish ehtimoli, 2024]

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistondagi mavjud kasblarning 36% yuqori avtomatlashtirish xavfi ostida (avtomatlashtirish ehtimoli >0.7), 42% o‘rta xavf ostida (avtomatlashtirish ehtimoli 0.3-0.7) va 22% past xavf ostida (avtomatlashtirish ehtimoli <0.3) ekanligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar global o‘rtacha ko‘rsatkichlardan (mos ravishda 47%, 33% va 20%) birmuncha farq qiladi, bu esa O‘zbekiston iqtisodiyoti tarkibining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi.

Eng yuqori avtomatlashtirish ehtimoli savdo (kassirlar, sotuvchilar), transport (haydovchilar) va ma’muriy xizmatlar (ma’muriy yordamchilar, operatorlar) sohalaridagi kasblar uchun qayd etildi. Eng past avtomatlashtirish ehtimoli esa ijodiy soha (dizaynerlar, dasturchilar), ta’lim (o‘qituvchilar) va sog‘liqni saqlash (shifokorlar) sohalaridagi kasblar uchun qayd etildi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslari siyosati samaradorligi

Tadqiqot davomida O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslari siyosati samaradorligi ham baholandi. Buning uchun "Policy impact assessment" metodologiyasi qo‘llanilib, quyidagi dasturlarning samaradorligi o‘rganildi:

1. "Bir million dasturchi" loyihasi
2. "Yoshlar - kelajagimiz" dasturi
3. "Har bir oila - tadbirkor" dasturi
4. Kasb-hunar ta’limi islohoti

Tahlil natijalari ko‘rsatishicha, "Bir million dasturchi" loyihasi ishtirokchilarining 63% loyiha yakunlangandan so‘ng IT sohasida ish topgan yoki daromadini oshirgan. Bu loyihaning mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelganligini ko‘rsatadi. "Yoshlar - kelajagimiz" dasturi ishtirokchilarining 47% raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan sohalarda o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan.

Biroq, kasb-hunar ta’limi islohoti doirasida tayyorlanayotgan kadrlar strukturasi va mehnat bozori talablari o‘rtasida hali ham sezilarli nomutonosibliklar mavjud. Xususan, IT va raqamli iqtisodiyot sohalari uchun tayyorlanayotgan kadrlar soni real ehtiyojdan 2.3 barobar kam, bu esa ta’lim tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

**Xulosa**

Tahlillar natijasiga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston mehnat bozori dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ta’sir quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda. Yangi kasblarning paydo bo‘lishi va band bo‘lganlar strukturasining o‘zgarishi, ko‘nikmalarga bo‘lgan talabning o‘zgarishi, ish haqi differentsiatsiyasining kuchayishi va tarmoqlar bo‘yicha bandlik strukturasining transformatsiyasidir.

Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya sharoitida mehnat bozori siyosati yangi sharoitlarga moslashtirilishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, ta’lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda mehnat bozori institutlarini takomillashtirish ustvor vazifalar sifatida belgilanishi lozim.

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kasblarning paydo bo‘lishi va uning mehnat bozori dinamikasiga ta’siri kompleks tahlil qilindi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston mehnat bozori tarkibiy jihatdan sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘nggi besh yil mobaynida mehnat bozorida ro‘y bergan eng muhim o‘zgarishlar quyidagilardan iborat. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bandlik 70.6% ga o‘sgan, bu esa boshqa barcha sektorlardagi o‘sish sur’atlaridan yuqori. So‘nggi 5 yil ichida O‘zbekistonda ma’lumotlar tahlilchisi, raqamli marketing mutaxassisi, kiberhavfsizlik mutaxassisi kabi yangi kasblar paydo bo‘lgan va jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. An’anaviy sohalarda ham (savdo, ta’lim, sog‘liqni saqlash) raqamli transformatsiya ta’sirida yangi kasblar va lavozimlar shakllanmoqda. Qishloq xo‘jaligi sektorida bandlik 7% ga qisqargan bo‘lsa-da, bu sohada ham raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan mutaxassislarga talab oshmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston mehnat bozori dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda va kelgusi yillarda bu ta’sir yanada kuchayadi. Raqamli transformatsiya nafaqat mavjud kasblarning yo‘qolishi yoki o‘zgarishiga, balki ko‘plab yangi kasblarning paydo bo‘lishiga ham olib kelmoqda. Bu jarayondan maksimal foyda olish va salbiy oqibatlarni kamaytirish uchun ta’lim tizimini takomillashtirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mehnat bozori institutlarini takomillashtirish va normativ-huquqiy bazani yangilash zarur.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli transformatsiya sharoitida O‘zbekiston mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlar va qishloq aholisi o‘rtasida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Bu chora-tadbirlar O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning

rivojlanishi va mehnat bozorining transformatsiyasi jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarishga imkon beradi.

- ✓ Ta’lim dasturlarini zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish zarur. Xususan, o‘rta va oliy ta’lim dasturlariga raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus komponentlarni kiritish taklif etiladi.
- ✓ Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish orqali ishlayotgan aholining raqamli ko‘nikmalarini muntazam yangilab borish mexanizmlarini joriy etish lozim.
- ✓ Kasb-hunar ta’limi tizimida raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan yangi kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish zarur.
- ✓ Oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali o‘quv dasturlarining amaliy yo‘nalganligini ta’minlash maqsadga muvofiq.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PQ–4851-son qarori, 5-oktabr 2020-yil. [Online]. Available: https://lex.uz/ru/docs/-5030957

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Yoshlar bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–101-son Farmon, 12-aprel 2022-yil. [Online]. Available: https://lex.uz/uz/docs/-7386867

[3] E. Brynjolfsson and A. McAfee, "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies," W. W. Norton & Company, 2014. [Online]. Available: https://doi.org/10.1177/0001839216644253

[4] C. B. Frey and M. A. Osborne, "The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation?," Technological Forecasting and Social Change, vol. 114, pp. 254-280, 2017. [Online]. Available: https://doi.org/10.1016/j.techfore.2016.08.019

[5] D. H. Autor, "Why Are There Still So Many Jobs? The History and Future of Workplace Automation," Journal of Economic Perspectives, vol. 29, no. 3, pp. 3-30, 2015. [Online]. Available: https://doi.org/10.1257/jep.29.3.3

[6] World Economic Forum, "The Future of Jobs Report 2023," World Economic Forum, Geneva, Switzerland, 2023. [Online]. Available: https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2023/

[7] McKinsey Global Institute, "Jobs lost, jobs gained: Workforce transitions in a time of automation," McKinsey & Company, 2017. [Online]. Available: https://www.mckinsey.com/featured-insights/future-of-work/jobs-lost-jobs-gained-what-the-future-of-work-will-mean-for-jobs-skills-and-wages

[8] LinkedIn, "Emerging Jobs Report 2023," LinkedIn Economic Graph, 2023. [Online]. Available: https://economicgraph.linkedin.com/

[9] D. Acemoglu and P. Restrepo, "The Race between Man and Machine: Implications of Technology for Growth, Factor Shares, and Employment," American Economic Review, vol. 108, no. 6, pp. 1488-1542, 2018. [Online]. Available: https://doi.org/10.1257/aer.20160696

[10] OECD, "Employment Outlook 2023: The Future of Work," OECD Publishing, Paris, 2023. [Online]. Available: https://www.oecd.org/employment/outlook/

[11] Deloitte, "From brawn to brains: The impact of technology on jobs in the UK," Deloitte, London, 2015. [Online]. Available: https://www2.deloitte.com/uk/en/pages/growth/articles/from-brawn-to-brains--the-impact-of-technology-on-jobs-in-the-u.html

[12] World Economic Forum, "The Future of Jobs Report 2020," World Economic Forum, Geneva, Switzerland, 2020. [Online]. Available: https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2020/

## IQTISODIY HAYOTDA ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINING AHAMIYATI VA UNING ZAMONAVIY IQTISODIY TADQIQOTLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

**Odilova S.A.**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n.

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy tadqiqotda XV asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy diqqat markazida Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror" va boshqa asarlarida ifodalangan quyidagi iqtisodiy tamoyillar yotadi: birinchidan, adolatli iqtisodiy tizimning asoslari, ikkinchidan, davlatning iqtisodiy siyosatidagi roli, uchinchidan, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi masalalari. Navoiyning iqtisodiy qarashlarini zamonaviy makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy nazariyalar bilan solishtirma tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning g‘oyalari bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti sharoitida ham o‘zining amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Maqolada Navoiy asarlaridagi iqtisodiy kontsepsiyalar birinchi marta keng miqyosda tizimli tarzda o‘rganilgan bo‘lib, bu Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy merosini chuqur anglash imkonini beradi. Tadqiqotda Alisher Navoiy asarlaridagi iqtisodiy qarashlar nafaqat uning zamonasi, balki hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolganini ko‘rsatib beriladi. Navoiy o‘z asarlarida iqtisodiy adolat, xususiy mulk huquqi, yerga egalik, mehnatni qadrlash va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish kabi muhim masalalarga e’tibor qaratgan. Uning iqtisodiy g‘oyalari asosan xalqni farovonlashtirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va adolatli iqtisodiy tizim yaratish maqsadida shakllangan.

**Kalit sozlar:** Alisher Navoiy, iqtisodiy qarashlar, adolatli iqtisodiy tizim, davlat siyosati, mehnat, hunarmandchilik, savdo-sotiq, iqtisodiy adolat, soliq adolati, ishlab chiqarish, taqsimot munosabatlari, iqtisodiy islohotlar, Sharq mutafakkirlari, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, , XV asr O‘rta Osiyo iqtisodiy tarixi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida iqtisodiy masalalarga alohida e’tibor qaratgan va uning iqtisodiy qarashlari o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga muvofiq bo‘lgan. XV asrda Yagona davlatning iqtisodiy siyosatini shakllantirishda Navoiy o‘zining iqtisodiy g‘oyalarini nafaqat ijtimoiy tenglik, balki iqtisodiy adolat va jamiyatning farovonligini ta’minlashga yo‘naltirgan. U, asosan, adolatli iqtisodiy

tizimni yaratish, mehnatni qadrlash, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish va savdo-sotiqni rivojlantirishni maqsad qilgan.

Navoiyning iqtisodiy g‘oyalari zamonaviy iqtisodiy tizimlar bilan taqqoslanishi uning fikrlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. U iqtisodiy o‘zgarishlar, yangi iqtisodiy tuzumning shakllanishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishini o‘zgartirishni ta’kidlagan. Navoiy asarlarida, ayniqsa, iqtisodiy adolatning o‘rni va unga asoslangan tizimning ahamiyati ta’kidlanadi. Uning fikrlariga ko‘ra, davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiy adolatsizlikni bartaraf etish va barcha qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratishdir.

Navoiyning iqtisodiy siyosati nafaqat ishlab chiqarish va taqsimot masalalariga oid, balki savdo va ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishiga ham katta ahamiyat beradi. Uning fikriga ko‘ra, savdo-sotiqni rivojlantirish jamiyatda iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan asosiy omil hisoblanadi. U, shuningdek, savdo va hunarmandchilikni rivojlantirish orqali, iqtisodiy tizimni yangilash va mustahkamlash zarurligini tushunardi.Navoiyning iqtisodiy qarashlari, asosan, mehnatga hurmat, ishlab chiqarish va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan. U, jamiyatdagi har bir fuqaroning o‘z mehnati orqali o‘z farovonligini oshirishga erishishi kerakligini ta’kidlagan. Navoiy, iqtisodiy rivojlanish va taqsimotni adolatli qilish orqali, jamiyatdagi tengsizlikni bartaraf etishni maqsad qilgan.Alisher Navoiy, o‘z asarlarida, soliqlarni faqat davlat xazinasini to‘ldirish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy tenglikni ta’minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida ko‘rgan. Uning g‘oyalariga ko‘ra, soliq tizimi adolatli va teng bo‘lishi kerak, chunki bu jamiyatda iqtisodiy tenglikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Navoiy iqtisodiy siyosatni, faqat iqtisodiyotni rivojlantirish bilan cheklanmasdan, balki jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga yo‘naltirgan. U iqtisodiy tizimda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlarida adolatni ta’minlashga katta e’tibor bergan. Uning g‘oyalari, asosan, jamiyatdagi tenglikni saqlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan.Bundan tashqari, Navoiyning iqtisodiy qarashlari faqat iqtisodiy tizimga emas, balki uning ijtimoiy va ma’naviy tomonlariga ham aloqador.

Uning iqtisodiy adolati jamiyatdagi har bir insonning huquqlarini hurmat qilishni, mehnatni qadrlashni va ijtimoiy tenglikni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Navoiyning g‘oyalari, shuningdek, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, iqtisodiy o‘zgarishlarni va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashdagi rolini ko‘rsatadi.Navoiyning iqtisodiy qarashlarining yana bir muhim jihati, ularning amaliy ahamiyatidir. Uning fikrlaridan kelib chiqib, hozirgi zamon iqtisodiy tizimlaridagi adolatli siyosat va iqtisodiy islohotlar uchun zarur bo‘lgan tamoyillarni ishlab chiqish mumkin. Navoiyning iqtisodiy g‘oyalari, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar bilan taqqoslanganida, uning fikrlari bugungi kunda ham amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi.

Shu tariqa, Navoiy asarlaridagi iqtisodiy g‘oyalar nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi kunda ham iqtisodiy siyosat va islohotlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Uning iqtisodiy adolat, mehnatni qadrlash, soliq tizimi, ishlab chiqarish va savdo-sotiqni rivojlantirishga bo‘lgan yondashuvi zamonaviy iqtisodiy

siyosat uchun qimmatli manba hisoblanadi. Navoiy o‘z asarlarida nafaqat iqtisodiy tizimlarni o‘rganib, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham katta e’tibor qaratgan. Uning g‘oyalari zamonaviy iqtisodiy tizimlar va islohotlarga o‘zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.Tadqiqotda keltirilgan fikrlar, Navoiyning iqtisodiy qarashlarini o‘rganishda yangi istiqbollarni ochib beradi. Uning iqtisodiy tamoyillari faqat iqtisodiy rivojlanishni emas, balki ijtimoiy barqarorlikni, tenglikni va adolatni ta’minlashni maqsad qilgan. Shuningdek, u iqtisodiy siyosatni ijtimoiy farovonlikni oshirish va jamiyatdagi tenglikni ta’minlash nuqtai nazaridan shakllantirgan. Ushbu ilmiy tadqiqotda XV asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy diqqat markazida Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror" va boshqa asarlarida ifodalangan quyidagi iqtisodiy tamoyillar yotadi: birinchidan, adolatli iqtisodiy tizimning asoslari, ikkinchidan, davlatning iqtisodiy siyosatidagi roli, uchinchidan, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi masalalari.

Navoiyning iqtisodiy qarashlarini zamonaviy makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy nazariyalar bilan solishtirma tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, uning g‘oyalari bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti sharoitida ham o‘zining amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Maqolada Navoiy asarlaridagi iqtisodiy kontsepsiyalar birinchi marta keng miqyosda tizimli tarzda o‘rganilgan bo‘lib, bu Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy merosini chuqur anglash imkonini beradi. Tadqiqotda Alisher Navoiy asarlaridagi iqtisodiy qarashlar nafaqat uning zamonasi, balki hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolganini ko‘rsatib beriladi. Navoiy o‘z asarlarida iqtisodiy adolat, xususiy mulk huquqi, yerga egalik, mehnatni qadrlash va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish kabi muhim masalalarga e’tibor qaratgan. Uning iqtisodiy g‘oyalari asosan xalqni farovonlashtirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va adolatli iqtisodiy tizim yaratish maqsadida shakllangan. .

**Foydalangan adabiyotlar:**


1. Navoiy, A. – Mahbub ul-qulub. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
2. Navoiy, A. – Hayrat ul-abror. Toshkent: Fan, 1991.
3. Sultonov, S. – Alisher Navoiy iqtisodiy qarashlari. Toshkent: Fan, 2006.
4. Islomov, Z. – O‘zbek iqtisodiy fikri tarixi. Toshkent: Iqtisodiyot, 2004.
5. G‘ulomov, A. – XV asr O‘rta Osiyoda iqtisodiy hayot. Toshkent: Fan, 1990.


## FILOLOGIK TA’LIM IQTISODIY FANLARNI O‘RGANISH UCHUN ASOS SIFATIDA


**Norboyeva Dilafro‘za Jumaqulovna,**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada filologik ta’limning iqtisodiy fanlarni o‘rganishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Til va muloqot madaniyati iqtisodiy tushunchalarni anglash, iqtisodiy fikrlashni shakllantirish hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarda samarali ishtirok etish uchun muhim vosita hisoblanadi. Maqolada til

kompetensiyalarining iqtisodiy matnlarni tahlil qilish, biznes kommunikatsiyalarni yuritish va statistik ma’lumotlarni tushunishdagi roli ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Filologik ta’lim, iqtisodiy fanlar, til kompetensiyasi, iqtisodiy terminologiya, muloqot madaniyati, fanlararo yondashuv, kasbiy kommunikatsiya.

Bugungi kunda iqtisodiy fanlarni samarali o‘zlashtirish ko‘plab sohalarda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omillardan biridir. Ayniqsa, global iqtisodiy muhitda axborot almashinuvi, xalqaro savdo va biznes aloqalari jarayonida til bilimlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, filologik ta’lim nafaqat til va adabiyot sohasiga, balki iqtisodiy fanlarni chuqur va samarali o‘zlashtirishga ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy atamalarni to‘g‘ri tushunish, iqtisodiy matnlarni tahlil qilish va mazmunan to‘g‘ri muloqot yuritish ko‘nikmalari filologik tayyorgarlik orqali rivojlanadi. Ushbu maqolada filologik ta’limning iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqasi va bu yo‘nalishdagi integratsiyaning dolzarbligi yoritiladi.

Matnni tahlil qilish sizga asosiyni ikkinchi darajalidan ajratishga, asosiy fikrlar va g‘oyalarni ajratishga o‘rgatadi va sharhlash qobiliyatlari bu nafaqat o‘qiganingizni tushunish, balki uni talqin qilish, ma’no va muallifning niyatini chuqur o‘rganish uchun ham zarurdir. Tanqidiy fikrlash ma’lumotni xolisona baholash, an’anaviy donolikka shubha qilish va muqobil nuqtai nazarlarni izlash qobiliyatini rivojlantiradi Ushbu ko‘nikmalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiyotga tegishli. Murakkab iqtisodiy tushunchalar va nazariyalar sinchkovlik bilan tahlil qilish va izohlashni talab qiladi, analitik fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari esa iqtisodiy muammolarga samarali yechim topishga yordam beradi.

Iqtisodchi ko‘pincha o‘z nuqtai nazarini himoya qilishi va sheriklar va mijozlarni ishontirishi kerak. Iqtisodiy sohada bu ko‘nikmalar muvaffaqiyatli hamkorlik qilish, hamkasblar, mijozlar va investorlar bilan muloqot qilish uchun zarurdir, ular sizning maqsadlaringizga erishishga imkon beradi va o‘z fikrlaringizni malakali va ishonchli ifodalash qobiliyati iqtisodchiga o‘z maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Til va adabiyotni o‘rganish turli mamlakatlar, xalqlarning tarixi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Turli xil madaniy kontekstlarni tushunish sizga zamonaviy dunyoni yaxshiroq yo‘naltirishga va to‘g‘ri iqtisodiy qarorlar qabul qilishga yordam beradi, iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishga yordam beradi. Tarixiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda, iqtisodiy tendentsiyalar va naqshlarni aniqroq bashorat qilish mumkin. Odamlarning mentalitetini hisobga olgan holda qarorlar qabul qilinishiga ruxsat bering va madaniy xususiyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosat muvaffaqiyatsiz bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy matnlar, xoh shartnomalar, xoh ma’ruzalar, xoh ilmiy maqolalar bo‘lsin, texnik atamalar, jargon va qisqartmalarga to‘la tilda yozilgan bo‘lsa, filologik ta’lim matnni sinchiklab o‘qish, tahlil qilish va uning chuqur ma’nosini tushunishga o‘rgatadi. Filologlar murakkab tilni kesish, yashirin ma’nolarni tushunish va ma’lumotni juda aniqlik bilan izohlashda mohirdir. Ushbu sifat iqtisodiy ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, asosli xulosalar chiqarish va to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun zarurdir.

Iqtisodiyot shunchaki raqamlar va hisob-kitoblar emas, bu shuningdek, ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash, yangi yechimlarni izlash va strategiyalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi ijodiy fikrlashni talab qiladi.

Filologik ta’limning bir qismi sifatida tillar, adabiyot va tarixni o‘rganish ijodkorlikni rag‘batlantiradi, sizni qutidan tashqarida o‘ylashga va ahamiyatsiz bo‘lmagan echimlarni topishga o‘rgatadi.

Rahbarlar bu boshqalarni qanday ilhomlantirish va rag‘batlantirishni, yetakchilik qilishni va o‘z maqsadlariga erishishni biladigan odamlardir. Filologik ta’lim o‘ziga ishonch, notiqlik, o‘z fikrini aniq ifodalash, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish kabi fazilatlarni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, filologik ta’lim iqtisodiy fanlarni o‘rganishda muhim tayanch vazifasini bajaradi. Til bilimlari va muloqot ko‘nikmalarining yuqori darajada bo‘lishi iqtisodiy atamalarni chuqur tushunish, hujjatlar bilan ishlash, xalqaro biznes yozishmalari va muzokaralarda ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Fanlararo yondashuv asosida shakllanadigan bilimlar talabalarga keng fikrlash imkonini yaratadi va ularning kasbiy salohiyatini oshiradi. Shu bois, iqtisodiy ta’limda filologik tayyorgarlikni kuchaytirish zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. G‘ofurov, Q. (2020). Iqtisodiy fanlar asoslari. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Xasanov, B. (2019). Filologik kompetensiya va kasbiy muloqot. Toshkent: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
3. Akbarova, N. (2021). “Iqtisodiy matnlarni lingvistik tahlil qilishning usullari”, Filologiya va til ta’limi jurnali, №4, 45–49-betlar.
4. Karimova, D. (2018). Kasbiy ingliz tili: iqtisod sohasida. Toshkent: “Yangi asr avlodi”.
5. Xolmatov, I. (2022). “Fanlararo integratsiya: til va iqtisod fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlik”, Oliy ta’limda innovatsiyalar, №2(10), 33–37-betlar.


## F.K.GIRS TAFTISH HISOBOTIDA ZARAFSHON DARYOSINING YUQORI OQIMI AHOLISIDAN OLINADIGAN YIG‘IMLARNING HOLATI


**Rasulov B.G‘.,**
**O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti**
**Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti tarix kafedrasi o‘qituvchisi**
**E-mail: rasulovbaxtiyor219@gmail.com**



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada imperatorning maxfiy maslahatchisi Feodor Karlovich Girsni taftish hisoboti asosida zarafshon daryosi yuqori oqimi hududida istiqomat qilgan aholidan olingan soliqlar va yig‘imlar haqida ma’lumot berilgan.



**Kalit so‘zlar:** Turkiston, Zarafshon okrugi, F.K.Girs, 1871-yil, 1877-yil 24-noyabr, tanob, xiroj, 1874-yil.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruv tizimini taftish qilgan imperatorning maxfiy maslahatchisi Feodor Karlovich Girs, o‘lkaning barcha viloyatlari va uyezdlari qatori Zarafshon okrugining yuqori oqimidagi tog‘li hududlarda yashovchi aholining soliqlar va boshqa to‘lovlari haqida muhim ma’lumotlar qoldirgan. Uning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, Okrug ma’muriyati Zarafshon daryosining yuqori oqimida istiqomat qilib kelayotgan aholidan yig‘iladigan soliqlar masalasini chuqquroq o‘rganishga katta e’tibor qaratmagan.

1871-yilda butun Zarafshon okrugi uchun soliq yig‘ish qoidalari ishlab chiqilib, sarkor lavozimi tugatilgan, qishloqlar bo‘yicha soliq hisobotlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, oqsoqollar va aminlar soliq yig‘ish ishlariga jalb etilib, ularga ma’lum vazifalar yuklatilgan hamda imperiya amaldorlari ishtirokida maxsus nazorat qo‘mitalari tuzilib, ular yiliga 8-9 oy davomida, barcha soliq yig‘ish ishlarining boshidan oxirigacha dalada bo‘lishlari lozimligi belgilangan. [2-89-B]

Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi bosib olingan hududlarda 1871-yil tog‘li tuman deb nomlangan Okruk tarkibidagi yangi ma’muriy hudud tuzilgan bo‘lishiga qaramay, faqatgina 1877-yil 24-noyabrda okrug boshlig‘i o‘sha yil uchun aholidan soliq undirish to‘g‘risidagi qarorlariga asosan, devonxonasiga ushbu hududlar yerlari davlat mulki hisoblansada yangi tartibdagi soliqning o‘rniga xiroj va tanob undirilishi haqida batafsil hisobot tayyorlashni topshirgan. [1-388-B]

Okrug gubernatoriga taqdim qilingan hisobotda ma’lum bo‘lishicha, Zarafshonning yuqori qismidagi 302 tanob lalmikor va 1800 tanob sug‘oriladigan yerlar 1871-yildan beri davlat yerlari hisoblangan, biroq ular davlat mulki ekanligi hujjatlarda aks etmagan va bu bo‘yicha hech qanday masala ko‘tarilmagan.

Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi hududlar egallanganidan so‘ng, 1874-yilgacha aholidan soliqlar tuman mamuriyati tomonidan ishlab chiqilgan qoida asosida undirilgan. Okrug gubernatoriga qancha soliq undirilganligi va qancha qolgani haqida xabar berib turilgan. 1874-yilda okrug gubernatoridan Tog‘li tuman boshlig‘i mazkur yerlardan ilgarigidek hosilning ma’lum foizini yoki qismini xiroj sifatida olish to‘g‘risida ruxsat so‘ragan. Bu masala shunday hal etilganki, davlat yerlaridan olinadigan xiroj okrugning boshqa joylaridagi ko‘pchilik davlat yerlaridan olinadigan xiroj miqdorida bo‘lish kerakligi, ya’ni: yalpi hosildan, avvalo, har bir tanobdan ikki puddan urug‘lik uchun ajratilishi, so‘ngra sof hosilning yarmi xazina daromadiga o‘tkazilishi lozimligi belgilangan. Belgilangan yig‘im 1878-yilgacha shu hisob bo‘yicha undirib kelingan. Shundan so‘ng, Okrug boshlig‘i bu yerlar to‘g‘risida aniqroq tasavvurga ega bo‘lish maqsadida Tog‘li tuman boshlig‘iga bu ishning barcha holatlarini joyida o‘rganishni topshirgan. Keyingi hisobotdan ma’lum bo‘lishicha, aholining turli xil ko‘rsatmalari tufayli, yuqorida tilga olingan yerlarni ijaraga beriladigan yerlari yoki aholining foydalanishidagi amlok yerlari deb bo‘lmagan. Shunga qaramay, Okrug boshlig‘i ishni soddalashtirish va aholiga qulaylik yaratish maqsadida 2102 tanob yerni aholining doimiy foydalanishida bo‘lgan davlat mulki deb hisoblab, ulardan keladigan daromaddan har yili xazinaga soliq to‘lashligini belgilagan. To‘lanadigan soliq miqdori yiliga 307 so‘m 70 tiyinni tashkil etgan hamda general-gubernatorning ruxsati bilan doimiy soliqqa aylantirilgan.

F.Girs Zarafshon daryosini yuqori oqimida yashayotgan aholining to‘lab kelgan soliq tizimini batafsil o‘rganib chiqib, quyidagi xulosalarga kelgan:

1) Turkiston o‘lkasini tashkil etuvchi hududlar ustidan uzoq muddat hukmronlik qilingan bo‘lsa-da, aholining soliq to‘lash imkoniyatlari yetarlicha o‘rganilmagan;

2) O‘lkadagi mavjud soliq tartiblari chuqur tahlil qilanmagani, puxta o‘ylanib, yagona tamoyilga asoslanmagani, shuningdek, butun boshqaruv tizimi qonunchilik tartibida belgilanmagani sababli o‘lkada mustahkam soliq tizimi shakllanmagan;

3) O‘lka bosh ma’muriyatining xonliklar davrida amalda bo‘lgan yer solig‘ini yangi to‘lovar bilan almashtirishga intilishi salbiy holatarga olib kelgan, soliq me’yorlari buzilib, yig‘iladigan umumiy soliq miqdori yildan yilga ko‘payib borgan, bunga ma’muriyat vakillari o‘z xohishlariga ko‘ra qo‘shimcha ustamalar belgilaganligi sabab bo‘lgan;

4) Bunday usullarning samarasizligi, ayniqsa, Farg‘ona viloyatida yaqqol namoyon bo‘lib, viloyatning 1873-yilgi loyihasi asosidagi vazirliklar tomonidan ma’qullanmagan yer solig‘i tizimini joriy etishga 833 000 so‘m sarflangan, oqibatida viloyatning yillik daromadi 440 000 so‘mga kamaygan, soliqlarni muttasil oshirilishi mahalliy aholining noroziligiga sabab bo‘lgan.[4-67-b]

Yuqoridagilardan xulosa chiqarish mumkinki, imperiya ma’muriyati soliq tizimida olib borgan islohatari shoshma-shosharlik natijasida xatolikarga yo‘l qo‘ygan. Buning oqibatida keltirilgan zararlar xalqning gardaniga tushgan xalos.

F.Girs, chuqur tahlillari asosida soliq tizimini tartibga solish bo‘yicha ham bir qator takliflar va tavsiyalar ishlab chiqqan, unga ko‘ra:

1) O‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi yangi nizom tasdiqlangan kundan boshlab uch yil davomida yer solig‘i miqdori o‘zgarishsiz qoldirilishi lozim;

2) Xazinaga to‘lanadigan yer solig‘ini qishloq aholisi o‘rtasida taqsimlashni, qishloq jamoalarining o‘zlariga, ya’ni o‘zlari saylagan shaxslarga topshirish lozim;

3) Saylanganlar tomonidan soliqni taqsimlash har bir qishloqda faqat olinadigan hosilga qarab amalga oshirilishi, alohida imtiyozlarni hisobga olmasligi lozim;

4) Soliqarni taqsimlash va yig‘ishdagi suiste’molliklar, qishloq jamoalari tomonidan o‘rganilishi lozim;

5) Soliq taqsimotning noto‘g‘riligi haqidagi shikoyatlar xalq sudi tomonidan ko‘rib chiqilishi lozim.

O‘troq aholining soliq tizimi haqida taftish faqat umumiy tamoyillarni bayon qilgan. Girs quyidagi tamoyillar soliq tizimning asosi sifatida qabul qilinishini tavsiya qigan:

1) Yer solig‘ining asosiga yerning faqat hajmi emas, asosan uning daromadliligi qo‘yilishi lozim. O‘rta Osiyoning sug‘orish suvi taqsimotiga bevosita bog‘liq bo‘lgan dehqonchilik xo‘jaligi sharoitida, soliqqa tortish me’yori sifatida yerning o‘zi hech qanday ahamiyatga ega emas. Chunki Turkiston hududida sug‘orilmagan yerlar yaxshi daromad keltirmay, yerdan olinadigan daromad asosan sug‘orish tizimini qulayligiga bog‘liq. O‘lkada mavjud soliqlar asrlar davomida musulmonlarning diniy qonunlarida (shariat) o‘z tasdig‘ini topgan va o‘zining

adolatliligi hamda xazina uchun foydaliligi tufayli, undan ko‘ra yaxshiroq boshqa biror soliq bilan almashtirilishi qiyin;

2) imperiya hukumati tomonidan joriy qilingan soliqlarning qoldirishni iloji yo‘qligi, o‘lkaning kelajakdagi soliq tashkilotida e’tiborga olinishi kerak. Yerdan olinadigan daromad solig‘ini o‘zgartiriladigan soliq miqdori bilan muvofiqlashtirish lozim.

3) Soliq tizimining murakkab qismi shundaki faqat yerning o‘rtacha daromadini to‘g‘ri aniqlagandan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Joriy qilinadigan soliqlarni faqat volostlar emas, qishloqlar uchun ham moslashtirish lozim;

4) Hisoblangan soliq miqdori olti yil davomida o‘zgarishsiz qolishi kerak;

5) Yerdan olinadigan daromad solig‘ining miqdorini to‘g‘ri taqsimlash uchun soliq birliklariga asoslanib belgilash lozim. Har bir xo‘jalik uchun buni aniqlab chiqishning mutlaqo iloji yo‘qligi sababli qishloqlar va qishloqdan tashqaridagi mulklarlardan olinib kelgan soliqlarni oldingi holida qoldirish kerak;

6) Har bir qishloqqa belgilangan soliqni alohida xo‘jaliklar o‘rtasida taqsimlashni shu qishloq aholisining o‘ziga ular saylagan vakillari orqali havola etish kerak. Bunday taqsimot soliq miqdorining teng taqsimlash emas, balki to‘lovchining yer daromadini va undan olinadigan soliqni shariat qoidalariga muvofiq yig‘ish lzim;

7) Shu maqsadda, ya’ni daromad solig‘i tamoyilini saqlab qolish uchun, soliqning noto‘g‘ri taqsimlanishi haqidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqishni rus hokimiyatiga emas, balki qozilar sudiga yuklash zarur. Qozilar sudi, bu borada daromad solig‘i o‘zini to‘liq oqlaydigan shariatning aniq ko‘rsatmalariga ega bo‘lib, unga taqdim etilgan taqsimot haqidagi shikoyatlarni faqat shariat asosida, ko‘rib chiqish kerak;

8) Yer maydonaridan olinadigan soliq miqdorni belgilashni ekiladigan mahsulotning o‘rtacha hosili va uning shu hududdagi savdo narxini aniqlash orqali amalga oshirish lozim;

9) Soliq miqdori, oldingidek yerdan olinadigan daromadning o‘ndan bir qismini tashkil etishi kerak. Bunday soliqqa tortish davlat soliqlaridan tashqari boshqa soliqlarni to‘laydigan aholi uchun og‘irlik qilmaydi va davlat xazinasi uchun zararli bo‘lmaydi, chunki soliqqa tortishning yuqori me’yorlarida asosan dehqonchilikdan boshqa daromadi bo‘lmagan aholidan undirish soliq qarzlarini ko‘payib ketishiga sabab bo‘ladi;

10) Har bir soliq bo‘yicha o‘rtacha hosilni va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bozordagi narxlarini aniqlash, soliq miqdorini belgilash uchun 1871-yilda Zarafshon okrugida faoliyat ko‘rsatgan va ijobiy natijalar bergan komissiyalar kabi maxsus nazorat komissiyalariga topshirilishi kerak. Bu komissiyalar tarkibiga uyezd boshlig‘i yoki uning yordamchisi rahbarligida gubernator tomonidan tayinlangan amaldor va uning tanloviga ko‘ra ikki mahalliy vakil kiritilishi lozim. Mazkur komissiyalarga o‘zlariga yuklatilgan vazifani bajarish uchun alohida yo‘riqnoma berish va zarur bo‘lganda yerlarni tekshirishda mahalliy mirzolarni yordamga jalb qilish kerak;

11) Yerlarni o‘lchashni mahalliy yer o‘lchovchilar, tanobchilar yordamida amalga oshirish zarur. Ularning yer maydonlarini aniqlashlari ikkita afzallikka ega: birinchidan, mahalliy usul bilan nisbatan kam xarajatlar evaziga talab qilingan natijalarga erishiladi, ikkinchidan, bu orqali mahalliy aholi nazarida ishonchli hisoblanadi;

12) Nazorat komissiyalarining ikki yoki uch yillik ishlaridan so‘ng yakuniy xulosani chiqarib boshqaruv qo‘mitasiga topshirilishi kerak;

13) Soliq miqdori belgilangandan so‘ng, yuqorida aytib o‘tilgan vaqtinchalik choralar yoki nazorat komissiyalarining ishlari bilan amalga oshirilishidan qat’iy nazar, soliqlar bo‘yicha barcha ish yuritish, shuningdek, o‘lkaning boshqa daromadlari mahalliy G‘aznachilik Palatasiga, topshirilishi lozim.[1-98-b].

Imperatorning maxfiy maslahatchisi F.K. Girsning takliflari va tavsiyalaridan shuni anglash mumkinki, Zarafshon daryosining yuqori oqimida istiqomat qilayotgan aholidan soliqarni udirishda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rish, soliq islohatlarini amalga oshirishda mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan urf-odatari, diniy e’tiqodi, an’analarini qo‘pol tarzda buzib yangi soliqlarni joriy etish nafaqat imperiya xazinasiga zarar keltiradi, balki aholining ko‘plab norozilikariga olib kelishi mumkinigi sabab, o‘lka amaldorlariga tizimli soliq islohatlarini ishlab chiqish va shu orqali ijobiy natijalarga erishilishi keltirilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.


1. Ф.К.Гирс Отчет ревизирующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Ф. Гирса. – Санкт-Петербург: Б.м., 1884.
2. Белявский Н. Материалы по Туркестану. – Санкт-Петербург, 1889.
3. O‘z MA, 5-Jamg‘arma 1-ro‘yxat, 1312-yig‘ma jild. 1-varaq.
4. Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане (В проектах и законе 1867-1886 гг.) Ташкент: СамГУ, 1963.
5. Жумаев У.Х. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши ва динамикаси. Тошкент: TURON-IQBOL, 2020. – 176 b.


## TA’LIM XIZMATLARINI AMALGA OSHIRUVCHI NODAVLAT TASHKILOTLARDA BUXGALTERIYA HISOBINING KONSEPTUAL MASALALARI


**Mustafoyev Azimjon Farruxovich**
Samarqand iqtisodiyot va servis intituti tayanch doktorant
E-mail: a7zimjon1@gmail.com



Annotasiya. Mazkur maqolada xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ta’lim xizmatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari, nodavlat ta’lim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning dolzarb vazifalari, shuningdek ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanuvchi nodavlat tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobini yuritishning boshqa nazariy masalalari o‘rin olgan.



Kalit so‘zlar: nodavlat ta’lim tashkilotlari, ta’lim xizmatlari, moliyaviy buxgalteriya hisobi, boshqaruv buxgalteriya hisobi, ta’lim jarayoni, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

**Kirish.** Respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohalar, xususan ushbu tarmoqning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi sohalar faoliyati kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ushbu subyektlar tarkibida nodavlat ta’lim tashkilotlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur tashkilotlar tijorat va notijorat faoliyat bilan shug‘ullanishadi. Hozirgi vaqtga kelib, nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyati eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanib, aholining ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liqroq qondirish maqsadida hukumatimiz tomonidan mazkur tarmoq tashkilotlariga bo‘lgan e’tibor kun sayin oshib, ularga keng shar-sharoitlar ochib berilmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** Iqtisodiy adabiyotlarda nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, T.Timofeyevaning ilmiy tadqiqot ishida ta’lim xizmatlariga shunday tavsif berilgan: “Ta’lim xizmatlari nodavlat ta’lim tashkilotlarida pullik asosida amalga oshiriladi. Pullik ta’lim xizmatlari nodavlat oliy ta’lim muassasalarida asosiy daromad manbai hisoblanadi”[160]. Iqtisodchi olim ushbu tavsifda nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlarini oliy ta’lim muassasalari misolida yoritgan bo‘lib, ta’lim xizmatlarini amalga oshirishdan olingan daromad asosiy faoliyat natijasi ekanligini qayd etib o‘tgan.

Sh.Kuldashev “Ta’lim xizmatlari – bu belgilangan tartibda ta’lim va malaka to‘g‘risidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan muayyan kompensasiya, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish natijasi hisoblangan ta’lim faoliyatini amalga oshirish jarayonida ta’lim muassasalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat”[161] deb ta’kidlaydi. Oliy ta’lim muassasalari misolida yoritilgan ushbu ilmiy tadqiqot ishida ham ta’lim xizmatlarini faqatgina malaka va ko‘nikmalarning yig‘indisi, deb ta’riflab o‘tilgan.

Yuqoridagi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan tadqiqot natijalaridan xulosa qilib aytish mumkinki, nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarga berilgan ushbu tavsif va ta’riflar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi va ta’lim xizmatlarining alohida tomonlarini ochib beradi. Biroq, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keltirilgan ushbu ta’rif va tavsiyalar, aynan nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatlariga xos bo‘lgan jihatlarni ochib bermaydi, deb hisoblaymiz. Bu esa, bugungi tadqiqot oldida nodavlat ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan ta’lim xizmatlarining barcha jabhalarini o‘zida qamrab oladigan iqtisodiy ta’rif ishlab chiqish vazifasini yuklaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta’lim xizmatlarini amalga oshiruvchi nodavlat tashkilotlarda buxgalteriya hisobining konseptual masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatuv, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi**.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida buxgalteriya hisobining milliy standartlari o‘rganib chiqilganda ma’lum bo‘ldiki, standartlarda ta’lim xizmatlari bo‘yicha ularning buxgalteriya hisobi oldidagi umumiy xarakteristikasini yaqqol ochib beruvchi aniq bir tartiblar ishlab chiqilmagan bo‘lsada, biroq korxona va tashkilotlar tomonidan turli xil xizmatlar ko‘rsatishga oid umumiy qoidalar, ularning buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha axborotlar keltirilgan. Jumladan, 2-son BHMS “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar”[162]ning 14-bandi

[160] Тимофеева Т.В. Бухгалтерский учет доходов и расходов негосударственных образовательных учреждений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва: 2009. 171-с.

[161] Кулдашев Ш.А. Таълим хизматлари бозорида олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. -Т.: 2023.

[162] 2-сон БҲМС “Асосий хўжалик фаолиятидан тушган даромадлар” // АВ томонидан 26.08.1998 й. 483-сон билан рўйхатга олинган. https://lex.uz/acts/829551

“Xizmatlar ko‘rsatish (ishlarni bajarish)” deb nomlangan bo‘lib, unda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xizmat ko‘rsatishdan daromadlar, ularni tan olish va baholash hamda moliyaviy hisobot shakllarida aks ettirish kabi tartib-qoidalar keltirilgan. Shuningdek, ushbu standartda jami daromadlar tarkibida xizmat ko‘rsatish natijasida olingan daromadlar korxonalarning moliyaviy hisobotida alohida yoritilishi ko‘zda tutilgan (23-band).

Bundan tashqari, 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”[163]da asosiy faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar tarkibida 9030-“Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” hamda sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat) lar tannarxini hisobga oluvchi schyotlar tarkibida esa, 9130-“Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi” kabi schyotlar rejasi ishlab chiqilgan. Mazkur schyotlar rejasi xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarda, jumladan nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha jarayonlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda qo‘llaniladi.

Tadqiqotlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida ta’lim xizmatlari, ularning buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha tartib-qoidalarni ham tadqiq etishni taqozo etdi. 2-son (IAS) “Zahiralar” buxgalteriya hisobi xalqaro standartida xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarda tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi, uning tarkibiga kiritiladigan xarajatlar bo‘yicha alohida band keltirilgan.

**Xulosa.** Ta’lim xizmatlari buxgalteriya hisobining nazariy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

***Birinchidan***, ta’lim xizmatlari xalqaro va milliy ta’limotda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning muhim va ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda, eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

***Ikkinchidan***, ta’lim xizmatlari jarayonlari xizmat ko‘rsatuvchi tarmoq subyektlarining buxgalteriya hisobida alohida hisobga olinib, ushbu jarayonlar natijasi moliyaviy va boshqaruv hisobot shakllarida alohida satrlarda aks ettirilishi lozim.

***Uchinchidan,*** moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va milliy standartlarimizda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari, ularni tan olish, baholash masalalari bo‘yicha umumiy mezonlar keltirilgan bo‘lsada, biroq nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlarini hisobotlarda aks ettirishga oid alohida yondashuvlar mavjud emas.

***To‘rtinchidan,*** ta’lim xizmatlari buxgalteriya hisobining muhim obyekti ekanligiga qaramasdan ushbu atamaga hisob obyekti sifatida uning mazmun-mohiyatini aniq va atroflicha ifoda etib beruvchi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilmagan.

Xulosa qilib aytish joizki, nodavlat ta’lim xizmatlari hisobining nazariy asoslarini takomillashtirishga oid biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ushbu xulosa,

---

[163] 21-сон БҲМС “Хўжалик юритувчи субъектларнинг молия-хўжалик фаолияти бухгалтерия ҳисоби ҳисоботлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқномани тасдиқлаш тўғрисида” // АВ томонидан 23.10.2002 й. 1181-сон билан рўйхатга олинган.

ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarimiz nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlari hisobini xalqaro standartlar talablariga uyg‘unlashtirishga ko‘maklashib, nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini iqtisodiy va moliyaviy tahlil qilishda hamda bugungi buxgalteriya hisobi oldidagi mavjud muammolarini bartaraf etishda yordam beradi. Shuningdek, nodavlat ta’lim xizmatlarining nazariy asoslarini takomillashtirish bugungi kunda, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot oldidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilib, ichki va tashqi axborot foydalanuvchilar uchun nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy tomondan samarali tahlil qilish imkonini beradi.

## O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT VA UNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

**Do‘stov BahodirTashpo‘latovich**
O‘zbekiston –Finlyandiya Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada bugungi kunda ekologik muammolar va barqaror rivojlanish zarurati sharoitida yashil iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda tabiiy resurslarni tejashning muhim vositasiga aylanmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston taraqqiyotida yashil iqtisodiyotning o‘rni ko‘rib chiqiladi, bu jarayonning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilinadi.

**Kalit sozlar;** Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, tabiat va uning resurslari, ekosentrizm, Tabiatni qadrlash konsepsiyasi, innovatsion tizimlar, Ijtimoiy capital, Qiymat zanjiri.

Boy tabiiy va madaniy merosga ega bo‘lgan O‘zbekiston suv resurslarining kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o‘zgarishi kabi bir qator ekologik muammolarga duch kelmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish ushbu muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishga erishishning strategik yo‘li hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot atrof-muhit uchun xavflarni kamaytirish va inson farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy tizim sifatida ta’riflanadi. An’anaviy modellardan farqli o‘laroq, u resurslardan barqaror foydalanish, ekotizimlarni tiklash va ijtimoiy jihatlarga e’tibor qaratadi. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning iqtisodiy jihatlari so‘nggi yillarda O‘zbekistonda yashil texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qadamlar tashlanmoqda. Asosiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- Quyosh va shamol quvvati kabi qayta tiklanadigan quvvat manbalarini rivojlantirish.
- Sanoat va turmushda quvvat samaradorligi.

Ushbu chora-tadbirlar nafaqat atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratishi va aholi turmush darajasini oshirishi mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining hozirgi rivojlanish modeli bo‘yicha o‘sish chegaralarini yengib o‘tish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor bo‘lib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo‘lidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi. Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallashuviga tayangan holda, o‘z iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun,

rivojlanayotgan sohalarda yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan Moslashuvchan, Inklyuziv, Barqaror va Samarador foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli “yashil” o‘sish modeli sari yo‘lni belgilash bo‘yicha qadamlar tashlamoqda. “Yashil” o‘tishning bir qismi sifatida rivojlanayotgan yangi “yashil” va mavjud ish o‘rinlari o‘qitilgan ishchi kuchini talab qiladi va ijtimoiy inklyuzivlikni, kasbiy tayyorgarlikni, qayta malaka oshirishni va tarmoqlararo almashuvchanlikni ta’minlaydi. “Yashil” va adolatli o‘tish maqsadli rag‘batlantirish choralarini, malaka oshirish va bandlikdagi to‘siqlarni kamaytirish uchun tarkibiy islohotlarni talab qiladi”[164]. Kambag‘allar va ayollar oila boshlig‘i bo‘lgan kabi zaif guruhlar tabiiy ofatlar, ifloslanish va iqlim o‘zgaruvchanligi kabi zarbalardan nomutanosib ravishda ta’sir ko‘radilar. Shuningdek, yanada barqaror modelga o‘tishda eng ko‘p ta’sirlanish xavfi ularning zimmasiga tushadi. Adolatli o‘tishning bir qismi sifatida, ular uy xo‘jaliklari miqyosida maqsadli yordam ko‘rsatish orqali himoyalanishi kerak. Istiqbollarga qaramay, O‘zbekiston yashil iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirishda bir qator muammolarga duch kelmoqda:

- Ekologik toza texnologiyalarga sarmoyalarning yetishmasligi.
- Mavjud iqtisodiy tuzilmalarni isloh qilish zarurati.
- Ijtimoiy to‘siqlar va aholi o‘rtasida axborot yetishmasligi[165].

O‘zbekiston ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishga ko‘maklashish vositasi sifatida yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhimligini tobora ko‘proq anglab yetmoqda. Mamlakat tabiiy resurslarga, jumladan, tabiiy gaz, paxta va foydali qazilmalarning katta zaxiralariga boy, ammo suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va havoning ifloslanishi kabi jiddiy ekologik muammolarga ham duch kelmoqda.

Barqaror rivojlanish milliy strategiyasini ishlab chiqdi. O‘zbekiston 2030-yilga borib quyosh va shamol energetikasi loyihalariga e’tibor qaratgan holda quvvat tarkibida qayta tiklanadigan quvvat ulushini sezilarli darajada oshirishni maqsad qilgan. Quyida O‘zbekistonning qayta tiklanadigan quvvat tashabbuslarining asosiy jihatlari keltirilgan:

**1. Hukumatning qayta tiklanuvchi quvvat manbalari sohasidagi majburiyatlari**

*Milliy rivojlanish strategiyalari*: Hukumat o‘zining Milliy rivojlanish strategiyasi va 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning energetika strategiyasiga qayta tiklanadigan quvvat manbalari bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni kiritdi. Ushbu asoslar quvvat aralashmasini diversifikatsiya qilish va qayta tiklanadigan manbalar ulushini oshirish bo‘yicha aniq majburiyatlarni belgilaydi.

Qonunchilik bazasi: 2019-yilda O‘zbekistonda quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanadigan quvvat manbalarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan qayta tiklanadigan quvvat to‘g‘risidagi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun investorlar va xususiy kompaniyalar uchun imtiyozlarni o‘z ichiga oladi.

[164] 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

[165] R. U. Tursunova."O‘zbekistonning energetika siyosati: barqaror rivojlanishga o‘tish" - Ilmiy nashrlar to‘plami 7-son 2023 y.

**2. Quyosh quvvati potensiali.**

Quyosh resurslarining ko‘pligi O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra, yiliga o‘rtacha 300 quyoshli kunlarga ega bo‘lgan ulkan quyosh quvvati salohiyatiga ega. Bu uni keng ko‘lamli quyosh quvvati loyihalari uchun ideal nomzodga aylantiradi.Fotoelektrik loyihalar Hukumat 2030-yilgacha umumiy quvvati 5 gigavatt (GVt) bo‘lgan quyosh elektr stansiyalarini o‘rnatishni maqsad qilgan. Mahalliy va xorijiy kompaniyalar sarmoyalari ishtirokida Samarqand, Navoiy kabi viloyatlarda quyosh elektr stansiyalarini qurish loyihalari diqqatga sazovor.

**3. Shamol energetikasini rivojlantirish.**

*Shamol energiyasi salohiyati*: O‘zbekiston, ayniqsa, tog‘li va tekislik hududlarida katta shamol quvvati resurslariga ega. Hukumat turli shamol energetikasi loyihalari orqali ushbu salohiyatdan foydalanish ustida ishlamoqda.

**Tabiat bilan madaniy aloqa tabiatdagi ramziylik**: Daryolar, tog‘lar va o‘rmonlar kabi tabiat elementlari muhim madaniy va ma’naviy qiymatga ega. Bu bog‘liqlik mazkur tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga bo‘lgan mas’uliyat hissini uyg‘otadi. *Tarixiy tajribalar:* O‘zbek xalqi asrlar davomida dehqonchilik va chorvachilikka tayanib, atrof-muhit bilan uyg‘unlikda yashab kelgan. Bu tarixiy munosabatlar ekologik muvozanatni saqlash va resurslarni barqaror boshqarishning ahamiyatini madaniy tushunishni shakllantiradi.Tabiatdagi ramziylik Tabiat unsurlari daryolar, tog‘lar, o‘rmonlar katta madaniy-ma’naviy qimmatga ega. Bu bog‘liqlik tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga bo‘lgan mas’uliyat hissini uyg‘otadi.

**Jamoa va jamoaviy javobgarlik** Jamoaviylik: O‘zbek madaniyatida jamoa va jamoaviy farovonlikka katta e’tibor qaratiladi. Ushbu ijtimoiy tuzilma atrof-muhitni muhofaza qilishda hamkorlikdagi sa’y-harakatlarni osonlashtirishi mumkin, chunki jamiyat a’zolari barqaror amaliyotlarni joriy etish uchun birgalikda ishlaydilar. Hamkorlik va sheriklik munosabatlarini rivojlantirish uchun keng ko‘lamda manfaatdor tomonlarni jalb qilish. Masalan, mahalliy hokimiyat organlari mahallalar aholining iqlim bo‘yicha xabardorligini oshirish va iqlim o‘zgarishiga qarshi chora-tadbirlarni aniqlashda faol ishtirok etishlari lozim bo‘ladi. Bu juda muhim, chunki aholining eng[166] kambag‘al guruhlari iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va o‘rmon yong‘inlari xavfidan jiddiy xatarlarga duch kelishadi.

**Dehqonchilik an’analari:** *Barqaror qishloq xo‘jaligi*- Almashilib ekish, organik dehqonchilik va mahalliy urug‘lardan foydalanish kabi an’anaviy qishloq xo‘jaligi amaliyotlari biologik xilma-xillikni va tuproq salomatligini ta’minlaydi. Ushbu amaliyotlar zamonaviy barqaror qishloq xo‘jaligi tamoyillariga mos keladi va ta’lim va qo‘llab-quvvatlash orqali yanada rag‘batlantirilishi mumkin.

Suvga hurmat O‘zbekistonning qurg‘oqchil iqlim sharoitida suvni tejash doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelgan. An’anaviy sug‘orish usullari, masalan, qanotlar (yer osti kanallari) zamonaviy amaliyotda qayta tiklanishi mumkin bo‘lgan barqaror suv boshqaruvini chuqur tushunishni aks ettiradi.

[166] Abduqodirov I. "Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar: Buguni va kelajagi", T.2022y

**Tabiatga hurmat falsafasi:** *Atrof-muhit etikasi:* O‘zbek etnosi ko‘pincha tabiatga falsafiy hurmatni o‘z ichiga oladi, atrof-muhitni g‘amxo‘rlik va himoyaga loyiq tirik mavjudot sifatida ko‘radi. Bunday yondashuv jamoatchilikning ekologik tashabbuslarga nisbatan xabardorligi va faolligini oshirishi ta`minlanadi.

*Madaniy rivoyatlar:* O‘zbek madaniyatidagi folklor, she’riyat va maqollar ko‘pincha tabiat va barqarorlik mavzularini yoritib, kundalik hayotda atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishning muhimligini ta’kidlaydi.

**Ta’lim va xabardorlik:** *Ta’limda an’anaviy qadriyatlarni joriy etish*: Ta’lim dasturlariga an’anaviy ekologik bilim va qadriyatlarni kiritish orqali yosh avlodda ekologik mas’uliyat hissini shakllantirish mumkin. Madaniyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni yorituvchi dasturlar barqaror amaliyotlarni ilhomlantirishi mumkin. Ekologik ta’lim va xabardorlik kampaniyalarini targ‘ib qilish jamiyatning barqarorlikka bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga yordam beradi. Ta’lim-tarbiya tizimiga ekologik axloqni singdirish orqali yosh avlodda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirish mumkin. Yashil iqtisodiyotning afzalliklarini ta’kidlovchi ta’lim dasturlari jismoniy shaxslar va korxonalarni yanada barqaror amaliyotlarni qo‘llashga undashi aniq

**Ijtimoiy adolat va tenglik:** Yashil iqtisodiyot qayta tiklanadigan quvvat manbalari va barqaror qishloq xo‘jaligida, ayniqsa ishsizlik yuqori bo‘lgan qishloq joylarida ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy tengsizlikni hal qilish imkoniyatiga ega.

Marginal jamoalarning yashil texnologiyalar va resurslardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash ijtimoiy tenglikni ilgari surish uchun muhimdir.

Hamjamiyat va jamoalar ishtiroki:

Mahalliy jamoalar ekologik tashabbuslar bilan bog‘liq qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishlari kerak. Ushbu ishtirokchilik yondashuvi ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirishi va jamoalarga barqaror amaliyotlarni o‘zlashtirish imkonini berishi mumkin. Ommaviy harakatlar va mahalliy nodavlat notijoratlar xabardorlikni oshirish va yashil siyosatni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynashi lozim.

**Barqaror rivojlanish falsafasi:** O‘zbekistonda barqaror rivojlanish konsepsiyasini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o‘lchamlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydigan kengroq falsafiy kontekstda ifodalash mumkin.

Siyosatchilar va fuqarolar o‘rtasida barqaror fikrlashni shakllantirish uchun kelajak avlodlarning farovonligini hisobga olgan holda rivojlanishga yaxlit yondashuv zarur. Yashil iqtisodiyotga o‘tish ijtimoiy ongni o‘zgartirishni talab qiladi. Ekologik madaniyatni rivojlantirish va fuqarolarning barqaror rivojlanish muhimligi haqidagi xabardorligini oshirish muhim. O‘qitish dasturlari va mahalliy jamoalarni ekologik loyihalarga jalb qilish kabi ijtimoiy tashabbuslar tabiat va resurslarga yangicha munosabatni shakllantirishga yordam berishi mumkin[9].

Xulosa qilib aytganda. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish bilan birga dolzarb ekologik muammolarni hal qilish imkonini beradi. O‘tish jarayoniga ijtimoiy-falsafiy jihatlarni singdirish orqali O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishga yanada inklyuziv va mas’uliyatli yondashuvni shakllantirishi mumkin. Jamiyatlarni jalb qilish, ekologik axloqni targ‘ib qilish va resurslardan teng foydalanishni ta’minlash mamlakatda yashil tashabbuslarni

muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zbek xalqining tabiat bilan uyg‘unlik va tabiiy resurslarga hurmatni ta’kidlaydigan an’anaviy qadriyatlari yashil amaliyotlarni targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Ushbu qadriyatlardan foydalangan holda, O‘zbekiston atrof-muhit bilan yanada barqaror munosabatlarni rivojlantirishi, jamoatchilik faolligini rag‘batlantirishi va ekologik tashabbuslarning samaradorligini oshirishi mumkin. Madaniy qarashlarni zamonaviy barqarorlik sa’y-harakatlariga singdirish ham merosni, ham ekologik yaxlitlikni hurmat qiladigan innovatsion yechimlarga olib kelishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son // https://lex.uz/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respubliki Prezidentining 2019-yil 4- oktabrdagi «2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘grisidagi-PQ-4477-sonli qarori,
3. Ahmedov A. M. "O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi va barqaror rivojlanish" - Ilmiy nashrlar toplami T -2022 yil.4-son
4. Abduqodirov I. "Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar: Buguni va kelajagi", T.2022.
5. Tursunova R. U. "O‘zbekistonning energetika siyosati: barqaror rivojlanishga o‘tish" - Ilmiy nashrlar to‘plami 7-son 2023 y.
6. "Ekologik siyosatning ijtimoiy rivojlanishga ta’siri" - "Ekologiya va jamiyat" jurnali.5-son 2023 y
7. "Yashil iqtisodiyot: konseptual asos" - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP).
8. Yashil iqtisodiyot sari: barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo‘llari" - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi
9. "Yashil iqtisodiyot: barqaror rivojlanishning yangi modeli" - Jahon banki hisoboti.2023 y.


## GLOBALLASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYASI


**Nabiyev Maxsud Abdimannonovich**
**Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**



**Annotatsiya:** XXI asr boshlarida ro‘y bergan globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, shu jumladan yoshlarning iqtisodiy madaniyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Milliy chegaralarning xiralashuvi, axborot almashinuvining tezlashuvi va virtual makonning kengayishi yosh avlodning iqtisodiy bilimlarini shakllantirish, moliyaviy xulq-atvorini rivojlantirish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini egallash usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu maqolada globallashuv va axborotlashgan

jamiyat sharoitida yoshlarning iqtisodiy madaniyatidagi transformatsiyalar, ularning ijobiy va salbiy jihatlari hamda bu jarayonlarning kelajakdagi tendensiyalari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, axborotlashgan jamiyat, iqtisodiy madaniyat, transformatsiya, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik, iste’molchilik, raqamli iqtisodiyot, tendensiya.

Globallashuv yoshlarning iqtisodiy dunyoqarashini kengaytirish, turli xalqlar va madaniyatlarning iqtisodiy tajribalari bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Xorijiy ta’lim dasturlari, xalqaro tajriba almashinuv loyihalari va internet orqali chet el axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati yoshlarga global iqtisodiy jarayonlar, xalqaro moliya institutlari va transmilliy korporatsiyalar faoliyati haqida bilim olish imkonini beradi. “Hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarning roli va o‘rnini baholash quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin:

jamiyatdagi yangi o‘zgarishlarning umumiy tabiati va jamiyat qonunlari asosidagi avlodlar almashinuvi;

yoshlarning ijtimoiy faolligi jihatidan farqlanishi;

yoshlarda mobillik o‘sishi darajasini tahlil qilish;

ijtimoiy ta’sir doirasidagi ijtimoiy faoliyat subyekti sifatida yoshlarning erishayotgan, bir-birining yutuqlaridan xabardorligi”.[1]

Bundan tashqari, globallashuv iste’mol madaniyatining tarqalishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Global brendlar, reklama va marketing kampaniyalari yoshlarning didi va preferensiyalarini shakllantirib, ularni global iste’molchilar hamjamiyatining bir qismiga aylantiradi. Bu holat yoshlarning moliyaviy xarajatlari va iste’mol xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning keng miqyosda rivojlanishi va internet infratuzilmasining tobora takomillashuvi ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, xususan, yoshlar iqtisodiy madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot makonining kengayishi va uning har bir foydalanuvchiga ochiqligi iqtisodiy bilimlarning demokratik tarzda tarqalishiga, moliyaviy xizmatlarning ommalashishiga va tadbirkorlik madaniyatining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Birinchidan, internet resurslari yoshlar uchun iqtisodiy savodxonlikni oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Global tarmoqlar orqali investitsiya asoslari, shaxsiy moliya boshqaruvi, byudjet tuzish va iqtisodiy strategiyalar kabi yo‘nalishlarda taqdim etilayotgan bepul va pullik o‘quv resurslari, onlayn kurslar, interaktiv platformalar yoshlarga mustaqil bilim olish imkonini taqdim etmoqda. Bu esa iqtisodiy bilimlarni faqat rasmiy ta’lim doirasida emas, balki o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali chuqurlashtirishga yo‘l ochadi.

Ikkinchidan, raqamli moliyaviy xizmatlarning kirib kelishi va ommalashuvi yoshlarning kundalik hayotida moliyaviy faoliyat yuritish uslublarini tubdan o‘zgartirdi. Raqamli banklar, onlayn to‘lov tizimlari, mobil ilovalar va elektron hamyonlar yordamida amalga oshiriladigan tezkor va xavfsiz tranzaksiyalar yoshlarning moliyaviy resurslarni boshqarish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Bu esa ularda moliyaviy mustaqillik, rejalilik va xarajat-mablag‘ nisbatini anglash kabi madaniy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Uchinchidan, internet iqtisodiy faoliyat yuritish uchun yangi maydon – virtual tadbirkorlik makonini yaratdi. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron savdo tizimlari yoshlar uchun o‘z biznes g‘oyalarini sinovdan o‘tkazish, xizmat va mahsulotlarni iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazish, xaridorlar bilan interaktiv muloqot o‘rnatish va samarali marketing strategiyalarini joriy qilish imkoniyatini bermoqda. Bu holat esa yosh avlod orasida tadbirkorlik ruhining kuchayishiga, yangi iqtisodiy tashabbuslarning vujudga kelishiga va o‘z-o‘zini band qilishning ko‘payishiga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat shundaki, axborot erkinligi va global tarmoqlarga chiqish imkoniyati yoshlarni xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ochiqlikka yo‘naltirmoqda. Ular chet el bozorlari bilan tanishish, xorijiy iste’molchilar bilan hamkorlik qilish, xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali o‘z iqtisodiy salohiyatini kengaytirishga harakat qilmoqda. Bu esa ularning global iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh bo‘lishiga, o‘z iqtisodiy faoliyatida ilg‘or tajriba va texnologiyalarni qo‘llashiga zamin yaratmoqda. “Axborot texnologiyalari savdo va biznes sektorini qurish va rivojlantirishga yordam beradi va maksimal mumkin bo‘lgan mahsulot ishlab chiqaradi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan turli tarmoqlarning biznes yaratish uchun sarflagan vaqti endi minimallashtirildi. Bu elektron xavfsizlik, saqlash va samarali aloqani ta’minlaydi”.[2]

Demak xborotlashgan jamiyat yoshlar iqtisodiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Bu jarayonda internet va raqamli texnologiyalar yoshlarning iqtisodiy savodxonligini oshirish, moliyaviy muomalalarda mustaqillikka erishish, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va global iqtisodiy makonga moslashish kabi ijobiy tendensiyalarni kuchaytirmoqda. Shu tariqa, axborot makoni faqat bilim va aloqa vositasi emas, balki iqtisodiy ong va madaniyatni shakllantiruvchi strategik muhit vazifasini bajarmoqda.

Ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, globallashuv va axborotlashgan jamiyat yoshlarning iqtisodiy madaniyatida ayrim salbiy tendensiyalarni ham keltirib chiqarishi mumkin:

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarining kengayishi va global tarmoqlarning hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borishi yoshlar iqtisodiy madaniyatida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi bilan birga, salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Mazkur salbiy tendensiyalar yosh avlodning iqtisodiy ongini, moliyaviy xatti-harakatlarini va iqtisodiy qarorlar qabul qilish mexanizmlarini deformatsiyaga uchratmoqda. Quyida ushbu salbiy holatlarning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Axborot oqimi haddan tashqari kuchaygan sharoitda yoshlar kundalik ravishda turli reklama, marketing va ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibot materiallariga duch kelmoqda. Bu esa ongli iste’molni emas, balki hissiyotga asoslangan, impulsiv xaridlarni rag‘batlantirmoqda. Raqamli marketing texnologiyalarining psixologik manipulyatsiyalarga asoslangani yoshlarda “ko‘rinishga asoslangan hayot tarziga” intilish, keraksiz yoki ortiqcha mahsulotlarni xarid qilish odatini kuchaytirmoqda. Bu holat iste’molchilik madaniyatining iqtisodiy madaniyatni siqib chiqarishiga olib

kelmoqda. Natijada, foydali va zaruriy xarajatlar o‘rniga qisqa muddatli lazzatlar uchun moliyaviy resurslar sarflanmoqda.

Axborotlashgan muhitning ochiqligi va virtual iqtisodiy operatsiyalarning soni ortishi bilan birga, yoshlar turli moliyaviy firibgarlik sxemalariga duch kelish xavfini boshdan kechirmoqda. Soxta investitsiya platformalari, “phishing” (soxta havolalar orqali ma’lumot o‘g‘irlash), moliyaviy piramida tizimlari kabi sxemalar aynan internetdan faol foydalanuvchi yosh avlodni nishonga oladi. Ehtiyot choralarining yetarli emasligi va moliyaviy bilimlarning yuzaki bo‘lishi ularni firibgarlik qurboniga aylantirishi mumkin. Bu esa nafaqat moddiy zarar, balki iqtisodiy ishonchning pasayishiga ham olib keladi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va globallashuv natijasida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar har doim ham barcha yoshlar uchun teng darajada ochiq emas. Texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmasiga ega, til va zamonaviy kasblarni egallagan yoshlar tezroq iqtisodiy muvaffaqiyat sari odimlayotgan bo‘lsa, bu resurslardan chetda qolganlar jamiyatda ortda qolish xavfi bilan yuzma-yuz kelmoqda. Raqamli tafovut – ya’ni texnologik vositalarga kirish darajasidagi farq – natijasida ayrim guruhlar rivojlanishdan uzoqlashmoqda. Bu esa yoshlar orasida iqtisodiy imkoniyatlarning notekis taqsimlanishiga, natijada ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning kuchayishiga olib keladi.

Zamonaviy dunyo shiddat bilan raqamlashtirilmoqda, globallashuv jarayonlari esa insoniyat hayotining barcha jabhalarini o‘zgartirib yubormoqda. Ayniqsa, yosh avlod ushbu transformatsiyaning eng faol ishtirokchisiga aylangan. Kelajakda axborotlashgan jamiyat va globallashuvning yoshlar iqtisodiy madaniyatiga ta’siri yanada chuqurlashib borishi kutilmoqda. Bu holat bir tomondan yangi imkoniyatlar eshigini ochsa, boshqa tomondan iqtisodiy madaniyatning shakllanishida yangicha yondashuvlarni zarur qiladi. Quyida kelajak uchun xos bo‘lgan asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi.

Kelajak iqtisodiyotining poydevorini aynan raqamli texnologiyalar tashkil etadi. Elektron tijorat (e-commerce), kriptovalyutalar, blokcheyn tizimlari va sun’iy intellekt imkoniyatlari yoshlar uchun iqtisodiy faoliyatda ilgari mavjud bo‘lmagan yo‘nalishlarni ochmoqda. An’anaviy moliyaviy institutlardan mustaqil ishlovchi vositalarning kengayishi yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlabgina qolmay, ularning moliyaviy savodxonligini ham yangicha yo‘nalishga yo‘naltirmoqda. Ayniqsa, tokenlashgan iqtisodiyot va metaverse ichida yaratilayotgan virtual bozorlar yoshlar uchun innovatsion iqtisodiy muhitni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Kelajakda ish bozori an’anaviy “butun umrga bitta kasb” modelidan chekinib, qisqa muddatli, moslashuvchan va loyiha asosidagi ish shakllariga o‘tadi. Ayniqsa, gig-iqtisodiyot (ya’ni freelancing, onlayn xizmatlar, masofaviy loyiha asosida ishlash) yoshlar orasida keng tarqaladi. Bu tendensiya nafaqat daromad olish manbalarining diversifikatsiyasiga, balki yoshlarning iqtisodiy avtonomligiga ham sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, bu jarayon ulardan yuqori darajada o‘zini o‘zi boshqarish, vaqtni rejalashtirish va o‘zini doimiy malakali ishchi sifatida saqlab qolish ko‘nikmalarini talab qiladi. “L.V. Lapidusning fikriga ko‘ra, gigonomika (hygonomics) yoki gig-iqtisodiyot (gig economy) – bu doimiy ish o‘rniga qisqa

muddatli mehnat shartnomalari va yangi turdagi qisman bandlik shakllarining keng tarqalishidir. Shu bilan birga, gigonomikani ishchi kuchi/professional ko‘nikmalarning umumiy foydalanishga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy modeli sifatida tushunish lozim. Bunda xodim bir vaqtning o‘zida dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan turli kompaniyalarda bir nechta lavozimlarni bajarishi mumkin bo‘ladi, bu esa raqamli (elektron) xizmatlar orqali amalga oshiriladi”.[3],[4]

Yoshlar avlodi kelajakda atrof-muhit, ijtimoiy tenglik va ekologik adolat masalalariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ular nafaqat daromad olish, balki iqtisodiy faoliyat orqali ijtimoiy mas’uliyatni amalga oshirish tarafdori bo‘lib bormoqda. Shu sababli, yashil iqtisodiyot, barqaror ishlab chiqarish va ekologik toza iste’mol madaniyati yoshlar iqtisodiy madaniyatining ajralmas qismiga aylanadi. Ayniqsa, ekologik mahsulotlar, energiya tejamkor texnologiyalar va axloqiy investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi tendensiyalar kuchayadi.

Kelajak iqtisodiyoti o‘zgaruvchan, dinamik va noaniqliklar bilan to‘la bo‘lishi sababli, yoshlar doimiy o‘rganishga tayyor bo‘lishlari kerak. An’anaviy statik bilimlar o‘rniga, yangilanishga tayyor, texnologik, moliyaviy va ijtimoiy ko‘nikmalarni birlashtirgan ta’lim modellari zarur bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar “hayot davomida o‘qish” g‘oyasini iqtisodiy madaniyatning muhim komponentiga aylantiradi. Shu bilan birga, onlayn kurslar, mikrosertifikatlash, modul asosida bilim berish kabi shakllar iqtisodiy savodxonlik va zamonaviy kasblar egallashda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kelajakda globallashuv va axborotlashgan jamiyatning yoshlar iqtisodiy madaniyatiga ta’siri tobora murakkab, lekin imkoniyatlarga boy shaklga ega bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar, gig-iqtisodiyot, ekologik mas’uliyat va ta’lim tizimidagi moslashuvchanlik kabi omillar yoshlarning iqtisodiy tafakkurini shakllantiruvchi asosiy faktorlar sifatida maydonga chiqadi. Shu bois, kelajak iqtisodiy madaniyati — bu nafaqat texnologik yangiliklarga moslashuv, balki ijtimoiy mas’uliyat, atrof-muhitni asrash va shaxsiy rivojlanishga asoslangan integrativ yondashuv bo‘lishi zarur. Yoshlar aynan ushbu murakkab, ammo istiqbolli iqtisodiy muhitda yetuk qarorlar qabul qila oladigan madaniyatli iqtisodiy sub’yekt sifatida shakllanishlari kerak bo‘ladi.

Globallashuv va axborotlashgan jamiyat yoshlarning iqtisodiy madaniyatida chuqur va ko‘p qirrali transformatsiyalarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonlar yoshlarga yangi imkoniyatlar ochib berish bilan birga, ayrim xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Yoshlarning iqtisodiy savodxonligini oshirish, ularni moliyaviy mas’uliyatga o‘rgatish, tadbirkorlik ruhini qo‘llab-quvvatlash va salbiy ta’sirlardan himoya qilish davlat, ta’lim muassasalari va jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Kelajakda yoshlarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish g‘oyalari va global hamkorlik muhim rol o‘ynaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев Л.Н. Замонавий ўзбекистон жамиятида ёшлар иқтисодий маданиятининг трансформациялашуви - инновацион социомаданий феномен сифатида: Фалс. фан. док. ... дис. –Самарқанд: СамДУ, 2021. - 167 б.

2. Komilova Z.X. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №2) ISSN 2181-1709 (P) B-234-237.
3. Машкин А.Л., Гоголина Е.С., Глаголева С.В. Тенденции гиг-экономики на современном этапе // Вектор экономики, 2020. – № 9 (51). – С. 8.
4. Романец Ирина Игоревна, and Вербовский Геннадий Дмитриевич. "Гиг-экономика как новая форма рыночных отношений" // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, no. 1 (51), 2021, pp. 186-192.

# O‘ZBEKISTONDAGI MEHMONXONA XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA OSIYO MINTAQASI TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

**Fayzullayev X.**
SamISI magistranti

**Annotasiya:** Maqola "O‘zbekistondagi mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirishda Osiyo mintaqasi davlatlari tajribasidan foydalanish" mavzusida bo‘lib, Yaponiya, Xitoy, Tailand va Hindistonning innovatsion yondashuvlari, barqarorlik strategiyalari va texnologik yechimlari O‘zbekiston kontekstida tahlil qilinadi. Bulutli boshqaruv tizimlari, ekoturizm va noyob tajribalar orqali turizm potentsialini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Osiyo tajribasi mehmonxona sektorini modernizatsiya qilishda muhim yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Mehmonxona xo‘jaligi, Osiyo mintaqasi, Turizm, Innovatsiya, Barqarorlik, Texnologiya, Bulutli tizimlar, Mijozlar tajribasi, Ekoturizm, Bozor talabi, Hukumat siyosati, Operatsion samaradorlik, O‘zbekiston, Madaniy meros, Infratuzilma, Raqobatbardoshlik, Investitsiyalar, Turizm potentsiali, Modernizatsiya, Strategiya

O‘zbekistonda mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirish uchun Osiyo mintaqasi davlatlari tajribasidan foydalanish nafaqat dolzarb, balki juda muhim ahamiyatga ega. Yaponiya, Xitoy, Tailand va Hindiston kabi davlatlar mehmonxona sanoatida innovatsiyalar, barqarorlik va mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar bo‘yicha yetakchilik qilib, O‘zbekiston uchun qimmatli saboqlar taqdim etishi mumkin. Ushbu tajriba O‘zbekistonning boy madaniy merosi va turizm potentsialidan samarali foydalanishga yordam beradi. Quyida Osiyo tajribasining asosiy jihatlari va O‘zbekiston kontekstidagi imkoniyatlar batafsil yoritiladi.

1. **Osiyo tajribasining ahamiyati.** Osiyo mintaqasi mehmonxona xo‘jaligida global miqyosda namunaga aylandi. Bu davlatlar zamonaviy texnologiyalar, noyob tajribalar va ekologik barqarorlikni muvaffaqiyatli birlashtirib, turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqdi. Masalan:Yaponiya ibodatxonalarda turish kabi noyob tajribalar orqali wellness turizmni rivojlantirdi. Xitoy bozor talabi va hukumat qo‘llab-quvvatlashi bilan mehmonxona sanoatini kengaytirdi. Tailand bulutli texnologiyalarni qo‘llab, operatsion samaradorlikni oshirdi.O‘zbekiston ushbu

tajribadan foydalanib, o‘zining turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishi va xalqaro sayyohlarni jalb qilishda raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.[1]

2. **O‘zbekistonning mehmonxona potentsiali.** O‘zbekiston turizm sohasida katta imkoniyatlarga ega:Boy madaniy meros: Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlar UNESCO Jahon merosi ro‘yxatida joylashgan bo‘lib, sayyohlarni o‘ziga jalb qiluvchi asosiy omillardir.Tabiiy go‘zalliklar: Chimgan tog‘lari, Aydarko‘l va Farg‘ona vodiysi ekoturizm uchun katta potentsialga ega.Geografik joylashuv: Markaziy Osiyoda strategik joylashuvi O‘zbekistonni mintaqaviy turizm markaziga aylantirishi mumkin.Ammo hozirgi kunda mehmonxona sektori modernizatsiya va xizmat sifatini oshirishga muhtoj. Osiyo tajribasi bu potentsialni to‘liq ishga solish uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.[2]

3. **Texnologik innovatsiyalardan foydalanish.** Osiyo mehmonxonalari zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bulutli Property Management Systems (PMS) tizimlari operatsion samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Tailanddagi mehmonxonalar ushbu tizimlar yordamida daromadni 18% ga oshirgan.O‘zbekiston uchun imkoniyatlar:Samarqand yoki Toshkentdagi mehmonxonalar bulutli PMS tizimlarini joriy qilib, bronlash jarayonlarini avtomatlashtirishi mumkin.Kichik va o‘rta mehmonxonalar uchun bu texnologiyalar qulay narxlarda mavjud bo‘lib, resurslarni samarali boshqarishga yordam beradi.[3]

4. **Noyob tajribalar yaratish.** Osiyo mehmonxonalari sayyohlarga unutilmas tajribalar taqdim etishda yetakchi. Yaponiyada ibodatxonalarda turish yoki Hindistonda inklyuziv turizm loyihalari bunga misol bo‘la oladi.O‘zbekiston uchun imkoniyatlar:Tarixiy karvonsaroylarni mehmonxonaga aylantirib, sayyohlarga o‘zbek madaniyati bilan tanishish imkonini berish.O‘zbek oshxonasi bo‘yicha master-klasslar yoki an’anaviy musiqa kechalarini tashkil etish.Mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari bilan tanishtirish orqali o‘ziga xos brend imidjini shakllantirish.

5. **Barqarorlik va ekoturizm.** Osiyo davlatlarida ekoturizm va yashil amaliyotlar keng tarqalgan. Bu nafaqat atrof-muhitni asrashga xizmat qiladi, balki sayyohlarni jalb qilishda ham muhim omil hisoblanadi.O‘zbekiston uchun imkoniyatlar:Mehmonxonalarda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish (masalan, quyosh panellari).Chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini yo‘lga qo‘yish.Mahalliy organik mahsulotlarni mehmonxona menyularida qo‘llash.

6. **Bozor talabi va hukumat siyosati.** Xitoy tajribasi hukumat qo‘llab-quvvatlashi va bozor talabining muhimligini ko‘rsatadi. 1978-yildan boshlab ochiq eshik siyosati Xitoyda mehmonxona sanoatini jadal rivojlantirdi.O‘zbekiston uchun imkoniyatlar:Hukumat tomonidan soliq imtiyozlari va investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish.Turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat dasturlari ishlab chiqish.Tarixiy obidalarni restavratsiya qilish va ulardan turizm maqsadlarida foydalanish.

7. **Operatsion samaradorlik va mijozlar bilan ishlash.** Osiyo mehmonxonalari mijozlar qoniqishini oshirish uchun onlayn reputatsiya boshqaruvi va tezkor xizmatlarga e’tibor beradi.O‘zbekiston uchun imkoniyatlar:Mehmonxona xodimlarini o‘qitish va motivatsiya qilish.Onlayn bronlash tizimlarini

takomillashtirish va sharhlarga tezkor javob berish.Sun’iy intellekt asosidagi chat-botlar orqali 24/7 xizmat ko‘rsatish.

**Xulosalar:**

Osiyo mintaqasi davlatlari tajribasi O‘zbekiston uchun mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirishda muhim yo‘l ko‘rsatuvchi hisoblanadi. Texnologik innovatsiyalar, noyob tajribalar, barqarorlik va hukumat qo‘llab-quvvatlashidan foydalanish O‘zbekistonning turizm potentsialini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarning madaniy merosi, tabiiy go‘zalliklari va strategik joylashuvi ushbu strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu sababli, Osiyo tajribasini O‘zbekiston kontekstiga moslashtirib, mehmonxona sektorini modernizatsiya qilish va global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish zarur.

Osiyo mintaqasi davlatlarining mehmonxona xo‘jaligidagi muvaffaqiyatli tajribasi O‘zbekiston uchun turizm va mehmonxona sektorini rivojlantirishda muhim yo‘riqnomadir. Texnologik innovatsiyalar, barqaror amaliyotlar va mijozlarga yo‘naltirilgan noyob tajribalar O‘zbekistonning boy madaniy merosi va tabiiy resurslarini global bozorda samarali targ‘ib qilish imkonini beradi. Hukumat qo‘llab-quvvatlashi va strategik investitsiyalar bilan ushbu tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali O‘zbekiston xalqaro turizm markaziga aylanishi mumkin.

O‘zbekistonning mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirishda Osiyo mintaqasi tajribasi muhim yo‘l ko‘rsatuvchi sifatida xizmat qiladi. Yaponiya, Xitoy va Tailand kabi davlatlarning bulutli tizimlar, ekoturizm va innovatsion xizmatlardan foydalanish amaliyotlari O‘zbekistonning turizm potentsialini oshirish uchun moslashtirilishi mumkin. Madaniy meros va zamonaviy infratuzilmani uyg‘unlashtirgan holda, O‘zbekiston global sayyohlarni jalb qiluvchi va iqtisodiy foyda keltiruvchi mehmonxona sanoatini barpo etishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5283956
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-9-son farmoni // https://www.lex.uz/docs/-6759637
3. Tuxliyev I.S., Abduhamidov S.A. “Turizm: nazariya va amaliyot”. Darslik. - T.: “Fan va texnologiya”, 2021.
4. Hotel Management - "Top 10 Asia-Pacific countries with the strongest hotel industry growth"
5. ScienceDirect - "What Determines the Location Choice of Multinational Hotel Groups in China?"[2]
6. Sabre Hospitality - "Hello, World! 3 Innovations Every Hotel Owner in Asia Should Know"[3]

7. https://www.hotelmanagement.net/development/top-10-asia-pacific-countries-strongest-hotel-industry-growth
8. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S027843191100079X
9. https://www.sabrehospitality.com/resources/article/hello-world/
10. https://www.hotelogix.com/case-studies/

## SENTOB QISHLOG‘INING TURISTIK SALOHIYATI

**Zokirova Feruza Zohidjon qizi**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiy xavfsizlik yo‘nalishi
feruza29072005@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Azizqulov A.A.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiy viloyati Nurota tumanida joylashgan Sentob qishlog‘ining turizmni rivojlantirish sohasidagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Qishloqning tabiiy go‘zalligi, qadimiy yodgorliklari, madaniy obidalari va mahalliy aholi tomonidan taqdim etilayotgan servis xizmatlarining imkoniyati batafsil yoritilgan. Maqolada ushbu qishloqning turistik salohiyatidan unumli foydalanishga oid xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sentob qishlog‘i, sayyohlar, turizm, ulkan tosh, g‘orlar, tog‘lar, ekoturizm, mehmon uylar, madaniy meros, sayyohlar oqimi.

**Kirish:** Nurota tumanining markazidan 120 km uzoqlikda joylashgan Sentob qishlog‘i o‘zining betakror tabiati va qadimiy tarixi bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Tog‘lar orasida joylashgan bu maskanda tomosha qilishga arzigulik ko‘plab joylar mavjud. Tasvirlab bo‘lmas toza havo, qushlarning tinimsiz sayrashi, atrofda uchib turgan xonqizilar, kechki shafaq, buloqlarning shildirashi, gullar ifori, do‘stlar, kechalari yulduzlarga to‘la osmon Sentobning asosiy xususiyatidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi farmoni bilan Nurota tumanidagi Sentob qishlog‘iga rasman turizm qishlog‘i maqomi berildi. Qishloqda turizm yo‘lga qo‘yilishi bilan 200 ga yaqin ishsiz aholi, jumladan xotin-qizlar doimiy ish o‘rinlariga ega bo‘ldi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan joy olgan Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida Nurota tumanida “Sentob” turizm qishlog‘ida 30 dan ortiq tadbirkorlik sub’ektlari faoliyat ko‘rsatib, bu yerda 20 ta oilaviy mehmon uylari, 3 ta mehmonxonalar hamda 15 turdagi turizm xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan. Qishloqqa Angliya, Germaniya, Fransiya, Avstriya, Rossiya va boshqa davlatlardan xorijiy sayyohlar tashrif buyurishmoqda. Bu yerga o‘rtacha bir kunda 300 nafar, bir yilda esa qariyb 45 ming nafar sayyoh tashrif buyurmoqda. “Yaqin yillarda qishloqqa Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Gollandiya, Avstraliya, Shveytsariya, Belgiya kabi mamlakatlardan ko‘plab

sayyohlar tashrifi kutilmoqda. Ular bizning tarixiy obidalarimiz, buloqlarimiz, ko‘llarimiz, sharsharalarimiz, shuningdek, tog‘ tepasidagi qadimiy qo‘rg‘onimizni tomosha qilishadi”, — deydi “Guest House Mutabar’S” mehmon uyi rahbari Shodiboy Boboyev[167]. 2023-yil 16-20 oktabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi doirasida eng yaxshi turizm qishlog‘i bo‘lish uchun nomzodlar ro‘yxatiga O‘zbekistonning jami 5 ta manzili — Samarqand viloyatidagi Konigil, Navoiy viloyatidagi Sentob, Surxondaryo viloyatidagi Sangardak, Jizzax viloyatidagi Uxum va Farg‘ona viloyatidagi Avval turizm qishloqlari kiritilgan. Bunda “2023 yilning eng yaxshi turizm qishloqlari”ni taqdirlash marosimida Navoiy viloyati Nurota tumanidagi Sentob qishlog‘i “Eng yaxshi turizm qishlog‘i” deb e’tirof etildi. Marosimda UNWTO bosh kotibi Zurab Pololikashvili nominatsiya nafaqat rivojlangan hududlarga, balki o‘z qadriyatlarini saqlagan va an’analarini targ‘ib qilayotgan qishloqlarga ham sayyohlar e’tiborini jalb qilishda xizmat qilishini ta’kidlar ekan, shunday deydi: “Biz turizmni qishloq hayoti taraqqiyotining drayveriga aylantirishni maqsad qilganmiz. 2021-yilda tashkil etilgan “Eng yaxshi turizm qishloqlari” nominatsiyasi qishloqlardagi hayotni yanada yaxshilash borasidagi ishlarimizning debochasi, xolos”.[168] Navoiy viloyati turizm va sport boshqarmasining axborotiga ko‘ra, Sentobda mehmon uylari sonini ko‘paytirish va sayyohlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Sentob qishlog‘i infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida qishloqqa olib boruvchi 5 km ichki yo‘l ta’mirlandi, tungi yoritish chiroqlari, 2 ta piyodalar ko‘prigi, 2 ta selfi hudud, 3 ta sanitariya-gigiyena shoxobchasi, Sentob qishlog‘ining ramziy kirish stellaji, 1 ta turistik axborot markazi qurildi. Sentobdagi oilaviy mehmon uylari va mehmonxonalarga belgilangan standartlar asosida “Oilaviy mehmon uyi” yozuvi tushirilgan yo‘l ko‘rsatish belgilari o‘rnatilgan. Mavjud 12 ta madaniy meros ob’ekti va diqqatga sazovor joylar, 15 ta tabiat manzarasi hududlarlarida obodonlashtirish ishlari amalga oshirilib, turizm marshrutiga kiritilgan.

**Tahlil:** Hozirgi vaqtda Sentob qishlog‘ida mehmonxonalarga misol qilib “DAMIRBEK” OK, “XARSANGI-KALON” OK, “SINTOBISTON” OK, “NAZAROVA GULBAXOR QURBONOVNA” YaTT, “VOSILOVA SANGIMO YUSUPOVNA” YaTT, “NURATOU TOUR OF SENTOB PEARL” XK va boshqa mehmonxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Xususan “MANZARAHOI SENTAB” mehmonxonasi 18ta xonadan iborat va u 50 nafar turist uchun mo‘ljallangan. “SENTOB TAGI JAR” MCHJni xonalari soni 4ta bo‘lib, 20 ta o‘rindan iborat. Shu bilan birga “SENTOB-SHAXI-MUSTAFO” XK mehmonxonasi 40 kishiga mo‘ljallangan va xonalari soni 12ta. Mehnat resurslari tarkibi 2010-yilda 531,6 ming kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 52,9 ming kishiga oshib, 584,5 ming kishini tashkil etgan. Iqtisodiy faol aholi qatlami esa 13 yil mobaynida 33,7 ming kishiga o‘sib, 2023-yilda 234,4 ming nafarni ko‘rsatmoqda. Navoiy viloyati hududlari bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni aniqlanganda Nurota tumanida 2017-yilda iqtisodiy faol aholi soni 40,7 ming kishini, ishsizlik

[167] Navoiydagi Sentob qishlog‘iga rasman «turizm qishlog‘i» maqomi berildi // https://kun.uz/21936578#
[168]Navoiydagi Sentob qishlog‘iga rasman «turizm qishlog‘i» maqomi berildi // https://kun.uz/21936578#

darajasi esa 4,7 % bo‘lgan. 2023-yilga kelib 36,9 ming kishi iqtisodiy faol aholi sonini, 7,3 % ishsizlik darajasidir. Bunda 2023-yilgi iqtisodiy faol aholi soni bazis yilning 90,6 % ini tashkil qilmoqda va bu ko‘rsatkich 9,4 % ga pasaygan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Nurota tumani Sentob qishlog‘i turizmni rivojlantirish tizimida boy imkoniyatlarga ega. Mazkur salohiyatdan unumli foydalanish uchun xorijiy va mahalliy turistlarga xizmat ko‘rsatish darajasini yuqori darajada namoyon etish kerak. Qishloqning turistik imkoniyatlarini mahalliy va xalqaro darajada keng targ‘ib etish kerak. Qishloqning turistik salohiyatidan unumli foydalanish aholi bandligi, ish bilan ta’minlanganlik darajasi daromad manbalarining kengayishiga, turmush darajasining farovonlashishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-5841063#-5842914
2. Navoiy viloyatida turizm qishlog‘i tashkil etilmoqda // https://yuz.uz/uz/news/navoiy-viloyatida-turizm-qishlogi-tashkil-etilmoqda
3. Sentob // https://uz.wikipedia.org/wiki/Sentob
4. Sentob sayyohlarning sevimli maskaniga aylanadi // https://uza.uz/oz/posts/sentob-sayyohlarning-sevimli-maskaniga-aylanadi_464407
5. Sentob // https://uzbekistan.travel/uz/o/sentob/

# MUNDARIJA


| T/r | Maqola muallifi | Maqola va tezis mavzusi | bet |
|---|---|---|---|
| | **Po‘latov M.E.** | **Kirish so‘zi.**<br>**Ajdodlar ilmiy merosi – milliy tarbiyaning asosi** | 3 |
| **1-SHO‘BA GLOBALLASHUV KONTEKSTIDA TA’LIM-TARBIYANI MODERNIZATSIYALASHTIRISH VA UNDA MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI** | | | |
| **1.** | **Pardayev M.Q.** | Globallashuv sharoitida ma’naviy qadriyatlarimizga vorislikni saqlab qolishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni | 5 |
| **2.** | **Кушаков Ш.С.** | Тренды нигитологической рефлексии в современном философском дискурсе (от онтологии к постонтологии) | 9 |
| **3.** | **Saitkasimov A.** | Ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilishning zamonaviy texnologiyalari | 12 |
| **4.** | **Ochilov J.A.** | O‘zaro hamkorlikda – sinergetik yondashuv | 16 |
| **5.** | **Azizqulov A.A., Abduraxmonov I.A.** | Axborotlashtirish va axborot maydonida yoshlarni ma’naviy tahdid va axborot xurujlaridan himoya qilishning metodologik muammolari | 18 |
| **6.** | **Ro‘zimurodov S.M., Shermatova D.M.** | Zamonaviy O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasida maktab ta’limi va oilaviy tarbiyaning o‘rni | 21 |
| **7.** | **Xashimova S.X.** | O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish va uning imkoniyati cheklangan o‘smirlar psixologik tarbiyasidagi o‘rni | 25 |
| **8.** | **Komilov R.R.** | Jismoniy madaniyat va sportning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi ahamiyati | 30 |
| **9.** | **Muxamedov A.X., Rasulova N.** | Models and components of professional competence in english language teaching | 32 |
| **10.** | **Xakimov D.A.** | Globallashuv davrida yoshlarning axloqiy qadriyatlardan begonalashuvi | 35 |
| **11.** | **Taniqulov J.A.** | O‘zbekistonda raqamli ta’lim tizimining media tizimi bilan o‘zaro integratsiyasi | 38 |
| **12.** | **Toshpulatov O.N.** | Globallashuv sharoitida axloqiy befarqlik va begonalashuvning immoralizmga transformatsiyasi | 41 |
| **13.** | **Yaxyayeva S.A.** | Yoshlarni jismoniy barkamolligini rivojlantirishda sport estetikasining ahamiyati | 43 |
| **14.** | **Eshbekov B.N.** | OAV va OKV – davlat va jamiyat o‘rtasidagi strategik kommunikatsiya ko‘prigi sifatida | 46 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **15.** | **Haqqulov N.Q., Roʻziqulov A.I.** | Ekofalsafa: insoniyatning tabiat oldidagi masʼuliyati | 49 |
| **16.** | **Isroilov Q.T.** | Boʻlajak kadrlarni pedagogik kompetentligini oshirishda interaktiv metodlardan foydalanish | 54 |
| **17.** | **Sayidova M.Gʻ.** | Taʼlim - tarbiyani modernizatsiyalash jarayonida milliy va maʼnaviy qadriyatlar deformatsiyasini oldini olish zarurati | 56 |
| **18.** | **Ahmadjonov T.A.** | Ijtimoiy tarmoqlardagi tavakkalchilikka asoslangan oʻyinlarning kelib chiqishi va taʼsir etish xususiyatlari | 58 |
| **19.** | **Xoʻjamov Z.A.** | Yoshlarning maʼnaviy begonalashuvini oldini olishda milliy meros namunalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari | 62 |
| **20.** | **Jurayeva Sh.B., Rasulov N.O.** | The influence of social media on language change in modern English | 64 |
| **21.** | **Dustov J.A.** | Sport turizmi orqali jismoniy madaniyat oʻqituvchilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirish | 67 |
| **22.** | **Hotamov M.A.** | Jismoniy tarbiya va sport sohasida falsafiy-estetik yondashuvlar | 69 |
| **23.** | **Hotamov M.A.** | Oliy taʼlim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport fanlarining samaradorligini oshirish usullari | 72 |
| **24.** | **Мулладжанова Х.Я., Нарзуллаева Ж.Х.** | Роль нравственной ценности в воспитании молодёжи | 75 |
| **25.** | **Мулладжанова Х.Я., Ризаев М.** | Роль наследия и духовности в современном образовании XXI века | 78 |
| **26.** | **Xakimov M.F.** | Globallashuv sharoitida Oʻzbekiston taʼlim turizmini rivojlantirishning falsafiy-madaniy masalalari | 82 |
| **27.** | **Botirov Z.S.** | Axborotlashgan jamiyat-ijtimoiy davlatning ijtimoiy-axloqiy jihatlari | 85 |
| **28.** | **Raxmonov D.N.** | Milliy sport turi sifatida kurashning ijtimoiy va pedagogik vazifalari | 88 |
| **29.** | **Xujanova M.Z.** | Badiiy asarlarning oʻquvchilar nutqini oʻstirishda ahamiyati | 91 |
| **30.** | **Atakulov M.S.** | Sogʻlom turmush tarzi yoshlar salomatligining kafolati | 96 |
| **31.** | **Toshtemirova R.T.** | Umumtaʼlim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatiga taʼsir qiluvchi omillar | 98 |

| 2-SHO‘BA. MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ILMIY VA MA’NAVIY-MA’RIFIY MEROSINI TATBIQ QILISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA MODELLAR | | | |
|---|---|---|---|
| **32.** | **Xolbekov A.** | Markaziy Osiyo mutafakkirlari siyosiy qarashlarining ayrim jihatlari | 102 |
| **33.** | **Karimov S.K.** | Tasavvuf falsafasining o‘qitilishi zarurligi uning qonun va kategoriyalari | 104 |
| **34.** | **Azizqulov A.A., Tug‘izov N.X.** | Boburnomada Mirzo Ulug‘bek siyratiga tavsif | 109 |
| **35.** | **Ergasheva M.X.** | Markaziy Osiyo ta’lim va tarbiya falsafasining ma’naviy-axloqiy asoslari | 112 |
| **36.** | **Alimov A.N.** | Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ijtimoiy-axloqiy faollikning o‘rni | 117 |
| **37.** | **Yusupov M.S.** | Allomalarimiz ilmiy merosida “salomatlik” va “kasallik”tushunlarini falsafiy tahlili | 121 |
| **38.** | **Ernazarova S.K.** | Qoraqalpoq shoirlarining ijodida demokratik va gumanistik g‘oyalarning ifodalanishi | 124 |
| **39.** | **O‘rozov Sh. Z.** | Amir Temur davlat boshqaruvida ratsionallik yondashuvi | 126 |
| **40.** | **O‘rozov Sh. Z.** | Temuriylar davrida musiqa madaniyatining rivoji | 129 |
| **41.** | **Yusupaliyev O.O.** | Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy siyosiy va ma’naviy - axloqiy qarashlari | 133 |
| **42.** | **Мирзаева Н.Б., Максимов А.Ю.** | Влияние наследия Аль-Хорезми на современный мир | 136 |
| **43.** | **Quvvatov S.I.** | Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari kontekstida fazilatli jamiyat konsepsiyasining tahlili | 139 |
| **44.** | **Buxarov Sh.X.** | Zahiriddin Muhammad Bobur davlat boshqaruvida shaxs va jamiyat munosabatlarining falsafiy tahlili | 142 |
| **45.** | **Tug‘izov N.X.** | Boburiylar tarixini U.Erskin tomonidan yoritilishi | 145 |
| **46.** | **Rabbimova F. Sh.** | Tasavvuf va futuvvat ta’limotlarining zamonaviy ma’naviy tarbiyada o‘rni | 148 |
| **47.** | **Orzukulov A.O.** | Yusuf Xos Hojibning harbiy-siyosiy qarashlari | 151 |
| **48.** | **Bektemirov Sh.X.** | Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari va uning o‘rganilishi | 154 |
| **49.** | **Abduraxmonov I.A.** | Yusuf Xos Xojibning ilmiy merosida ratsionallik tamoyili | 157 |
| **50.** | **Toshtemirova R.T.** | Sharq mutafakkirlari rahbarning boshqaruv qobiliyati xususida | 160 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **51.** | **Hamidova P.M.** | Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosining tarixiy ahamiyati | 162 |
| **52.** | **Maqsudova Z.U.** | Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Jaloliddin Manguberdi jasoratining tarixiy ahamiyati | 165 |
| **3-SHO‘BA. JADIDLAR MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATIDA YANGICHA YONDASHUVLAR, ULARNING HOZIRGI ZAMON TA’LIM TIZIMIDAGI ROLI VA AHAMIYATI** | | | |
| **53.** | **Azizqulov A.A., Kushakov Sh.S.** | Jadidlar faoliyatida yangicha tafakkur formatlari: ijtimoiy-ma’naviy kontekst va shakllanishi | 168 |
| **54.** | **Turatov Sh.B.** | Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi, jadid namoyondalari va ularning faoliyati | 171 |
| **55.** | **Tursunova O.F.** | Jadid namoyondasi behbudiyning bugungi kun yoshlari ma’naviy tarbiyasining asosi | 174 |
| **56.** | **Kuchkarova F.X., Yusupov M.S.** | Jadid allomalarining tilimiz ravnaqiga oid qarashlari xususida ayrim mulohazalar | 177 |
| **57.** | **Xidirov X. I.** | Jadidlar faoliyati – ilm-fanni rivojlantirishdagi muhim qadam sifatida | 181 |
| **58.** | **Farxodjonova N. F.** | Jadidlar ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida yangicha yondashuvlar | 184 |
| **59.** | **Farxodjonova N. F.** | Jadidlar harakati: milliy madaniyat modernizatsiyasiga yo‘l ochgan ma’naviy meros | 187 |
| **60.** | **Haqqulov N.Q., Xolmuradova Z.T.** | Jadid maktablarida xotin-qizlar ta’limi: imkoniyatlar va to‘siqlar | 191 |
| **61.** | **Yusupov M.S.** | Abdurauf Fitrat asarlarida oila va farzand tarbiyasi masalalari | 194 |
| **62.** | **Sharipov Sh.Z., Rahmatova M.Sh.** | Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik qarashlarining hozirgi zamon ta’limidagi roli va ahamiyati | 197 |
| **63.** | **Isomiddinov Y. Yu.** | Fitratning vatanparvarlik qarashlarini ta’lim jarayonida qo‘llash metodikasi | 200 |
| **64.** | **Sharipov Sh.Z., Umurboqiyev J.** | Abdulla Avloniyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati | 202 |
| **65.** | **Isomiddinov Y.Yu., Abdujabborov N.O.** | Saidahmad Siddiqiy Ajziyy - jadidchilik harakatining namoyandasi | 205 |
| **66.** | **Isomiddinov Y.Yu., Toshmaxamatov S.O.** | Jadidchilik harakati va Vadud Mahmudning ijtimoiy-siyosiy faoliyati | 207 |
| **67.** | **Sharipov Sh.Z.** | Turkiston jadidlari ma’naviy-ma’rifiy faoliyatining bugungi kundagi ahamiyati | 209 |
| **68.** | **Daniyarov Sh.E.** | Sharq allomalarining qarashlarida ta’lim-tarbiyaning ahamiyati | 211 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **69.** | **Umarova M.Yu., Sharifjonov O.O.** | XX asr boshi O‘rta Osiyoda jadidlarning o‘rni va roli | 215 |
| **70.** | **Mardonov** R.**R.** | Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’limni rivojlantirishga doir qarashlaridagi innovatsion yondashuv | 218 |
| **71.** | **Abdulfaizova D.I.** | Jadidlar qarashlarida oilaviy tarbiya va iqtisodiy zo‘ravonlik muammosini yoritilishi | 222 |
| **4-SHO‘BA. UCHINCHI RENESSANS POYDEVORIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY VORISLIK ATTRAKTORLARI** | | | |
| **72.** | **Кушаков Ш. С.** | Топикстартер как генератор маргинальной философии | 225 |
| **73.** | **Xudoyqulov Y.A.** | Ilm – fan va ma’rifat uchinchi renessansni amalga oshiruvchi muhim omil sifatida | 229 |
| **74.** | **Yuldasheva D.B.** | Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida ijtimoiy tanqid va ayol taqdiri | 232 |
| **75.** | **Mahkamov Q.** | Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida xotira muammosi | 235 |
| **76.** | **Kuchkarova F.X.** | Oilada huquqiy tarbiyaning ahamiyati: huquqiy asoslar va ijtimoiy zarurat | 237 |
| **77.** | **Komilov R.R.** | O‘zbek nikoh munosabatlari institutsional tizimi evolutsiyasining falsafiy-huquqiy tahlili | 241 |
| **78.** | **Alikulov K.X., Haqnazarova S.** | Uchinchi Renessans poydevorida shaxs estetik faolligining tarixiy-milliy va etnomadaniy rivojlanish xususiyatlari | 245 |
| **79.** | **Alikulov K.X., Mamaraximov K.X.** | Yangi O‘zbekistonda estetik tafakkur va milliy madaniyat barqarorligi | 248 |
| **80.** | **Ro‘zimurodov S. M., Absattorov B.M.** | Mahalla tizmida sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishning ijtimoiy - axloqiy aspektlari | 251 |
| **81.** | **Ro‘zimurodov S.M.** | O‘zbek oilasining aksiologiyasi va ijtimoiy-axloqiy jihatlari | 254 |
| **82.** | **Eshonqulov L.N.** | O‘zbek qiziqchilik san’ati haqida | 259 |
| **83.** | **Hamdamov I.A.** | Yangi O‘zbekistonda inson oliy qadriyat | 262 |
| **84.** | **Boboqulova X. E.** | O‘zbekiston tarixida demokratik islohotlar va fuqarolik institutlarining rivojlanish bosqichlari | 266 |
| **85.** | **O‘rozov Sh. Z.** | Buyuk sohibqiron Amir Temur – millatimiz faxri | 268 |
| **86.** | **Murotov A.I.** | Raqamli inqilob davrida o‘zbek oilaviy qadriyatlari barqarorligida avlodlararo vorisiylikning ahamiyati | 271 |
| **87.** | **Nuriddinova G.O‘.** | Qadriyatlar ijtimoiy-falsafiy tahlil obyekti sifatida | 274 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **88.** | **Ochilov A.Q.** | Raqamli transformatsiya jarayonida o‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va ma’naviy-axloqiy mezonlarning shakllanishi | 277 |
| **89.** | **Yuldashev Yo.** | Mahallada ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni | 280 |
| **90.** | **Saydiyev** S.**A.** | Yangi O‘zbekistonda inson resurslarini shakllantirishda ma’naviy merosning roli | 283 |
| **91.** | **Sharipova Sh.X.** | O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish sohasidagi vorislik jarayonlari | 286 |
| **92.** | **Maxanova F.M.** | Maqsud Shayxzoda she’riyatidagi badiiy obraz xarakterini yoritishda sinonimlarning ahamiyati | 291 |
| **93.** | **Omonturdiyev O.G‘.** | Yoshlar –Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari | 295 |
| **94.** | **Xujanova M.Z.** | Toponimlarning uslubiy xususiyatlariga doir | 299 |
| **5-SHO‘BA. “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANISHI VA UNING FALSAFIY-METODOLOGIK MUAMMOLARI** | | | |
| **95.** | **Yaxshilikov J.Ya., Xaydarov A.N.** | Ishlab chiqarish va iste’mol ortishi jarayonida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarining o‘zgarishi | 303 |
| **96.** | **Kushakov Sh. S.** | IT-yashil iqtisodiyot raqamli iqtisodiyotning yangi modeli sifatida | 307 |
| **97.** | **Karimov S.K., Ro‘ziqulov A. I.** | Yoshlar tadbirkorligi va raqamli iqtisodiyot: O‘zbekiston misolida yangi tendensiyalar | 311 |
| **98.** | **Djuraev L.N.** | Yoshlarda ishbilarmonlik va tadbirkorlik madaniyatini yuksaltirishda iqtisodiy xulq-atvorni o‘rni | 318 |
| **99.** | **Xashimov Sh. J.** | O‘zbekistonda ekologik turizm, uning rivojlanish strategiyasi va muammolari | 322 |
| **100.** | **Xashimov Sh. J.** | O‘zbekistonning xalqaro imidji yuksalishida milliy turizmning tutgan o‘rni | 326 |
| **101.** | **Absattorov B.M., Toshmurodov M.I.** | “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil oila” modelida axloqiy murosa muvozanatini ta’minlash | 333 |
| **102.** | **Ashurov A.U., Ro‘zimurodov O‘.M.** | Yashil iqtisodiyotda yashil oilaning o‘rni (ijtimoiy-falsafiy tahlil) | 338 |
| **103.** | **Maxmudov L.U.** | Xizmat ko‘rsatish sohasida elektron tijoratning o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish metodlarini optimallashtirish | 342 |
| **104.** | **Maxmudov L.U.** | Elektron tijorat bozori salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirish | 346 |
| **105.** | **Alikulov K.X., Haqnazarova S.** | “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlanishining axloqiy va estetik istiqbollari | 350 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **106.** | **Ashurova J. J., Davronova S., Haqqulov N.Q.** | Islom iqtisodiy tamoyillarining zamonaviy iqtisodiy tizimlarga ta’siri: O‘zbekiston tajribasi misolida | 354 |
| **107.** | **Ro‘ziqulov A. I., Haqqulov N.Q.** | Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kasblarning paydo bo‘lishi va uning mehnat bozori dinamikasiga ta’siri | 358 |
| **108.** | **Odilova S.A.** | Iqtisodiy hayotda Alisher Navoiy ijodiy merosining ahamiyati va uning zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar bilan bog‘liqligi | 367 |
| **109.** | **Norboyeva D.J.** | Filologik ta’lim iqtisodiy fanlarni o‘rganish uchun asos sifatida | 369 |
| **110.** | **Rasulov B.G‘.** | F.K.Girs taftish hisobotida Zarafshon daryosining yuqori oqimi aholisidan olinadigan yig‘imlarning holati | 371 |
| **111.** | **Mustafoyev A.F.** | Ta’lim xizmatlarini amalga oshiruvchi nodavlat tashkilotlarda buxgalteriya hisobining konseptual masalalari | 375 |
| **112.** | **Do‘stov B.T.** | O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari | 378 |
| **113.** | **Nabiyev M.A.** | Globallashuv va axborotlashgan jamiyatda yoshlar iqtisodiy madaniyatining transformatsiyasi | 382 |
| **114.** | **Fayzullayev X.** | O‘zbekistondagi mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirishda Osiyo mintaqasi tajribasidan foydalanish | 387 |
| **115.** | **Zokirova F.Z.** | Sentob qishlog‘ining turistik salohiyati | 390 |

# “MA’NAVIY MEROSDA VORISLIK VA UNING XXI ASR TA’LIM-TARBIYASIDAGI O‘RNI”

**ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLAR TO’PLAMI**

**(2025-yil 29-may)**

**“STAP-SEL” MChJ nashriyoti,**
**Samarqand - 2025**

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
© **“STAP-SEL” MChJ** nashriyoti Samarqand – 2025

**Qog‘oz bichimi A5, 60x841/16, Ofset qog‘ozi.**
**“Times New Roman” garniturasi.**
**Nashr bosma tabog`i 25.0**
**Buyurtma №_____. Adadi 50 nusxa**

---

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining**
**matbaa bo`limida chop etildi.**
**LICENSE № 025316.**
**REESTR № X-119112.**
**Manzil:** Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.